

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**IQTISODIYOT FAKULTETI  
YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR BIZNES  
KAFEDRASI**  
**IQTISODIY XAVFSIZLIK**

**fanidan**

**O' Q U V – U S L U B I Y  
M A J M U A**

<u>Bilim sohasi:</u>	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
<u>Ta`lim sohasi:</u>	410000 – Biznes va boshqaruv
<u>Ta`lim yo`nalishi:</u>	60310400 – Iqtisodiy xavfsizlik

**Namangan-2023**

Ushbu o'quv uslubiy majmua "Iqtisodiy xavfsizlik" fanidan ishlab chiqiylgan o'quv dasturi asosida tayyarlangan hamda Namangan davlat universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2023yil "30" avgustdagি 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchi:**

**Sh.Lutpidinov**

NamDU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasi (PhD),, katta o'qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

**K.Sirojiddinov**

NamDU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasi i.f.n., dots

**D.Boymirzayev**

NamDU "Menejment" kafedrasi muduri, (PhD),, dots

Fanning o'quv uslubiy majmuasi "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasi kafedraning 2023 yil 28 avgustdagи 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tkazilgan va fakultet kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:**

**B.Urinov**

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Iqtisodiyot fakultetining kengashining 2023 yil 29 avgustdagи 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tkazilgan va universitet kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Fakultet dekani:**

**N.Narzullayev**

## **MUNDARIJA**

Betlar

<b>I. O'QUV MATERIALLARI</b>	4
1.Kirish	5
2. Ma'ruza matnlari	8
3. Amaliy mashg'ulotlar	411
<b>II. MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI</b>	414
<b>III. GLOSSARIY</b>	424
<b>IV. ILOVALAR</b>	438
1. Ishchi o'quv dasturi	439
2. Testlar	455
4. Baxolash mezonlarini qo'llash bo'yicha ko`rsatmalar	505
5. Tarqatma materiallar (slaydlar)	508
6. O'quv-uslubiy majmuaning elektron variant	534

# O'QUV MATERIALLAR

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini shakllanishi davrida yangi vujudga kelayotgan strategik tavakkalchiliklar ta’sirida iqtisodiy xavfsizlikning nazariy masalalariga qiziqish keskin o‘sib bormoqda. Xavfsizlik ushbu konteksda hayotiy faoliyatning barcha sohalaridagi o‘zgarishlarni va o‘zaro aloqadorliklarni ifodalovchi integral tavsiflovchi ko‘rsatkich sifatida baholanmoqda. Buning natijasida O‘zbekistonning iqtisodiy xavfsizligi nazariyasini fanlararo har jihatdan rivojlanib bormoqda.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi birinchi navbatda ishlab chiqaruvchi kuchlarning holati va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mamlakat xo‘jaligida fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish ko‘lamlari, tashqi iqtisodiy aloqalar tuzilmasi bilan aniqlanadi. Shundan kelib chiqib davlatning iqtisodiy xavfsizligining moddiy asosini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni va fuqarolarni madaniylashgan turmush tarzini ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘lgan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanganligi tashkil etadi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi iqtisodiyotni rivojlanishi va barqarorligi tushunchalari bilan yaqin bog‘liq bo‘lib hisoblanadi. Milliy xo‘jalikni rivojlanishi iqtisodiy xavfsizlikning muhim bir komponentlaridan biridir. Agar iqtisodiyot rivojlanmasa, u holda davlatning tashqi va ichki salbiy ta’sirlarga nisbatan qarshiligi keskin kamayadi. Mamlakat milliy xo‘jaligining barqarorligi yagona tizim sifatida uning elementlarini, ular o‘rtasidagi iqtisodiy va tashkiliy aloqalarni mustahkamligini hamda ishonchlilagini, tashqi va ichki bosimlarga bardosh bera olishini ifoda etadi. Shu bilan birga, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligining asosiy omillariga: uning geografik joylashuvi; tabiiy resurslar zaxirasi; sanoat va qishloq xo‘jaligi salohiyati; ijtimoiy-demografik rivojlanish darajasi va yakunida davlat boshqaruvi sifati tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligi tushunchasi mazmuni, ya’ni davlat iqtisodiyotining muhim elementlarini majmuali qiyosiy statistik holatda ko‘rish mumkin. Ularga: inson resurslari, texnik ishlab chiqarish, texnologik, oziqovqat, yoqilg‘i-energetik, transport, ma’muriy axborot va boshqa elementlardan iborat. Boshqacha aytganda, O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligi – bu nafaqatgina milliy manfaatlarni himoyalanganligi, balki hokimiyat institutlari tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirishda milliy manfaatlarni himoyalash mexanizmlarini yaratishga tayyorligi hamda ushbu sohada ko‘nikmalarga egaligi bilan ifodalananadi.

Darslikda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning nazariy va metodologik asoslari hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini takomillashtirish qonuniyatlari, uning alohida uslublari va instrumentlarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Alohida misollar, statistik va ekspert

tahlillar asosida mamlakat va uning mintaqalariga tahdidlar hamda tavakkalchilik omillarini aniqlash, iqtisodiy xavfsizlikning asosiy indikatorlarini baholash va ularni tahlikali darajalari bilan mosligini baholash mumkin.

O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyotning mazmuni uni namoyon bo‘lish shakllari, korrupsiyaning mohiyati hamda vujudga kelish sabablari, unga qarshi kurash metodlari va usullari keng yoritilgan.

Darslikda keltirilgan materiallarni o‘rgangandan so‘ng kursant quyidagilarni bilishi kerak:

- iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning tamoyillari va usullari; respublika iqtisodiyoti taraqqiyotining xarakterli xususiyatlari; xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘llari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- fanning predmeti va obyekti; iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlarini; iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etadigan ichki va tashqi tahidlarni; globallashuv jarayonlarini; iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish yo‘llarini; mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarning tahlilini amalga oshirish; davlatning makroiqtisodiy funksiyalari; mavjud ijtimoiyiqtisodiy muammolar va ularni hal etish mexanizmlaridan foydalanish, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning umumiy strategiyasini nazariy va uslubiy asoslarini bilishi hamda ulardan foydalana olishi;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning xorij tajribasini qo‘llay olish; xufyona iqtisodiyot va korrupsiya natijasida vujudga keladigan tahidlarning iqtisodiyotga ta’sirini hisob-kitob qilish; aholining turmush darajasiga bevosita ta’sir etuvchi ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilish va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga 2020-yil 29-dekabrda qilgan murojaatnomasida — Barchamiz yaxshi bilamizki, bugungi kunda butun insoniyat koronavirus pandemiyasi degan global ofatni boshidan o‘tkazmoqda. Bunday ulkan falokat jahon miqyosida so‘nggi yuz yilda ro‘y bermagan, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Oxirgi ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoning 191 mamlakatida 81 million kishi koronavirus bilan kasallangan. Ulardan 1 million 765 ming nafari vafot etgan. Pandemiya jahon iqtisodiyoti uchun – shunga e’tibor bering – har oyda qariyb 400 milliard dollar miqdorida zarar keltirmoqda. Bugungi kunga qadar dunyo bo‘yicha 500 millionta ish o‘rni yo‘qotilgan. Afsuski, bu ofat butun insoniyat qatori xalqimiz uchun ham kutilmagan tashvish va murakkab muammolarni keltirib chiqardi. Buxoro va Sardobada yuz bergen tabiiy va texnogen ofatlar ham el-yurtimizning irodasini yana bir bor sinovdan o‘tkazdi. Xalqimizning bukilmas irodasi, fidokorona mehnati hamda matonati, aholi va davlat organlarining birgalikdagi sa’y-

harakatlari tufayli mavjud qiyinchiliklarni mardona yengib o‘tmoqdamiz<sup>1</sup> , -deb ta’kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28yanvardagi —2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidalgi PF-60-sonli Farmoniga muvofiq, tasdiqlangan Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta’minalash sharoitida 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida quyidagi muhim ustuvor vazifalar belgilangan.

Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur‘atlarini ta’minalash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda «daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish:

- Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalash va yillik inflatsiya darajasini 2023-yilgacha bosqichma-bosqich **5 foizgacha** pasaytirish.
- Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta’minalash.
- Har bir tuman byudjetining kamida 5 foizini «Fuqarolar byudjeti» dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish.
- Davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSh dollaridan oshib ketmasligini ta’minalash<sup>2</sup>.

Iqtisodiy xavfsizlik fani bo‘yicha mazkur darslikni tayyorlashda respublikamiz va xorijning zamonaviy o‘quv adabiyotlaridan, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalashning turli darajalari bo‘yicha normativ hujjatlar va aktlardan foydalanilgan. Darslik O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan 2019-yil 26-iyuldagи buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv fani dasturiga to‘liq mos keladi va O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining barcha kursantlari, magistrлari, aspirantlari va iqtisodiyot sohasidagi bilimlarga qiziquvchi barcha kitobxonlar ham foydalanishlari mumkin.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi// Xalq so‘zi, 2020 yil 30 dekabr.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi —2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidalgi PF-60 sonli Farmoni// <https://yuz.uz/news>.

## **I –mavzu Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va nazariy asoslari**

**Reja:**

**1.1-§. Iqtisodiy xavfsizlik fanining predmeti va vazifalari**

**1.2-§. Iqtisodiy xavfsizlikning mazmuni, mohiyati va tarkibiy elementlari**

**1.3-§. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va iqtisodiy xavfsizlik masalalari**

### **1.1-§. Iqtisodiy xavfsizlik fanining predmeti va vazifalari**

Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyot nazariyasi fanining sintetik kategoriyasi bo‘lib, iqtisodiy mustaqillik va qaramlik, barqarorlik hamda bog‘liqlik, iqtisodiy bosim, majburlash, agressiya, iqtisodiy suverenitet va h.k. tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lib hisoblanadi. Mamlakat, davlat xavfsizligi, shuningdek, ularning tarkibiy qismlari bo‘lgan hudud, korxona (tashkilot), alohida olingan shaxs xavfsizligini ta’minlash muammosi hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ammo xavfsizlik masalasi insoniyat paydo bo‘lgan barcha davrlarda mavjud bo‘lgan. Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiy kategoriya sifatida davlatchilik shakllangan hamda jamiyat o‘z manfaatlarini anglab yetgan davrlardan paydo bo‘la boshlagan.

Iqtisodiy xavfsizlik – zamonaviy fanlardan biri bo‘lib, iqtisodiy xavfsizlik tizimi qonunlari, qonuniylarli, tamoyillari, omillari va shu bilan birga, tizim elementlari bo‘lgan iqtisodiy xavfsizlikning metodlari hamda mexanizmlarini o‘rganuvchi va tadqiq qiluvchi fan hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik kategoriyasining mazmunini tushinish uchun xavfsizlik tushunchasining mazmunini aniqlash lozim.

Xavfsizlik tushinchasi ijtimoiy organizmning hayotiy muhim manfaatlarini, uning tuzilmasini tashqi va ichki negativ omillardan himoyalanganlik holati hamda uni rivojlanish tendensiyasi tushuniladi. Hayotiy muhim manfaatlar – bu yalpi talab bo‘lib, uni qondirilishi davlat va uning hududlarini, jamiyatni, xo‘jalik subyektlarini, shaxsni barqaror mavjud bo‘lishini hamda ularni progressiv rivojlanishini ta’minlaydi.

Ushbu ta’rif xavfsizlik tushunchasi mazmunini to‘la ifoda etib, unda obyektga hech qanday tahdid yo‘q, uning mustaqilligi, yaxlitligi ta’minlangan va mavjud turli xavf-xatarlardan, tahdidlardan himoyalangan holati deb baholash mumkin. Har qanday obyektning xavfsizligi – bu uning oldida turgan muammolarni hal eta olishi, agarada kutilmagan holatlarda xavfxatar, tahdidlar paydo bo‘lsa, ulardan himoyalanishi va o‘zining to‘la ishchanlik holatini tiklay olishi tushuniladi.

Xavfsizlikka intilish har qanday biologik tizimlarga xos bo‘lgan xususiyat bo‘lib hisoblanadi. Biroq faqatgina insonlargina xavf-xatarlarning tavsifini tadqiq etish asosida tahdidlardan himoyalanadigan, ularni yo‘qqa chiqaradigan yo‘nalishlarni, kerak bo‘lsa, ularni to‘la bartaraf etadigan mehnat jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan yangi

mexanizmlarini tashkil etish orqali mehnat faoliyatining mos shakllari va metodlarini tanlashi mumkin.

Insonlarni xavfsizligini ta'minlash mexanizmi (tahdidlarga bo'lgan munosabat va undan himoyalanish chora-tadbirlari) ijtimoiy va biologik individlarni bir-biridan farqlovchi asosiy mezon bo'lib, jamiyatda xavfsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida uning mazmunini ohib beradi. Ijtimoiy tafakkurda xavfsizlikka intilish uni ijtimoiy-iqtisodiy hodisaga aylantiradi. Xavfsizlik asosida mehnat faoliyati yotadi, uning hisobiga jamiyat mavjud bo'ladi, o'zgaradi va rivojlanadi.


Biroq xavfsizlik ijtimoiy, shu bilan birga, iqtisodiy omillarga tayanadi, ya'ni mehnat mahsulotlarini yaratish va uning harakati bilan bog'liq bo'ladi. Xavfsizlikni ta'minlashda ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o'zaro bog'liqligi, xavfsizlikni jamiyatda zaruriy ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida ifoda etadi. Shu nuqtayi nazardan ham —Iqtisodiy xavfsizlik fani xavfsizlikni o'rganadi.

Iqtisodiy xavfsizlikning mazmuni bu iqtisodiyotning va hokimiyat institutlarining shunday holatiki, unda milliy manfaatlar, mamlakatning ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlari, tashqi va ichki jarayonlarning noqulay ssenariyida rivojlanishiga qaramasdan, yetarli iqtisodiy hamda mudofaa salohiyatini kafolatlangan tarzda himoyalaydi.



Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning shunday holatiki, unda jamiyatning butun Yalpi ehtiyojlari qondiriladi, uning iqtisodiy mustaqilligi va barqaror rivojlanishi, taraqqiyoti va jahon iqtisodiyotida munosib o'rinni, ichki hamda tashqi tahdidlardan ishonchli himoyani ta'minlaydi.

«Iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasi, albatta, «bardoshlilik»ni taqozo etadi. Ta'kidlash joizki, iqtisodiy xavfsizlikning aksariyat belgilari «bardoshli» tushunchasiga uyg'un, zero, iqtisodiyotning iqtisodiy bardoshliligi uning tarkibiy unsurlari, tizim ichidagi vertikal, gorizontal va boshqa aloqalarning mustahkam hamda ishonchlilagini, «ichki» va «tashqi» bosimga chidamlilagini aks ettiradi (1.2-rasm).



## 1.2-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik mazmuni

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashishi va ishlab chiqarish, oziq-ovqat, energetika, moliya hamda boshqa sohalarda inqiroziy holatlarning kuchayishi va raqobat kurashining tobora shiddatli tus olishi sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda.

Bugungi rivojlanish strategiyalarini tez o'zgarishi, iqtisodiy noaniqlik sharoitida milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash darajasini oshirishda zamon talablaridan kelib chiqib, yangi yondashuvlarga, strategiyalarga zarurat tug'iladi. Masalan, mintaqada inqiroziy jarayonlarni va xavf-xatarlarni o'z vaqtida bartaraf etilsa, u holda milliy iqtisodiyot darajasida global inqiroziy holatlarni vujudga kelishi tavakkalchiligining oldi olingan bo'ladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning nazariy asoslari va uning amaliy jihatlari to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lmay turib, davlat hamda mahalliy hokimiyatlar globalizatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiy, axborot, energetik va boshqa turdag'i xavfsizlikni oldini olish hamda funksional vazifalarini samarali ijro etishda, ular bilan bog'liq muammolarni majmuali hal eta olmaydi.

 **Iqtisodiy xavfsizlik fanining predmeti** globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi va iqtisodiy noaniqlik sharoitida milliy iqtisodiyotda iqtisodiy, axborot, energetik hamda boshqa turdag'i xavfsizlikning oldini olish uchun barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ijtimoiy ehtiyojlarni optimal darajada qondirish, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarning himoyalanganligi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni o'rganadi.

 **Iqtisodiy xavfsizlik fanini o'rganishdan maqsad** – talabalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hamda ichki va tashqi tahdidlar to'g'risida nazariy tushuncha va amaliy tajribalarni, mustaqil davlatning milliy va iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi strategiyasini ta'minlashning iqtisodiy hamda huquqiy asoslari to'g'risidagi nazariy va amaliy muammolarini tadqiq qilishdan iborat.

Fanning predmeti, uning vazifalarida yanada oydinroq ko'rindan. Iqtisodiy xavfsizlik fanining vazifasini ikki jihatdan, ya'ni ham amaliy, ham nazariy jihatdan tushuntirish mumkin.

Fanning amaliy vazifasi cheklangan resurslardan samarali foydalanib, ko'proq tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash, har bir faoliyat turlari bo'yicha xarajatlar miqdori bilan erishilgan samara, ya'ni tovar va xizmatlar miqdorini taqqoslash, resurslardan unumliroq foydalanish yo'llarini topishga qaratiladi. Bu

vazifa yaratilgan nazariyalar va ilmiy qarashlarni real amaliy hayotga joriy etib borishni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning mohiyatini, iqtisodiy qonunlar hamda iqtisodiy tushunchalarning mazmunini yoritib, ilmiy bilish vazifasini ham bajaradi.

Iqtisodiy xavfsizlik fanining qayd etilgan amaliy va nazariy vazifalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Amaliy iqtisodiyot nazariy bilimga ega bo‘lishni, u bilan qurollanish zaruriyatini taqozo etadi. Umuman olganda, bu fan iqtisodiy jarayonlar, voqeа va hodisalar sirini bilishda ilmiy qo‘llanmadir. Nazariy bilim esa oldindan ko‘ra bilish va amaliy harakat yo‘lini to‘g‘ri belgilash imkonini beradi.

Iqtisodiy xavfsizlik vaziyatlarda aniq takliflarni berib, uslubiy vazifani ham bajaradi. Iqtisodiy bilim nazariyalarga ega bo‘lish, o‘zgarib turuvchi iqtisodiy vaziyatlarda mustaqil samarali qaror qabul qilishni amalga oshirish imkonini beradi.

Iqtisodiy xavfsizlik tamoyillari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy tizimning quyi chegarasini ifoda etuvchi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi. Mazkur quyi chegaralardan past ko‘rsatkichlarda iqtisodiy tizim uchun tahdidlar vujudga keladi, hatto bu tizimning buzilishi, degradatsiyasi yuz beradi. Ushbu quyi chegara va uning miqdoriy o‘lchamlarini aniqlash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

- milliy iqtisodiyot va iqtisodiy tizim faoliyatining asosiy sharoitlarini o‘rganish va ularni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash;
- milliy iqtisodiyotni tanglik va beqarorlikka olib keluvchi omillarni aniqlash;
- turli tanglik, xavfli holatlar yuzaga kelishining tartibi va imkoniyatlarini baholash;
- xavfsizlik va barqarorlikni saqlashga xavf soluvchi tahidlarning oldini olish yo‘llarini aniqlash.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalash maqsadida yirik firma, kompaniyalarda maxsus xizmatlar tashkil qilinadi. Ular bozorni o‘rganish, talab va taklifni bashoratlash, ilmiy-texnik taraqqiyotni kuzatish hamda boshqa ishlarni amalga oshiradi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalashda mahsulot turini muntazam yangilab turish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, xarajatlarni qisqartirish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyot darajasida makroiqtisodiy kategoriya va muayyan mamlakat milliy iqtisodiyotini tavsiflaydi. Bozor tizimida xatar borligidan va bundan hatto milliy iqtisodiyot ham xoli bo‘lmasligini, undan saqlanish zarurligini bildiradi. Iqtisodiy xavfsizlikning bosh mezoni bu mamlakat ehtiyojlarining uzluksiz ta’minalishi hisoblanadi, bu birinchidan, imkon boricha o‘zini o‘z mahsulot va xizmatlari bilan ta’minalashni, ikkinchidan, mamlakatda ishlab chiqarish mumkin bo‘lмаган tovar va xizmatlarni

chetdan qulay narxlarda uzluksiz keltirib turishni bildiradi. Aks holda iqtisodiyot izdan chiqadi.

Iqtisodiyot globallashgan, eksport va importning milliy iqtisodiyotga ta'siri kuchaygan sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni o'z ishlab chiqarishi bilan ta'minlab bo'lmaydi. Shunday sharoitda eksport-import aloqalarining muntazamligini strategik sherikchilik asosida ta'minlash iqtisodiy xavfsizlikni kafolatlaydi.

Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy subyekti o'zining qonunchilik, ijro va sud organlari, hokimliklar va hududiy mahalliy kengashlari orqali ushbu yo'nalishda faoliyat olib boruvchi davlat bo'lib hisoblanadi.

Davlat mavjud harakatdagi qonunchilik tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi hududidagi va chet elda yashovchi har bir fuqarosining xavfsizligini va ularning huquqiy kafolatlarini ta'minlaydi. Bundan tashqari, iqtisodiy xavfsizlikning subyektlari bo'lib fuqarolar, qonunchilikka asoslanib iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda huquq va majmuriyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy tashkilotlar va birlashmalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligi subyektlariga o'zining ushbu sohada asosiy funksiyasi bo'lgan davlat bo'lib hisoblanadi. Davlat o'zining qonunchilik, ijro va sud organlari, hokimliklar, funksional va tarmoq vazirliklar, soliq va bojxona qo'mitalari, Oliy Majlis va senatning shunga mos qo'mitalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari: banklar, fondlar, sug'urta va pensiya kompaniyalari, iste'molchilar uyushmasi va h.k. tadbirkorlar hamda barcha darajalardagi xo'jalik subyektlari: mahsulot va tovarlar ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar, uy xo'jaliklari va alohida shaxslar bilan hamkorlikdagi faoliyati bo'lib hisoblanadi.

**!** Xavfsizlik obyektlari bo'lib – xavfsizlikni ta'minlash va boshqarish bo'yicha subyektlar tomonidan ajratilgan mablag'lar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining asosiy xavfsizlik obyektlari: shaxsning huquq va erkinliklari, davlat – uning konstitutsiyaviy tuzimi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi bo'lib hisoblanadi. Xavfsizlik obyektlariga bundan tashqari, moddiy va ijtimoiy sohadagi korxonalar, tashkilotlar hamda uyushmalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligining obyektlariga davlat, iqtisodiy tizimning asosiy elementlari va davlat bilan birga butun tizim uning tabiiy boyliklari, jamiyat hamda barcha institutlar, turli darajadagi xo'jalik subyektlari va to'la hayotiy muhim manfaatlari bilan birga shaxs kiradi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va qo'llab-quvvatlash uchun xavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar ishlab chiqiladi, ushbu sohada davlat hokimiyati organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari aniqlanadi, xavfsizlikni ta'minlash, nazorat qilish bo'yicha

tashkilotlar tashkil etiladi yoki qayta tashkil etiladi. Shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri funksiyalarni amalga oshirish uchun ijro organlari tizimida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha davlat organlari tashkil etiladi.

## **1.2-§. Iqtisodiy xavfsizlikning mazmuni, mohiyati va tarkibiy elementlari**

«Iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasi milliy iqtisodiyotning boshqaruv organlari leksikasida yangi tushunchadir. Ayni paytda ushbu ibora xorijiy mamlakatlar boshqaruv tizimlari faoliyatida yaxshi tanish bo'lgan tushunchadir. Iqtisodiy xavfsizlik davlat milliy xavfsizligining asosiy tashkil etuvchilaridan biridir hamda mamlakatning iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatlanishi va uni ta'minlashning yo'llari, vositalari hamda usullariga asos soluvchi qarashlarning yig'indisidir.

Konseptual ko'rinishda iqtisodiy xavfsizlik davlatning iqtisodiy salohiyatining holatidan kelib chiqib iqtisodiy xavfning asosiy omillarini tahliliga asoslangan. Davlat xavfsizligi kuchsiz va samarasiz iqtisodiyotda ta'minlanishi, ayniqsa, globallashuv jarayonidagi ijtimoiy nizolarga to'la jamiyatda mumkin emas, chunki hammasi o'zaro bog'langan va biri ikkinchisini to'ldiradi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, iqtisodiy xavfsizlik – bu mamlakat, hudud, firma, kompaniyaning iqtisodiy inqirozga uchrash xavfidan himoya qilish bo'yicha ko'radigan chora-tadbirlari majmuidir. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida yirik firma, kompaniyalarda maxsus xizmatlar tashkil qilinadi. Ular bozorni o'rganish, talab va taklifni bashoratlash, ilmiy-texnik taraqqiyotni kuzatish hamda boshqa ishlarni bajaradi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda mahsulot turini muntazam yangilab turish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, xarajatlarni qisqartirish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyot darajasida makroiqtisodiy kategoriya va muayyan mamlakat milliy iqtisodiyotini tavsiflaydi, bozor tizimida xatar borligidan va bundan hatto milliy iqtisodiyot ham xoli bo'lmasligini, undan saqlanish zarurligini bildiradi. Iqtisodiy xavfsizlikning bosh mezoni – bu mamlakat ehtiyojlarining uzluksiz ta'minlanishi hisoblanadi, bu, birinchidan, imkon boricha o'zini-o'zi mahsulot va xizmatlari bilan ta'minlashni, ikkinchidan, mamlakatda ishlab chiqarish mumkin bo'lmanagan tovar hamda xizmatlarni chetdan qulay narxlarda va uzluksiz import qilishni bildiradi.



Milliy iqtisodiyot darajasida iqtisodiy xavfsizligining oziqovqat, yoqilg‘i-energetika, eksport kabi muhim yo‘nalishlari mavjud. Mamlakat aholisining oziqovqatga bo‘lgan talabini qondirilishi 80% bo‘lganida, mamlakatning energiya omillariga bo‘lgan talabning o‘z hisobidan 70-80%ga qondirilganda xavfsizlikka erishilgan hisoblanadi. Eksport xavfsizligi mamlakat eksport salohiyatini amalga oshirish imkoniyati bilan belgilanadi.

Eksportning cheklangan turdagи tovarlarga, ayniqsa, jahon bozorida narxi tez-tez o‘zgarib turadigan xomashyo va energiya omillariga bog‘liq bo‘lib qolishi eksport xatarini tug‘diradi, narxlar pasaygan paytda eksport tushumidagi yo‘qotishlar mamlakat iqtisodiyotiga zarar keltiradi. Iqtisodiyot globallashgan, eksport va importning milliy iqtisodiyotga ta’siri kuchaygan sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni o‘z ishlab chiqarishi bilan ta’minlab bo‘lmaydi. Shunday sharoitda eksport-import aloqalarining muntazamligini strategik sherikchilik asosida ta’minalash iqtisodiy xavfsizlikni kafolatlaydi.

Mamlakatning nafaqat iqtisodiy, shuningdek, siyosiy ahvoliga ham jiddiy xavf tug‘diruvchi tahdidlardan biri tashqi qarz muammosidir. Tashqi qarzning yuqori darajadaligining o‘ziyoq tashqi siyosat yuritishni shubha ostiga qo‘yadi. Mamlakat qarz bergen yirik kreditor mamlakatlarga qaram bo‘lib qoladi. Tashqi qarzlarni to‘lash uchun mamlakat qarzlardan kreditlarni belgilangan muddatlarda to‘lashni kafolatlaydigan ishlab chiqarish loyihibarini moliyalashtirishda foydalanishi hamda yangi obyektlarni ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportini kengaytirish mumkin.

Tashqi qarz – kredit olish orqali mamlakatning byudjet xaratjatlarini moliyaviy qoplash natijasida shakllanadigan mamlakatning qarz summasi. Tashqi qarz mamlakat iqtisodiyoti uchun og‘ir yuk bo‘lib, iqtisodiy konyunkturasining yomonlashuviga olib keladi. Biroq, tashqi qarz iqtisodiyotning o‘sishi uchun rag‘bat vazifasini ham bajarishi mumkin. Bu bilan birga mamlakatning real imkoniyatlarini hisobga olmay, haddan tashqari olingan tashqi qarzlar mamlakatni inqirozga va suverenitetining yo‘qotilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun, iqtisodiyot ochiqligi normal holat va obyektiv zaruriyatdir. Biroq, mamlakatning ishlab chiqaruvchi, moliyaviy, bank tizimi va pul aylanishi kabi strategik sohalarni himoyalanganlik darajasini hisobga olgan holda ish ko‘rish lozim. Ochiq iqtisodiyotga o‘tish o‘ta darajadagi proteksionizmdan voz kechishni taqozo etadi. Ammo mamlakatni jahon xo‘jaligiga kirib borishi nuqtayi nazaridan istiqbolli bo‘lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishni himoya qilish, ya’ni selektiv proteksionizm zarurdir. Bu davrda iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish bozorlarini, import xomashyo va sanoat mahsulotlari manbalarini diversifikatsiyalash, ko‘plab mamlakatlar bilan yomonlashgan munosabatlar o‘rniga boshqa mamlakatlar bilan bo‘ladigan iliq munosabatlar rivojlantiriladi.

Iqtisodiy xavfsizlik turlarining mohiyatini vujudga kelish sabablarini o'rganish, milliy manfaatlarga tahdidlarni aniqlash, ularning oldini olish va ulardan muhofazalanish chora-tadbirlari, mexanizmlarini ishlab chiqish hamda vujudga keltirishga imkon beradi. Buning uchun ushbu xavf-xatarlarni va xavfsizlik darajasini aniqlash, ularning ko'rsatkich mezonlarini o'rganishga zarurut tug'iladi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy xavfsizligining qonuniy asoslari, xavfsizlikni ta'minlovchi omillar, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikasiyalash iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hamda mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy xavfsizlik – shartnomalar va institutsional tuzilishni amalga oshirish borasidagi barcha xalqaro shartlar majmuasi bo'lib, unda har bir jahon hamjamiyatidagi a'zo davlatning erkin saylash va o'zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishi, tashqi bosimga uchramasligi, boshqalarni ishiga aralashmasligi, o'zaro manfaatli va o'zaro muvofiqlik asosida jahondagi boshqa davlatlar bilan hamkorligi tushuniladi.

Hozirgi davrdagi globallashuv sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun quyidagilar taqozo etiladi: birinchidan, jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etib, milliy ishlab chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish; ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga erishish. Alovida ta'kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi tahdidlar ta'sirini butunlay yo'q qilish, unga barham berish mumkin emas.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

- eksport tarkibidagi xomashyo tovarlarining ustuvorligi, an'anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlar bozorlarining yo'qotilishi;
- mamlakatning ko'p turdag'i mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramligi;
- eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, bojxona chegaralarining ochiqligi;
- raqobatga bardoshli eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarining rivojlanganligi hamda import tarkibining samarali emasligi;
- eksport-import operatsiyalariga xizmat ko'rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivoj topmaganligi;
- ilmiy salohiyat oqimi;
- kapital oqimi;
- tashqi qarzlarning o'sishi;
- tijorat va iste'mol mollari bo'yicha import qaramlikning ortishi;
- iqtisodiyotning haddan tashqari ochiqligi;

- milliy tovarlarni ichki va tashqi bozorlardan siqib chiqarish maqsadida chet el kapitallarini jalg qilish.

Ushbu fikrlarga asoslangan holda iqtisodiy xavfsizlikl tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o‘z-o‘zidan takomillashib borishga qodirligini ta’minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig‘indisi, deb ta’riflash mumkin.

### **1.3-§. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va iqtisodiy xavfsizlik masalalari**

Jahon amaliyoti va tajribasida mamlakatda iqtisodiy xavfsizligini ta’minlagan holda barqaror iqtisodiy o‘sish to‘g‘risida turli ta’limotlar va uning modellari mavjud. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlagan holda barqaror iqtisodiy o‘sish to‘g‘risidagi barcha ta’limotlar va modellarni umumlashtirgan holda tahlil etadigan bo‘lsak, bugungi kunda ayni bir barqaror iqtisodiy o‘sish to‘g‘risidagi ta’limot yoki model iqtisodiyotda to‘liq samara berib qo‘llanilayotganligini jahon amaliyoti va tajribasida kuzatishning iloji yo‘q. Bugungi kunda jahonda har bir mamlakat va uning hukumati barqaror iqtisodiy o‘sish yo‘lida mamlakatning tabiiy qazilma boyliklari, mehnat resurslarining salohiyati, an’analari va mentalitetidan hamda geografik joylashuvidan kelib chiqib, umumjahon barqaror iqtisodiy o‘sish nazariyasi ta’limoti va modellarining taklif hamda tavsiyalaridan foydalanib, mustaqil barqaror iqtisodiy rivojlanish modelini ishlab chiqmoqda.

Jahon bozoridagi iqtisodiy vaziyat murakkablashdi, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tabiatini tubdan o‘zgardi. Iqtisodiy raqobat nihoyatda kuchayib, tobora keskin va shafqatsiz tus olmoqda. Bunday vaziyatda mamlakatimiz iqtisodiyotining muntazam takomillashib borishini ta’minlaydigan mexanizmlarni joriy etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liq vazifalarni puxta belgilab olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ham shundan iborat.

Bugungi kunda va yaqin kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasida oldimizda qator strategik vazifalar turibdi. Ularning barchasi ustuvor hamiyatga egadir. O‘tgan davr mobaynida bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini modernizatsiya qilish, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, milliy iqtisodiyotning investitsiyalarga bo‘lgan talabini qondirish, bozor munosabatlari subyektlari faoliyatini erkinlashtirish masalalariga alohida e’tibor berildi.

Yangi O‘zbekiston strategiyasi, avvalo, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilganligini ta’kidlash lozim. Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish sur‘atlarini jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazish va bu sohada islohotlar samarasini yanada oshirish bo‘yicha ba’zi tizimli muammolar saqlanib qolayotganini ham rad qilib bo‘lmaydi. Avvalo, makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy

o'sishga erishish, inflatsiyani pasaytirish va barqarorlik narxlarini ta'minlash, buydjet taqchilligini maqbullashtirish, to'lov va joriy balanslari maqbulligini ta'minlash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot starategiyasi shunday istiqbolli dasturlardan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28yanvarda qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash unda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun quyidagi vazifalari belgilab olingan:

21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish uchun zamin yaratish. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflatsiya darajasini 2023-yiligacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish. Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash.

Har bir tuman byudjetining kamida 5 foizini —Fuqarolar byudjeti dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dozlarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish.

Davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSH dollaridan oshib ketmasligini ta'minlash<sup>1</sup>.

Markaziy bank tomonidan belgilanadigan qayta moliyalash stavkasi moliya bozorini tartibga solishning asosiy ko'rsatkichidir. Shu borada, ya'ni moliya bozorlarini va tijorat banklarining investitsiyaviy imkoniyatlarini barqarorlashtirish uchun Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkalarini belgilash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham harakatlar strategiyasida ushbu sohani yanada rivojlantirish va Markaziy bankning asosiy regulatori bo'lmish, qayta moliyalash stavkasini o'rnatishning xalqaro metodikasidan kelib chiqib, shuningdek, iqtisodiyotning ochiqligi va moliya bozorlarini rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkalarini belgilash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqligi belgilangan.

Ushbu boradagi to'planib qolgan muammoni bartaraf etish uchun valyutani tartibga solishning ilg'or bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish kun tartibidagi birlamchi masalalardan hisoblanadi. Unda:

- valyuta bozoridagi xorijiy valyutaga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqib, bozor mexanizmini hisobga olgan holda, ichki va tashqi bozorlarda mahalliy

ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlovchi va qo'llab-quvvatlovchi valyuta kursi siyosatini takomillashtirish;

- tadbirkorlik subyektlarining o'z valyuta mablag'larini erkin tasarruf etish huquqini to'liq amalga oshirilishini ta'minlash;
- har qanday manipulyatsiyalarning oldini oladigan mexanizmlarni joriy etgan holda, xorijiy valyutaning birjada erkin muomalada bo'lishini ta'minlash;
- tijorat banklari tomonidan jalb qilingan va o'z resurslari hisobidan xorijiy valyutani tegishli qoidalarga rioya qilgan holda erkin sotish tizimini joriy etish;
- byudjetga qo'shimcha tushumlar, tijorat banklarining joriy kreditlari va O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va Taraqqiyot jamg'armasining mablag'lari hisobiga iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarini vaqtinchalik moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish.

Xalqaro globallashuv jarayonlarining chuqurlashayotganligi mamlakatlarning valyuta siyosatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda va qator mamlakatlarda —golland kasaliining yuzaga kelishiga turtki bermoqda. —Golland kasalligi tabiiy resurs manbalarining kashf etilishi natijasida mamlakat sanoatlashuv darajasining pasayib ketishi, mamlakat milliy valyutasining kuchli revalvatsiyalanishi va natijada mamlakat eksport tovarlari raqobatbardoshligining sezilarli darajada pasayishini anglatadi. —Golland kasalligiga uchragan mamlakatlarda asosiy eksport tovarlarni ishlab chiqarishga asoslangan qayta ishlash sanoatida keskin pasayish yuz beradi va mamlakatning an'anaviy eksport tushumlari manbai bo'lgan qayta ishlash sanoatiga nisbatan kuchli salbiy ta'sir vujudga keladi. Tabiiy resurslar uchun qulay baholar sharoiti yo'qolgach, mamlakatning kuchsizlangan an'anaviy sanoati orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi ancha og'ir kechadi.

Taraqqiyot strategiyasida ko'tarilgan yana bir muhim masala bu – soliq ma'muriyatçiligi sifati va samaradorligini yaxshilashdan iboratdir. 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish vazifasi belgilangan. Ushbu masalani hal etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- soliq qonunchiligini tanqidiy o'rganish va tahlil qilish, huquqni qo'llashda ortiqcha va murakkab normalarni bartaraf etish, soliqqa tortish bazasini hisoblash jarayonini soddalashtirish, yagona bazadan undiriladigan soliq va boshqa majburiy to'lovlarini unifikatsiya qilish, shuningdek, soliq qonunchiligi barqarorligini ta'minlash;

- soliq yukini, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlardan undiriladigan qat'iy belgilangan soliq miqdorini, shu jumladan, faoliyat ko'rsatish (masalan, uzoq va borish qiyin bo'lgan) joylarini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish; yirik korxonalarga bo'lgan soliq yukini maqbullashtirish hisobiga izchil pasaytirish.

Bugungi globallashuv jarayonlari jadallahayotgan sharoitda mamlakat iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan sohalardan yana biri bu xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, xalqaro moliya bozori institutlari bilan aloqalarni kengaytirishni talab etadi.

Ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilma va boshqa loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan chet el hukumat tashkilotlarining (Xitoy eksport-import banki, Koreya eksport-import banki, EDCF Fondi, Yapon xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOISA), Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatasi (GIZ), Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi (SHTHA), Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA), Yevropa hamkorlik komissiyalari va hokazo) imtiyozli kredit hamda grant mablag'larini jalb qilish imkonining yaratilishi muhim ahamiyaga ega.

Harakatlar strategiyasida xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklowlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi degan tamoyilni amalga oshirish borasidagi tadbirlarga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur yo'naliш bo'yicha belgilangan tadbirlardan yana biri – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish hisoblanadi.

Yana bir yo'naliш investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishdan iborat. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan 26-maqсад:

 Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rishdan iboratdir.

Unga ko'ra quyidagilar belgilangan: Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, pastdan-yuqoriga tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish. 2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish. Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish.

Respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o'rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish, jumladan, Sirdaryo viloyatining Xitoy Xalq Respublikasi, Surxondaryo viloyatining Rossiya Federatsiyasi hamda Jizzax

viloyatining Hindiston biznes doiralari bilan investitsiya va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish. Surxondaryo viloyatida investorlarga ko‘mak markazi, Navoiy viloyatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan biznesga ko‘maklashish markazi va Toshkent shahrida ilg‘or loyihalar va injiniring markazi va har bir tumanda innovatsiya va texnologiya markazlari tashkil qilib, tadbirkorlarga amaliy yordam ko‘rsatish. Toshkent shahrida har yili Toshkent xalqaro investitsiya forumi<sup>1</sup>ni o‘tkazib borish<sup>1</sup>. Ushbu ustuvor yo‘nalishlarining amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotni yanada barqaror rivojlanishiga, iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning salbiy ta’sirini yumshatishga imkoniyat yaratadi.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

1. Iqtisodiy xavfsizlikning nazariy asoslarini tushuntirib bering.
2. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini tushuntirib bering.
3. Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyot nazariyasi faninining sintetik kategoriyasi sifatida bog‘liqligini asoslab bering.
4. Tahdid<sup>II</sup> va —xavfsizlik<sup>II</sup> tushunchalarining mazmuni va farqini tushuntirib bering.
5. Tahdidlarni turkumlashdagi yondashuvlar.
6. Iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy tuzilmasini aytib bering.
7. Iqtisodiy xavfsizliklarga tahdidlar tuzilmasini yoritib bering.
8. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari nima.
9. Iqtisodiy xavfsizlik sohasida davlat faoliyatining predmetini asoslab bering.
10. Iqtisodiy xavfsizlikka tizimli yondashuvni yoritib bering.
11. Nima uchun xavfsizlik jamiyat rivojining asosiya manbai bo‘lib hisoblanadi?
12. Samaradorlik va xavfsizlik kategoriyalarining mantiqiy bog‘liqligini tushuntirib bering?
13. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning tashkiliy-uslubiy jihatlarini aytib bering?
14. Iqtisodiy xavfsizlikni qanday baholash mumkin.
15. Iqtisodiy yo‘qotish va zarar nima.
16. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida iqtisodiy xavfsizlik muammolarini qo‘yilishining ahamiyatini so‘zlab bering.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘risidalg‘i 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli Farmonining 1-ilovasi.

## **2-mavzu O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY XAVFSIZLIGINING KONSEPTUAL ASOSLARI**

Reja

- 2.1-§. Mamlakat iqtisodiyotida milliy manfaatlarni ta'minlash**
- 2.2-§. O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizlik omillari**
- 2.3-§. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizlik tizimi**
- 2.4-§ Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari va uning strategik maqsadlari**

### **2.1-§. Mamlakat iqtisodiyotida milliy manfaatlarni ta'minlash**

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida jahonning geosiyosiy va iqtisodiy maydonida o'zining mustaqil munosib o'rnnini egallashga harakat qilayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun iqtisodiyotda milliy manfaatlarining samarali tizimini shakllantirish muhim yo'nalish bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari – bu:

- iqtisodiy, ichki siyosiy, ijtimoiy, xalqaro, axborot, harbiy, chegaraviy, ekologik va boshqa sohalarda shaxs, jamiyat hamda davlatning muvozanatlashgan yalpi manfaatlari;
- shaxs, jamiyat va davlatning muhim obyektiv ehtiyojlarini ta'minlanishi, ularning himoyalanganligi hamda barqaror rivojlanishi;

Shaxsnинг manfaatlari bu uning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshishidan, shaxs xavfsizligini ta'minlanishidan, turmush darajasi hamda sifatini yaxshilanishidan, inson va fuqarolarning jismoniy, ma'naviy hamda intellektual rivojlanishidan tarkib topadi.

Jamiyat manfaatlari suverenitetligi demokratik, huquqiy va ijtimoiy yo'naltirilgan davlatni tashkil topishida ijtimoiy tenglik va mutanosiblikni vujudga kelishida hamda O'zbekistonni ma'naviy yangilanishida ifodalanadi.

Davlat **!** manfaatlari bu mustahkam konstitutsion tizimning buzilmasligi, suverenitetligi va hududiy yaxlitligida. Uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligi, qonuniy tartib-qoidalarni ta'minlanganligida va o'zaro tenglik hamda manfaat asosida xalqaro hamkorlikni rivojlanishidan tarkib topadi.

Ta'kidlash lozimki, milliy manfaatlarni ta'minlanishi mamlakatda saylangan hokimiyatning tanlagan siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo'liga bog'liq. Uzoq istiqbolga mo'ljallangan milliy manfaatlarga quyidagilar kiradi:

- mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, konstitutsion tizimning o‘zgarmasligi va mustahkamligini, suverenitetligi hamda hududiy yaxlitligini ta’minlash;
- milliy kelishuvni mustahkamlash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni, demokratik institutlarni rivojlantirish, davlat va fuqarolik jamiyatning o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish;
- turmush sifatini oshirish, aholini sog‘lik-salomatligini mustahkamlash, mamlakatni barqaror demografik rivojlanishini ta’minlash;
- O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan ma’naviy qadriyatlarni, milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish;
- Milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasini jahon iqtisodiyotida munosib o‘rnini ta’minlash va uning obro‘-e’tiborini oshirish. Milliy manfaatlar tushunchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri milliy xavfsizlik tushunchasi bilan bog‘liq. Milliy xavfsizlik bu O‘zbekiston Respublikasi suverenitetini ta’minlovchi hokimiyatning yagona manbai sifatida ko‘pmillatli xalqning xavfsizligi tushuniladi. Iqtisodiyot sohasida milliy xavfsizlikni ta’minlash bu jamiyatning asosiy aholi qatlamlarining hayotiy muhim manfaatlarini saqlash va ta’minlash tushiniladi. Agar iqtisodiy islohotlar olib borilayotgan mamlakat iqtisodiyoti dinamikasini tahlil qiladigan bo‘lsak, u holda xulosa qilish mumkinki, butun bir xalq xo‘jaligida, uning alohida mintaqalarida va tarmoqlarida iqtisodiyot sohasida milliy manfaatlarga nisbatan o‘zida katta potensial xavf-xatarlarni, tahdidlarni ifoda etgan salbiy tendensiyalarni kuzatish mumkin.



Quyidagi inqiroziy holatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- aholi turmush darajasining pasayishi;
- asosiy fondlarning jismoniy va ma’naviy eskirish darajasining oshishi;
- texnogen turdagи falokatlarning kuchayishi;
- ilmiy-texnik salohiyatning yo‘qotilishi;
- mamlakatda takror ishlab chiqarish jarayonini boshqarish darajasi va unga davlat ta’sirining pasayishi.

Mamlakat milliy manfaatlariga tahdidlar iqtisodiyotda takror ishlab chiqarish jarayonining barcha sektorlari va ishlab chiqarishda nomuttanosiblikni keskin

kuchayishiga olib keladi. Iqtisodiyotdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi nomutanosibliklarga quyidagi omillar sabab bo‘ladi:

- tizimli yondashuvning mavjud emasligi;
- aniq ifodalanuvchi strategik ustuvorliklar va real sanoat siyosatining mavjud emasligi;
- muvozanatlashgan barcha ishlab chiqarish, taqsimot elementlarining mavjud emasligi.

Iqtisodiyot segmentida milliy manfaatlarning hududiy jihatlari davlatning hududiy siyosati maqsad va vazifalarini amalga oshirish va unda alohida hududlarning umummilliy manfaatlarni ta’minlashdagi o‘rni doirasida qarash kerak. Mamlakat iqtisodiyotida milliy manfaatlarni ta’minlash jarayonining kompleks tahlilida mavjud muammolarni hal etishda nointegratsion tavsifga, ya’ni alohida hududlarning iqtisodiy rivojlanish sohasidagi milliy manfaatlarni ham hisobga olish kerak.

Globallashayotgan jahon iqtisodiy maydonida milliy manfaatlarni ta’minlashda umumiyy strategik muammolarni hal etishda, o‘zini-o‘zi iqtisodiy belgilash bilan qo‘silgan. Quyidagi jadvalda milliy manfaatlarni ta’minlashning muhim jihatlari keltirilgan.

## **2.1- jadval**

### **Milliy manfaatlarni ta’minlashning asosiy jihatlari**

Muhim jihatlar turlari	Jihatlarning mazmuni
Tarkibiy texnologik	Yuqori texnologik, axborot-kompyuter tizimli, yangi energiya manbaalari, turli xildagi materiallardan foydalangan holda birlamchi tabiiy resurslarni chuqur qayta ishslashga asoslangan holda innovatsion-texnologik bazani shakllantirish bilan bog‘liq.
Institutsional	Mulk munosabatlarida, davlat tomonidan tartibga solishda va moliya-kredit sohalarida jahon tajribalarining eng yaxshi namunalariga javob beradigan sivilizatsiyalashgan iqtisodiy munosabatlarga yo‘naltirilgan.
Milliy -iqtisodiy	O‘zbekiston iqtisodiyoti jahon iqtisodiy munosabatlarda munosib o‘rinni egallashi bilan bog‘liq.
Submilliy va ijtimoiy-iqtisodiy	O‘z asosiga ko‘ra O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi ichki muammolarini hal etishga qaratilgan.

Iqtisodiyot sohasida milliy xavfsizlikni ta’minlash kategoriysi bugungi kunda muhim milliy manfaatlarni ta’minlashda ko‘p hollarda joriy va o‘rta muddatli vaziyatlarga qarab belgilanadi. O‘zbekiston uchun strategik tavsifdagi choratadbirlar va bashoratlarni tavsiflash ko‘proq maqsadga muvofiq keladi. Davlatning ijro organlari milliy xavfsizlikni ta’minlash sohasida qarorlar qabul qilishda iqtisodiyotning faoliyatida nafaqat undagi nomutanosibliklarni, balki ushbu nomutanosibliklarni vujudga kelish sabablarini, uning oldini olishga yo‘naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqish uchun ham tadqiq etishi lozim.

2.1- rasmda iqtisodiyot sohasida milliy xavfsizlikni aniqlash va uni neytrallash uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish metodologiyasi keltirilgan.

**Kelib chiqishiga ko'ra  
innerion bo'lgan milliy  
xavfsizlikka taxdid  
soluvchi negativ  
xarakterdagi  
tendensiyalarni ajratish**

• **uzoq taraqqiyot davrida (Sobiq ittifoq tizimi  
davridan mustaqillik yillarigacha) O'zbekiston  
iqtisodiyotida to'plangan takror ishlab chiqarish  
proprsiyalarini buzilishi nomuvofiqliklar,  
nomutanosibliklar, ishlab chiqarishdagi uzilishlar  
natijasi bo'lib hisoblanadi.**

**Qonunchilik organlari  
tomonidan milliy manfaatlarga  
yo'naltirilgan qonun loyihalarini  
qabul qilishda (imkoniyat  
darajasida) yangi  
nomuvofiqliklar,  
nomutanosibliklarga yo'l  
qo'ymaslik va ularni aniqlash .**

• **Iqtisodiyot va ijtimoiy soxalarda mamlakat  
milliy manfaatlariiga qator potensial taxdidlar  
borligi haqiqat sifatida isbotlangan (yer  
to'g'risida qonunchilik, mulkchilik  
munosabatlarini tartibga solish, armiyani  
moderinizatsiya qilish, uy -joy fondini qayta  
qurish va h.k.)**

Ijro hokimiyati tomonidan milliy  
manfaatlarni ta'minlashga hech qanday  
aloqasi bo'lмаган, korruption lobbistik  
guruhlari tomonidan normativ huquqiy  
qonun ijodkorligida qarorlar qabul  
qilinginshi oldini olish uchun respublika  
va mahalliy miqyosda ularni chuqur  
diqqat bilan ekspertizadan o'tkazish.

• **Sanoatda ishlab chiqarish  
munosabatlarini tartibga solish,  
yolg'on bankrotlik jarayonlari, davlat  
mulkini sotish, kapitalni chetga  
chiqishi, renta daromadlarini  
taqsimlanishi uastidan nazoratni  
kuchaytirish**


## 2.1-rasm. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimining bazaviy konstruksiyasi.

Xavfsizlik auditni iqtisodiyot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Chunki milliy xavfsizlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan qabul qiladigan qarorlarimiz davlat tomonidan tartibga solish instrumentlari sifatida —yopiq rejimga tushib qolish ehtimoli mavjud.

Auditning predmetiga qarab har bir holat bo'yicha dasturi, maqsadi, vazifalari va auditning tuzilishi moslashgan bo'lishi kerak. Xavfsizlik auditning maqsadli tavsifiga ko'ra: iqtisodiyot sohasida xavfsizliklarni vujudga kelishi ehtimoliga ko'ra iqtisodiyot sohasida davlatning milliy manfaatlari cheklanishi mumkin bo'lgan faoliyat tarmoqlari ochib beriladi;

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishining strategik maqsadlariga mos kelmaydigan, korruption-lobbistik qarorlarni qabul qilishda to'siqlarni vujudga keltiradi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida milliy manfaatlarni ta'minlashini tartibsiz, tarqoq, konyunkturali tavsifdagi bir martalik nazoratdan, davlat iqtisodiyotini shakllanishi sohasida muhim qarorlarni qabul qilish doimiy, uzlusiz funksional tizimli kuzatishni olib borishga transformatsiyalash lozim. Qisqa va uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotga xavf soladigan tahdidlarni, yashirin paritetlarni buzilishi va qabul qilingan qarorlarning ikkilamchi negativ samaralarni aniqlash imkonini beruvchi xavfsizlik auditini doimiy faoliyat yurituvchi ilmiy-metodik ta'minotini yaratish, mamlakatda faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqot va konsalting jamiyatlar asosida uning tashkiliy-tarkibiy tuzilmasini rivojlantirish.



## 2.2-rasm. Xavfsizlik auditining obyektlari.

Milliy xavfsizlikning strategik maqsadlari bo‘lib mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, shaxsni har tomonlama taraqqiyoti uchun shartsharoitlar yaratish, iqtisodiyotni yangi yuqori texnologik taraqqiyot darajasiga olib chiqish, yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha jahonda yetakchi davlatlar qatoridan o‘rin olish va ichki hamda tashqi tahidlarga nisbatan ishonchli samarali to‘sinqi yaratish bo‘lib hisoblanadi.

### 2.2-§. O‘zbekistonning iqtisodiy xavfsizlik omillari

Iqtisodiy xavfsizlik bilan bog‘liq muhim tushunchalar quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy suvereniteti – xalqaro majburiyatlarni hisobga olgan holda tashqi va ichki iqtisodiy siyosatni olib borishda davlatning mavjud bo‘lgan obyektiv mustaqilligi;
- Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar – iqtisodiyot sohasida O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga to‘g‘ridanto‘g‘ri va bilvosita ziyon keltirishi mumkin bo‘lgan yalpi shartsharoitlar va omillar;
- Iqtisodiy xavfsizlikka xavf-xatarlar – biror-bir aniq shart-sharoitlarda ularning bari iqtisodiy xavfsizlikka tahidlarni vujudga keltirishi mumkin;
- Iqtisodiy xavfsizlik sohasida tavakkalchiliklar – iqtisodiy xavfsizlikni amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi milliy manfaatlariga ziyon keltirishi mumkin;
- Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash – davlat organlari va mahalliy hokimiyat va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan jamiyatning fuqorolik institutlari bilan hamkorlikda milliy manfaatlarga bo‘lgan tahidlarga qarshi qaratilgan

siyosiy, huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot va iqtisodiyot sohasida hamda boshqa turdag'i chora-tadbirlarni amalga oshirishi;


Iqtisodiy xavfsizlik tizimi o'zining tushuncha va kategoriylariga asoslanib yetta blokdan iborat:

Milliy xavfsizlik konsepsiysi. Iqtisodiyot sohasida O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari. Iqtisodiyot sohasida tahdidlar. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari. Iqtisodiy xavfsizlikning tahlikali chegaralari. Iqtisodiy xavfsizlikni tashkil etish. Iqtisodiy xavfsizlik huquqiy ta'minoti.

Iqtisodiy xavfsizlik tuzilmasini uning darajalari (tashkiliy tuzilma) va uning turlari (funksional tuzilma) orqali taqdim etish mumkin:

xalqaro (global va mintaqaviy); milliy; mintaqaviy (mamlakat ichida); tashkiliy (korxona, firma); shaxs.

Milliy iqtisodiyotning barqarorligi esa mulkchilikning barcha shakllarini himoya qilish, tadbirkorlik faolligi uchun sharoit va kafolatlarni yaratish, barqarorlikka putur yetkazishi mumkin bo'lgan omillarga (masalan, iqtisodiyotda kriminal tuzilmalar bilan kurash, og'ir ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan daromadlar taqsimlanishida katta tafovutlarga yo'l qo'ymaslik) to'siq bo'lish imkoniyatlarini bildiradi.



### 2.3-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik darajalari.

**1. Daraja.** Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning shunday holatiki, unda mamlakatlar xo'jalik yuritishda milliy va global muammolarni hal etishda o'zar o'zar manfaatli hamkorlik faoliyatini, xalqaro mehnat taqsimotida ishtiroki erkin tanlov

asosida amalga oshadi. Mamlakatlar o‘rtasida maxsus xalqaro tashkilotlar tashkil etilgan bo‘lib, ular yordamida xalqaro xavfsizlik ta’minlanadi. Masalan, Umumjahon savdo tashkiloti, Xalqaro valyuta fondi, kapitalni, tovar va xizmatlarni erkin harakati bo‘yicha xalqaro kelishuvlar ham muhim rol o‘ynaydi.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik bu har bir davlatning ichki va tashqi tahdidlardan himoya etuvchi xalqaro tizimni barqaror holati sifatida baholash mumkin. Ularga:

- iqtisodiy rivojlanishning erkin yo‘nalishlari;
- xalqaro huquqiy tasdiqlangan harbiy tahdidlardan himoya;
- global iqtisodiy inqirozlarga nisbatan barqarorlik.

Xalqaro xavfsizlikni ta’minlovchi xalqaro tashkilot sifatida Birlashgan millatlar tashkiloti hisoblanadi.

**2. Daraja.** Milliy xavfsizlik – bu mavjud kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, barqaror pul muomalasi, tashqi savdoning samarali tarkibiy tuzilmasi, ilmiy salohiyatning yuqori darajasi, aholini yetarli turmush darajasini ta’minlash va jamiyatni kriminallashuvini oldini oladigan huquqiy va iqtisodiy shartsharoitlar yaratadigan iqtisodiy tizim sifatida tavsiflanadi.

Davlatning xavfsizligi birinchi navbatda ishlab chiqarish kuchlarining holati, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mamlakat xalq xo‘jaligida ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish ko‘lamlari, tashqi iqtisodiy aloqalarning tarkibiy tuzilmasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham davlatning iqtisodiy xavfsizligining moddiy asosi bo‘lib fuqarolarning madaniylashgan turmush tarzi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minlovchi kuchlarining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi deb ta’kidlash mumkin.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi iqtisodiyotning rivojlanish va barqarorlik tushunchalari bilan juda yaqin bog‘liq. Milliy xo‘jalikni rivojlanishi – iqtisodiy xavfsizlikning komponentlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Agarda iqtisodiyot rivojlanmasa unda davlatning tashqi va ichki noxush salbiy ta’sirlarga nisbatan qarshilik ko‘rsatish imkoniyatlari kamayib boradi. Mamlakat milliy xo‘jalinining barqarorligi, yagona tizim sifatida uning elementlari o‘rtasidagi iqtisodiy va tashkiliy aloqalarni mustahkam va ishonchliligin, tashqi hamda ichki tahdidlarga nisbatan bardoshliligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligining asosiy omillarini: uning geografik joylashuvi; tabiiy resurslar zaxirasi; sanoat va qishloq xo‘jalik salohiyati; ijtimoiy-demografik rivojlanish darajasi va yakunida davlat boshqaruvi sifati tashkil qiladi.

**3. Daraja.** Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik. Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik – bu mintaqa iqtisodiyotini barqaror, doimiy rivojlanishi va takomillashuvini hamda tashqi va ichki negativ salbiy ta’sirlarga nisbatan qarshilik ko‘rsatish mexanizmiga ega bo‘lgan kompleks chora-tadbirlar yig‘indisiga aytildi.

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligining ichki tarkibiy tuzilmasidan quyidagi muhim uchta bo‘g‘inni ajratish mumkin.

1.Iqtisodiy mustaqillik, mintaqaning siyosiy-iqtisodiy jihatdan markazga va boshqa mintaqalar bilan o‘zaro bog‘liqligi sababli uning mustaqilligi nisbiy tavsifga ega bo‘lib hisoblanadi. Ushbu sharoitda iqtisodiy xavfsizlik mahalliy hokimiyatni mintaqa resurslari ustidan qanchalik darajada nazorat eta olish imkoniyatlari (markaz tomonidan berilgan vakolatlar doirasida) bilan belgilanadi. Takror ishlab chiqarishni va mahsulot sifati samaradorligini yuqori rivojlanish darajasi bu mintaqani raqobatbardoshlikda, hududlararo va xalqaro savdoda, kooperatsion aloqalarda hamda ilmiy-texnik yutuqlarni ayriboshlashda tenglar qatorida ishtirok etishni ta’minlay oladi.

2.Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligi va bardoshliligi, barcha shakllarda mulkchilikni himoya qilish, tadbirkorlik faolligi uchun ishonchli shart-sharoitlarni hamda kafolatlarni vujudga keltirish (ijtimoiy tahdidlarni keltirib chiqaruvchi daromadlar taqsimotidagi keskin tabaqlanishlarga yo‘l qo‘ymaslik, iqtisodiyotda kriminal guruhlarga nisbatan qarshi kurash h.k.), iqtisodiyotdagi nobarqarorlikni keltirib chiqaruvchi holatlarni nazorat qilish va to‘xtatish.

3.O‘z-o‘zini rivojlanirish va taraqqiy ettirish qobiliyati – investitsiyalarga hamda innovatsiyalarga nisbatan yaxshi investitsion muhitni yaratish, ishlab chiqarishni doimiy modernizatsiya qilish, ishchilarning professional, bilim va madaniyat darajasini oshirish.

Tizimni an’anaviy rivojlanishi (yoki degradatsiya) rejali va barqaror iqtisodiy jarayonlar doirasida yaqinlarni lineynilarga nisbatan bog‘liqligini yoritishga qaratiladi. Biroq tizimdagи ichki va tashqi tahdidlar sharoitida keskin o‘zgarishlar holatida inqirozni yuzaga kelish ehtimoli mavjud. Iqtisodiy xavfsizlik dasturini ishlab chiqishda nisbatan xilma-xil va turli darajadagi xavf-xatarlarga ega bo‘lgan, zamonaviy tahdidlar to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lish kerak. Ularning orasidan eng muhimlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: ishlab chiqarishning pasayishi; ilmiy-texnik salohiyatni barbod bo‘lishi, iqtisodiyotni dYIndustrializatsiyasi, oziq-ovqat xavfsizligi mustaqillagini ta’minlay olmaslik; ishsizlikning o‘sishi va mehnat motivatsiyasining pasayishi; ichki hamda tashqi qarzning o‘sishi, iqtisodiyotni kriminallashuvi, aholini mulkiy tabaqlanishuvi; byudjet taqchilligining o‘sishi. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini shakllantiruvchi kompleks chora-tadbirlarda tug‘ilayotgan xavfxatarlar haqida ogohlantirish bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik pozitsiyasi nuqtayi nazaridan barcha kutilayotgan xavfxatarlarni hamda ularning iqtisodiy, noiqtisodiy ta’sirini baholash va uni prognngoz qilish mumkin, eng muhim – falokatli pasayish va uning tahlikali chegarasini aniqlash muhimdir. Prognozlianalitik tahlil orqali inqirozni vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik va uning

tahlikali chegarani yengib o‘tish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish kabi teskari vazifa vujudga keladi.

**1.Daraja.** Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi–xo‘jalik subyektining shunday holatiki, unda kapitalni jamg‘arilishi va faol moliyalashtirish jarayoni, xo‘jalik faoliyatining muhim ko‘rsatkichlarining barqaror o‘sishi, boshqaruv hamda shu bilan birga tavakkalchiliklar sifatini yaxshilanishi texnologik va axborot bazasi yangilanishi amalga oshadi.

Korxona iqtisodiy xavfsizligida kutilayotgan xavf-xatarlarni ikki turga bo‘lish mumkin: (xodimlarining korxona ishini falokatga olib keluvchi, axborotlarni o‘g‘irlanishi, hamkorlar bilan

bog‘liq muammolarda) harakat-harakatsizligi va tashqi (raqobatchilar faoliyatini hamda xususiy shaxslarni kriminallashuvi, hamkorlarni mas‘uliyatsizligi va rahbar xodimlarning turli xildagi qonunbuzarliklari). Kutilayotgan xavfxatarlarga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish korxona iqtisodiy xavfsizligining umumiy tizimini taqdim etish asosida ushbu turdagи muammolarga qarshi kurashishning samarali metodlarini qo‘llash mumkin bo‘ladi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning funksional tashkil etuvchilari sifatida moliyaviy, intellektual va kadrlar siyosiy-iqtisodiy, ekologik omillarni tavsija etish mumkin. Kompaniyaning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashni samarali tizimini tashkil etish uchun asosiy faoliyati biznesni himoya qilish, korxona xodimlari va hamkorlari to‘g‘risida axborotlarni to‘plash va saqlash, axborot xavfsizligini ta‘minlash, korxona hududining mulkini qo‘riqlash hamda boshqa shunga mos qo‘shimcha vazifalarni hal etishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni ishlab chiqadigan va ularni joriy etishni amalga oshiradigan ixtisoslashgan tuzilmani tashkil etish zarur.

**2.Daraja.** Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi – bu uning konstitutsion huquq va burchlarini ta‘minlagan holda, hayotiy faoliyatining shunday holatiki, unda shaxsning muhim manfaatlari iqtisodiy va huquqiy jihatdan himoyalanadi. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiyotning umumiy holati bilan bog‘liqdir.

Inson (shaxs) xavfsizlik tizimi obyekti va subyekti bo‘lganligi uchun boshqa xavfsizlik tizimlarida, bazaviy tizimni shakllantiruvchi rolini bajaradi. Bundan kelib chiqib, shaxsning iqtisodiy xavfsizligi qolgan xavfsizlik shakllarida xavfsizlik darajasini ta‘minlashning asosiy shartidir. O‘z navbatida, shaxsning xavfsizlik darajasi jamiyatni, davlatni va tabiatni rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Shaxs barcha xavf-xatarlar fokusida turadi, chunki har qanday buzg‘unchi ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, etnik va texnik turdagи xavf-xatarlardan inson aziyat chekadi.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizlik obyekti sifatida fuqarolar va jamiyat – potensial ish o‘rnlari, ijtimoiy ta‘minot sohasi, moddiy ishlab chiqarish turadi. Shaxsning iqtisodiy xavfsizlik sohasida davlat faoliyatining predmeti bo‘lib quyidagilar tashkil etadi:

- insonni iqtisodiy xavfsizlik tizimiga ta'sir etuvchi noxush omillarni tahlili va sintezi;
- davlatning iqtisodiy siyosati va institutsional siljishlarini shunday amalga oshirish kerakki, unda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning nomukammalliklarini berkitib tursin.

Bugungi jahon hamjamiyatiga ko‘p qutblilik belgilari xosdir. Shu bilan birga, jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan jarayonlar, global raqobatning keskinlashuvi, yangi iqtisodiy o‘sish va siyosiy ta’sir markazlari tomonidan resursslarni qayta taqsimlash, geosiyosiy nobarqarorliklar bilan birga yuz bermoqda. Xalqaro huquq, harbiy-siyosiy hamda iqtisodiy sohalarda keskin o‘zgarishlar yuz bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi davlatining zamonaviy xavfsizligini baholash maqsadida uning xavfsizlik darajasini belgilovchi omillarni bilish va tushunish lozim. Bunday omillarga: O‘zbekistonning geosiyosiy hamda iqtisodiy-geografik holati, shunga bog‘liq holda ishlab chiqarish kuchlarini davlat hududlarida joylashuvi, milliy va xorijiy resurslarga bo‘lgan egalik;

- davlatning iqtisodiy va harbiy-siyosiy qudrati hamda uning strategik ahamiyatliligi va iqtisodiy faoliyat turlariga mos xalqaro iqtisodiy konsepsiyalarda raqobatbardoshlik pozitsiyasi;
- mamlakatning institutsional tizimini iqtisodiy xavfsizlik darajasiga bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyot tarmoqlarini qo‘llabquvvatlashga yo‘naltirish;
- davlat va aholining xalqaro standartlari darajasida turmush sifatini ta’minlovchi, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik sohalardagi O‘zbekistonning iqtisodiy siyosati ustuvorliklari;
- iqtisodiy xavfsizlikni taqdim etish maqsadida milliy iqtisodiyot va uning hududlari sohalarining strategik ahamiyatlilagini hisobga olgan holda mintaqqa yalpi ichki mahsulotning hududiy va tarmoq tarkibiy tuzilmasining parametrlari;
- xalqaro savdo tashkiloti tarkibida milliy iqtisodiyotni shakllanish tamoyillarini belgilab beruvchi shart-sharoitlar va ushbularga bog‘liq holda birinchi hamda yuqori tartibdagisi moddiy boyliklar, undan tashqari, strategik ahamiyatliligi guruhiга kiritilgan nomoddiy aktivlarning eksport va importining tarkibiy tuzilmasi;
- noaniqlik sharoitida strategik muhim bo‘lgan birinchi va yuqori tartibdagisi moddiy boyliklarning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalash uchun zarur bo‘lgan hajmda zaxiralarni ta’minalash. Xuddi shunday holatlar davlatlararo munosabatlarni keskinlashuvi, harbiy ixtiloflarni, terroristik harakatlar, mamlakat ichkarisida va tashqarisida raqobat kurashining keskinlashuvi, muhim resursslarni yo‘qotilishida, stixiyali ofatlarni va ekologik falokatlarni paydo bo‘lishi sharoitida ham vujudga kelishi mumkin.

Ushbu omillar davlatga nisbatan xavf-xatarlarni keltirishi mumkin. Ular tashqi va ichki omillarga bo‘linadi. Ichki tahdidlarga – bu o‘z-o‘zini saqlash va rivojlantirish imkoniyatini, iqtisodiyotda innovatsion ishlanmalarining yo‘qligi, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish konsepsiyasining samarasizligi, jamiyatni shakllantirishning nisbatan optimal yo‘llarini izlab topishda va ziddiyatlarni hal etishda manfaatlar o‘rtasidagi balansni topa olmaslik kabilar tashkil etadi. Tashqi tahdidlarga, birinchi navbatda, jahon baholari va tashqi savdoning konyunkturasini o‘zgartiradi, so‘mning kursi, kapital chetga chiqishini uni kirishiga nisbatan yuqori bo‘lsa, davlat qarzlarini shakllanishi, importga qaramlik.

Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy xavf-xatarlari va tahdidlariga quyidagilar kiradi:

- rivojlangan davlatlar tomonidan ustunlikning asosiy omili sifatida texnologiyalarni global raqobat sharoitida foydalanilsa;
- jahon iqtisodiyotida ichki nomunatosibliklarning kuchayishi, alohida mamlakatlar tashqi qarzining o‘sishi va shundan kelib chiqib qator davlatlarning moliyaviy qaramligi;
- O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlariga nisbatan diskreminatsion ta’sirni qo‘llash, xorijiy moliyaviy resurslarga va zamona viy texnologiyalarga nisbatan cheklovlarni qo‘yilishi;
- O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlar doirasida hamda uning chegaralarida ziddiyatlarning kuchayishi;
- jahon tovar va moliya bozorlarida konyunkturali tebranishlarni kuchayishi;
- O‘zbekistonning qazilma boyliklariga nisbatan jahon talabining tuzilmaviy tarkibini o‘zgarishi va yashil texnologiyalarni rivojlanishi;
- O‘zbekistonning milliy manfaatlariga katta zarar keltirishi mumkin bo‘lgan, savdo va investitsiyaviy munosabat sohalarida davlatlararo iqtisodiy birlashmalarni (O‘zbekistonni ishtirokisiz) faoliyat yuritishi;
- O‘zbekiston moliya va bank tizimini jahon bozorlari tavakkalchiliklariga nisbatan bog‘liqligi, xususan, tizimni axborot ta’midotidagi qaramlik;
- jahoning yetakchi kompaniyalari qatorida O‘zbekiston kompaniyalarining yo‘qligi;
- yomon investitsion muhitning mavjudligi natijasida real ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan investitsiya hajmining pastligi, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda katta xarajatlar, sezilarli darajada ma’muriy to‘siqlar, mulk huquqlari himoyasining samarasizligi;

- O‘zbekiston kompaniyalarini innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishda xorijiy kompaniyalardan orqada qolishi va mamlakat mutaxassislari malakasining pastligi;
- faoliyat yuritayotgan qazilma boylik konlari sonining qisqarishi va yangilarini o‘zlashtirish xarajatlarining yuqoriligi;
- tashqi va ichki sabablarga ko‘ra iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining pasayishi; yuqori darajada kriminallashuv va iqtisodiyot sohasida korrupsiyani kuchayishi;
- xufyona iqtisodiyotning yuqori ulushini saqlanib qolishi;
- aholi daromadlarini tabaqlashuvini kuchayishi;
- inson potensiali sifatini pasayishi bilan bog‘liq holda ta’lim va tibbiyot sifati pasayishi;
- yuqori malakali kadrlarga nisbatan xalqaro raqobatni kuchayishi;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi mintaqalarini tabaqlanishuvi;
- ekologik xavfsizlik sohasi bo‘yicha ortiqcha talablarni qo‘yilishi, ishlab chiqarish va iste’mol bo‘yicha ekologik standartlarni ta’minlash xarajatlarini o‘sishi.

Ko‘rsatkichlar guruhi	Ko‘rsatkichlar tavsifi
Yalpi ichki mahsulot	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Yalpi ichki mahsulotning jismoniy hajmi indeksi</li> <li>• Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot</li> <li>• Jahon yalpi ichki mahsulotida O‘zbekistonning ulushi</li> <li>• Yalpi ichki mahsulotda asosiy kapitalga investitsiya ulushi Yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imkorligi</li> </ul>
Ishlab chiqarish jarayoni	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Asosiy fondlarning eskirish darajasi</li> <li>• Sanoat ishlab chiqarish indeksi</li> <li>• Mehnat unumdarligi indeksi</li> <li>• Asosiy kapitalga investitsiyalarda mashina, uskunalar va transport vositalariga qilingan investitsiyalar ulushi</li> </ul>
Pul bozori	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Pul massasi indeksi (pul agregatlari M2)</li> <li>• Inflatsiya darajasi</li> <li>• Sof kapitalni chiqishi (kirishi)</li> <li>• O‘zbekiston Respublikasining oltin zaxiralarining import tovarlar hajmiga nisbati</li> </ul>

Moliyaviy mustaqillik	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Davlatning tashqi qarzi</li> <li>• Davlatning ichki qarzi</li> <li>• Byudjet tanqisligi</li> </ul>
Mehnat bozori	<p>Mehnat bozorining zichligi (напреженность)</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• koeffitsiyenti</li> <li>• Daromadlari yashash minimumidan past bo‘lgan aholi ulushi</li> <li>• Mehnatga layoqatli aholida ish haqi hajmi yashash minimumidan past bo‘lgan ishchilar ulushi</li> <li>• Ta’lim darajasi bo‘yicha band bo‘lganlarning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi</li> </ul>
Tashqi iqtisodiy faoliyat	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Eksport va importning jismoniy hajmi indeksi va savdo balansi saldosи</li> <li>• Tovarlar va xizmatlar eksportida innovatsion tovarlar va xizmatlar ulushi</li> </ul>
Boshqa ko‘rsatkichlar	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Iqtisodiy integratsiya darajasi</li> <li>• Chakana savdo oboroti</li> <li>• Iqtisodiyot sohasida jinoyatchilik darajasi</li> <li>• Detsil koeffitsiyenti</li> </ul>
Ko‘rsatkichlar guruhi	Ko‘rsatkichlar tavsifi
Yalpi ichki mahsulot	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Yalpi ichki mahsulotning jismoniy hajmi indeksi</li> <li>• Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot</li> <li>• Juhon yalpi ichki mahsulotida O‘zbekistonning ulushi</li> <li>• Yalpi ichki mahsulotda asosiy kapitalga investitsiya ulushi</li> <li>• Yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imkorligi</li> </ul>
Ishlab chiqarish jarayoni	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Asosiy fondlarning eskirish darajasi</li> <li>• Sanoat ishlab chiqarish indeksi</li> <li>• Mehnat unumdarligi indeksi</li> <li>• Asosiy kapitalga investitsiyalarda mashina, uskunalar va transport vositalariga qilingan investitsiyalar ulushi</li> </ul>

Pul bozori	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Pul massasi indeksi (pul agregatlari M2)</li> <li>• Inflatsiya darajasi</li> <li>• Sof kapitalning chiqishi (kirishi)</li> <li>• O‘zbekiston Respublikasining oltin zaxiralarini import tovarlar hajmiga nisbati</li> </ul>
Moliyaviy mustaqillik	<input type="checkbox"/> Davlatning tashqi qarzi
Mehnat bozori	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mehnat bozorida zichligi (напряженность) koeffitsiyenti</li> <li>• Daromadlari yashash minimumidan past bo‘lgan aholi ulushi</li> <li>• Mehnatga layoqatli aholida ish haqi hajmi yashash minimumidan past bo‘lgan ishchilar ulushi</li> <li>• Ta’lim darajasi bo‘yicha band bo‘lganlarning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi</li> </ul>
Tashqi iqtisodiy faoliyat	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Eksport va importning jismoniy hajmi indeksi va savdo balansi saldosи</li> <li>• Tovarlar va xizmatlar eksportida innovatsion tovarlar va xizmatlar ulushi</li> </ul>
Boshqa ko‘rsatkichlar	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Iqtisodiy integratsiya darajasi</li> <li>• Chakana savdo oboroti</li> <li>• Iqtisodiyot sohasida jinoyatchilik darajasi</li> <li>• Detsil koeffitsiyenti</li> </ul>

O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiyiqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilar keltirilgan:

- Pul massasi indeksi (pul agregatlari M2).
- Inflatsiya darajasi.
- Sof kapitalning chiqishi va (kirishi).
- Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot.
- Jahon yalpi ichki mahsulotida O‘zbekistonning ulushi.
- Yalpi ichki mahsulotning jismoniy hajmi indeksi.
- Yalpi ichki mahsulotda asosiy kapitalga investitsiya ulushi.
- Yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imkorligi.
- Yalpi ichki mahsulotda yuqori texnologik tovarlar va xizmatlar ulushi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarda mashina, uskunalar va transport vositalariga qilingin investitsiyalar ulushi.

Asosiy fondlarning eskirish darajasi.

Sanoat ishlab chiqarish indeksi.

Mehnat unumdorligi indeksi.

Inflatsiya darajasi.

O‘zbekiston Respublikasining oltin zaxiralarini import tovarlar hajmiga nisbati.

Davlatning tashqi qarzi.

Davlatning ichki qarzi .

Eksport va importning jismoniy hajmi indeksi va savdo balansi saldosи.

Tovarlar va xizmatlar eksportida innovatsion tovarlar va xizmatlar ulushi.

Ta’lim darajasi bo‘yicha band bo‘lganlarning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi.

Iqtisodiy integratsiya darajasi.

Chakana savdo aylanmasi.

Iqtisodiyot sohasida jinoyatchilik darajasi.

Detsil koeffitsiyenti.

Iqtisodiyot sohasida jinoyatchilik darajasi.

Mehnatga layoqatli aholida ish haqi hajmi yashash minimumidan past bo‘lgan ishchilar ulushi.

Import tarkibida oziq-ovqat tovarlari ulushi.

Umumiy aholi sonida mehnat resurslarining ulushi.



Iqtisodiyot ko‘rsatkichlari bilan iqtisodiy xavfsizlikning tahlikali chegara ko‘rsatkichlarini qiyoslash asosida uning holatini baholash va tahdidlarni bartaraf etishning kompleks choratadbirlarini ishlab chiqish mumkin.

Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlik bu iqtisodiyotning shunday holatiki, unda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishiladi, ijtimoiy ehtiyojlar qondiriladi, samarali boshqaruv, milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos belgilaridan biriga aylanadi. Iqtisodiy xavfsizlik ikki tashkil etuvchidan iborat: ichki va tashqi. Ichki tashkil etuvchilarga mamlakatda yuz bershi mumkin bo‘lgan, kutilayotgan tahdidlar va stixiyalarga nisbatan iqtisodiyotni, jamiyat va davlat institutlarining barqarorligi bilan ifodalanadi. Tashqi tashkil etuvchilarga, xorijiy iqtisodiy yoki siyosiy subyektlar manbai bo‘lib, kutilmagan yoki ular tomonidan rejalashtirilgan tahdidlar bo‘lib hisoblanadi.

## **2.3-§. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizlik tizimi**

Bugungi kunda jahon xo‘jaligida globallashuv jarayonlarini kuchayishi bilan tavsiflanadi. Har bir mamlakat global iqtisodiy tizimning subyekti sifatida jahon tizimiga muaffaqiyatli integratsiyalashuvini istadi. Barcha, ya’ni ishlab chiqarish omillarini jadallahsgan samarali ayirboshlanishi bu ijobiy momentlardir, biroq shu bilan birga, salbiy tomonlar mamlakatning tashqi bozorga qaramligi kuchayib bormoqda. Globallashuv sharoitida barcha mamlakatlarda iqtisodiy vaziyat bir xil emas. Uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi mamlakatni qay darajada jahon hamjamiyati nazorati ostida ekanligini belgilab beradi. O‘zbekiston bunday holatdan ozod etilgan emas, balki aksincha jahon hamjamiyatiga integratsiya davlatga qator muammolarni vujudga keltirganini ko‘rish mumkin.

Iqtisodiyotni internatsionallashuvi sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash muammosi O‘zbekistonning iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishning asosiy jihatni bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy muammolarni hal etish faqatgina iqtisodiy xavfsizlik talablaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy munosabatlar sohasida to‘g‘ri va maqsadga muvofiq holda huquqiy mexanizmning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liq.



O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizlik tizimining bosh vazifasi – shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlaridagi mavjud ziddiyatlarni samarali boshqara olish qobiliyatidir.

Samarali boshqarish uchun ushbu tizimning elementlarini tizimlashtirish kerak, ularga to‘g‘ri baho berish uchun ularni o‘rganish va mikro hamda makro darajada iqtisodiyotning holatini tahlilini o‘tkazish va tahdidlarni oldini olish uchun choratadbirlar ishlab chiqish lozim.

O‘zbekistonning iqtisodiy xavfsizlik tizimining yo‘nalishlarini aniqlash uchun, ularni qismlarga, elementlarga bo‘lish kerak. Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy elementlari bo‘lib quyidagilardan iborat:

**1. Energetik xavfsizlik.** Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash borasida energetik sektorining salohiyatini mustahkamlash va tabiiy energiya resurslaridan yuqori darajada samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish, mamlakat energetika siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Energetik xavfsizlik mamlakat aholisini, jamiyat, davlat, iqtisodiyot tarmoq va sohalarining yoqilg‘i hamda enegriya resurslari bilan ishonchli ta’minlanishi borasida yuzaga keluvchi xavf-xatarlardan himoyalanganlik darajasidir. Ushbu xavf-xatarlar tashqi (geosiyosiy, makroiqtisodiy, konyunkturaviy) omillar va shu bilan bir qatorda mamlakat energetika sektorining holati va faoliyat ko‘rsatishi bilan belgilanadi. Mamlakatning energetika xavfsizligini mamlakat fuqarolari, jamiyat, davlat va iqtisodiyot tarmoqlarining arzon va zaruriy

sifatga ega bo‘lgan yoqilg‘i energetika resurslariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laqonli ravishda qondirish borasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ichki va tashqi omillardan, shu bilan bir qatorda, yoqilg‘i-energiya ta’minotidagi uzilishlardan himoyalanganlik darajasi sifatida baholashimiz mumkin.

**2.Oziq-ovqat va xomashyo xavfsizligi.** Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli miqdorda ta’minlash, ocharchilik yuz berishining oldini olish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalalari hamisha har qanday mamlakatda muhim hayotiy muammo hisoblangan. Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zini o‘zi, mustaqil ta’minlashga qodirligini ifodalaydi. Shuningdek, oziq-ovqat importiga o‘ta bog‘liqlikdan xalos bo‘lganligini anglatadi. Ta’kidlash joizki, oziq-ovqat xavfsizligi faqat ichki o‘zini o‘zi to‘liq oziq-ovqat mahsulotlari ta’minlash bilan cheklanmaydi. Buning uchun oziq-ovqat importi ham e’tiborga olinadi. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash borasidagi siyosatida, asosan, o‘zining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va ichki sotish bozorlarini rivojlantirishga, qisman, chet ellardan oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish asosida aholini oziqovqatga bo‘lgan maqbul darajadagi ehtiyojini qondirish ko‘zda tutiladi.

**3.Texnik-ishlab chiqarish xavfsizligi** o‘ziga mamlakatga tashqi iqtisodiy xatoliklar va ichki tanazzullar bo‘lganda ularning negativ ta’sirini oldini olish va shu bilan birga kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni barqarorligini taxminlashga, davlatning ijtimoiy va mudofaa talabini qondirishga qaratilgan.

**4.Transport xavfsizligi.** Transport aholi va moddiy ishlab chiqarishning yuk va yo‘lovchi tashish borasidagi ehtiyojlarini qondiradi, mamlakat hududlarini tutashtiradi, tovar, mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqaruvchilari bilan iste’molchilarni o‘zaro bog‘lovchi o‘ziga xos ko‘prik hisoblanadi. Bunday o‘zaro bog‘lovchi o‘ziga xos aloqalarsiz bozor va bozor munosabatlarining mavjudligi ham amri mahol. Aynan shu sababli, mamlakat transport majmuidagi buzilishlar mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash borasida jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Mamlakatimizda transport va transport kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirish, yuk va yo‘lovchi tashishlarning yuqori darajadagi xavfsizligini ta’minlash, transport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, soha uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**5.Boshqaruv xavfsizligi** bu menejerlar uchun boshqarish zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikmalar yig‘indisidir. Ushbu ko‘nikma va bilimlar ikki guruhga bo‘linadi:

- muammolarni samarali hal qilishga qaratilgan boshqaruv siklini amalga oshirish, istiqbolli maqsadlarni aniqlash, o‘z ish joyini va qo‘l ostidagi xodimlarning ishini samarali rejalshtirish, yordamchi o‘rinbosarlarga aniq vazifalarni qo‘yish, xodimlar qo‘nimsizligini to‘xtatish, mehnat rejimi va shart-sharoitlariga rioya qilish;

- kommunikativ funksiyalar – bu insonlar va yordamchi o‘rinbosarlar bilan muloqot qilishni bilish, hamkorlar, turli korxonalar va davlat tuzilmalari bilan

ishbilarmalik aloqalarini o‘rnatish, hamsuhbatning fikrini eshitishni bilish, o‘zining emotsiyalarini nazorat qila olishi, yaxshi yozma va og‘zaki notiqlikka ega bo‘lish. Bugungi kunda jahonda iqtisodiy xavfsizlikka eng katta ta’sir etuvchi bu boshqaruv salohiyati va boshqaruv samaradorligi bilan aniqlanadi.

**6.Iqtisodiy o‘sish va davlat iqtisodiy xavfsizligining barqarorligi** faqatgina mamlakatda milliy xo‘jalikni investitsion rivojlanish tipida amalga oshishi mumkin. Shundan kelib chiqib davlatning investitsion xavfsizlik muammosi vujudga keladi. Investitsion xavfsizlikning asosiy tashkil etuvchilari sifatida uning ikkita tavsifi ko‘riladi: investitsion tavakkalchilik va investitsion salohiyat. Bu yerda shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, O‘zbekistonda bugungi kunda katta investitsion salohiyat mavjud, biroq uni amalga oshirishga investitsion tavakkalchilik to‘siq bo‘lib turibdi.

**7.Demografik xavfsizlik** – milliy xavfsizlikning boshqa iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, axborot, huquqiy turlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Demografik xavfsizlik konstitutsion qonunchilik asosida kafolatlangan shaxs, jamiyat va davlat turli xildagi ichki hamda tashqi tahdidlardan himoyalangan.

### **8.Ekologik xavfsizlik:**

- bu tadbirlar, jarayonlar, harakatlar, holatlar bo‘lib, ular hech qachon tabiat muhitiga, odamlarga va barcha insoniyatga sezilarli katta zarar olib kelmaydi;
- jahon hududiy maydonida ekologik mutanosiblikni taxminlaydigan kompleks harakatlar;
- atrof-muhitning o‘iga xos xususiyatlari yig‘indisi bo‘lib, biosferaga mumkin bo‘lgan darajadagi yuklamani hamda ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda, keyingi avlodga antropogen turdagи salbiy ta’sirlarni oldi olingan va bartaraf etilgan holda insonlarning hayotiy faoliyatini to‘la ta’minalash.

Ekologik xavfsizlik nafaqatgina milliy, balki transmilliy xavfsizlikni ta’minalashning muhim bir tashkil etuvchisi bo‘lib hisoblanadi. U inson sog‘lig‘iga xavfsiz bo‘lgan tashqi muhitga bo‘lgan huquqlarni belgilaydi hamda texnogen faoliyat asosida tabiiy resurslardan foydalanish shart-sharoitlarini ta’minalaydi va tartibga soladi. Ekologik xavfsizlik barcha ierarxik darajalarda geografik va ekologik tizimni tavsiflaydi.

**9. Axborot xavfsizligi.** Axborot xavfsizligi deb, axborotlarni yo‘qotish va o‘zgartirishga yo‘naltirilgan tabiiy yoki sun’iy xossalni tasodifiy va kutilmagan ta’sirlardan hamda ushbu axborotni saqlovchi, uzatuvchi uskuna va tizimlarni himoyalanganligiga aytildi. Boshqacha aytganda, axborot xavfsizligini ta’minalovchi va boshqaruvchi texnologiyalar to‘plami, standartlar va boshqaruv usullari bo‘lib hisoblanadi. Axborotning himoyasi deb, boshqarish va ishlab chiqarish faoliyatining axborot xavfsizligini ta’minalovchi va tashkilot axborot zaxiralarining yaxlitligi, ishonchliligi, foydalanish osonligi va maxfiyligini ta’minalovchi qat‘iy reglamentlangan dinamik texnologik jarayonga aytildi. Axborotlarga nisbatan xavf-xatarlar tasnifi

xavfsizlik siyosatining eng asosiy vazifalaridan biri himoya tizimida potensial xavfli joylarni qidirib topish va ularni bartaraf etish hisoblanadi.


**10. Texnologik xavfsizlik** bu ishlab chiqarish faoliyatida yoki yangi texnologiyalarni joriy etishda, davlatning suveretitetini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini va milliy xavfsizligini ta'minlash maqsadida texnologik taraqqiyot darajasini oshirish orqali jamiyat, shaxs va davlatning muhim manfaatlarini qabul qilingan choratadbirlar asosida tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib hisoblanadi.

Texnologik xavfsizlikni ta'minlash bu quyidagilarni belgilab beradi:

- xalqaro mehnat taqsimoti sharoitida mamlakatning texnologik mustaqilligi;
- ta'lim, sanoat, davlat ilmiy-texnik siyosatni umumiyligi;
- fan va texnikani ustuvor sohalarini amalga oshirish;
- sanoatni qayta qurish;
- milliy texnologik bazani qayta qurish;
- texnologik rivojlanishni va uning axborot ta'minotini boshqarish.

**11. Moliyaviy xavfsizlik** – milliy manfaatlarni hisobga olgan holda mustaqil moliyaviy siyosatni olib borish, davlat vazifalarini hal etish uchun kerakli hajmda moliyaviy oqimlarni shakllantirish. Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy sharti bu ijtimoysiyoziy tizimga moliyaviy inqirozlar ta'sirini oldini olish, kapitalni chetga chiqib ketishini, milliy byudjet resurslarini taqsimlashda ixtiloflarni oldini olish, xorijiy investorlar resurslarini jalg etish bo'lib hisoblanadi.

## 2.4-rasm. Mamlakat iqtisodiy xavfsizlik tizimi.



Iqtisodiy xavfsizlik mexanizmi – bu yagona bir butun tizim bo'lib, uning yordamida moddiy boyliklarni yaxshilash uchun ishlab chiqarishning turli iste'mol,


taqsimot, ayriboshlash va iste'mol sohalarida ijtimoiy munosabatlar shakllantiriladi. Iqtisodiy xavfsizlik tizimining umumiyligi belgilariga quyidagilar kiradi:

- maqsadga yo'naltirilganlik;
- qarama-qarshilik;
- tartibga solinishi;
- o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati, mustaqilligi;
- inersionligi;
- barqarorligi va moslashuvchanligi.

O'zbekiston Respublikasining bugungi kundagi taraqqiyoti darajasi holatidan kelib chiqib bir qator o'ziga xos belgilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- tarixiy rivojlanishning ustuvorligi;
- tashqi ta'sirga nisbatan metinligi;
- ekologik tizimni himoyalanganligi;
- xavfsizlik obyektlarini taqsimlanganligi;
- xavfsizlikni ta'minlashda foydalaniladigan iqtisodiy metodlar va ishlanmalarining ilmiyligi;
- tartibga solishni ustuvorligi va uni tashkil etishda turli shakllarini qo'llanishi hamda axborot ta'minotini rivojlanishi.

Bularning barchasi iqtisodiy xavfsizlikni chuqur tadqiq etishga, baholashga keyinchalik uning turli muammolarni hal etishda mustahkam bazani shakllantiradi. Iqtisodiy xavfsizlik tizimini qurish jarayoni asosiy mezon va tushunchalarga ko'ra yettita blokdan iborat.



## 2.5-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik tizimi tuzilmasi.

Davlat iqtisodiy xavfsizlik tizimini shakllantirish va uni tahlili doirasida vaziyatlarni aniqlash, xavfsizlik chora-tadbirlarini ishlab chiqish, normativ qonun hujjatlarning ekspertizasini o'tkazish, O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligiga bog'liq davlat qarorlarini ishlab chiqish kerak.

## **2.4-§. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari va uning strategik maqsadlari**

O'zbekiston Respublikasining xavfsizlik asoslari ijro va qonunchilik apparati tomonidan, qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlari, Hukumat va Oliy Majlisning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Iqtisodiy xavfsizlikning strategik maqsadi iqtisodiy xavf-xatar va tavakkalchiliklar bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy va normativ-huquqiy chora-tadbirlardan iborat konsepsiya ko'rinishidagi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ishlanmalar sifatini oshirish mexanizmidir.

Iqtisodiy xavfsizlikni rivojlantirish strategiyasining mazmuni bu iqtisodiyotning rivojlanishini shunday ta'minlashga aytildiği, unda shaxsni yashashi va rivojlanishi uchun munosib sharoitlar, jamiyatni ijtimoiy iqtisodiy, harbiy-siyosiy barqarorligi, mamlakatni yaxlitligi, tashqi va ichki tahdidlarga nisbatan samarali qarshilik qilishi, milliy byudjet resurslarini taqsimotida, xorijiy investorlar resurslarini jalb etishda ixtiloflarni oldini olish tizimi vujudga keladi.

Davlat strategiyasini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining umumiy xavfsizlik strategiyasi maqsadlariga erishishning zaruriy shartini ta'minlashi kerak. Xususan, quyidagilar ta'minlanishi kerak:

- inson va fuqoronning huquqlarini, mamlakatda ijtimoiy tinchlikni va jamiyatda ijtimoiy osoyishtalikni kafolatlovchi turmush darajasi sifatini oshirish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqib ichki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni samarali hal etish;
- milliy manfaatlarga bog'liq bo'lган jahondagi jarayonlarga faol ta'sir etish;
- jahon xo'jalik aloqalariga teng huquqli integratsiyasi sharoitida mehnat taqsimoti, davlatni barqaror rivojlantirish;
- xorijiy davlatlardan va ularning uyushmalaridan O'zbekistonni iqtisodiy faoliyatning muhim masalalarida tahlikali qaramlikka yo'l qo'ymaslik.

Strategiyada iqtisodiy xavfsizlikda kutilishi mumkin bo'lgan tahdidlarini aniqlash va mamlakatni iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimida birlamchi ahamiyat kasb etadigan, ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga

katta e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, quyidagi omillardan kelib chiqib, jamiyatni va xo'jalik faoliyatini kriminallashuvini kamaytirishga harakat qilingan:

- ishsizlikning o'sishi, chunki statistikaga ko'ra jamiyatdagi tartib buzilishlarning asosiy qismini doimiy daromad manbaiga ega bo'limgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi;
- davlat boshqaruv organlarining ma'lum bir guruh xodimlari uyushgan jinoyatchi guruhlariga qo'shilishi natijasida, kriminal kuchlarni ishlab chiqarishni boshqarish jarayonining ma'lum bir qismiga egalik qiladi va turli hokimiyat boshqaruv tuzilmalariga kirib boradi;
- davlat nazorat tizimini pasayishi natijasida ichki moliyaviy bozorlarda, xususan, xususiylashtirish, eksport-import operatsiyalarda, savdo sohalarida jinoyatchi guruhlar faoliyati kuchayadi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy jarayonlarga samarali ta'sir etish va tartibga solish uchun iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni oldini olish maqsadida kompleks chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan. Ular bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy tizimida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning bazaviy asosi sifatida foydalaniladi.

1. Monitoring – bu davlatning iqtisodiy xavfsizligi dinamika ko'rsatkichlarini operativ axborot-analitik kuzatish tizimi. Bu tizim iqtisodiyotni o'tish davrida tarmoqlararo proporsiyalarning buzilishi mavjudligi, resurslarni keskin tanqisligi (birinchi navbatda, moliyaviy) ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni nobarqarorligi jarayonlarida juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu yakuniy natijada axborotlarning sifati va uni olish tezkorligi, kompleksligi, chuqur tahlil etilganligi obyektni to'la egallash shakllariga qo'yilgan talablarni kuchayishiga olib keldi.

Shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy manfaatlariga ichki va tashqi tahdidlarni belgilab beruvchi omillarni monitoring qilish uchun, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasining tashkiliyaxborot bazasini shakllantirish zarur bo'lib hisoblanadi.

2.O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizlik mezonlari va ko'rsatkichlarni shakllantirish (tahlikali chegaralar va ko'rsatkichlari). Respublika strategiyasini amalga oshirish maqsadida iqtisodiyotdagi vaziyat haqida ma'lumot beruvchi miqdor va sifat ko'rsatkichlar ishlab chiqiladi. Ushbu ko'rsatkichlar doirasidan chetga chiqish iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni olib keladi. Ularning asosida mamlakat iqtisodiyotini himoya qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar va iqtisodiy siyosatni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

3.Ma'lum rejali konsepsiyalarni ishlab chiqish. Iqtisodiy rivojlanishning tahlikali chegaralarining kutilgan parametrlaridan og'ish va real ko'rsatkichlardan chetga chiqish aniqlanganda, mamlakatni xavf-xatar zonasidan chiqarish,

tahdidlarning kelib chiqishini oldini olish uchun, davlatning kompleks chora-tadbirlar rejasи ishlab chiqiladi.

Strategianing asosiy vazifasi milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash, mulkning barcha shakllarini himoya qilish, tadbirkorlik faolligini oshirish kafolatlari va shartsharoitlarini yaratish, kriminal jinoyatchi tuzilmalarga qarshi kurash, ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi daromadlar taqsimotida katta farqlarni, uzilishlarni vujudga keltirmaslik, resurs xomashyo, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va moliyaviy sohalarda inqiroziy jarayonlarni shakllanishiga hamda aholi turmush sifati darajasini pasayishiga yo'l qo'ymaslik.

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha ijtimoiyiqtisodiy rivojlanish konsepsiyasida istiqbolda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan potensial xavf-xatar va tahidilar tahlil qilingan. Konsepsiya iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yo'naliishlari bo'lib xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasini o'rtacha va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning maqsadlari, ustuvorliklari hamda vazifalarini belgilaydi va asoslaydi.

Bunda, maqsadlar sifatida konsepsiya jadal va barqaror o'sish sharoitlarida respublika har bir fuqarosining sog'lom va samarali hayotini ta'minlaydigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, yer, suv va energetika resurslaridan ularni kelajak avlodning foydalanishi uchun saqlab qolgan holda samarali foydalanish, ekologik muammolarni hal etish, Orol dengizining ekologik inqirozi oqibatlarini bartaraf etish, atrof-muhitni yaxshilash ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi bir qator funksiyalarni o'z ichiga oladi. Ularga:

**1.Himoyalovchi** – mamlakatni yetarli darajada resurs salohiyati mavjudligi sababli iqtisodiyotni tashqi va ichki tahidlardan himoya qilish. Ushbu funksiya samarali faoliyat yuritishi uchun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish, kadrlar va boshqaruv resurslar darajasini oshirish, tashqi tavakkalchiliklar darajasini pasaytirish.

**2.Tartibga soluvchi** – tahidlarni oldini olishning ikki varianti mavjud, yuqorida pastga va pastdan yuqoriga. Birinchi variant mavjud bozor munosabatlarini va davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmini takomillashtirishni rivojlantrishga asoslanadi. Ikkinci variant bozorni tartibga solishni ichki xo'jalik mexanizmiga va o'z-o'zini tartibga solish mexanizmiga asoslanadi. Bunda, birinchi navbatda, raqobat va baho darajasiga bog'liq bo'lgan xo'jalik subyektlarining ichki va tashqi muhiti hamda bozorning asosiy tavsifi muhim rolni o'ynaydi. Bozor iqtisodiyotning muvozanatli holatini raqobat va bahoning optimal nisbatini belgilab beradi.

**3.Innovatsion iqtisodiyotda** mavjud bo‘lgan va ushbu vaqtda amal qilayotgan tahdidlarni yengib o‘tish uchun innovatsion qarorlar va chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda undan foydalanish.

**4.Ogohlantiruvchi** – iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda uni bashorat qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda kelayotgan tashqi va ichki xavf-xatarlarni, tavakkalchiliklarni, tahlikali vaziyatlarni ogohlantirish, oldini olish, bartaraf etish tavakkalchiliklarni sifatli bashoratlash va unga qarshi samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun aniq, o‘z vaqtida, mukammal sifatli axborot kerak bo‘ladi. Shuning uchun ham iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning ogohlantiruvchi funksiyasi axborotga asoslanadi.

**5.Ijtimoiy –shaxsni**, jamiyatni va davlatni rivojlantirish hisobiga mamlakat aholisini yuqori turmush darajasi sifatiga erishish.

Shunday qilib, O‘zbekistonda iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi va uning himoyalovchi choralar虫 bugungi kun talablariga mos bo‘lib bormoqda. Ular mamlakatda bugungi kunda mavjud muammolarga yaqinlashgan. Davlatning iqtisodiy siyosati va iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi – bu davlatni iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmi va kategoriyalardir hamda o‘zaro bog‘liq va bir-biri bilan hamkorlikda bo‘lishi kerak. Bir tomondan, iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi bu uning strategik maqsadlarini ifodalab, tartibga solishda makroiqtisodiy konsepsiyaning sifatini belgilab, iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismini tashkil etadi. Boshqa tomondan, kutilayotgan iqtisodiyot holatini miqdoriy parametrlarini baholovchi, iqtisodiy siyosat metodlarini tanlashda cheklavlarni belgilovchi, ya’ni ulardan foydalanish natijasida mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikka bo‘lgan tahidilar darajasini pasayishga olib kelsin.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

- 1.O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizlik strategiyasining maqsadini aytib bering.
- 2.Bugungi kunda iqtisodiy fanda —xavfsizlik‖, —barqarorlik‖, —rivojlanish‖ kategoriyalarning o‘zaro bog‘liqligini qanday tushuntirish mumkin?
- 3.Dunyoda iqtisodiy xavfsizligining bugungi kunda qanday ustuvorliklari mavjud?
- 4.Iqtisodiy xavfsizlik tizimida mezonlar va ko‘rsatkichlar qanday qilib amalga oshadi?
- 5.Davlatning iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati va uning tuzilmasini aytib bering.
- 6.Demografik xavfsizlik nima?
- 7.Sanoat xavfsizligi nima?
- 8.O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizlik omillarini sanab o‘ting.
- 9.Moliyaviy xavfsizlik nima?

### **3-mavzu. IQTISODIY XAVFSIZLIK SHAKLLARI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI**

#### **Reja**

**3.1-§. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo‘lish shakllari. Shaxs, korxona va davlatning iqtisodiy xavfsizligi**

**3.2-§. Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari**


**3.3-§. Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlarining tahlikali chegaralari**

#### **3.1-§. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo‘lish shakllari. Shaxs, korxona va davlatning iqtisodiy xavfsizligi**

Makroiqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiy xavfsizlik muayyan mamlakat milliy iqtisodiyotini tavsiflaydi. Bozor tizimida xatar borligidan, bundan hatto milliy iqtisodiyot ham xoli bo‘lmasligini va undan saqlanish zarurligini bildiradi. Iqtisodiy xavfsizlikning bosh mezoni – bu mamlakat ehtiyojlarini uzluksiz ta’minlanishi hisoblanadi. Bu, birinchidan, milliy iqtisodiyotni mahsulot va xizmatlari bilan to‘la ta’minlashni, ikkinchidan, mamlakatda ishlab chiqarish mumkin bo‘lmagan tovar va xizmatlarni chetdan qulay narxlarda hamda uzluksiz import qilishni bildiradi. Aks holda iqtisodiyot izdan chiqadi.

Iqtisodiy xavfsizlik subyekti – bu iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi munosabatlar ishtirokchisi bo‘lib, ularning faol harakatlari obyektning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, ya’ni himoyalanganlik holatini yoki doimiy va samarali faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Iqtisodiy xavfsizlik subyekti quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

shaxsning iqtisodiy xavfsizligi; korxonaning(firma) iqtisodiy xavfsizligi; davlatning iqtisodiy xavfsizligi.



### 3.1-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik shakllari.

**Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi** – bu uning hayotiy manfaatlarining, ya’ni yashash va shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish, mulkdor bo‘lish, hayotiy iste’mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini tiklash, bilim olish va kasbga ega bo‘lish, qariganda va mehnat layoqatini yo‘qotganda ijtimoiy ta’minot olish huquqlari bilan ifodalaydi.

Bunda shaxsning bozor iqtisodiyotida iste’molchi va ishchi, xizmatchi, tadbirkor sifatidagi ijtimoiy-iqtisodiy huquq hamda erkinliklarining, manfaatlarining himoyalangani, kafolatlangani nuqtayi nazaridan iqtisodiy xavfsizlikni ikki turga ajratish mumkin.

Korxonalarning (firma) iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilganda ularni ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatish, moliyaviy, savdo-tijorat hamda notijorat va jamoatchilik tashkilotlari sifatida faoliyat yuritishi nuqtayi nazaridan turkumlash maqsadga muvofiq.

Korxonaning (firma) ixtisosligiga ko‘ra xavfsizligini ta’minlash xususiyatlari ham turlicha bo‘lishi tabiiydir.



Davlatning iqtisodiy xavfsizligi uning mamlakat ichki muammolari va tashqi iqtisodiy faoliyati hamda xalqaro moliyaviy tashkilot va uyushmalarda ishtirok etish bilan bog'liq xavf-xatarlar nuqtayi nazaridan tahlil etiladi.

Iqtisodiy xavfsizlik asosida barqarorlikka o'xshash bo'lgan muhit tashkil etuvchilar yotadi — bu material, inshootning, uni yangi sifat holatiga, ya'ni tarkib yoki tuzum o'zgarishiga keltiradigan, zarur yo'naltirilgan qonuniy o'zgarishidir. Rivojlanishsiz iqtisodiy taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Barqarorlik — bu jamiyatning favquloddagi holatlarda ham o'z manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati, holatni tiklash imkoniyatidir. Asosiy iqtisodiy xavfsizlik tahdidlari — mamlakatning iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jarayon bo'lib, mamlakat, jamiyat va shaxs iqtisodiy manfaatlarini chegaralaydi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismiga kirganligi uchun milliy xavfsizlikning tashkil etilishi va shakllanishi bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilishi lozim. Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi va uning moddiy asosi hisoblanadi. Shuning uchun, iqtisodiy xavfsizlik mamlakat milliy xavfsizlik genezisi va shakllanishiga doir masalalar qatorida o'rganilib chiqilishi darkor. Umuman, iqtisodiy xavfsizlik asosiy paradigmasi quyidagi elementlar tashkil etadi:

- xalqaro munosabatlar tizimiga o'tish, ya'ni ishchi kuchi konsepsiyasidan manfaatlar konsepiyasiga qarab;
- iqtisodiy xavfsizlikning bir-biriga qarshi tipdagi g'oyalar va tuzilmalarda xalqaro iqtisodiy hamkorlik va xalqaro munosabatlarga asoslangan model tomon harakatlanishi;
- hudud daxlsizligini ta'minlash tamoyiliga qo'shimcha qilib mintaqa, korxona, oila hamda shaxs iqtisodiy xavfsizligi tamoyilini kiritish;
- iqtisodiy sohadagi tahdidlar majmuali xususiyatga ega bo'lib, avvalo, YAIMning sezilarli darajada qisqarishi, investitsion va innovatsion faoliyat hamda ilmiy-texnikaviy salohiyatning pasayishi, qishloq xo'jaligi sektoridagi inqiroz, yoqilg'i xomashyosi va energetik komponentlarni eksporti sur'atining oshishi, importda esa birlamchi va iste'mol mollarining o'sishi kuzatiladi.

Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatida esa quyidagi masalalar muhim o'rinn tutadi:

- milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiyalashuviga qulay sharoit tashkil etish;
- milliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari sotish bozorlarining kengayishi;

- MDH davlatlari bilan yagona iqtisodiy hudud barpo etish;
- milliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoya qilish;
- barqaror kredit-moliyaviy siyosatini tashkil etish, boshqa davlatlardan tashqi kredit olishni kamaytirish orqali ularga bog‘lanib qolishni oldini olish;
- chet el banklari, sug‘urta va investitsion kompaniyalarni boshqarishda davlatning rolini oshirish.

Iqtisodiy xavfsizikning quyidagi darajalari mavjud:

xalqaro (global va mintaqaviy); milliy;

lokal (mintaqaviy yoki mamlakat ichidagi tarmoqlar); xususiy (korxonalar va shaxs). xalqaro iqtisodiy xavfsizlik — shartnomalar va institutsional tuzilishni amalga oshirish borasidagi barcha xalqaro shartlar majmuasi bo‘lib, unda har bir jahon hamjamiyatidagi a’zo davlatning erkin saylash va o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishi, tashqi bosimga uchramasligi, boshqalarning ishiga aralashmasligi, o‘zaro manfaatli va muvofiqlik asosida jahondagi boshqa davlatlar bilan hamkorligi tavsiflanadi.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik taraqqiyot modellarning bog‘lanib qolishini, shuningdek, har bir xalqning o‘z yo‘lini tanlash huquqini tan olish, manfaatlari hurmat qilinishi orqali iqtisodiy va siyosiy qaramlikni rad etadi. Mamlakatning nafaqat iqtisodiy, shuningdek, siyosiy ahvoliga ham jiddiy xavf tug‘diruvchi tahdidlardan biri tashqi qarz muammosidir.

### **3.2-§. Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari**

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi holati mezon va ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Makro va mikro darajada iqtisodiy xavfsizlikka bo‘ladigan tahdidlarni tahlil qilish va bashoratlashda iqtisodiy xavfsizlikning mingdan ziyod ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Biroq ularning ichida 19 ta indikatoridan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaniladi. Bu indikatorlar iqtisodiyotning real va moliyaviy sektorlarida hamda ijtimoiy sohada iqtisodiy xavfsizlikning muhim jihatlarini ifodalaydi. 19 ta indikatorning xususiyatlaridan biri ularning o‘zaro bog‘liqligidir.

Iqtisodiy xavfsizlikning mezon va ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy tizimning amal qilishidagi tahlikali chegaralar belgilanadi. Ko‘rsatkichlar tahlikali chegaralar sifatida qabul qilingan birliklardan chekingan holatlarda tizim izchil rivojlanishga bo‘lgan qobiliyatini, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini yo‘qotib boradi, transmilliy korporatsiyalarning ekspansiyasi obyektiga aylanib qoladi, milliy

boyliklarning talon-toroj qilinishi, xufyona iqtisodiyot va korrupsiya miqyoslarining kengayishidan zarar ko‘radi.

Davlat siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiyotni nafaqat sifat, balki xavflardan xoli bo‘lgan tarzda rivojlanish chegaralarini son jihatdan ham belgilashi talab etiladi. Demak, mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik holatining sustlashishiga ma’lum bir chegara doirasida yo‘l qo‘yilishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlik uchun ko‘rsatkichlarning o‘zi emas, ularning chegaraviy miqdori muhim ahamiyatga ega. Shu chegaralarga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarishning turli elementlarini normal taraqqiy etishiga to‘sinqinlik qiladi. Iqtisodiy xavfsizlikda negativ, buzuvchi jarayonlarning shakllanishiga olib keladi. Iqtisodiy xavfsizlikning miqdoriy ko‘rsatkichlari bo‘yicha milliy manfaatlarni ta’minalash maqsadida ko‘rsatkichlarning eng quyi yoki yuqori chegaralari aniqlanadi.

Hokimiyat institutlari tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy xavfsizlik siyosati ko‘rsatkichlarning barchasini me’yorida saqlab turishga qaratilishi kerak. Iqtisodiy xavfsizlikning bir chegaraviy ko‘rsatkichi boshqa shunday ko‘rsatkichning yomonlashuvi hisobiga ta’minalishi mumkin emas. Davlat har bir aniq holatda xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikning uyg‘unlashuvini ta’minalashga harakat qilishi kerak bo‘ladi. Ayni paytda qisqa davr oralig‘ida foyda keltirishi, strategik jihatdan esa umuman foydasiz bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikning mezoni – iqtisodiy xavfsizlikning mohiyatini ifodalovchi muhim jarayonlar nuqtayi nazaridan iqtisodiy holatni baholash hisoblanadi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- resurs salohiyati va uni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash;
- resurs, kapital, mehnatdan samarali foydalanish darajasini yetakchi mamlakatlar darajasiga va shuningdek, ichki hamda tashqi tavsifga ega bo‘lgan tahdidlar minimumni tashkil etgandagi darajasiga muvofiqligini baholash;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligini baholash;
- hududiy sarhadlarni va iqtisodiy makonning yaxlitligini baholash;
- suverenitet va mustaqillikni, tashqi tahidlarga qarshi turish imkoniyatlarini baholash;
- ijtimoiy barqarorlikni va ziddiyatlarning oldini olish va hal etish imkoniyatlarini baholash.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minalashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun uning indikatorlari monitoringini tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Monitoring iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, tahlil etish va ularning o‘zgarish tendensiyalari hamda istiqbolini aniqlash imkonini beradi.

Mutaxassislarning fikricha, mezonlar biror-bir harakatni amalga oshirish uchun yo'llanma sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Uni amalga oshirishda jamiyat bazisini qayta tashkil etish, resurs va ishlab chiqarish salohiyatini qayta yaxshilash, yangi bozor institutlarini, xo'jalik yuritish dastaklarini, boshqarish tizimini yaratishga muvofiq bosqichma-bosqich harakat qilish zarur bo'ladi. Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi ko'rsatkichlari mavjud:

- Yalpi ichki mahsulot (Yalpi hududiy mahsulot);
- inflatsiya darajasi;
- davlat byudjeti kamomadi;
- ichki qarz darajasi;
- tashqi qarz darajasi;
- ishsizlik darajasi;
- turmush darajasi va sifati;
- oltin valyuta zaxiralari; □ xufyona iqtisodiyot ko'lami; □ ekologik holat.

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan tashqari yana bir qator ko'rsatkichlar ham mavjud. Masalan, aholi daromadlari, chakana narxlar miqdori, uy-joy bilan ta'minlanganlik, hududning mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, hududning to'lov balansi, eksport-import savdosi va boshqalar.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini turli xil usullar yordamida baholash mumkin, ammo biz ularni bir necha guruqlar shaklida ifodalaymiz:

- asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni kuzatish va ularning eng yuqori ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;
- hududlarni tahdid darajasi bo'yicha saralashda ekspert baholash usuli;
- asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning dinamikasi asosida mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini baholash;
- yo'qotishlar sonini aniqlash orqali xavfsizlikka tahdidning oqibatlarini baholashda iqtisodiy vositalardan foydalanish;
- amaliy matematikaning usullari, xususan, ko'p qirrali statistik tahlil;
- aralash baholash usullari.

### Iqtisodiy xavfsizlik mezonlari

real statistik o'rsatkichlar asosida hisoblanib, ular yordamida mamlakat iqtisodiyotining holati, uning barqaror rivojlanishini ta'minlash orqali baholanadi.

**Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari** – bu iqtisodiy sohadagi hodisalar va tendensiyalarni (dinamikalarni) to‘liq aks ettiruvchi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining real statistik ko‘rsatkichlari.

Ko‘rsatkichlar muhim iqtisodiy vazifani bajaradi, ular mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi darajasini tahlil qilishga yordam beradi. Iqtisodiy xavfsizlik tahlilini o‘tkazishda indikatorlarni bloklarga ajratish tavsiya etiladi, ularning har biri alohida ko‘rsatkichlar to‘plami bilan tavsiflanadi.

Ko‘rsatkichlar tizimi iqtisodiy xavfsizlikning miqdoriy va tendensiyalarini baholash uchun imkoniyat yaratadi. Umuman, iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari blokka bo‘lish orqali tahlil qilinadi va bloklar bo‘yicha xavfsizlik holati aniqlanadi.

Birinchi blokda iqtisodiy xavfsizlikning barcha koeffitsiyentlari stimulator ko‘rsatkichlari (rag‘batlantiruvchi) va stimulatorni yo‘q qiluvchi (rag‘batlantirishni pasaytiruvchi) ko‘rsatkichlarga bo‘linadi.

**Rag‘batlantiruvchi ko‘rsatkichlar** iqtisodiy xavfsizlik koeffitsiyentiga ogohlantiruvchi (ijobiy) ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, asosiy kapitalga investitsiyalar, innovatsiyalarni moliyalashtirish, ish bilan band bo‘lganlar soni va boshqalar.

**Rag‘batlantirishni pasaytiruvchi ko‘rsatkichlar** iqtisodiy xavfsizlik darajasini pasaytirishiga sabab bo‘ladi. Masalan, debitorlik va kreditorlik qarzlari, asosiy vositalarning eskirishi, ish haqi bo‘yicha qarzdorlik va boshqalar.

Ikkinchi blok ko‘rsatkichlariga taqqoslash, baholash va bashorat qilish ko‘rsatgichlari kiradi. V.K. Senchagovga ko‘ra, iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlarining chegaraviy qiymatlari bo‘lgan iqtisodiy xavfsizlikni tahlil qilish va prognozlashning indikatsion tizimini yaratish kerak (jami uning ishida davlatning iqtisodiy xavfsizligining turli sohalarini tavsiflovchi 150 ga yaqin ko‘rsatkichlardan foydalanilgan). Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlarining amaldagi va proqnoz qilingan ko‘rsatkichlarini taqqoslash mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish yo‘nalishini, hayotni ta’minlashning asosiy tizimlarining holatini ko‘rsatadi.

Uchinchi blokda indikatorlarning (ayniqsa, YaIM) eng yuqori darajasini aniqlash uchun asosiy asos sifatida ijtimoiy ko‘rsatkichlar guruhidan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu uslub mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va davlat byudjeti loyihalarining qisqa va uzoq muddatli proqnozlarini baholashda qo‘llaniladi.

To‘rtinchi blok ko‘rsatkichlar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini belgilab, V.K.Senchagov eksport tarkibiga alohida e’tibor qaratdi va tayyor mahsulotni ko‘paytirish va minerallar eksportini kamaytirish zarurligini ta’kidladi. Alovida e’tibor Davlatning iqtisodiy xavfsizligi to‘lov balansi va mamlakatning holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarga beriladi, ularning 4 tasi asosiy ko‘rsatkichlar tarkibiga kiradi: tashqi qarz; davlat qarziga xizmat ko‘rsatish xarajatlari

ulushi; valyuta zaxiralarining hajmi va tashqi qarz bo‘yicha to‘lovlarning yillik eksport hajmiga nisbati.

Ishonchlilikning ajralmas ko‘rsatkichini baholash jarayonida, muayyan o‘ziga xos guruuhlar hisoblab chiqiladi:

- siyosiy xavflarni baholash - 25%;
- qarz ko‘rsatkichi - 10%;
- iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi - 25%;
- muddati o‘tgan va qayta tuzilgan qarz ko‘rsatkichlari - 10%;
- mamlakatning kredit reytingi - 10%;
- bank kreditidan foydalanish imkoniyati - 5%;
- qisqa muddatli moliyalashtirish imkoniyatlari - 5%; • kapital bozorida kapitalni jalb qilish imkoniyati - 5%;
- o‘g‘irlash foizi - 5%.
- har bir indikator ballarda ma’lum shkala bo‘yicha ham baholanadi.

Beshinchi blok ko‘rsatkichlarga bozorga tovar yoki xizmatlar bilan kirishda uni bozor (iste’molchi) qabul qilishi bo‘yicha ham baholashga qaratilgan. Bular:

- abiiy dushmanlik;
- o‘zaro dushmanlik, ya’ni savdo faoliyatiga javobning namoyon bo‘lishi va uning bevosita va uzoq muddatli natijalari va oqibatlari;
- uyushgan adovat (savdo biznesining yangi ishtirokchisining faoliyatini rivojlantirish uchun bozorning adovati raqobat bilan bog‘liq bo‘lgan bilvosita adovat sifatida boshlangan, ishlab chiqilgan va tartibga solingan hollarda).

Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari tizimi quyidagi muhim ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lishi mumkin, ular iqtisodiy xavfsizlikning 6 mezoni yordamida aniqlanadi:

- investitsion xavfsizlik ko‘rsatkichi. Xalqaro tajribaga ko‘ra, mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishi uchun ma’lum vaqt ichida yillik investitsiyalar YaIMning 19-25% darajasida bo‘lishi kerak;
- davlatning ichki va tashqi qarzlari hajmi – bu davlat tomonidan belgilangan muddatda, mos ravishda, ichki va tashqi kredit bozorlarida to‘lanmagan kreditlar hajmidir.

$$L_{\text{dis}}(L_{\text{dfs}}) = \frac{D_i(D_f)}{GDP} * 100\%$$

Bu yerda L – davlatning uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha darajasi, Ldis – ichki qarzlar, Ldfs – tashqi qarzlar, GDP – mamlakat YaIMi.

Byudjet xarajatlari uning daromadlaridan oshib ketishi natijasida yuzaga keladigan davlat byudjeti taqchilligi. Har bir aniq yil uchun byudjet taqchilligi darajasi defitsitning yillik YaIMga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$L_{bds} = \frac{BD}{GDP} * 100\%$$

bu yerda BD – byudjet taqchilligining hajmi;

YaIM - yillik YaIM darajasi;

1.ma'lum bir yilda iqtisodiyotni pullash darajasi M3 yig'indisi (MS M3) bo'yicha pul massasining YaIMning yillik hajmiga nisbati sifatida hisoblanadi.

$$L_{ms} = \frac{MSM3}{GDP} * 100\%$$

1) bank kreditlarining qiymati qarz oluvchi tomonidan uning kreditidan foydalanish uchun tijorat bankiga to'lanadigan yillik foizlar bilan belgilanadi;

2) mamlakat bankining xalqaro zaxiralari. Boshqa valyutalarga nisbatan uning ayirboshlash kursining barqarorligi bilan belgilanadigan milliy valyutaning tashqi barqarorligi ko'p jihatdan mamlakat bankining xalqaro zaxiralari darajasiga bog'liq.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'rsatkichlarning barcha majmuasi qabul qilingan chegaralar doirasida bo'lgan va bir chegaraviy ko'rsatkich boshqa bir chegaraviy ko'rsatkichning yomonlashuvi hisobiga yaxshilanmagan taqdirdagina xavfsizlikning eng yuqori darajasiga erishiladi. Xavfsizlik ko'rsatkichlari bilan ularning tahlikali chegara miqdorlari o'rtasidagi bog'liqlik dinamikada o'rganilishi zarur.

Iqtisodiy xavfsizlikning tahlikali chegarasiga oid indikatorlar 50 ta ko'rsatkichni o'z ichiga olgan bo'lib, ular to'rt guruhg'a ajratilib turkumlangan: iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko'rsatkichlar; moliyaviy tizim barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar; ijtimoiy soha ko'rsatkichlari; tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari.

Birinchi guruh ko'rsatkichlariga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarishi hajmi hamda uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdag'i mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun xarajatlar ulushi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Ikkinchi guruh ko'rsatkichlariga esa davlat byudjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o'zaro hisob-kitob va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar kiradi.

Uchinchi guruh aholi daromadlari darajasi, aholining mulkiy jihatdan tabaqlanishi, ishsizlik kabilarni o'z ichiga oladi.

To'rtinchi guruh ko'rsatkichlariga esa mamlakat ichki iste'molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi kabi indikatorlar kiradi.


### **3.2-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining guruhlanishi.**

Xo‘jalik yuritishning istalgan sohasida – ishlab chiqarish, tashqi savdo, ilmiy-texnikaviy hamkorlik va boshqalarda, barcha mamlakatlar uchun xavfsizlikning ma’lum chegaralari mavjud bo‘lib, ularni ilmiy asoslangan me’yorlar asosida aniqlash mumkin. Ayni paytda ayrim olingan mamlakatda mavjud bo‘lgan vaziyatga to‘liq baho beruvchi universal ko‘rsatkich mavjud emas. Chunki iqtisodiy xavfsizlik ko‘p omillar ta’sirida bo‘ladigan hodisa hisoblanib, u milliy ishlab chiqarishning uzlusiz o‘zgarib turuvchi ichki va tashqi sharoitlarining yig‘indisini aks ettiradi.

Iqtisodiyot holati va uning xavfsizligi uchta indikator, ya’ni iste’mol narxlari, milliy valyuta kursi va aholining pul daromadlari bilan belgilanadi. Mana shu uchta indikator iqtisodiy xavfsizlikning boshqa indikatorlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ular iqtisodiy xavfsizlik vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunday ko‘rsatkichlar davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash borasidagi vazifalarini amalga oshirish vositalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

### **3.3-§. Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlarining tahlikali chegaralari**

Iqtisodiy xavfsizlik tamoyillari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy tizimning quyi chegarasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar qo‘llanadi. Mazkur quyi chegaralardan past ko‘rsatkichlarda iqtisodiy tizim uchun tahdidlar vujudga keladi, hatto bu tizimning buzilishi, degradatsiyasi yuz bera boshlaydi. Ushbu quyi chegara va uning miqdoriy



o‘lchamlarini aniqlash, belgilash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

- milliy iqtisodiyot va iqtisodiy tizim faoliyatining asosiy sharoitlarini o‘rganish va ularni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash;

- milliy iqtisodiyotni tanglik va beqarorlikka olib keluvchi omillarni aniqlash;
- turli tanglik, xavfli holatlar yuzaga kelishining tartibi va imkoniyatlarini baholash;
- xavfsizlik va barqarorlikni saqlashga xavf soluvchi tahdidlarning oldini olish yo'llarini aniqlash.

Chegara ko'rsatkichlari – iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarning miqdor jihatdan ifodalanishidir. Mazkur ko'rsatkichlar tizimli tahlil, prognoz va ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasida asosiy ustuvorlik aholining turmush darajasini yuksaltirish bo'lganligi bois YAIM hajmi va u bilan bog'liq ko'rsatkichlarning quyi chegaraviy miqdorlarini belgilashda aynan shu ko'rsatkichlar asos sifatida olinishi kerak.

### 3.1-jadval

#### Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlarning quyi chegarasi
YaIMga nisbatan investitsiyalar hajmi, foizda	25
Ilmiy tadqiqot ishlanmalari uchun xarajatlar, YaIMga nisbatan foizda	2
Yashash minimumidan past daromad darajasiga ega bo'lgan aholi ulushi, foizda	7
Aholining umr ko'rish uzunligi	70
Detsil koeffitsiyenti	8
Jinoyatchilik darjasи har 100 ming kishiga	5000
Inflatsiya darjasи, foizda	20
Tashqi qarz, YaIMga nisbatan foizda	25
Davlat byudjeti kamomadi	5
Pul massasi M2, YaIMga nisbatan foizda	50
Ichki iste'molda umumiy importning ulushi, shu jumladan, oziq -ovqat mahsulotlari	30 25
Xalqaro mehnat tashkiloti uslubiyotiga ko'ra, ishsizlik darjasи, foizda	7

Jahon tajribasidan ma'lumki, ijtimoiy sohada tahdidlar minimal darajada bo'lishi uchun yashash minimumidan past daromadga ega bo'lgan aholi ulushi 7-10 foizni tashkil etishi, boy va kambag'allar daromadlari o'rtasidagi tafovut esa sakkiz martadan oshmasligi kerak.

Bir guruh olimlar iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy miqdorlarini belgilashda BMT tomonidan 1990-yilda qabul qilingan inson rivojlanish indeksini taklif etadilar. Mazkur indeks ijtimoiy taraqqiyotning eng aniq umumlashgan ko'rsatkichi (mezoni) bo'lib hisoblanadi. Inson taraqqiyoti indeksi – bu dunyoning turli mintaqalari va mamlakatlarida insonning, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida taraqqiy etishini tavsiflovchi yig'ma ko'rsatkich hisoblanadi. Inson taraqqiyoti indeksi har yili BMTning Taraqqiyot dasturi mutaxassislari va mustaqil xalqaro guruh bilan birlashtirilgan holda hisoblab chiqiladi. Inson salohiyatining rivojlanish konsepsiysi BMT Taraqqiyot dasturining o'ziga xos intellektual mahsuloti hisoblanadi. 1990yilda BMTning Taraqqiyot dasturi dunyo mamlakatlarining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga baho bergan holda birinchi ma'rzasini e'lon qildi. Mazkur ma'ruzada inson taraqqiyoti tushunchasiga ta'rif beriladi. Unga ko'ra, inson taraqqiyoti – tanlash imkoniyatlarining kengayib borish jarayon, deb qaraladi. Tanloving eng muhim elementlari bo'lib, uzoq va sog'lom hayot kechirish, zaruriy ta'lim darajasiga ega bo'lish hamda moddiy jihatdan to'liq ta'minlanganlik hisoblanadi. Siyosiy erkinlik, inson huquqlarini yetarlicha kafolatlanganligi, o'z-o'zini namoyon qilish va shu kabilalar tanloving qo'shimcha elementlari hisoblanadi.

Inson taraqqiyoti to'g'risidagi keyingi ma'ruzalarda —Inson taraqqiyotil tushunchasi birmuncha to'ldiriladi. Mutaxassislardan inson taraqqiyotida ijtimoiy adolat, inson huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish tamoyillari muhim o'rin tutadi, deb hisoblaydilar. Ularning ta'rifiga ko'ra, inson taraqqiyoti – bu insonlarning uzoq, sog'lom va mazmunli hayot kechirishlari borasida tanlov imkoniyatlarining kengayib borishi va shu asnodda insonlarning globallashib borayotgan jamiyatda barqaror rivojlanish hamda ijtimoiy adolat mezonlarini ta'minlashda faol ishtiroki hamdir.

Mazkur ta'rifga ko'ra, inson taraqqiyoti uch tashkil etuvchini o'z ichiga oladi. Bularning birinchisi farovonlik, ikkinchisi huquq va imkoniyatlarning kengayishi, uchinchisi esa ijtimoiy adolatlilikdir.

Inson taraqqiyoti indeksi bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik jihatidan qayta hisoblangan inson taraqqiyoti indeksi, gender tengsizligi indeksi va ko'p qirrali qashshoqlik indeksidan ham foydalilanadi. Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy miqdorlari uchta guruhga ajratib ko'rsatiladi:

birinchi guruhga ishlab chiqarish sohasi, uning tashqi dunyoga minimal darajada bog'liqlik sharoitida faoliyat yuritish qobiliyatini kiritadilar. Ushbu guruhga quyidagi chegaraviy miqdorlar kiritilgan:

- YaIM umumiylajmi - katta yettilikl bo'yicha o'rtacha indikatorning 75 foiz miqdorida;

- aholi jon boshiga YaIM hajmi - katta yettilikъ bo‘yicha o‘rtacha indikatorning 50 foiz miqdorida;
- dunyo bo‘yicha o‘rtacha indikatorning 100 foiz miqdorida;
- sanoat mahsuloti ishlab chiqarishi umumiy hajmida qayta ishlash sanoati ulushi - 70 foiz;
- YaIMda investitsiyalar ulushi - 25 foiz;
- sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlik ulushi - 20 foiz;
- aholining ichki iste’molida import ulushi - 30 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari - 25 foiz;
- mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmida yangi mahsulotlar ulushi - 6 foiz.

Ikkinci guruh ko‘rsatkichlari tarkibiga aholi turmush darajasi va sifati bilan bog‘liq chegaraviy miqdorlar kiritilgan:

- aholining umumiy sonida yashash minimumidan past daromadga ega bo‘lgan fuqarolar ulushi - 7 foiz;
- umr ko‘rish uzunligi - 70 yosh;
- boy va kambag‘allar daromadlari o‘rtasidagi tafovut - 8 marta;
- ishsizlik darajasi - 7 foiz.

Uchinchchi guruh ko‘rsatkichlari moliyaviy holat bilan bog‘liq bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- YaIMga nisbatan ichki qarz miqdori - 30 foiz;
- YaIMga nisbatan tashqi qarz miqdori - 25 foiz;
- YaIMga nisbatan byudjet tanqisligi - 5 foizgacha;
- naqd xorijiy valyuta hajmining naqd milliy valyuta hajmiga nisbati 25 foiz;
- YaIMga nisbatan pul massasi (M2) - 50 foiz.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, chegaraviy ko‘rsatkichlarning bir xil miqdorini belgilab qo‘yish uslubiy jihatdan uncha to‘g‘ri bo‘lmaydi. Masalan, birinchi guruh ko‘rsatkichlarida keltirilganidek, investitsiyalar ulushi YaIMga nisbatan hisoblaganda 25 foizdan kam bo‘lgan holatda iqtisodiyotga tahdid yuzaga keladi. Lekin ayni paytda, investitsiyalar ulushi 40 foiz bo‘lganida ham tahdid yuzaga kelishi mumkin. Farq shundaki, birinchi holatda mehnat quollarining moddiy va ma’naviy jihatdan eskirishi natijasi sifatida tahdid yuzaga kelsa, ikkinchi holat aholi turmush darajasi va sifatining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy xavfsizlikning

ayrim chegaraviy miqdorlarini qat'iy qilib emas, balki ma'lum doira chegarasida belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **3.2-jadval**

#### **Iqtisodiy xavfsizlikning quyi va yuqori tahlikali chegaralari**

Quyi va yuqori tahlikali chegara		
Ko'rsatkichlar	Mazmuni	darajasi %
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara)	16
Ishsizlik darajasi	Iqtisodiy faol aholiga nisbatan, foiz(yuqori chegara)	8
Monetizatsiya darajasi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara)	25
Tashqi qarz	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	40
Ichki qarz	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	30
Tashqi qarzlar bo'yicha to'lovlar	To'lovlarning yillik eksport hajmiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	25
Mudofaaga xarajatlar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	3
Fuqarolik fanlariga xarajatlar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara)	1,5
Innovatsion mahsulotlar	Sanoat mahsulotlari umumiy hajmiga nisbatan, foiz (quyi chegara)	15
Sanoat ishlab chiqarishda mashinasozlik va metallni qayta ishslash	Sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foiz (quyi chegara)	25
Davlat byudjeti tanqisligi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	3,0
Davlat qarzini qoplash xarajatlari	Davlat byudjeti xarajatlari hajmiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	20
Yashash minimumidan past darajada daromad oluvchi aholi	Aholi umumiy sonidagi ulushi, foiz (yuqori chegara)	7,0
Aholi daromadlari bo'yicha tabaqalanishi	Detsil koeffitsiyenti (yuqori chegara)	8,0

Jahon miqyosida qabul qilingan iqtisodiy xavfsizlikning quyi va yuqori tahlikali chegaralari 2-jadvalda keltirilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng iqtisodiy rivojlanishning o‘zbek modelini amalga oshirilishi oqibatida qisqa vaqt ichida chuqur tanglikdan chiqishga erishdi va 1996-yildan boshlab iqtisodiy o‘sish tendensiyalariga ega bo‘ldi. 1996-2003 yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘rtacha 4% yillik o‘sish sur‘atlarida rivojlangan bo‘lsa, 2004-yildan boshlab, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishni amalga oshirish natijasida, yiliga o‘rtacha 7-9% darajasidagi barqaror va yuqori o‘sish tendensiyasiga ega bo‘ldi. Keyingi 10 yilda (2007-2020-y.) YAIM 2,7 barobardan ziyodga o‘sdi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya 2020-yilda 1991-yilga nisbatan 5,2 martaga, 2000-yilga nisbatan 5,7 martaga o‘sdi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushi

2020-yilda 29,4%ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2000-yilda 22,9%ni, 2010-yilda 24,6%ni tashkil etgan edi. Demak, bu ko‘rsatkich quyi tahlikali darajadan ancha yuqoridir. Davlat byudjeti 2005-yildan boshlab profitsit bilan bajarilishiga erishildi. Davlatning tashqi va ichki qarzları darajasi tahlikali xavf chegarasidan ancha pastdir. Inflatsiya 5-6% darajasida

barqarorlashdi. Ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholiga nisbatan 56% da bo‘lib, tahlikali yuqori darajadan ancha kam bo‘lishi ta’minlandi. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan siyosatning amalga oshirilishi natijasida 1995-2020yillarda YaIM tarkibida qishloq xo‘jaligining ulushi 32,4% dan qisqardi, sanoatning ulushi esa 27,8% dan 32,9%ga, xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi esa 39,8%dan 49,5%ga o‘sdi. 2020-yilda koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy iqtisodiy inqirozining iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatganligi tufayli YaIM o‘sishi 2019-yildagi 5,8 % va 2018-yildagi 5,4 % ga nisbatan 1,6 % gacha sekinlashdi. 2020-yilda aholi jon boshiga YaIM hajmi 2019-yil bilan taqqoslaganda real baholarda 0,3 % ga kamaydi. Aholi jon boshiga YaIM o‘sishi 2019-yilda 3,8 % va 2018-yilda 3,6 % ni tashkil etgan. Sanoat ishlab chiqarishi 100,7 % ga, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari 103,0%ga, xizmatlar 102,3%ga, qurilish ishlari 109,1%ga, chakana savdo aylanmasi 103,2%ga o‘sdi. Ammo asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 8,2%ga, Yuk aylanmasi 4,8%ga, tashqi savdo aylanmasi 13,1%ga, eksport 13,3%ga qisqardi. Tashqi savdo aylanmasi passiv saldosi -6043 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Inflatsiya 111,1% ga o‘sdi. Bu esa iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdidlar vujudga kelganidan dalolat beradi. Shu boisdan pandemiyaning salbiy oqibatlarini tezroq bartaraf etish uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash choratadbirlarini ko‘rishni taqozo etadi.

### 3.3-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘sish sur‘ati (o‘tgan yilga nisbatan %da)<sup>1</sup>

	2010	2016	2017	2018	2019	2020
Yalpi ichki mahsulot	108,5	107,8	104,5	105,4	105,6	101,6
Sanoat mahsuloti	108,3	106,2	105,2	110,8	106,6	100,7
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari	106,8	106,6	101,2	100,3	102,5	103,0
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	109,2	107,7	107,1	118,1	133,9	91,8
Qurilish ishlari	105,1	110,2	106,0	114,3	119,0	109,1
Yuk aylanmasi (mln. t/km)	110,3	105,0	102,5	105,7	102,2	95,2
Yo‘lovchi aylanmasi (mln. yo‘lovchi/km)	106,3	104,6	103,3	102,4	102,7	83,3
Xizmatlar, jami	112,5	109,3	108,9	105,5	105,1	102,3
Chakana savdo tovar aylanmasi	113,6	114,4	102,4	105,5	107,9	103,2
Tashqi savdo aylanmasi	104,7	97,5	111,0	127,3	126,2	86,9
Eksport	110,6	97,4	114,9	113,5	128,0	86,6
Import	97,2	97,7	107,2	139,6	124,9	87,2
Iste’mol narxlari indeksi (o‘tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, %.)	107,3	105,7	111,4	114,3	115,2	111,1

Xavfsizlikni, shu jumladan, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning uchun, avvalambor, uning siyosiy, tashkiliy va huquqiy asoslari yaratiladi. Ushbu maqsadda konsepsiya ishlab chiqiladi. Uni ishlab chiqish esa iqtisodiyot holatini obyektiv baholashga hamda uning rivojlanish tamoyili va tendensiyalarini bashorat qilishga asoslanadi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikai ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2010-2020 yillar statistik to‘plamlari ma‘lumotlari asosida tuzilgan

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi holatini doimiy monitoringini olib borish, unga bo‘lgan tahdidlarni tahlil qilish va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari va indikatorlari asosida diagnostikasini amalga oshirish birlamchi muhim vazifalardan biridir. Buning uchun iqtisodiy xavfsizlikni belgilovchi vaziyat va holatlardagi sabab-oqibatlari aniqlash uchun ilmiy analitik markazni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni saqlash va mustahkamlashga mas‘ul, javobgar davlat organlari, tashkilot va muassasalar hamda ularning vazifalari belgilanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasida iqtisodiyotda ijtimoiy ishlab chiqarish hajmi va dinamikasi, iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligi, iqtisodiyotning ochiqligi, intellektual salohiyatning holati, innovatsion darajasi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish darajasi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tendensiyalarining istiqbolli bashoratlari va ularning asosiy ustuvorliklari o‘z ifodasini topishi lozim.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Iqtisodiy xavfsizlik subyektlari nuqtayi nazaridan qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?
2. Iqtisodiy xavfsizlikning ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyati bo‘yicha namoyon bo‘lish shakllari qanday?
3. Iste’mol nuqtayi nazaridan iqtisodiy xavfsizlik qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?
4. Ijtimoiy xavfsizlik shakllari nimalarda namoyon bo‘ladi? Ularning ahamiyatini tushuntirib bering.
5. Iqtisodiy xavfsizlikning transport-kommunikatsiya sohasidagi shakli qanday ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega?
6. Iqtisodiy xavfsizlik qanday ko‘rsatkichlar orqali tavsiflanadi?
7. Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasi deganda nimani tushunasiz?
8. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyatini ohib bering.
9. Iqtisodiy xavfsizlik tizimining tuzilmasi qanday?
10. Iqtisodiy xavfsizlik tizimida milliy manfaatlarning o‘rni.
11. Iqtisodiy xavfsizlikni baholashning mezonlari nima?
12. Umumiyl makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni sanab o‘ting.

Ular nimani tavsiflab beradi?

13. Yalpi ichki mahsulot qanday hisoblanadi?
14. Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy tahdidlari va indikatorlarini sanab bering.
15. So‘mning kursi, baho dinamikasi va inflatsiyaning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rniga baho bering.
16. Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegaralari nima?

17. Mamlakatning asosiy iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining quyi tahlikali chegaralarini aytib bering.

18. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari va mezonlari nimalardan tashkil topadi?

19. Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy ko'rsatkichlari haqida batafsil tushuncha bering.

#### **4-mavzu IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TAHDIDLAR**

##### **Reja**

###### **4.1-§. Iqtisodiy manfaatlar va tahdidlar**

###### **4.2-§. Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar**

###### **4.3-§. Globallashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri**

##### **4.1-§. Iqtisodiy manfaatlar va tahdidlar**

Insonning faoliyatga olib keluvchi motivatsiya, ma'lum harakatlarni amalga oshirish uchun uni uyg'otuvchi, harakatlantiruvchi kuchlar yig'indisi sifatida tushuniladi. Bu kuchlar insonning o'zida va uning tashqarisida joylashgan bo'lib, uni anglagan yoki anglamagan holda ayrim harakatlarni qilishga majbur etadi. Bunda alohida kuchlar va inson harakati o'rtaida juda murakkab o'zaro munosabat tizimi turadi, natijada har bir inson bir xil kuchlar ta'siri ostidagi bir xil harakatlarga turlicha munosabat va ta'sir bildiradilar.

A.Maslou inson ehtiyojlarining murakkabligi va ularning motivatsiyaga ta'sirini aniqladi. Uning fikricha, inson ehtiyojlarini beshta asosiy toifaga bo'lish mumkin. Uning zamondoshi, Garvard universiteti ruhshunos olimi Murrey Maslouning fikriga asoslanib, ehtiyojlarning ierarxiyasini shakllantirdi.

Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi qat'iy tuzilmaga ega. Uning fikricha, quyi darajadagi ehtiyojlar insonning xulqiga yuqori darajadagi ehtiyojlardan avval ta'sir etadi va ularning qondirilishi keyingi darajadagi ehtiyoj motivatsiyasini keltirib chiqaradi. Har bir aniq paytda inson shu vaqtda uning uchun muhim bo'lgan va kuchli sezayotgan ehtiyojini qondirishga intiladi. Keyingi darajadagi ehtiyoj inson xulqida kuchli omilga aylanishi uchun quyi darajadagi ehtiyoj qondirilgan bo'lishi kerak.

Inson o'z ehtiyojlarini va ularni qondirish zarurligini anglaganda manfaat yuzaga keladi. Manfaat esa mehnatga, faoliyatga undovchi motivatsiyani vujudga keltiradi. Iqtisodiy manfaatlarni ro'yobga chiqarishning ichki va tashqi shartsharoitlari mavjud bo'lib, ichki sharoitlarga shaxsning rivojlanishi, konstitutsion tuzumning mustahkamlanishi, mamlakat hududlarining yaxlitligi va bo'linmasligini ta'minlash hamda xo'jalik va boshqa faoliyatlar: favqulodda vaziyatlar, tabiiy ofatlar, falokatlar ta'sirida vujudga keladigan noxush ekologik holatlardan kishilar salomatligini saqlash kiradi. Tashqi sharoitlarga esa sherikchilik va o'zaro hamkorlik asosida xalqaro aloqalarning samarali tizimini shakllantirish va rivojlantirish, tashqi agressiyalarni


qaytarish imkoniyatlarini ta'minlash, o'zining iqtisodiy, harbiy-siyosiy, intellektual salohiyatiga mos ravishda xalqaro hamjamiyatda o'ziga munosib o'ringa ega bo'lish kiradi. Ushbu iqtisodiy manfaatlarning ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qiluvchi turlituman tahdidlar, xavf-xatarlardan himoya qilish davlat zimmasiga yuklatilgan.

 Iqtisodiy manfaatlarga tahdidlar ularning ta'sirida vujudga keladigan noxush va salbiy oqibatlar bilan bog'liq ravishda qaralib, xavf-xatar manbai sifatida izohlanadi.

Xavf va tahdidlarni quyidagi belgilari bo'yicha guruhlarga ajratish mumkin:

- ta'sir ko'rsatish obyektlariga nisbatan – tashqi va ichki;
- xavfsizlik sohalari bo'yicha (ekologik, iqtisodiy, siyosiy, harbiy va h.k.);
- makon yoki ko'lamiga ko'ra (global, xalqaro, mintaqaviy, milliy, mahalliy va h.k.);
- namoyon bo'lish uslubi va shakllariga ko'ra (bayonet, kelajakda xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan va himoya choralar ko'rinishini talab qiluvchi shart-sharoitlar majmui, aniq harakatlar va h.k.);
- manbalari va harakatlantiruvchi kuchlariga ko'ra (tabiiy, inson faoliyati bilan bog'liq va h.k.);
- ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab (qaltis ish, tahlika, xavf hamda tahdid) va boshqalar.

Iqtisodiy xavfsizlik tizimli ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab destruktiv omillarning ta'siri ostida shakllanadi. Bugungi kunda iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi destruktiv omillarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.



#### 4.1-rasm. Iqtisodiy xavfsizlikning destruktiv omillari.

Tahlikalar, qarshiliklar va tahdidlarga turli darajalar sifatida qaraladi.

Qaltis ish (risk) – odatda, xavfsizlik subyektlarining bevosita faoliyati natijasida vujudga keladigan noqulay va ko'ngilsiz vaziyatlarni anglatuvchi xavfning eng kichik ko'rinishi – turi hisoblanadi. U doimo qandaydir ehtimollikdir.

Xavf - xatar – bu salbiy ta’sirning obyektiv holda mavjud bo‘lish imkoniyati bo‘lib, uning natijasida holatni yomonlashtiruvchi biror-bir zarar hamda taraqqiyotga xalal beruvchi dinamika va parametrlar yuzaga kelishi mumkin.

Xavf- xatarning manbai o‘zida yomon niyatlarni, zarar keltiruvchi xossalarga, destruktiv xususiyatlarni yashirin holda saqlagan va muayyan shart-sharoitlarda yuzaga chiqaradigan sharoit va omillar hisoblanadi. Boshqacha aytganda, xavf-xatar shaxsga, iqtisodiy yoki tabiiy tizimga nisbatan zarar keltirishi, tashkillashtirishga putur yetkazish yoki uni to‘liq yo‘q qilib yuborishgacha boradigan, barqarorlikni buzib tashlashi mumkin bo‘lgan real yoki potensial (salohiyatli) kuch va omillarning mavjudligi hamda ta’sirini ko‘zda tutadi.

Xavf-xatar har xil shakllar va turlarda, xususan, maqsadga yo‘naltirilgan g‘animlik xatti-harakatlari, odamlarning hayot faoliyatiga tahdid soladigan xatolarning, mas‘uliyatsiz xattiharakatlarning oqibati, tahlika, tabiat va jamiyatga zarar keltiruvchi ofatlar hamda boshqalar sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Ushbu atamalar qatorida tahlika xavf-xatarning eng quyi darajasi hisoblanadi, uning ortida qarshilik turadi, tahdidlar esa xavfsizlikning eng yuqori darajasidir.

Tahlika – ro‘y berishi mumkin bo‘lgan xatar yoki xavfxatarni tug‘dirishga qodir bo‘lgan holatning ehtimollik imkoniyatidir. Tahlika yo‘qotishlarning, zarar, zyon va boshqalarning ro‘y berishi mumkinligini anglatadi. Qarshilik – kurashga, bahslashishga kirishish istagi, uydirma xatti-harakatlar yoki bosim o‘tkazish vositasи, talabidir.

Tahdid – xavfning eng oliy darajasi bo‘lib, unda nafaqat yaqqol niyat, balki xavfsizlik obyektiga bevosita zyon yetkazish qobiliyati va tayyorgarlik namoyon bo‘ladi. Tahdid – zarar keltirish niyati, xavf-xatar imkoniyatini amalga oshirish jarayonida dolzarblastishgan shaklidir. Tahdid – bu bevosita xavfxatar bo‘lib, uning manbai ko‘proq yoki kamroq darajada aniqlangan bo‘lishi mumkin. Tahdid kimga qarshi yo‘naltirilgan bo‘lsa, shularning unga tez munosabat bildirishini (reaksiya qilishini) talab qiladi.

Zarar – tizimning tub mohiyatini belgilovchi xususiyatlar hamda tizim mavjudligining shart-sharoitlari o‘zgarishi natijasida barqarorligi yoki chidamliligining susayishi hisoblanadi.

Bardoshlilik (chidamlilik) – tizimning turli vayronkor omillar ta’siriga qaramasdan, ko‘ngilsiz oqibatlarning kamaytirilishini keltirib chiqaruvchi aks ta’sir choralarни ishga solish yo‘li bilan yoki ko‘ngilsiz tashqi ta’sirlarga nisbatan tabiiy qarshilik natijasida o‘zining asosiy xususiyatlarini saqlab qolish qobiliyatidir.

Barqarorlik– tizimga nisbatan sezilarli salbiy ta’sirlarning mavjud emasligi yoki uzoq muddat mobaynida bunday ta’sirlarga nisbatan uning bardoshliligi ta’milanishi natijasida muayyan vaqt davomida tizimning muhim xususiyatlari saqlanib qolish holati.

Tahdid obyektlariga – tahdid manbai ta’sir etishi mumkin bo‘lgan tashkiliy tuzilmalar, jismoniy va yuridik shaxslar, xo‘jalik subyektining moddiy va nomoddiy aktivlarining hisob birliklari (texnik va infratuzilma obyektlari, ko‘chmas mult obyektlari, tovar va moddiy boyliklar, naqd pullar qimmatbaho qog‘ozlar, hujjatlashtirilgan majburiyatlar, axborot resurslar va h.k.) kiradi.

Tahdid predmeti – tavakkalchilik hodisasi natijasida sarflanadigan (yo‘qotiladigan) xo‘jalik subyektining resurslari (ijtimoiy-iqtisodiy tizimi) bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar g‘oyat o‘zgaruvchan, diversifikatsiyalangan va eng muhimi har doim ham oldindan aniqlash mumkin emas. Chunki tabiiy muhitning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish holati omillarining kompozitsiyasi doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Shu boisdan qulay vaziyatda, iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni ta’riflashda milliy manfaatlarni kamroq yoki ko‘proq darajada to‘liq tushunishda yuz berishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni keltirib chiqaradigan, oldindan aytib bo‘lmaydigan omillarni hisobga olish zarur.

Agar tahlikalar qarshilikka, qarshiliklar esa tahdidlarga aylanayotgan bo‘lsa, bu so‘zsiz ravishda iqtisodiy xavfsizlik tizimidagi jiddiy buzilishlarning belgisidir. Bu holatni dastlab oddiy misolda ko‘rsatamiz. Har qanday, hatto juda tajribali haydovchi ham avtomobilning ruliga o‘tirib, katta yo‘lga chiqar ekan, o‘zining shaxsiy xavfsizligini va o‘z yo‘lovchilarining xavfsizligini muayyan tahlikaga qo‘yadi. O‘rnatilgan harakat tezligini oshirayotgan haydovchi xavf-xatarni yuqoriroq darajaga, ya’ni qarshilik darajasiga o‘tkazadi. Agar u mast holda rulga o‘tirsa yoki mashinani yo‘l harakati qoidalariagi belgilarga e’tibor bermasa, bu o‘zining shaxsiy xavfsizligiga ham, yo‘lovchilarining xavfsizligiga ham tahdid bo‘lib hisoblanadi.

Xavfsizlik darajalarining xuddi shunday ierarxiyasi piyodalar uchun ham mavjud. Agar inson ko‘chani piyodalar o‘tadigan yo‘lak bo‘ylab svetoforning qizil chirog‘ida kesib o‘tsa, bu qarshilik; agar mashinalar oqimida mumkin bo‘limgan joyidan kesib o‘tsa, bu endi tahdid hisoblanadi.

Tahdidlarni milliy yoki xalqaro xavfsizlikning har qanday muammosiga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Masalan, transmilliy terrorizm (xususan, tolbonlarning harakati) – bu inson qo‘li bilan yaratilgan, faqat Amerika hamda sovet maxsus xizmati faoliyatining mahsuli bo‘lib, u biroz nazoratning bo‘shashtirilishi oqibatidir.

Iqtisodiy xavfsizlik siyosatining eng muhim komponenti tahdidlarni qarshilikka, qarshiliklarni tahlikaga aylanish texnologiyalarini o‘zlashtirish va ularni oqilona qo‘llay bilishdan iboratdir.

Tahdidlar iqtisodiy manfaatlarga, ularning o‘zgarishlariga, o‘zgarib borayotgan sharoitlarda ularga tuzatishlar kiritishga, yangi ustuvorliklar va vazifalarni belgilashga ta’sir o‘tkazishga qodir bo‘ladi. Ichki va tashqi tahdidlarning ta’siri ostida o‘zgartirish uchun tuzatishlar kiritilgan iqtisodiy manfaatlar jamiyat va shaxsning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha samarali qarorlarni qabul qilish nuqtayi

nazaridan davlatga, mamlakat iqtisodiyotiga, tegishli tuzilmalarga va hokimiyat organlariga ta'sir o'tkazadi. Agar barcha darajalarda qabul qilinayotgan qarorlar haqiqatan ham konstruktiv xususiyatga ega bo'lsa, ushbu qarorlarni ro'yobga chiqarishning ishonchli mexanizmi joriy etiladi va bu mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda ijobiy aks etadi.

Keyingi o'rnlarda biz xavf-xatarlarning barcha darajalari – tahlika, qarshilik va tahdidlarni ko'zda tutgan holda —tahdidlarni atamasini ishlatalamiz. Iqtisodiy xavfsizlik uchun eng ahamiyatli tahdidlarni aniqlash yetarlicha murakkab masaladir. Tahdidlarning nazariyada yetarlicha tadqiq etilmaganligi ularni amalda tahlil qilish va neytrallashning murakkabligi izohlanadi. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni ko'rib chiqish chog'ida zaiflikdan farqlay bilish, zarur hollarda tadqiqotchilar zaiflik va tahdidlarning tabiatiga garchi har xil bo'lsa-da, ularni bir-biriga tenglashtirib qo'yadilar.

Mazkur muammolarni oziq-ovqat xavfsizligi misolida ham ko'rib chiqish mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramlik agrosanoat majmuasining zaifligi va inqiroz holatida ekanligidan dalolat beradi, lekin oziq-ovqat mahsulotlari jahon bozoridan erkin holda xarid qilinsa, tahdid to'g'risida gapirishga hojat qolmaydi. Agar bu shart bajarilmasa yoki uni buzishning real imkoniyatlari mavjud bo'lsa, (masalan, embargo, sanksiyalar, jahon bozoridagi kamyob, mamlakatimiz importyorlarida zarur mablag'larning yo'qligi), tahdidlar sifatida agrosanoat majmuasining zaifligi emas, balki aynan sanab o'tilgan omillar chiqadi.

Xuddi shu narsa xomashyo va texnologiyalar bozoriga kirish xavfsizligining ko'pgina muammolariga tegishlidir: tahdidni milliy iqtisodiyotda tegishli ishlab chiqarishlarning mavjud emasligi (xalqaro bozorga qaramlik), balki tegishli mahsulot va texnologiyalarni sotib olishga xalal berishga qodir bo'lgan omillar (masalan, sanksiyalar) keltirib chiqaradi. Bu albatta zaifliklarga e'tibor berishga kerak emasligini anglatmaydi (aynan shular tizimni tahdidlar uchun ochiq qilib qo'yadi), ammo ularni tahdidlar bilan tenglashtirish kerak emas.

Tahdid jamiyat, davlat va ularning subyektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga hamda manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi, ziyon-zahmat keltiruvchi, xavfxatar tug'diruvchi omillar, shart-sharoit va voqealiklarni ifodalaydi. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar g'oyat o'zgaruvchan, diversifikatsiyalangan va eng muhimi har doim ham oldindan aytish mumkin emas, chunki tabiiy muhitning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish holati omillarining kompozitsiyasi doimiy ravishda o'zgarib turadi. Shu boisdan qulay vaziyatda, iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni ta'riflashda milliy manfaatlarni kamroq yoki ko'proq darajada to'liq tushunishda yuz berishi mumkin bo'lgan tahdidlarni keltirib chiqaradigan, oldindan aytib bo'lmaydigan omillarni hisobga olish zarur. Tadqiqotchilarning ko'pchiligi tahdidlarni tasniflash va umumlashtirishga urunadilar tasniflash ko'plab ma'lumotlarga mo'ljal olish yengilroq bo'lishi uchun kerak.

O‘zbekiston Respublikasida jamiyat va uning har bir fuqarosining xavfsizligiga, yangilanish va taraqqiyot yo‘liga, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish yo‘liga solinayotgan tahdidlarni quyidagi guruhlarga ajratib, tahlil qilish mumkin. Barcha tahdidlar u yoki bu belgiga (tahdidlarning manbaiga, turiga va boshqalarga) ko‘ra guruhlarga bo‘linadi va bu quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.

Tahdidlar kelib chiqishiga ko‘ra fuqarolarning konstitutsion huquqlariga, erkinliklariga, barqaror turmush darajasi va sifatiga, fuqarolik jamiyatini rivojlanishiga, davlat suverinitetiga, hududiy yaxlitligiga, mudofaasiga va davlat xavfsizligiga to‘g‘ridan-to‘g‘i yoki bilvosita yo‘llar orqali zarar, talofat keltirish imkoniyatlariga aytiladi.

Tahdid obyektlariga – tahdid manbai ta’sir etishi mumkin bo‘lgan tashkiliy tuzilmalar, jismoniy va yuridik shaxslar, xo‘jalik subyektining moddiy va nomoddiy aktivlarining hisob birliklari (texnik va infratuzilma obyektlari, ko‘chmas mulk obyektlari, tovar va moddiy boyliklar, naqd pullar qimmatbaho qog‘ozlar, hujjatlashtirilgan majburiyatlar, axborot resurslar va h.k.) kiradi.

Tahdid predmeti – tavakkalchilik hodisasi natijasida sarflanadigan (yo‘qotiladigan) xo‘jalik subyektining resurslari (ijtimoiy-iqtisodiy tizimi) bo‘lib hisoblanadi.

#### **4.1-jadval**

#### **Tahdidlarning tasniflanishi**

Tasniflash belgisi	Tahdidlarning asosiy turlari
Tahdidlarning obyektga nisbatan joylashuvi	Ichki va tashqi
Yuzaga kelish sohasi	Huquqiy, harbiy-siyosiy, iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy, madaniy, ilmiytexnikaviy
Obyektning miqyosi	Korxonalar va shaxslarning iqtisodiy xavfsizligiga bo‘lgan xalqaro, milliy
Mavjud bo‘lish vaqtি	Dolzarb va salohiyatl(potensial)
Ro‘y berishlar soni	Doimiy va tasodifiy
Muqarrarlik darajasi	Oshkora va yashirin
Ro‘yobga chiqish ehtimoli	Real va potensial
Bashorat qilish imkoniyati	Bashorat qilish mumkin va bashorat qilib bo‘lmaydigan
Obyektga ta’siri	Aktiv va passiv
Oqibatlari	Umumiy va lokal
Kutilayotgan zararning miqdori	Halokatli, ahamiyatli darajada qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan
Inson faoliyatiga munosabati	Obyektiv va subyektiv

Iqtisodiy sohada tahdidlarning manbai bo‘lib, davlat va jamiyat taraqqiyotiga bog‘liq bo‘lgan, individual va korporativ manfaatlar emas, balki umumjamiyat manfaatlari bo‘lgan davlatning iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishga tahdid soluvchi yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib hisoblanadi. Xavfsizlikka tahdid shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga xavf-xatar soluvchi yalpi shart-sharoitlar va omillar yig‘indisiga aytiladi.

Iqtisodiy xavfsizlikka bo‘ladigan tahdidlar – mamlakatdagi iqtisodiy holatga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan, shaxs, jamiyat, davlatning iqtisodiy manfaatlarini cheklab qo‘yadigan, milliy qadriyatlar va hayot tarziga xavf soladigan hodisa hamda jarayonlardir. Xavfsizlikka tahdidlar tizimi sabab – oqibat bog‘lanishlarining dinamik tizimidan iborat bo‘lib, ko‘p sonli konturlar, aks aloqalarga egadir. Ularning mavjudligi xavfsizlikka bo‘lgan biror-bir aniq tahdidning ro‘yobga chiqish natijalarini ahamiyatli darajada kuchaytirishi mumkin. Mazkur xususiyat davlatda ko‘p sonli lokal tahdidlarning mavjudligi va ularni o‘zaro ta’sirlashuvi oqibatida tez ko‘payadigan inqirozli vaziyatlar bilan tavsiflanadigan taraqqiyotining hozirgi zamon bosqichida yorqin namoyon bo‘ladi. Bunday o‘zaro ta’sirlashuv namunasi 4.2jadvalda keltirilgan.

Xavfsizlikka tahdidlarning ularning o‘zaro ta’sirlashuvi va dinamik rivojida ko‘rib chiqilgan tasniflash iqtisodiy xavfsizlikni har qanday darajada, ya’ni davlat, mintaqa yoki alohida olingan korxona miqyosida ta’minalash masalalarini hal etishga majmuaviy, tizimli yondashish to‘g‘risidagi xulosaga olib keladi.

#### **4.2-jadval**

#### **Iqtisodiy xavfsizlikka har xil turdag'i tahdidlarning o‘zaro bog‘liqligi**

Manbalari	Tahdidlar tavsifi	
	Ichki	Tashqi
Iqtisodiy manbalar	Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy va institutsional kamchiliklar bilan shartlangan inqirozli holatlar	Tashqi (savdo, moliyaviy) inqirozlarning milliy iqtisodiyotga ta’siri
Siyosiy manbalar	Hokimiyat organlari tomonidan iqtisodiy tizimning barqarorligiga putur yetkazuvchi tadbirlarning amalga oshirilishi; ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlarning ta’siri	Siyosiy bosim o‘tkazish maqsadida tashqi iqtisodiy sanksiyalar qo‘llanilishida xorijiy davlatlar iqtisodiy siyosatining salbiy ta’sirlari

Iqtisodiy rivojlanishning muayyan bosqichidagi tahdid turlarining yuqorida ko‘rib chiqilgan tasnifi doimiy bo‘lmasligi va aniq bir vaziyatga tahdidlarning tavsifi

va darajalariga bog‘liq bo‘lgan katta o‘zgarishlarni boshidan kechirishi mumkin bo‘lgan aniq bir ustuvorliklarni ajratib ko‘rsatishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, ularni aniqlash hamda eng ahamiyatli tasniflarni ajratib ko‘rsatish borasida yagona xulosa yo‘q.

#### **4.2-§. Iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar**

Iqtisodiy tahdidlar umumlashtirilgan holda ichki va tashqi tahdidlarga ajratilib o‘rganiladi. Iqtisodiy tahdidlar mamlakat iqtisodiyoti rivojiga, jamiyat, davlat, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita xavf tug‘diradi. Bu tahdidlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishni izdan chiqarib, aholining turmush darajasini pasayib ketishiga olib keladi, jamiyat hayotida tanglik holatlarini keltirib chiqaradi, ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazadi.

Ichki tahdidlar jumlasiga mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishga qodir emasligi, taraqqiyotda innovatsion asoslarning zaifligi, qarama-qarshiliklar va ijtimoiy ziddiyatlarni hal etishda manfaatlar balansiga erisha olmaslik kabilar kiritiladi. O‘zbekiston Respublikasida barcha ichki tahdidlar quyidagi to‘rtta yirik blokka bo‘linadi.



#### **4.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi ichki tahdidlar.**

Jahon narxlari va tashqi savdodagi o‘zgarishlar, kirib kelayotgan kapital (xorijiy investitsiyalar) hajmidan mamlakatdan chiqib ketayotgan kapital hajmining ortib ketishi, tashqi qarz miqdorining kattalashib ketishi, importga bog‘lanib qolish, eksport tarkibida xomashyo mahsulotlari ulushining oshib ketishi tashqi tahdidlar qatoriga kiradi.


Agar mamlakat ichidagi tahdidlarning oldi olinmasa, ular bartaraf etilmasa, ichki tahdidlar iqtisodiyotni tashqi tahdidlarga sezuvchan qilib qo‘yadi. Ichki tahdidlar davlatni iqtisodiy va moliyaviy jihatdan zaiflashdirib, harbiy sohada tahdidlarni kuchayishiga olib keladi. Davlatning iqtisodiy jihatdan zaif bo‘lishi mamlakatni xalqaro moliyaviy tashkilotlarga qaram bo‘lib qolishiga olib keladi. Bunda davlatning byudjet mablag‘lari ijtimoiy majburiyatlarni bajarishga, masalan,

byudjet sohasi xodimlariga ish haqi to‘lash, pensiya, nafaqalar berishga ham yetmay qolishi mumkin. Ichki tahdidlar milliy tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan ichki talabni qondira olmaslik natijasida iqtisodiyotni importga, tashqi bozor konyunkturasiga bog‘liqligini kuchaytirib qo‘yadi. Davlatning ichki tahdidlarga qarshi turish qobiliyatining sust bo‘lishligi uni samarali tashqi siyosat olib borishdan mahrum qilib qo‘yadi va milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlay olmaydi, raqobatbardosh mahsulotlar eksportini rag‘batlantirib, yangi tovar bozorlarini egallay olmaydi.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ichki omillarga quyidagilar kiradi:

- ilgarigi tizimdan biryoqlama, tarkibi deformatsiyalashgan iqtisodiyotning meros qolganligi;
- ko‘pchilik tarmoqlarning qoloq texnologik bazaga, yuqori energiya va resurs sig‘imiga egaligi sababli milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining pastligi;
- iqtisodiyotning yuqori darajada monopollashuvi;
- yuqori darajadagi inflatsiya; infratuzilma obyektlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va mustahkam emasligi;
- mineral xomashyo bazalarining kam o‘rganilganligi va xo‘jalik oborotiga tortilish imkoniyatlarining yetarli emasligi;
- mamlakat ilmiy-texnika salohiyatining yomonlashuvi, fantexnika rivojlanishining ayrim yo‘nalishlarida ilg‘or o‘rinlarning boy berilishi, boshqa faoliyat sohalarida intellektual mehnat obro‘sining (prestijining) tushib ketishi;
- ichki bozorlardan chet el firmalari tomonidan vatanimizdagи tovar ishlab chiaruvchilar mahsulotlarining, shu jumladan, iste’mol tovarlarining siqib chiqarilishi;
- hududiy separatizm tendensiyasi va boshqarish qarorlarini qabul qilishda tarmoq lobbizmining yuqori darajadaligi;
- investitsion faollikning pastligi;
- kapital xarajatlar o‘rniga joriy xarajatlarni afzal ko‘rish;
- sotsial konflikt (ziddiyat)larning kelib chiqish xavfinining mavjudligi.

Bunday ijtimoiy ziddiyatlar mehnatga haq to‘lash mexanizmining takomillashmaganligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi, aholi o‘rtasidagi tabaqlanishning keskinlashib ketishi, aholi bilim darajasi va sifatining pasayishi tufayli vujudga keladi;



#### **4.3-rasm. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ichki omillar.**

- qonunchilikning rivojlanmaganligi, bir qancha iqtisodiy subyektarning ichki va tashqi bozorda monopol holatda ekanligi va g‘ayriqonuniy faoliyat ko‘rsatishi hamda ularning huquqiy intizomlarining pastligi;

- iqtisodiyot subyektarining moliyaviy va shartnomaviy intizomlarining pastligi;

- iqtisodiyotning kriminallashuvi va uni boshqarishda korrupsiyaning kuchayishi;

- daromadlarni yashirish va soliq to‘lashdan qochish hollarining ko‘payishi;

- moliyaviy mablag‘larni chet ellarga noqonuniy tarzda o‘tkazish (4.3- rasm.)

Tahdid ichki omillari, o‘z navbatda, ikki guruhgaga ajratish mumkin:

1) iqtisodiy tizimning siklik rivojlanish qonuniyatlariga bog‘liq tahdid omillari;

2) siklik rivojlanish qonuniyatlariga bog‘liq bo‘lmagan omillar.

Birinchi guruh omillari harakati oqibatida ma’lum sharoitlarda makroiqtisodiyot darajasida salbiy oqibatlar kelib chiqib, davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid qilishi mumkin.

Ikkinci guruh omillari harakati esa uzoq muddatli davrda xo‘jalik tizimi muhim elementlarining takror ishlab chiqarilishi sharoitida to‘plangan noxush tendensiyalar tufayli yuzaga keladi.

Bu noxush tendensiyalar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- mamlakatning ishlab chiqarish, innovatsion va ilmiytexnikaviy salohiyatdan foydalanish darjasasi va samaradorligi;

- xo‘jalik yuritish va boshqarishning iqtisodiy munosabatlari;

- ijtimoiy soha;

- atrof-muhit holati;


- mamlakat hududlaridagi ahvol.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida tanglik holati chuqurlashib, ishlab chiqarish keskin qisqarib ketdi. Bunday holatning o‘ziyoq iqtisodiy xavf tug‘dirdi. Chunki ishlab chiqarishning qisqarishi, ichki bozorda tovar va xizmatlar miqdorining kamayib ketishi oqibatida ularning o‘rniga xorij tovarlari, ayniqsa, arzon, sifatsiz tovarlar kirib keldi. Ichki bozordan siqib chiqarilgan milliy tovarlarning o‘rnini tiklash nihoyatda og‘ir bo‘ldi.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

1) eksport tarkibida xomashyo tovarlarining ustuvorligi, an‘anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlari bozorlarining yo‘qotilishi;

- 2) mamlakatning ko‘p turdagи mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramligi, bog‘liqligi;
- 3) tashqi qarzlarning o‘sib borishi;
- 4) eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, bojxona chegaralarining yopiq emasligi;
- 5) raqobatga bardoshli eksportni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarning rivojlanmaganligi hamda import tarkibining ratsional emasligi;
- 6) eksport-import operatsiyalariga xizmat ko‘rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivoj topmaganligi



#### **4.4-rasm. Iqtisodiy xavfsizlikka tashqi tahdid omillari tarkibi.**

Eksport tovarlariga narxlarning keskin pasayib ketishi yoki aksincha, import tovarlariga narxlarning keskin ko‘tarilib ketishi tashqi bozorga g‘oyatda bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyot uchun o‘ta xavfli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasida asosiy tahdidlar rasmiy holda ta’riflangan. Mudofaa doktrinasiga muvofiq tahdidlar ularning sabablari vujudga keladigan joyga, ya’ni mamlakat iqtisodiyotida yoki undan tashqarida paydo bo‘lishiga qarab ichki va tashqi tahidlarga bo‘linadi. Xavfsizlik obyektlariga ichki va tashqi tahidlarni aniqlash O‘zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining asosiy vazifalaridan biridir. Milliy iqtisodiy xavfsizlikka ichki tahidlarning manbalari mamlakat hududida, tashqi tahidlarning manbalari esa davlat chegaralaridan tashqarida joylashgan. Iqtisodiy ichki tahidlар mazkur mamlakat holati, mamlakatdagi

siyosiy jarayonlarning tavsifi, iqtisodiy yo‘naltirilganlik darajasi, mamlakatda tabiiy resurslarning mavjudligi yoki mavjud emasligi va shu kabilar bilan shartlangan. Bular jumlasiga o‘z-o‘zini saqlab qolish va o‘zo‘zini taraqqiyotda innovatson muqaddimaning zaifligi, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning samarasizligi, jamiyatni rivojlantirishning og‘riqsiz kechadigan yo‘llarni izlab topish uchun qarama-qarshiliklarni ijtimoiy nizolarni yengib o‘tishda manfaatlarning oqilona balansi (muvozanati)ni topishini uddalay olmaslik kabilar kiradi.

Yuqorida keltirilgan ichki tahdidlar orasida iqtisodiyot tarkibining deformatsiyalashuvining kuchayishi iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan tahdidlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun birinchi navbatda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Bunday o‘zgarishlarning mazmuni ishlab chiqarish bilan talab tarkibi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashda ifodalanadi. Shuni hisobga olgan holda O‘zbekistonda olib borilgan islohotlar davomida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish, real sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash kabi masalalar birinchi navbatda hal etiladigan vazifalar sifatida Harakatlar strategiyasidan o‘rin olgan.

Mamlakatda investitsion va innovatsion faollikning susayishi ham jiddiy tahdidlardan bo‘lib hisoblanadi. Respublikada iqtisodiyotga bo‘ladigan bunday tahdidni oldini olish maqsadida faol investitsiya siyosati olib borildi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha Dastur ishlab chiqildi. Bu loyihalar yoqilg‘i-energetika, kimyo, neft-gazni qayta ishlash, metallurgiya tarmoqlariga, yengil va to‘qimachilik sanoati, qurilish materiallari sanoati, mashinasozlik va boshqa sohalarga tegishlidir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, islohotlarni chuqurlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni yaratish, amalda faoliyat yuritayotgan texnika hamda texnologiyalarni yangilash, ularni qo‘llab-quvvatlash investitsion jarayonlarni to‘g‘ri va samarali amalga oshirishga bog‘liq. Shu boisdan ham, O‘zbekiston Respublikasi davlat rahbari tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun markazlashgan, markazlashmagan jamg‘armalar mablag‘lari, xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o‘zlashtirishga hamda ulardan samarali foydalanish masalalariga urg‘u berilmoqda.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida 2017-yilda sanoat tarmoqlaridagi yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini o‘rtacha 8 foizga qisqartirish va raqobatdoshligini oshirishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab berilgan. Shu jumladan,

ma’nan va jismonan eskirgan uskunalarini yangilash hamda modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Tashqi tahdidlar savdo borasida jahon bozorida o‘zaro ta’sirlashuvi sheriklar bo‘lishi mamlakatning siyosiy va iqtisodiy sohadagi qarshi kurashi, global iqtisodiy va boshqa muammolarning keskinlashuvi bilan shartlangan. Ular jumlasiga jahon narxlari va tashqi savdoning konyunkturasidagi o‘zgarishlar, so‘m kursidagi keskin tebranish, kapital chiqib ketishidan ko‘ra, kirib kelishidan ortiqligi; katta miqdordagi davlat qarzi va korporativ qarzning oshib ketishi, importga haddan tashqari qaramlik, xomashyo tovarlarini ortiqcha eksport qilish kiradi.

Tashqi omillar ichki omillar ta’sirini kuchaytirishi yoki zaiflashtirishi mumkin va aksincha. Chunonchi, tashqi omillarning uzoq vaqt ta’sir ko‘rsatish yoki o‘zaro ta’sirlashuv turlarining kengayishi O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi iqtisodiy o‘sishining raqobatbardoshlilik va fuqarolar farovonligining o‘sish sur‘atlaridan ortda qolishiga olib keladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashning aniq va ahamiyatli yo‘llarini asoslab berish va uni ta’minlovchi kuchlarni aniqlash uchun eng muhim bo‘lgan zamonaviy tahdidlarni ajratib ko‘rsatish g‘oyat muhimdir. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlovchi butun tizimning amaliy xatti-harakatini tashkillashtirish, rejalashtirish va amalga oshirishning asosi tahdid konsepsiyasini tahlil qilish, ichki va tashqi xatar hamda tahdidlarning inqirozli vaziyatlarini hamda boshqa nojo‘ya omillarning real va potensial (salohiyatli) tavsiflarni baholashdan iborat. Real va potensial tahdidlar tizimi doimiy bo‘lmaydi va bunday tahdidlar paydo bo‘lishi hamda yo‘qolib ketishi, ko‘payib va kamayib borishi mumkin, bunda ularning iqtisodiy xavfsizlik ahamiyati ham o‘zgarib boradi.

Har xil tarixiy davrlarda milliy xavfsizlikka bo‘lgan tahdidlarning turli komponentlari nisbiy ahamiyati o‘zgarib boradi. Xususan, hozirda tashqi harbiy aggressiyaning imkoniyati O‘zbekiston Respublikasi uchun ichki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikdan, iqtisodiy inqirozdan, ekologik va texnologik faoliyatlardan ko‘ra kamroq xavf soladi. Shundan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizlik vazifalari ustuvorliklarini quydagicha belgilab chiqish lozim:

Birinchi o‘rinda – ichki siyosat va ijtimoiy vazifalar – shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish, demokratik jamiyat va davlat asoslarini qurish turadi.

Ikkinchi o‘rinda – erkin va samarali iqtisodiy rivojlanishni ta’minalash, fuqarolarni farovonligini oshirishdir.

Uchinchi o‘rinda – tashqaridan bo‘ladigan tahdidlardan, mustaqilligimiz, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida erishilgan g‘alabalarimizni himoya qilish zarurati, ya’ni tashqi tajovuzlarni to‘xtatib turish va milliy hududimizdan tashqarida hayotiy zarur manfaatlarni ta’minalash turadi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligiga bo‘lgan bosh tahdidlar ichki sohada joylashgan va ijtimoiy-iqtisodiy, etnik, ekologik va boshqa mazmundagi ichki muammolar bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi davlati uchun eng katta xavf-xatarni ichki tahdidlar tashkil etadi. Bu quydagi omillarning amal qilishi bilan izohlanadi:

- Ichki tahdidlar mamlakat iqtisodiy va ayniqsa, moliyaviy kuch-quvvatini zaiflashtirib, armiyani yangi tahdidlarini inobatga olgan holda saqlab turishga va modernizatsiyalashga xalal beradi.
- Tashqi qarzlarni o‘sishi davlatning iqtisodiy zaifligiga olib keladi. Tashqi qarzlar nafaqat byudjet tanqisligi muammosini hal eta olmaydi, balki tashqi qarzlarga xizmat ko‘rsatishga sarflanadigan xarajatlarning ko‘payishiga olib keladi.
- Ichki tahdidlar, mamlakat ichida tovar ishlab chiqarishning ichki talabini qondirishga qodir emasligi iqtisodiyotning importga, tashqi bozorning tovar va moliyaviy segmentlariga xos konyunkturasiga va birinchi navbatda, oziq-ovqat, mashina va uskunalar, xalqaro kreditlar borasidagi qaramlikka olib keladi.
- Davlat ichki tahdidlarini bartaraf eta olmasa, faol tashqi siyosat olib borishdan, mamlakat ichidagi tovar ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishdan, raqobatbardosh mahsulotlar eksportiga ko‘maklashishdan, yangi tovar bozorlarini egallashidan mahrum bo‘ladi.
- Zaiflashib qolgan iqtisodiyot va nochor moliyaviy tizim sharoitida davlat xalqaro moliyaviy tashkilotlarga ta’sir o‘tkazish imkoniyatini yo‘qotadi.

#### **4.3-§. Globallashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta’siri**

XX asrning oxirgi choragida jahon hamjamiyatining iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi rivojlanishi globallashuv jarayonlari ta’sirida amalga oshdi. Globallashuvning iqtisodiy mazmuni va mohiyati birinchi navbatda xo‘jalik taraqqiyotining manbalari, omillari hamda shakllari bilan bog‘liqdir. Bu yerda gap sarmoyalar, texnologiyalar, ishchi kuchi, intellektual hamda moliyaviy resurslar, boshqaruv va boshqalar to‘g‘risida ketmoqda. Ushbu jarayonlar xalqaro savdo va investitsiya hajmlarining o‘sishi, jahon moliya bozorlari va ishchi kuchi bozorlarining misli ko‘rilmagan tarzdagi diversifikatsiyasi, jahon xo‘jalik aloqalarida transmilliy korporatsiyalar rolining oshishi, global raqobatning keskinlashuvida namoyon bo‘lmoqda.

Globallashuv iqtisodiy taraqqiyotning industrial bosqichidan postindustrial bosqichiga o‘tish davrining mahsuli bo‘lib hisoblanadi. Demak, globallashuv jahon hamjamiyatining bugungi kundagi taraqqiyoti bosqichini ifodalovchi jarayondir. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 1995-yildayoq dunyo aholisining 90 foizi globallashuv jarayonlariga tortilgan.


Globallashuvl iborasi birinchi marta 1983-yilda T. Levitt tomonidan qo‘llangan. U ko‘pmillatli yirik korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan alohida mahsulotlar bozorlarining qo‘silib ketish hodisasini globallashuv iborasi bilan ifodalagan<sup>1</sup>. Bugungi zamonaviy dunyo qiyofasini o‘zaro uyg‘unlik va teng huquqlilikning barqarorligini belgilab beruvchi sivilizatsiyalar hamda madaniyatlarning ayri holda mavjud bo‘lishi tarzida tasavvur qila olmaymiz. Bu jarayonda turli madaniyatlar hamda sivilizatsiyalarning global tarzda ta’sirlashuvi sharoitida o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lgan madaniyatlar hamda sivilizatsiyalarning global ahamiyati ortib boradi.

Mana shunday bir sharoitda mahalliy madaniyat va sivilizatsiyalarning o‘ziga xosligini saqlab qolish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv – baynalmilallahuvning eng yangi bosqichi bo‘lib, unda dunyo xo‘jaligi yagona iqtisodiy organizmga aylana boshlaydi. Mamlakatlararo tovar va xizmatlar, kapital va axborot oqimlarining, xalqaro miqyosda mehnat resurslari harakatchanligining keskin o‘sib borishi globallashuvning xarakterli xususiyatlaridan biridir.

Keyingi davrlarda ishlab chiqarishning milliy bozorlarga emas, ko‘proq dunyo bozorlariga yo‘naltirilganligi dunyo iqtisodiyoti globallashuvining hozirgi bosqichini harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib hisoblanadi. Globalashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta’siri masalalarini o‘rganishda iqtisodiy globalashuv muammosiga ko‘proq ahamiyat berish kerak bo‘ladi.

Transmilliy korporatsiyalarning o‘sib borishi, ya’ni ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, xalqaro miqyoslarda pul ko‘rinishidagi kapitalning turli shakllarda harakat qilishi —iqtisodiy globalashuvl tushunchasiga sifat jihatdan yangi mazmun baxsh etdi.



<sup>1</sup> Г.Ф.Фейгин. Развитие национальных экономик в условиях глобализации: историкоэкономический аспект. Ф Известия Санкт-Петербургского университета.. №2, 2009, с.14

#### **4.5-rasm. Dunyo iqtisodiyotida kuzatilayotgan tendensiyalar.**

Ayni paytda jahon bozori, xalqaro xo‘jalik munosabatlari va institutlari milliy xo‘jalik tizimlarining oddiy davomi, ularning yig‘indisi emas, balki ulardan tubdan farq qiluvchi tashkiliy tuzilma bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy globallashuv bir qator xususiyatlarga ega:

Birinchidan, keyingi yillarda dunyoda sodir bo‘lgan siyosiy o‘zgarishlar natijasida jahon xo‘jaligining universallashuvi, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan iqtisodiy makonning kengayishi.

Ikkinchidan, kapital harakatining erkinlashuvi hamda moliya tizimlari va valyuta nazoratini tartibga solishning qiyinlashuvi. Ushbu jarayonlarning ta’siri natijasida xalqaro savdo hajmlari, mamlakatlar o‘rtasida moliyaviy va sarmoya oqimlari bir necha barobar oshib bormoqda.

Uchinchidan, milliy xo‘jaliklarning iqtisodiy jihatdan ochiqligining ortib borishi. Bunday holat dunyoda iste’mol qilinayotgan tovar va xizmatlarning o‘rta hisobda deyarli yarmi to‘la yoki qisman iste’mol qilinayotgan mamlakatlardan tashqarida ishlab chiqarilishini ifoda etadi.


To‘rtinchidan, ishsizlikka va mamlakatlarning ish bilan bandlikning barqaror yuqori darajasini ta’minlash qobiliyatiga ta’siri bilan bog‘liqidir. Hozirgi kunda ilm talab qiladigan va yuqori texnologiyali tarmoqlar yuqori malakali, lekin kam miqdorda ishchi kuchi talab etadi. Keyingi yillarda mehnat, material va energiya talab etadigan tarmoqlarda band bo‘lgan past va o‘rtacha malakaga ega bo‘lgan xodimlar soni qisqarib bormoqda. Ularning bir qismi xizmat ko‘rsatish sektorlariga o‘tmoqda, lekin katta qismi ishsizlar qatoridan joy olmoqda.

Beshinchidan, iqtisodiy jarayonlarning global muammolar, jumladan, resurslarning cheklanganligi, demografik vaziyatning va oziq-ovqat muammolarining keskinlashuvi, rivojlangan mamlakatlar bilan qoloq mamlakatlar orasidagi texnologik hamda intellektual salohiyatdagi tafovutning chuqurlashuvi, daromadlar bo‘yicha tabaqalashuvning kuchayishi, ekologik muammolarning keskinlashuvi bilan bog‘liqligidir.

Globallashuv tarafdarlari ushbu jarayonda ishtirok etadigan barcha mamlakatlar undan foyda ko‘radi, degan fikrni bildiradilar. Biroq real hayotda global munosabatlarning ustunliklaridan asosan rivojlangan mamlakatlar manfaat ko‘rmoqda.

Globallashuv ma’lum ma’noda iqtisodiyotning qutblashuvini kuchaytiradi. Mashhur venger iqtisodchisi M.Shimaining hisobkitoblariga ko‘ra, 1995-yilda jahon YAIMning 80 foizi dunyo aholisining 14,5 foizi yashaydigan 24 mamlakat tomonidan, 15 foizi dunyo aholisining 31,5 foizi to‘g‘ri keladigan 63 mamlakat tomonidan o‘zlashtirilgan. Jahon YAIMning bor yo‘g‘i 5 foizi dunyo aholisining yarmidan ko‘pi,

ya’ni 55,5 foizi istiqomat qiladigan 45 mamlakat tomonidan o‘zlashtirilgan<sup>1</sup>. 2005-yilda dunyo bo‘yicha olingan daromadning bor yo‘g‘i 39 foizi dunyo aholisining 84 foizi yashaydigan jon boshiga eng past va o‘rtacha daromadli mamlakatlar ulushiga to‘g‘ri kelgan. MDH hissasiga jahon Yalpi ichki mahsulotning bor-yo‘g‘i 4,1% to‘g‘ri keladi, YI mamlakatlarining ulushi esa 24%ni tashkil etadi.



#### **4.6-rasm. Dunyo iqtisodiyotining globallashuvi.**

Globalashuv sharoitida mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligi – ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, hozircha uning yagona talqini qabul qilinmagan. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalar jadallik bilan chuqurlashib, milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallahuvi kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalash nafaqat mamlakat darajasida, balki mintaqalar darajasida ham eng muhim masalalardan biriga aylanib boradi. Globalashuv dunyo hamjamiyati ishtirokchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan bir vaqtda, milliy iqtisodiyotlar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan xavf-xatar va tahdidlarni ham vujudga keltiradi. Globalashuv jarayonlari kuchayib borgan sari bunday tahdidlar miqyosi kengayib, ularni bashorat qilish va bartaraf etish qiyinlashib boradi. Bir paytning o‘zida ham dunyo hamjamiyatiga, ham alohida olingan aniq mamlakatga tahdid soladigan yangi global xavf-xatarlar vujudga keladi.

<sup>1</sup> Internet ma'lumotlari

Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligini keng xalqaro hamkorliksiz ta'minlash mumkin emas. Chunki yuzaga kelayotgan muammolarni faqat milliy vosita va mexanizmlar yordamida hal etib bo'lmaydi. Shu bois —milliy iqtisodiy xavfsizliklari —xalqaro iqtisodiy xavfsizliklari kabi tushunchalar o'rtasida aloqadorlik kuchayib bormoqda. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti sifatida qaraladi.

Globallashuv mamlakatlar iqtisodiyotini tashqi omillar ta'siriga ochiq qilib qo'yadi. Masalan, XX asr 70-yillarining o'rtalarida OPEK a'zolarining xatti-harakatlari natijasida neft mahsulotlariga jahon narxlari oshib ketdi. Jahon miqyosida energiya iste'molining muntazam o'sib borganligi va energiya resurslarining cheklanganligi sharoitida ko'p mamlakatlar oldida energetika xavfsizligini ta'minlash muammosi dolzarb bo'lib qoldi.

XX asr 70-yillarining boshlarida Bretton-Vuds xalqaro valyuta tizimining parokandalikka yuz tutganligi va 1976-yilda Yamayka kelishuvlari asosida suzuvchi valyuta kurslariga o'tilganligi, rivojlangan mamlakatlar tomonidan kapital harakatlari ustidan nazoratni sekin-asta susaytirilganligidan dalolat beradi.

O'tgan asrning 80-90-yillarida Lotin Amerikasi va Janubisharqiy Osiyoning bir qator mamlakatlarida sodir bo'lgan hamda jahon moliya bozorlarida halokatga olib kelgan inqirozlar natijasida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash zaruriyati paydo bo'ldi.

Yer yuzi aholisi sonining ko'payib borishi, buning natijasida xomashyo va mahsulotlarga bo'lgan talabning oshishi va natijada chiqindilarning katta miqdorda to'planib borishi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsata boshladи. Bu jarayonlar global xarakterga ega bo'lganligi bois, dunyo miqyosida tahdidiga aylanib, ekologik xavfsizlikni ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqardi.

O'zbekiston Respublikasida va jahoning ayrim mamlakatlarida hamda mintaqaviy guruhlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari to'g'risidagi ma'lumotlaridan ko'rindiki, tadqiq qilinayotgan davrda jahon iqtisodiyoti o'rtacha yillik 3,5% o'sishni tashkil etmoqda. Xususan, jahon xo'jaligining iqtisodiy o'sish sur'atlari 2012-yilda 3,5 foizga, 2014-yilda 3,4 foizga, 2016-yilda 3,1 foizga, 2018-yilda 3,1 foizga o'sgan bo'lsa, 2020yilda bu ko'rsatkich 3,2 foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, tashkilotning prognoz ma'lumotlariga ko'ra jahon xo'jaligining iqtisodiy o'sish sur'atlari 2021-yilda 3,5 foizni 2022-yilda 3,9 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan.

Tadqiq etilayotgan davrda jahon iqtisodiyotida rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi va aksincha, rivojlanayotgan davlatlarda ayniqsa, Hindiston va Xitoyda o'sish sur'atlarini yuqori darajada ekanligi bilan tavsiflanadi. Natijada Hindiston YAIM 2018-yilga kelib, 2000-yilga nisbatan 303,1%ga, Xitoy YAIM 412,3%ga o'sdi. Buning asosiy omili bo'lib tadqiq etilayotgan davrda globalizatsiyaning ta'siri natijasida jahon mamlakatlari guruhlari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni taqsimlanishida rivojlangan davlatlar ulushi 2005-2007-

yillarda 66%dan 2020-yilga kelib 41%ga tushib qolganligi va aksincha rivojlanayotgan davlatlarning ulushi 30%dan 55%gacha o'sganligi bilan baholash mumkin.

Tadqiq etilayotgan davrda jahon iqtisodiyotining muhim mintaqaviy guruhlari bo'lgan rivojlangan, rivojlanayotgan va MDH davlatlarining iqtisodiy ko'rsatkichlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi YAIM hajmini yuqori sur'atlarda o'sish tendensiyasiga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, COVID-19 pandemiyasi va u yuzaga keltirgan inqiroz butun jahon ishlab chiqarishida 9 trillion AQSH dollariga teng yo'qotishlarga, 500 milliondan ortiq ish o'rinarining qisqarishiga sabab bo'ldi. Afsuski, ushbu salbiy holat mamlakatimizni ham chetlab o'tgani yo'q<sup>1</sup>. Xalqaro valyuta fondi ekspertlarining hisob-kitoblariga ko'ra rivojlangan mamlakatlarning YaIM o'sish sur'ati 2021-yilda 5,1% ni 2022yilda esa 3,6% ni tashkil etishi proqnoz qilinmoqda. Bozor qiqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarning YaIM 2021-yilda 6,7% ga, 2022-yilda esa 5% ga o'sishi kutilmoqda<sup>2</sup>.

Ekologik jihatdan sof texnologiyalarni ishlab chiqarishga tezkor joriy etish, iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlari va uni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish tadbirlarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash va rivojlanish maqsadida rasmiy ko'mak ko'rsatish, soliq va soliqqa tortish borasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va noqonuniy moliyaviy oqimlarga qarshi kurashish, xalqaro moliyaviy xavfizlikni ta'minlash, qochoqlar va migrantlar bilan bog'liq muammolarni hal etish borasida xalqaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish talab etiladi.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

1. Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar nimalardan iborat?
2. Globallashuvning namoyon bo'lish xususiyatlari haqida tushuncha bering.
3. So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotining rivojlanishida qanday o'zgarishlar sodir bo'lmoqda?
4. Globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati ustuvorliklari qanday?
5. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash va sanoat tarmoqlarining raqobatdoshligini oshirish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar to'g'risida o'z fikringizni bildiring?
6. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasining mushtarakligi nimalarda ko'rindi?
7. Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda dunyoning yetakchi davlatlari tajribasini o'rganishning ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?

---

<sup>1</sup>. <https://xs.uz/uzkr/post/iqtisodij-erkinlik-va-ochiqlik-orqali-khalqaro-etirof-va-khalqfarovonligini-taminlash-sari>

<sup>2</sup> МВФ улучшил прогноз роста ВВП РФ в 2021 году до 3,8%//<https://www.interfax.ru/business/759744>

8. Iqtisodiy manfaatning mohiyati nimada? Ular qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?
9. Iqtisodiy manfaatlarga tahdidlar deganda nimani tushunasiz? Ular qanday vujudga keladi?
10. Kriminal iqtisodiy tahdidlar qanday turlardan iborat?
11. Tashqi omillar.
12. Eksport tarkibida xomashyo mahsulotlarining ustuvorligi.
13. Tashqi qarzlarning o‘sib borishi.
14. Iqtisodiy tahdidlar qanday turlardan iborat?
15. Ichki tahdidlar qanday shakllarda namoyon bo‘ladi? Ular qanday xavf tug‘diradi?
16. Tashqi tahdidlar qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?
17. Tahdidlarning o‘zaro bog‘liqligi nimalarda ko‘rinadi va ularning oldini olish uchun nima qilish kerak?
18. O‘zbekistonning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidning qanday ichki va tashqi omillari mavjud?

## **5-mavzu MAMLAKATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMII**

Reja

**5.1-§. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmining mazmuni, tamoyillari va o'ziga xos jihatlari**

**5.2-§. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning shakllari**

### **5.1-§. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmining mazmuni, tamoyillari va o'ziga xos jihatlari**

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash— barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaat nuqtayi nazaridan muttasil tarzda o'zaro aloqada bo'lishni, shuningdek, katta mablag' talab etuvchi va doimiy ravishda amalga oshiriluvchi ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmini shakllantirish borasida tizimli yondashuv iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Mazkur yondashuvga muvofiq iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmining barcha tarkibiy elementlari yaxlitlikda, o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi. Ayni paytda tizimning har bir elementi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ishonchlilik darajasini oshishiga xizmat qiluvchi o'ziga xos jarayonlari bilan ajralib turadi.

Xo'jalik faoliyatini amalga oshirishning turli bosqichlarida barpo qilinuvchi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmi bunday mexanizmning muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning institutsional mexanizmini qarab chiqishdan avval, xavfsizlik institutlari tushunchasiga aniqlik kiritib olishimiz talab etiladi:

- Institutlar – bu har qanday jamiyatda o'zaro aloqalarning amalga oshirilishini belgilab beruvchi rasmiy yoki norasmiy qoidalar va me'yorlar tizimi;
- Institutlar – har qanday jamiyatdagi o'ziga xos —o'yin qoidalari;
- Institutlar – bu insonlar o'zlarining kundalik hayotlarida amal qilib yashaydigan tafakkur tarzi;
- Institutlar – bu o'tmishda sodir bo'lgan jarayonlarning natijasi.

Individga ta'sir ko'rsatishi nuqtayi nazaridan barcha institutlarni rasmiy va norasmiy institutlarga ajratish mumkin. Norasmiy institutlar insonlarning jamiyatda o'zlarini tutishlari va xatti-harakatlariga nisbatan qat'iy cheklovlari o'rnatmaydi, aksincha, insonlarning jamiyatda yashashlarini imkon darajasida yengillashtirishga xizmat qiladi. Norasmiy qoidalaga amal qilmaslik qat'iy jazolanmasada, aksariyat

hollarda bunday norasmiy qoidalarga amal qilmaslik jamiyat a'zolari tomonidan ma'qullanmaydi. O'z navbatida, ularning buzilishi yetarlicha qattiq jazolanishiga sabab bo'luvchi qoidalarni rasmiy institutlar sifatida qabul qilishimiz mumkin bo'ladi.

Rasmiy institut norasmiy institutning o'ziga xos davomi sifatida qaraladi. Jamiyatda mavjud o'zini tutishning yozilmagan qonun-qoidalari, tarkib topgan urfatlar va an'analardan tobora murakkab jarayonlarga o'tib borganimiz sari jamiyatda qat'iy qonun-qoidalalar shakllanib, individlarning xatti-harakatlari va qonun-qoidalalar rasmiy ko'rinish ola boshlaydi. Bunda ko'pincha rasmiy institutlar norasmiy qoidalarni asosida vujudga keladi.

Rasmiy institut – bu shunday institutki, unga ko'ra jamiyat hayotini tartibga solish borasidagi barcha xatti-harakatlari, qoidalari, qonunlar va me'yoriy hujjatlar, rasman tasdiqlangan ko'rsatmalar, yo'riqnomalar, qoidalari, reglament, nizomlar va shukabilar asosida tartibga solinadi. Davlat, armiya, sud, oila, mакtab va boshqalar rasmiy ijtimoiy institutlar hisoblanadi. Rasman qat'iy belgilangan salbiy va ijobiy sanksiyalar asosida mazkur institutlar o'zlarining boshqaruva va nazorat funksiyalarini amalga oshiradilar. Iqtisodiy rivojlanishning institutsional tuzilmasi – iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmini tashkil etuvchi o'zaro bog'liq bo'lgan institutlar (rasmiy va norasmiy munosabatlar)ning yig'indisidan iboratdir.

Mazkur qoidalarning yaxlitligi ierarxik ko'rinishda ifodalangan bo'lib, bunda qoidalarning eng boshida mamlakat konstitutsiyasi, so'ngra qonun hujjatlari va qonunlar to'plami, davlat organlari hamda mahalliy hokimiyat idoralarining qaror va ko'rsatmalari turadi, ierarxik munosabatlarning asosini esa individual bitimlar tashkil etadi. Mazkur ierarxiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, rasmiy qoidalarni o'zgartirish shunchalik katta xarajatlarni talab etadi.

Institutsional mexanizm iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlarning o'ziga xos in'ikosi hisoblangani holda, rasmiy va norasmiy institutlarni harakatga keltiradi, xo'jalik yurituvchi subyektlar va agentlarning xatti-harakatlarini tartibga soladi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmini avvaldan shakllangan institutlar harakatga keltiradi va mazkur institutlar jamiyatda belgilangan tartib va qoidalarga amal qilinishi ustidan nazorat o'rnatadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro ta'sirlashuvi jarayonida qabul qilingan tartib va qoidalardan ma'lum darajada chetga chiqish holatlari kuzatiladi. Mazkur holatlari institutsional mexanizmning samarasizligi, shuningdek, mavjud tartib va qoidalarni doirasida samaradorligi yuqori bo'lgan norasmiy institutlarning mavjudligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli, institutsional mexanizmni qayta ko'rib chiqish va moslashtirish talab etiladi. Ushbu jarayonda mazkur mexanizmning xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro xattiharakatlariga qay tarzda ta'sir ko'rsatishi baholanadi. Tahlil davomida o'rnatilgan institutsional mexanizm doirasida legitim, rasmiy va norasmiy tartib va qoidalarni birdek o'rganiladi. Tahlil natijasida eng samarali institutlar saralab olinadi. So'ngra, eng samarali deb topilgan norasmiy institutlar

rasmiylashtiriladi, og‘ishlar bartaraf etiladi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro munosabatlari doirasiga rasmiy institutlarni joriy etish amaliyoti sifatida interiorizatsiya jarayonlari amalga oshiriladi.

Institutsional mexanizm o‘zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar va agentlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashtirishda muhim o‘rin tutadi;
- xo‘jalik yuritish mexanizmi doirasida rivojlanadi va uning o‘zgarishi xo‘jalik yuritish mexanizmining transformatsiyasi tufayli yuz beradi;
- xo‘jalik aloqalari doirasida iqtisodiy subyektlar va agentlarning o‘zaro munosabatlarini tartibga solishga va belgilashga yo‘naltirilgan;
- uning yordamida xo‘jalik yuritish mexanizmining barqarorligini ta’minlash va uning samaradorligini oshirishga erishiladi;
- xo‘jalik yuritish mexanizmining boshqa tarkibiy tashkil etuvchilariga nisbatan o‘zining birmuncha konservativligi bilan ajralib turadi;
- xo‘jalik yuritish mexanizmi doirasida umumiy maqsadlarga erishish uchun subyektlarning individual manfaatlarini tizimlashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi;
- mazkur mexanizm orqali subyektlarning umum qabul qilingan me’yorlar va qoidalardan chetga chiqishlari tartibga solinadi va mo‘tadillashtiriladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmini iqtisodiy xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy tavsifga ega bo‘lgan chora-tadbirlar tizimi sifatida ifodalash mumkin. Bunday chora-tadbirlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi xavf-xatarlarni aniqlash, ularni bashoratlash va kelgusida mazkur xatarlarning oldini olish maqsadida o‘tkaziluvchi iqtisodiy vaziyatning har tomonlama va haqqoniy monitoringi;
- bunday chegaraviy ko‘rsatkichlarga amal qilmaslik kelgusida turli xil nizolar va beqaror vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini e’tibordan chetda qoldirmagan holda ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning chegaraviy qiymatlarini aniqlashtirish. Chegaraviy qiymatlar (ko‘rsatkichlar) – bu iqtisodiy manfaatlar nuqtayi nazaridan xo‘jalik faoliyatida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan chegaraviy nisbatlarning raqamlarda ifodalanuvchi miqdoriy indikatorlari hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlarga amal qilmaslik takror ishlab chiqarish jarayonining turli ishtirokchilarini iqtisodiy jihatdan bir tekis rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgani holda, kelgusida mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ham katta salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

- davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash borasida ichki va tashqi tahdidlarni aniqlashtirish va ularni bartaraf etish borasidagi faoliyati.

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasida quyidagilarni ta'minlash tavsiya etiladi:

1. Milliy manfaatlar; iqtisodiy siyosatning (strategik, uzoq muddatli, qisqa muddatli) ustuvorliklari, maqsad va vazifalari.
2. Tahdid va xavf-xatarlar (ichki, tashqi).
3. Indikatorlar (ko'rsatkichlardan farqli o'laroq, ular xabar berish funksiyasini bajaradi).

4. Chegaraviy qiymatlar (iqtisodiyotning xavfsiz holatini xavfli holatdan ajratib turadi).

5. Chegaraviy qiymatlar bilan indikatorlarning amaldagi va istiqbolli ko'rsatkichlarini taqqoslash asosida xavfsizlikni baholash.

6. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiya va konsepsiysi.
7. Tashkiliy-boshqaruv bloki.

Mamlakatimizda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning Davlat strategiyasiga muvofiq, chegaraviy qiymatlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Iqtisodiyotning tashqi omillarning ta'siridan qat'i nazar kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish jarayonlarini ta'min eta olish. Bu o'z navbatida, kundalik hayotda va shuningdek, ekstremal vaziyatlarda ham davlatning mayjud bo'lishi uchun mamlakatda ishlab chiqarishning muhim hayotiy tarmoq hamda sohalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ko'zda tutadi. Strategik resurslar ustidan samarali davlat nazoratini o'rnatish, ularning mamlakat hududidan ortiqcha miqdorlarda olib chiqib ketishining oldini olish, mamlakatning milliy manfaatlarini har qanday vaziyatda ham faol himoya qila olish mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

2. Aholi turmush darajasini yaxshilash va uni bir maromda ushlab turish. Davlatning ijtimoiy-siyosiy jihatdan barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan qashshoqlik, aholi daromadlarining tabaqalanishi va ishsizlik ko'rsatkichlari qiymatining belgilangan chegaralardan oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik.

3. Investitsion faollikni oshirish maqsadida tegishli moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish, milliy valyuta, moliya va bank tizimining barqarorligini ta'minlash.

4. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarga chiqishiga keng imkoniyatlar yaratib beruvchi tashqi savdoning maqbul tuzilmasini yaratish. Qo'shni va yaqin xorij davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratish.

5. Mamlakatning ilmiy salohiyatini saqlab qolish va ilmiytexnikaviy taraqqiyotning strategik yo'nalishlarida mamlakat xavfsizligini ta'minlashga

yo‘naltirilgan milliy ilmiy tadqiqot muassasalari va oliv o‘quv yurtlarining har tomonlama rivojlanishiga ko‘mak ko‘rsatish.

6. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvini hisobga olgan holda umummilliy bozorlarning amalda bo‘lishi va turli xil separastik tendensiyalarining rivojlanishiga to‘sinqinlik qiluvchi va umum davlat manfaatlariga rioya etilishini ta’min etuvchi yagona iqtisodiy makonni saqlab qolish va xalqaro doirada keng ko‘lamli iqtisodiy aloqalarni amalga oshishiga keng imkoniyatlar yaratib berish.

7. Jamiyat hayotining turli jabhalari va shuningdek, xo‘jalik va moliyaviy faoliyat yuritish soha va tarmoqlarining kriminallashuvini oldini olish maqsadida qulay iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratish.

8. Turli iqtisodiy vaziyatlarda bozor iqtisodiyotining me’yorda amal qilishini kafolatlash maqsadida davlatning iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishning zaruriy chegaralarini aniqlashtirish va ta’minlash.

Umuman olganda, yuqorida sanab o‘tilgan ko‘rsatkichlar — iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi mohiyatini aniqlashtirishda birmuncha qo‘l keladi va mazkur tushunchani har bir jihatini inobatga olgan holda o‘rganish imkonini beradi. Chegaraviy qiymatlar iqtisodiyot sohalari bo‘yicha mamlakatning milliy manfaatlari doirasidan kelib chiqqan holda tasniflanadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash institutsional mexanizmining mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo‘ladi. Institutsional mexanizm quyidagi funksiyalarini bajaradi va ular iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmiga to‘laligicha bog‘liq. Ularga:

- 1) hamkorlikda faoliyatni yo‘lga qo‘yish maqsadida umumiyl normalar va statuslar asosida agentlarni bitta subyektga integratsiyalashuvini ta’minlash;
- 2) qoida va me’yorlar talablariga qo‘shiluvchi yoki inkor etuvchilarga qarab subyektlarni va shuningdek turli institutlarning agentlarini tabaqalashtirish;
- 3) belgilangan talablar asosida institut subyektlari va agentlarining o‘zaro aloqalarini reglamentlash;
- 4) yangi talablarning kundalik real voqelikka aylanishini amalga oshirish;
- 5) kundalik odatga aylangan innovatsiyalarning takror ishlab chiqarilishini ta’minlash;
- 6) turli institutlarga mansub bo‘lgan subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish va ular o‘rtasida subordinatsiyani ta’minlash;
- 7) subyekt va agentlarni qabul qilingan qoidalar va shuningdek opportunistik xulq-atvorlari to‘g‘risida xabardor qilish;
- 8) institut tomonidan belgilangan talablarga rioya etuvchi va uni inkor etuvchi subyektlar faoliyatini tartibga solish;
- 9) me’yor, qoida, kelishuv va shakllangan tartiblarga rioya qilinishini nazorat qilish.

Institutsional mexanizm amalda bo‘lishining asosiy qoidalari tamoyillar deb yuritiladi va bunday tamoyillariga quyidagilar kiritiladi:

- mamlakat qonunchiligi normalari va tizimning amalda bo‘lishini belgilab beruvchi qoidalarga rioya qilish;
- turli sohalarda faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlari iqtisodiy manfaatlarining muvozanatini ta’minlash;
- iqtisodiy xavfsizlikka tahdid va unga qarshi kurashish borasidagi tadbirlarga ustuvorlik berish;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning resurs asosini yaratish va uni mustahkamlash;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmini boshqarishda markazlashgan va markazlashmagan yondashuvlardan foydalanish hamda ularni joriy etish borasida nazorat o‘rnatish;
- ijtimoiy xo‘jalikning boshqa sohalarida xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlari bilan institutsional mexanizmning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash;
- iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va shu kabi turli tavsifga ega bo‘lgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda tizimli yondashuvga asoslanish.

Yuqorida tilga olib o‘tilgan mexanizmning tarkibiy jihatlarini aniqlashtirgan holda, birinchi navbatda, iqtisodiy xavfsizlikning obyektlari bo‘lgan individlar, shaxslar, yaxlit holda jamiyat, uni tashkil etuvchi ijtimoiy guruhlar va aholi qatlamlari, jamoat birlashmalari, yuridik va jismoniy shaxslar shuningdek, tegishli davlat idoralari hamda tashkilotlari sifatida davlatga e’tibor qaratish talab etiladi. Ma’lumki, umumiy holatda jamiyat va har bir shaxs manfaatlari bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liqdir, shu sababli huquqiy himoya obyekti sanaluvchi asosiy ijtimoiy manfaatlar va ijtimoiy munosabatlar har bir ishtirokchining hayotiy manfaatlari yaxlit bir butunligini tashkil etadi. Bunda nafaqat xususiy va ommaviy manfaatlarning turlichaligi, balki ularning alohida turlari o‘rtasida ham bir qator ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmini tashkil etuvchi barcha elementlarning o‘zaro hamkorlikda bo‘lishini inkor etmagan holda, shuni alohida ta’kidlash lozimki, aynan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmidagi tarkibiy beqarorlik mazkur mexanizmning samarali faoliyat ko‘rsatishi borasida jiddiy kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli ham, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash institutsional mexanizmining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashda eng birinchi vazifa hisoblanadi.

Davlat iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmida asosiy muvofiqlashtiruvchi vazifasini bajarganligi bois, yuqorida tilga olib o‘tilgan ziddiyatlar

va qaramaqarshiliklarni bartaraf etishda davlatning o‘rniga alohida e’tibor qaratiladi. O‘z manfaatlari yo‘lida harakatlanuvchi davlatga qarashli bo‘limgan nodavlat subyektlari institutsional mexanizmning yuqori darajadagi funksiyalari (masalan, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash strategiyasini ishlab chiqish)ni uddalay olmaydilar, mazkur institutsional mexanizmning bir qator funksiyalarini tor doiraldagina amalga oshira oladilar xolos.

Bugungi kunda mamlakatda bozor munosabatlarini erkinlashtirish, davlatning boshqaruvchilik funksiyalarini qayta ko‘rib chiqishga qaratilgan keng ko‘lamli ma’muriy islohotlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash sohasida davlat va nodavlat tuzilmalarning uzviy hamkorligi talab etiladi. Aynan shu maqsadda keyingi paytda ma’muriy islohotlarni amalga oshirish konsepsiysi, O‘zbekiston Respublikasining Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasining davlat-xususiy sherikchlik to‘g‘risida gi Qonunlari va qator Prezident farmonlari va qarorlari qabul qilindi.

## **5.2-§. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning shakllari**

Bugungi kundagi vaziyatni tahlil qilish asosida dunyoning ilg‘or mamlakatlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

- 1) shakl va ko‘rinishlarni rivojlanish tedensiyalari;
- 2) davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash usullarining rivojlanishi borasidagi tendensiyalar.

Birinchi guruhga boshqa faoliyat turlariga nisbatan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasida davlat boshqaruv organlarining xatti-harakatlari va chora-tadbirlariga ustuvor ahamiyat berilishi bilan bog‘liq bo‘lgan tendensiyalar kiradi.

Ikkinci guruhga milliy loyihalarni amalga oshirish samaradorligi iqtisodiyotning samarali faoliyat ko‘rsatishiga tobora bog‘liq bo‘lib qolayotganligi, iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasining ortishi yoki zaiflashishiga bog‘liq holda milliy xo‘jalikning hayotiy muhim sohalarini qo‘llabquvvatlashning zarurligi, dunyoning turli mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiya aloqalarining kuchayishi.

Murakkab ochiq iqtisodiy tizimlar rivojlanishining qonun va qonuniyatlarini amal qilish mexanizmi asosida mazkur tendensiyalarini o‘rganish mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning quyidagi qonuniyatlarini aniqlashtirish imkonini berdi:

- iqtisodiyotning samarali amal qilishi, birinchi navbatda, uning resurs ta’minotiga bog‘liqdir. Milliy iqtisodiyot infratuzilmasining rivojlanishi, uning milliy iqtisodiyotning o‘zga soha va tarmoqlari, jahon xo‘jaligining boshqa milliy xo‘jalik sektorlari bilan o‘zaro aloqalarining kuchayib borishi asnosida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning mavjud shakllarining

tadrijiy taraqqiy etishi bilan bir qatorda, uni ta'minlashning yangi shakllari ham vujudga kela boshlaydi;

- mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning samaradorligi ko'rileyotgan chora-tadbirlarning natijaviyligiga va maxsus ajratilgan resurslardan qaytariqa foydalanilishiga bog'liqdir. Raqobatchilarining milliy iqtisodiyotga ko'rsatayotgan ta'siri, xo'jalikning boshqa milliy iqtisodiyotlar bilan o'zaro aloqalarga kirishishi, davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash borasida amalga oshirayotgan maqsadli o'zgartirishlari, bularning barchasi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning mavjud shakl va yondashuvlarining takomillashuviga, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning istiqbolli usullarining paydo bo'lishiga turtki beradi. Xattiharakatlarning ushbu tizimi maxsus ajratilgan kuch va resurslardan amalda samarali foydalanilishi, maxsus choratadbirlarning yuqori saviyada tashkil etilishi bilan ajralib turadi;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi va bu borada ajratilayotgan kuch va resurslardan maqsadli foydalanilishi ko'p jihatdan maxsus tashkiliy tuzilma faoliyatining yo'lga qo'yilganligiga bog'liqdir. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash shakl va usullarini takomillashtirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning bunday shakl va usullarini hayotga to'laqonli joriy eta olish imkonini beruvchi maxsus tashkiliy tuzilma barpo etilishini ko'zda tutadi;
- mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash samaradorligi qarshi tomonning iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishiga bog'liqdir. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda qarshi tomonning milliy iqtisodiyot soha va tarmoqlariga, ular o'rtasidagi o'zaro aloqalar darajasiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'siri atroflicha tahlil qilinadi va bu borada tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi;
- iqtisodiy ko'rsatkichlar mamlakat iqtisodiyotining boshqa mamlakatlar iqtisodiyoti bilan o'zaro aloqalari ko'lami va tavsifiga ko'ra ko'p jihatdan bog'liqdir.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida milliy xo'jalikning makroiqtisodiy muhit bilan o'zaro uyg'unlikda rivojlanishi ta'min etiladi. Bu esa iqtisodiyotning amalda bo'lishi uchun qulay shartsharoitlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi. Mazkur shartsharoitlar quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

- ierarxik bo'ysunish tartibida iqtisodiy tizimlar bilan o'zaro aloqalarga kirishish chog'ida ichki iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash;
- bir-biriga bo'ysunmaydigan iqtisodiy tizimlar o'rtasida o'zaro hamkorlikdagi xattiharakatlarni amalga oshirishda ikkala tomon uchun ham manfaatli bo'lgan hamkorlik aloqalarini o'rnatish;

- raqobatchi davlatlar iqtisodiy tizimi amal qilishining izdan chiqishi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan qonuniyatlar mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning asosiy shakllarini aniqlashtirish imkonini beradi:

- iqtisodiy patronaj;
- iqtisodiy kooperatsiya;
- iqtisodiy qaramaqarshilik.

Iqtisodiy patronaj (lotincha, patronus-homiy, qadimgi) Rimda huquq va erkinliklari o‘z qo‘lida bo‘lmagan yoki kambag‘al fuqarolarning boy odamlarga mutlaq qaramligini ifoda etuvchi homiylikning alohida ko‘rinishi amalda bo‘lgan) agar alohida tizimlar yaxlit bir butun tizim sifatida qaralsa, mamlakat iqtisodiyotida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan iqtisodiy tizimlarning ichki xavfsizligini ta’min etadi. Iqtisodiy patronaj doirasida global boshqarish tizimiga kiruvchi har bir boshqarish, ishlab chiqarish va shu kabi tizimlarning iqtisodiy nuqtayi nazardan xavfsiz amal qilishi ta’min etiladi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning mazkur shaklini qo‘llab-

quvvatlashning asosiy sababi shundaki, milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish har bir davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda davlat, eng avvalo, faoliyatining buzilishi yoki to‘xtab qolishi mamlakat taqdiriga, uning iqtisodiyotiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan milliy iqtisodiyotning eng muhim hayotiy tarmoq sohalarini qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratadi.

Milliy xo‘jalikning favqulorra muhim tarmoqlari iqtisodiyotini tashkil etish va boshqarish bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishning o‘ziga xosligini belgilab beradi. Iqtisodiyotning mazkur sektorlarini davlat tomonidan boshqarishning shakl va usullari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- 1) buyurtmachi monopoliyasining mavjudligi (aksariyat hollarda davlatning o‘zi buyurtmachi hisoblanadi);
- 2) mahsulotlarning sifat va texnik tavsiflariga alohida talablar qo‘yiladi. Mahsulotlar uchun sig‘imlilik, texnologiya darajasining yuksakligi kabi jihatlar muhim sanalsa, mazkur sohalarda amalga oshiriluvchi investitsion loyihamlar uchun esa uzoq muddatlilik va kapital sig‘imlilik kabilalar muhim sanaladi;
- 3) strategik ahamiyatga ega bo‘lgan xomashyo materiallar zaxirasini yaratish, safarbar etiluvchi quvvatlarni bir maromda ushlab turishga doimiy ehtiyoj mavjud;

**O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbollari  
respublikaning har bir tuman va viloyat  
imkoniyatlaridan umum davlat va hududiy  
manfaatlarda oqilona foydalana olishga bog‘liq.**



ARXIV.UZ

4) texnologiyalarni uzatishni cheklash, ishlab chiqarishlarni va olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni takrorlash, ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida piramidal aloqalarning vujudga kelishiga olib keluvchi ish tartibi, kooperatsiya va ixtisoslashuv jarayonlarining o‘ziga xos jihatlari;

5) tarmoq korxonalarining jahon bozoriga chiqish borasida ma’lum cheklov va qiyinchiliklarga duch kelishi.


Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minalashning navbatdagi shakli iqtisodiy kooperatsiya hisoblanadi. Iqtisodiy kooperatsiya bir-biriga bo‘ysunmaydigan turli iqtisodiy tizimlarning o‘zaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish orqali mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minalashga xizmat qiladi. Iqtisodiy kooperatsiya jarayonida milliy xo‘jaliklar bilan turli mamlakatlarning iqtisodiy tizimlari, xorijiy va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida iqtisodiy resurslarni o‘zaro ayriboshlash borasida hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yiladi.



Iqtisodiy kooperatsiya – bu faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida turli milliy xo‘jaliklarning hamkorlikdagi tuzilmalarga birlashishini taqozo etuvchi obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minalashning mazkur shaklini yanada takomillashtirish va rivojlantirish milliy iqtisodiyot doirasida tovar va xizmatlar ishlab chiqarish samaradorligini ta’minalash nuqtayi nazaridan har doim ham yetarli bo‘lmasligi bilan izohlanadi.

Iqtisodiy kooperatsiya quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

1) fuqarolik va harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalarining xo‘jalik hamda ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan savdo qilish. Quyidagilar savdo aloqalarining asosiy maqsadi hisoblanadi: tovar ishlab chiqaruvchilar va eksportchi korxonalarining foydasini oshirish; eksportchi-mamlakat tashqi savdo balansini yaxshilash; ommaviy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish va import qiluvchi mamlakat ishlab chiqaruvchilari va xaridorlari tomonidan ilmiy tadqiqot va tajriba-



konstruktorlik ishlari uchun sarflangan xarajatlarni qisman yoki to‘lig‘icha qoplash; xo‘jalik yurituvchi subyektlarning safarbarlik tayyorgarligini oshirish;

2) rivojlanayotgan mamlakatlarga ularning iqtisodiyotlarini mustahkamlash maqsadida moliyaviy va moddiy ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi iqtisodiy ko‘mak ko‘rsatish. Iqtisodiy yordam alohida mamlakatlar hukumatlari yoki xususiy institutlar (tijorat banklari) o‘rtasidagi o‘zaro ikki tomonlama kelishuvlar va shu bilan bir qatorda jahon banki hamda boshqa xalqaro tashkilotlar bilan ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida ko‘rsatiladi. Iqtisodiy yordam ko‘mak qabul qiluvchi mamlakatlarga xorijiy valyutalar oqimining ko‘payishini va mamlakat ichki jamg‘armalar hajmining ortishini ta’min etishi bilan bir qatorda ko‘mak qabul qiluvchi mamlakatlarga yangi texnika-texnologiyalar, bilimlar va boshqaruv usullaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Quyidagilar iqtisodiy ko‘mak ko‘rsatishning asosiyligi hisoblanadi:

- ittifoqchi yoki sheriklarning iqtisodiy yoki harbiy salohiyatini oshirish;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy yoki siyosiy jihatdan qaramligining ortishi;
- davlat va uning hokimiyat tuzilmalarida o‘z ta’sir doirasini kengaytirish va chuqurlashtirish;
- mintaqada muhim strategik joylashuv o‘rniga ega bo‘lgan davlatlarning harbiy-siyosiy xatti-harakatlarini moddiy yoki moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishning turli sohalarida mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotiga asoslanuvchi iqtisodiy integratsiya iqtisodiy kooperatsiyaning oliy ko‘rinishi hisoblanadi. Iqtisodiy integratsiya quyidagi ko‘rinishlarda amalga oshadi:

- mahsulot ishlab chiqarish, standartlashtirish va ishlanmalar, mehnat vositalarini modernizatsiyalash hamda ta’mirlash sohasida o‘zaro hamkorlik qilish va uyushmalar tuzish;
- hamkorlikda iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish; □ hamkorlikda kadrlar tayyorlash va shu kabilar.

Bir-biriga qarama-qarshi tomonlarning o‘zaro raqobat kurashida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning asosiyligi shakli bo‘lib, qarshi iqtisodiy kurash hisoblanadi. Bunda qarshi kurashuvchi tomonlar harbiy kuch va salohiyatdan foydalanmagan holda, zarur iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, iqtisodiy faoliyat olib borishning resurs bazasini kengaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hisobiga mahsulotlar bozorida va ishlab chiqarish sohasida ustunlikni qo‘lga kiritishga

harakat qiladilar. Qarshi kurashuvchi tomonlar o‘zaro kurashda ustunlikka intilar ekanlar, bunda turli usul va vositalardan foydalanadilar. Bu usul va vositalar sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: sanoat va texnologik shpionaj; eksport-import tashkilotlari, ishlab chiqarish obyektlarida josuslik va razvedka ishlarini amalga oshirish; strategik ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlar, xomashyo resurslari, tovar va xizmatlar bozorida ekspansiyani amalga oshirish; strategik ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlar, strategik xomashyo, oziq-ovqat, valyuta va shu kabilarga nisbatan eksport yoki import borasida embargo joriy etish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash shakli sifatida iqtisodiy qarama-qarshilik – bu milliy xo‘jalikni himoya qilish va qarama-qarshi kurashuvchi tomonlarning iqtisodiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatishning turli usul va vositalardan foydalangan holda davlatlar, ularning bloklari va koalitsiyalari yoki boshqa raqobatchilar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir.

Bu borada iqtisodiy qarama-qarshilik davlatlararo (davlatlar ichidagi yoki koalitsiyalar o‘rtasida) kurashning quyidagi o‘ziga xos sohalarini qamrab oladi:

- 1) qarama-qarshi tomonlarning xo‘jalik faoliyati sohasi;
- 2) qarama-qarshi kurashuvchi tomonlarning siyosiy maqsadlariga bo‘ysundirilgan iqtisodiy kurash usullari va yo‘nalishlari;
- 3) transport, sanoat, moliya va boshqa shu kabi xo‘jalik tizimlari, obyektlari va ularning himoyasiga ta’sir ko‘rsatish.

Agar tomonlarning o‘zaro iqtisodiy qarama-qarshiligi urushga tayyorgarlik ko‘rish yoki uni amalga oshirish maqsadida olib borilsa, u holda mazkur

qarama-qarshilik harbiy iqtisodiy sohada qaramaqrashilik ko‘rinishini oladi. Iqtisodiy-harbiy qaramaqrashilik uchun quyidagi jihatlar xos:

- mustaqil bo‘lsada, qarama-qarshi tomonlar qarshi tomonning xo‘jalik faoliyati sohalariga turli yo‘llar va vositalar bilan aralashadi;
- harbiy sohada ta’sirni kuchaytirish, harbiy tayyorgarlikni oshirish va harbiy mashg‘ulotlar yo‘nalishini qarshi tomonga yo‘naltirish;



kuchaytirish, harbiy tayyorgarlikni oshirish va harbiy mashg‘ulotlar yo‘nalishini qarshi tomonga yo‘naltirish;

- harbiy va fuqarolik ishlab chiqarishlari o‘rtasidagi nisbatlarni harbiy soha tomonga ko‘proq burish. Harbiy harakatlar aniq bo‘lib qolgan paytda, butun mamlakat iqtisodiyoti harbiy ishlab chiqarishga yo‘naltirilishi mumkin;

- harbiy-iqtisodiy qarama-qarshilik harbiy kurashlar dinamikasi bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi;

- harbiy harakatlarni olib borish uchun sarflanuvchi resurslar iste’molining ortishi qarshi kurashuvchi tomonlar iqtisodiyotining —harbiy yo‘lliga tushirilganligini va uning qanchalik chuqurlashganligini ko‘rsatadi, harbiy ishlab chiqarish tuzilmasi va hajmini belgilab beradi.

Quyidagilar iqtisodiy jihatdan bir-biri bilan qarama-qarshi kurashuvchi tomonlarning asosiy maqsadlari hisoblanadi:

- qarama-qarshi tomonning xo‘jalik faoliyati sohalarini qisqartirish (ishlab chiqarish va mahsulot sotib olish hajmini oshirish yoki kamaytirish, iqtisodiyotning mobilizatsion tayyorgarlik darajasini oshirish va shu kabilar);
- sanoat hududlari, ishlab chiqarish obyektlari, transport va boshqa xo‘jalik maydonlarini yo‘q qilish (egallab olish, buzib tashlash) yoki himoya qilish.

Iqtisodiy qarama-qarshilik borasida o‘zaro kurashuvchi tomonlarning kurash strategiyalari, odatda, quyidagi maqsadlarga bo‘ysundirilgan bo‘ladi:

- 1) strategik xomashyo, oziq-ovqat, qurol-yarog‘ va harbiy texnika eksporti (importi) hajmlarini oshirish yoki kamaytirish;
- 2) qarz va kreditlar berish yoki olish;
- 3) xomashyo va boshqa resurslarning strategik zaxiralalarini yaratish;
- 4) qarama-qarshi tomonlarning iqtisodiyotini beqarorlashtirish;
- 5) asosiy ishlab chiqarishlar, transport kommunikatsiyalarini zaxiralash;
- 6) ittifoqchi davlatlar va neytral mamlakatlarning ishlab chiqarish quvvatlari, xomashyo va boshqa resurslaridan keng foydalanish.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini har tomonlama taraqqiy ettirish, uning jahon xo‘jaligidagi raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash maqsadida yuqorida tilga olib o‘tilgan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning turli usul va vositalaridan keng foydalanish talab etiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmi va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmi kategoriyalari o‘rtasida qanday o‘xhashlik va tafovutlar mavjud?

2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmining mazmunini tushuntirib bering.

3. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmi tuzilmasi qanday?

4. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmi qanday tamoyillarga asoslanadi?

5. O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmi qanday o'ziga xosliklarga ega?

6. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini tushuntirib bering?

7. Globallashuv jarayonlari mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga qay tariqa ta'sir ko'rsatadi?

8. Bugungi kunda O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy xavf-xatarlar nimalardan iborat?

## **6-mavzu SHAXSNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI**

### **Reja**

#### **6.1-§. Shaxsning erkinliklari va iqtisodiy mustaqilligi**

#### **6.2-§. Shaxsning hayotiy muhim manfaatlari va uning xavfsizligiga tahdidlar**

#### **6.3-§. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari**

#### **6.1-§. Shaxsning erkinliklari va iqtisodiy mustaqilligi**

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi davlat, korxona, jamiyat, shaxsga nisbatan qo'llanilishi bilan bir qatorda, mazkur tushunchani yuqorida tilga olib o'tilgan har bir subyekt nuqtayi nazaridan ham qarab chiqish mumkin. Ayni paytda ulardan har birining holati yaxlit tarzda milliy xavfsizlikni shakllantiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shaxs iqtisodiy xavfsizlikning birmuncha yirik subyektlari bo'lgan korxonalar, xo'jalik yurituvchi subyektlar, jamiyat va davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shaxs bir paytning o'zida xavfsizlik sohasining ham obyekti ham subyekti bo'lgani holda, xavfsizlik sohasining barcha tizimlarida mavjud bo'ladi va tizim tashkil etuvchi vazifasini bajaradi. Shundan kelib chiqqan holda, shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, iqtisodiy xavfsizlikning barcha bosqichlarida muhim o'rinn tutadi, ammo shuni ta'kidlash lozimki, shaxsning iqtisodiy xavfsizligi o'z navbatida, jamiyat, xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat va ekologik vaziyatga chambarchas bog'liqdir.

Hozirgi globallashuv va o'zaro integratsiyalashuv sharoitida raqobat kurashi tobora kuchayib borayotgan bir davrda har qanday mamlakatning kelajakdagi rivoji, eng avvalo, insonlarda mujassamlashgan intellektual salohiyatni saqlash, ko'paytirish, undan tijorat yo'lida foydalanishga bog'liq ekanligini hech kim rad etmaydi. Oliy ma'lumotga ega, ilmli, malakali va katta amaliy tajriba sohibi bo'lgan insonlarga

jamiyatning texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan modernizatsiyalash darajasini oshirish, yangi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish sohasini shakllantirishi, jadallashtirishi mumkin.

Demak, taraqqiyotga intilgan har qanday jamiyat bu holatni tushunib yetishi va albatta, insonni e'zozlashi, uni turli xavf-xatar, xurujlardan asrashi, avaylashi, himoya qilishi lozim. Bu o'ta murakkab vazifani davlat o'z zimmasiga olishi, har bir insonning, mamlakat xalqining xavfsiz, osuda hayot kechirishini ta'minlashi va bu ish uning muqaddas vazifasi ekanligini tushunib yetmog'i lozim. Davlatni aql-idrok bilan boshqarish, – mutafakkir Abu Nasr Forobiy aytganidek, – xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratdir. Bu hikmatli so'zlar, bugungi kunda, davlatlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning muhim shioriga aylanishi lozim.

Tahlillarimiz shundan dalolat bermoqdaki, uzoq yillar davomida barcha mamlakatlarda turli ichki muammolar, kelishmovchiliklar, nomutanosibliklar, inson huquqlarining buzilishi, zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar sonining ortishi, terrorizmning kuchayishi, narkotik hamda psixotrop moddalar iste'molining ko'payishi, korrupsiya, byurokratiya, turli kasalliklarning tarqalishi, atrof-muhitning ifloslanish holatlari kuchayib, ularning inson xavfsizligi va salomatligiga tahdidi ortib bormoqda.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda shaxsnинг о'рни qonunchilikda ham o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidalgi qonuni<sup>1</sup> da shaxs teng huquqli subyekt sifatida e'tirof etilgani holda, quyidagi asosiy qoidalar belgilab qo'yilgan:

- Xavfsizlik – shaxs, jamiyat va davlatning har qanday ichki va tashqi xatarlardan himoyalanganlik holati;
- hayotiy muhim ehtiyojlar – shaxs, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi va kamol topishiga xizmat qiluvchi ehtiyojlarning umumiyligi;
- xavfsizlikka tahdidlar – davlat, jamiyat va shaxsning muhim hayotiy manfaatlariga tahdid soluvchi omillar va shartsharoitlarning umumiyligi;

### SHAXS TUSHUNCHASI

- Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining —Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidalgi Qonun 2017-yil 3yanvar O'RQ-419 son.

- tahdidlarning ichki va tashqi manbalaridan kelib chiquvchi xavfsizlikning real va potensial xavfi ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlash borasidagi faoliyatning mazmunini belgilab beradi.

Xavfsizlik masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari mazkur sohada shaxsning o'rni va ahamiyatini hisobga olgan holda shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib beradi. Xususan, O'zbekiston milliy xavfsizligini ta'minlash strategiyasida uzoq muddatli istiqbolga ega, ushbu xizmatning milliy xavfsizlikni ta'minlashning milliy ustuvorliklari belgilab berilgan bo'lib, ular orasida quyidagilar alohida o'rin tutadi:

- millatlararo totuvlik, siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, demokratik institutlarni rivojlantirish, davlat idoralari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish;
- mamlakatning demografik jihatdan barqaror rivojlanishini ta'minlash, aholi salomatligini mustahkamlash, turmush sifati va darajasini oshirish;
- boy milliy an'analar va qadriyatlarni saqlab qolish va ularni yanada keng yoyish.

Xalq manfaatlarni ro'yobga chiqarishga quyidagi strategik milliy ustuvorliklarni amalga oshirish orqali erishiladi:

- mamlakat mudofaasini mustahkamlash;
- davlat va jamoat xavfsizligi;
- mamlakat fuqarolarining turmush darajasini yaxshilash;
- iqtisodiy o'sish;
- fan, ta'lim va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash;
- sog'liqni saqlash;
- madaniyat;
- tirik tizimlar ekologiyasi va tabiatdan oqilona foydalanish; □ teng huquqli strategik sherikchilik va strategik barqarorlik.

Yuqorida sanab o'tilgan milliy manfaatlar va ustuvorliklardan kelib chiqqan holda, shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi bir qator omillar va shart-sharoitlarni aniqlashtirish mumkin. O'z navbatida, shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasida quyidagi asosiy maqsadli yo'nalishlarni belgilab olish mumkin bo'ladi:

- moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlik;
- oziq-ovqat xavfsizligi;

- axborot xavfsizligi;
- mehnat xavfsizligi (bandlikni ta'minlash va xodimlarning haq-huquqlarini himoya qilish muammolari);
- ekologik xavfsizlik;
- ta'lim va madaniyat sohasida xavfsizlik;
- tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida xavfsizlik va boshqalar.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasida yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar orasida iqtisodiy omillar asosiyalaridan biri hisoblanadi. Buning yaqqol tasdig'i shundan iboratki, iqtisodiy omillar shart-sharoitlarsiz jamiyat, xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlatning yaxlit tarzda taraqqiyotini rag'batlantiruvchi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va kamol topishiga xizmat qiluvchi umumiy ehtiyojlarni qondirmasdan turib, shaxsning hayotiy muhim manfaatlari va ehtiyojlarini ta'min etib bo'lmaydi.



Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun tegishli shart-sharoitlarning mavjudligi, inson manfaatlari va ehtiyojlar qondirilishining turli xavf-xatar va tahdidlardan himoyalanganligi, ijtimoiy barqarorlik, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan erkin foydalana olish imkoniyatlarining ta'min etilishi, fuqarolarning qonuniy haqhuquqlarini kafolatlanganligi sifatida tushuntirishimiz mumkin.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasini — Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yiliida amalga oshirishga oid Davlat Dasturining ikkinchi yo'nalishida Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash borasida fuqarolarining xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash masalalari ham nazarda tutilgan edi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida:

2026-yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to'liq qamrab olish;

Quyidagilarni nazarda tutuvchi aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish:

- ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

- ijtimoiy sug‘urta tizimini yaratish, jumladan, ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish;
- kam ta’milangan oilalarga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ijtimoiy shartnomasi asosida taqdim etish;
- Ijtimoiy himoya yagona reestri bilan integratsiya qilish va boshqa shu kabi muhim vazifalar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida —Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilmalix shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan babbaravar muhofaza etilishini kafolatlaydi— deb belgilangan.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi tizimini shakllantirishda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati muhim o‘rin tutadi, shu bois, shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi mamlakatning ijtimoiy sohadagi iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash masalalariga katta urg‘u beriladi. Shuni alohida qayd etib o‘tish kerakki, shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash borasida bugungi kunda turli-tuman tahdidlarning kuchayib borishi sharoitida har bir inson kundalik hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar va ularning darajasini kamaytirish yoki ularga hayoti davomida duch kelmaslik uchun nimalar qilish lozimligini bilmog‘i lozim.

## **6.2-§. Shaxsning hayotiy muhim manfaatlari va uning xavfsizligiga tahdidlar**

Ijtimoiy soha nafaqat iqtisodiy, balki milliy xavfsizlikni ta’minalashda ham muhim o‘rin tutadi, zero, ijtimoiy soha orqali shaxs, oila va shu bilan bir qatorda alohida ijtimoiy guruhlari hamda yaxlit tarzda jamiyatning manfaatlari va ehtiyojlari qondiriladi. Aynan shu joyda shaxs va davlat, shaxs va korxonalar o‘rtasidagi turli-tuman ijtimoiy munosabatlarning mustahkamligi va o‘zaro hamohangligi jiddiy sinovdan o‘tadi. Aholi daromadlari va aholi iste’molining keskin tabaqlanishi, daromadlari yashash minimumidan past bo‘lgan insonlar sonining mutlaq va nisbiy o‘sishi natijasida kambag‘allikning ortishi mamlakatning barqaror rivojlanishi hamda xavfsizligiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kam sonli boylar va kam ta’milangan fuqarolar sonining ko‘pligini ifoda etuvchi jamiyatning mulkiy jihatdan tabaqlanishi ijtimoiy sohada mamlakatning xavfsizligiga katta tahdid tug‘diradi. Aholiniq daromad va mulk jihatdan tabaqlanishi barcha mamlakatlar uchun xos bo‘lgan holat hisoblansada, mazkur tabaqlanish darjasini va turli aholi guruhlari daromadlarining

o‘zgarish amplitudasi haddan ziyod ortib ketmasligi lozim. Dunyo tajribasi shundan dalolat beradiki, agar 10 foiz yuqori daromadga ega bo‘lganlar bilan 10 foiz past daromadga ega bo‘lganlarning daromadlari o‘rtasidagi farq 1:10 (birmuncha taraqqiy etgan Yevropa mamlakatlarida bu ko‘rsatkich 1:6-8 ni tashkil etadi)dan oshsa, u holda jamiyat ijtimoiy beqarorlik zonasiga kirib boradi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra mazkur nisbat O‘zbekistonda 1:8 ni, ayrim shaharlar va hududlar bo‘yicha esa bundan ham ko‘proqni tashkil etadi.

Mamlakatda istiqomat qiluvchi fuqarolarning turmush darajasi va sifatining pastligi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar jamiyatda ijtimoiy nizolar va zo‘riqishlarni keltirib chiqaradi. O‘zbekistonda bozor munosabatlari joriy etilishining dastlabki davrlarida aholi daromadlari o‘rtasida tabaqalanishning keskin kuchayishi asnosida jamiyatda ijtimoiy nizolar xavfining kelib chiqishi yanada kuchaydi.

Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga tashqi tahdidlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur‘atlarining jamiyat ehtiyojlari o‘sishiga nisbatan orqada qolishi, siklik o‘zgarishlar, bozor konyunkturasidagi tebranishlar, iqtisodiy inqirozlar, ishsizlik va inflatsiya darajasining boshqarib bo‘lmaydigan darajalarda o‘sishi, hududlar rivojlanishidagi nomutanosiblikning kuchayishi, tabiiy yoki inson, kapital resurslarining yetarli emasligi, ijtimoiy sohalar, shu jumladan, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalar rivojlanishining past darajadaligi, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yomonlashuvi, tabiiy muhitning yomonlashuvi, tabiiy ofatlar, favqulodda vaziyatlar hamda jahon iqtisodiyotidagi inqirozli vaziyatlar, mamlakat tashqi qarzining haddan tashqari o‘sib ketishi sababli ham vujudga kelishi mumkin.

Iqtisodiy sohada inson shaxsiga nisbatan tajovuz reketda, tovlamachilik va firibgarlikda o‘z ifodasini topadi. Shaxsning xavfsizligiga nisbatan jinoiy mazmunga ega tahdidlar mamlakatda kriminallashuv, uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaning kuchayishi orqali vujudga keladi.

Shaxsning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan tahdidlar ichki tahdidlar hisoblanadi. Bu turdagи tahidlarga shaxsning o‘z oldiga noto‘g‘ri maqsadlar qo‘yganligi; bilim va kasb-malaka darajasining pastligi yoki yo‘qligi; kam haq to‘lanadigan ishlarda ishlashi; raqobat kurashida sinishi, bozori kasod bo‘lishi; daromadi kam bo‘la turib bolalari ko‘p bo‘lishi; tug‘ma nogironlik; insonning jismoniy va aqliy imkoniyatlarining cheklanganligi; qariganligi va kasalliklari hamda travmalar sababli mehnat qobiliyatini vaqtinchalik va butunlay yo‘qotganligi; boquvchisidan ayrilib qolishi; insonning qat‘iyatsizlik, sabrsizlik, jizzakilik, shoshqaloqlik, chidamsizlik, dangosalik, passivlik va boshqa shu kabi shaxsiy xususiyatlari; insonning yomon xulq va odatlar (axloqsizlik, ichkilikbozlik, qimorbozlik va nosog‘lom hayot tarzi)ga moyillik; omadsizlik kiradi. Bugungi kunda mamlakatda 12-15 foiz aholi kambag‘al hisoblanadi, agar ma’lumotlarni yanada aniqroq hisob-kitob qilsak, bu ko‘rsatkich undan ham yuqori bo‘lishi mumkin.

## 6.1-jadval

### Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga ichki va tashqi tahdidlar<sup>1</sup>

Tashqi tahdidlar		Ichki tahdidlar
mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur‘atlarining jamiyat ehtiyojlari o‘sishiga nisbatan orqada qolishi		shaxsning o‘z oldiga noto‘g‘ri maqsadlarni qo‘yishi
bozor konyunkturasidagi tebranishlar,siklik o‘zgarishlar, iqtisodiy inqirozlar		bilim va kasb-malaka darajasining pastligi yoki yo‘qligi
Ahholining ish bilan bandlik darajasining pastligi, ishsizlik va inflatsiyaning boshqarib bo‘lmaydigan darajalarda o‘sishi		kam haq to‘lanadigan ishlarda ishlashi
		ishsiz bo‘lib qolishi
ijtimoiy sohalar, shu jumladan, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalar rivojlanishining past darajadaligi		Mehnat salohiyatining pastligi, ishchi kuchi raqobatbardoshligining pastligi yoki yo‘qligi,
		raqobat kurashida sinishi, bozori kasod bo‘lishi
mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yomonlashuvi		daromadi kam bo‘la turib bolalari va boqimandalarining ko‘p bo‘lishi
tabiiy muhitning yomonlashuvi, tabiiy ofatlar, favqulodda vaziyatlar		tug‘ma nogironlik, insonning jismoniy va aqliy imkoniyatlarining cheklanganligi
tabiiy yoki inson, kapital resurslarining yetarli emasligi		boquvchisidan ayrilib qolishi

<sup>1</sup> Abulqosimov M.H.tomonidan tuzilgan. Qarang: Abulqosimov M.H. Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar va ularning oldini olish yo‘llari. // Iqtisod va moliya. 2017. 12-son. 22-bet.

mamlakatda kriminallashuv, uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaning kuchayishi		qariganligi va kasalliklari hamda travmalar sababli mehnat qibiliyatini vaqtinchalik yoki butunlay yo‘qotganligi
mamlakat tashqi qarzlarining haddan tashqari ortib ketishi		insonning qat‘iyatsizlik, sabrsizlik, chidamsizlik, dangasalik, passivlik kabi salbiy shaxsiy xususiyatlari
jahon iqtisodiyotidagi inqirozli vaziyatlar		insonning yomon xulq va odatlar(axloqsizlik, ichkilikbozlik, qimorbozlik va nosog‘lom hayot tarzi)ga moyilligi
turli davlatlar o‘rtasida nizo, ziddiyat, qarama-qarshiliklarning kuchayishi		Omadsizlik

O‘rta sinfning ulushi bo‘yicha ham turlicha baholashlar mavjud. G‘arb mamlakatlarida o‘rta sinf vakillariga mansublikni baholashda shaxsning ma’lumoti, shug‘ullanadigan aqliy va jismoniy faoliyati, daromadi kabi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Mazkur yondashuvdan foydalansak, bugungi kunda katta yoshdag‘i mamlakat aholisining 40 foizini o‘rta sinfga mansub deb hisoblashimiz mumkin. Ammo mazkur yondashuv O‘zbekiston uchun unchalik ham qo‘l kelavermaydi. Xususan, bugungi kunda O‘zbekistonda oliy ma’lumotga ega va u yoki bu faoliyat bilan shug‘ullanayotgan shaxs o‘zini o‘rta sinfga mansub deb hisoblasada, uning daromadlari o‘ta past darajada. Shuni inobatga olgan holda, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarining 40-45 foizi o‘rta sinfga mansub bo‘lsa, 5 foiz aholini boylar qatlamiga qo‘shishimiz mumkin.

Jamiyat aholisining bunday ijtimoiy tarkibi, shu bilan bir qatorda, uy-joy bilan ta’milish, sifatli ta’lim, tibbiy va madaniy xizmatlardan foydalanish borasidagi keskin tafovutlar mamlakatda aholi o‘rtasida jiddiy noroziliklarni keltirib chiqaradi.

Mamlakatda qishloq feldsherlik punklarini tugatish va o‘quvchilar soni kam bo‘lgan maktablarni optimallashtirish asnosida ko‘plab aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi o‘rtasida norozilik kayfiyatining kuchayishiga olib keldi. Transport vositalari bilan ta’milish darajasining pastligi, mahalliy yo‘llar ahvolining yomonligi aholini tez va sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday muammolarning yanada kuchayishi ko‘pchilik holatlarda o‘z vaqtida tibbiy yordam ko‘rsatish imkoniyatining yo‘qligi bois fuqarolarning o‘limiga olib kelishi ko‘p kuzatilgan. Muammolarning bunday surunkali va jiddiy tus olishi

mazkur muammolarni hal etish borasida maqsadli davlat siyosatini amalga oshirishga va bugungi kunda mamlakatda yosh mutaxassislarning uzoq aholi yashash manzillarida ta’lim, sog‘liqni saqlash sohasida o‘z mehnat faoliyatlarini olib borishlarini rag‘batlantirish maqsadida turli dasturlar ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda. Lekin ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan mazkur muammolar hanuz o‘zining to‘liq yechimini topayotgani yo‘q.

Shaxs nuqtayi nazaridan maqbul iqtisodiy xavfsizlik darajasini ta’minlash borasidagi jiddiy muammolardan yana biri – bu aholini uy-joy bilan ta’minlash darajasining pastligi hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich uzoq yillar davomida asosiy e’tiborni uy-joy qurishga emas, balki ishlab chiqarishni rivojlantirishga katta e’tibor qaratgan. Ijtimoiy uy-joy olish uchun yillar davomida navbatda turganlar oilalar sonining ko‘pligi mamlakat uchun tahdid hisoblanadi. Keyingi yillar davomida uy-joy olish uchun navbatda turgan oilalarning soni kamaymagan va bunday oilalar umumiy oilalar sonining 5 foizini tashkil qiladi.

Bugungi kunda hukumat fuqarolar tomonidan o‘z va qarz mablag‘lari evaziga uy-joy sotib olishlarini rag‘batlantirish siyosatini amalga oshirilmoqda, bu uzoq muddatli masala sifatida o‘rinli bo‘lsa, lekin uy-joyga ehtiyojmandlarning aksariyat qismini kam ta’minlanganlar ekanligini inobatga olsak, masalani yechimini topish uchun boshqacha yo‘l tutish lozimligi ayon bo‘ladi. 2017-2018-yillarda mamlakat ipoteka bozorida kuchli siljish yuz berishi natijasida yangi uy-joylar qurilishi keskin o‘sdi. Biroq uy-joy fondining eskirganligi, ko‘pchilik turar joylar avariya holatida ekanligi bois, aholining uy-joy bilan ta’minlanishida aytarli o‘zgarish yuz bermadi. Ipoteka bozori imkoniyatlaridan aksariyat hollarda daromadi yetarli bo‘lgan fuqarolar foydalanganlarini kuzatish mumkin. 2018-yilda mamlakat hukumati tomonidan ipoteka bozoriga katta e’tibor qaratilishi mamlakat uy-joy qurilishini keskin oshirish imkonini beruvchi kuchli qurilish sanoati majmuiga egaligini ko‘rsatdi. Bu o‘rinda bitta muammo bor u ham bo‘lsa, aholi daromadlari darajasining pastligidir.

O‘zbekistonda davlatning milliy, iqtisodiy, axborot, harbiy xavfsizligini ta’minlash ustuvor vazifa etib belgilab kelingan, bu yo‘nalishda tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilgan. Ammo xalqning, alohida shaxsning xavfsizligini ta’minlash, davlat xavfsizligini ta’minlash tizimida e’tibordan chetda qolgan yoki unga bu tizimning bir kichik elementi sifatida jiddiy e’tibor qaratilmagan. Inson xavfsizligini ta’minlashning bugungi taraqqiyot mazmuniga mos yangi strategik Konsepsiyasini ishlab chiqish va hayotga joriy etish davr talabidir. Xususan, mamlakatimizdan norasmiy yo‘l bilan xorijga ketayotgan mehnat migrantlari – O‘zbekiston fuqarolarining taqdiri bilan uzoq yillar davomida hech kim, hech qanday idora, tashkilot amalda shug‘ullanmadidi. Oqibatda, xorijga ketgan hamyurtlarimizdan 20-30 foizining hayoti katta xavf-xatar ostida bo‘ldi, 3-5 foiz hamyurtlarimiz esa turli sabablar bilan, himoyasizligi oqibatida hayotdan ko‘z yumdi, —odam savdosining

qurboni bo‘ldi. Uzoq yillar davomida bunday holatga —panja ortidan|| qarab kelindi. Bu borada, o‘tgan 2017-

yilgacha tegishli choralar ko‘rilmadi, xorijdagi hamyurtlarimizning xavfsizligini ta’minlash choralari ishlab chiqilmadi.

Migrantlar masalasi hukumatning diqqat markazida bo‘lishi, bu borada tegishli tadqiqotlar o‘tkazilishi lozim. Xorijdagi O‘zbekiston fuqarosining yashash joyi, faoliyatining turi, oilaviy ahvoli, ijtimoiy himoyalanganlik darajasi, daromadlari xususidagi ma’lumotlar tegishli davlat idoralarida mavjud bo‘lishi kerak. Xorijdagi har bir fuqaromiz to‘g‘risida ma’lumotlar banki||ni yaratish va uning asosida odamlarimiz bilan doimiy aloqada bo‘lib turish kerak. Bu borada sharoit taqozo etsa, xalqaro normalar doirasida migrantlar ishi bo‘yicha ba’zi majburlov choralarini ham joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, inson xavfsizligini ta’minlash davlatning uzoq muddatga hamda yaqin keljakka belgilagan vazifalaridan, milliy hamda xalqaro xavfsizlikni ta’minlash borasidagi amaliy ishlaridan kelib chiqishi lozim. Inson xavfsizligini ta’minlash milliy xavfsizlikni ta’minlash darajasida, u bilan bir qatorda bo‘lishi zarur.

Uchinchidan, inson xavfsizligini ta’minlash masalasi inson huquqlari, demokratiya, taraqqiyot borasida amalga oshiriladigan tadbirlar bilan uzviy bog‘liq holda olib borilishi lozim.

To‘rtinchidan, inson xavfsizligiga bo‘layotgan tahdid, xavf, chaqiriqlar, bugungi kunda juda murakkab tus olganligini inobatga olish va har bir shaxs xavfsizligini ta’minlashda, bu ishda tashabbuskor bo‘lishda jamiyatdagi barcha kuchlar davlat boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari, xalqaro nufuzli tashkilotlar mas‘ul bo‘lishlari lozim. Sababi, inson xavfsizligiga bo‘layotgan tahidilar nafaqat milliy, balki xalqaro, global ahamiyatga ega va ularni bartaraf etish davlatlarning ko‘p tomonlama hamkorligini taqozo etadi. Bu hamkorlik natijasida esa samarali qarorlarni ishlab chiqish, qabul qilish, hayotga joriy etish imkonini tug‘iladi.

Beshinchidan, inson xavfsizligi Konsepsiyasini ishlab chiqishda bu ishga aloqador idoralarning tizimli hamkorligini ta’minlash maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, inson xavfsizligini ta’minlash va uni yangi bosqichga ko‘tarishda nodavlat-notijorat tashkilotlarining roli juda muhim. NNTlar inson xavfsizligini ta’minlashda davlatning yaqin hamkori bo‘lishi darkor.

Ijtimoiy sohada mamlakat xavfsizligiga tahdid soluvchi jiddiy muammolardan yana biri – bu ishsizlikdir. Ishsizlik mamlakat uchun nisbatan yangi fenomen hisoblansada, mamlakatning mehnat resurslari ortiqcha bo‘lgan hududlari va hududlar o‘rtasida mehnat kuchlarining taqsimlanishida nomutanosiblik mavjud.

O‘zbekistonda rasmiy ishsizlik darajasi uncha katta bo‘lmasa-da, 2018- yilda iqtisodiy faol aholining 9,7 foizini tashkil etgan, biroq uning amaldagi ko‘lami va

darajasi sezilarli darajada yuqoridir. O‘zbekistonda yashirin ishsizlik darajasining amaldagi ko‘rsatkichlari 20-23 foizni, mamlakatning ayrim hududlarida esa bundan ham yuqoriqni tashkil etadi. Ishsizlik darajasining o‘sishi kambag‘allik muammosini yanada chigallashtirgani va jamiyatdagi ijtimoiy beqarorlikni kuchaytirgani holda, shaxs va davlatning iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy xavf tug‘diradi.

### **6.3-§. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash yo‘llari**

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi – shaxsning ijtimoiy himoyalanganligi va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga, hayotiy manfaatlarining kafolatli himoyalanganlik holati sifatida tafsiflanadi. Har bir inson uchun shaxsiy iqtisodiy xavfsizlik muvaffaqiyatga erishishning hamda jamiyatdagi barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari mutanosibligiga rioya qilish;
- xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha shaxs, jamiyat va davlatning o‘zaro mas‘uliyatli bo‘lishi;
- xalqaro xavfsizlik tizimlari bilan integratsiyalashuv.

Shaxs iqtisodiy xavfsizligi obyektlari shaxsning o‘zi, uning iqtisodiy manfaatlari sohasidagi huquq va burchlari hisoblanadi. Shaxs iqtisodiy xavfsizligi subyektlarini shaxs, jamiyat va davlat tashkil etadi.

Shaxs iqtisodiy xavfsizligining ikki asosiy turi mavjud bo‘lib, ulardan birinchisi shaxsning faolligiga, uning o‘z bilimi, kasb, malakasini oshirib borishiga, kamolotga yetish uchun bo‘lgan intilishiga asoslanadi. Shaxs iqtisodiy xavfsizligining ikkinchi turi esa uning oilasi, jamiyat va davlat tomonidan qo‘llabquvvatlanishiga asoslanadi.

Inson xavfsizligiga tahdidlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur‘atlarining jamiyat ehtiyojlari o‘sishiga nisbatan orqada qolishi, siklik o‘zgarishlar, bozor konyunkturasidagi tebranishlar, iqtisodiy inqirozlar, hududlar rivojlanishidagi nomutanosiblikning kuchayishi, tabiiy yoki inson, kapital resurslarining yetarli emasligi, jamiyatda urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi,



tashqi tabiiy atrof-muhitning zararlanishi yoki yomonlashuvi hamda ma'lum ijtimoiy harakatlar tufayli vujudga keladi. Tahdidlar, shuningdek, turli davlatlar hamda ular bilan hamkorlik qiluvchi siyosiy va ijtimoiy hamkorlik kuchlari o'rtasidagi nizo, ziddiyat, qaramaqrashiliklarning kuchayishi sababli ham vujudga kelishi mumkin.

Tahdidlar tarkibida shaxsga tajovuz, zo'ravonlik alohida xususiyatga ega. Ijtimoiy jihatdan zo'ravonlik inson shaxsini kansitish, diskriminatsiya qilish, uning erkinligi va huquqlarini cheklash orqali shaxsning hayoti va iqtisodiy faoliyatiga tahdid solishda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy sohada inson shaxsiga nisbatan tajovuz reketda, tovlamachilik va firibgarlikda o'z ifodasini topadi.

Shaxs va oila iqtisodiy ahvolining yomonlashuvi uning o'z oldiga noto'g'ri maqsadlar qo'yanligi, bilim, kasb-malaka darajasining pastligi tufayli kam haq to'lanadigan ishlarda ishlaganligi sababli, raqobat kurashida sinishi, bozori kasod bo'lishi, ishsiz bo'lib qolganligi, uzoq vaqt ish topa olmasligi yoki daromadi kam bo'la turib bolalari ko'p bo'lishi, qariganligi va turli kasalliklar hamda shikast olganligi sababli mehnat qobiliyatini vaqtinchalik va butunlay yo'qotganligi, **boquvchisidan** ayrilib qolishi yoki omadsizlik tufayli sodir bo'ladi. Shaxsnинг xavfsizligini ta'minlashda davlatning ijtimoiy siyosati muhim rol o'ynaydi. Davlatning ijtimoiy siyosati, uni amalga oshirish mexanizmlari odamlarning mehnatdagi faolligini va tadbirkorligini o'stirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilishi lozim. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekistonda davlatning ijtimoiy siyosati quyidagilarga qaratilgan:

- fuqarolarning erkin iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat, kasb-korlik turlarini hamda sohalarini erkin tanlash kabi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga;
- mehnat motivatsiyasining kuchli mexanizmini kiritish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish uchun sharoitlar yaratishga;
- aholini maqsadli va manzilli ijtimoiy himoya qilish hamda kam ta'minlangan guruhlarni davlat tomonidan qo'llabquvvatlashga;
- ta'lim, ijtimoiy sug'urta, sog'liqni saqlash tizimlarini isloh qilish yo'li bilan aholining ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan zarur kafolatni ta'minlashga.

Shuningdek, davlat ijtimoiy siyosati aholining daromad va mulkka egalik darjasini bo'yicha keskin tabaqlashuvining oldini olish hamda aholining to'lov



talablarini keng miqdorda qondirish va uning o'sishini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

Shaxsning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan xavfsizligini ta'minlash ko'plab omillarga bog'liq bo'lgani holda, ularni shaxsning turli tahdid va xavf-xatarlarning shakllanishiga ta'siri nuqtayi nazaridan ham tasniflashimiz mumkin. Umumiqtisodiy jarayonlarning yuz berishi bilan bog'liq holda vujudga keluvchi omillar, shu bilan bir qatorda, shaxsning bevosita xatti-harakatlari natijasida paydo bo'luvchi xavf-xatarlar darajasini pasaytirish insonlarning bevosita xatti-harakatlariga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Shaxsning moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligi borasidagi tahdidlarning birinchi guruhiga quyidagilar mansub:

- inflatsiya;
- pensiya ta'minoti muammolar;
- iqtisodiyotning dollarlashuvi;
- bank tizimida beqarorliklarning vujudga kelish xavfi;
- aholining haddan tashqari ko'p kreditlanishi va boshqalar.

Inflatsiya moddiy ishlab chiqarish sohasiga katta zarar keltirgani holda, jiddiy ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Pensiya ta'minotidagi muammolar aholining yetarlicha moliyaviy ta'minlanmasligiga va ularning kundalik ehtiyojlarini talab darajasida qondira olmasliklariga olib keladi. Iqtisodiyotning dollarlashuvi, valyuta va fond bozorining yuqori darajadagi, aholi jamg'armalari qadrsizlanishi xavfini kuchaytiradi. Bank tizimida kuzatilayotgan beqarorlashtiruvchi omillar ham omonatchilar tomonidan banklarga qo'yilgan omonatlarning yo'qotilish xavfini vujudga keltiradi. Aholining haddan ziyod kreditlanishi ham, istiqbolda qarzdorlarning o'z qarz majburiyatlarini bajara olmaslik xavfini paydo qiladi. Bugungi kunda O'zbekiston fuqarolarining bank kreditlari bo'yicha qarzdorligi o'sib bormoqda. Olinayotgan har to'rtta qarzdan biri avvalgi olingan qarzni yopishga sarflanayotganligi aniqlangan. Bugungi kunda kambag'al oilalar o'z mehnatlari orqali ishlab topgan daromadlarining katta qismini bank kreditlarini to'lashga sarflamoqdalar.

Tahdidlarning ikkinchi guruhiga insonning bevosita o'zi ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar kiritilgan:

- moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi va shaxsiy jamg'armalarni himoya qilish borasida yetarlicha malaka va tajribaning yo'qligi;
- qarz olishda o'ylab ish tutmaslik;
- samarasiz investitsiyalar;
- moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda shoshma-shosharlik qilish;
- qonunlarni bilmaslik va hokazolar.

Moliyaviy savodxonlik va shaxsning investitsiyaviy siyosati shaxs hayotining moliyaviy-iqtisodiy asosini tashkil etadi. Moliyaviy-iqtisodiy asoslar qanchalik mustahkam bo'lsa, shaxs shuncha o'z ehtiyojlarini yuqori darajada qondira olish va o'zining farovon kelajagini ta'min eta olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bugungi kunda moliyaviy mustaqillik muhim o'rin tutishini inobatga olsak, fuqarolarning moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish qanchalik muhim ekanligini ilg'ash qiyin emas. Buning uchun shaxsiy moliyaviy xarajatlarni rejalashtirish, ularning doimiy hisobini yuritib borish, bank va boshqa moliyaviy institatlarning xizmatlarini o'rganish, investitsiyalarni diversifikatsiyalash tamoyilidan amaliyotda foydalanish, iqtisodiy axborotlar, tahliliy maqolalar va sharhlar bilan tanishib borish talab etiladi.

Shaxsning temir yo'llardagi xavfsizligi o'z ichiga ko'plab jihatlarni qamrab oluvchi, shubhasiz keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Mazkur holatni sinchkovlik bilan o'rganish uchun, eng avvalo, shaxs o'z hayotining u yoki bu davrida huquqiy nuqtayi nazardan kim va qanday maqomda ishtirok etishiga oydinlik kiritib olishimiz lozim. Bunga bog'liq holda temir yo'llarda shaxsning xavfsizligi yoki uning turli xavf-xatarlardan himoyalanganligini ta'minlashga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, shaxs temir yo'l transporti obyektlarida bo'lgani va uning xizmatlaridan foydalangani holda, u:

- temir yo'l transporti xodimi;
- yuk qabul qiluvchi;
- yo'lovchi va yoki boshqalar sifatida ishtirok etishi mumkin.

Temir yo'l transporti xodimi sifatida shaxs uchun birinchi navbatda uning xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazardan shaxsning mehnat huquqlarining himoyalanganligi muhim o'rinn tutadi. Yuk qabul qiluvchi uchun esa jismoniy shaxs hamda yuridik shaxsning vakili sifatida u bilan transport kompaniyasi o'rtasida yuk tashish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomalarning o'z vaqtida to'la-to'kis bajarilishini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Oddiy yo'lovchi yoki tasodifan temir yo'l transporti obyektlarida bo'lib qolgan shaxs uchun birinchi navbatda uning hayot xavfsizligi va turli jinoiy unsurlarning qurbaniga aylanib qolmasligini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Fuqarolik qonun hujjatlari ular tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining tengligini e'tirof etishga, mulkning daxsizligiga, shartnomaning erkinligiga, xususiy ishlarga biror-bir kishining



o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligiga, fuqarolik huquqlari to‘sinqiniksiz amalga oshirilishini, buzilgan huquqlar tiklanishini, ularning sud orqali himoya qilinishini ta‘minlash zarurligiga asoslanadi. Fuqarolar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar o‘z fuqarolik huquqlariga o‘z erkclariga muvofiq ega bo‘ladilar va bu huquqlarini o‘z manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiradilar. Ular shartnoma asosida o‘z huquq va burchlarini belgilashda va qonun hujjatlariga zid bo‘lмаган har qanday

shartnoma shartlarini aniqlashda erkindirlar. Tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasining butun hududida erkin harakatda bo‘ladi. Xavfsizlikni ta‘minlash, insonlarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, tabiatni hamda madaniy boyliklarni muhofaza qilish uchun zarur bo‘lsa, tovarlar va xizmatlar harakatda bo‘lishini cheklash qonun hujjatlariga muvofiq joriy etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, mansabdor shaxslarning, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21oktabrdagi —Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-4850-son<sup>1</sup>, 2017yil 7-fevraldaggi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidalgi PF-4947-sonli Farmonlarining qabul qilinishi<sup>2</sup> mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirishda, fuqarolarning odil sudlovga to‘sinqiniksiz erishishini ta‘minlashni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tardi. Mazkur farmonlarda belgilangan chora-tadbirlar o‘z navbatida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi hamda —Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili Davlat dasturida o‘z aksini topdi.

Fuqarolik qonun hujjatlari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini hamda u bilan bog‘liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchilari bo‘ladilar. Shaxsiy nomulkiy munosabatlar va mulkiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lмаган shaxsiy munosabatlar,

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi —Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidalgi PF-4850-son Farmoni.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi —O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risidalgi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

agar qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa yoki bu munosabatlarning mohiyatidan o‘zgacha hol anglashilmasa, fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Taraqqiyot strategiyasiningadolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalishida 53-maqсад Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minalash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish. Aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta’minalash darajasini 60 foizga yetkazishdan iborat etib belgilangan. Shuningdek, unda majburiy ijtimoiy kafolatlar bo‘yicha qonunchilikni tizimlashtirish va takomillashtirish, belgilangan ijtimoiy himoyaning qat’iy ta’milanishini nazorat qilish, majburiy ijtimoiy kafolatlardan, shu jumladan, ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish, ushbu jarayoniga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish vazifalari belgilangan.

Fuqarolik qonun hujjatlari Fuqarolik kodeksi, fuqarolik munosabatlarini tartibga soluvchi boshqa qonunlar hamda qonun osti hujjatlaridan iborat. Vazirliklar, idoralar va boshqa davlat organlari ushbu Kodeksda, boshqa qonunlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va doirada fuqarolik munosabatlarini tartibga soluvchi hujjatlar chiqarishlari mumkin.

Fuqarolik qonun hujjati amalga kiritilgunga qadar vujudga kelgan munosabatlar bo‘yicha bu qonun hujjati u amalga kiritilganidan keyin vujudga kelgan huquq va burchlarga nisbatan qo‘llaniladi. Fuqarolarning mamlakat fuqarolik qonunchiligiga bo‘ysunmasligi shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash borasida jiddiy xavf-xatarlarni vujudga keltiradi.

O‘zbekiston fuqarosi xoh havo, xoh temir yo‘l transporti yo‘lovchisi bo‘lmasin, uning xavfsizligini ta’minalashda kriminalogik, jinoyat qurbanini bo‘lib qolmasligini ifoda etuvchi viktimologik jihatlarga birinchi navbatda e’tibor qaratish talab etiladi.

Viktimologiya kriminalogiyaning jinoyat qurbanining xususiyatlari va xulq-atvorini, uning jinoyat sodir etilgan vaqtida va u sodir qilingandan keyin jinoyatchi bilan bo‘lgan munosabatlari, o‘zaro aloqalarini o‘rganadigan mustaqil yo‘nalishi hisoblanadi. Shu sababdan ham, jinoiy xulqning sabablari o‘rganilayotganida uning viktimologik jihatlariga e’tibor berish kerak. Viktimologiya jinoiy xulqni jabrlanuvchining jinoyat qurbaniga aylanishi uchun shart-sharoit yaratgan xususiyatlarini o‘rganish asosida tadqiq etadi. Viktim xulq ehtiyojsizlik, tavakkalchilikning natijasi bo‘lib, jabrlanuvchining o‘ziga xavf tug‘diradi va kriminogen vaziyatni vujudga keltirishi mumkin, ayrim hollarda esa jinoyatning sodir etilishiga imkon yaratadi. Olib borilayotgan tadqiqotlarning natijalari va jinoyatlar statistikasi huquqqa xilof qilmishlarning jinoyat qurbanining xulqatvori bilan bevosita aloqadorlikda, xususan, ular jabrlanuvchilar ahvolininig xususiyatlari (mast holdaligi),

sog‘lig‘i darjasini (eshitish, ko‘rish qobiliyatining pastligi), ruhiy holati, o‘zining shaxsi, sha’ni, qadr-qimmatining xavfsizligi va mulkining saqlanishiga beparvolarcha munosabatda bo‘lish; o‘ziga nisbatan sodir etilgan jinoyat haqida huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor etishni istamasligi; qonunga xilof bo‘lgan bitimlar tuzish va h.k. bilan bog‘liqlikda sodir etilishini ko‘rsatadi. Viktimologik tadqiqot ikkita asosiy: jinoyat (maxsus) va jinoyatchilik (umumiy)ning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish darajasida olib boriladi.

Davlat shaxs xavfsizligini ta’minlash va baholash uchun jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni vujudga keltirishi mumkin bo‘lgan tahdidlarning oldini olish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirish, iqtisodiy faoliyat va tanlash erkinliklarini vujudga keltirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda iste’molchilar manfaatlari va huquqlarini himoya qilish;



- fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy erkinliklari va huquqlarini ta’minlashning samarali mexanizmlarini vujudga keltirish;
- jamiyatda aholining tor doirada nihoyatda boy-badavlat va kelajagiga ishonchini yo‘qotgan nihoyatda kambag‘al kishilarga ajralishi, ularning daromadlari o‘rtasida farqning kattalashib borishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan darajada ishsizlik o‘sishining oldini olish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini o‘stirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- kambag‘allik va qashshoqlik muammosini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan darajada aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, kam ta’minlangan aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish mexanizmini vujudga keltirish;
- tashkiliy jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish, narkomaniya va boshqa ijtimoiy illatlarning o‘sishi uchun sharoit vujudga kelishining oldini olish.

O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishi kambag‘allikka qarshi kurash hisoblanadi. Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz sharoitida, 2020-yilning yanvariyun oylarida 2020-yilning yanvar iyun oylarida, ayniqsa,

COVID-19 pandemiyasining mehnat bozoriga salbiy ta’sirini yumashatish maqsadida mehnat organlari tomonidan 588,2 ming (30 yoshgacha bo‘lganlar 159,9 ming va

ayollar 229,4 ming) ishsiz va band bo‘lmaidan aholiga xizmatlar ko‘rsatildi. Xususan, 501,1 ming nafari doimiy ish o‘rinlariga ishga joylaytirish va jamoat ishlariga jalg qilish orqali bandligi ta’minlandi, 15 ming nafar ishsizlar kasb-hunarga o‘qitildi, 27,0 ming nafar ishsiz shaxslarga Bandlikka ko‘maklashish jamg‘ armasidan 10,1 milliard so‘m ishsizlik nafaqasi to‘lab berildi. Shuningdek, Bandlikka ko‘maklashish jamg‘ armasidan ajratiladigan subsidiyalar hisobiga 24,8 ming nafar fuqaro shaxsiy tomorqalarida, 15 ming nafar fuqaro qishloq xo‘jaligi, tikuvchilik va hunarmandchilik kooperativlarida a’zo sifatida biriktirilib, band qilingan, 3 ming nafar fuqaro tadbirkorlikka jalg etilgan, 256 ta ish beruvchiga mehnat organlari yo‘llanmasi bilan ishga olingan 2,3 ming nafar ishsizlarning kasbiy malakasini oshirganligi va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini ishga olganligi uchun moddiy ko‘mak ajratilgan<sup>1</sup>.

O‘zbekistonda inqiroz davrida yordamga muhtoj aholi qatlamiga (koronavirus pandemiyasi tufayli ishlay olmayotgan oilalar, chet eldan qaytgan va xorijga ishlashga qaytib keta olmagan migrant ishchilar, yolg‘iz yashovchi qariyalar) e’tibor qaratish orqali ularni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy nafaqa va moddiy yordamlar ajratilishi oshirishga qaratilgan choralar ko‘rildi. Jumladan, oilalarning ijtimoiy nafaqa olishga muhtojligini baholash tartib-taomillari soddalashtirildi. 2020yilning mart oyida nafaqa va moddiy yordam oluvchilar soni 10 foizga oshirilishi sababli ularning soni 596 mingtadan 655 mingtaga oshdi. Keyinchalik, nafaqalar va moddiy yordam tayinlanishi avtomatik tarzda uzaytirilishi, adresatlardan tegishli arizalar yangidan berilishi talab etilmasligi belgilanganligi natijasida, nafaqa oluvchilar soni 719 mingtagacha oshirildi; 2020-yilning may oyida e’lon qilingan aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha navbatdagi choralarga ko‘ra, qo‘srimcha 220 mlrd.so‘m miqdoridagi mablag‘lar ajratilishi hisobiga nafaqa va moddiy yordam oluvchilar soni qo‘srimcha yana 10 foizga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida ta’kidlaganlaridek, qisqa muddatda Toshkent shahri va hududlarda barcha sharoitlarga ega bo‘lgan qariyb 30 ming o‘rinli davolash maskanlari tashkil etildi. Ular zarur dori-darmon, himoya va eng zamonaviy



diagnostika vositalari bilan ta’minlandi. Pandemiyaga qarshi kurashish uchun 200 mingdan ziyod tibbiyot

<sup>1</sup> O‘zbekistonda yanvar-iyun oylarida ishsizlik darajasi 13,2 foizni tashkil etdi//<https://daryo.uz/>.

xodimi, jumladan, chet ellik 150 nafar yuqori malakali shifokor va mutaxassislar jalg' etildi. Xorijdan 600 mingdan ortiq vatandoshlarimiz yurtimizga olib kelindi. Chet elda qiyin ahvolga tushib qolgan 100 mingga yaqin fuqarolarimizga zarur yordamlar ko'rsatildi. Pandemiya oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish uchun davlat tomonidan jami 82 trillion so'mlik kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Inqirozga qarshi jamg'arma tashkil etilib, koronavirusga qarshi kurashish, aholi va korxonalarini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq tadbirlarga byudjetdan 16 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. Shuningdek, davlat korxonalariga va 500 mingdan ziyod tadbirkorlik subyekti hamda qariyb 8 million fuqaroga jami 66 trillion so'mlik soliq imtiyozlari, kredit muddatlarini uzaytirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy yordamlar berildi. Saxovat va ko'mak umumxalq harakati doirasida fidoyi va oljanob vatandoshlarimizning faol ishtirokida 800 mingdan ziyod ehtiyojmand oilalarga 1 trillion so'mdan ortiq moddiy yordam ko'rsatildi<sup>1</sup>.

Endilikda, shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash nafaqat davlat boshqaruvi organlari, hukumat, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat va nodavlat-notijorat tashkilotlarining birgalikdagi sa'y-harakatlarigagina, balki har bir fuqaroning o'ziga ham bog'liqdir. Shaxs manfaatlari va xavfsizligiga tahdidlarga munosabatda insonning ruhiy holatini faollik, bag'rikenglik (tolerantlik), chidamlilik kabi qobiliyat va sifatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida qayd etilgan inson hayotini yaxshilashga, uning turmush tarzini yuqori bosqichga ko'tarishga qaratilgan, xususan, ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdorini bosqichma-bosqich oshirish, aholi bandligini ta'minlash masalasini samarali hal etish, fuqarolarni zamonaviy va arzon uyjoylar bilan ta'minlash, uy-joy va kommunal xo'jaligini, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish, aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish tadbirlari ham inson xavfsizligini ta'minlash Konsepsiyasida o'z ifodasini topishi lozim.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Hozirgi zamon sharoitida shaxsning qanday salohiyati va imkoniyatlari mavjud?
2. Shaxsning iqtisodiy erkinliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Shaxs bilan davlat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va aloqadorlik nimalarda namoyon bo'ladi? Bu bog'liqlikning qanday chegaralari bor?
4. Shaxsning hayotiy manfaatlari qanday iqtisodiy tahdidlar xavf soladi?
5. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
6. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini qanday ta'minlash

mumkin?

7. Shaxsning iqtisodiy jihatdan himoyalanishini davlat qanday ta'minlaydi?
8. Shaxsga nisbatan iqtisodiy shantaj va terrorizmga qarshi qanday choralar ko'resh mumkin?
9. Iqtisodiyotni dollarlashuvi shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga qanday tahdid soladi?
10. Ishsizlik darajasining o'sishi jamiyatdagi ijtimoiy beqarorlikni kuchaytirgani holda, shaxs va davlatning iqtisodiy xavfsizligiga qanday xavf tug'diradi.
11. Kambag'allik muammosi shaxs va davlatning iqtisodiy xavfsizligiga qanday xavf tug'diradi.
12. Viktimologiya qanday o'zaro aloqalarini o'rganadigan mustaqil yo'nalishi hisoblanadi.

## **7-mavzu KORXONA (FIRMA)NING VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH**

### **Reja**

**7.1-§. Korxonaning iqtisodiy manfaatlari va uning iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi**

**7.2-§. Korxona iqtisodiy xavfsizligiga tashqi va ichki tahdidlar**

**7.3-§. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tamoyillari**

### **7.1-§. Korxonaning iqtisodiy manfaatlari va uning iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi**

Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash ishlab chiqarishni tashkil etishning butunlay yangi tizimi hisoblanadi. Iqtisodiyot subyektlari orasida milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim dastagi bo'lган korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash alohida ahamiyatga ega.

 Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi deganda, uning ilmiytexnikaviy, ishlab chiqarish salohiyatini hamda kadrlarni faol va nofaol iqtisodiy tahidlardan, masalan, davlatning samarasiz ilmiysanoat siyosatidan yoki tashqi muhitda yuzaga kelgan tahidlardan himoyalanganligi tushuniladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlik buzilganda, ayniqsa, dolzarb bo'ladi. Ishlab chiqarish xo'jaligi faoliyatini deganda, korxonaning bo'linmalari va ishlovchilarining tashqi muhit, o'zaro bir-biri bilan munosabatlarida korxona aktivlari va passivlarining o'zgarishiga olib keladigan yoki salohiyatli holda olib kelishga qodir bo'lган barcha xatti-harakatlarni tushunishi

lozim. Bunda korxonalar davlat organlari, boshqa korxonalar va jismoniy shaxslar bilan bo‘ladigan turli munosabatlarga kirishadilar, tovar - moddiy boyliklardan foydalangan holda doimiy ravishda o‘zgarib turadigan bozor sharoitida va raqobat muhitida ishlaydilar. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha masalalarni hal etishda sanab o‘tilgan barcha omillarni inobatga olish zarur.

Eng umumiy holda iqtisodiy xavfsizlik deganda korxonaning mavjud tashqi sharoitlarda va ularning ma’lum bir chegaralarda o‘zgarishlarida o‘z maqsadlariga erishish uchun normal holda faoliyat ko‘rsatishga qodir bo‘lishi bilan tavsivflanadigan holati tushuniladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta’rif berilganda ko‘p hollarda —tahdidl atamasidan foydalilaniladi, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi deganda esa uning ilmiy-texnikaviy, texnologik, ishlab chiqarish va kadrlar salohiyatini aktiv yoki passiv tahdidlardan himoya qilinganligini tushunish tavsiya etiladi.

—Tahdidl atamasini ham har xil talqin qilish mumkin. Tahdid – bu voqealarning shunday rivoji, harakat (harakatsizliklar) bo‘lib, uning natijasida korxonaning normal faoliyat ko‘rsatishining buzilishi va o‘z maqsadlariga erisha olmasligi, jumladan, istalgan turdagiz zararning keltirilishi ehtimoli oshadi yoki buning uchun sharoit yaratiladi.

### **7.1 - jadval Tahdidlarni tasniflanishi**

Nº	Tasniflash belgilari	Tahdidning nomi
1	Vujudga manbalari kelish	Ichki va tashqi
2	Amalga ehtimoli oshirish	Real va potensial (salohiyatli)
3	Hujum qilish obyekti	Axborot, xodimlar, moliya, tovar-moddiy boyliklar, ishchanlik borasidagi obro‘ - e’tibor va boshqlar
4	Bashorat qilish imkonining mavjudligi	Bashorat qilinadigan, bashorat qilib bo‘lmaydigan
5	Ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararning miqdori	Halokatli, ahamiyatli darajada, qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan

Tahdidning turlari g‘oyatda kengdir. Ular turlicha kelib chiqishga va yo‘nalishiga ega bo‘ladi. Bu borada ularni turli xil tasniflash belgilariidan foydalangan holda turkumlash qabul qilingan. Eng keng tarqalgani tahdidlarning 7.1 - jadvalda keltirilgan tasniflanishi hisoblanadi.

Biror-bir universal metod yoki usullardan foydalangan holda turli-tuman tahdidlarga mavaffaqiyatli qarshi turish mumkin emas. Faqat turli xil metodlarni

oqilona uyg‘unlashtirgan va ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalangan holda korxona iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashi mumkin.

Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uzluksiz jarayon bo‘lib, unda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni oldini olish vazifasi qo‘yiladi. Buni amalga oshirish uchun korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash strategiyasi bo‘lishi talab etiladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash strategiyasi deganda, korxona ish faoliyatini amalga oshirishda uning xavfsizligini yetarli darajada ta’minlashga qaratilgan eng muhim qaror va chora-tadbirlar yig‘indisi tushuniladi. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash strategiyasining uchta asosiy turi ajratib ko‘rsatiladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizlik borasidagi strategiyasini puxta ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish milliy iqtisodiyotning eng muhim dastagi bo‘lgan korxonalarining barqaror o‘sishi va rivojlanishi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Korxona (firma) faoliyatining asosiy maqsadi foyda (daromad) olish hisoblanadi. Shuningdek, korxona o‘z oldiga ishlab chiqarishni kengaytirish, personalning kasbiy mahoratini oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida mehnatni tashkil etishni takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan va taklif etilayotgan mahsulotning iste’molchilarini, mijozlarini va insofli sherik, hamkorlarning sonini ko‘paytirishni ham maqsad qilib oladi.

Korxonaning iqtisodiy manfaatlari, turli ehtiyojlar mavjud sharoitda talabni qondirish, yashash va rivojlanish uchun raqobat kurashi kuchaygan sharoitda himoya qilinadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda — xo‘jalik subyektining moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniлади:



**7.1-rasm. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash strategiyasi turlari.**

- korxonaning o‘z mablag‘lari bilan ta’minlanish koeffitsiyenti, korxona aylanma aktivlarining umumiyligi aktivlar summasiga nisbati;
- joriy likvidlik ko‘rsatkichi;
- o‘z kapitalining rentabelligi;
- umumiyligi to‘lovga qodirlik ko‘rsatkichi, aktivlar bozor qiymatining xo‘jalik subyektining barcha majburiyatlariga nisbati; kapitallashtirish koeffitsiyenti, bozor qiymatidagi o‘z kapitalining qarz mablag‘larining balans qiymatiga nisbati;
- menejment koeffitsiyenti, sotishdan olingan pul tushumining joriy majburiyatlar miqdoriga nisbati.

Xavfsizlik tizimi o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- korxona obyektlarini, boshqaruvchi rahbarlarning shaxsiy daxlsizligini hamda pul mablag‘larini saqlash uchun qo‘riqchi-qorovullik xizmatini tashkil etish;
- korxonaning informatsion jihatdan himoyalanishini ta’minlaydigan analistik xizmatni tashkil etish. Uning vazifalari ichida razvedka va kontrrazvedka bilan shug‘ullanishni tashkil etish uchun strategik muhim subyektlar bilan ishlash.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun uning xavfsizligiga tahdid soladigan xavf-xatarlarni bilish kerak bo‘ladi. Buning uchun korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ifodalaydigan parametrlarni o‘rganish va ularni tahlil qilish kerak bo‘ladi.



Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash beshta elementni o‘z ichiga oladi:

- birinchi – iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning tarkibi va xarakterini hamda ularning ta’sir yo‘nalishini aniqlash;
- ikkinchi – iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning ta’siri natijasida yuzaga keladigan zararlarni baholash;
  - uchinchi – iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatadigan tahdidlarni muhimligi va vujudga kelish vaqtini bo‘yicha guruhlarga ajratish;
- to‘rtinchi – u yoki bu tahdidlarga nisbatan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash strategiya variantini shakllantirish va tanlash;

- beshinchi – iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha aniq belgilangan chora - tadbirlarni aniqlash va amalga oshirish.

Korxonada iqtisodiy xavfsizlikni keskinlashuviga olib keladigan omillarga quyidagilar kiradi:

- korxonaning raqobatbardoshlik ko'rsatkichining pastligi;
- korxona uchun investitsiya muhitining yaxshi emasligi;
- korxonaning moliyaviy faoliyatini barqaror emasligi;
- davlatning o'z ehtiyojlari uchun kerak bo'ladigan mahsulotlarning haqini to'lash borasida qobiliyatsizligi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini miqdor va sifat jihatdan tavsiflaydigan indikatorlarga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish dinamikasi;
- ishlab chiqarish korxonasining tarmoq va mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmidagi ulushi;
- ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushurishning amaldagi darajasi;
- ishlab chiqarish jarayonining barqarorligi;
- ishlab chiqarishning rentabellik darajasi;
- aylanma mablag'larni moliyalashtirish uchun o'z manbalari bilan ta'minlanganlik;
- muddati o'tgan qarzdorlik (debitorlik, kreditorlik);
- ishlab chiqarishning fond (kapital) qaytimi;
- asosiy ishlab chiqarish fondlarining yangilanish sur'atlari; innovatsion faollikning darajasi.

## **7.2-§. Korxona iqtisodiy xavfsizligiga tashqi va ichki tahdidlar**

Korxona iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkillashtirishda ichki va tashqi tahdidlardan tarkib topishini ko'zda tutish lozim. Ichki tahdidlarga korxonaning ichki tarkibiy tuzilishini va korxonadagi o'zaro munosabatlarni hamda o'zining iqtisodiy xavfsizligini eng yuqori darajada tashkillashtira olish qobiliyati tushuniladi.

 Tashqi tahdidlarga korxonaning tashqi muhit bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarini iqtisodiy xavfsizlikni eng yuqori darajada ta'minlay olish

qobiliyati tushuniladi. Bunday bo‘linish yetarlicha shartlidir, chunki ikkala tarkibiy qism bir-biri bilan bog‘liq.

Shunga qaramasdan ichki tarkibiy qism birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi ko‘pchilik tomonidan tan olingan bo‘lib, u korxonaning tashkil topishi bosqichida shakllanadi. Korxonani tashkil etishning har bir bosqichida turli tarkibiy birliklarning va ularning rahbarlarining huquqlari va majburiyatlari hamda ularning o‘zaro ta’sirlashuvi belgilab qo‘yiladiki, mazkur bosqichga tegishli bo‘lgan tahdidlar va ziddiyatlarning vujudga kelishi tayin. Bunda bosqichlarning har biri o‘zidan keyingi bosqichni belgilab beradi.

Korxonani tashkil etishda olti bosqich ajratib ko‘rsatiladi va ularga mos holda korxona iqtisodiy xavfsizlikning olti darajasini shakllantiradi:

**1.** Yuridik shaxsni ta’sis etish, ya’ni rasmiylashtirish va ro‘yxatdan o‘tkazish bosqichida korxona iqtisodiy xavfsizlikning mulkiy (aksonerlik) darajasi shakllantiriladi. Bu qoida bo‘yicha korxonalarni tashkil etishda qatnashadigan bir necha ishtirokchilardan biri ko‘p hollarda davlat bo‘lishi mumkinligi bilan bog‘liq.

**2.** Korxonada ishlovchilarga rahbarlik qiluvchi tarkibini shakllantirishda hokimiyat borasida turli xil vakolatlarga ega bo‘lgan shaxslar o‘rtasida obyektiv ziddiyatlar mavjud bo‘lishi tufayli korxona iqtisodiy xavfsizlikning oliy rahbariyat darajasi yuzaga keladi.

**3.** Korxonaning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv tizimining darjasini ularni tashkil etishda, xodimlarni ishga olishda hamda ularni motivatsiyalash uslublarini aniqlashda shakllanadi.

**4.** Biznes – jarayonlarni shakllantirish darajasi korxona faoliyatining sxemasini yaratishda, ya’ni biznes rejalarini, texnologik harakatlarni ishlab chiqarishda, hujjat aylanishini tashkil etishda, barcha turdagи hisoblar (buxgalteriya, soliq, boshqaruv hisobi)ni yuritishda shakllanadi.

**5.** Joriy ishlab chiqarish – xo‘jalik faoliyati (IXF) darajasi undan oldingi daraja bilan aniqlanadi va shu jarayonda uzlusiz shakllanib boradi.

**6.** Ishlab chiqarish, xo‘jalik faoliyati natijalarining hisobini yuritish, nazorat va tahlil qilish darajasi korxonaning hisobotlarini tuzishda va boshqaruv qarorlarni qabul qilishda shakllanadi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini yaratish bosqichida asos qilib olingan va yuqorida keltirilgan darajalar faoliyat ko‘rsatayotgan har bir korxona uchun xosdir. Bunda yuqoriroq turadigan darajalar ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu shuni anglatadiki, yuqoriroq darajadagi xavfsizlik ta’minlanmasa, pastroq darajadagi korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha barcha tadbirlarning samarasi pasayib ketadi.

Korxonaning ishlab chiqarish – xo‘jalik faoliyatida uning uchta asosiy bosqichlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- muayyan davrdagi faoliyatini rejalashtirish;
- shu davrdagi ishlab chiqarish;
- xo‘jalik faoliyatining yakunlari va natijalarini tahlil qilish.

Ishlab chiqarish – xo‘jalik faoliyatining yuqorida keltirilgan natijalari uzlusiz takrorlanib turadi. Shuni ta’kidlash joizki, korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash nuqtayi nazaridan qaralganda eng muhimi rejalashtirish (siklning birinchi fazasi) va natijalarini tahlil qilish (siklning uchinchi fazasi) hisoblanadi, chunki eng samaralisi tahdidlar bilan kurashish emas, balki ularning oldini olishdir. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatadigan ichki tahdidlar asosan ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladi:

- asosiy kapitalni eskirgan elementlarining ommaviy tarzda ishdan chiqishi, ular o‘rnining to‘ldirilmamasligi va buning natijasida ishlab chiqarish salohiyatini yo‘qotilishi;

□ texnik va texnologik jihatdan qurollanishning orqada qolishi;

□ ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi;

- korxonada tashmachilik, o‘g‘irlik va boshqa hodisalarining noxush mavjud bo‘lishi;
- korxona personalining xatolari (inson omili);

□ raqobatchilarining axborot olish uchun personalidan korxona foydalanishi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatadigan tashqi tahidlarga quyidagilar kiradi:

- tovarlar bozorida o‘z o‘rnini yo‘qotish, ya’ni o‘z tovarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minalaydigan foyda bilan sotish imkoniyatining yo‘qligi;
- mamlakatda molivaviy holatning salbiy tomonga o‘zgarishi;



- fond bozorida korxona aksiyalari narxlarining pasayib ketishi, ya’ni korxonaning kapitallashuv darajasining pasayishi;
- xaridorlar va buyurtmachilar tomonidan to‘lov intizomiga rioya qilinmasligi;
- nohalol raqobatchilar va kontragentlar;
- kriminal raqobat;
- sanoat shpionaji;
- davlatning jinoyatchilikni oldini olish, odil sudlovnii amalga oshirish va shuningdek, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish borasidagi chora-tadbirlarining zaif jihatlari;
- kompyuter texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi jinoyatlar;
- yangi mahsulot ishlab chiqarish va uni ishlab chiqarishga joriy etish.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatadigan tahdidlarni bartaraf etish uchun bir qator vazifalarni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Korxona xodimlarining yuqori malakaga ega bo‘lishlarini ta’minalash, xodimlarning yuqori intellektual salohiyatga ega bo‘lishlariga erishish, korxonaning texnik va texnologik jihatdan mustaqilligini ta’minalash, yuqori raqobatbardoshligiga erishish, korxonani boshqarishda yuqori samaradorlikka erishish, korxona faoliyatining yetarli ekologik darajasini ta’minalash, korxonaning huquqiy himoyalanganligini, korxonaning axborot muhiti himoyasini ta’minalash, korxona xodimlarining xavfsizligini ta’minalash kabilar shular jumlasidandir.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minalashning quyidagi asosiy yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- korxonaning ekologik xavfsizligini umumstrategik rejorashtirish va prognozlash;
- korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini strategik rejorashtirish;
- korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini taktik jihatdan rejorashtirish;
- korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini operativ boshqarish.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini aniqlashda muhim uslublardan biri SWOT tahlili bo‘lib hisoblanadi. SWOT-tahlil korxonaning kuchli va kuchsiz



tomonlarini aniqlashdan boshlanadi. Tahlilda asosan quyidagi kuchli va kuchsiz faktorlar ko‘pincha inobatga olinadi:

1. Kompaniyaning obro‘si.
2. Ishlab chiqarayotgan mahsuloti yoki xizmat ko‘rsatish sifati.
3. Bozordagi ulishi.
4. Narx siyosati.
5. Logistika.
6. Savdo agentlarining sifati.
7. Geografik qamrovi.
8. Yangiliklarni tatbiq etish.
9. Moliyaviy mustahkamlik.
10. Kadrlar siyosati.
11. Texnika bilan ta’minlanganlik darajasi.
12. Belgilangan vaqtda buyurtmalarni bajara olish imkoniyati.
13. Kompaniyaning bozor va iste’molchilar talabiga egiluvchanlik.
14. Mahsulot assortimenti va nomenklaturasi.
15. Resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi.
16. Iste’molchilar talabini tahlili.



Sanab o‘tilgan omillar ko‘pincha marketing tahlilida ishlatilsa ham ular asosida kompaniyaning iqtisodiy xavfsizlik darajasini aniqlash mumkin. Imkoniyatlar va xavf-xatarlar ko‘pincha tashqi ta’sir elementlari hisoblanadi. Korxona ularga ta’sir eta olmaydigan omillardir:

- 1) mamlakatdagi va jahondagi iqtisodiy vaziyat.
- 2) demografik holat.
- 3) siyosiy ta’sir.
- 4) texnik va texnologik taraqqiyot.
- 5) raqobatchilar.
- 6) qonunlar.
- 7) madaniy omillar.
- 8) ijtimoiy omillar.

Misol uchun SWOT-tahlil usulini ishlab chiqarish korxonasi Yog‘-moy kombinatiga qo‘llagan holda iqtisodiy xavfsizlik darajasini bilish mumkin. Tahlilda Yog‘-moy kombinatining biznes rejasi, iqtisodiy-moliyaviy ko‘rsatkichlari, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimenti, ishlab chiqarish resurslari, xomashyo bilan ta’minlanishi va boshqa omillar inobatga olinadi. Yog‘-moy kombinat ning ichki

muhit va kombinat faoliyat yuritayotgan biznes muhiti tahlili quyudagi xulosalarni berdi:

1. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat sanoati rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan barcha resurs va imkoniyatga egaligi.
2. O‘tgan yillar mobaynida O‘zbekiston aholisi va ish haqining oshganligi hamda yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqarish bozori tahlili, sifatli mahsulotlarga bo‘lgan talabni oshganligini ko‘rsatmoqda.
3. Yangi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, mavjudlarini modernizatsiya qilish.
4. Biznesni rivojlantirish va moliyalashtirish uchun investitsion muhitning ijobiyligi.
5. Korxonada kadrlar siyosatini rivojlantirib borish orqali, boshqaruv va ishlab chiqarish personalini o‘qitish, mutaxassislik tajribalarini oshirish.
6. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda xalqaro ISO sifat menejmenti sertifikatlarini tatbiq qilish.

	<b>Kuchli tomonlari</b>	<b>Kuchsiz tomonlari</b>
	<b>Imkoniyatlar "O" — OPPORTUNITIES</b>	<b>Xavf-xatar "T" — THREATS</b>
<b>S</b> <b>T</b> <b>A</b> <b>SH</b> <b>Q</b> <b>I</b>	<p>1. O‘sib borayotgan bozor. 2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab - quvvatlanishi.</p> <p>3. O‘zbekistonga qo‘shti bo‘lgan respublika bozorlarini egallash imkoniyatining mavjudligi.</p> <p>4. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida yangi texnologiyalar rivojlanishi.</p> <p>5. O‘zbekistonda investitsion muhitning yaxshiligi, investitsion</p> <p>6. kapitallarni olib kirish imkoniyatlarini yuqoriligi Noan’anaviy ekinlar ekish uchun tabiiy iqlim sharoitning mavjudligi.</p> <p>7. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirilayotganligi.</p>	<p>Mahalliy xomashyoning yetarli emasligi.</p> <p>Yuqori raqobatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi.</p> <p>Noan’anaviy texnologiyalarni rivojlanishi;</p> <p>Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish talablarini o‘zgarishi.</p> <p>Innovatsion va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq qilishda normativ hujjatlar va standartlarning yo‘qligi</p> <p>Noqulay ob-havo sharoitida paxta xomashyosining hosildorligini kamayishi. Bozor konyunkturasining tez o‘zgarishi.</p>
	<b>Ustunliklar "S" — STRENGTH</b>	<b>Kamchiliklar "W" — WEAKNESS</b>
	<p>1) Mahalliy bozorda yetakchiligi;</p> <p>2) Hammaga ma’lum brendga egaligi.</p> <p>3) Yuqori malakali mutaxassislarning mavjudligi va tajriba ko‘nikmasining yuqoriligi. 4) Ishlab chiqarish jarayoni xomashyodan to tayyor mahsulotgacha bo‘lgan jarayon liniyalashtirilganligi va chiqindisiz ishlab chiqarish imkoniyatining</p>	<p>Ishlab chiqarish dastgohlarining yemirilish darajasi o‘rtacha 65 % ga yetganligi.</p> <p>Paxta ekin maydonlarining qisqarganligi xomashyo taqchilligini yuzaga keltirishi oqibatida ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanish</p>

<b>I CH KI</b>  <b>M U H I T</b>	<p>mavjudligi.</p> <p>5) Kadrlarni tayyorlashda Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti va Toshkent davlat texnika universiteti bilan hamkorlikda ishlashi.</p> <p>6) Kombinatda ISO standartlarining tatbiq etilganligi.</p> <p>7) Kombinatda ijtimoiy muhitni yaxshilash va ishchilarni qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy dasturning ishlab chiqilganligi.</p> <p>8) Ichki monitoring tizimining mavjudligi.</p> <p>9) Ko'p yillik xorijiy hamkorlarga ega ekanligi.</p> <p>10) Marketing tizimining yaxshi rivojlanganligi.</p>	<p>imkoniyatini kamayishi.</p> <p>Noan'anviy urug'larni qayta ishslash texnologiyasining yo'qligi. Kombinatda innovatsiya bilan shug'ullanish imkoniyatining kamligi.</p>
--	---	---

Jadvalda SWOT - tahlilidan kelib chiqib yog'-moy kombinatlarning ichki va tashqi muhit, kuchli va kuchsiz tomonlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasida 2021-yil boshida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 475197 tani tashkil etdi. Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar 93311 tani tashkil etdi. 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxona va tashkilotlar tomonidan 40511,5 mlrd. so'm miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi. 2020-yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda foyda 37,2 % ga ko'paygan. 2020-yilda 2019yilning shu davriga nisbatan solishtirganda, foydaning asosiy o'sishi Navoiy kon-metallurgiya kombinatlil DK (7705,1mlrd.so'm), Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlil AJ (2815,5 mlrd. so'm), O'zbekneftegaz AJ (891,9 mlrd.so'm), O'zbekiston temir yo'llari AJ (720,9 mlrd.so'm),

O'zsanoatqurilishmateriallari uyushmasi (628,9 mlrd. so'm), Hududiy elektr tarmoqlari AJ (404,4 mlrd.so'm), O'zdonmahsulot AK (162,7 mlrd. so'm)ga to'g'ri keladi.

Foydaning pasayishi O'zavtosanoat AJ 1650,7 mlrd. so'mga, Uzbekistan Airports AJ 1112,5 mlrd. so'mga, Uzbekistan Airways AJ – 1031,1 mlrd. so'mga, Issiqlik elektr stansiyalari AJ – 672,0 mlrd. so'mga, —O'ztransgaz AJ – 337,7 mlrd. so'mga, Yog'-moy sanoati korxonalari uyushmasi – 115,5 mlrd. so'mga, O'zbekiston metallurgiya kombinatlil AJ – 107,5 mlrd. so'mga, O'zmaxsusmontajqurilish AK – 75,9 mlrd. so'mga, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligida – 63,2 mlrd. so'mga kuzatilgan.

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Navoiy viloyati 20495,1 mlrd. so'm (jami foydaning 50,6 % i), Toshkent viloyati – 8729,9 mlrd. so'm (21,5 %), Toshkent shahri – 4634,8 mlrd.so'm (11,4 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi – 4480,6 mlrd.so'm (11,1 %), Andijon viloyati – 1906,4 mlrd. so'm (4,7 %) va Farg'ona viloyatiga – 870,9 (2,1 %) to'g'ri keladi.

Zararning asosiy qismi O'ztransgaz AJ – 1991,4 mlrd. so'm, shuningdek, Issiqlik elektr stansiyalari AJ – 1798,4 mlrd.so'm, —Uzbekistan Airways AJ –

1001,5 mld. so‘m, Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi – 537,0 mld. so‘m, Uzbekistan Airportsl AJ - 393,3 mld. so‘m, O‘zbekiston temir yo‘llari AJ – 277,5 mld. so‘m korxonalariga to‘g‘ri keladi. Zararlarning asosiy qismi quyidagi tarmoqlarga to‘g‘ri keldi: tashish va saqlash – 3765,4 mld. so‘m (jami zararning 37,5 % i), Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash – 2643,0 mld. so‘m (26,3 %).

2020-yilning 1-dekabr holatiga ko‘ra, debtor qarzdorlikning umumiy hajmi 120541,3 mld. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgani – 1758,9 mld. so‘m yoki jami qarzdorlikning 1,5 % i. Muddati o‘tgani debtor qarzdorlik 2019- yilning 1-dekabriga nisbatan solishtirilganda 88,5 % ga kamaygan, jami debtor qarzdorlikdagi ulushi 15,0 punktga qisqargan. 2020-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra, kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 130315,0 mld. so‘m, shundan muddati o‘tgani – 2656,0 mld. so‘m yoki jami kreditor qarzdorlikning 2,0 % ini tashkil etdi. Muddati o‘tgani kreditor qarzdorlik 2019-yilning 1-dekabriga nisbatan solishtirilganda 71,8 % ga qisqardi, jami kreditor qarzdorlikdagi ulushi 6,8 punktga kamaygan.

### **7.3-§. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash tamoyillari**

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqishda tahdidlar sonining ko‘pligi hamda ularning turli yo‘nalishlarga ega ekanligini hisobga olish zarur. Bu borada korxona iqtisodiy xavfsizligining quyidagi tarkibiy qismlari ajratib ko‘rsatiladi:

**1. Intellektual (kadrlarga tegishli) tarkibiy qism.** U korxonaning intellektual salohiyatini, xodimlar bilan, birinchi galda ularning intellektual jihatdan bilimdonligini oshirish bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan ishlar hisobidan saqlab qolish va rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

**2. Moliyaviy tarkibiy qism** – ularni ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish hisobidan korxonananing eng yuqori darajadagi to‘lov qobiliyatini ta‘minlash bo‘yicha ishlar yig‘indisini ko‘zda tutadi.

**3. Texnik-texnologik tarkibiy qism** – o‘z tarkibiga quyidagi ishlar majmuining bajarilishini ko‘zda tutadi:

- turdosh mahsulotni ishlab chiqarish bo‘yicha texnologiyalar bozorini tahlil qilish;
- o‘zlarida mavjud texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha ichki zaxiralarni ochib berish yuzasidan tahlil qilish;
- korxona taraqqiyotining texnologik strategiyasini ishlab chiqarish;
- korxonaning ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyati jarayonida texnologik rivojlanish rejasini tezkorlik bilan (operativ) amalga oshirish;

- taklif etilayotgan tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini hisoblab chiqish, korxonani texnik va texnologik rivojlantirish bo'yicha asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni ro'yobga chiqarishdan olingan natijalarni tahlil qilish.

**4. Siyosiy-huquqiy tarkibiy qism** – korxonaning siyosiyhuquqiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

**5. Axborotli tarkibiy qism** – axborotlarni to'plash va tahlil qilishni, rivojlanish tamoyillarini hamda korxonaning konfidensial (yashirin) ma'lumotlarni himoya qilishni qamrab oladi.

**6. Ekologik tarkibiy qism** – tabiiy va texnogen tavsifdagi favqulodda hodisalar oqibatida vujudga keladigan ichki va tashqi tahdidlardan korxonani himoya qilish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

**7. Kuch borasidagi tarkibiy qism** quyidagilarni ta'minlashga qaratilgan:

- ishlovchilarining jismoniy xavfsizligi;
- korxona mulkining saqlab qolinishi;
- axborot xavfsizligining kuch borasidagi jihatlari (masalan, sanoat shampionajidan himoya qilish).

Iqtisodiy xavfsizligi sanab o'tilgan korxonaning har bir tarkibiy qismini ta'minlash ishlari bo'yicha tegishli xizmatlari: iqtisodiy, moliyaviy, texnik va texnologik, yuridik, ekologik xizmatlarning ishlovchilari bajaradilar.

Korxona iqtisodiy xavfsizligining kuchga oid tarkibiy qismini ta'minlash uchun qoida bo'yicha maxsus bo'linma, ya'ni xavfsizlik xizmati tashkil etiladi, u o'z ishini korxonadagi barcha boshqa bo'linmalar bilan o'zaro uzviy ta'sirlashuvda amalga oshiradi. Bu kuchga oid tarkibiy qismning ayrim jihatlari korxona iqtisodiy xavfsizligining boshqa tarkibiy qismlarida ham ishtirok etishi bilan bog'liqidir.

Korxona iqtisodiy xavfsizligining intellektual (kadrlarga oid) tarkibiy qismi. Korxona iqtisodiy xavfsizligining intellektual tarkibiy qismini ta'minlash maqsadida xodimlar bilan ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatining asosiyligi iqtisodiy ko'rsatkichlarini, ularning o'zaro ta'sirlashuvini va o'zaro bir-biriga bog'liqligini, har xil omillarning miqdoriga ta'sirini o'rganish bo'yicha ishlarni muntazam ravishda o'tkazish lozim. Sanoat korxonasining iqtisodiyoti qator ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadiki, ularni bilmasdan turib na samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, na ularning bajarilishini tashkillashtirish mumkin bo'ladi. Ushbu tizimda korxonaning ishlab chiqarish dasturini tavsiflovchi ko'rsatkichlar muhim o'rin tutadi. U bir oy, kvartal, yarim yil, to'qqiz oy, bir yildagi mahsulot ishlab chiqarish rejasidan iborat

bo‘ladi. Ishlab chiqarish dasturini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlarga quydagilar kiradi: tovar mahsulot; sotilgan mahsulot; mahsulotni sotishdan tushgan tushum.

Korxona iqtisodiy xavfsizligining moliyaviy tarkibiy qismi. Korxona ishlab chiqarish – xo‘jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini foydaga tegishli ko‘rsatkichlar tavsiflaydi. Soliq kodeksiga binoan soliqqa tortilgunga qadar bo‘lgan foyda miqdori – barcha turdag'i faoliyatlardan olingan daromad bilan ishlab chiqarish xarajatlari o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi, ya’ni barcha faoliyat turidan keladigan moliyaviy natija sifatida

shakllanadi.

Korxonani iqtisodiy xavfsizligining moliyaviy tarkibiy qismini ta’minalash uchun har bir hisobot davri tugagandan so‘ng (har chorakda o‘sib boruvchi yakun bilan) korxonaning moliyaviy natijalari, moliyaviy holati va ishchanligini tahlil qilishi lozim. Korxona ishining moliyaviy natijalari tahlili quydagilarni o‘z ichiga oladi:

- soliqqa tortiladigan foydaning dinamikasini umumiy baholash;
- sotuvdan kelgan foydani (mahsulotni sotishdan kelgan foydani) omilli tahlil qilish;
- boshqa moliyaviy operatsiyalardan (boshqa faoliyat turlaridan) olingan moliyaviy natjalarni tahlil qilish; □ sof foydaning sarflanishini tahlil qilish;
- rentabellik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.

Korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish jarayonida korxona quydagilarni amalga oshiradi:

- korxonaning mol-mulki tarkibi va tuzilishining dinamikasini tahlil qilish (balansning aktiv qismi);
- moliyaviy resurslar manbalarining tarkibi va tuzilishini tahlil qilish (balansning passiv qismi);
- moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish;
- to‘lov qobiliyati va likvidlik darajasini tahlil qilish.

Korxonaning ishchanlik muhitini tahlil qilish quydagilarni ko‘zda tutadi:

- ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;
- iqtisodiy o‘sishining barqarorligini tahlil qilish.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligining axborotli tarkibiy qismi.



Axborot – bu biror narsa to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lib, to‘plash, saqlash va ishlov berish obyekti hioblanadi. Sanoat korxonasi borasida bu – ishlab

chiqarish – xo‘jalik faoliyati (IXF)ning barcha tomonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlardir.

Ular korxonaning har xil xizmatlari tomonidan shakllantiriladi. Mazkur ma’lumotlarni tahlil qilish asosida operativ (tezkor) va istiqbolli tavsifdagi boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Korxonani uning axborot muhitidan tashqarida tasavvur qilib bo‘lmaydi va korxona iqtisodiy xavfsizligining axborotli tarkibiy qismini ta’minalash zaruratini oldindan belgilab beradi.



Korxonaning axborot xavfsizligini ta’minalash tizimi ikki vazifani, ya’ni axborot xavfsizligini va axborotni himoya qilishni ta’minalashi lozim. Axborot xavfsizligi – bu axborot muhitining himoyalanganlik holatidir. Axborotni himoya qilish – bu o’sha holatga erishishga qaratilgan faoliyat, ya’ni jarayon hisoblanadi, masalan, axborotlarni korxonadan chetga chiqib ketishining oldini oladigan ishlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Korxonalarning axborot xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha ishlar bir martalik yoki biror vaqt davom etadigan tavsifga ega bo‘lmaydi. U uzlusiz tartibda bajarilishi lozim. Shunday qilib, korxonalarning axborot xavfsizligi – bu korxonalarning me’yorida faoliyat ko‘rsatishi va bir tekis rivojlanishini ta’minlovchi axborot muhitining himoyalanganlik holatiga erishish bo‘yicha amaldagi qonunchilikda ruxsat etilgan kuch va vositalardan foydalangan holda ularning barcha bo‘linmalari va shaxslarning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatidir. Korxonalarning axborot xavfsizligini tashkil etishda va uning faoliyat ko‘rsatish jarayonida qo’llab turuvchi infratuzilmaning, ya’ni korxonaning hayot kechirishini ta’minlovchi tizimlar (elektr, issiqlik, suv bilan ta’minalash)ning hamda xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning normal ishlashini ta’minalishi kerak.

Korxonalarning axborot xavfsizligi tizimini tashkil etishda yashirin axborot bilan ishlashni tashkillashtirish markaziy o‘rin tutadi. Konfidensal axborot – bu foydalanuvchilarning ularga kirish huquqida cheklovlар bor bo‘lgan axborotdir, chunki ularda davlat, xizmat yoki tijorat siri mavjud bo‘ladi.

Davlat siriga rioya qilish bo‘yicha munosabatda O‘zbekiston Respublikasining Davlat siri to‘g‘risida qonuni bilan tartibga solinadi. Xizmat va tijorat siri O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va Tijorat siri to‘g‘risida qonun bilan tartibga solish predmeti hisoblanadi.



Mazkur qonunga muvofiq holda tijorat siri – bu egasiga mavjud bo‘lgan yoki yuz berishi mumkin bo‘lgan holatlarda daromadlarni ko‘paytirish o‘zini oqlamaydigan xarajatlarga yo‘l qo‘ymaslik, tovarlar, ishlar, xizmatlar bozorida mavqYIni saqlab qolish yoki boshqa tijorat manfaatiga ega bo‘lish imkonini beradigan konfidensial axborotdir.

Tijorat sirini tashkil etuvchi axborot – uchinchi shaxslarga ma’lum bo‘lmasligi hamda



qonuniy asosda unga kirish taqiqlanganligi va bunday axborotning egasiga nisbatan tijorat siri tartibi joriy etilganligi tufayli real yoki potensial qiymatga ega bo‘lgan ilmiy-texnikaviy, texnologik, ishlab chiqarish, moliyaviyiqtisodiy yoki boshqa axborot (jumladan, ishlab chiqarish sirini tashkil etuvchi, nou - xau)lardir.

Tijorat siri tartibi – bu tijorat sirini tashkil etuvchi axborot egasining konfidensialligini saqlash bo‘yicha qabul qiladigan huquqiy, tashkiliy, texnik choralaridir. Qonunda ko‘rsatilishicha, tijorat sirini tashkil etuvchi ma’lumot ro‘yxati – korxona rahbari tomonidan belgilab qo‘yiladi. U buyruq bilan rasmiylashtiriladi. Mazkur buyruqda uni bajarish bo‘yicha chora-tadbirlar majmui belgilanadi. Buyruqni bajarish uchun javobgarlik qoida bo‘yicha korxonaning xavfsizlik xizmatiga yuklatiladi.

Tijorat sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar ro‘yxatini shakllantirishda mehnat qonunning tarkibida tijorat siri rejimi o‘rnatalishi mumkin bo‘lmasan ma’lumotlar ro‘yxati inobatga olinishi zarur. Xususan, bunga quyidagi ma’lumotlar kiradi:

- korxonada ishlovchilarning soni va tarkibi to‘g‘risida;
- ishlovchilar mehnatiga haq to‘lash tizimi to‘g‘risida;
- mehnat sharoiti to‘g‘risida, jumladan, mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida;
- ishlab chiqarishda jarohat olish va kasbiy kasalliklar to‘g‘risida;
- bo‘sh ish joylarining mavjudligi to‘g‘risida ;
- ish haqi va boshqa ijtimoiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha qarzdorlik to‘g‘risida.

Tijorat sirini saqlovchi ma’lumotlar ro‘yxatiga qonunda belgilangan shu kabi va boshqa ma’lumotlarni kiritishi, korxona rahbariyati tomonidan ularni fosh qilganlik

uchun jazolash qonunga xilof hisoblanadi. Korxonada tijorat siri rejimini amalga oshirish uchun quyidagi majburiy xatti-harakatlarni amalga oshirish zarur:

- o‘zining mehnat majburiyatlarini bajarish uchun konfidensial axborotlarga kirishi zarur bo‘lgan har bir ishlovchining tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlar ro‘yxati bilan bunga imzo chekkan holda tanishtirish;
- har bir ishlovchini imzo chekkan holda tijorat siri rejimi uni buzganligi uchun javobgarlik choralar bilan tanishtirish;
- har bir ishlovchiga o‘rnatilgan tijorat siri rejimiga rioya qilishi uchun sharoit yaratish.

Sanab o‘tilgan chora-tadbirlarga qo‘sishimcha ravishda har bir ishlovchiga tijorat sirini saqlash to‘g‘risida eslatma berilishi zarur bo‘lib, unda tijorat sirini saqlovchi hujjatlar bilan ishlashda, jumladan, tegishli hujjatlarni yo‘qotganda, ishlovchi ta’tilga chiqqanda, xizmat safariga ketganda, ishdan bo‘shaganda uning majburiyatlarini aks ettirish lozim. Mehnat qonuniga muvofiq mehnat majburiyatlarini bajarishda unga ma’lum bo‘lgan konfidensial axborotni fosh qilganligi uchun aybdor bo‘lgan ishlovchi, korxonaga keltirilgan zararni qoplashi lozim, undan tashqari, konfidensial axborotni ataylab yoki ehtiyyotsizlik oqibatida fosh etgan ishlovchiga uning xatti-harakatlarida jinoyat mavjud bo‘lmagan hollarda intizomiy jazo beriladi.

Korxonalarning axborot xavfsizligini ta’minalash maqsadida shtat jadvalida axborot xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi ko‘zda tutilishi yoki axborot xavfsizligi xizmati tashkil etilishi mumkin. Bu masalalarni hal qilish, xizmat tashkil etilgan taqdirda esa uni tarkibi va soni ko‘p o‘lchamga, ishlab chiqarish – xo‘jalik faoliyati turlariga hamda axborotlarning konfidensiallik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Barcha hollarda ular axborotlarni himoya qilish bo‘yicha hamma vazifalarni hal qilinishini ta’minalashi kerak. Uning eng muhim vazifalari quydagilardir:

- korxonada axborotni himoya qilish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirishni muvofiqlashtirish;
- axborotlarni chiqib ketishi mumkin bo‘lgan kanallarini aniqlash maqsadida ishlab chiqarishni to‘plash va ishlov berish texnologiyasini tadqiq etish;
- axborot xavfsizligi siyosatini va uni amalga oshirish choratadbirlarini ishlab chiqish;
- korxonalarda axborotlarni himoya qilishni ta’minlovchi me’yoriy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish;
- tahdidlarni aniqlash va zararsizlantirish;
- axborot xavfsizligiga daxldor bo‘lgan voqeа – hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, ro‘yxatga olish, ishlov berish va saqlash;

- barcha ishlovchilarda korxonaning axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablarni bajarish zarurligini tushunishini shakllantirish.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ilmiytexnikaviy, ishlab chiqarish salohiyati qanday.
2. Korxona iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar nimalardan iborat?
3. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadigan ichki va tashqi tahdidlarga baho bering.
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka katta e'tibor qaratilayotganligining sabablarini ko'rsating.
5. Mamlakatimizda biznes muhitini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida gapirib bering.
6. Iqtisodiyotda davlatning ulushini qisqartirishning asosiy yo'llari va vositalarini sharhlab bering.
7. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlarini ko'rsating.
8. Korxonaning iqtisodiy manfaatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
9. Korxona faoliyatiga qanday noaniqliklar, risklar ta'sir ko'rsatadi?
10. Korxona faoliyatining xavfsizligi qanday aniqlanadi?
11. Sanoat-iqtisodiy ayg'oqchilik nima va u korxona faoliyatiga qanday xavf soladi?

## **8-maruza AHOLI TURMUSH DARAJASI IQTISODIY XAVFSIZLIKNING IJTIMOIY INDIKATORI SIFATIDA**

### **Reja**

#### **8.1-§. Ijtimoiy sohadagi tahdidlarni tizimlashtirish va baholash**

#### **8.2-§. Demografik sohadagi tahdidlar. Demografik jarayonlarni baholash usullari va xavfsizlik ko'rsatkichlari tizimi**

#### **8.3-§. Aholi turmush darajasi va sifati**

#### **8.4-§. Qashshoqlik chegarasi va darajasi, aholi daromadlarining tabaqalanishini o'rganish usullari**

#### **8.1-§. Ijtimoiy sohadagi tahdidlarni tizimlashtirish va baholash**

Ijtimoiy xavfsizlik ko'p qirrali kategoriya bo'lib, uni o'rganish davomida keng qamrovli turli-tuman qarama-qarshi fikrlar vujudga kelgan. Ijtimoiy xavfsizlik

masalalarini sotsiologlar, psixologlar, pedagoglar, iqtisodchilar va huquqshunoslar tomonidan keng o‘rganilib kelinmoqda.

Insonlar, ularning hayotiy qiziqishlari va ehtiyojlari, jamoalar va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ijtimoiylashuv tizimlari (ta’lim, tarbiya, madaniyat, kundalik hayot) va insonning hayotiy faoliyatini ta’minlash tizimlari (sog‘liqni saqlash, savdo, ta’minot) ijtimoiy xavfsizlikning obyekti sanaladi.

Ijtimoiy xavfsizlikni baholash mezonlari quyidagilardan tashkil topgan:

- 1) shaxsning huquq va erkinliklari;
- 2) xususiy mulk institutining daxlsizligi;
- 3) ijtimoiy jarayonlarning barcha ishtirokchilari uchun qonunlarning universalligi va ustuvorligi;
- 4) millatning madaniy o‘ziga xosligi;
- 5) shaxsning bitta ijtimoiy ta’minot tizimidan boshqa ijtimoiy ta’minot tizimiga mustaqil o‘tish imkoniyati.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni beshta katta blok asosida tizimlashtirish mumkin:

- 1) aholining pul daromadlari darajasi bilan bog‘liq tahdidlar;
- 2) demografik vaziyat bilan bog‘liq tahdidlar;
- 3) bandlik sohasidagi tahdidlar, ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan hollarda;
- 4) ijtimoiy nafaqalar miqdori va aholini ijtimoiy qo‘llabquvvatlash choralari bilan bog‘liq tahdidlar;
- 5) sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat va kommunal sohada yuzaga keladigan jarayonlar tufayli kelib chiqadigan tahdidlar.

Ijtimoiy sohada iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning birinchi bloki aholining real pul daromadlari (ish haqi va boshqa to‘lovlar) darajasining pasayishi bilan bog‘liq bo‘lgan tahdidlarni o‘z ichiga oladi. Aholining pul daromadlari dinamikasi ko‘rsatkichini yashash tannarxi bilan taqqoslash, ushbu mablag‘larning zarur ehtiyojlarni qondirish uchun mosligini aniqlashga imkon beradi. Bu ijtimoiy sohadagi hozirgi kunga xos dolzarb tahdidlardan biri – jamiyatning kam sonli boydar va kam ta’minlangan fuqarolar doirasining kengayishi xavfini o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy sohada iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning ikkinchi bloki mamlakatdagi demografik tahdidlarni o‘z ichiga oladi. Tabiiy kamayish tufayli doimiy aholi



sonining kamayishi (tug‘ilishning kamayishi va o‘limning ko‘payishi), migratsiya, qarish, umr ko‘rishning pasayishi kabilar mazkur blokda asosiy tahdidlar sifatida ko‘riladi. Iqtisodiy faol aholi sonining kamayishi va

ularning reproduktiv salomatligining yomonlashishi yana bir jiddiy salbiy jihat hisoblanadi. Bu yerda muhim baholovchi ko'rsatkichlardan biri 1 nafar ayolga tug'ilish sonining nisbati bo'lib, bu populatsiyaning o'sish ehtimolini baholashga imkon beradi.

Ijtimoiy sohaning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarning uchinchi bloki bandlik sohasidagi muammolardir. Bunga munosib maosh va ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan bir paytda ish o'rinalining yetishmasligi mehnat bozoridagi tahdidlarga kiradi. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tavsiyasiga ko'ra, ishga joylashmagan va hozirda faol ish izlashda bo'lgan iqtisodiy aholi ishsiz sifatida e'tirof etiladi. Ishsizlikning ko'payishi mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. XMT uslubiyoti bo'yicha hisoblanuvchi ishsizlik ko'rsatkichi mehnat bozoridagi vaziyatni obyektiv baholash mezoni hisoblanadi.

Tahdidlarning to'rtinchi bloki – aholini turli xil ijtimoiy imtiyozlar va qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash choralarini kafolatlaydigan davlat tuzilmalarini moliyalashtirish bilan bog'liq tahdidlardir. Davlat byudjetining davlat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy majburiyatlarini bajarish uchun nazarda tutilgan moddalarini bajarmaslik yoki to'liq bajarmaslik bilan bog'liq tahdidlar ham bu borada muhim sanaladi. Shuningdek, O'zbekistonda majburiy ijtimoiy sug'urta tizimining moliyaviy barqarorligi, ya'ni ijtimoiy byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlari bajarilishida ham nomutanosibliklar mavjud.

Beshinchi blok – sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va uyjoy communal xo'jaligidagi salbiy jarayonlar natijasida kelib chiqadigan tahdidlardir. Bunday tahdidlar ko'pchilik aholi uchun yuqori texnologiyali tibbiy, sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatining yo'qligi, uy-joy qurilishining kamayishi, uy-joy communal xo'jaligi bino va inshootlarining eskirishi, uy-joy communal xizmatlariga to'lovlarning oshishi bilan izohlanadi. Bunday vaziyatlarda aholining aksariyati hayotiy xizmatlardan to'la-to'kis foydalana olmaydilar. Baholash uchun biz har bir kishiga to'g'ri keluvchi uy-joy maydoni ko'rsatkichidan foydalanadi.

Xalqaro tajribaga muvofiq, jamiyatda barqarorlikni ta'minlashning muhim mezonlaridan biri – bu jamiyatda ta'sir doirasi katta bo'lgan o'rta sinfni yaratishdir. Agar jamiyatda barcha mulkdorlarning 85 foizi o'rta sinf vakillariga to'g'ri kelsa, boylar va kambag'allar birgalikda 15 foizni tashkil qilsagina, ushbu shartni bajarish mumkin bo'ladi. Yuqori va kam haq to'lanadigan ishchilar o'rtasidagi daromad nisbati ham muhim ahamiyatga ega. Bu nisbat odatda 1:10 dan oshib ketmasligi shart. Ushbu nisbatlarning har qanday o'zgarishi jamiyatda ijtimoiy keskinlikning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Jamiyatni modernizatsiyalash – bu jamiyat hayotining turli jihatlariga ta'sir qiluvchi ko'p qirrali hodisa hisoblanadi. Agar modernizatsiya mehnat unumdorligini oshirish, insonlar hayotini osonlashtiruvchi yangi texnologiyalarni joriy etish nuqtayi nazaridan qaralsa, mashinasozlik, robototexnika, raqamli iqtisodiyot sohalarida yangi

texnologiyalarni joriy etish, axborot texnologiyalari doirasini kengaytirish kabilarni o‘zida aks ettiradi. Ular bugungi kun insonining hayotini yaxshilash uchun xizmat qilishi lozim. Jamiatni modernizatsiyalash jarayonida ba’zi bir kasblar keraksiz bo‘lib borsa, ba’zi bir yangi kasblar paydo bo‘la boshlaydi. Texnik modernizatsiyalash davlat va jamiatning ijtimoiy tuzilmasiga katta ta’sir qiladi. Texnik modernizatsiyalash jamiatda tarkib topgan urf-odatlar, axloqiy me’yorlar va uning madaniyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Bugungi kunda texnik modernizatsiyalash ijtimoiy modernizatsiyalashning o‘ziga xos katalizatoriga aylanib ulgurdi. Agar texnik modernizatsiyalash konstruktiv tavsifga ega bo‘lsa, uning oqibatida yuzaga chiquvchi ijtimoiy modernizatsiyalashni baholash har doim ham o‘rinli bo‘lavermaydi.

Ijtimoiy xavfsizligini tavsiflovchi bir qator chegaraviy ko‘rsatkichlar va ularning qiymatlari mavjud. Ular quyidagi jadvalda keltirilgan.

Texnokratik jamiatdan axborotlashgan jamityaga o‘tish davrida ma’lum bir xavflar paydo bo‘ladi, chunki insonlarning tor guruhi ijtimoiy ongni shakllantirishni nazorat qila boshlaydilar va ular tezda axborotlashgan jamiatning kibor a’zolariga aylanadilar. Aksariyat insonlar axborot texnologiyalaridan to‘liq foydalana olmaydilar, bu esa ular ma’lum ziddiyatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

### **8.1-jadval**

#### **Ijtimoiy soha iqtisodiy xavfsizligi indikatorlari**

<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>Chegaraviy qiymat</b>
Pensiya va mehnatga qobiliyatli yoshdagi insonlarning nisbati	0,4 dan ko‘p emas
Sog‘lijni saqlash, ta’lim va madaniy tadbirlar uchun xarajatlar, YAIMga nisbatan %	15 dan kam emas
Jami aholi tarkibida yashash minimumidan kam daromadga ega bo‘lganlar ulushi,%	6 dan ko‘p emas
O‘rtacha pensiyaning o‘rtacha ish haqiga nisbati, %	40 dan kam emas
Fondlar koeffitsiyenti ( 10 % yuqori daromadli aholi daromadlarining 10 % past daromad oluvchi aholi daromadlariga nisbati), marta	7 dan ko‘p emas
O‘rtacha aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi aholi pul daromadlarining yashash minimumiga nisbati, marta	3,5dan kam emas
XMT uslubiyotiga ko‘ra ishsizlik darajasi, %	4 dan ko‘p emas
Bir kishiga to‘g‘ri keluvchi yashash maydoni, m <sup>2</sup>	25 dan kam emas

Djini koeffitsiyenti	0,3 dan ko‘p emas
Jinoyatchilik darajasi (har 100000 ming kishiga to‘g‘ri keluvchi ro‘yxatga olingan jinoyatlar soni)	1000 dan ko‘p emas
Tibbiyot tavsiyasiga ko‘ra bir sutkada iste’mol qilinishi lozim bo‘lgan kilokaloriya	3000 dan kam emas
Spiritli ichimlik iste’mol qilish (aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi alkogol mahsuloti, litr)	8 dan ko‘p emas
Giyohvand moddalar iste’mol qiluvchi insonlar ulushi, %	3,5dan ko‘p emas
O‘z joniga qasd qilish (har 100000 aholiga)	20 dan ko‘p emas
Ruhiy buzilishlarning tarqalishi (har 1000 kishiga)	360 dan ko‘p emas

jinoyatchilik, alkogolizm, giyohvandlik, o‘z joniga qasd qilish va boshqalarni cheklash orqali namoyon bo‘ladi. Bunday hodisalarining oldini olish uchun jamiyat albatta katta xarajatlarni amalga oshirishi talab etiladi.

Eng muhim ijtimoiy muammolar qatoriga aholining turmush darajasi va sifatini oshirish, qashshoqlikka barham berish, aholi daromadlarini ko‘paytirish, bandlik, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizligini ta’minlash, nogironlar va kam ta’minlangan fuqarolar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solish kabilar kiradi.

## **8.2-§. Demografik sohadagi tahdidlar. Demografik jarayonlarni baholash usullari va xavfsizlik ko‘rsatkichlari tizimi**

Demografik xavfsizlik davlat va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning demografik xavf-xatarlardan himoyalanganlik holati, bunda ularning milliy demografik manfaatlarga muvofiq rivojlanishi ta’minlanadi. Davlat va jamiyatning demografik manfaatlari aholini takror ishlab chiqarishni o‘ziga oladi, uning asosiy o‘ziga xos belgilari quyidagilardan iborat: depopulatsiyaning mavjud emasligi, ota-onalarning to‘liq o‘rnini bosishga yo‘naltirilgan ongli ravishda tartibga solinadigan tug‘ilish miqdori, barqaror pasayib borayotgan o‘lim soni va umr ko‘rish uzunligining oshishi, aholining yosh-jinsiy tarkibi, maqbul ichki va tashqi migratsion jarayonlar, farzandlarga bo‘lgan ehtiyojni amalga oshirish, ularni tarbiyalash uchun eng qulay hisoblangan ijtimoiy institut sifatida oilani mustahkamlash.

Shaxsnинг demografik manfaatlari sog‘lom va uzoq umr ko‘rishni, farzandlarga bo‘lgan shaxsiy ehtiyojlarning to‘liq amalga oshirilishini, hududiy ko‘chib yurishlar erkinligini ta’minlovchi sharoitlarning shakllantirilishidir. Shunday qilib, demografik xavfsizlik—bu populatsiyaning o‘z yosh-jinsiy va etnik parametrlarida mavjud bo‘lishi

hamda rivojlanishi, davlatning yaxlitligini, mustaqilligini, suverenitetini ta'minlash va mavjud geosiyosiy maqomini saqlab turishdan iborat milliy manfaatlar bilan bog'liqligini aniqlash.

Demografik xavfsizlikni ichki va tashqi turlariga bo'lish mumkin.

Ichki demografik xavfsizlik quyidagi omillar bilan belgilanadi: omon qolish, odamsiz qolish, naslning buzilishi, qirilib yo'q bo'lish, o'zini-o'zi saqlab qolish, o'zi uchun yetarli takror barpo bo'lish, demografik rivojlanish, demografik inqiroz, depopulatsiya va h.k. Bu yerda asosiy xavf-xatar – uzoq davom etadigan va chuqur depopulatsiya oqibatida qirilib yo'q bo'lish, uning ta'rifiga faqat aholi tabiiy harakatining tavsiflari kiradi: tug'ilish miqdori va o'lim soni.

Aholi sonining tabiiy kamayishi immigratsiya hisobidan qoplanadigan o'rin bosuvchi migratsiya populatsiyaning saqlab qolinishiga emas, balki etnik-madaniy va ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi o'zgarishiga olib keladi. Mazkur holatda muayyan vaqt o'tgach mamlakat aholisining etnik va genetik qiyofasi tubdan o'zgaradi.

Tashqi demografik xavfsizlik – hududning seraholiligi, uning chegaralarini qo'riqlash, mudofaa salohiyatini saqlab turish, iqtisodiyotni o'z mehnat resurslari bilan ta'minlash kabi davlatning barcha geosiyosiy manfaatlariga mos kelishi lozim bo'lgan inson (ko'chiriladigan, safarbar etiladigan, mehnat) resurslari majmuini shakllantirish.

Davlat uch hokimiyat timsolida demografik xavfsizlikning asosiy subyekti hisoblanadi. Ijro etuvchi hokimiyatning vakolatlari: ushbu sohadagi davlat siyosatini belgilab beradi; demografik xavfsizlik konsepsiysi (doktrinasi, dasturi)ni ishlab chiqib, tasdiqlaydi va moliyalanishini ta'minlaydi; davlat boshqaruvi organlarining mazkur sohadagi faoliyatini nazorat qiladi; aholi va demografik xavfsizlik sohasidagi qonun

hujjatlarining takomillashtirilishini ta'minlaydi; ushbu sohada hukumatlararo hamkorlikni rivojlantiradi; boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Demografik xavfsizlik konsepsiysi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan muddatda ishlab chiqiladi. Demografik xavfsizlik konsepiyasida quyidagilar aks ettirilishi kerak:

1. O'tgan davrda demografik rivojlanish va demografik siyosatni baholash hamda demografik vaziyatni tavsiflash.
2. Real va potensial demografik xavf-xatarlar.



3. Konsepsiya belgilangan davr uchun mo‘ljallangan demografik xavfsizlik dasturlarning asosiy yo‘nalishlari.

4. Fuqarolarning reproduktiv huquqlarini muhofaza qilish va ta’minalash hamda ularning reproduktiv ehtiyojlarini shakllantirish sohasidagi davlat siyosati.

5. Sog‘lijni saqlash sohasidagi o‘zgarishlar, shu jumladan, aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatilishiga erishish uchun sog‘lijni saqlashni takomillashtirish; ayniqsa, mehnatga layoqatli yoshda bevaqt va oldini olish mumkin bo‘lgan o‘lim sonini kamaytirish zaxiralarini amalga oshirish hisobidan aholi umr ko‘rishning uzunligini oshirish; salomatlik uchun zararli bo‘lgan odatlarning oldini olish va ularga barham berish, birinchi navbatda, xavf-xatar darajasi yuqori bo‘lgan guruhrar o‘rtasida ruhiy kasalliklar, alkogolizm va narkomaniya profilaktikasi; kasalliklar profilaktikasi va sog‘lijni mustahkamlash haqidagi bilimlarni shakllantirish, tarqatishga doir ma’rifiy va ta’lim faoliyatini takomillashtirish.

6. Oilaga, keksalarga nisbatan davlat siyosati.

7. Turmush darajasi va sifati sohasida davlat siyosati, shu jumladan: mehnatga layoqatli aholining munosib turmush darajasini o‘zi ta’minalashi uchun sharoitlar yaratish; fuqarolarni keksalikda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, kasal bo‘lganida, ishsiz qolganida va boshqa kritik vaziyatlarda ijtimoiy ta’minalash; sog‘lom kun kechirish muhitini ta’minlovchi sharoitlarni yaratish; barcha fuqarolarga ta’lim, sog‘lijni saqlash, madaniyat, san’at, sport xizmatlarining qulayligini ta’minalash.

8. Migratsiya siyosati.

9. Xalqaro hamkorlik, shu jumladan, demografik siyosat chora-tadbirlari va maqsadli loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashda tajriba almashish, ularning amalga oshirilishiga ko‘maklashish; demografiya sohasidagi milliy dasturlar va rejalarining amalga oshirilishida ishtirok etish uchun xalqaro tashkilotlar hamda donor mamlakatlarni jalb qilish.

Ijtimoiy-demografik xavfsizlikni tadqiq qilish hududlarni rivojlantirishning mumkin bo‘lgan istiqbollarini belgilab beruvchi asosiy masalalardan biridir. Ushbu kategoriyaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u inson faoliyatining barcha sohalariga faol ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy-demografik xavfsizlik deyilganda shunday holat va uning o‘zgarishi tendensiyalari tushuniladiki, bunday hududda aholining ko‘payishi va munosib yashash sharoitlari hamda shaxsiy rivojlanish jarayonlarining barqarorligi ta’milanadi.

Ijtimoiy va demografik xavfsizlik quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- aholining tabiiy ko‘payishini tavsiflovchi
- ko‘rsatkichlarni doimiy ravishda

*Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning demografik vaziyatidagi tafovutlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, shaharlashuv, aholining turmush tarzi va an'anaviy qadriyatlarning saqlanganlik darajasi kabi omillar bilan bog‘liq.*



tartibga solish (yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan minimal darajadan past emas), bu esa o‘z navbatida, yaqin o‘n yillikda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish imkonini beradi;

- millat sog‘lig‘ini yuqori darajada saqlash va qo‘llabquvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratish, xavfli kasalliklar tarqalishining oldini olish borasida sanitariya-epidemiologiya me’yorlariga qat‘iy rioya qilish;
- zamonaviy dunyo standartlariga javob beradigan, munosib turmush darjasasi va uni saqlab qolish uchun sharoit yaratish, bu o‘z navbatida, aholining populatsiyasining saqlanib qolishi va barqaror iqtisodiy o‘sishga yordam beradi;
- shaxsning xavfsizligiga va uning to‘liq rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan zarur bo‘lgan sifat ko‘rsatkichlariga javob beradigan ijtimoiy muhit (jinoyatchilikka qarshi kurashish, hayot faoliyati xavfsizlik va boshqalar);
- aholining hududlardan migratsiyasini cheklab qo‘yadigan va ruxsat etilgan chegaralar doirasida migratsiya oqimini saqlab turadigan sharoitlar yaratish.

Demografik xavfsizlik ijtimoiy, iqtisodiy, milliy, innovatsion, sarmoyaviy, epidemiologik va ekologik, moliyaviy va soliq xavfsizligi va boshqa shu kabi kategoriyalarning inson kapitali sifati bilan o‘zaro bog‘liqligi nazarda tutiladi.

Ko‘pincha ijtimoiy va demografik xavfsizlik kategoriyalari alohida qarab chiqiladi. Tadqiqotlarda —demografik xavfsizlikl kategoriysi har xil nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Demografik xavfsizlik darajasini demografik muvozanat va aholining maqbul soni nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish mumkin.

Aholining maqbul soni deyilganda kutilayotgan va imkoniyat darajasida bo‘lgan aholining eng maqbul soni tushuniladi. Aholining maqbul soni nazariyasi demografik bosim va aholining turmush kechirish uchun zarur bo‘lgan vositalar bilan ta’minlanganlik darjasasi muammolarini yoritib beradi. Aholining maqbul sonini aniqlash uchun odamlar intilishi mumkin bo‘lgan: farovonlik; bandlik; kuch; sog‘liq, madaniyat, bilim; aholi soni kabi maqsadlarni hisobga olish lozim. Demografik xavfsizlikning maqsadi – demografik tahdidlarning oldini olish va zararsizlantirish uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Demografik tahdidlar-demografik sohaning faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan va demografik rivojlanishning milliy va (yoki) mintaqaviy maqsadlariga zid keladigan, davlatning yaxlitligi, mustaqilligi va suverenitetiga daxl qiluvchi hodisalar, tendensiyalar va harakatlar majmuuni ifoda etadi. Depopulatsiya, aholining qarishi, tartibga solinmagan migratsiya jarayonlari, aholi salomatligi holati, aholi soni, oila institutining tanazzulga uchrashi, aholining etno-demografik tarkibi kabilarni demografik tahdidlar sirasiga kiritishimiz mumkin.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari va jamiyat hayotiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan oqibatlarga quyidagilar kiradi:

- shakllangan salbiy tabiiy o'sish (aholining depopulatsiyasi) natijasida uzoq muddatli istiqbolda hudud aholisining qisqarishi;
- aholining oddiy ko'payishini ta'minlay olmaydigan tug'ilishning past darjasи, shuningdek, ko'p sonli abortlar nafaqat tug'ilishning hozirgi darajasini pasaytirib yuboradi, balki kelajakda reproduktiv salomatlikning yomonlashishiga olib keladi;
- umr ko'rish davomiyligining qisqaligi (ayniqsa, erkaklarda);
- populatsiyaning mexanik va tabiiy harakati natijasida yosh va jins tarkibidagi salbiy o'zgarishlar; mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagi aholi ulushining muttasil o'sib borishi sharoitida mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni va ulushining kamayishi;
- kasallanishning ko'payishi, reproduktiv va ruhiy salomatlikning yomonlashishi, alkogolizm, giyohvandlik va boshqalar tufayli inson resurslari sifatining yomonlashishi;
- nikoh va oilaviy munosabatlarning o'zgarishi, oilaviy qadriyatlarning o'zgarishi natijasida kelib chiquvchi ajralishlarning yuqori darjasи, to'liq bo'lman oilalar, nikohsiz tug'ilishlar, farzandsiz va kam farzandli oilalarning ko'payishi, ijtimoiy yetimlik va boshqalar;
- davlat tashkil etuvchi (subyekt tashkil etuvchi) etnik guruhning soni va ulushining qisqarishi;
- aholining strategik muhim hududlardan ko'chib ketishi natijasida aholi zichligining hududlar bo'yicha sezilarli ravishda tabaqalanishi;
- shahar va qishloq aholisining turmush darjasida sezilarli farqlar mavjudligi oqibatida qishloq aholisi sonining kamayishi.

Hududlarning demografik xavfsizligini baholash uchun ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Ushbu kategoriyanı baholashning aniq bir mezoni mavjud bo'lmanligi bois, tadqiqotchilar tomonidan tanlangan ko'rsatkichlar ro'yxati faqat demografik jarayonlarni tavsiflovchi omillarni o'rganish bilan cheklanishi mumkin yoki aholini hayotining boshqa jihatlari yoki demografik xulq-atvorga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflovchi ro'yxat kengaytirilgan holda taqdim etilishi mumkin.

Demografik xavfsizlikni hozirgi demografik jarayonlarni o'rganish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishda:

- 1) demografik xavfsizlikning ayrim jihatlari;
- 2) demografik xavfsizlikning individual ko'rsatkichlari darajasining o'zgarish yo'nalishi va darjasи;

3) demografik xavfsizlikning individual ko'rsatkichlarining o'zgarishi (demografik yo'qotishlar) kabilarni tavsiflovchi ko'rsatkichlardan keng foydalanishimiz mumkin.

Tanlangan ko'rsatkichlarning kritik yoki chegaraviy qiymatlarini aniqlash muhim hisoblanadi. Chegaraviy kritik qiymat deyilganda shunday qiymatni tushunish lozimki, unga ko'ra indikatorning bunday miqdoriy qiymatida iqtisodiyotning faoliyati va jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy jarayonlarning kelib chiqish xavfi keskin oshadi. Ushbu qiymatlarni baholash ekspert xulosalari asosida yoki matematik tadqiqot usullaridan foydalangan holda hisob-kitoblar asosida amalga oshiriladi. Bu tahlil qilingan ko'rsatkichlarga sifatli baho berish, rivojlanishning amaldagi darajasi belgilangan mezonlarga muvofiqligini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotlarda ko'pincha quyi yoki yuqori chegara qiymatlari topiladi.

## **8.2-jadval**

### **Demografik xavfsizlik ko'rsatkich mezonlari**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Chegaraviy-kritik qiymat</b>
Depopulatsiya darajasi,%	0
Aholining qarilik koeffitsiyenti,%	15
Reproduktiv yoshdagи aholining jinsiy tarkibining nomutanosiblik darajasi,%	0
Oilalik nisbati,%	51
Titulli millat vakillarining ulushi,%	0
Tug'ilishning jamlanma koeffitsiyenti,%	22
Reproduktiv yoshdagи abortlarning intensivligi,%	Iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlar darajasi
Aholi o'limining umumiy koeffitsiyenti,%	
Bolalar o'limi koeffitsiyenti,%	
Tug'ilgandan buyon kutiluvchi o'rtacha umr ko'rish davomiyligi (ayollar va erkaklar uchun alohida), yil	
Aholining migratsion o'sish koeffitsiyenti,%	0
Norasmiy migratsiya darajasi,%	0
Aholi ko'payishining netto-koeffitsiyenti, kishi	1

2021-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra respublika doimiy aholisi soni 34 558,9 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 653,7 ming kishiga yoki 1,9 % ga o'sdi. Shu bilan birga, shahar aholisi soni 17 487,5 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 50,6

%), qishloq aholisi soni 17 071,4 ming kishini (49,4 %) tashkil etdi. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida 841,8 ming nafar bola tug‘ilganligi (tirik tug‘ilganlar) qayd etilgan bo‘lib, 2019-yilning mos davriga (815,0 ming nafar) nisbatan 24,6 ming nafarga ko‘paygan. Tug‘ilish koeffitsiyenti 24,3 promilleni tashkil etgan.

2020-yil yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni 175,6 ming kishini tashkil etib, 2019-yil yanvar-dekabr oylariga (154,6 ming kishi) nisbatan 21,0 ming kishiga ko‘paygan. O‘lim koeffitsiyenti 5,1 promilleni tashkil etgan. Ro‘yxatga olingan jami vafot etganlarning 60,0 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,0 % i o‘simgalardan, 7,2 % i nafas olish a’zolari kasalliklaridan, 4,4 % i ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, 4,4% i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,4 % i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,6 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYo organlari tomonidan 296,8 ming nikoh qayd etilib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,7 promilleni tashkil etdi. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYo organlari tomonidan 28,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,8 promilleni tashkil etdi. Jami qayd etilgan nikohdan ajralishlarning 50,1 % i farzandlarsiz, 29,3 % i bitta farzand bilan va 20,6 % i ikki va undan ortiq farzandlar bilan ajrashganlarga to‘g‘ri kelgan.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 191,2 ming kishini, ko‘chib ketganlar soni esa 203,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 12,5 ming kishini tashkil etdi. 2019-yilning mos davrida migratsiya saldosi minus 10,6 ming kishini tashkil etgan. O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami xorijdan ko‘chib kelganlarga nisbatan 37,0 %), Rossiya Federatsiyasi (22,3 %), Tojikiston Respublikasi (20,0 %), Qirg‘iziston Respublikasi (8,5 %), Turkmaniston (1,3 %) va boshqa mamlakatlar (10,9 %) hissalariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami xorijga ko‘chib ketganlarga nisbatan 64,3 %), Rossiya Federatsiyasi (29,3 %), Isroil (1,2 %), Qirg‘iziston Respublikasi (0,9 %), Tojikiston Respublikasi (0,6 %), va boshqa mamlakatlar (3,7 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Demografik xavfsizlikni tadqiq qilishda ikkita yondashuvdan foydalilanildi:

- 1) tanlangan ko‘rsatkichlarning dinamikasini tahlil qilish, shuningdek, ularni tanlangan standartlar bilan taqqoslash.
- 2) mutaxassislar tomonidan tanlangan ko‘rsatkichlar tizimi asosida hisoblangan koeffitsiyentlar tizimidan foydalangan holda demografik xavfsizlikning integral indeksini hisoblash.

Ko‘p qirrali statistik tadqiqot usullarini qo‘llash orqali integral indeksni hisoblash mumkin. Uning afzalligi shundaki, integral indeksga ta’sir ko‘rsatuvchi

tanlab olingan ko'rsatkichlarning ta'sirini tavsiflovchi ulushli koeffitsiyentlar hisob-kitoblar orqali aniqlanadi, bu esa ko'rsatkichlarning indeksiga ta'sir qilish darajasini baholashda mutaxassis tomonidan xatoga yo'l qo'yish ehtimolini kamaytiradi.

### **8.3-§. Aholi turmush darajasi va sifati**

Turmush darajasi kategoriyasi aholining moddiy turmush farovonligi, tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish, asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish darajasini tavsiflovchi shart-sharoitlar va ko'rsatkichlar sifatida tavsiflanadi. Aholi turmush darajasini farovonlik, me'yoriy hayot darajasi, qashshoqlik va kambag'allik sifatida tasniflash mumkin. Boylik deyilganda insonning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan imtiyozlardan foydalanish qobiliyati tushuniladi. Normal daraja ilmiy asoslangan me'yorlarga muvofiq oqilona iste'mol qilishni o'z ichiga oladi, bu esa o'z navbatida, insonni jismoniy va intellektual salohiyati tiklanishini ta'minlaydi. Kambag'allik sharoitida odam mehnat qilish layoqatiga ega bo'lish va uni saqlab qolish uchun ishchi kuchini takror ishlab chiqarish chegarasi darajasida tovarlarni iste'mol qiladi. Qashshoqlik insonning hayotiy faoliyatini davom ettirishni ta'min etuvchi biologik mezonlarga muvofiq iste'mol qilinishi mumkin bo'lgan minimal miqdordagi tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish imkoniyatini anglatadi.

Aholining turmush darajasi: jami aholi; ijtimoiy guruhlar va turli xil daromadli uy xo'jaliklari nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Turmush darajasini baholash murakkab va ziddiyatli jarayon sanaladi. Uning shakllanishiga bir tomondan jamiyat ehtiyojlari va tarkibi ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan esa ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari chegarasi ta'sir ko'rsatadi.

Cheklovlar mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan yaxlit omillar ta'siri ostida yuzaga keladi. Xususan, bularga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining samaradorligi, ilmiy-texnik taraqqiyotning holati, aholining madaniy va ma'rifiy darajasi, milliy xususiyatlar va boshqalar kiradi.

Mamlakatda aholi turmush darajasi va sifatini baholashda foydalanimuvchi ma'lumotlar manbalari bo'yicha aholining turmush darajasini baholash borasidagi yondashuvlarni quyidagi katta guruhlarga bo'lish mumkin:

- 1) keng qamrovli statistik ko'rsatkichlar asosida turmush darajasini baholash;
- 2) uy xo'jaliklari byudjetlarini tanlanma statistik o'rganish;
- 3) aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida turmush darajasini baholash;
- 4) aholi o'rtasida sotsiologik so'rovlardan o'tkazish orqali aholi turmush darajasini baholash.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Prognozlashtirish va makro-iqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan hisoblangan turmush darajasini baholash uchun ko'rsatkichlarning yaxlit

tizimi ishlab chiqilgan. Ko'rsatkichlar tizimi 39 ta ko'rsatkichdan iborat bo'lib, ular yettita bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Umumiyoq ko'rsatkichlar, masalan: turmush darajasi, yashash qiymati indeksi, jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi milliy mahsulot.

2. Aholi daromadlari, ular aholining real yalpi daromadlari, aholining real daromadlari, aholining yalpi, shaxsiy hamda pul daromadlari va boshqalar bilan tavsiflanadi.

3. Aholining iste'moli va xarajatlari, shu jumladan, aholining moddiy tovarlar va xizmatlar iste'mol qilishining umumiyoq hajmi, aholining pul xarajatlari hamda asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishi va boshqalar.

4. Aholining pul mablag'lari.

5. To'plangan mol-mulk va uy-joy, unga yig'ilgan uy (shaxsiy) mol-mulkning qiymati, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar va aholining mulki mavjudligi hamda xususiyatlari, aholining uy-joy sharoitlari kiradi.

6. Aholining:

- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi daromadlar qiymati;
- aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi daromadning turli darajasiga ega bo'lgan aholi guruhlarining asosiy oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari hamda xizmatlaridan foydalanish darajasi;
- daromadlarning konsentratsiyalashuv darajasi, aholi turli qatlamlarining amaldagi va normativ qiymati dinamikasi bo'yicha ijtimoiy tabaqlananishi.

Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini tavsiflash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: yashash minimumi, eng kam ish haqi, minimal iste'mol byudjeti, minimal pensiyaning xarid qobiliyati, kam ta'minlanganlik darajasi, daromad taqchilligi, qashshoqlik zonasi, qashshoqlikning ijtimoiy chizgisi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyasiga ko'ra,

Turmush darajasi – bu murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblanadi, shuning uchun bozor iqtisodiyotining taraqqiy etish sharoitida mazkur kategoriyanı o'rGANISH iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy rivojlanishning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Aholining moddiy ahvoli, shuningdek, tahlil etilayotgan davrda jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bo'yicha aholi turmush darajasi va sifatini har tomonlama baholashimiz mumkin.



Aholi turmush darajasi va sifatini baholash maqsadida ko'rsatkichlarning chegaraviy qiymatidan foydalaniladi.

### **8.3-jadval**

#### **Aholi turmush darajasi va sifati ko'rsatkichlarining chegaraviy qiymatlari**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Chegaraviy qiymat</b>	<b>Izoh</b>
Tug'ilgandan kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi (kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish)	75 yosh	Kam emas
Psixotrop moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq holda aholi o'rtasida ruhiy zo'riqish va og'ishlarning tarqalganligi	10000 kishiga 500 kishi	Ko'p emas
Aholi o'rtasida psixologik patalogiyalarning tarqalganligi	10000 kishiga 500 kishi	Ko'p emas
Mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi o'rtasida o'lim koeffitsiyenti	Mehnatga qobiliyatli 1000 kishiga 3,0 kishi	Ko'p emas
Aholi o'rtasida bolalar o'limi koeffitsiyenti	1000 tug'ilgan chaqaloqqa 5,0 kishi	Ko'p emas
Tashqi sabablar hisobiga aholining o'limi	10000 kishiga 50 kishi	Ko'p emas
Uy-joyga ega bo'la olish	3,0 yil	Ko'p emas
Uy-joy fondining yaxshilanganlik darajasi	90%	Kam emas

Turmush darajasini baholashda umumiy axborot xususiyatiga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlardan ham foydalaniladi. Bugungi kunda ko‘rsatkichlar aholi turmush darajasi va sifatini xalqaro miqyosda taqqoslash uchun foydalaniladi. Bugungi kunda aholining hayot darajasi va sifatini baholash usullarining butun bir to‘plami ishlab chiqilgan bo‘lib, ular tarkibiga inson salohiyati indeksi; dunyo mamlakatlarining farovonlik indeksi; aholining baxt darajasi; butun dunyo baxt indeksi kabilar muhim o‘rin tutadi.

#### **8.4-§. Qashshoqlik chegarasi va darajasi, aholi daromadlarining tabaqalanishini o‘rganish usullari**

Bugungi kunda BMT tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag‘allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko‘maklashish bilan bog‘liq masalalar hal qilinmoqda. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2000- va 2015-yilda qabul qilingan Ming yillik taraqqiyot dasturi hamda 2030-yilgacha mo‘ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi bevosita dunyo mamlakatlari aholisini iqtisodiy-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda aholining salomatligini asrashga qaratilgan muhim ishlar sirasiga kiradi.

Ehtiyojlarni qondirish darajasiga ko‘ra, turmush darajasini 4 guruhgaga bo‘lish mumkin:

To‘q turmush darajasi – insonning jismoniy va aqliy kuch-quvvatini to‘la tiklash uchun qulay sharoitlarni ta’minlaydigan ne’matlardan foydalanish; normal daraja – insonning jismoniy va aqliy kuch-quvvatini to‘la tiklash uchun qulay sharoitlarni ta’minlaydigan ilmiy asoslangan me’yorlar bo‘yicha oqilona foydalanish; kambag‘allik – mehnat uchun resurslarni qayta yaratishning quyi chegarasi sifatidagi ish qobiliyatini saqlash darajasida ne’matlarni iste’mol qilish; qashshoqlik – foydalanishi insonning yashash qobiliyatini saqlash imkoniyatinigina beradigan ne’matlar va xizmatlarning biologik mezonlar bo‘yicha yo‘l qo‘yladigan minimal turlarini iste’mol qilish.

Aholi turmush darajasini barchamiz aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar miqdori va iste’mol hajmi miqdorining ortishi yoki kamayishi bilan baholanadi. Aholi turmush darajasi uning sifat ko‘rsatkichlari ancha keng tushuncha hisoblanadi. Turmush darajasi konsepsiyalari aholining turmush darajasi sifatini har tomonlama tavsiflab beradigan yagona ko‘rsatkichga keltirish bo‘yicha samarali usuli mavjud emas.

BMTning xalqaro statistika sohasidagi turmush darajasi ko‘rsatkichlari tizimining oxirgi tahriri 1978-yilda ishlab



chiqilgan va ushbu tizim 12 ta asosiy ko'rsatkich guruhini o'z ichiga oladi. BMT tavsiyasiga ko'ra, tug'ilish, o'lim, umr ko'rish davomiyligi, uy-joy hamda sanitar-gigiyenik va mehnat sharoitlari, oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol

darajasi, bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlар muvozanati, iste'mol narxlari, transport vositalari bilan ta'minlanganligi, ta'lim, dam olish va hordiq chiqarish imkoniyatlari va ijtimoiy ta'minot tizimining mavjudligi, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanganligi kabilar turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichlarning hammasini ham qiymat ko'rinishida baholash imkoni mavjud emas. Turmush darajasini ushbu ko'rsatkichlarning ayrim parametrlaridan bir nechtasini qamrab olgan holda baholash mumkin. Ushbu ko'rsatkichlardan eng asosiysi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar hajmi bo'lib, u mamlakat aholisi turmush darajasini baholash bilan birga xalqaro taqqoslamalarda ham foydalanish imkonini beradigan ko'rsatkich hisoblanadi. Shu bilan birga, amaliyotda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, inson taraqqiyoti indeksi, shuningdek, aholining muayyan guruhlari (kvintel, detsil guruhlari) bo'yicha tabaqlanish koeffitsiyentlari kabi ko'rsatkichlardan ham tez-tez foydalaniladi. Aholi turmush darajasining yaxshilanishi bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining samaradorligi, ilmiy-texnik taraqqiyot, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, hukumat tomonidan qabul qilinadigan hamda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va harakatlar natijasiga bog'liqdir.

Davlat statistika qo'mitasi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlar hamda ularning natijalari to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishslash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil etish va e'lon qilish vazifalarini bajaradi. Qonunga ko'ra, qo'mita iqtisodiyotda va jamiyatda sodir bo'layotgan hodisalar hamda jarayonlar to'g'risidagi, jumladan, aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlar yig'ishda yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda statistik hisobot shakllari yoki turli kuzatuvlari orqali ma'lumotlarni olish huquqiga ega. Yillik statistika ishlari dasturiga muvofiq, qo'mita tomonidan tegishli vazirlik va idoralar ma'lumotlari hamda uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlama kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan aholi turmush darajasini aks ettiruvchi aholi umumiy va jon boshiga daromadlari, xarajatlari, ta'lim darajasi, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish, oziqovqat mahsulotlari iste'moli, uzoq muddat foydalaniladigan

buyumlar bilan ta'minlanganligi, shuningdek, uy-joy sharoitlari kabi bir qancha ko'rsatkichlar shakllantirib boriladi.

Uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlama kuzatuvlar respublikamizning barcha hududlarini qamrab olgan holda yiliga jami 10 000 ta uy xo'jaligida o'tkaziladi. Bunda 120 dan ortiq mutaxassis (intervyuer) tomonidan bevosita uy xo'jaligi a'zolari bilan suhbatlashish orqali ma'lumotlar olinadi.

Uy xo'jaliklari ixtiyorida mavjud bo'lgan hamda tovar va xizmatlar xarid qilishga qodirligini belgilovchi iqtisodiy resurslar majmuini ifodalovchi uy xo'jaliklarining iqtisodiy farovonligi, ya'ni daromadlari aholi turmush sifatining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bu resurslarga joriy va kapital tushumlar, xususan, asosiy fondlar va qarzga oid bo'lgan majburiyatlar balansi kiradi. Iqtisodiy farovonlik darajasining tahlili uy xo'jaliklarining iqtisodiy resurslarga egalik qilish darajasini, ularni iste'mol qilishga yoki jamg'arishga, shuningdek, ulardan birini tanlashga qodirligini aniqlashga imkon beradi. Uy xo'jaliklarining iste'mol qilishga qodirligini aniqlash mezoni sifatida foydalaniladigan muhim indikator – umumiyl daromadlar (joriy tushumlar) hisoblanadi, chunki ular iste'mol qilish yoki jamg'arish imkoniyatini oshirishni ko'proq ta'minlaydi.

Aholining umumiyl daromadlari – majburiy to'lovlar va boshqa ajratmalarni amalga oshirgunga qadar bo'lgan qismi aholining yalpi daromadini tashkil etadi. Aholining yalpi daromadiga pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar kiradi hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi. Aholi turmush darajasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlarini aholi pul daromadlari va xarajatlari, uning tarkibi va foydalanishi, daromad bo'yicha aholini taqsimlash kabi ko'rsatkichlar tavsiflaydi. Aholi pul daromadlari barcha toifalardagi aholining mehnati evaziga olgan ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlari, pensiya, nafaqa, stipendiya, kapital qo'yilmalar bo'yicha foiz shaklida olinadigan daromadlar, renta, ko'chmas mulkni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva mollarini sotishdan tushumlar, turli xizmatlarni ko'rsatishdan olingan daromadlar va boshqalardan iborat.

Xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, umumiyl daromad birlamchi daromad va transfertlardan olingan daromadlariga bo'linadi, bu, o'z navbatida, bandlik holati yoki ijtimoiy ta'minot tizimiga bog'liq holda institutsional o'zgarishlarning ta'sirini kuzatish imkonini beradi.

Birlamchi daromadlar ishlab chiqarishdan olingan daromadlar (mehnat faoliyatidan olingan daromad va shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlar) va mol-mulkdan olingan daromadlarni o'z ichiga oladi.

Daromadlarning tabaqalanish darajasi hayot sifatining muhim xususiyati bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichning dinamikasi ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish sur‘atlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu tabaqalanishning yuqori darajasi va o‘sib borayotgan tendensiyasi aholi qatlamlarining daromadlar darajasi bo‘yicha keskin tabaqalanishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka jiddiy tahdid solishi mumkin. Boshqa shart-sharoitlarni hisobga olmaganda, aholi daromadlari tabaqalanishi, qashshoqlilikning o‘sishiga olib keladi, natijada ichki iste’mol talabining qisqarishi hisobiga iqtisodiy o‘sishning pasayishi yuz beradi. Qashshoqlilikning yuqori darajasi barqaror iqtisodiy rivojlanishning tobora muhim shartlaridan biriga aylanib borayotgan inson kapitalining o‘sishiga ham to‘sqinlik qiladi.

Qashshoqlik yangi tushuncha emas, ko‘p jihatdan bu iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning natijasidir, bu bir tomondan farovonlikni oshirish imkoniyatlarini yaxshilasada, boshqa bir tomondan esa ijtimoiy jihatdan nochor insonlarning yanada qashshoqlashuviga, ularning hayotiy ne’matlardan to‘la-to‘kis foydalana olmasliklariga olib keladi.

Qashshoqlik kategoriyasini baholash ikkita konsepsiya doirasida amalga oshiriladi:

- mahrum qilish uchun - kundalik hayotda ma’lum tovarlardan foydalanish imkoniyati cheklanganlar (kam ta’minlanganlar);
- daromadlar bo‘yicha – daromadlari darajasi bo‘yicha kambag‘al deb ataluvchi insonlar yoki mavjud iste’mol me’yorlariga rioya qila olmaydigan odamlar, ularning o‘rtacha jon boshiga daromadi mintaqa darajasidan ancha past.

Qashshoqlik kategoriyasini baholashda —subyektiv qashshoqlik|| degan tushunchadan foydalaniladi, unda inson moddiy ahvoldan kelib chiqqan holda o‘z holatiga baho beradi. Ushbu konsepsiya bilan ishlashda qashshoqlik ma’lum darajada psixologik tushuncha ekanligini hisobga olish kerak. Bir kishi uchun yaxshi daromad, boshqasi uchun yetarli bo‘lmasligi va bunda inson o‘zini qashshoq sifatida his etishi mumkin. Bundan tashqari, vaqt o‘tishi bilan odamda boylik va farovonlik darajasi to‘g‘risidagi qarashlar o‘zgarishga uchrab boradi. Bu yerda ijtimoiy-madaniy omillar katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan hisoblangan kambag‘allikning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- qashshoqlik chegarasi sifatida qonun bilan belgilangan minimal ish haqi;
- aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromadlari tirikchilik darajasidan past bo‘lgan odamlar soni;
- kam ta’minlanganlarning jon boshiga o‘rtacha daromadlari;
- kam ta’minlanganlarning jon boshiga o‘rtacha daromadlari va yashash xarajatlarining nisbati.

Aholi butun mamlakat bo‘ylab bir tekis taqsimlanmaganligi sababli, ulushli ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ulush koeffitsiyenti sifatida umumiy aholi sonida biror-bir tanlab olingan hudud aholisining nisbatini olish mumkin

Daromadlar bo‘yicha hududlararo rivojlanish darajasini baholash ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

1. Mintaqada aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha nominal YAHM ( $Y_{ni}$  ).
2. Mintaqada aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi nominal daromadlar ( $I_{ni}$  ).
3. Mintaqada aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi nominal daromadlar - ( $I_{ri}$  ).

Ushbu ko‘rsatkichni baholash uchun deflyator - mintaqada yashashning nisbiy qiymati indeksi (HQI) kiritiladi.

$$L_{ri} = \frac{NPT_i Y_i}{NPT_i Y_{rf}}$$

bu yerda,  $NPT_i Y_i$  – bu belgilangan iste’mol tovarlari to‘plamining qiymati va i-mintaqadagi belgilangan iste’mol tovar va xizmatlarining to‘plami;  $NPT_i Y_{rf}$  – mamlakatdagi iste’mol tovarlari va xizmatlari belgilangan to‘plamining o‘rtacha narxi.

4. Mintaqaning ijtimoiy farovonlik indeksi (III) – mintaqqa ichidagi Djini koeffitsiyentiga nisbatan mintaqada real daromadlar darajasining mahalliylashtirish indeksi sifatida hisoblab topiladi.

$$W_i = \frac{I_{ri}/\bar{I}_{ri}}{G_i/\bar{G}_i}$$

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy nashrlarida daromadlarni tabaqlashtirish darajasini baholash uchun asosan ikkita ko‘rsatkichdan foydalaniladi: Jini indeksi (koeffitsiyent) va fondlar koeffitsiyenti.

#### 8.4-jadval

#### **Aholi daromadlari darajasi va ularning tabaqlanishini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarning chegaraviy qiymatlari**

Indikatorlar	Chegaraviy qiymat	Izoh
Aholining umumiy sonida yashash minimumidan past daromadga ega bo‘lgan aholi ulushi	7%	Ko‘p emas
Aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromad darajasining yashash minimumiga nisbati	5-6 barobar	Kam emas
10 foiz eng yuqori daromadga ega bo‘lganlar daromadlarining 10 foiz eng past daromadga ega bo‘lganlar daromadiga nisbati (fondlar koeffitsiyenti)	6-12 barobar	Keltiril gan qiymatlar doirasida

Iqtisodiy tanazzul sharoitida qashshoqlikning o'sishi real daromadlarning kamayishi oqibatida kelib chiqsada, daromadlar tabaqalanishining kuchayishi avval o'rtacha daromadga ega insonlarning qashshoqlik holatiga tushib qolishlariga zamin yaratib beradi. Qashshoqlik iqtisodiy, madaniy va psixologik ildizlarga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisadir, uning xususiyatlari mamlakat rivojlanishining tarixiy sharoitlari bilan ham bog'liqdir.

O'zbekistonda kambag'allikning tez sur'atlar bilan o'sishi, birinchi navbatda, aholini ijtimoiy himoya qilishning samarasiz tizimi sharoitida, XX asr oxiridagi tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida bandlikning qisqarishi, ishsizlikning paydo bo'lishi va mehnat daromadlarining keskin kamayishi bilan bog'liq.

Qashshoqlik, ayniqsa, iqtisodiyotning davlat sektorida, qishloq joylarda va kichik shaharlarda, ko'p bolali va to'liq bo'lman oilalarda band bo'lgan fuqarolarga xosdir. Kambag'allik nafaqat iste'mol qilinadigan iste'molning past darjasи, balki umuman past darajadagi mulk, ayniqsa, uy-joy, odamlarning ta'minoti bilan bog'liqdir. Kambag'allik darajasiga nafaqat obyektiv omillar, balki subyektiv omillar ham ta'sir ko'rsatmoqda: sog'liqning yomonligi, ma'lumotning yetishmasligi, mehnat bozorida raqobatbardoshlikning pastligi, oilaviy hayotning past sifati, ijtimoiy patologiyalar va boshqalar.

Prezidentning tashabbusi bilan «Saxovat va ko'mak» jamg'armasi tashkil etildi. 2020-yilning 10-iyun holatiga —Mahalla fondining —Saxovat va ko'mak jamg'armasi maxsus hisob raqamiga respublika bo'yicha jami 194,6 mlrd. so'm (15,2 mln. funt) xayriya mablag'lari kelib tushdi. Shu kunga qadar esa, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari va hokimliklarning qarorlari bilan 300 383 ta oilaga 118,99 mlrd. so'm moddiy yordamlar ko'rsatildi. 67 300 ta oilaga 71,1 mlrd. so'm miqdorida naqd pul ko'rinishda (o'rtacha har bir oilaga 100 doll.dan ko'proq) mablag'lar berildi<sup>1</sup>.

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga mas'ul idoralar tomonidan joriy yilda moliyaviy yordam va ko'makka muhtojlar ro'yxati, ya'ni —temir daftari tuzildi. Jami mazkur ro'yxatlarga 1,7 milliondan ortiq a'zosi bo'lgan 400 mingdan ko'proq oila kiritildi. Ushbu oilalarga bir martalik ko'mak berish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Koronavirus pandemiyasi davrida yordam va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini moddiy qo'llabquvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2020yil 30-iyuldaggi PF-6038-sonli Farmoni bilan respublika byudjetidan 380 milliard so'm

---

<sup>1</sup> Tulyakov E. COVID-19: O'ZBEKISTON TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN CHORALAR // <https://strategy.uz/index.php?news=1013>

mablag‘ ajratildi. Moddiy ko‘mak miqdori har bir oila a’zosi uchun 220 ming so‘m miqdorida etib belgilandi.

2020-yilning yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, aholining umumiy daromadlari 401,5 trln. so‘mni tashkil etdi. Aholi daromadlari bo‘yicha real o‘sish sur‘atlarini hisoblashda narx omillari ta’sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflatsiya ko‘rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste’mol narxlari indeksidan (INI) foydalaniladi. Iste’mol narxlарining o‘zgarishi sababli o‘tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o‘sish sur‘ati 102,6 % ni tashkil etdi. 2020yilning yanvar-dekabr oylarida aholi umumiy daromadlarining 74,5 % ini birlamchi daromadlar tashkil qilgan bo‘lsa, 25,5 % i transfertlardan olingan daromadlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida aholi umumiy daromadlarining katta qismi yollanma ishchilarining daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarni o‘z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlardan (jami aholi umumiy daromadlarining 69,3 % i) shakllandi. Aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi 2,2 %, mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 3,0 %, transfertlardan olingan daromadlar ulushi 25,5 % ni tashkil qildi.

2020-yilning yanvar-dekabr oylari ma’lumotlariga ko‘ra, transfertlardan olingan daromadlarning 2019-yilning mos davriga nisbatan nominal o‘sish sur‘ati 117,6 % ni tashkil etdi. aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlardan olingan daromadlarning ulushi 25,5 % ni tashkil etdi. Kuzatilayotgan davrda ijtimoiy transfertlarning o‘sish sur‘ati 123,2 % ni tashkil etdi va bunga ijtimoiy transfertlar tarkibida 81,5 % ulushga ega bo‘lgan pensiyalar asosiy ta’sir ko‘rsatdi. 2019-yilning mos davri bilan taqqoslaganda pensiyalarning o‘sish sur‘atlari 121,3 % ni tashkil etdi. O‘tgan davr mobaynida pensiya, nafaqa va stipendiyalarning o‘zgarishi aholi umumiy daromadlarining 2,3 % ga o‘sish imkonini berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida — **Birinchidan**, kambag‘allikni qisqartirish borasida kompleks yondashuv va nostandard usullarni joriy etamiz. Bir haqiqatni aniq tushunib olishimiz kerak – kambag‘allik masalasi kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish bilan o‘z-o‘zidan hal bo‘lib qolmaydi. Buning uchun ta’lim, sog‘liqni saqlash, kasb-hunarga o‘qitish, ichimlik suv, energiya va yo‘l infratuzilmasi bilan bog‘liq kompleks muammolarni hal etib borish kerak<sup>1</sup>,-deb ta’kidladi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 85-maqсад: Mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish belgilangan. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

-kambag‘allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to‘liq foydalanish imkoniyatini yaratish;

-ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasbhunarga o‘qitish. Ish bilan band bo‘lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalg qilish va o‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishda mahalliy darajada (mahallabayl tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo‘lga qo‘yish;

-hududlar, shaharlar va tumanlar kesimida kambag‘al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarni yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish, kambag‘allikning qayta tiklanish xavfini bartaraf etish. Hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish.;

-ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha ehtiyojmand aholining kamida 85 foizini ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va aholi qatlamlariga, shuningdek, vaqtinchalik og‘ir sharoitga tushib qolgan fuqarolarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat ijtimoiy yordamini ko‘rsatish.

Kambag‘allikni va ishsizlikni qisqartirish orqali shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- davlat boshqaruvi va hokimiysi organlarining kundalik faoliyati inson huquq va erkinliklari ustuvorligiga oid konstitutsiyaviy tamoyillarni ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi lozim;
- kambag‘al oilalarning tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va yuritishlarini qo‘llab-quvvatlash;
- ish bilan bandlikning an‘anaviy shakllari bilan bir qatorda vaqtinchalik, mavsumiy, masofadan turib ishslash, kasanachilik kabi ish bilan bandlik shakllarini qo‘llab-quvvatlash; □ yangi ish o‘rinlarini yaratgan korxonalarini rag‘batlantirish mexanizmini shakllantirish;
- har bir korxonada yoshlar hamda kambag‘al oilal a’zolari uchun zaxira ish o‘rinlarini vujudga keltirishga va ularni ish bilan ta’minlashga rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- oliy va o‘rta maxsus ta’lim yurtlarida kambag‘al oilalar farzandlari uchun grant joylari ajratish;

- yoshlarni, ishsizlarni va xorijdan qaytib kelgan mehnat migrantlarini kasb-hunarga tayyorlash kurslari yoki markazlarini tashkil etish;
- ishga muhtoj kishilarni ishni faol qidirishga rag‘batlantirish, undash va uzoq vaqt ish qidirmayotgan kishilarga ishsizlik nafaqasini va moddiy yordam miqdorini kamaytirish kabi choralarni amalga oshirish.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Demografik sohada iqtisodiy xavfsizlikning asosiy tahdidlarini tasniflab bering.
2. Demografik xavfsizlik indikatorlari tizimini ishlab chiqing.
3. Ijtimoiy sohadagi iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni baholang.
4. Aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilashga to‘sinqinlik qiluvchi asosiy muammolarni sanab o‘ting.
5. Aholi turmush darajasi va sifatini tavsiflovchi asosiy integral ko‘rsatkichlar qaysilar.
6. Aholi daromadlarining tabaqalanishi, kambag‘allik va qashshoqlik chegaralari to‘g‘risida tushuncha bering.
7. Ijtimoiy-demografik sohada iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etish borasida qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb, o‘ylaysiz.

### **9-mavzu XO‘JALIK FAOLIYATINING PUL-MOLIYA SOHASIDAGI IQTISODIY XAVFSIZLIK**

#### **Reja**

**9.1-§. Moliya muassasalarining iqtisodiy manfaatlari. Moliyaviy oqimlarga tahdidlar**

**9.2-§. Pul muomalasi sohasidagi iqtisodiy tahdidlar**

**9.3-§. Moliya, pul-kredit tizimida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash dastaklari**

#### **9.1-§. Moliya muassasalarining iqtisodiy manfaatlari. Moliyaviy oqimlarga tahdidlar**

Moliya – bu turli darajada markazlashgan pul fondlari vositasida iqtisodiyot subyektlari pul daromadlarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo‘yicha vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir. Boshqacha qilib aytganda, moliya iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag‘laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tizimi bo‘lib, uning vositasida turli darajada pul fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.

Davlat, korxonalar va uy xo‘jaliklari moliyaviy munosabatlar subyektari pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar obyekti hisoblanadi.

Moliyaning boshqa pul munosabatlaridan farqlab turuvchi belgilari bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

1. Iqtisodiy munosabatlar pulning harakati bilan tavsiflanishi.
2. Moliya munosabatlarining taqsimlovchilik tavsifga egaligi.
3. Moliya munosabatlarning fond tavsifga (YaIM taqsimoti pul fondlari orqali amalga oshiriladi) ega bo‘lishi.

Moliya moliyaviy resurslarni jalg qilish, nazorat qilish, rag‘batlantirish va taqsimlash vazifalarini bajaradi.

1. Moliyaviy resurslarni jalg qilish vazifasi shundan ko‘rinadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o‘z vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni markazlashgan tartibda to‘planishiga harakat qiladi.

2. Davlat moliyaviy dastak va vositalar yordamida ishlab chiqarish, iqtisodiyotda yaratilgan mahsulotni taqsimlash, ayriboshlash va iste’mol ustidan nazorat o‘rnatadi.

3. Moliyaning taqsimlash vazifasi milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta’minlashda namoyon bo‘ladi. Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida tijorat hisobi asosida faoliyat yurituvchi moliyaviy muassasalar tizimi shakllanadi. Ular jumlasiga banklar, birjalar, sug‘urta kompaniyalari, investitsion fondlar va boshqa iqtisodiy-moliyaviy muassasalar kiradi. Moliya iqtisodiy siyosatning va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning dasturiga aylanadi. Shu boisdan moliya sohasini mustahkamlash quyidagi vazifalarda o‘z ifodasini topgan:

- umum davlat ustuvorliklaridan kelib chiqib, moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash samaradorligini oshirish;
- hisob-kitob intizomini mustahkamlash va soliq tizimini takomillashtirish, soliqlar sonini kamaytirib, uning yig‘ilishini oshirish;
- pul massasidan foydalanish ustidan nazorat qilishning samarali mexanizmini yaratish;
- bank tizimining ishonchli amal qilishini ta’minlash.



Moliya tizimining boshqa bo‘limmalaridan farqli o‘laroq, davlat byudjetida ikki tushunchaning terminologik qo‘silishi mavjud: 1) byudjet – iqtisodiy (molivaviy) kategoriya sifatida; 2) byudjet –

mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida. Davlat byudjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida daromadlar va xarajatlarning tenglashtirilgan ko‘rinishidagi yozuvdan iborat. Agarda, byudjet daromadlari hajmi uning xarajatlari hajmidan yuqori bo‘lsa, bunda byudjetda ijobiy qoldiq (profitsit) yuzaga keladi. Davlat byudjeti xarajatlarining hajmi uning daromadlaridan yuqori bo‘lsa, bunda salbiy qoldiq – taqchillik mavjud bo‘ladi.

Byudjet taqchilligini kelib chiqish sabablari ma’lum sharoitlar ta’sirida yuzaga chiqadi va har bir davlat iqtisodiyoti uchun o‘ziga xos ko‘rinishda bo‘ladi. Umuman byudjet taqchilligi turli sabablarda kelib chiqishi mumkin. Masalan:

1. taqchillik davlatning iqtisodiyotni rivojlantirish zaruriyat qarzdorlik hajmini oshirishidan kelib chiqishi mumkin. Bu iqtisodiyotning inqirozli holatini bildirmaydi, balki davlatning iqtisodiy konyunkturani tartibga solish, jadal odimlashni ta’minlashga qaratilgan harakatidan kelib chiqadi;

2. taqchillik favqulorra holatlar natijasida kelib chiqishi mumkin (urushlar, tabiiy ofatlar). Bunday holatlarda odatdagи zaxiralar yetarli bo‘lmaydi va ortiqcha mablag‘lar manbasiga ehtiyoj tug‘iladi;

3. mamlakatda YaIM o‘sish darajasiga erishmasdan, markazlashgan uzoq muddatli investitsiyalarni, ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirishni keskin oshirish natijasida taqchillik yuzaga keladi;

4. taqchillik iqtisodiy inqiroz tufayli yuzaga keladi, bunda u iqtisodiyotdagi inqirozli holatlarni, iqtisodiyotning qulashini va hukumatni davlatdagи moliyaviy holatni nazorat ostida ushlay olmasligini aks ettiradi.

Bunday vaziyatlarda byudjet taqchilligi noiloj mavjud bo‘ladi. Ushbu holatda nafaqat iqtisodiy chora-tadbirlar, balki zaruriy siyosiy yechimni qabul qilish talab qilinadi.

Byudjet taqchilligining normal holati deb taxminan davlatdagи inflatsiya darajasiga teng taqchillikka aytildi. Xalqaro standartlarga ko‘ra byudjet taqchilligining mumkin bo‘lgan darjasasi YaIMning 2-3 % miqdoriga teng bo‘lishi kerak.

Davlat byudjeti taqchilligini mutlaq hajmini hisoblashda quyidagi:

$$T=D-X$$

tenglamadan foydalanish lozim. Ammo, bu tenglama byudjet taqchilligining hajmini to‘la aks ettira olmaydi. Shuning uchun byudjet taqchilligini hisoblashda xalqaro tajribadan kelib chiqib byudjetning umumiyligi taqchilligini quyidagicha aniqlash lozim:

$$\Delta T = \Delta BT + \Delta NbS + \Delta Xt + Tm$$

Bunda,  $\Delta T$  – davlat boshqaruv sohasining umumiyligi taqchilligi;

□BT – bank tizimi tomonidan davlat boshqaruv sohasiga bo‘lgan sof moliyaviy talabning o‘zgarishi;

□NbS – nobank sohalar va uy xo‘jaliklarning davlat boshqaruv sohasiga bo‘lgan sof moliyaviy talabning o‘zgarishi;

□Xt – davlat mulkini xususiyashtirish tushumlaridan foydalanish;

Tm – davlat boshqaruv sohasini tashqi moliyalashtirish.

Ushbu tenglama orqali davlat xarajatlarini moliyalashtirishda foydalangan moliyaviy mablag‘larning yig‘indisini topish mumkin. Bu esa, taqchillikning haqiqiy hajmini ko‘rish imkoniyatini beradi.

Davlat byudjeti taqchilligini boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash zarur. Uning holatini tahlil etishda, byudjet taqchilligi YaIMga nisbatan foiz hisobi o‘rganiladi va quyidagicha ifodalaniladi:

$$D \square X \\ T \square \frac{X}{YaIM} \times 100\%$$

Bunda, YaIM – byudjet taqchilligi hisoblanayotgan yildagi yalpi ichki mahsulotning hajmi. Odatda, byudjet taqchilligining mumkin bo‘lgan darajasi YaIMning 2-3 % miqdoriga teng bo‘lishi kerak deb belgilangan.

Byudjet taqchilligini kamaytirish uchun daromad qismi yetarli bo‘lmasa xarajatlarni kamaytirish to‘g‘ri bo‘lib ko‘rinadi. Biroq, real hayotda byudjetning xarajatlar qismini kamaytirish juda mushkul, ayrim hollarda umuman mumkin emas. Masalan: iqtisodiy nuqtayi nazardan sug‘urta, kapital amortizatsiya xarajatlarini; siyosiy nuqtayi nazardan esa ijtimoiy himoyani, mudofaa xarajatlarini kamaytirish mumkin emas. Xarajatlarning juda kam qismigina shu yili qabul qilingan qarorga bog‘liq bo‘ladi. Katta qismi esa avvaldan dasturga kiritilgan va tasdiqlangan xarajatlardan iborat, masalan, nogironlarga, urush qatnashchilariga yordam mablag‘lari va boshqa xarajatlar.

Taqchillikning miqdorini aniqlash bilan birga, uning iqtisodiy mohiyatini har tomonlama o‘rganish zarur. Chunki, byudjetda bunday vaziyatning yuzaga kelishi me’yoriy holat hisoblanmaydi, ammo uni yengib o‘tish yoki ma’lum chegarada ushlab turish mumkin, chunki ideal holatdagi – tenglashtirilgan byudjet, dunyo mamlakatlari tajribasida juda kam uchraydi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jamiyat rivojining ma’lum bosqichlarida mamlakatning xususiyatlarini inobatga olib byudjet taqchilligiga yo‘l qo‘yiladi.

Mamlakatda byudjet siyosati qisqa davrga mo‘ljallanganligi uni ma’lum bir muddat bilan chegaralanib qolishiga olib keladi. Bu iqtisodiyotga uzoq muddatli istiqbolli strategik rejorashtirishni va unga mos ravishda istiqbolli investitsiyalashni cheklab qo‘yadi. Natijada mavjud moliya tizimi o‘zini tugallanmaganligi va real

iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga investitsiyalarni kirib kelishini ta'minlay olmay, uning rivojlanishiga to'siq bo'ladi va kapitalni chetga chiqib ketishiga omil yaratadi.

Banklarning samarali faoliyat yuritishining muhim shartlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:



biznes aloqalarini mustahkamlash manfaatiga mos keladi;

- bank omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini himoya qilish. Bunda, albatta, majburiy normativlar va tartibqoidalarga qat'iy rioya qilinishi lozim bo'ladi;
- iqtisodiy xavfsizlik talablariga rioya qilish.

Kapitalni chetga chiqib ketishi milliy iqtisodiyotga katta tahidlardan biri uning asosiy sabablari:

- mamlakatdagi nosog'lom iqtisodiy va siyosiy muhit;
- tavakkalchiliksiz investitsiya qilishning shart-sharoitlarining yo'qligi;
- inflatsiyaning yuqori darajasi. Yuqori inflatsiya darajasi kapitalni qadrsizlanishiga olib kelib, uni milliy iqtisodiyotga investitsiya qilishga to'sqinlik qiladi;
- yetarli darajada valyuta va eksport darajasini mavjud emasligi;
- mamlakatda yuqori darajada soliqqa tortish tizimining mavjudligi;
- boshqa mamlakatlarda kapitalni legallashtirish imkonlarini mavjudligi;
- xususiy tadbirkorlikni yuritishdagi muammolar; bojxona organlari tizimidagi muammolar.

Kapitalni chetga chiqib ketishining asosiy shakllari:

- tashqi savdodagi tovarlar va xizmatlar qiymati hajmi ko'rsatkichlarini falsifikatsiya qilish;

- tovar va xizmatlar eksportida yetarli darajada eksport qilmaslik va uning bahosini hisob raqamlarda ko'rsatilgan narxlardan farq qilishi.

Bu o'rinda ofshor biznesning roli yuqori bo'lib hisoblanadi. Ofshor biznes bu ushbu mamlakatda tijorat faoliyatini qonuniy asosda olib borishga ruxsati bo'lgan yuridik va jismoniy norezidentlar bo'lib, ular ushbu hududda kompaniyasini ro'yxatga olishda, valyuta, soliq va ma'murchilikda katta imtiyozlarga ega bo'ladi.

Mamlakatdan kapitalning qochishiga valyutaviy tartibga solishdagi tartibbuzarliklar ham sabab bo'ladi. Ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- ruxsat etilgan banklarni chetlab, rezidentlar va norezidentlar o'rtasida hisob-kitoblar qilish, xorijiy valyuta sotish va sotib olish bo'yicha valyuta operatsiyalarini amalga oshirishdagi qonunbuzarliklar;
- markaziy bankning litsenziyasiz valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha tartib va qonunbuzarliklar;
- moliyaviy kreditlar olish va berish, eksport-import operatsiyalari bo'yicha to'lov muddatlarini cho'zish bilan bog'liq qonunbuzarliklar;
- rezident va norezidentlar o'rtasidagi valyuta operatsiyalarini to'liq va obyektiv hisobga olishning yo'lga qo'yilmaganligi bilan bog'liq qonunbuzarliklar.

Mamlakatda kapital qochishining oldini olish va moliyaviy muhitni sog'lomlashtirish uchun quyidagi tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash, investitsiyalarni iqtisodiyotga jalg etishni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish orqali investitsion jozibadorlikni yuksaltirish. Oqibatda, kapitalni chetga chiqarish kamayib, xorijdagi vatandoshlarimiz hisobidagi mablag'larning yurtimizga qaytish jarayoni yuz beradi;
- aholining banklarga ishonchini tiklash va mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- milliy valyutadagi jamg'armalarning ko'payishi hamda ularni investitsiyalarga aylanishini rag'batlantirish tizimini yaratish;
- moliyaviy oqimlarni bojxona, valyuta, bank nazoratining shakl va vositalari, usullarini takomillashtirish;
- kapitalning eksport va importini tartibga solishning huquqiy-me'yoriy bazasini takomillashtirish va kengaytirish.

## **9.2-§. Pul muomalasi sohasidagi iqtisodiy tahdidlar**

Iqtisodiy lug'atda, «moliyaviy xavfsizlik» tushunchasi mamlakat, hudud molija tizimlarining, moliyaviy inqiroz, defolt, moliyaviy oqimlar harakatining buzilishi,

iqtisodiy faoliyatning asosiy ishtirokchilarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdagi uzelishlar, pul muomalasi barqarorligini buzilishining yuzaga kelishini oldini olish imkonini beradigan barqaror, ishonchli faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlarni yaratish sifatida talqin etilgan. Moliyaviy xavfsizlik o'z ichiga, makrodarajada mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan hamda mikrodarajada xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar, usul va mablag'lar to'plamini oladi.

Makrodarajada moliyaviy xavfsizlikni, tinchlik va favqulodda vaziyatlar sharoitida davlatning ichki va tashqi salbiy moliyaviy ta'sirlar hamda davlatning iqtisodiy va harbiy xavfsizlik darajasini yetarli miqdorda qo'llabquvvatlash uchun mamlakatning iqtisodiy talablarini zamonaviy va mukammal moliyaviy ta'minlash qobiliyati sifatida ko'rish mumkin.

Moliyaviy xavfsizlik, mamlakat va uning alohida olingan fuqarolarini milliy g'oya va milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan davlatning mustaqil moliyaviy siyosatini olib borish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash – davlatning moliya sohasi barqarorligiga tahdid soluvchi tavakkalchiliklarni, milliy qadriyat va manfaatlarni himoya qilishni ko'zda tutgan holda, boshqarish faoliyatidir. Zamonaviy sharoitda, moliyaviy xavfsizlik muammosini tahlil qilishda, moliyaviy sohada milliy manfaatlar tushunchasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:



mamlakatning moliya-kredit tizimini muvaffaqiyatli olib borishda qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish;

- davlat moliya nazoratining samarali tizimini yaratish;
- davlat xarajatlari va byudjet resurslarini mutanosibligini ta'minlash;
- maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirishni optimallashtirish;
- ilmiy va yuqori texnologik sohalarni maqsadli investitsiyalash;
- bozorda erkin raqobatni ta'minlash uchun yetarli sharoit yaratish;
- milliy iqtisodiyotga jahon inqirozlari ta'siri darajasini pasaytirish;
- inflatsiya darajasini pasaytirish va milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;
- kapitalni chetga noqonuniy olib chiqishiga qarshi choralar ko'rish;

- iqtisodiyotning real sektoriga uzoq muddatli investitsiyalarni jalg qilish va boshqalar.

Moliyaviy xavfsizlik strategiyasi – bu davlat va moliya tashkilotlarining, iqtisodiy hamda bank-moliya tuzilmalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligi va birligi, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda iqtisodiy o‘sishga qaratilgan siyosiy va iqtisodiy faoliyat yo‘nalishi bo‘lib hisoblanadi. Moliyaviy xavfsizlik strategiyasining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- qisqa va uzoq bozor davrlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning aniq sharoitlarida moliyaviy xavfsizlik strategiyasining maqsadlari va vazifalarini belgilash;

- tanlangan strategiyaning vosita va instrumentlari;

iqtisodiy o‘sishni qayta tiklashning moliyaviy shartsharoitlari hamda resurslarini shakllantirishning yo‘llari va yo‘nalishlari;

- moliyaviy xavfsizlik tahdidlariga qarshi vositalar va uning yo‘nalishlari.

Moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha tadbirlar:

- davlat qarzi va byudjet taqchilligining xavfsizlik chegaralarini aniqlash;

- pul-valyuta tavakkalchiliklarini sug‘urtalash;

- moliyaviy oqimlarning samaradorligi;

- O‘zbekiston

Respublikasi moliya tizimining xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan qonunlarni qabul qilish;

- iqtisodiy subyektlarning moliyaviy operatsiyalari ustidan nazorat o‘rnatish.

Moliyaviy xavfsizlik strategiyasining asosiy maqsadi - moliyaviy resurslar va oqimlar harakatini tor bo‘g‘inlardan real sektorni to‘la qoplaydigan keng tizimga o‘tkazish.

Respublika va mintaqaga miqyosida moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmini shakllantirish bo‘yicha joriy strategiyasining asosiy vazifasi quyidagi maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan:

- real sektoring moliya sohasini ichki xo‘jalik zaxiralari hisobiga jonlantirish;



moliya tizimining barcha bo‘g‘inlari: byudjet, soliq-kredit tizimini, fond bozorlari, sug‘urta tizimi, valyuta va boshqa tuzilmalarning mutanosib faoliyatini ta’minlash;

- ishlab chiqarishning investitsion salohiyatini shakllantirish va uni maqsadli ishlatilish va investitsion jarayonlarni jonlantirish;
- yangi texnik asosda kapitalni jamg‘arish va qoplash;
- kapitalni tarmoqlararo va tarmoq ichidagi raqobat mexanizmini shakllantirish;
- spekulyativ bank va savdo kapitalining sanoat kapitaliga nisbatan ustuvorliklarni bartaraf etish;
- iqtisodiyot bo‘yicha asosiy korxonalar o‘rtasidagi og‘ir moliyaviy qiyinchiliklarning asosiy omili bo‘lgan qarzdorlik inqirozini hal etish.

O‘z mohiyatiga ko‘ra moliyaviy xavfsizlikka tahdidlar ichki va tashqiga bo‘linadi. Moliyaviy tahidlarning mavjud bo‘lishining asosiy ichki omillarga quyidagilar kiradi:

- davlatning moliyaviy-iqtisodiy siyosatining samarasizligi;
- davlatning moliyaviy tizimida resurslarni boshqarishda iqtisodiy jinoyatchilik, moliyaviy resurslarni talon-toroj qilishlar va h.k. mavjudligi;

Tashqi moliyaviy tahidlarning mavjud bo‘lishining asosiy ichki omillarga quyidagilar kiradi:

- jahon moliyaviy bozorlarining globallashuvi va integratsiyalashuvi hamda transmilliy iqtisodiy aloqalarning shakllanishi;
- kapitalning asosiy qismini mobilligi va ularning markazlashganligi;
- jahon iqtisodiyotida transmilliy kompaniyalarning hukmronligi va ta’sirining kuchayishi;

zamonaviy axborot texnologiyalar asosida moliyaviy resurslar harakatini nazorat qilish imkoniyati;

- jahonda davlatlar o‘rtasida moliyaviy sohada raqobatning kuchayishi.

Pul muomalasi tovarlar va xizmatlar aylanmasiga vositachi sifatidagi pul harakatini ifodalaydi. Pul aylanmasi tovarlarni sotish hamda tovarlar harakatiga xizmat qiladi. Pul tizimining eng muhim komponentlari quyidagilda namoyon bo‘ladi:



- milliy pul birliklari bo‘lib, ularda tovar va xizmatlarning narxlari ifodalanadi;
- kredit va qog‘oz pullar, monetalar qonuniy to‘lov vositalari hisoblanadi;
- pul emissiyasi tizimi, ya’ni pulni muomalaga chiqarishning qonuniy o‘rnatilgan tartibi;
- pul muomalasini tartibga soluvchi davlat boshqaruvi organlari.

Pul muomalasidagi qonunbuzarlik, jinoiy, o‘g‘rilik holatlarining vujudga kelishiga quyidagilar qulay sharoit yaratadi:

- inflatsion jarayonlarning kuchayishi;
- daromadlarni deklaratsiya qilish tiziminining yetarli rivojlanmaganligi;
- xorijiy valyutalar muomalasining tartibga solinmaganligi;
- bank va moliyaviy muassasalar tomonidan pul mablag‘larini huquqiy himoya qilishning bo‘shlig‘i;
- hisob-kassa operatsiyalarining takomillashmagan hamda pul to‘lovleri muddatlarining atayin cho‘zib yuborilishi holatlari. O‘tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda nodavlat bank tizimi va fond birjalari, investitsion fondlarning rivojlanishi hamda davlat nazoratining yetarli darajada emasligi turli kriminogen omillarni vujudga keltiradi:
  - davlatning pul-kredit siyosatidagi ziddiyatlar, moliyaviy munosabatlarni tartibga solishdagi uzilish va kamchiliklar;
  - pul-kredit tuzilmalarini tashkil etish va ularni tugatishga bo‘lgan talablar hamda xo‘jalik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlari tartib-qoidalarining yetarli darajada takomillashmaganligi;
  - dastlabki bank kapitali manbaining qonuniyligini huquqiy jihatdan nazorat qilishning mavjud emasligi;
  - jinoiy yo‘llar bilan topilgan mablag‘larni legallashtirishga to‘sqinlik qiluvchi mexanizmning mavjud emasligi;
  - banklar o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarning takomillashmaganligi. Tovlamachilik, jinoiy harakatlarga sabab bo‘luvchi tashkiliy-xo‘jalik omillari va shart-sharoitlari ham mavjud bo‘lib, ularning ba’zilari quyidagilarda o‘z ifodasini topgan:
    - to‘lov hujjatlaridan foydalanadigan banklarni saqlash ustidan nazoratning yo‘qligi;

- banklarning soxta muhr, shtamp va hujjat nusxalarini kompyuter yordamida tayyorlash imkoniyatlarining mavjudligi;
- bankning mansabdar shaxslari tomonidan naqd pul berishni cheklovchi qoidalarning buzilishi, avizolarni oldindan tekshirmsandan tushgan mablag'larning imtiyozi konvertatsiya qilinishi;
- tijorat banklarining ayrim rahbarlari tomonidan noqonuniy operatsiyalarni yashirish, keyinchalik tushgan pul mablag'larini huquqiy shaxs maqomidagi mijozlarning hisob raqamlariga ko'chirish hollari;

Tijorat banklarining ayrim rahbarlari o'z hisoblariga to'lov hujjatlarining haqiqiy yoki soxtaligidan qat'i nazar katta miqdorda pul mablag'larining kelib tushishidan manfaatdor bo'ladilar. Chunki pul ko'chirganlik yoki uzatilganligi uchun ular katta miqdorda komission haq oladilar. Jinoiy xatti-harakatlarning oldini olish, ularga qarshi kurashish uchun maxsus xavfsizlik xizmatlarini tashkil etish hamda xavfsizlikni ta'minlashga katta e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

### **9.3-§. Moliya, pul-kredit tizimida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash dastaklari**

O'zbekiston Respublikasida pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi inflatsiyani past darajada ushlab turish va so'mni barqaror ayriboshlash kursini ta'minlashga qaratilgan. Bu vazifalar makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan umumiqtisodiy siyosat bilan uzviy bog'langan. Markaziy bank pul-kredit siyosatining vositalari sifatida ochiq bozorda qimmatli qog'ozlar operatsiyasi, ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar, qayta moliyalashtirish stavkasi va tijorat banklariga majburiy zaxira talablari vositalarini ishga solmoqda.

Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash bank xavfsizligini ta'minlashni talab etadi. Bank xavfsizligiga salbiy ta'sir etuvchi omillarga ustav kapitalida xorijiy kaital ulushi yuqori bo'lgan kredit korxonalarining ko'payishi, induvidal tadbirkorlar va yuridik shaxslarning kreditor qarzdorliklarini ko'payishi hamda kapital aktivlar rentabelligining pasayishi bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda Markaziy bankning tijorat banklarini nazorat qilish bilan bog'liq faoliyatining quyidagi asosiy yo'naliishlari qonun bilan mustahkamlandi:

- bank tizimining xavfsizligi, barqarorligi va samaradorligini ta'minlash;
- banklar faoliyatini litsenziyalash jarayonida bank sohasiga faqatgina ishonchli banklarning kirib kelishini ta'minlash;
- tijorat banklarining Markaziy bankka hisobot berish va nazorat jarayonida zarur ma'lumotlarni ochiq taqdim etishini yo'lga qo'yish;

- muammoli banklar faoliyatiga o‘z vaqtida ta’sir o‘tkazish va ularning muammolarini tezlik bilan hal etish;

- bank tizimida sog‘lom raqobat muhitini yaratish;
- zarur holatda, bank tizimiga minimal darajada salbiy ta’sir ko‘rsatgan holda alohida banklarni tugatish choralarini ko‘rish.

Respublikamizda bank nazorati uch uslubda – litsenziyalash, masofadan nazorat qilish va joylarga chiqib tekshirish orqali amalga oshiriladi. O‘zbekistonning valyuta siyosati quyidagilarga qaratilgan:

- mamlakatning valyuta – moliyaviy holatini mustahkamlash, uning to‘lov qobiliyatiga va kreditga layoqatligiga erishish;
- inflatsiyani «jilovlash»;
- chet el kapitalini jalb etish;
- iqtisodiyotning «dollarlashuvi»ga yo‘l qo‘ymaslik;
- o‘zbek so‘mining mavqYIni mustahkamlash va uning to‘liq konvertatsiyasiga erishish.

Bu siyosat valyutaviy cheklashlar, valyuta kursini tartibga solish, oltin-valyuta zaxiralarini oshirish, so‘mning konvertatsiyalanish jarayonlarini boshqarish kabilarda namoyon bo‘ladi. Moliya-kredit sohasida banklar xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy boshqarish chora-tadbirlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- banklarning manfaat va huquqlarini qonuniy himoya qilish;
- bank bilan bog‘liq vaziyatlarni tavsiflovchi ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish, baholash va bashorat qilish;
- sheriklarni, mijoz va raqobatlarni o‘rganish;
- xavfsizlikka tahdid soluvchi manbalar, subyektlarni ifodalovchi shaxslar tomonidan bankka va uning xodimlariga bo‘lgan qiziqishni o‘z vaqtida aniqlash. Ulardan himoyalanish choralarini ko‘rish;
- bankka iqtisodiy ayg‘oqchilik tashkiliy jinoiy guruh vakillarining kirib olishiga yo‘l qo‘ymaslik;



- bankka jinoiy maqsadlarda texnik, ya’ni aloqa kompyuter tarmog‘i orqali kirib olishga to‘sqinlik qilish;
- bank xodimlarini turli tajovuzlardan himoya qilish;
- moliyaviy va moddiy mol-mulk, tijorat siri hisoblangan axborotlarni, ma’lumotlarni qo‘riqlash;
- bino, inshoot, bank territoriyasi va transport vositalarini qo‘riqlash;
- moliyaviy faoliyat strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish;
- ommaviy axborot vositalari, hamkorlar va mijozlarda bank to‘g‘risida ijobjiy fikr, tasavvur uyg‘otish;
- bank va uning xodimlariga ayrim tashkilot va shaxslar tomonidan yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni qoplash uchun sharoitlar yaratish;
- xavfsizlik tizimining samarali faoliyat yuritishini muntazam nazorat qilish.

Iqtisodiyot normal amal qilishi uchun moliyaviy mablag‘lar uning sohalari, tarmoqlari, hududlari bo‘yicha taqsimlanadi. Bularning barchasi hujjatlar aylanmasi, hisobotlar va iqtisodiy axborotlarda qayd etiladi hamda o‘z ifodasini topadi. Shu boisdan moliya sohasidagi xavfsizlikni ta’minalash uchun, avvalambor, moliyaviy hujjatlarning o‘rnatilgan huquqiy-me’oriy talablarga muvofiqligini tekshirish lozim bo‘ladi.

Ushbu umumiyl talablar quyidagilardan iborat:

- zaruriy rekvizitlarni, ya’ni hujjatlar uchun qonun, amaldagi tartib-qoidalarga muvofiq majburiy ma’lumotlar bo‘lishini belgilash;
- muhr va shtamplarning aniqligi;
- hujjatlarda tuzatish, qo‘sishimcha yozuvlar, xatolar, uning turli nusxalari mazmunining har xil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- mansabdar shaxslar imzosining mosligi va boshqalar;
- barcha hujjatlar sinchiklab o‘rganilishi, tahlil qilinishi, tekshirilishi kerak.

Ushbu ma’lumotlarga ega bo‘lish hamda xavfsizlikni ta’minalash uchun uning ishonchli tizimini ishlab chiqish va joriy etish lozim bo‘ladi.

Buning uchun esa quyidagilar ko‘zda tutilishi zarur:

- bank va uning har bir bo‘linma(filial)larida xavfsizlikni ta’minalashning tashkiliy tuzilmalarini vujudga keltirish;
- ma’lumotlarni o‘g‘irlash, yo‘q qilish maqsadida uni olishning potensial imkoniyatlarini muntazam ravishda o‘rganish va baholash;

ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha uslubiy, tashkiliy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda ularning talablarini bajarmaganlik uchun javobgarlikka tortish choratadbirlarini qabul qilish;

- axborotlarni himoya qilishning tashkiliy-texnik, dasturiy chora-tadbirlari, vositalarini maxsus tashkilotlar yordamida ishlab chiqib, joriy etish;
- axborotlarni himoyalash tizimini attestatsiya qilish, uning amal qilinishini muntazam nazorat qilish;
- axborotlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bank mutaxassislarini tayyorlash;
- hujjatlar, blanklar, muhr, shtamplarni saqlashning himoya choralarini ko'rish, rasmiylashtirilmagan shartnoma loyihalari va boshqa hujjatlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash;
- moliyaviy hujjatlar bo'yicha ichki va tashqi auditorlik tekshiruvlari o'tkazish;
- bank operatsiyalari bo'yicha risklarni aniqlash va baholash.

Kapitalning yetarlilik ko'rsatkichi va har bir qarz oluvchi uchun riskni maksimal miqdorini aniqlash muhim hisoblanadi. Alovida mijozning riskini aniqlash uchun bank tomonidan xo'jalik subyektlarining kredit kotirovkasi tuziladi. Shuningdek, banklar risklarni boshqarishlari kerak bo'ladi.

O'zbekistonda valyuta tizimining asosini o'zbek so'mi tashkil etadi. U 1994-yil 1-iyuldan yagona qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi. Milliy valyuta so'mning barqarorligini ta'minlash va uning qadrini oshirish xalq farovonligini hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga erishish uchun O'zbekistonda aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan to'rtta alohida dastur qabul qilinib, amalga oshirildi.

Ushbu dasturlar to'plami quyidagilardan iborat:


1. So'mning xarid quvvatini oshirish uchun respublika ichki bozorini mumkin qadar tezroq iste'mol mollari bilan to'ldirish chora-tadbirlarini ko'rish.
2. Valyutaning barqaror amal qilishi, uning yetarli valyuta zaxirasini vujudga keltirish.
3. Har bir korxona, har bir kishi ishlab topgan so'mni qadrlashini, hurmatlashi, faxrlanishi uchun shart-sharoit yaratish. Buning uchun qat'iy moliyaviy-kredit siyosatini izchillik bilan o'tkazish lozim bo'ladi.
4. Milliy valyutani mustahkamlash uchun inflatsiyaga qarshi puxta o'ylangan siyosat o'tkazish.

2019-yil davomida

O‘zbekiston Respublikasi to‘lov balansi ko‘rsatkichlari xomashyo tovarlarining jahon narxlari dinamikasi (energiya manbalari va qimmatbaho metallar), tashqi qarzdorliklarning ortishi, hududlarni rivojlantirish va kapital qurilish bilan bog‘liq dasturlarning keng miqyosda amalga oshirilishi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining jadal o‘sishi va ular bo‘yicha yig‘ilib qolgan majburiyatlarning so‘ndirilishi hamda transchegaraviy pul o‘tkazmalari hajmlarining o‘sishi kabi omillar ta’sirida shakllanib bordi. Dastlabki hisobkitoblarga ko‘ra, 2019-yil yakuni bo‘yicha to‘lov balansi joriy operatsiyalar hisobining manfiy saldosi 2018-yilga nisbatan 10 foizga qisqarib, 3,2 mlrd. AQSH dollarini yoki YaIMGaga nisbatan 5 foiz doirasida shakllandı. Joriy operatsiyalar hisobi dinamikasi, mln. AQSH dollarida Bunda joriy operatsiyalar hisobi manfiy saldosining avvalgi yildagiga nisbatan sezilarli qisqarishi (7 foizdan 5 foizgacha) jahon bozorida O‘zbekistonning asosiy eksport tovarlari qatoriga kiruvchi ayrim xomashyo tovarlari narxlarining o‘sishi, nomonetar oltin sotuvi hajmining oshishi hamda respublikamizga yuborilgan transchegaraviy pul o‘tkazmalari hajmining o‘sishi bilan izohlanadi. 2019-yil yakuni bo‘yicha tashqi savdo balansining manfiy saldosi xalqaro xizmatlarni inobatga olgan holda, 9,6 mlrd. AQSH dollarini, birlamchi va ikkilamchi daromadlarning ijobiy saldosi esa 6,3 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi.

2020-yilning 1-yanvar holatiga 30 tasi tashkil etdi. Shundan 13 tasi kapitalida davlatning salmoqli ulushiga ega banklar (keyingi o‘rinlarda davlat banklari), 13 tasi kapitalida xususiy kapitalning salmoqli ulushiga ega banklar (keyingi o‘rinlarda xususiy banklar) hamda 4 tasi kapitalida xorijiy bank kapitalining salmoqli ulushiga ega banklar (keyingi o‘rinlarda xorijiy banklar) hisoblanadi.

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar natijasida bank tizimi jami kapitali 1,9 barobarga, shu jumladan, ustav kapitali hajmi 2,1 barobarga oshib, 2020-yilning 1- yanvar holatiga mos ravishda 51 trln. so‘m va 42 trln. so‘mga yetdi. Bunda davlat banklari moliyaviy barqarorligini ta’minlash va iqtisodiyotning kreditga bo‘lgan o‘sib borayotgan ehtiyojini qondirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga muvofiq davlat banklari kapitaliga 1,9 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag‘lar yo‘naltirilganligi alohida o‘rin tutdi. Shuningdek, mazkur qarorlar bilan 4,3 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi kreditlar banklar balansidan O‘TTJ balansiga o‘tkazildi. Natijada kapital



monandlilik ko'rsatkichi 2018-yilga nisbatan 7,9 foiz bandga oshib, 2020-yil 1-yanvar holatiga 23,5 foizni (minimal talab 13%) tashkil etdi. 2020-yil 1-yanvar holatiga bank tizimi bo'yicha jami muammoli kreditlar 3,2 trln. so'mni tashkil etgan bo'lib, uning 43 foizini qoniqarsiz, 19 foizini shubhali va 38 foizini umidsiz kreditlar tashkil etadi.

2020-yil 1-yanvardan boshlab asosiy foiz stavkasi qayta moliyalash stavkasining joriy ko'rsatkichi – 16 foiz darajasida amaliyatga joriy etildi. Mazkur stavka Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pulkredit operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalarini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralari hajmi 2019yil davomida 2,1 mlrd. AQSH dollariga yoki 7,7 foizga o'sib, 2020-yilning 1- yanvar holatiga 29,2 mlrd. AQSH dollariga yetdi. Zaxiralar hajmining o'zgarishiga asosan jahon bozorida oltin narxining oshishi, ichki valyuta bozorida intervensiyalarning amalga oshirilishi hamda Markaziy bankdagi tijorat banklari, mijozlar va hukumat mablag'lari qoldig'idagi o'zgarishlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. 2010-yildan 2016-yilga qadar bo'lgan davrda xalqaro zaxiralar hajmining oshishi asosan uning tarkibidagi monetar oltin miqdorining 45 tonnadan 336 tonnagacha oshganligi bilan izohlanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Moliyaviy muassasalarning iqtisodiy manfaatlari va ularning namoyon bo'lish shakllari nimalardan iborat?
2. Moliyaviy obligatsiya nima?
3. Moliyaviy muassasalar manfaatlariga qanday iqtisodiy tahdidlar xavf soladi?
4. Mijozlar tomonidan moliyaviy muassasalarga qanchalik ishonch bildirishini aniqlashga imkon beruvchi mezonlar qaysi?
5. Moliyaviy oqimlar nima?
6. Kapitalning qochishi sabablari nimalarda ifodalanadi?
7. Kapital qochishining oldini olish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak?
8. Moliya, pul muomalasi va kredit sohasidagi tovlamachilik nimalarda namoyon bo'ladi?
9. Pul muomalasi sohasida xavfsizlikni qanday ta'minlash lozim?
10. O'zbekistonda milliy valyuta-so'mning qadrini oshirish va pul muomalasini mustahkamlash uchun nimalar qilish zarur?
11. Valyuta siyosatining mazmuni va maqsadlarini aytib bering.
12. Banklarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun qanday amaliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi?

## **10-mavzu. IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANISH YO'LIGA O'TISHDAGI XAVFSIZLIK SHARTLARI**

### **Reja**

**10.1-§. Ilmiy-texnik xavfsizlikning mohiyati va uning asosiy jihatlari**

**10.2-§. Innovatsion xavfsizlik mohiyati va unda milliy innovatsion tizimni shakllantirish shartlari**

**10.3-§. Innovatsion xavfsizlikning mezonlari va ko'rsatkichlari**

**10.4-§. O'zbekistonning investitsion xavfsizligini ta'minlash yo'llari**

### **10.1-§. Ilmiy-texnik xavfsizlikning mohiyati va uning asosiy jihatlari**

O'zbekiston iqtisodiyotida ilmiy-texnik taraqqiyotda sezilarli darajada o'zgarishlarga erishmay turib, intensiv rivojlanish yo'liga o'tib bo'lmaydi. Uning mazmuni, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot natijalarini, ya'ni yangi texnika va mahsulotlar namunalarini yaratib ularni ishlab chiqarish darajalariga olib kelib foyda olish maqsadida tijoratlashtirish tushuniladi.

Ilmiy-texnik soha iqtisodiyot bilan fan o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib, ilmiy tadqiqot ishlarini rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Bu o'z navbatida, iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning raqobatbardoshligini o'sishiga olib keladi.

Ilmiy-texnik faoliyat fan, texnika va ishlab chiqarishni yagona tizim sifatida amal qilishini ta'minlaydi va yangi bilimlarni texnologik, iqtisodiy, muhandislik, ijtimoiy sohalardagi turli vazifalar va muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan fan, ilmiy-texnik va iqtisodiy sohalarning ichki tizim aloqalariga tayangan, xavfsizlik turlaridan biri bo'lgan Ilmiy-texnik xavfsizlik tushunchasi ajralib chiqmoqda. Butun bir fanning ichki aloqalar tizimiga, ilmiy-texnik sohaga va xususan, iqtisodiy sohada davlatning ilmiy-texnik rivojlanish siyosatini amalga oshirish orqali va shu bilan birga, uni ta'minlovchi muhim komponentlar ( huquqiy tizim, mutaxassislarini tayyorlash, tashqi aloqalar va boshqalar) asosida yakuniy natijada milliy manfaatlarni ta'minlab, jahon miqyosida milliy iqtisodiyot samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining raqobatbardoshlik imkoniyatlari, afzalliklari va uning ilmiy-texnikaviy taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi muammolarni ko'rib chiqamiz:



xavf tug‘diruvchi ko‘lamlarda inson va jamiyatning atrof-muhitga ta’sirining kuchayishi;

d) mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash, mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, agrosanoat majmuida texnologik xatarlarni kamaytirish zarurati;

e) energetika sohasida yashil texnologiyalar dan foydalanish, iqtisodiyotning energiya bilan qurollanganlik darajasini, energiya ishlab chiqarish, uni uzatish va saqlash hajmlarini o‘sib borishi;

f) global beqarorlik va millatlararo nizolarning kuchayishi, xalqaro raqobatning shiddatli tus olishi sharoitida milliy xavfsizlikka yangi tashqi tahdidlarning paydo bo‘lishi;

g) mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish asosida hududiy rejalashtirish samaradorligini oshirish.

O‘zbekiston iqtisodiyotini ilmiy-texnik xavfsizligini ta’minalash borasida davlat siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

1) ilmiy-texnik salohiyatni oshirish uni oqilona joylashtirish va undan samarali foydalanish;

2) mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda, eng muhim ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishda fan va texnikaning qo‘shadigan hissasini oshirish;

3) ilmiy-texnikaviy yutuqlarni hisobga olgan holda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan moddiy ishlab chiqarish sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish;

4) ekologik vaziyatni yaxshilash va davlatning axborot resurslarini himoya qilish;

a) qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanishga yo‘naltirilgan va yangi ishlab chiqarish texnologiyalariga ega bo‘lgan yetakchi mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xomashyo resurslaridan ekstensiv foydalanish hisobiga mamlakat YAIM o‘sish imkoniyatlarining pasayishi; fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga, tabiiy resurslarning takror ishlab chiqarilishiga



5) mamlakat mudofaa salohiyatini yaxshilash va shaxs, jamiyat hamda davlat xavfsizligini mustahkamlash;

6) fan va ta’lim integratsiyasini ta’minlash.

Belgilangan maqsadlarga erishish mamlakatning raqobatbardoshligini oshiradi, ya’ni mamlakatning ilmiy-texnik, ijtimoiy, madaniy sohalarda boshqa davlatlarga nisbatan aniq ustunliklarga ega bo‘lishini ta’min etadi.

Fan va ta’lim yutuqlarini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi manfaatlari yo‘lida keng foydalanish uchun markaziy davlat va mahalliy davlat boshqaruvi idoralari, shuningdek, ilmfan va tadbirkorlik hamjamiyatlarining sa’y-harakatlarini birlashtirish muhim shartdir. Mamlakatni ilmiy-texnik jihatdan rivojlantirish ikkita muqobil ssenariy bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin:

1) texnologiyalar importi va qisman jahon ilm-faniga integratsiyalashgan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning rivojlanishi;

2) ilmiy va texnik (texnologik) rivojlanishda an’anaviy sohalarida va yangi texnologiyalar bozorlarida yetakchi o‘rinlarga erishish va integratsiyalashgan yaxlit milliy innovatsion tizimni yaratish.



Birinchi ssenariyning afzalligi – tadqiqot va rivojlantirish uchun davlat va korporativ xarajatlarning kamayishidan iborat bo‘lsada, ammo bu uzoq muddatli istiqbolda mamlakatning texnologik mustaqilligi va raqobatbardoshligining yo‘qolishiga olib keladi. Ikkinchi ssenariy ko‘p xarajat talab qilsada, ammo ilmiy va texnik xavfsizlik sohasida yuzaga kelgan salbiy holatlarni yengib o‘tishga, davlat va biznesning innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy etish borasidagi sa’y-harakatlarini birlashtirish asnosida innovatsion mahsulotlarning YAIMdag‘ ulushining o‘sishiga va mazkur ko‘rsatkichni dunyoning yetakchi mamlakatlari darajasiga yaqinlashishiga olib keladi.

O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi, mamlakat iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlash va yalpi ichki mahsulotning yuqori o‘sish sur‘atlariga ega davlatlar qatoriga qo‘shish, faqat ikkinchi ssenariy bo‘yicha bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar tobora ko‘proq raqobatbardosh bozor faoliyatiga jalb qilinmoqda. Fundamental tadqiqotlar va uning yakuniy natijasi - ilmiy va texnik mahsulotlar iqtisodiyotning globallashuviga va bilimlar jamiyatining shakllanishi sharoitida davlatning geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirishning eng muhim omiliga aylanadi.

Hozirgi zamon sharoitida raqobatbardoshlikning yuksak darajasini ta’minlaydigan innovatsion faoliyat iqtisodiy tizimni jadal barqaror rivojlantirishning

asosi bo‘ladi. Innovatsion tizim xo‘jalik amaliyotida ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyati natijalarini olish, o‘tkazish va ulardan foydalanishning samarali mexanizmlaridan foydalanish hisobiga mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish intensivligini oshirish imkonini beradi.

O‘z navbatida, quydagilar O‘zbekistonda innovatsion salohiyat va innovatsion faoliyatni rivojlanishni to‘xtatib turuvchi asosiy muammolar hisoblanadi:

1. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarning hozirgi moliyalashtirilishi ilmiy-texnik ishlanmalarning zarur katta o‘sishini ta’minlamaydi. Mamlakatdagi ilm-fan moliyalashtirish hajmlari bilan cheklangan. Respublikada ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarni moliyalashtirish 2017-yilda 70,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi (Shvetsiyada – 16,2 mlrd. AQSH dollari, Rossiyada – 39,9 mlrd. AQSH dollari, AQSHda – 599 mlrd. AQSH dollar).

Tahlil ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari uchun xarajatlar ulushi o‘sishida uning YaIM hajmidagi ulushi 0,2% bilan o‘zgarmay qolganligini ko‘rsatmoqda. Bu qiymatni yetarli deb bo‘lmaydi, chunki u jahonning ko‘plab mamlakatlari ko‘rsatkichidan ancha past (jahon bo‘yicha o‘rtacha 2-3%). Bunda YuNESKO rivojlanayotgan mamlakatlarga ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari uchun xarajatlarni YaIMga nisbatan 1 foizga yetkazishga tavsiya qiladi.

2. Davlat sektori ulushi kattaligi va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish umumiy hajmida ilmiy tadqiqot va tajribakonstrukturlik ishlari uchun xarajatlar tuzilmasida tadbirkorlik sektori ko‘rsatkichi yetarlicha baland emasligi qayd etilmoqda.

Bunda davlatning ilmiy tadqiqot institutlari va oliy o‘quv yurtlari ilmiy tadqiqotlarda bu investitsiyalarni sifat jihatidan o‘zlashtira olmaydi. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari uchun xarajatlarni davlat sektoridan tadbirkorlik sektoriga qayta taqsimlash jarayoni yuz bermoqda.

Korxonalarning ilmiy tadqiqot institutlari va oliy o‘quv yurtlari tadqiqotlaridan manfaatdorligi sustligicha qolmoqda.



3. Innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar darjasini mamlakatda jahondagi baholarga nisbatan ancha kam – 0,34% (jahon bo‘yicha o‘rtacha 40%). Yangi texnologiyalarni tijoratlashtirishdagi qiyinchiliklar texnologiyalar transferining rivojlangan tizimi, tegishli me’yoriy-huquqiy baza hamda ilm-fan va ishlab chiqarish hamkorligi tajribasi yo‘qligi bilan bog‘liq.

4. Innovatsion ishlanmalarga investitsiyalar jalb qilish mexanizmlari hali ham takomiliga yetkazilmagan. Juhon amaliyotida biznes-inkubatorlar, texnoparklar, texnologiyalar transferi bo‘yicha agentliklar eng samarali mexanizmlar hisoblanadi. Respublikada bu mexanizmlar deyarli mavjud emas.

5. Innovatsiya infratuzilmasi va innovatsion faoliyat sohasidagi axborot maydoni bilan bog'liq masalalar tobora chuqurlashmoqda. Bu, o'z navbatida, milliy innovatsion tizimning susayishiga sabab bo'lmoqda.

6. Innovatsion rivojlanish ko'proq Toshkent shahrida, Toshkent viloyati va qisman Andijon viloyatida kuzatilmoxda. Qolgan hududlar faqat yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish yoki innovatsion faoliyatga investitsiyalarni o'zlashtirish davrida faollik ko'rsatmoqda, bu esa, o'z navbatida, mamlakat boshqa hududlarining oqsashiga sabab bo'lmoqda.

7. Ilmiy-texnik axborotni hududlararo almashish mexanizmi ishlab chiqilmagan (talab, taklif).

2030-yilgacha bo'lgan istiqbolli davrda respublikada jahonning ijobiyl tajribasini hisobga olib, milliy innovatsion tizim (MIT) asoslarini shakllantirish orqali ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni jadal rivojlantirish bo'yicha choralar ko'rish nazarda tutilmoqda. Hozirgi zamon sharoitlarida quyidagi elementlar bilan

innovatsion rivojlantirish aralash strategiyasi O'zbekistonda MITni shakllantirish va rivojlantirishning maqbul yo'nalishiga aylanishi kerak: a) xorijiy texnologiyalarni o'zlashtirish va moslashtirish; b) o'z innovatsiya salohiyatini boyitish.

Shu munosabat bilan respublikada zamonaviy davlat ilmiy-texnik va innovatsion siyosatni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga alohida ahamiyat beriladi. Jumladan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida quyidagilarga qaratilgan vazifalar belgilab olindi:

1. Yuqori texnologik qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha tarmoqlarni jadal rivojlantirishga qaratilgan sanoatni sifat jihatidan yangi darajaga o'tkazish orqali yanada modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash.

2. Mahsulot va texnologiyalarning mutlaqo yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish, shu asosda tashqi va ichki bozorlarda mamlakatimiz tovarlari raqobatbardoshligini ta'minlash.

3. Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyatga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish,

### Ilmiy-texnik xavfsizligini ta'minlashda davlat siyosatining asosiy vazifalari



Ilmiy-texnik salohiyatni oshirish va oqilona joylashtirish	Iqtisodiy rivojlanishda fan va texnikaning xissasini oshirish	Iqtisodiyoti tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish	Ekologik vaziyatni yaxshilash va axborot xavfsizligi	Mamlakati mudofaa qudratini yaxshilash
--	---	---	--	--

oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarida ilmiyeksperimental ixtisoslashtirilgan laboratoriylar, yuqori texnologiyalar markazlari, texnoparklar tashkil etish.

## **10.2-§. Innovatsion xavfsizlik mohiyati va unda milliy innovatsion tizimni shakllantirish shartlari**

Iqtisodiy rivojlanishning innovatsion turi mamlakat iqtisodiyotida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va samaradorligi yuqori bo‘lgan raqobatbardosh institutsional muhitni shakllantirish va pirovardida innovatsion iqtisodiyotning talablariga mos tarzda iqtisodiy o‘sish omillari va manbalari o‘zgartirishni talab etadi. Investitsiyalar iqtisodiy o‘sishga, eng avvalo, bilimlarga asoslanishi bilan tavsiflanadi, ammo bilimlarning amalda ishlashi uchun davlat va xususiy sektorning sherikchligini rivojlantirish, ilmiy muassasalarning vakolatlarini kengaytirish, tegishli me’yoriy - huquqiy hujjatlarning qabul qilinishini ko‘zda tutuvchi zaruriy institutsional muhit talab etiladi.

Iqtisodiy rivojlanishning mazkur turi samaradorligi yuqori bo‘lgan va sifat jihatdan takomillashgan ishlab chiqarish omillaridan keng foydalanishga asoslangan holda, mahsulot ishlab chiqarish ko‘lamlarini oshirish bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarishning o‘sishiga, amalda xodimlar malakasini oshirish, birmuncha tejamkor resurslar va yuqori unumli texnikalardan keng foydalanish, shuningdek ilm-fan yutuqlari va ilg‘or texnologiyalarni keng qo‘llash hisobiga ta’minlanadi. Ushbu omillar hisobiga resurs tejamkorlikka, mahsulot sifatining yaxshilanishi, mehnat unumdorligining o‘sishi kabi bir qator ijobji natijalarga erishiladi.

Davlat tomonidan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasi va uni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish innovatsion rivojlanishni ta’minalashning muhim omili sanaladi. Odatda, ba’zi rivojlanayotgan mamlakatlar qo‘yilgan maqsadga erishishda innovatsion rivojlanishga to’sqinlik qiluvchi yetib olish modeliñ strategiyasini tanlashadi. Ularning asosiy maqsadi aholi turmush darajasini rivojlangan yoki muvaffaqiyatli rivojlanayotgan mamlakatlar darajasiga yetkazishdan iborat. Ushbu strategiya yangi bilim va ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish emas, balki ularni import qilishga qaratilgan. Ushbu strategiyani qo‘llayotgan mamlakatlar arzon ishchi kuchi va past narxli xomashyodan foydalanish hisobiga, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali, qo‘sni davlatlar bozorlaridagi talabni qondirish hisobiga eksport hajmini oshirishga intilmoqda.

Innovatsion rivojlanish modelini tatbiq etayotgan mamlakatlar yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish, innovatsion menejment va ishlab chiqarish texnologiyalari, shu jumladan, jarayonlarni avtomatlashtirish asosida harajatlarni kamaytirish hisobiga yangi bozorlarni yaratish orqali o‘z eksport hajmini oshirishga intiladi. Shuningdek, ayrim mamlakatlar bir vaqtning o‘zida ikkala rivojlanish strategiyasini birlashtirgan

holda, ya’ni yetib olish modeli va innovatsion rivojlanish modeli strategiyalarini uyg‘unlashtirgan holda qo’llash orqali o‘z ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot modelini yaratgan.

Innovatsiyalarning mohiyatini va o‘ziga xos jihatlarini tushunib yetishda yangilik (novatsiya) va innovatsiyal tushunchalari o‘rtasidagi farqni aniqlab olish muhim hisoblanadi. Yangilik (novatsiya) – turli sohalarda rasmiylashtirilgan fundamental, amaliy tadqiqot va ishlanmalar natijasi (yangi bilim, uslub, ixtiro) bo‘lib hisoblanadi. Yangiliklarni joriy qilish, ya’ni yangi bilimlarni muayyan ehtiyojlarni qondirish va bozor tan olinishi uchun amaliy tatbiq etilishi yangiliklarni innovatsiyaga aylantiradi<sup>1</sup>. Innovatsiyalarning hozirgi zamon nazariyasida yangilik va innovatsiyal atamalari o‘rtasida farqqa unchalik e’tibor qaratilmaydi, ulardan amalda sinonim tushunchalar sifatida foydalaniladi. Ta’kidlash lozimki, innovatsiyalarning yangilik (novatsiya)dan asosiy farqlovchi jihat shundaki, innovatsiyalar yangiliklarni birinchilardan bo‘lib amaliyotga joriy etilishini nazarda tutadi.

Shunday qilib, innovatsiya yangilik (novatsiya)dan shunisi bilan farq qiladiki, yangi mahsulot dastlab bozorga kiradi, so‘ngra bozor tomonidan qabul qilinsagina u keyinchalik tijorat qiymatiga ega bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, innovatsiya (yangiliklarni joriy qilish) bu yangilikni amalda qo’llashni anglatadi. Yaratilgan yangi mahsulot, yangi texnologiya yoki mehnatni tashkil etish va boshqarish borasida ishlab chiqilgan yangicha yondashuvlar amalda o‘z ifodasini topsagina, bu yangiliklar innovatsiyalarga aylana oladi, demakki, barcha yangilik (novatsiya)lar ham innovatsiya bo‘la olmaydi. Innovatsiyalar qaysi sohaga yoki qanday ko‘rinishga ega ekanligidan qat‘i nazar ularning mohiyatini aks ettiruvchi umumiy jihatlar birlashtirib turadi. Qarab chiqilayotgan mahsulot (xizmat, texnologiya) larning innovatsiya sifatida qabul qilinishining asosiy sharti va ayni paytda innovatsiyalarning umumiy qirralarini ochib beruvchi xususiyatlarni ko‘rib chiqamiz.

**Birinchidan**, ishlab chiqarishga joriy etilayotgan va yoki bozorga olib chiqilayotgan barcha mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar yangi (yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan) bo‘lishi lozim.

**Ikkinchidan**, yaratilgan mahsulot ishlab chiqarish yoki shaxsiy iste’mol ehtiyojlarini qondira olishi va ayni paytda kiritilgan yangilik aniq bir tovar, xizmat yoki jarayonda o‘z aksini topgan bo‘lishi talab etiladi.

**Uchinchidan**, yaratilgan mahsulot bozor talabiga mos kelishi, tijorat jihatdan o‘zini oqlashi va pirovardida ishlab chiqaruvchilar talabini qondirish kerak.

Iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyoti – bu intellektual salohiyat, ishchi va xizmatchilarning kreativ imkoniyatlari, bilimi, tovar yaratishdan tortib, u iste’molchiga

<sup>1</sup> . Zamonaviy innovatsiya nazariyasida —Innovatsiyal va —yangilik terminlari bir-biridan farqlanmaydi, balki ular sinonim so‘zlar bo‘lib hisoblanadi. Mazmun jihatdan farqlar shundaki yangilik sifatida birinchi marta joriy etilgan ma’noni anglatadi.

yetib borguniga qadar barcha bosqichlar demakdir. Ushbu yo‘nalishlardagi innovatsiyalar korxona strategik rivojlanishining asosiy resursi vazifasini o‘taydi. Zero, bugungi sharoitda innovatsion, intellektual bilimlarga asoslangan, malakali ishchi kuchini mujassam etgan yuqori fan sig‘imiga ega texnologik iqtisodiyot raqobatbardoshdir.

Innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish quyidagilarga imkon beradi:

- yangi yoki takomillashtirilgan texnologiyalar, mahsulotlar, asbob-uskunalar, materiallar va h.k. joriy qilish hisobiga mahsulot (tovar, xizmat) ishlab chiqarishning o‘sishini ta’minlash;
- innovatsion mahsulot hajmi ulushini innovatsion faol korxonalar mahsulotlari umumiy hajmining 20%igacha yetkazish, ya’ni Yevropa ko‘rsatkichlariga yaqinlashtirish;
- fan-texnika va ishlab chiqarish sohalarida qo‘sishimcha ish o‘rnlari yaratish;
- ITTKI va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning yangi sxemalarini joriy qilish hisobiga innovatsion sohaga qo‘sishimcha resurslar jalb qilish;
- zaruriy innovatsion infratuzilma (texnoparklar, innovatsion-texnologik markazlar, kichik innovatsion-texnologik korxonalar va b.), innovatsion faoliyat subyektlarini iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish va rivojlantirish;
- innovatsion faoliyat qatnashchilarining munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik va me’yoriy-huquqiy asoslar shakllantirish;
- innovatsion sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimlari yaratish;
- innovatsion faoliyat qatnashchilarini axborot bilan qo‘llab-quvvatlash va innovatsion loyihalarni boshqarish tizimlarini yaratish;
- mahsulot (tovar, xizmat) raqobatbardoshligi va ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish;
- ichki va tashqi bozorlarda sanoat va fan-texnika mahsulotlarini yanada siljитish uchun sharoitlar yaratish;
- innovatsion faoliyat sohasida xalqaro hamkorlik va tarmoqlararo kooperatsiya ilg‘or tajribalari va ustunliklaridan maksimal darajada foydalanish.



Xorijiy mamlakatlarda davlatning innovatsion siyosatini rag‘batlantiruvchi turli xil strategiyalar, tashkiliy-iqtisodiy tamoyillar shakllangan va bugun ularga amalgam qilinmoqda. Hozirgi kunda ilmiy tadqiqot hamda tajriba konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirish mexanizmlari, shuningdek, intellektual mulkchilikka huquq shakllarini qo‘llashga asoslangan davlat siyosatini yuritish keng tarqalgan. Davlat tomonidan fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash – qishloq xo‘jaligini byudjet tomonidan moliyalashtirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaga kiritilgan investitsiyalar istiqbolli va o‘z-o‘zini yuqori darajada qoplash imkoniyatiga ega (70 foizgacha) dir.

Turli mamlakatlar hukumati ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish uchun katta hajmda investitsiya sarflamoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlari ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari uchun o‘rtacha YaIMga nisbatan 1,97%, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga kiruvchi mamlakatlar – YaIMning 2,4%ini yo‘naltiradi. Bu borada lider mamlakatlar – Finlyandiya, Isroil, Koreya bo‘lib, mos ravishda innovatsiyalarga sarflangan xarajatlar o‘rtacha YaIMga nisbatan 3,55%, 4,2% va 4,36%ni tashkil etadi.

AQSHda agrar sohadagi fan va innovatsiyalarni rivojlantirish maqsadida davlat katta sarmoya sarflaydi: bu ko‘rsatkich yiliga qariyb 1 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. Ushbu mablag‘lar federal byudjet (yarmidan kami) va shtat mablag‘lari (qolgan qismi) hisobidan moliyalashtiriladi. Qonunga asosan, federal mablag‘lar shtatlarga davlat tomonidan ajratilgan mablag‘dan kam bo‘lmasa hajmda, shtat mablag‘idan pul ajratilgan taqdirdagina ajratiladi.

Ayrim shtatlarda fan-texnika va innovatsiyalarga ajratilgan jami mablag‘ning 60%ni shtat mablag‘lari tashkil etadi. Qisman davlat tomonidan nazorat qilinsa-da, mablag‘larni qaybir sohaga yo‘naltirishni shtatlarning o‘zi belgilaydi.



Rivojlangan mamlakatlarda infratuzilma sohasini innovatsion rivojlantirishda yangi texnologik park (texnopolis, innovatsion markazlar, inkubator va boshqalar) tuzilmalarini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlashda hududiy davlat organlarining roli kattadir. Shtat va boshqa davlat organlari, odatda, infratuzilmani moliyalashtiradi, yer uchastkalarini imtiyozli shartlar asosida taqdim etadi va loyihalarga subsidiyalar ajratadi (Germaniya, Shveysariya, Avstriya tajribalari).

Texnoparklarni rivojlantirishning Yevropa tajribasidan ko‘rish mumkinki, ular davlat tomonidan moliyalashtirilishi katta ahamiyatga ega. Markaziy va mahalliy byudjetlardan infratuzilma tarmog‘ini rivojlantirish hamda texnoparklar qurishni moliyalashtirish rivojlangan xorijiy mamlakatlarda quyidagicha: Fransiyada – 74%, Germaniyada – 78%, Belgiyada – 100%, Niderlandiyada – 70%, Buyuk Britaniyada – 62% shuningdek, rivojlangan mamlakatlar klaster tizimlari orqali innovatsiyalar joriy etishni keng qo‘llamoqda. Ma’lumki, ilgari ilmga asoslanib klasterlar yaratish faqat industrial mamlakatlarga xos edi. Hozirgi kunda esa boshqa rivojlanayotgan davlatlarda, shu jumladan, agrar-industrial mamlakatlarda ham bu tizim mavjud.

Milliy innovatsiya tizimlari (MIT) aksariyat hollarda texnologik ukladlar almashinadigan davrlarda shakllanadi. Milliy innovatsion tizimni innovatsion jarayonlarga ta’sir ko‘rsatuvchi, hukumat tomonidan siyosatni shakllantirish va amalga oshirish uchun asos yaratuvchi va yangi texnologiyalarning yaratilishi va tarqatilishiga birgalikda yoki alohida ulush qo‘suvchi turli xil institutlarning umumiyligidir. Bu – yangi texnologiyalar rivojlanishini belgilab beruvchi vositalar, ko‘nikmalar va bilimlarni yaratish, saqlash va transfert qilish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq institutlar tizimidir.

Innovatsiyalar tizimi yangi va iqtisodiy nafliliги yuqori bo‘lgan bilimlarni shakllantirish, tarqatish va ulardan foydalanishda o‘zaro hamkorlik qiluvchi unsurlar va munosabatlardan tashkil topadi va bunday milliy tizim milliy davlatchilik chegaralarida joylashgan yoki shu hudud ichidan boshlanuvchi unsur va munosabatlarni o‘z ichiga qamrab oladi.



✓ MIT – bu milliy chegaralar doirasida yangi ilmiy bilimlar va texnologiyalarni ishlab chiqarish va ularni tijoratlashtirish bilan band bo‘lgan o‘zaro bog‘liq tashkilotlarning umumiyligidir. Ayni chog‘da, MIT – mustahkam milliy ildizlar, an‘analar, siyosiy va madaniy o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan innovatsion investitsion jarayonlarning amalga oshishini ta’mindan etuvchi huquqiy, moliyaviy va ijtimoiy tavsifdagi institutlar majmuidir.

Milliy innovatsion tizim (MIT) – milliy hudud doirasida ilmiy bilim va texnologiyalarni yaratish, ro‘yobga chiqarish va tijoratlashtirishga xizmat qiluvchi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tuzilmalar majmuasidir. MIT o‘ziga ikki tarkibiy bo‘linmani qamrab oladi: ilmiy ishlab chiqarish va institutsional. Institutsional muhit davlatning fan-texnika sohasidagi faoliyatini va innovatsion siyosatini ta’minlaydi.

Innovatsion tizimning markaziy elementi sifatida innovatsion korxonalar hamda ularning faoliyat ko'rsatishining asosiy bosqichlarini ifoda etuvchi (moliyalashtirish manbalarini izlab topish, innovatsiyalarni ishlab chiqish, sotish bozorlarini izlash) infratuzilmaga mansub bo'lgan davlat, ilm-fan va biznesning kooperatsiyasiga imkon beruvchi tashkilotlarni ham o'z ichiga oladi. Innovatsion investitsion jarayonlarning doimiy siklini qo'llab-quvvatlaydigan shunday institutsional tuzilmani vujudga keltirish - milliy innovatsion tizimni shakllanish bosqichida muhim vazifa hisoblanadi. Faqatgina milliy innovatsion tizimning institutsional karkasinil qurib olib, bilimlar, texnologiyalarni uzlusiz yaratish, undan foydalanish va ayrboshlash mumkin bo'ladi.

Mamlakat innovatsion tizimida innovatsion faoliyat subyekti sifatida davlatning o'rnini anglab olish o'ziga xos alohida e'tiborni talab etadi. Mamlakat innovatsion tizimining markazida innovatsion korxonalar turadi. Tizimning qolgan barcha elementlari u yoki bu darajada innovatsion korxonalarga bog'liq bo'lib, bir-birlariga nisbatan ikkiyoqlama aloqadorlikda bo'ladi.

Keltirilgan MIT sxemasida innovatsion korxonalar innovatsiyalarni yaratuvchi, ya'ni yaratuvchi korxonalarga va bu ishlanmalardan o'z faoliyatlarida foydalanuvchi innovatsion investitsion korxonalarga ajratiladi. Ikkinci tur korxonalarini amaliyotchillar deb, ataladi. Chunki korxonalar innovatsion tizimda innovatsiyalarning hayotiylig siklining barcha bosqichlarida vujudga kelish va tarqatishni ifoda etuvchi turli vazifalarni bajaradi.

Amaliyotchil korxonalar agar yaratuvchi korxonalarga o'zlar uchun zarur bo'lgan innovatsion mahsulot va xizmatlarni buyurtma qilsalar, u holda ularni Mijozlar toifasiga kiritish mumkin bo'ladi. Ushbu holatda yaratuvchi korxonalar va mijozlar o'rtasidagi aloqalar ilmiy tadqiqot, tajriba-konstrukturlik ishlarini moliyalashtirish uchun bitimlar tuzilishini ko'zda tutadi.

Amaliyotchi korxonalar yaratuvchi korxonalarning mijozlari bo'limgan holatlarda, ular ham mijozlar kabi ixtiro qilingan innovatsiyalardan foydalanish va ularning tarqatilishiga birdek mas'ul bo'ladilar. Innovatsiyalarning tarqatilishi deyilganda innovatsion tovari bozor tomon harakati emas, balki innovatsion investitsion korxonalar yaratuvchilar mehnati natijasidan qancha ko'p korxonalar foydalanayotganliklarini nazarda tutadi, tabiiyki, ushbu vaziyatda innovatsiyalarning tarqalish maydoni shuncha katta bo'ladi.

Har qanday innovatsion korxona uchun kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biri, bu albatta, moliyalashtirish manbalarini izlab topish bilan bog'liqdir. Moliyalashtirish manbalari sifatida kredit muassasalari, fond bozorlari, venchur fondlari va biznesfarishtalar (business angel) ishtiroy etishlari mumkin. Innovatsion korxonalar moliyalashtirish manbalariga pul mablag'laridan foydalanganlik uchun o'ziga xos haq to'lov to'laydilar. Moliyalashtirish manbai bank bo'lgan holatlarda esa, bunday to'lov foiz stavkasi hisoblanadi.

Innovatsion investitsion korxonalarining o‘zlarini ham o‘z mablag‘lari hisobiga ilmiy tadqiqot, tajriba-konstrukturlik ishlarini moliyalashtirishlari va mustaqil ravishda ularni bozorga joriy etishlari mumkin. Ushbu holatda mijoz sifatida buyurtmachilar emas, balki tovar va xizmatlarning yakuniy iste’molchilari tushuniladi, chunki korxona faoliyatining natijasi bo‘lib, boshqa biror-bir mahsulotning tarkibiy qismi sifatida foydalanishni nazarda tutmaydigan tugallangan pirovard mahsulot hisoblanadi. Agar innovatsion korxonalar tomonidan mustaqil amalga oshirilayotgan va hali joriy etish bosqichiga o‘tmagan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u holda ularga nisbatan xatti-harakatlar huquqni himoyalovchi hujjatlar patent, litsenziyalar berish orqali mulk huquqini himoyalash bilan cheklanadi.

Kredit muassasalarini taqdim etilgan pul mablag‘laridan foydalanganlik uchun oladigan to‘lovlarini pasaytirish evaziga innovatsion korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishlari va pirovardida ular faolligini oshirishlari mumkin.

Innovatsion loyihalarni kreditlash borasida fond bozorini kredit muassasalarining muqobili sifatida ko‘rsatishimiz mumkin. Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan izlanishlar natijasida shunday muhim xulosaga kelish mumkinki, innovatsion loyihalarni kreditlash borasida yuqorida sanab o‘tilgan ikki muqobil o‘rtasidagi farq shundan iboratki, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun fond bozori yetarlicha rivojlangan bo‘lishi lozim, zero, fond bozori uchun doimo yuqori xatar va tavakkalchilik darajasi xosdir. Fond bozorining rivojlanganligi esa, milliy xo‘jalikning xalqaro raqobat mexanizmiga qo‘silishi bilan bevosita bog‘liqidir. Tadqiqotlarga ko‘ra texnologik rivojlanish darajasi birmuncha past bo‘lgan mamlakatlarda fond bozorlarining yopiqligi natijasida kelib chiquvchi salbiy oqibatlar unchalik ham katta emas. Taraqqiy etgan innovatsion tizimlarda fond bozorlari resurslaridan ham keng foydalaniadi.

Innovatsion tizim rivojlanishida moliya bozorlarining o‘rni katta bo‘lsa-da, aytish lozimki, innovatsion tizimning intensiv rivojlanishining zarur va eng muhim shartlaridan biri, bu xususiy mulk tamoyillarini amalda ro‘yobga chiqarishdir. O‘zbekistonning MITini faoliyat ko‘rsatish modelida xususiy mulk tamoyillarini ro‘yobga chiqarish, mulk huquqini himoyalashni ifoda etuvchi davlat va innovatsion investitsion korxonalarining o‘zaro bog‘liqligi sifatida aks ettirilgan. Bunda davlatning asosiy iqtisodiy vazifasi bu – mulk huquqini alohidalashtirish, uning qonuniy kafolatlarini va shuningdek, tovarlar bozori agentlari o‘rtasida qonuniy bitimlarni amalga oshirishda vujudga keladigan mulk huquqi borasidagi o‘zgarishlarni himoya qilishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasining milliy innovatsion tizimi chizmasida mahalliy va markaziy davlat boshqaruvi organlarining barchasi davlat sifatida tushuniladi. Davlat o‘zining asosiy iqtisodiy vazifalarini bajarayotganligi uchun, barcha korxonalarda bo‘lgani kabi, innovatsion korxonalardan ham soliqlar ko‘rinishida to‘lovlar undiradi.

Davlat subvensiyalar, grantlar ajratib, biznes-inkubatorlar xizmatini taklif eta borib, innovatsion korxonalar faoliyatiga ko‘maklashadi. Davlat, shuningdek, yangi iqtisodiy xulq qoidalarini ishlab chiqishi yoki mavjudlarini o‘zgartirishi ham mumkin.

MITda oliy ta’lim muassasalari innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanadigan bo‘lsa, u holda, u innovatsion investitsion korxonaning faoliyat ko‘rsatish shakllaridan biri sifatida mazkur sxemada innovatsion investitsion korxona elementida aks ettiriladi. Bu ta’lim muassasasining tashkiliy-huquqiy shakli o‘zgarishini anglatmaydi, balki aksincha, ta’lim muassasasi innovatsion tizimda qanday vazifani bajarayotganligini ko‘rsatib beradi. Mazkur muassasalarning asosiy funksiyasi bo‘lib, bu ta’lim-tarbiya faoliyati hisoblanadi (O‘zbekistonda 40 foiz atrofidagi oliy ta’lim muassasalari ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga jalb etilgan)<sup>1</sup> chizmada ular o‘zlarining asosiy bajaradigan vazifalari bo‘yicha aks ettirilgan.

Mazkur modelda innovatsion investitsion korxonalar bilan bir qatorda innovatsion tizimning tashkil etuvchilari bo‘lgan boshqa elementlar bilan davlat o‘rtasida avvaldan mavjud transfertlar, subsidiyalar, davlat xaridlari va qarzlari kabi klassik o‘zaro aloqalarni inkor etmaydi. Ushbuga bog‘liq ravishda aytish mumkinki, mazkur model barchaga yaxshi ma’lum bo‘lgan davlat va iqtisodiyot (uy xo‘jaliklari, firmalar, tovar va xizmatlar bozori)ning o‘zaro ta’sirlashuv modelini to‘ldiradi.

Agar davlat, davlat korxonalari yoki hokimiyat organlari sifatida davlat xaridlarini amalga oshiradigan bo‘lsa, u holda chizma doirasida —mijozlar unsuriga mansub bo‘ladi, chunki davlat mazkur vaziyatda innovatsion korxonalar uchun aynan —mijoz vazifasini bajaradi. Agar davlat innovatsion investitsion korxonalarga qarz mablag‘lari taqdim etadigan bo‘lsa, u holda u —moliyalashtirish manbalaril elementiga mansub bo‘ladi. Davlat bundan tashqari innovatsion jarayonlarda davlat sug‘urta kompaniyalari yoki davlat innovatsion investitsion korxonalari sifatida ham ishtirok etishi mumkin. Shu tariqa aytish mumkinki, ma’lum vaqt oralig‘ida bajaradigan aniq funksiyalariga qarab, davlat innovatsion tizimning turli elementlari sifatida MITning rivojlanishida ishtirok etadi.

Innovatsion tizimni tahlil etar ekanmiz, ushbu faoliyatni amalga oshirish tavakkalchilik va xatarning yuqori darajasi bilan tavsiflanishini e’tiborga olib, infratuzilmaning alohida unsuri sifatida sug‘urta kompaniyalarining o‘rni beqiyosdir. Davlatning sug‘urta bozorini rag‘batlantirishi innovatsion korxonalar va ularning mijozlari faoliyatları xatarlarini sug‘ortalash miqdorini o‘sishiga olib keladi. Bu innovatsion investitsion korxonalar va ularning mijozlarining qarzdor sifatidagi mavqelari ko‘tariladi, bank sektori esa bu xil iqtisodiy agentlarga kredit mablag‘lari taqdim etishdan yuqori darajada manfaatdor bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan hisoblangan va e‘lon qilingan ma’lumotlar.

milliy innovatsion tizimining faoliyat ko'rsatishi chizmasidagi jamoat tashkilotlari elementi innovatsion investitsion korxonalarining manfaatlarini ifoda etadi. Ular o'rtaida birmuncha mashhurlari bo'lib, asosan kichik va o'rta biznes vakillari manfaatlarini himoya qiluvchi O'zbekiston Respublikasi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasil hisoblanadi.

Texnoparklar to'g'risida shuni aytish mumkinki, ular mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, oliy o'quv yurtlari, innovatsion investitsion korxonalar bilan uzviy aloqada bo'lgan tashkilotlardir. Bu ularga ma'lum bir hududda qulay innovatsion muhitni shakllantirish va innovatsion tadbirkorlikni qo'llabquvvatlash imkonini beradi. Innovatsion-texnologik markazlar kadrlar tayyorlash va o'qitishni amalga oshiradi, innovatsion korxonalar bilan birgalikda tadqiqotlar o'tkazadi va shuningdek, ularni dastlabki bosqichlarda moliyalashtiradi. Aytilganlardan ko'rinish turibdiki, innovatsion texnologik markazlar innovatsion korxonalarini moliyalashtirish manbai ham bo'lishi mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, chizmada moliyalashtirish manbalari va mijozlarning to'liq va mumkin bo'lgan barcha shakllari ham keltirilmagan. Misol uchun, moliyalashtirish manbai sifatida sug'urta kompaniyasi yoki pensiya fondi chiqishi mumkin, lekin bu amaliyotda juda kam uchrashi sababli, chizmada moliyalashtirishning birmuncha ishonchli manbalari aks ettirilgan. Ko'rsatib o'tilgan moliyalashtirish manbalari o'rtaida farq innovatsion faoliyat natijalariga egalik qilishda ifodalanadi. Dastlabki shaklda innovatsion korxonalar mustaqil ravishda investitsiyalarni amalga oshiradilar, moliyalashtirishning mustaqil manbalari esa pul mablag'laridan foydalanganlik uchun asosan foiz ko'rinishida to'lov oladilar. Ikkinchi shaklda esa innovatsion faoliyat natijalariga egalik qilish huquqi yo birgina mijozning o'ziga, yoki mijoz va innovatsion korxona-yaratuvchiga tegishli bo'ladi.



Chizmada sug'urtalashga alohida e'tibor qaratilishi, innovatsion faoliyatni amalga oshirishning yuqori xatarliligi va shu bois innovatsion faoliyatni amalga oshirishda sug'urtaning ahamiyati katta ekanligi bilan izohlanadi. Mamlakat innovatsion tizimining egiluvchan subyekti sifatida davlat o'rnining ochib berilishi taklif etilayotgan chizmaning o'ziga xosligi bo'lib hisoblanadi. Davlat mazkur tizimda, tizimning qolgan barcha unsurlaridan teskari aloqani qabul qilib oluvchi unsur sifatida ishtirok etadi. Ushbu holatlardan davlat innovatsion tizimda bajarishi mumkin bo'lgan ko'plab vazifalar, xususan, mulk huquqini himoyalash, shaxs madaniyati va xulq-atvor qoidalarini shakllantirish, subvensiyalar berish va biznes-inkubator xizmatlarini ko'rsatish, jamoat tashkilotlari, texnoparklar va innovatsion texnologik markazlar bilan hamkorlik qilish va shu kabilar kelib chiqadi. Shu tariqa,

davlat yaxlit tarzda mamlakat innovatsion tizimini o‘zgartirish va kerakli tomoniga yo‘naltira olish imkoniga ega bo‘lgan tizim elementi sifatida maydonga chiqadi. Sxema subyektlar funksiyalari va subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashtirishdagi o‘zining egiluvchanligi bilan ajralib turadi. Bu holat innovatsion tizimning biror-bir subyekti tomonidan vaqtning ma’lum bir oralig‘ida bajarilayotgan vazifalarga bog‘liq ravishda, mazkur subyekt yoki elementning innovatsion tizimning turli unsurlariga mansub bo‘lib borishida namoyon bo‘ladi.

Modelda davlat yaxlit holda mamlakat innovatsion tizimiga ta’sir ko‘rsatadi. Tizimning innovatsion korxonalar, kredit muassasalari, sug‘urta kompaniyalari, jamoat tashkilotlari, ta’lim muassasalari kabi unsurlaridan davlat teskari aloqa axborotlarini qabul qilib oladi, bu esa davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijalarini, ularning qanchalik samarali bo‘lganligini baholash bilan bir qatorda, qo‘yilgan maqsadlarga erishish borasida yana qanday tadbirlar qo‘llash lozimligini tushunib olish va tahlil qilish imkonini ham beradi.

Venchurli investitsiyalash innovatsiyalarni moliyalashtirish borasida kredit muassasalarining muqobili sifatida xizmat qilishi mumkinligini, bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribasi yaqqol isbotlab turibdi. Innovatsion investitsiyalashning mazkur turi ta’minot va garovsiz amalga oshiriladi va u ko‘pincha o‘zida aksiyalar paketi ulushiga ayriboshlash hisobiga aksiyadorlik kapitaliga uzoq muddatli investitsiyalarni ifoda etadi. Innovatsion korxonalar taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida xavf-xatar darajasining yuqori darajada bo‘lishini inobatga olgan holda, bunday korxonalarni moliyalashtirishda vechur fondlar hal qiluvchi o‘rin tutishi mumkin, zero, bunday fondlar moliyalashtirilayotgan korxona muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda ham bunday yo‘qotishlarga oldin tayyor turadilar. O‘zo‘zidan ayonki, moliyalashtirilayotgan korxonalar muvaffaqiyatga erishgan taqdirda, moliyalashtirishning bu turi yuqori foyda me’yori bilan taqdirlanadi.

### **10.3-§. Innovatsion xavfsizlikning mezonlari va ko‘rsatkichlari**

Jahon amaliyotida turli mamlakatlarning innovatsion rivojlanish darajasini baholashda, odatda, yig‘ma ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Jahon banki tomonidan xuddi shunday bir ko‘rsatkich taklif etilgan. Iqtisodiyotning bilimlar indeksi o‘zida 109 ta ko‘rsatkichlarni olib miqdor va sifat ko‘rsatkichlarning to‘rt guruhining o‘rtacha ko‘rsatkichi sifatida aniqlanadi:

1.Iqtisodiy va institutsional rejim indeksi. Iqtisodiy va huquqiy muhitni tavsiflaydi, jamiyat va uning institutlaridan samarali foydalanishni hamda yangi bilimlarni yaratishni rag‘batlantiradi.

2.Ta’lim indeksi. Aholining ta’lim darajasini va unda barqaror bilimlarni yaratish, tarqatish va undan foydalanish ko‘nikmalarining mavjudligini ifoda etadi.

3. Innovatsiya indeksi. Milliy innovatsion tizimni rivojlanish darajasini ifoda etadi.

4. Axborot va kommunikatsion texnologiyalar indeksi. Axborotlarni samarali tarqatish va uni qayta ishlashni qo'llab-quvvatlovchi axborot va kommunikatsion texnologik infratuzilmani rivojlanish darajasini nazorat qiladi.

Mamlakat va hududlarining innovatsion xavfsizlik darajasini baholashda iqtisodiyotning bilimlar indeksidan foydalanish mumkin. Bu ko'rsatkich asta-sekin bo'lsa ham Global innovatsion indeksda o'z o'rnini mustahkamlab borayotgan O'zbekiston Respublikasi innovatsion tizimining asosiy elementlarini to'la qamrab olgan. Global innovatsion indeksda jahonning 128 ta davlatining milliy innovatsion tizimlari haqida ma'lumot bo'lib, unda O'zbekistonning uning liderlar qatoriga chiqishiga hozircha ma'lum vaqt bor.



Innovatsion xavfsizlik kategoriyasi —mamlakatning barqaror va dinamik ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, uning farovonligi va taraqqiyotini iqtisodiy hamda texnologik erkinligi va mustaqilligini, mudofa qobiliyatini ta'minlay oladigan milliy innovatsion tizimning rivojlanish darjasini bilan aniqlanadi.

Innovatsions sikl fan, texnika va texnologiya, ishlab chiqarish va bozorning holatini aks ettiradi, innovatsyaning o'zi esa yuqori raqobatbardosh iqtisodiyotga erishish vositasidir. Bundan kelib chiqadiki, innovatsion xavfsizlik iqtisodiy xavfsizlikning muhim qismidir. Innovatsion xavfsizlikning muhimligini sifat jihatdan baholash mamlakatning mavq'iini mustahkamlashga va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga tahdidlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Innovatsion xavfsizlik tushunchasi o'zaro bog'liq ikki quyi tizimni o'z ichiga olishi kerak:

1) innovatsion xavfsizlik obyektlarining quyi tizimi: fan va kadrlar, texnika va texnologiya, mahsulotlar va xizmatlar, sotish va tijorat maqsadlarida foydalanish;


2) quyi tizimga xizmat ko'rsatuvchi: investitsiya, boshqarish (menejment), marketing.

Innovatsiya sohasidagi mamlakatning milliy manfaatlarini amalga oshirish borasidagi vazifalarni va faoliyatni amalga oshirishni qiyinlashtiradigan, tor bo'g'inlar yoki bu boradagi imkoniyatlarni yo'qqa chiqaruvchi shart-sharoitlar va omillar innovatsion xavfsizlikka tahdidlar deb ataladi. Ularni iqtisodiy faoliyat turlariga qarab guruhlarga ajratish mumkin: qayta ishlovchi ishlab chiqarish, foydali qazilmalarni qazib olish, elektr energiyasi, gaz va suvni ishlab chiqarish va taqsimlash, transport va aloqa kabi boshqa sohalardagi tahdidlar. Milliy ishlab chiqaruvchilar va korxonalar

oldida turgan eng katta tahdidlardan biri – bu asosiy vositalarning jismoniy va ma’naviy eskirishi hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishning uchta mumkin bo‘lgan variantlari mavjud. Inersion (importga yo‘naltirilgan) texnologik rivojlanishning birinchi varianti. Unda innovatsion rivojlanishga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlarning yo‘qligini, shuningdek, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va byudjetdan fan, innovatsiyalar, investitsiyalar va shuningdek, inson resurslari va kapitalni rivojlantirishga sarflanadigan xarajatlarning nisbatan past ko‘rsatkichlarini aks ettiruvchi siyosatni o‘zida aks ettiradi. Aksariyat hollarda institatlarni rivojlantirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish bo‘yicha innovatsion siyosat umumiy choralar, shuningdek, katta xarajatlarni talab qilmaydigan tashkiliy choralar yordamida amalga oshiriladi. Yuqori darajadagi ehtimollik bilan ushbu o‘ziga xos variant milliy innovatsion tizimning yanada zaiflashishiga olib keladi va iqtisodiyotning xorijiy texnologiyalarga qaramligini yanada oshiradi. O‘zbekistonning innovatsion tizimi bir qator alohida ilmiy va texnik segmentlarga bo‘lingan bo‘lsada, unda asosan to‘qimachilik tizimi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda biznesning innovatsiyalarga bo‘lgan talabining pastligi va davlat tomonidan innovatsiyalarni qo‘llabquvvatlashga yetarlicha mablag‘larning ajratilmasligi ilmiy tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar sohasining rivojlanishiga ko‘p jihatdan salbiy ta’sir ko‘rsatadi.



Bunday variantni amalga oshirish natijalari mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish maqsadlariga mutlaqo mos kelmaydi. Bunday variant O‘zbekistonni G‘arbning yetakchi rivojlangan mamlakatlaridan uzoq muddatli texnologik orqada qolishga va istiqbolda yangi industrial davlatlarga mamlakatning raqobat kurashida yutqazishga olib keladi. Shuning uchun rivojlanishning mazkur varianti mamlakat uchun maqbul emas deb, hisoblanadi.

Import texnologiyalari va milliy ishlanmalarni takomillashtirish orqali rivojlanishni quvib yetish siyosati iqtisodiyot tarmoq va sohalarini qayta qurollantirishga yo‘naltirilgan milliy ishlab chiqaruvchilarning texnologik raqobatbardoshligini oshirish va jadal rivojlantirish ikkinchi variantning mohiyatini tashkil etadi. Energetika sohasini rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya resurslari bilan uzlusiz ta’minlash masalalari ham ikkinchi variantni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Milliy xavfsizlik va mudofaa manfaatlari birligida milliy texnologiyalarga talab yaratadi. Fundamental va amaliy fan sohalari yo‘nalishida yaratilgan ilmiy tadqiqot faoliyati natijalari tijorat maqsadlarida keng qo‘llaniladi. Janubiy Koreya, KXDR, Yaponiya, Singapur va Malayziya kabi davlatlarning quvib yetishga asoslangan rivojlanishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu variantning asosida jahon bozorida mavjud bo‘lgan va chet el kapitali yordamida sotib olinadigan yoki jalb qilinadigan texnologiyalardan maksimal darajada foydalanish yotadi. Odatda, import qilinuvchi texnologiyalar har doim ham dunyoda eng ilg‘or texnologiya hisoblanmaydi.

Mazkur varinat bir nechta afzalliklarga ega:

- tayyor va takomiliga yetkazilgan texnologiyalar qo‘llanilganligi bois, mazkur texnologiyalarni qo‘llash jarayonida innovatsion xatarlar past darajada bo‘ladi. Bu vaziyatda texnologiyalar bilan bir qatorda tegishli xizmatlarning barcha turlari - texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash va xodimlarni o‘qitish kabi xizmatlarni ham olish va undan to‘liq foydalanish mumkin bo‘ladi;
- innovatsion loyihalarni amalga oshirish muddatları sezilarli darajada qisqaradi;
- iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida texnologiyaning rivojlanishi yangi yuqori texnologiyali tarmoqlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin;
- texnologiyani tanlash bo‘yicha qarorlarni nomarkazlashtirish xato qarorlar qabul qilish xavfini kamaytiradi.

Biroq, ushbu variantda ham O‘zbekiston sharoitida foydalanishda bir qator xavflar mavjud bo‘ladi. Ular quyidagilardan iborat:

- bir xil yoki birmuncha takomillashgan ilg‘or texnologiyalardan foydalangan holda o‘xshash mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida kuchli raqobat kurashining mavjudligi, bunday holatda faqatgina ijtimoiy mehnat unumdarligini keskin oshirish evaziga raqobat kurashida yutib chiqish mumkin;
- ishlab chiqarishning eng samarali rivojlanishi to‘g‘ridanto‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida yuz beradi, bu esa mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash uchun jiddiy sa‘y-harakatlarni amalga oshirishni talab qiladi. Xorijiy kapitalni va texnologiyalarning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi sezilarli darajadagi ishtiroki uning qaramligini oshiradi va tashqi xavflarni kuchaytiradi;
- iqtisodiyotning texnika va texnologiyalar importiga bog‘liqligi unda mustaqil milliy texnologik tadqiqotlarni rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ilmiy-texnikaviy va fundamental tadqiqotlar sohasida yetakchilikka erishish hamda O‘zbekiston – 2030 ijtimoiyiqtisodiy jihatdan rivojlantirish Konsepsiyasida belgilangan uzoq muddatli maqsad va vazifalarga to‘la mos keladigan variantlarni

amalga oshirish lozim. Ushbu variantni davlat tomonidan amalga oshiriluvchi quyidagi xatti-harakatlar bilan tavsiflash mumkin: ilmiy tadqiqot va ilmiy-texnikaviy faoliyat sohalarini takomillashtirish, milliy ilmiy tadqiqot faoliyati natijalari va ilmiy ishlanmalardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish va mamlakatning yuqori texnologiyali tovarlar va xizmatlarning jahon bozoridagi ulushini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasida «Raqamli O‘zbekiston — 2030 Strategiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishish rejalashtirilgan:

- yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot va mobil aloqa tarmoqlaridan sifatli, xavfsiz, arzon va oqilona foydalanish;
- aloqa va telekommunikatsiyalarning ochiq va raqobatbardosh bozori;
- barcha ijtimoiy obyektlarni Internet jahon axborot tarmog‘i bilan ta’minlash;
- respublika bo‘ylab optik tolali aloqa tarmog‘ining uzunligini kengaytirish;
- aholi punktlarini yuqori tezlikdagi aloqa texnologiyalari (4G va b.) bilan qamrab olish darajasini oshirish;
- shaharlar va qishloqlar o‘rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish;
- elektron hukumatni rivojlantirish xalqaro reytingida eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish;
- elektron davlat xizmatlari ulushini oshirish;
- elektron davlat xizmatlariga ishonchni mustahkamlash, aholining davlat organlari bilan xavfsiz va oson o‘zaro hamkorlik qilishini ta’minlash;
- davlat, biznes va aholining ehtiyojlariga qarab, hisoblash quvvatini samarali taqsimlash va undan foydalanish;
- respublika bo‘ylab kommunal sohada elektron hisoblagichlar ulushini oshirish;
- an’anaviy qog‘oz yoki elektron hujjatga nisbatan elektron yozuvning ustunligi;
- dasturiy mahsulotlarning eksport hajmini kengaytirish;
- IT-parkda rezidentlari sonini oshirish;
- investitsiya muhitini yaxshilash, axborot texnologiyalari sohasida investitsiyalar samaradorligini oshirish;
- aholining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- aholining barcha qatlamlari uchun axborot texnologiyalari sohasida ta’lim olish bo‘yicha keng imkoniyatlarining mavjudligi;
- axborot texnologiyalari sohasidagi professional kadrlar zaxirasining, shu jumladan, boshqaruv kadrlari zaxirasining mavjudligi;
- IT yo‘nalishi bo‘yicha oliv ta’lim muassasalari bitiruvchilari sonini oshirish;
- respublikaning barcha tumanlarida (shaharlarida) raqamli texnologiyalar o‘quv markazlarini tashkil etish.

O‘zbekiston nanotexnologiyalarni, odamlarni va hayvonlarning hayotini ta’minlash va himoya qilish uchun biotibbiyot texnologiyalarni ishlab chiqish va qo‘llashda, dasturiy ta’minotda, shuningdek, energetika, atrof-muhitni boshqarish va atrof-muhitning ayrim sohalarida va boshqa faoliyat sohalarida jahonda yetakchi o‘rinni egallashi mumkin.

Yangi ilmiy va muhandis kadrlarga bo‘lgan talabning nisbatan keskin o‘sishi ushbu variant bilan tavsiflanadi. Uning asosiy xususiyati – yanada ilg‘or milliy innovatsion tizimni shakllantirish va ma’lum darajada mamlakat fundamental fanining asosiy va hatto yetakchi mavqYIni tiklashdan iboratdir.

Yuqorida tilga olib o‘tilgan variant biroz qimmatga tushishini ta’kidlash lozim, chunki u ilmiy tadqiqot faoliyati va fundamental tavsifga ega bo‘lgan ishlanmalarni rivojlantirishga davlat tomonidan keng miqyosda mablag‘lar ajratilishini ko‘zda tutadi. Tadqiqot va ishlab chiqish natijalarini tezkor ravishda tijoratlashtirishga ko‘maklashish, shuningdek, mavjud bozorlar doirasida yangi bozorlar, bo‘sh joylar va segmentlarni faol izlash va yaratish, bularning barchasi yuqoridagi variantni amalga oshirishning yuqori xarajatli ekanligidan dalolat beradi. Turlicha tarmoq tuzilmasiga ega bo‘lgan mamlakat uchun texnologik modernizatsiyalash siyosati variantini tanlash iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalari uchun birdek mos kelavermaydi. Bugungi kunda mamlakat uchun raqobat afzalliklari borasida ma’lum bir ustuvorliklarga ega bo‘lgan iqtisodiyot tarmoq va sohalarini jadal rivojlantirishga urg‘u berish eng maqbul variant hisoblanadi.

Mahalliy ishlab chiqarishlar va hududlarni dunyo miqyosida raqobatlasha oladigan darajada majmuali rivojlantirish yaqin kelajakda mamlakatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning strategik maqsadini tashkil etadi. Bu mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy modernizatsiya qilishni, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta qurollantirishni, yashirin iqtisodiyotga, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishni, iqtisodiy va innovatsion faoliyat sohasida yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

## **10.4-§. O‘zbekistonning investitsion xavfsizligini ta’minlash yo‘llari**

Investitsion xavfsizlik bu iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy qismi bo‘lib u to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilmiy-texnik xavfsizlik bilan bog‘liqdir. Investitsion xavfsizlikning mazmuni shundan iboratki, mamlakatning milliy manfaatlarini ta’minlashda va iqtisodiy va siyosiy qarorlar qabul qilishda xorijiy kapitalning ta’sirini inkor qilish tushuniladi. O‘zbekiston iqtisodiyoti raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida qator muammolarni yengib o‘tmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri bizning iqtisodiyotimiz jahon hamjamiyatiga bog‘liq ekanligi. Shuning uchun ham investitsion xavfsizlik yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham mamlakatning ishbilarmonlik muhitiga ta’sir etuvchi asosiy omil bu jahon iqtisodiyotining holati bo‘lib hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotining asosiy tendensiyalarini jahonning yetakchi davlatlari AQSH, Yevropa, va shu bilan birga Rossiya, Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlar YaIM hajmini barqaror o‘sirishi orqali belgilab beradi.



Investitsion xavfsizlikni shu bilan birga milliy xo‘jalik tizimlarini investitsion jarayonlarga, ya’ni iqtisodiyotning strategik raqobatbardoshligiga va barqaror iqtisodiy o‘sishga ta’siri sifatida ham tavsiflash mumkin.


Investitsion xavfsizlikni oshirishning chora-tadbirlari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshadi:

- iqtisodiyotni barqaror o‘sishi uchun yetarli miqdorda investitsiya kerak;
- investitsiyani optimal tarmoq va hududiy tuzilmasini shakllantirish;
- innovatsion darajada barcha investitsion loyihalarni maksimal joriy etish.

Biroq bugungi kunda mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda milliy iqtisodiyotda bozor infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi (banklar, investitsiya vechur) fondlari, sug‘urta va lizing kompaniyalari faoliyatini rag‘batlantirish) va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo‘lga qo‘yish hamda tadbirkorlarda investitsiya loyihalari bilan ishlash tajribasi va huquqiy bilimlari yetarli emasligi bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida qulay investitsion muhitni shakllantirish va xavfsizlikni ta’minlash, to‘g‘ridanto‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, davlat, korxonalar va aholi tomonidan jamg‘arishni rag‘batlantiradigan mexanizm va instrumentlarni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilar taklif va tavsiya etiladi:

- investitsion resurslarni taqsimlash sohasida cheklashlar va iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirishda investitsiyalarni rag‘batlantirish, xususiy mulkni daxlsizligi kafolatlarini mustahkamlashda davlatning rolini oshirish orqali muvofiqlashtirish;
- investitsiyalarni jalb etish va biznesni yuritish shartsharoitlarini (qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini, kredit resurslarga erishish imkoniyatlarini, kreditlash va xalqaro savdo sohalaridagi rasmiyatchiliklarni soddalashtirish va takomillashtirish orqali) ta’minlash;
- hududiy siyosatda hududlarga investitsiyalarni jalb etish va ularni o‘zlashtirishda soliq pereferensiyalarini, hududda qolayotgan soliq tushumlari ulushini o‘sishida keng imtiyozlar berish bo‘yicha normativ bazani takomillashtirish bilan bir vaqtida mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qabul qilayotgan qarorlar bo‘yicha mas‘uliyatlarini oshirish;
- biznesni yuritish va investitsiyalar jalb etish shartsharoitlarni yaxshilash yo‘nalishida soliq ma’murchiligi, antimonopol siyosat, valyuta va kredit bozorlari, raqobatni rivojlantirish va tashqi iqtisodiy faoliyatni integratsiyalash sohalarida samarali ma’muriy islohotlarini o’tkazish;
- xorijiy investitsiyali korxonalar tomonidan erkin iqtisodiy zonalarga, ustuvor sohalar va hududlarga investitsiya qilganda qo‘srimcha imtiyoz va pereferensiyalar berish orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qulay investitsion muhitni shakllantirish. Qo‘shma korxonalar rahbarlariga va ularning injener-texnik xodimlariga vizalar olish amaliyotini soddalashtirish va ularni ishlab chiqarish infratuzilma korxonalari xizmatlaridan foydalanishda qulayliklarni ta’minlash;
- investitsiyaga oid milliy qonunchilikni xalqaro va mintaqaviy standartlarga uyg‘unlashtirish, O‘zbekistonning Butunjahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishi bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy choralarining ko‘rilayotganligi, xalqaro tajribada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha turli modelli huquqiy tartibga solish usullaridan foydalanish, raqamli iqtisodiyotga investitsiyani jalb etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratilishi bilan bog‘liq vazifalarni hal qilish, o‘z navbatida, investitsiya va investitsion faoliyatga oid qonunchilikni unifikatsiyalash;
- xorijiy investitsiyali korxonalar uchun makroiqtisodiy, qonunchilik va ma’muriy shart-sharoitlarni va imkoniyatlarni hisobga olgan holda barqaror soliq qonunchiligi tizimini joriy etish hamda O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy



investitsiyalarni jalg etish dasturini ishlab chiqish va unda yangi erkin iqtisodiy zonalarning faoliyatini tashkil etishda xalqaro va milliy normalarni hisobga olish.

O‘zbekiston Respublikasida investitsion xavfsizlikni ta’minlashning bosh maqsadi – xorijiy investitsiyalarni jalg etgan holda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish. Ushbu maqsadga faqatgina davlat hokimiyati tomonidan mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish istiqbol rejorda ularga berilgan o‘rin va roliga qarab davlat manfaatlari bilan xorijiy investorlar manfaatlarini optimallashtirish orqali erishishi mumkin. O‘zbekistonning investitsion xavfsizligi xorijiy kapitalga nisbatan hech qanday cheklov yoki tahdid emas, balki uning maqsadi xorijiy kapitalni xalqaro kapital bozoridan O‘zbekiston bozoriga oqib o‘tishini tartibga solish bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekistonning

investitsion xavfsizligiga tahdidlar uch xil:  
xalqaro, davlat va xususiy investor darajasida  
bo‘lishi mumkin. Xalqaro darajada,  
ya’ni yirik miqdorda investitsiya qabul qilgan  
alohida bir mamlakatning iqtisodiy  
rivojlanish sikllariga sezilarli darajada ta’sir  
ko‘rsatishi mumkin.

**Xalqaro investitsion oqimlar dinamikasi va uning harakat yo‘nalishlarini**  
**xalqaro moliya tashkilotlarining kapital migratsiyasi sohasidagi siyosati**  
**ta’sirida mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosatini rivojlanishi ham bog‘liq holda**  
**o‘zgaradi.**

Davlatlar darajasida xorijiy mamlakatlar O‘zbekistonning iqtisodiy tizimiga xorijiy investitsiya kiritgan kompaniyalari orqali sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Har qanday donor mamlakat o‘zining milliy manfaatlaridan kelib chiqib kompaniyalarini yuqori ustuvorliklarga erishishlarini istaydi. Bundan xulosa, xorijiy kapitalni u yoki bu mamlakatga tegishli bo‘lishining o‘zi O‘zbekistonning milliy manfaatlariga potensial darajada tahdid soladi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston iqtisodiyotida u yoki bu shaklda xorijiy kapital faoliyati ko‘rilganda ushbu holatni hisobga olish lozim.

Xususiy investorlar darajasida yirik va uncha katta bo‘lmagan kompaniyalarni hamda jismoniy investorlarni alohida holda ko‘rib chiqish kerak.

## 10.1-jadval

### Investitsion xavfsizlik indiktorlari

<b>Mezonlari</b>	<b>Indiktorlari</b>	<b>Omillari</b>
Iqtisodiy o'sish dinamikasi va sifati – innovatsion iqtisodiyotga o'tish	<p>1) YaIM va YAXMDa yalpi investitsiyalarda jamg'armalar ulushi.</p> <p>2) Tarmoqlar va hududlarda investitsiyalarni va YaIMni o'sish sur'atlari o'rtasidagi nisbat.</p> <p>3) Asosiy kapitalni modernizatsiyalash va yangilanish darajasi.</p>	Makroiqtisodiy
Iqtisodiy rivojlanishning strategik ustuvorliklari	<p>1) Fan sig'imkor ishlab chiqarishning tarmoq ustuvorliklari.</p> <p>2) Xo'jalik obyektlarini joylashtirish va investitsiyalashning hududiy ustuvorliklari va ijtimoiy sohani rivojlanishi.</p> <p>3) Hududlararo va tarmoqlararo bozor aloqalarini rivojlantirish ustuvorliklari.</p>	Mezoiqtisodiy (hududiy va tarmoq)
Daromadlarning o'sish ustuvorliklari (rentabellik) va ishlab chiqarish samaradorligi	<p>1) Diskontlashni hisobga olgan holda investitsion loyihalarning rentabelligi.</p> <p>2) YaIMni o'sish sur'atiga va byudjet samaradorligiga qo'shilgan hissa.</p> <p>3) Raqobatbardoshlikning o'sishi.</p>	Mikroiqtisodiy

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan har qanday aniq birorbir investitsion loyihalarda davlat va xalqaro moliya, siyosiy institutlari orqali amalga oshuvchi nisbatan rivojlangan mamlakatlarning pozitsiyalari shakllangan. Agarda uncha katta bo'lmagan xorijiy investor kompaniyalar va jismoniy shaxslar haqida gapirilganda ularning har qanday yo'l bilan foyda olish maqsadini ham hisobga olish lozim. Investitsion faoliyatda tavakkalchilik omillari turli (makro, mikro, mezodarajalar) darajalarda iqtisodiy faoliyat omillari bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lgani sababli qo'shimcha o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Quyidagi jadvalda investitsion xavfsizlikning asosiy indiktorlari investitsion tavakkalchilikni hisobga olgan holda keltirilgan.

Investitsion xavfsizlikni ta'minlash tizimi umummilliy va hududiy darajalarda investitsion faoliyat ustidan majmuali choratadbirlar va nazorat mexanizmini o'rnatuvchi, hamda xorijiy kapitalni O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini aniqlash, uning oldini olish yoki uni neytrallashtirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yalpi korxonalar va institutlar faoliyati sifatida baholash mumkin. Shu bilan birga, investitsion xavfsizlik sohasida qabul qilingan qarorlar tizimni mos ko'rsatkichlaridan foydalanishni, masalan, investitsiyalar dinamikasi va tarkibidan foydalanishni talab etadi.

Mamlakatning investitsion xavfsizligini kuchaytirish jarayonini bugungi holatini aniq yo'naliшlar bo'yicha statistik ma'lumotlarni toplash asosida baholashdan boshlash kerak:

- xo'jalik subyektlarining investitsion faolligining aniq ko'rsatkichlari;
- iqtisodiyotda joriy etilayotgan investitsion loyihalarning umumiyligi samaradorligi;
- asosiy kapitalga sarflangan kapitalning mavjud tarkibi.

Olingan ma'lumotlar asosida investitsion xavfsizlik holati tahlil etiladi. Uning doirasida aniqlanadi:

- mavjud real tahdidlar;
- monitoring va nazoratning asosiy obyektlari;
- hisoblanishi lozim bo'lgan bazaviy ko'rsatkichlar;
- investitsion xavfsizlik indikatorlari;
- investitsion xavfsizlik holati tahlili va uni umumlashtirish.

Ushbu omillar O'zbekiston Respublikasining ishlab chiqarish bazasini shakllanishiga sezilarli ta'sir etadi. Agarda O'zbekistonning importi tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlar kreditlari hisobiga unda investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun yoki xorijiy investitsiyalarni olish uchun rivojlangan mamlakatlardan kelayotgan mashinatexnik tarmoq mahsulotlari ustuvorlik qilmoqda.

O'zbekiston kreditor mamlakatlardan yangi va ba'zi hollarda eski texnologik vosita va uskunalarini sotib olmoqda. Bu bilan O'zbekiston rivojlanayotgan davlatlarning ishlab chiqarishini modernizatsiya qilib bermoqda va shu bilan birga, o'zini innovatsion jarayonlardan chetga surmoqda. Bu milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini pasayishiga olib kelmoqda.

Davlatning investitsion xavfsizligini joriy holatini baholashning qator aniq ko'rsatkichlar va indikatorlar to'plami mavjud. Mavjud ko'rsatkichlarning natijalariga ko'ra milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli istiqbolli rejalariga tuzatishlar kiritiladi. Investitsion xavfsizlik ko'rsatkichlariga quyidagilar qabul qilingan:

- YaIMning tarkibiy qismi sifatida asosiy kapitalga investitsiya;

- YaIMga nisbatan ITKIga qilingan investitsiya, foizda;
- Yalpi kapital qo‘yilmalarda xorijiy investisiyalar ulushi.

Bu ko‘rsatkichlar tizimi yakuniy emas, ular o‘zgarishi va to‘ldirilishi mumkin. Biroq investitsion xavfsizlik to‘g‘risida to‘liq, obyektiv holatni bilish uchun yuqoridagi ko‘rsatkichlarni dinamikada ko‘rish maqsadga muvofiq.

Investitsion xavfsizlik indikatorlari sifatida quyidagilar qabul qilingan:

- asosiy kapitalni jismoniy va ma’naviy eskirish holati;
- mamlakatda amalga oshirilayotgan investitsion jarayonlarning rentabelligi;
- YaIM hajmida yalpi investisiyalar ulushi, foizda;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligi;
- investitsiyaning mavjud dinamikasi.

Innovatsion xavfsizlik kategoriyasini tizim sifatida ham va har bir tashkil etuvchi bo‘yicha ham alohida ko‘rib chiqish mumkin. Innovatsion xavfsizlikni ta’minalash uchun O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan bir qator ko‘rsatkichlarga erishish darajasi bilan baholanadi:

- O‘zbekiston Respublikasini Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahoning 50 ta ilg‘or mamlakati tarkibiga kiritish;
- band bo‘lganlar umumiy sonida oliy ma’lumotli xodimlar ulushi 2019-yilda 16% dan, 45-50 foizga erishish;
- ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari uchun xarajatlarni oshirish va bu ko‘rsatkichni YAIMga nisbatan 1-1,5 foizga yetkazish;
- O‘zbekistonning band bo‘lgan aholisida tadqiqotchi olimlar soni 0,21 foizga nisbatan 0,4 foizni tashkil etadi;
- iqtisodiyotda tadbirkorlik sektorining ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga xarajatlari ulushi innovatsiyalar uchun barcha xarajatlarning 50-55 foizini tashkil etadi;
- internet tezligini 8 baravarga oshirish, Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish reytingi bo‘yicha mamlakatlarning Top-90 taligiga kiritish;
- yuqori texnologiyali tovarlarning jahon miqyosidagi eksportida mahalliy yuqori texnologik tovarlar eksporti hajmini 2% gacha oshirish;

- Yalpi ichki mahsulotda innovatsion sektorning yalpi qo'shilgan qiymatini 17% dan 20% gacha o'sishiga erishish;
- sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida innovatsion mahsulotlar ulushini 25 % dan. 35% gacha yetkazish;
- tadqiqot va ishlanmalarga sarflanadigan ichki xarajatlarning yalpi ichki mahsulotning 2,5 -3 foizigacha bo'lishiga erishish va ularning yarmidan ko'pini xususiy sektor hisobiga ta'minlash;
- jahon ilmiy jurnallaridagi jami nashrlarda mahalliy tadqiqotchilarning nashrlari ulushini 3 foizga o'sishini ta'minlash.

O'zbekistonda innovatsion xavfsizlikni ta'minlashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) fan, ta'lim, texnologiya va innovatsiyalar sohasida kadrlar salohiyatini rivojlantirish.

2) biznesning innovatsion faolligini oshirish va yangi innovatsion kompaniyalarning paydo bo'lishini faollashtirish.

3) barqaror va muvozanatli rivojlanayotgan ilmiy tadqiqot va ilmiy ishlanmalar sektorini shakllantirish.

4) milliy innovatsion tizimning ochiqligini, shuningdek, mamlakatning innovatsiyalarni yaratish va ulardan foydalanish borasida global jarayonlarga qo'shilishini ta'minlash.

5) markaziy va mahalliy davlat organlari tomonidan olib borilayotgan innovatsion siyosatni amalga oshirish bo'yicha faoliyatni faollashtirish. 6) fan, ta'lim, texnologiya va innovatsiya sohasida kadrlar salohiyatini rivojlantirish.

7) iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini belgilaydigan, shuningdek, ushbu rivojlanishni ta'minlaydigan ta'lim va fan sohalariga eng malakali mutaxassislar, faol tadbirkorlar, ijodkor yoshlarning kirib kelishi uchun samarali moddiy va ma'naviy rag'batlarni yaratish.

8) aholining innovatsiyalar - innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarga moyilligini oshirish.

9) innovatsion tadbirkorlar sonini ko'paytirish.

10) innovatsion tadbirkorlik va ilmiy-texnik faoliyatni targ'ib qilish.

11) bolalikdan boshlab yoshlarda innovatsion jamiyat va innovatsion iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan bilim, kompetensiya, ko'nikma va xulq-atvorni shakllantirish, shuningdek, uzlusiz ta'lim tizimini shakllantirish maqsadida ta'lim tizimini innovatsion iqtisodiyot talablariga moslashtirish.

Innovatsion xavfsizlikni ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida maqsadli

ko‘rsatkichlarga erishish belgilangan. Ushbu ko‘rsatkichlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

### **10.1-jadval**

#### **«Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari**

T/r	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	Joriy holati	Yillar kesimidagi maqsadlar		
				2022	2025	2030
1.	Respublika bo‘ylab qurilgan optik tolali aloqa tarmog‘ining uzunligi	ming km	41	70	120	250
2.	Respublika hududlarining yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog‘i bilan qamrov darajasi	Foiz	67	74	85	100
3.	Ijtimoiy obyektlarning yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog‘i bilan ta’milanganlik darajasi	Foiz	45	100	100	100
4.	Uy xo‘jaliklarining keng polosali Internet jahon axborot tarmog‘i bilan ta’milanganlik darajasi	Foiz	67	74	85	100
5.	Aholi punktlarining keng polosali mobil aloqa tarmog‘i bilan qamrov darajasi	Foiz	78	100	100	100
6.	Elektron hukumatni rivojlantirish xalqaro reytingida «Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi»ning samaradorlik ko‘rsatkichi	ball (0 — 1 oralig‘id a)	0,66	0,70	0,75	0,86

7.	Davlat xizmatlari markazlari tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlariga nisbatan yagona interaktiv davlat	foiz	34	60	70	90
	xizmatlari portali orqali ko'rsatiladigan elektron davlat xizmatlarining ulushi					
8.	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali elektron davlat xizmatlariga nisbatan mobil qurilmalar yordamida foydalanish imkoniyatiga ega elektron davlat xizmatlari ulushi	foiz	5	30	42	60
9.	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladigan tranzaksiyaviy xizmatlar ulushi	foiz	25	45	60	75
10.	Korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar ulushi	foiz	20	40	65	100
11.	Onlayn bank xizmatlari foydalanuvchilari soni (yuridik va jismoniy shaxslar)	mln nafar	10	15	17	20
12.	Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining inkubatsiya va akseleratsiya dasturlariga kiritilgan startap-loyihalar soni	dona	50	250	700	2 300
13.	Axborot texnologiyalari sohasida kadrlarni tayyorlash bo'yicha oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga qabul kvotalar soni	ming	7	12	15	20

Mamlakatning bugungi rivojlanish bosqichida O‘zbekiston uchun innovatsion xatarlar juda katta. Iqtisodiyotni himoya qilish uchun kompleks chora-tadbirlar zarur. Birinchidan, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan investitsiya siyosatini amalga oshirish usul va vositalarini qayta ko‘rib chiqish va uning innovatsion tashkil etuvchisini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Ikkinchidan, avvalambor, institutsional muhit, mulk huquqlarini himoya qilish, infratuzilmani qo‘llabquvvatlash, davlat va biznes o‘rtasidagi munosabatlar, moliya bozorining yetukligi, tashkiliy, axborot, tartibga soluvchi va texnologik to‘siqlarni kamaytirish kabi sohalarda ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash lozim.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. O‘zbekistonning ilmiy-texnik xavfsizligiga qanday tahdidlar mavjud?
2. Ilmiy-texnik xavfsizlikning qanday ko‘rsatkichlarini sanab bera olasiz?
3. Ilmiy-texnik xavfsizlik sohasida milliy manfaatlar qanday?
4. Qanday qilib ilmiy-texnik xavfsizlik mamlakatning iqtisodiy o‘sishiga ta’sir etadi?
5. Mamlakatimizda tashkil etilgan Innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. Davlat innovatsion siyosatining mohiyati va uni amalga oshirishdan ko‘zlangan asosiy vazifalarni tushuntirib bering.
7. Bugungi kunda mamlakatimizda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish borasida to‘siq bo‘layotgan asosiy muammolar nimalardan iborat?
8. Innovatsion muhit tushunchasini sharhlab bering.
9. Milliy innovatsion tizim nima?
10. Milliy iqtisodiyot darajasida innovatsion faoliyat samaradorligini belgilab beruvchi asosiy ko‘rsatkichlarni sanab bering.
11. Innovatsion xavfsizlik nima?
12. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida investitsion xavfsizlikni ta’minlash yo‘llari nimalardan iborat?
13. Innovatsion xavfsizlikni ta’minlash yo‘nalishlarini izohlab bering.
14. O‘zbekistonda innovatsion xavfsizlikni ta’minlash qanday yo‘nalishlarda amalga oshiriladi?

## **11-mavzu. OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI**

### **Reja**

**11.1-§. Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati**

**11.2-§. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasidagi tarkibiy o'zgarishlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash omili**

**11.3-§. Qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish istiqbollari**

#### **11.1-§. Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati**

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli miqdorda ta'minlash, ocharchilik yuz berishining oldini olish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari hamisha har qanday mamlakatda muhim hayotiy muammo hisoblangan. Chunki, tabiiy ofatlar, qurg'oqchilik, urushlar va boshqa sabablar tufayli azaldan aholi o'rtasida ocharchiliklar, qahatchiliklar bo'lib turgan. Shu boisdan, qadimdan turli mamlakatlarda ocharchilik va qahatchilikning oldini olish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligini rivojlantirish, oziq-ovqat zaxiralarini tashkil etish choratadbirlari ko'rilgan. Jumladan, qadimgi Misr, Bobil, Xitoy va boshqa mamlakatlarda qishloq xo'jaligini inqirozga uchramasligini ta'minlash maqsadida serhosil yillarda dehqonlar o'z hosillarining ma'lum qismini majburiy soliq sifatida qishloq oqsoqollariga yoki soliqchilarga topshirishganlar. Yig'ilgan hosilning bir qismi davlat ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lsa, qolgan qismi bir necha yillarga yetadigan miqdorda maxsus urug'lik g'alla va sholi hamda boshqa ozuqabob ekinlar zaxirasiga yo'naltirilgan.

Ikkinci jahon urushi yillarida jahon miqyosida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muammosining keskinlashganligi tufayli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni va qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalariga e'tibor kuchaydi. Ushbu muammoni hal etish maqsadida Birlashgan Millatlar tashkiloti doirasida oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot tuzishga harakat boshlandi. 1943-yilning 18-maydan 3-iyungacha bo'lgan vaqt oralig'ida AQSHning Xot-Springs shahrida dunyoning 46 ta mamlakatlar vakillari ishtirokida oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha xalqaro tashkilot tuzish bo'yicha konferensiya tashkil etilgan. Konferensiyada davlatlarga milliy qishloq xo'jaligini

rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi oziqovqat mahsulotlariga bojxona bojlarini pasaytirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, yangi tashkilotning nomini Birlashgan millatlarning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) deb nomlash taklif qilindi. Ammo 1951-yilda Italiyaning Rim shahriga ko‘chib o‘tgan. Mazkur tashkilotning ustavida dunyo miqyosida kambag‘allikni kamaytirish, aholining oziqovqat ta’minotini yaxshilash va uning xavfsizligiga oid muammolarni yechish, barchaning salomatligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan arzon hamda sifatli mahsulotlar yetkazishga yo‘naltirilgan vazifalar belgilangan. A’zo davlatlar o‘z zimmalariga quyidagi maqsadlarni amalga oshirish vazifasini olganlar:

- o‘zlarining yurisdiksiyasi doirasida kishilarning ovqatlanish sifatini va turmush darajasini oshirish;
- barcha oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va taqsimlash samaradorligini oshirishni ta’minlash;
- qishloq aholisi ahvolini yaxshilash;
- jahon iqtisodiyotini rivojlantirish va insoniyatni ocharchilikdan xalos qilishga ko‘maklashish.

FAO ustavida turli mamlakatlarda oziq-ovqat tangligi yuzaga kelishi ehtimoli tug‘ilgan hollarda yordam ko‘rsatish nazarda tutilgan. Ta’kidlash kerakki, oziq-ovqat xavfsizligi sohasida strategiyani belgilab beruvchi asosiy xalqaro tashkilot Umumjahon oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha qo‘mita (UOOXK) hisoblanadi. Bu qo‘mita 1974-yilda oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha siyosatiga bog‘liq chora-tadbirlarni ko‘rib chiqish va qabul qilish uchun hukumatlararo tashkilot sifatida tashkil topgan. Qo‘mita oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash muammolariga bag‘ishlangan xalqaro sammit va forumlar uyushtiradi. Ularda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yaqin istiqbolga mo‘ljallangan vazifa va chora-tadbirlar belgilanadi. UOOXK, tomonidan belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha oziq-ovqat xavfsizligini joriy baholash va tadbirlar FAO (FAO), ya’ni BMTning oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi. Bu ishlarga YuNISEF va Umumjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilot hamda uyushmalar jalb etiladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi atamasi xalqaro muomalaga 1972-1973 yillarda yuz bergen don inqirozidan keyin kirib keldi. Bu davrda rivojlangan mamlakatlarda ortiqcha oziq-ovqat ishlab chiqarish yuzaga kelgan holatda uchinchi dunyo mamlakatlarida aholi o‘rtasida ocharchilik vujudga kelgan. Bu muammo jahon hamjamiyatida muhokama qilina boshlangan. Bu muhokamalar zamirida 1974-yilning dekabr oyida bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasida Birlashgan Millatlarning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan —Jahonda oziqovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha Xalqaro majburiyatlar ma’qullandi. Ammo bu hujjatda oziq-ovqat xavfsizligi atamasiga ta’rif berilmagan.

1996-yilning noyabr oyida bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi Rim xalqaro uchrashuvida —Butun dunyo oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha Rim deklaratsiyasi qabul qilingan. Ushbu deklaratsiya har kimning yashash va munosib ovqatlanish huquqiga muvofiq salomatligi uchun xavfsiz va to‘laqonli oziq-ovqat mahsulotlariga erishish huquqiga ega ekanligi tasdiqlangan.

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zini o‘zi, mustaqil ta’minlashga qodirligini ifodalaydi. Shuningdek, oziq-ovqat importiga o‘ta bog‘liqlikdan xalos bo‘lganligini anglatadi.

Ta’kidlash joizki, oziqovqat xavfsizligi faqat ichki o‘zini o‘zi to‘liq oziq-ovqat mahsulotlari ta’minlash bilan cheklanmaydi. Buning uchun oziqovqat importi ham e’tiborga olinadi. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash borasidagi siyosatida, asosan, o‘zining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va ichki sotish bozorlarini rivojlantirishga, qisman, chet ellardan oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish asosida aholini oziq-ovqatga bo‘lgan maqbul darajadagi ehtiyojini qondirish ko‘zda tutiladi.

Oziq-ovqatga jismoniy erishish deganda, kishilarning xavfsiz va to‘yimli oziq-ovqat mahsulotlariga yetarli miqdorda ta’minlanish imkoniyatiga ega bo‘lishi tushuniladi. Bunga erishish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlari mamlakat hududida qabul qilingan iste’mol meyorlariga muvofiq yetarli miqdorda va assortimentda mavjud bo‘ladi hamda ularni aholiga yetkazib berish uzlusiz bo‘lishi kerak. Bunday imkoniyatni vujudga keltirish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ichki va tashqi yetkazib berish manbalari hamda ularning zaxiralari ustidan davlat nazorati tashkil etiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlariga iqtisodiy jihatdan aholining barcha ijtimoiy qatlamlari yetarli hajmda va sifatli ta’minlanishi mamlakatning har bir fuqarosi uning yoshi, mulkiy va ijtimoiy mavqYidan qat‘i nazar oziq-ovqat mahsulotlarining minimal turkumiga ega bo‘lishi uchun zarur miqdordagi daromadga ega bo‘lishi lozimligini ifodalaydi. Bunday imkoniyat, sharoit aholining yetarli daromad darajasini ta’minlash hamda oziq-ovqat mahsulotlarining maqbul narx darajasini nazorat qilish yo‘li bilan vujudga keltiriladi. Shuningdek, aholi o‘zining tomorqa va dala hovli uchastkalarida oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zini o‘zi ta’minlashga harakat qilishi lozim bo‘ladi.

Oziq-ovqat mahsulotlariga ijtimoiy jihatdan erishish deganda, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo‘llab-quvvatlash, moddiy yordam berish asosida yetarli miqdorda va sifatda xavfsiz oziq-ovqat bilan ta’minlash tushuniladi. Oziq-ovqat mustaqilligi asosiy turdagи oziq-ovqat mahsulotlarini mamlakatda ishlab chiqarish, ular bilan o‘zini o‘zi ta’minlash orqali aholini quyi tahlikali me’yordan kam bo‘limgan miqdorda ta’minlash imkoniyatining yaratilganligini ifodalaydi.



Oziq-ovqatlar bilan ta'minlashning ishonchliligi milliy oziqovqat ta'minoti tizimining mavsumlar, iqlim va boshqa o'zgarishlar ta'sirini minimallashtirish qobiliyatidir. Oziq-ovqatlar bilan ta'minlashning barqarorligi esa milliy oziq-ovqat ta'minoti tizimining kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ko'lamida rivojlanishi hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi darajalari va ularga mos subyektlar hamda ularning vazifalari:

- 1) global, ya'ni umumjahon;
- 2) subregional (mintaqalararo), ya'ni Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, G'arbiy Yevropa, Sharqi Yevropa, Afrika va Osiyo qit'alari, Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq va boshqalar;
- 3) millatlararo (davlatlararo);
- 4) davlat;
- 5) mahalliy;
- 6) aholi guruhlari, ya'ni aholining daromadlar bo'yicha ijtimoiy guruhlarining oziq-ovqat xavfsizligi;
- 7) oilaviy kabi darajalarini keltirishgan.

Har bir darajadagi oziq-ovqat xavfsizligi subyektlari ham turlichadir. Masalan, umumjahon, global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda Birlashgan Millatlar tashkiloti, uning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasidagi tashkiloti, oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qo'mita va boshqalar global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda o'z maqsadi va vazifalariga ega. Ularning umumiyligi maqsadi dunyo mamlakatlariga barqaror iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish, ochlikka qarshi kurash dasturlarini amalga oshirishda, oziq-ovqat zaxiralarini yaratishda muhim boshqaruvchilik, muvofiqlashtirish vazifalarini bajarish hisoblanadi. Subregional (mintaqalararo) oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda mintaqalararo birlashmalar, forumlar barqaror iqtisodiy o'sishga ko'maklashish, sifatli oziq-ovqat mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish vazifasini amalgalashadi.

### **11.1-jadval**

#### **Oziq-ovqat xavfsizligining subyektlar nuqtayi nazaridan darajalari**

Darajalar	Muammoni hal etuvchi subyekt	Subyektning funksiyalari
-----------	------------------------------	--------------------------

1.Global	BMT, ixtisoslashgan tashkilotlar (FAO, JST, Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qo'mita) Umumjahon banki va bosh.).	Barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish, uzoq muddatli ochlikka qarshi dasturlar, oziqovqat zaxiralarini yaratish
2.Mintaqalararo	Mintaqalararo uyushmalar, tegishli organ va forumlari	Barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish, oziq-ovqatlarning sifat parametrlarini yaxshilash
3.Millat- lararo (davlatlar- aro)	Mintaqaviy birlashmalar, ularga tegishli boshqarish organlari. Kuchsiz tashkillashtirishgan (YI tashqari).	Savdo, narxlar, standartizatsiya bo'yicha kelishuvlar tuzish orqali, hamkorlikda harakatlanish
4.Davlat	Hukumat, qonun chiqaruvchi organlar.	Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun qonuniy, me'yoriy-huquqiy va resurs bazalarini yaratish, tegishli fondlar va ularning zaxiralarini shakllantirish. Oziq-ovqat sifati parametrlarini oshirish yo'nalishlarini belgilash
5.Mahalliy	Hududiy boshqarish organlari (viloyat, tuman)	Uy xo'jaliklarida daromadlar olish uchun sharoitlarni yaratish. Mahsulotlar bilan ta'minlash sifatni nazorat qilish.
6.Aholi Guruhlari	Daromadlar bo'yicha uy xo'jaliklari guruhlari	Ratsional iste'molni ta'minlashga yetarli daromadlarga erishish
7.Oilaviy	Uy xo'jaliklari	Oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lish va foydalanish

Millatlararo (davlatlararo) oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida Yevropa Ittifoqi, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi va shu kabi davlatlararo uyushmalarda unga a'zo davlatlar o'zaro savdo, narx va standartlar bo'yicha shartnoma, kelishuvlar tuzish orqali o'z faoliyatlarini uyg'unlashtirish vazifalarini amalga oshirishga harakat qiladilar. Oziq-ovqat xavfsizligining davlat darajasida hukumat qonun chiqaruvchi va sud organlari bilan birgalikda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida uning qonunchilik, huquqiy-me'yoriy asoslarini va resurs

bazasini yaratish, oziq-ovqat fondlarini va zaxiralarini vujudga keltirish, oziq-ovqat sifati ko'rsatkichlarini va parametrlarini oshirish yo'nalishlarini belgilash vazifalarini bajaradilar.

Har bir shaxs darajasidagi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Har bir insonning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari uning organizmi, xohishi, orzu-istiklari, hayot tarziga bog'liq ravishda individual bo'ladi. Shuning uchun har bir shaxs sog'lom va faol hayot tarziga muvofiq ravishda o'zining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha individual vazifalari boshqalarnikidan, hatto yaqin oila a'zolarinikidan ham farq qiladi. Muhammad payg'arimizning hadislarida shaxs iste'moli, o'zini oziqlantirishi, o'zini parvarishlashi, o'zining sog'lig'ini o'ylashi, o'zini moddiy ta'minlashi lozimligi birlamchi ekanligiga ishoralar mavjud. Jumladan, unda —nafaqa va sadaqa berishda avvalo, o'zingdan boshla. Agar biror narsa ortsa, ahli ayolingga ber. Yana biror narsa ortib qolsa, qarindoshlaringga ber. Ulardan ham ortsa boshqalarga berl, -deyilgan.

Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligiga tashqi tahdidlar mamlakat tashqarisida, shu jumladan, jahon va global miqyoslarda hamda qo'shni va hamkor mamlakatlarda yuzaga keladigan va unga xavf tug'diradigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, omillar hamda voqeliklarda namoyon bo'ladi. Ularning asosiyлари quyidagilarda ifodalanadi:

- jahon iqtisodiyotida inqirozli tendensiyalarning kuchayishi, global iqtisodiy, moliyaviy, agrar inqirozlarning yuz berishi, xalqaro oziq-ovqat bozorlarining qisqarishi va ularda narxnavoning oshib borishi;
- dunyo aholisi sonining o'sib borishi va urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi sharoitida jahon qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining kamayib borishi;
- aholi soni va uning ehtiyojlarining o'rtacha yillik o'sishi sur'atlariga nisbatan asosiy oziq-ovqat turlari, shu jumladan, bug'doy, sholi, guruch ishlab chiqarishning yillik o'sish sur'atlarining pasayishi va orqada qolishi, ularning jami hajmlari va zaxiralarining kamayishi;
- chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj va iste'molining ortib borishi sharoitida yaylovlarning kamayishi natijasida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi;
- ekologiyaning yomonlashuvi, iqlim o'zgarishlarining oziqovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga salbiy ta'sirining kuchayishi;
- dunyo bozorlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va yuqori foyda olish maqsadida yirik eksportyor mamlakatlardagi transmilliy korporatsiyalar tomonidan qishloq xo'jaligi va sanoatda ularni ishlab chiqarish jarayonlarida turli antibiotik, gormonlar va shu kabi inson salomatligi uchun

zararli komponent va qo'shimchalarini keng miqyosda qo'llash natijasida sifatsiz va xavfli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarining o'sib borishi.

Mamlakat hududiga noqonuniy tarzda oziq-ovqat mahsulotlari kiritilishi, oziq-ovqat kontrabandasining kuchayishi;

- ayrim mamlakatlarda qurg'oqchilikning yuz berishi, dunyo miqyosida chuchuk suv resurslarining kamayib borishi va ulardan samarasiz foydalanish, sel va suv toshqinlari;

- rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi farqlarning kuchayib borishi, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarning oziq-ovqat importiga bog'liqligining o'sishi, aholisi to'yib ovqatlanmayotgan va ochlik hukm surayotgan mintaqalarning ko'payib borishi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida oziq-ovqat mahsulotlarini importiga qaramlar soni ko'payib bormoqda. Oziqovqat importerlari bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar soni o'tgan asrning 90-yillarida 74 tadan 89 taga yetdi. Oziq-ovqat mahsulotlarining importiga bog'liq (qaram) bo'lgan mamlakatlar ulushi Afrikada 70% atrofini, Janubiy Osiyoda 37%ni, Lotin Amerikasida 26,7%ni tashkil etadi. Bu esa jiddiy tahdiddir.

Dunyoning ayrim hududlarida o'zaro va fuqarolik urushlari, terroristik harakatlarning hamda siyosiy keskinlikning kuchayishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining keskin kamayib ketishi, qochoq va migrantlarning ko'payishi, ularning mamlakat hududiga norasmiy kirib kelishi natijasida xalqaro va mamlakat ichki oziq-ovqat bozorlarida narxnavolarning oshib ketishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni qiyinlashtiradigan muammoli vaziyatlarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, an'anaviy hamkor mamlakatlardagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning yomonlashuvi, ular bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, eksport va import aloqalarining uzilishi yoki susayishi ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xavf soluvchi jiddiy tashqi tahdid hisoblanadi.

Mamlakat ichida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, xavf soladigan, uni qiyinlashtiradigan, muammoli vaziyatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladigan omillar, jarayon va voqeliklar ichki tahdidlar deb ataladi. Oziqovqat xavfsizligiga ichki tahdidlar xilma-xil va nihoyatda ko'p bo'lib, ularning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy holatining yomonlashuvi;
- investitsion, innovatsion faollik va ilmiy-texnikaviy salohiyatining pasayishi;
- qishloq xo'jaligi va sanoat oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish potansialining pasayishi, texnik va texnologik bazasining

rivojlanmaganligi, ularda jismoniy va ma’naviy eskirgan asosiy fondlar ulushining yuqoriligi;

- mamlakatda texnik, texnologik, iqtisodiy va moliyaviy resurslarning yetishmasligi, kamligi;
- ekologik vaziyat yomonlashuvining salbiy ta’sirining kuchayishi;
- aholi sonini yillik o’sish sur‘atining YAIM yillik o’sish sur‘atiga nisbatan yuqoriligi;

• urbanizatsiya jarayonlari ta’sirida qishloq xo‘jaligi yerlari va ekin maydonlari, yaylovlarning qisqarib borishi, suv resurslari tanqisligining kuchayishi;



- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligining pasayishi;

- mamlakatda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari tannarxi va narxlarining o’sib borishi, yuqoriligi;

- mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligi va unumdorligining pasayishi;

- oziq-ovqat mahsulotlari sifatining pastligi. Sifatni nazorat qilish va boshqarish tizimining xalqaro me’yorlardan orqada qolganligi;

- milliy oziq-ovqat mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlarda raqobatdoshligining pasayishi;

- mamlakatning oziq-ovqat importiga qaramligi;

- aholining daromadlar bo‘yicha tabaqalanishining kuchayishi, ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta’minlangan aholi sonining ko‘payishi;

- aholi to‘lov qobiliyatining past darajadaligi, narxlar o’sishi darajasining aholi daromadlari o’sishi darajasiga nisbatan yuqoriligi;

- iqtisodiyotni, shu jumladan, qishloq xo‘jaligini tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Iqtisodiyotni tartibga solishning soliq-byudjet va pul-kredit dastaklaridan foydalanish samaradorligining pastligi;

- aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalashga xizmat ko‘rsatuvchi bozor, yo‘l-transport, savdo-tijorat, ovqatlanishni tashkil etish infratuzilmalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi;

- aholi ovqatlanishining sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tavsiya etilgan me’yorlariga, tartib-qoidalalariga, sanitariya-gigiyena talablariga rioya etish madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi va boshqalar.

Jahonda to‘yib ovqatlanmaslik muammosi bilan birga katta yoshdagilar orasida ortiqcha semirish muammosi ham mavjud bo‘lib, 2018-yilda ularning soni 672 million kishidan ortiqni tashkil etdi. To‘yib ovqatlanmaslik va ortiqcha vazn hamda semirish oziq-ovqat xavfsizligining yo‘qligi sabablari hisoblanadi. Bu holatlar to‘liqsiz, me’yorsiz ovqatlanish tufayli vujudga kelib, oziq-ovqat xavfsizligining mavjud emasligidan dalolat beradi. Buning natijasida besh yoshgacha bolalarda bo‘y o‘sishining sekinlashishi 2018-yilda 151 million (bolalar umumiyligi sonining 22%) bolalarda kuzatilgan. Bundan tashqari, organizmi quvvatsizlanishga duchor bo‘lgan besh yoshgacha bolalar soni 51 millionni (7,5%), ortiqcha vaznga ega bo‘lgan bolalar soni 38 millionni (5,6%) tashkil etgan.



qit‘asi mamlakatlarida 311,9 million(6,9%), Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlarida 15,2 million kishini (1,4%) tashkil etdi.

Jahonda va har bir mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash uchun ichki va tashqi tahdidlarning oldini olish, ularning ta’sirini minimallashtirishga qaratilgan iqtisodiy strategiya va tizim hamda uni amalga oshirish mexanizmining vujudga keltirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

### **11.2-§. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlar oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash omili**

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash har qanday mamlakat iqtisodiy strategiyasi va siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy, millatlararo



barqarorlik uni amalga oshirish samaradorligiga bog‘liqdir. Buning uchun mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash tizimi va uni amalga oshirish mexanizmi shakllantirilishi lozim bo‘ladi.

Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash tizimi va mexanizmini shakllantirishning asosiy maqsadi va vazifalari uning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash strategiyasi, dasturi yoki doktrinasida belgilab qo‘yilgan bo‘ladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash tizimi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- xavfsizlik obyektlarining hayotiy muhim manfaatlariga ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash va ularni oldini olish hamda neytrallashtirish;
- xavfsizlikni ta’minlash vositalarini vujudga keltirish va qo‘llab-quvvatlash hamda tahdidlar vujudga kelgan sharoitda ularni boshqarish;
- xalqaro shartnomaga va kelishuvlarga muvofiq davlatdan tashqarida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish.

Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash quyidagi shartlarni ro‘yobga chiqarish orqali amalga oshiriladi: muvozanatlashgan davlat va mintaqaviy xomashyo, oziq-

ovqat resurslarini shakllantirish maqsadida agrosanoat ishlab chiqarishini, shuningdek, ASKnинг eksport potensialini barqaror rivojlantirish;

- aholi turmush darajasi va sifati o‘sishini ta’minlash, tibbiyat me’yorlari bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilishga yetarli bo‘lgan daromadlar olish uchun sharoitlar yaratish;
- yetmayotgan oziq-ovqat va xomashyoni import qilish uchun zarur bo‘lgan valyuta resurslari zaxiralarini, shu jumladan, eksportdan olingan mablag‘lar hisobiga yaratish;
- mamlakatning oziq-ovqat va xomashyo bilan o‘zini o‘zi ta’minlashning barqaror darajasini qo‘llab-quvvatlash hamda import o‘rnini bosadigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash mexanizmi-davlatga oziq-ovqat xavfsizligi darajasini barqarorlashtirishga imkon beruvchi yagona huquqiy me’yorlar asosida tartibga solinadigan mexanizmga birlashgan xalqaro, milliy va mintaqaviy darajalarda o‘zaro bog‘langan tashkiliy shakllar va iqtisodiy usullar yig‘indisidir. Milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash mexanizmi o‘z ichiga xalqaro, milliy va mintaqaviy darajadagi xavfsizlik subyektlarini, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash dastaklarini, tamoyillarini va uni baholashni, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash darajasini oshirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni, ularni monitoring qilish hamda monitoring natijalarini hisobga olgan holda dasturlarga tuzatishlar kiritishni oladi.

O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun quyidagi hududiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Huquqiy mexanizm – yer qonunchilagini bozor munosabatlariga asoslangan holda yanada takomillashtirish:

- qishloq xo‘jaligida ipoteka kreditlarini ajratish bo‘yicha huquqiy asoslarni shakllantirish;
- mahsulot sifatini boshqarish va xavfsizligini nazorat qilishning huquqiy-me’yoriy mexanizmlarini takomillashtirish;
- mahalliy eksport qiluvchilar huquqini xorijiy davlatlarda himoya qilish;
- zamонавија bozor institutlari va infratuzilmalarini shakllantirish uchun huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- agrar tarmoqda integratsiyani rivojlantirishning huquqiy-me’yoriy asoslarini takomillashtirish;



- Umumjahon Savdo Tashkiloti talablaridan kelib chiqqan holda tarmoqni isloh qilishning huquqiy asoslarini shakllantirish;
- mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash Dasturini ishlab chiqish;
- «Iste’mol savati to‘g‘risida»gi qonunni qabul qilish.

Iqtisodiy mexanizm – qishloq xo‘jaligida ipoteka kreditlari ajratishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish:

- agrar tarmoqqa investitsiya, shu jumladan, xorijiy kapitalni jalb qilishni oshirish;
- narx va kredit siyosatini mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirish;
- byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan oqilona foydalanish va uni qat‘iy nazorat qilish ;
- qishloq xo‘jaligini moliyaviy sog‘lomlashtirish tizimi va ishlab chiqaruvchilar bankrotligi mexanizmini ishlab chiqish, yagona yer solig‘ini yanada

takomillashtirish tez buziluvchi mahsulotlarni eksport qiluvchilar uchun transport tariflarini optimallashtirish;

- yer unumdorligini oshirgan xo‘jalik subyektlariga iqtisodiy imtiyozlar berish;
- qishloq joylarida muhandislik va ijtimoiy infratuzilmalarni moliyalashtirishning samarali mexanizmini ishlab chiqish;
- ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qishloq xo‘jaligi balansiga o‘tkazish;
- agrar tarmoqda integratsiyani rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish, agrosanoat majmui tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish.

Tashkiliy mexanizmlar – favqulorra vaziyatlarda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minalash mexanizmini ishlab chiqish:

- agrar sohada ilg‘or axborot tizimini shakllantirish;
- oziq-ovqat mahsulotlari savdosida ma’muriy va texnik to‘siqlarni yo‘qotish;
- milliy sertifikatsiyalash tashkilotlarini xorijiy davlatlarda akkreditatsiyadan o‘tkazish.

Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish va tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi quyidagi muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan:

davlatning oziq-ovqat ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash, iste’mol jarayonlarini tartibga solishdagi rolini kuchaytirish;

- mamlakat ichki oziq-ovqat bozori infratuzilmasining elementlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va energiya tejovchi texnologiyalarini joriy etish;
- agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi tarmoq va sohalarining integratsiya va kooperatsiyasini rivojlantirish (yirik ishlab chiqarish korxonalari, qishloq xo‘jaligi klasterlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish);



- eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarini ishlab chiqarish bo‘yicha mamlakat va uning hududlari bo‘yicha tarmoq uyushma va assotsiatsiyalarini vujudga keltirish;
- qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari

rahbarlari, ASK. tarmoqlari korxonalarining rahbar va mutaxassislarini bozor sharoitida ishlash tamoyillari bo'yicha o'qitishni tashkil etish.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni kompleks baholash o'z ichiga uchta muhim jihatni oladi:

- iqtisodiy: qishloq xo'jaligi mahsulotlarini mintaqaning ASK ishlab chiqarish - iqtisodiy salohiyati resurslarining cheklanganligini hisobga olgan holda zarar ko'rmaslikni va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash uchun yetarli bo'lgan hajmlarda ishlab chiqarish;

institutsional: oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga imkon beradigan davlat va bozor institutlarining samaradorligi, me'yoriyhuquqiy bazaning mosligi, ASKnii boshqarishning barcha darajalarida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning ishchanligi;

- ijtimoiy: aholini yuqori sifatli mahsulotlar bilan yetarli miqdorda va ularning to'lov qobiliyatiga muvofiq ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha uchta muhim jihat: agrosanoat majmuasida oziq-ovqat ishlab chiqarishni tartibga solish va rag'batlantirish, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoji erishishini va iste'molini ta'minlash va bu boradagi imkoniyatlarini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini boshqarishni tashkil etish tizimini takomillashtirib borish bo'yicha dastak va choratadbirlarni o'z ichiga oladi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmi agrosanoat majmuasida oziq-ovqat ishlab chiqarishni tartibga solish va rag'batlantirish sohasida quyidagi dastak va choratadbirlarni o'z ichiga oladi:

- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qonuniy, huquqiyemeyoriy asosini vujudga keltirish va takomillashtirib borish;

- byudjet-soliq vositalari orqali oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirish. Bunda soliq imtiyozlari, dotatsiya va subvensiyalar berish nazarda tutiladi;

- pul-kredit siyosati dastamlari vositasida oziq-ovqat ishlab chiqarishni rag'batlantirish. Bunda imtiyozli kreditlash tizimining joriy etilishi nazarda tutiladi;

- oziq-ovqat eksporti va importini bojxona tariflari va tarifsiz tartiblash. Bunda mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan yoki kam miqdorda ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlarini import qilishni hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning oziq-ovqat, shu jumladan, qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini eksport faoliyatini bojxona tariflari yoki tarifsiz tartibga solish va rag'batlantirish chora-tadbirlari amalga




oshiriladi;

- ASM tarmoqlariga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish. Bunda agrosanoat majmuasi tarmoqlariga, jumladan, qishloq va baliqchilik xo'jaligi, suv xo'jaligi, oziqovqat sanoati tarmoqlariga ichki va xorijiy investitsiyalarni kiritishni, mamlakat mintaqalarida, erkin agrar iqtisodiy zonalar, qishloq xo'jaligi klasterlarini tashkil etishni rag'batlantirish, ularni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshiriladi.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan erishishini va xavfsiz iste'mol sohasida ushbu mexanizm quyidagilarni o'z ichiga oladi:

### **11.1-rasm. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmi va uning dastaklari.**



- aholi daromadlari o'sishini rag'batlantirish. Bu borada tirikchilik minimumini va iste'mol savatini aniqlash, ish haqining eng kam miqdorini belgilash, byudjet tashkilotlari ish haqini oshirib borish, yillik inflatsiya darajasiga muvofiq indeksatsiya qilish amalga oshiriladi;

- kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalash. Bu borada bolali oilalarga, yolg'iz va nogiron kishilarga moddiy yordam ko'rsatish, ishsizlik nafaqasi, talabalarga stipendiyalar joriy etish, pensiya va keksalik nafaqalari tayinlash, ijtimoiy sug'urta, kambag'allik va qashshoqlikni qisqartirish bo'yicha ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, ijtimoiy sug'urta nazarda tutiladi;
- oziq-ovqat sifati va xavfsizligini nazorat qilish tizimi oziqovqat sifati va xavfsizligi standartlarini, muvofiqlik sertifikatlarini joriy etishni, ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, sifat monitoringini amalga oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari savdosini va umumovqatlanish muassasalarini sanitariya-gigiyena hamda ekologik nazoratini tashkil etish va shu kabilarni o'z ichiga oladi;
- oziq-ovqat iste'molchilarini huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimi monopolistik faoliyatni tartibga solish, raqobatni rag'batlantirish va iste'molchilar huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish bo'yicha davlat organlari va Federatsiyalar faoliyatini o'z ichiga oladi;
- oziq-ovqat mahsulotlarini tashish, saqlash, sotish, umumovqatlanish infratuzilmasini rivojlanishini rag'batlantirish. Bunda transport, yuklash-tushirish, oziq-ovqat mahsulotlarini joylash va o'rash idishlari, taralari, jihozlari, qadoqlash, qoliplash, saqlash omborlari, kameralari, sovutkichlari, ular bilan ulgurji va chakana savdo bozorlari, shahobchalari, umumovqatlanish restoran, kafe, taomxonalar faoliyatini tartibga solish hamda rag'batlantirish nazarda tutiladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarishni tashkil etish tizimi mazkur mexanizmning amal qilishini tashkil etadi va ta'minlaydi. Bunda davlat rahbari bo'lgan Prezident oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash strategiyasini va davlat siyosatini ishlab chiqish hamda amalga oshirishga, bu jarayonlarni nazorat qilishga bosh bo'ladi.

Oliy Majlis oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish orqali uning qonuniy, huquqiy-me'yoriy asosini takomillashtirib borishda muhim rol o'ynaydi.

Vazirlar Mahkamasи, uning tarkibidagi moliya, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, sog'liqni saqlash, bandlik va mehnatni mudofaza qilish hamda vazirliklar, davlat soliq qo'mitasi va boshqa tegishli vazirlik hamda davlat qo'mitalari, agrosanoat majmuasi tarmoqlari boshqaruv organlari oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning barqaror zaxiralalarini tashkil etish, aholining ularga jismoniy va iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan erishishlarini ta'minlashga



yo‘naltirilgan davlat iqtisodiy strategiyasi va siyosatini amalga oshirishda ijrochilik funksiyalarini bajaradilar.

Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini imtiyozli kreditlash amaliyotini yuritish orqali muhim tartibga soluvchilik funksiyasini amalga oshiradi.

Mahalliy hokimliklar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish va tegishli davlat organlari hamda nodavlat-notijorat tashkilotlari bilan ijtimoiy sheriklik munosabatlarini o‘rnatib, huquqlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan dasturlarni, chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

Mamlakat miqyosida oziq-ovqat xavfsizligining asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

- oziq-ovqat bilan mamlakatning o‘zini o‘zi ta’minlash darajasi va oziq-ovqat mahsulotlarining mustaqil ta’minotining import asosida yetkazib berishga bog‘liq emasligi;
- strategik va joriy oziq-ovqat zaxiralarining iste’molning normativ me’yorlariga nisbatan qiyosiy miqdorlari;
- aholi jon boshi hisobiga oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasi;
- o‘ta muhim mahsulotlarni iste’mol darajasi;
- aholining turli tabaqalari uchun oziq-ovqatga jismoniy va iqtisodiy erishish darajasi;
- asosiy turdagи oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining barqarorligi;
- oziq-ovqat mahsulotlarining sifatliligi va ekologik sofligi.

Mamlakat mintaqalarining oziq-ovqat xavfsizligi quyidagi mezon va ko‘rsatkichlar bilan baholanadi:

1. Oziq-ovqatga jismoniy erishish. Oziq-ovqat savdosini amalga oshirish uchun 1000 kishi hisobiga maydon bilan ta’minlanganligi va hududda yo‘llar tarmog‘ining mavjudligi bilan aniqlanadi. Oziq-ovqatga erishish imkoniyatini belgilovchi ko‘rsatkichlarning yana biri uning narxidir. Uning asosida quyidagilar tahlil qilinadi:

- uy xo‘jaliklarida iste’mol qilingan oziq-ovqatmahsulotlarini o‘rtacha xarid narxlari(so‘m/1kg);
- oziq-ovqat mahsulotlarining turli tarkibdagi uy xo‘jaliklaridagi qiymati (uy xo‘jaligining har bir a’zosiga nisbatan / so‘m);
- aholining iste’mol xarajatlari tarkibida oziq-ovqatga sarflangan xarajatlar (uy xo‘jaligi a’zosiga nisbatan, bir oyda o‘rtacha);

- aholi jon boshiga asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish (kg, dona).

2. Oziq-ovqatga iqtisodiy erishish kambag'allik va aholi daromadlarining xarid qobiliyati koeffitsiyentlari orqali ifodalanadi.

3. Hududda ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan oziqovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi, brak qilingan tovarlar ulushi (sifat koeffitsiyenti) bilan aniqlanadi.

4. Oziq-ovqat mahsulotlarining, birinchi navbatda, donning bir hosil yig'imidan yangisigacha bo'lgan davrdagi mavsumiy zaxiralarining miqdori.

5. Hududning (tumanning) oziq-ovqat importiga bog'liqligi asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'mol nisbati orqali aniqlanadi.

6. Aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining qondirilishi darajasi. Bu ko'rsatkich ovqatlanish koeffitsiyenti orqali aniqlanadi.

7. Tadqiq etilayotgan hududda aholining ovqatlanish ratsionidagi energetik quvvatlar darajasi. Bu ko'rsatkich ovqatning kaloriyaligini meditsina me'yordari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligini baholashda O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning umumiy ulushi chetdan keltirilayotgan mahsulotlarga nisbatan ko'rsatkich sifatida qo'llaniladi:

- don -95% kam emas;
- shakar -80%;
- o'simlik moylari-80%;
- go'sht mahsulotlari (go'shtga hisoblanganda) - 85%;
- sut va sut mahsulotlari (sutga hisoblanganda) -90%;
- baliq mahsulotlari -80%;
- kartoshka -95%;
- osh tuzi- 85%.

Ta'kidlash lozimki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash darajasini aniqlashda mamlakatda asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari aholining jon boshiga amalda erishilgan iste'mol darajasini jahon sog'lijni saqlash tashkiloti va har bir mamlakatning sog'lijni saqlash vazirliklari tomonidan belgilangan ratsional

iste'mol me'yorlariga nisbati bilan taqqoslanadi.

Oziq-ovqat iste'moli me'yori ularning to'yimlilagini ifodalovchi kilokaloriya bilan ham belgilanadi. Jahon oziq-ovqat tashkilotining xalqaro klassifikatsiyasiga ko'ra kuniga 2150 kkal darajasida ovqatlanish to'yib ovqatlanmaslik, ya'ni yarim ochlik holati deb izohlanadi. Inson uchun normal holatdagi ovqatlanish kuniga 2600

kkal darajasi belgilangan. Ekspert baholashga ko‘ra, Rossiyada bir kishining bir kunlik iste’mol darajasi 2013-yilda



2200 kkalni tashkil etadi. Vaholanki, bu ko‘rsatkich 1990-yilda 2590 kkal bo‘lgan. AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ovqatlanishning kaloriyaligi 3500-3600 kkalni tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-2024-yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori bilan tasdiqlangan 2019-2024yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash milliy dasturida oziq-ovqat xavfsizligi 10 xil turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari (don, sut, go‘sht, shakar, o‘simlik yog‘i, kartoshka, sabzavot, meva, tuxum va baliq) guruhi bilan belgilanadi. Mazkur dasturga binoan aholining ovqatlanish darajasini aniqlash Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ning tavsiyasiga asoslanadi va quyidagi guruhlarga ajratiladi (1 kishiga sutkalik kilokalloriya):

birinchi (2300-2800 kkal) – aholi o‘rtasida ochlik va to‘yib ovqat yemaslik mavjud emas, ammo ovqatlanish ratsioni yetarli emas; ikkinchi (2800-3600 kkal) – aholini ehtiyojini ta’minlash uchun resurslar yetarli darajada, lekin ovqatlanish ratsion balansi va mikro-makro elementlar tarkibiga ko‘ra muvozanatlashdirilmagan; uchinchi (3000-3500 kkal) – asosiy komponentlar tarkibi va energetik qimmati bo‘yicha yetarli darajadagi iste’mol; to‘rtinchi (3000-3500 kkal) – ekologik mahsulotlar iste’moli, barcha qatlamdagi aholi sog‘lig‘ini yaxshilash va sonini oshirishga qaratilgan ovqatlanish ratsioni; beshinchi (3000-3500 kkal) – sog‘lom turmush tarzini va faol hayotni uzaytirishni ta’minlovchi ovqatlanish tarkibi.

### **11.3-§. Qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish istiqbollari**

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash O‘zbekistonning mustaqilligini, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlashning garovi hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi muhim o‘rin tutadi. Mamlakat aholisining ko‘payib borayotgani, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayib borishi sharoitida qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining qisqarib borishi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va aholining ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini kengaytirish masalasini yildan-yilga keskin qilib qo‘ymoqda. Mamlakatda qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer maydonlari 1990-yildagi 28080,4 ming gettardan 2019-yilda 25621,6 ming gettarga, ya’ni -2458,8 ming

gektarga, shunga mos ravishda haydaladigan yer maydonlari 4176,5 ming gektardan 4043,6 ming gektarga, ya'ni -132,9 ming gektarga, sug'oriladigan yerlar 3407,3 ming gektardan 3288,2 ming gektarga, ya'ni - 119,1 ming gektarga, qishloq xo'jaligi ekin maydonlari esa 4200,1 ming gektardan 3694,2 ming gektarga, ya'ni -505,9 ming gektarga qisqardi. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning dolzarb ahamiyatga molik ekanligidan dalolat beradi.

Sobiq Ittifoq tanazzulga uchragan davrda, ya'ni 1989-yilda o'tkazilgan statistik taqdiqot ma'lumotlariga ko'ra, iste'mol bozorida aholi uchun zarur bo'lgan barcha mahsulotlarning qariyb 95 foizi bo'yicha uzilishlar bo'lib turgan. Aholi o'rtasida o'tkazilgan rasmiy so'rovlardaga qatnashganlarning 89,3 foizi go'sht mahsulotlarini yetarli darajada iste'mol qilmayotganini aytgan. Bu ko'rsatkichlar sut mahsulotlari bo'yicha 56,5 foizni, shakar bo'yicha 55,3 foizni, qandolat mahsulotlari bo'yicha 49,5 foizni, kartoshka bo'yicha esa 17,5 foizni tashkil etdi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida tub agrar islohotlar asosida qishloq xo'jaligi ekinlari tuzilmasini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishga yo'naltirilgan strategiya amalga oshirildi. Shu jumladan, mamlakatimizda don mustaqilligini qo'lga kiritishga qaratilgan Dasturining amalga oshirilishi katta ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etdi. Agar 1990-yilda ekin maydonlarining yarmidan ko'prog'ini texnika ekinlari, shu jumladan, paxta maydonlari tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilga kelib, ularning maydonlari 35,1% ga qisqartirildi. Shu bilan bir vaqtida, don ekinlari maydonlarining ulushi umumiyligi ekin maydonlarining 24%dan 45,2%ga oshirildi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini bosqichma-bosqich isloh etish va diversifikasiya qilish natijasida mustaqillik yillarida don mustaqilligi qo'lga kiritildi, ozuqabop qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish keskin o'sdi.

2020-yilda 1991-yilga nisbatan don mahsulotlari yetishtirish esa 3,3 barobardan ziyodga, kartoshka yetishtirish 7,7 martaga, meva va rezavorlar 2,5 martaga, uzum 3,2 martaga, sabzavot mahsulotlari 2,9 martaga, poliz ekinlari 2 martaga ko'paydi. Shu bilan birga, paxta xomashyosi ishlab chiqarish hajmi 2 martadan ziyodga kamaydi. U qishloq xo'jalik mahsulotlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 47,7%dan 11%ga qisqardi.

Ta'kidlash lozimki, hukumatimiz tomonidan mamlakatimizda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish borasida amalga oshirigan choratadbirlari dehqonchilik sohasida qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari hajmi va ularning ulushlari o'sishiga erishildi. Ammo 2020-yildan 2017-yilga nisbatan don ekinlari ishlab chiqarish 87,6%ni, kartoshka kavlab olish 98,4%ni, sabzavotlar 93,8%ni, oziqabop poliz ekinlari yetishtirish 93,8%ni, meva va rezavorlar 99,0%ni, uzum yetishtirish 96,2%ni tashkil etdi.

## 11.2-jadval

### **O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining o‘sishi dinamikasi (ming tonna)**

Mahsulot turlari	1991yil	2000 yil	2010-yil	2016 yil	2020 yil	2020-yilda 1991-yilga nisbatan %da
Don	1908	3915	7391,0	8261,3	6375,4	334,1
Paxta xomashyosi	4645,8	3002,4	3404,0	2959,0	2300,0	49,4
Meva va rezavorlar	516,6	801,0	1710,3	3042,8	2589,7	501,3
Uzum	480,5	573,0	997,5	1735,8	1564,5	325,6
Sabzavot	3324,1	2643,1	6346,4	11275,8	9635,1	289,8
Kartoshka	355,7	730,7	1692,9	2958,4	2750,1	773,1
Poliz ekinlari	925,8	359,1	1182,4	2044,9	1904,9	205,7

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni intensivlashtirish, diversifikasiyalash, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, urug‘chilikni yaxshilash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi oshirildi. Don ekinlarining o‘rtacha hosildorligi gektariga 1991-yildagi 17,3 sentnerdan 2020-yilda 39,7 sentnerga, shunga muvofiq ravishda bug‘doy hosildorligi 11,8 sentnerdan 42,2 sentnerga, kartoshka 87 sentnerdan 217,9 sentnerga, sabzavot 188 sentnerdan 253,6 sentnerga, poliz mahsulotlari hosildorligi 106 sentnerdan 197,9 sentnerga. meva va rezavorlar 36,7 sentnerdan 118,3 sentnerga, uzum 50,9 sentnerdan 157,0 sentnerga o‘sdi. 2020-yilda uzumdan tashqari barcha qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi o‘sdi.

Mamlakatimizda chorvachilik sohasida ham tarkibiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Mustaqillik yillarida yirik shoxli qoramollar soni 2,4 barobardan ziyodga, sigirlar soni 2 barobardan ortiqqa o‘sdi. Shuningdek, qo‘y va echkilar hamda parrandalar soni shu davrda mos ravishda 2 barobardan ziyodga oshdi.

Chorva mollari sonining o‘sishi natijasida chorvachilik mahsulotlarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi ulushi 1990-yildagi 36,6% dan 2020-yilga kelib 46,8% ga o‘sdi. Bunga asosan dehqon xo‘jaliklarida chorva mollari

sonining o'sishi hisobiga erishildi. 2019-yilda yirik shoxli qoramollarning 93,6%, quy va echkilarning 84,1%, parrandalarning 57,9% dehqon va tomorqa xo'jaliklari ulushiga to'g'ri kelgan. Natijada 1990-2019-yillarda go'sht (tirik vaznda) ishlab chiqarish barobardan, sut 3,4 barobardan, tuxum 5,9 barobardan ziyodga o'sdi.

Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari hajmining va uni qayta ishlash hajmining o'sishi natijasida aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi ham o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi.

2020-yilda 2000-yilga nisbatan aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan jami don mahsulotlari 159 kg.dan 259 kg.ga, kartoshka 3 barobardan ziyodga, sabzavotlar 3,4 barobarga, poliz mahsulotlari 3,5 barobardan ziyodga, mevalar ham 3 barobarga, uzum 2,2 barobarga, go'sht 2 barobarga, sut 2 barobardan ziyodga va 3,8 barobarga yaqin o'sgan. Ammo 2020-yilda 2016-yilga qishloq; xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish mahsulotlari ishlab chiqarish go'sht (tirik vaznda) dan tashqari kamayganligi, aholi sonining o'sganligi tufayli aholi jon boshiga nisbatan ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham kamaydi.

2010-yildan 1991-yilga nisbatan aholi jon boshiga don mahsulotlari, uzum va sut ishlab chiqarish 2 barobardan ziyodga, meva va rezavorlar, tuxum 3,7 barobarga, kartoshka yetishtirish 4,8 martaga yaqin, go'sht (tirik vaznda) 1,9 martaga, 2000-yilga nisbatan esa 2,1 martaga o'sdi.

### **11.3-jadval**

**Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmining o'sishi dinamikasi (kg)**

	1991yil	2000yil	2016yil	2020-yil	2020-yilda 1991-yilga nisbatan %da	2020-yilda 2000-yilga nisbatan %da
Don	92,5	159,0	259,0	191,7	207,2	120,5
Kartoshka	17,3	30,0	93,0	82,7	478,0	275,7
Sabzavotlar	161,3	107,0	354,0	289,7	179,6	270,7
Poliz ekinlari	44,9	18,0	64,0	57,3	127,6	318,0
Meva va rezavorlar	25,0	32,0	96,0	77,8	311,0	243,1
Uzum	23,3	25,0	55,0	47,0	201,7	188,0
Go'sht (tirik vaznda)	38,3	34,0	68,0	72,7	189,8	213,8
Sut	147,2	147,0	305,0	315,2	214,1	214,4
Tuxum (dona)	59,8	51,0	193,0	221,3	370,0	433,9

Aholi jon boshiga asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning 1991-2020-yillarda o'sishi ularning Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan ratsional iste'mol

me'yorlariga nisbatan birmuncha yaqinlashishiga, don mahsulotlari, sabzavot va poliz oziqbop ekinlar bo'yicha esa oshib ketishiga olib keldi. Jumladan, aholi jon boshiga don mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2010-yildan 1991-yilga nisbatan iste'molning JSST ratsional me'yorlariga nisbatan 76,7%dan 159,1%ga, O'zbekiston Respublikasi SSV me'yorlariga nisbatan 71,7%dan 148,6%ni, poliz va sabzavotlar ishlab chiqarish iste'molning mos ravishda 146,9% dan 247,3% va 153,7%dan 258,7%ga oshdi.

Aholi jon boshiga asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning 1991-2020-yillarda o'sishi ularning bu borada Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan ratsional iste'mol me'yorlariga nisbatan birmuncha yaqinlashganligidan, don, sabzavot va poliz mahsulotlari, ozuqabop ekinlar mahsulotlari bo'yicha esa oshib ketishga erishilganligidan dalolat beradi (11.4-jadval).

#### **11.4-jadval**

#### **O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ratsional iste'mol me'yorlariga nisbati (%)<sup>1</sup>**

<b>Mahsulot turlari</b>	<b>JSST me'yorlariga nisbatan*, %</b>			<b>O'zbekiston Respublikasi SSV me'yorlariga nisbatan, %</b>		
	<b>1991 y.</b>	<b>2016 y.</b>	<b>2020 y.</b>	<b>1991 y.</b>	<b>2016 y.</b>	<b>2020 y.</b>
Don	76,7	206,3	159,1	71,7	192,7	148,6
Kartoshka	17,9	95,4	85,5	17,8	95,1	85,2
Sabzavot va poliz hamda ozuqabop ekinlar	146,9	249,6	247,3	153,7	261	258,7
Meva va rezavorlar	31,1	119,5	96,9	30,2	115,9	93,9
Go'sht (tirik vaznda)	54,6	99,6	103,7	52,4	95,6	99,6
Sut	36,4	76,4	78,0	35,6	74,8	76,3
Tuxum (dona)	24,6	83,2	91,0	21,8	73,8	80,7

**Izoh: JSST so'ngi yillarda oziq-ovqat iste'moli me'yorlarini kg. dan kkalga almashtirgan. Kkallda hisoblash imkoniyati bo'limgani sababli kilogrammda hisoblash amalga oshirildi.**

<sup>1</sup> N.I. Saidahmedova tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi ijobiy holatlarni mustaqillik yillarda agrar sohada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard natijasi sifatida baholash mumkin. Xususan, kartoshka, sut va sut mahsulotlari, tuxum, meva va rezavorlar, go'sht (tirik vaznda)ni aholi jon boshiga ishlab chiqarish ularning ratsional iste'moli me'yorlari darajasiga birmuncha yaqinlashib qolgan. Don mahsulotlari yetishtirish esa aholi jon boshiga ratsional iste'mol me'yorlariga nisbatan o'rtacha 150 foizga ta'minlangan.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda quyidagi muammolar mavjud:

- urbanizatsiya jarayonlarining jadallahuvi va boshqa omillar ta'sirida



qishloq xo'jaligida foydalaniladigan, shu jumladan, ekin yer maydonlarining kamayib borishi. Jumladan, 2010-yillarda qishloq xo'jaligi ekin yer maydonlari 1,7 ming gettarga kamaygan bo'lsa, 2020-yildan 2017-yilga nisbatan 232,2 ming gettarga, ya'ni 6,27% ga qisqardi;

- meliorativ holati yomonlashgan sug'oriladigan yer maydonlarining mavjudligi;
- ilgari sug'orilgan, ammo sho'rangan yerkirada aylangan, qishloq xo'jaligi yer oborotidan chiqib ketgan yerlarning mavjudligi;
- yerlarning cho'llanish jarayonlarining yuz berayotganligi;
- suv resurslari tanqisligi va uning sifatining yomonlashuvi;
- yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligining pastligi, zamonaviy agrotexnika va texnologiyalarni qo'llashning sustligi;
- chorvachilik uchun ozuqa bazasining yetarli emasligi, yaylovlarning kamayib borishi;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirish, texnika va texnologiyalar bilan qurollanish darajasining pastligi, ayniqsa, kichik yer maydonlari uchun kichik mexanizatsiyalashtirish texnikasi, ya'ni mini qishloq xo'jaligi texnikasi, mini traktor va motobloklarning yetarli emasligi;
- ekologik va iqlim o'zgarishlari;
- asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari hosildorligining pasayib borishi;
- fermer va dehqon xo'jaligi rahbarlarining yetarli bilim va malakalariga ega emasligi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda oziq-ovqat sanoati ham muhim ahamiyatga ega. Oziq-ovqat sanoati tayyor yoki yarim fabrikat holda ovqat mahsulotlari, shuningdek, ichimliklar, tamaki buyumlari hamda yog' ishlab chiqarish asosida sovun va yuvish vositalarining bir necha toifalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar guruhidir. Oziq-ovqat sanoati agrasanoat majmuasi tarkibiga kiradi va unda xomashyo yetkazib beruvchi tarmoq sifatidagi qishloq xo'jaligi va savdo tarmoqlari bilan mustahkam aloqador tarmoq hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoatining bir qismi xomashyo tumanlari, boshqa qismi iste'mol tumanlari bilan bog'langan bo'ladi. Bu tarmoq O'zbekistonda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishslash asosida shakllangan. Uning geografik, ya'ni hududiy joylashuvi qayta ishlanadigan xomashyo xususiyatlariaga bog'liq.

Bugungi kunda, oziq-ovqat sanoati korxonalari yuqori darajada mexanizatsiyalashgan, ma'lum darajada avtomatlashgan, kompyuter texnologiyalari va robotlar qo'llaniladigan ishlab chiqarishga aylangan. Shuning uchun mazkur tarmoq nafaqat qishloq xo'jaligi, shu bilan birga, mashinasozlik, energetika, kimyo sanoati bilan bevosita integratsiyalashmoqda.

Bugungi kunda, respublika oziq-ovqat sanoati «O'zbek oziqovqat holding» kompaniyasi (tarmoq yalpi mahsulotidagi ulushi 33,4%) —O'zdonmahsulot||(14,5%) va —O'zvinosanoat xolding||(8,9%) kompaniyalari hamda xususiy korxonalar va boshqa xo'jalik yuritish subyektlari (43,2 %) faoliyat yuritmoqda.

Tahlil davrida o'simlik yog'i va osh tuzi ishlab chiqarish hajmlari kamaydi. Bu hol mazkur turdag'i mahsulotlar importining oshganligi bilan izohlanadi. Oziq-ovqat sanoatida eng muhim muammolardan biri qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash darajasining hamon past ekanligi bilan izohlanadi. O'zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishslash ulushi (darajasi) 2012-yildagi 13,3% dan 2020-yilda 17,8%ga, go'shtni qayta ishslash ulushi 6,9%dan 12,0%ga, sutni qayta ishslash ulushi esa 9,8%dan 14,1%ga o'sdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishslash ulushi Samarqand (30,2%), Toshkent viloyati (Toshkent shahri bilan) da (22,4 %) Qashqadaryo (20,6%), Namangan(19,8%) viloyatlarida birmuncha yuqoridir. Ammo bu ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida, Xorazm, Surxondaryo, Jizzax va Navoiy nisbatan ancha pastdir. Go'shtni qayta ishslash ulushi Toshkent va Andijon viloyatlarida kuzatiladi. Sutni qayta ishslash ulushi esa Namangan va Toshkent viloyatlarida birmuncha yuqoridir. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash darajasi mamlakatimizda ancha past bo'lib, bu borada muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Bu muammolar qayta ishslash korxonalarining sonining kamligi, ularning asosiy ishlab chiqarish fondlarining ancha eskirganligi, qayta ishslash korxonalarining respublika hududlari bo'ylab notekis joylashtirilganli bilan bog'liqdir. Endilikda bu muammolarni hal etish uchun qishloq

xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari sonini barcha hududlarda ko‘paytirish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, yangi texnika va texnologiyalar bilan qayta jihozlash asosida ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash omborlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarini aholi jon boshiga iste'mol qilish bo'yicha Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tavsiya qilinadigan ratsional me'yorlarga qiyoslaganda haqiqiy iste'mol darajalari ham mustaqillik yillarda oshib borish tendensiyasiga ega bo'ldi. Non va non mahsulotlari bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol qilish ushbu tavsiyalarga ko'ra, ratsional me'yorlar darajasidan hamisha yuqori bo'lgan. 2019-yilda aholi jon boshiga iste'mol qilish haqiqiy darajasi JSST va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tavsiya qilgan me'yorlar darajalariga nisbatan o'simlik yog'i bo'yicha 183,6 foiz va 263,7 foizga yuqori bo'lishiga erishilgan. Shuningdek, 2019-yildan 1990-yildagiga nisbatan go'sht va go'sht mahsulotlarining haqiqiy iste'mol darajasi ratsional me'yorlarga nisbatan mos ravishda 44,2 foizdan 61,6 foizga hamda 42,5 foizdan 59,2 foizga o'sdi.

Bunday ijobiy siljishlar respublikamiz agrar sohasining jahon agrar iqtisodiyoti sektori bilan hamkorlik aloqalari ijobiy natijasi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Shu boisdan 2015-yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ga a'zo davlatlarga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'lgan 14 ta davlatdan biri sifatida e'tirof etildi

### **11.5-jadval**

**Aholi jon boshiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlari haqiqiy iste'mol daraj asining ratsional  
iste'mol me'yorlariga nisbatan o'zgarisdinamikasi (% da)<sup>1</sup>**

<b>Mahsulot turlari</b>	<b>JSST bo'yicha ratsional iste'mol me'yor (kg - 1 kishi, 1 yilda)</b>	<b>O'zR bo'yicha ratsional iste'mol me'yor (kg - 1 kishi, 1 yilda)</b>	<b>JSST me'yorlariga nisbatan, %</b>		<b>O'zbekiston Respublikasi SSV me'yorlariga nisbatan, %</b>	
			<b>1990 y.</b>	<b>2020 y.</b>	<b>1990 y.</b>	<b>2020 y.</b>
Non va non mahsulotlari	120,5	129	141,1	147,4	131,8	137,8

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida N. I. Saidaxmedova tomonidan tuzilgan.

Go'sht va go'sht mahsulotlari	70,1	73	44,2	61,6	42,5	59,2
Sut mahsulotlari	404	413	45,3	66,8	44,3	65,4
Sabzavot va poliz mahsulotlari	140,3	134,1	76,3	197,6	79,8	206,7
O'simlik yog'i	13,1	9,1	91,6	183,6	131,8	263,7
Shakar, konditer mahsulotlarini qo'shganda	36,5	40,5	32,8	85,5	29,6	77,03

Bunday ijobiy siljishlar respublikamiz agrar sohasining jahon agrar iqtisodiyoti sektori bilan hamkorlik aloqalari ijobiy natijasi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Shu boisdan 2015-yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ga a'zo davlatlarga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'lgan 14 ta davlatdan biri sifatida e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilingan bo'lib, uning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, quyidagi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi:

- aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash;
- qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish;
- soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash;
- davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;
- tarmoqni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish;
- qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;
- qishloq hududlarini rivojlantirish;
- tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish.

Strategiya ustuvor yo'nalishining asosiy maqsadi – respublikaning barcha aholisi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini ishlab

chiqish va uni samarali amalga oshirishdan iborat. Bu ustuvor yo‘nalish aholini barqaror narxlardagi xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashga qaratilgan. Bu esa O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM), shu jumladan, BMTning 2-BRM «Ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, iste’molni yaxshilash va barqaror qishloq xo‘jaligini targ‘ib qilish»da belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

### **11.6-jadval**

#### **O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish natijasida erishiladigan asosiy ko‘rsatkichlar va indikatorlar**

<b>T/r</b>	<b>Ko‘rsatkichlar nomi</b>	<b>Asos 2018 y.)</b>	<b>2021yilga maqsad</b>	<b>2025yilga maqsad</b>	<b>2030yilga maqsad</b>
1.	Qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymatning yillik o‘sishi	117,3 trln so‘m (14 mlrd AQSH doll.)	3%	5%	5%
2.	Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ida ish o‘rinlari sonining o‘sishi: Qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat sanoati to‘qimachilik sanoati	3 671 300 91 420 140 200	2% 3% 3%	1% 4% 4%	1% 5% 5%
3.	Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti hajmining oshishi	2,3 mlrd AQSH dol	3,5 mlrd AQSH dol	10 mlrd AQSH dol	20 mlrd AQSH dol
4.	Aholi o‘rtasida to‘yib ovqatlanmaydigan lar ulushi	6,3%	5%	3%	0
5.	Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshirish (bir nafar ishchiga bir yilda dollarda)	3 960 AQSH doll.	4 300 AQSH doll.	5 200 AQSH doll.	6 500 AQSH doll.

6.	Qishloq xo‘jaligidagi issiqxona gaz chiqindilarini kamaytirish	15 740 gigagram (2016 yil)	10%	30%	50%
----	--	-------------------------------	-----	-----	-----

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligining muhim rol o‘ynashini hisobga olib, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 30-maqсад: Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazishdan iborat etib belgilangan. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish mo‘ljallangan:

- tumanlarni aniq mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish. Qishloq xo‘jaligida davlat tomonidan qo‘llabquvvatlash ko‘lamini kengaytirish va sug‘urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish;

- yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming hektar maydonni o‘zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish. 200 ming hektar paxta va g‘alla maydonlarini qisqartirish hamda aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berish.

Eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog‘lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarini 2 baravar ko‘paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish;

- tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish;
- ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish. Agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta’minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish;

- agrologistika markazlarini rivojlantirish va zamonaviy laboratoriylar sonini ko‘paytirish. Urug‘chilik va ko‘chat yetishtirish bo‘yicha milliy dasturni amalga oshirish;

- nufuzli xalqaro ilmiy markazlar va oliy ta’lim muassasalari bilan birgalikda Xalqaro qishloq xo‘jaligi universitetini tashkil etish. Agrar sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish;

- aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanilishi uchun sharoitlar yaratish.

### Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Oziq-ovqat xavfsizligining mohiyati va ahamiyati qanday?

2. Ochlik, to'yib ovqatlanmaslik insoniyatga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligi borasidagi siyosatining mohiyati nima?
4. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini o'zi ta'minlash koeffitsiyenti nima uchun hisoblanadi va u qanday ahamiyatga ega?
5. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun qanday tadbirlar amalga oshirildi?
6. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ekinlarining tarkibini o'zgartirish nimalarga qaratilgan?
7. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda davlat boshqaruv organlari qanday vazifalarni bajaradi?
8. Istiqbolda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak?

## **12 mavzu. MAMLAKATNING TRANSPORT TIZIMIDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI**

### **Reja**

**12.1-§. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda transport infratuzilmasining o'rni**

**12.2-§. Mamlakat transport xavfsizligini ta'minlashning strategik yo'nalishlari**

**12.1-§. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda transport infratuzilmasining o'rni**

Transport tizimini majoziy ma'noda yaxlit xalq xo'jaligi majmui subyektlarining o'zaro uyg'unlikda harakatlanishini ta'minlovchi mamlakat va iqtisodiyotning o'ziga xos qon tomiri sifatida ta'riflanadi. Tabiiy geografik sharoiti nuqtayi nazardan Respublika maydoni 448,9 ming km<sup>2</sup> ga teng bo'lib, u g'arbdan sharqqa 1425 km ga, shimoldan janubga esa 930 km ga cho'zilgan. O'zbekiston o'z maydoniga ko'ra, Yevropaning Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Shveysariya, Avstriya kabi mamlakatlar maydonini qo'shib hisoblaganda ham ulardan kattalik qiladi. Transport aholi va moddiy ishlab chiqarishning yuk va yo'lovchi tashish borasidagi ehtiyojlarini qondiradi, mamlakat hududlarini tutashtiradi, tovar, mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqaruvchilari bilan iste'molchilarni o'zaro bog'lovchi o'ziga xos ko'prik hisoblanadi. Bunday o'zaro bog'lovchi o'ziga xos aloqalarsiz bozor va bozor munosabatlarining mavjudligi ham amri mahol. Aynan shu sababli mamlakat transport majmuidagi buzilishlar mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasida jiddiy



salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O‘zbekistonning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash va uning jahon hamjamiyatiga kirib borishi uchun mukammal transport tizimiga ega bo‘lish kerak. Turli xil transport vositalari sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni iste’molchilarga o‘z vaqtida, isrof qilmasdan yetkazishda faol ishtirok etadi. Aholini bir manzildan ikkinchi bir manzilga yetkazishda ham transportning ahamiyati kattadir. Transport ishlab chiqarish tizimida muhim o‘rin tutishi bilan birga u har qanday hudud xo‘jaligi majmuasining muhim qismi bo‘lib xizmat qiladi. Uning rivoji tufayli hududlarni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish va mintaqalashtirish mumkin. Transport infratuzilmasi va yo‘l tarmoqlarining samarali rivojlanishi kadrlarning qishloqlarda mustahkam o‘rnashib qolishiga, mehnat resurslaridan unumli foydalanish imkonini yaratadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda transport va transport kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirish, tashishlarning yuqori darajadagi xavfsizligini ta’minlash, transport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, soha uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli choratadbirlar amalga oshirilmoqda.

Transport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligi va eksport salohiyatini oshirish, transport kommunikatsiyalarini strategik rivojlantirish va barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash maqsadida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1fevraldagagi «Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra<sup>1</sup>: Transport vazirligi avtomobil, temir yo‘l, havo, daryo transportlari, metropoliten, shuningdek, yo‘l xo‘jaligini rivojlantirish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha davlat boshqaruvi organi hisoblanadi;

Transport majmui – bu yuk va yo‘lovchi transport tizimining barcha: temir yo‘l, avtomobil, dengiz, daryo, quvur, havo, sanoat va shahar transport turlarini o‘z ichiga oluvchi yirik ko‘p tarmoqli soha hisoblanadi. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida 2018-yilda O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot hajmining 12,6 %i transport va aloqa tarmog‘iga to‘g‘ri keldi. Bu ko‘rsatkich 1990-yilda 5,9 %,



<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidalgi Farmoni.

1995-yilda 8,4 %, 2000-yilda esa 7,7 %ga teng bo‘lgan. Demak, transport va aloqa tarmog‘ining yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i oshib bormoqda. Sanoat va qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning o‘sishi, keng miqyosdagi kapital qurilishi va transport moddiy texnika bazasining yuksalishi bilan hamohang holda yuk va yo‘lovchilar tashish hajmlari ham ortdi. Jumladan, 2010yildan 2018-yilgacha yo‘lovchi tashish 34,5 %, yo‘lovchi aylanmasi 51,7 %, yuk tashish 37,9 %, yuk aylanmasi 19,1 % ga ko‘paydi.

**«O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ** O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sobiq O‘rta Osiyo temir yo‘llari bazasida 1994-yil 7-noyabrda tashkil topgan. Mamlakat temir yo‘llarining umumiyligi 2000-yillar boshida 15-89 km ni tashkil etgan bo‘lsa, hozirga kelib umumiyligi temir yo‘l uzunligi 6,1 ming km ni tashkil etadi. Jumladan, elektrlashtirilgan temir yo‘llar 1714 km.ga yetdi yoki ushbu ko‘rsatkich jami temir yo‘llarning 2020-yil holatiga 39 foizini tashkil etadi. Tarmoqda 54,7 mingdan ortiq xodimlar faoliyat ko‘rsatadi. Yillik yukni ayirboshlash barcha turdagи transportlarning yuk ayirboshlashi qo‘shilmasining 90% tashkil etadi.

O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan transport turlari orasida yetakchi va muhim o‘rinni temir yo‘llar egallaydi. Mamlakatda tashiladigan yuklarning 66 foiziga yaqini transportning ana shu tarmog‘i zimmasiga tushadi va bu transport mamlakat transport tizimining negizini tashkil etadi.

Eksport va import qilinadigan yuklarning qariyb 80 foizi temir yo‘l transporti orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo‘l yordamida 2018-yil tashilgan yo‘lovchilar soni qariyb 20 million kishini tashkil etgan. Temir yo‘llarda yuk tashishning tannarxi avtomobillarda yuk tashishga nisbatan 3-5 marta, havo transportiga qaraganda esa 12-15 marta arzon tushadi.

Mazkur transport turida mehnat xarajatlari ham avtomobil va havo transportiga ko‘ra ancha kam. Temir yo‘l transportining boshqa transport turlariga nisbatan yana bir afzalligi shundan iboratki, bu transport atrof-muhitga kam zarar yetkazadi, uning yuk va yo‘lovchilar tashish qobiliyati juda yuqori bo‘lib, ob-havo injiqliklari bilan deyarli bog‘liq emas va muntazam ravishda harakatda bo‘ladi. Bu bilan u avtomobil va ayniqsa havo transportidan katta farq qiladi.

O‘zbekiston transport majmuining boshqa mamlakatlarning transport majmuidan asosiy farqi shundaki, iqtisodiyotning real sektoriga xizmat ko‘rsatishda magistral temir yo‘llarning ahamiyati nihoyatda katta. Qulay makroiqtisodiy shart-sharoit va yuk tashishlar bozorida raqobat kurashining shiddatli tus olishi sharoitida temir yo‘l transporti yo‘lovchi va yuk tashish borasida talabning barqaror tarzda qondirilishini ta’min etgani holda, moddiy ishlab chiqarishni imtiyozli rag‘batlantirish asosida iqtisodiy rivojlanishga katta zamin yaratib berdi. Boshqa tarmoqlarning mahsulotlariga narxlarning erkinlashtirilishini hisobga olgan holda, temir yo‘l ta’riflari davlatning qo‘lida muhim makroiqtisodiy regulatorga aylanib ulgurdi.

Temir yo‘l transporti tizim tashkil etuvchi muhim tarmoqlar – ko‘mir, neft qazib oluvchi va neftni qayta ishlovchi tarmoqlar, qora metallarni qazib olish va qayta ishslash, mineral, qurilish va boshqa materiallarni ishlab chiqarishda yuk tashishlarning asosiy qismini amalga oshiradi (asosiy yuklar bo‘yicha tashish koeffitsiyenti 50 %dan ko‘proqni tashkil etadi). Ushbu tarmoqlar milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’min etadi va bevosita mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda, mazkur moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari samaradorligining pasayishi temir yo‘l transportining ko‘rsatkichlari, birinchi navbatda, yuk tashish hajmi va temir yo‘l transporti korxonalarining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bir qator tarmoqlar (masalan, oziq-ovqat sanoati) umumiy yuk tashish hajmida temir yo‘l transporti katta ko‘rsatkichni tashkil etmasada, temir yo‘l transportidan asosiy yuk tashuvchi sifatida foydalanadilar. Biroq shunday bo‘lsa ham, temir yo‘l transporti milliy iqtisodiy xavfsizlikning funksional-tarmoq tashkil etuvchilari, xususan, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda amalga oshirilgan islohotlarga qaramasdan temir yo‘l tarmog‘ini rivoji talab darajadasida emas. O‘zbekiston temir yo‘l zichligi bo‘yicha nafaqat «Uzoq» xorij mamlakatlaridan, balki Ukraina, Belorussiya, Boltiqbo‘yi davlatlaridan ham orqada turadi. Samarqand, Sirdaryo, Farg‘ona, Qashqadaryo viloyatlari temir yo‘l tarmoqlari bilan biroz yaxshi ta’minlangan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Surxondaryo viloyatlari esa bu borada ancha orqada.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati 1995-yil avgust oyida G‘uzor- Boysun - Qumqo‘rg‘on temir yo‘lini qurish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Ushbu yo‘l mamlakatimizning janubiy hududlari – Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tabiiy boyliklari hamda mavjud boshqa imkoniyatlardan unumli va samarali foydalanish imkonini beradi, mazkur hududda istiqomat qiluvchi aholining ish bilan bandlik darajasini ko‘tarish imkonini ham yaratadi. G‘uzor - Boysun - Qumqo‘rg‘on temir yo‘li Surxondaryo viloyatidagi Sarosyo stansiyasidan Qashqadaryodagi Qarshi stansiyasigacha bo‘lgan masofani qariyb ikki martaga qisqartiradi.

Amalga oshirilgan ishlarning eng muhim ahamiyati va mohiyati shundaki, dengiz sathidan 1800 metr balandlikda, qattiq qoya toshlardan iborat tog‘li hududlar bo‘ylab, yozning jazirama issig‘i, garmsellari, qishning izg‘irin shamollari ostida temir yo‘l izlari yotqizilgani, Toshguzar va Dehqonobod, Oqrabot va Darband, Boysun va Qumqo‘rg‘on kabi 6 ta yangi stansiya va yo‘lovchi platformalariga ega bo‘lgan 9 ta bekat barpo etilgani misolida ham ko‘rish mumkin.

Ayniqsa, barcha stansiyalarda yo‘l xavfsizligini ta’minlaydigan ishlab chiqarish obyektlari, mакtab, tibbiyat maskanlari, suv va gaz tarmoqlari kabi ijtimoiy infratuzilma inshootlari barpo qilingani bu loyihaning eng zamonaviy talablar

darajasida amalga oshirilganini ko'rsatadi. «Toshguzar–Boysun–Qumqo'rg'on» temir yo'lining qurilishi jarayonida 43 ta ko'priklar, jumladan, temir yo'l ko'priklari va yo'l o'tkazgichlari singari murakkab muhandislik inshootlari yaratildi. Bu ko'priklarning 9 tasi dengiz sathidan 1500 metr balandlikda bunyod etilgani, bu borada ilgari O'zbekiston tajribasida ko'rilmagan mislsiz ishlar bajarilganini ko'rsatadi.

Mazkur temir yo'lining qurib, ishga topshirilishi mamlakat rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yo'l respublikaning janubiy mintaqasi – Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarini boshqa hududlar bilan bog'laydi va butun mamlakat bo'yab yagona hamda yaxlit temir yo'l transport kommunikatsiya tizimini barpo etishga imkon berdi.

Mamlakatimizda yaxlit temir yo'l tarmog'ini shakllantirish bo'yicha strategik yo'nalishlar belgilab olindi. Bu borada 1994-2001-yillarda uzunligi 700 kilometrga

yaqin «Navoiy–Uchquduq–Nukus» temir yo'li qurib bitkazildi. Natijada, ushbu temir yo'l liniyasi ishga tushirilgan dastlabki yillardanoq, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatiga katta miqdorda har xil xalq iste'mol yuklari yetkazib berila boshlandi.



yo'l koridori orqali yaqin kelajakda to'g'ridanto'g'ri Hind okeani, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari portlariga chiqish va eksport imkoniyatini, shu bilan birga, respublikaning tranzit rolini kengaytirish borasidagi salohiyatini keskin oshirdi.

Temir yo'l tarmog'ining ishga tushirilishi natijasida yuk tashish va yo'lovchilar qatnovini tashkil qilish, temir yo'llarga xizmat ko'rsatish va yo'l xavfsizligini ta'minlash uchun 2,5 mingga yaqin qo'shimcha yangi ish o'rni yaratildi. Yangi tashkil etilgan korxonalar va xizmat shoxobchalarida, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida esa qo'shimcha tarzda 4 mingdan ortiq kishi ish o'rinalriga ega bo'ldi.

Mintaqaning tabiiy yer osti boyliklarini o'zlashtirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tub burilishlarga yuz tutib, aholining turmush farovonligi oshdi. Yuk va yo'lovchi tashish masofasi 170 kilometrga, harakat vaqtiga esa 7 soatga qisqardi. Natijada temir yo'l bo'yab tashilayotgan tranzit va mahalliy yuklar salmog'i sezilarli miqdorda ko'paydi. O'tgan yili mazkur temir yo'ldan bir yilda o'rtacha 5 million tonna yuk

o‘tkazilayotgani, shundan qariyb 80 foizi tranzit yuklar ekanligi ana shundan dalolat beradi.

Respublikaning xorijga, jumladan, mamlakatimiz janubidagi davlatlarga chiqishida Mashhad–Seraxs –Tajan temir yo‘lining qurilishi muhim voqeа bo‘ldi. 1996-yil 13-mayda Eron Islom Respublikasining Mashxad shahrida uzunligi salkam 300 km bo‘lgan bu temir yo‘l tarmog‘ining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Bu yo‘l eng qisqa masofa orqali Markaziy Osiyo mamlakatlarini Fors qo‘ltig‘i bilan bog‘laydi va tashqi savdoiqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga keng imkoniyatlar ochib beradi.

Markaziy Osiyo hududida Toshkentdan Samarqandgacha ilk tezyurar yo‘lovchi harakatni tashkil qilish maqsadida 2008-yil «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ va «Talgo» (Ispaniya) kompaniyasi o‘rtasida 2 ta tezyurar yo‘lovchi elektropoyezdlarni sotib olish to‘g‘risida bitim imzolandi. 2011-yil 8-oktabrdan «Afrosiyob» (Ispaniyaning «Talgo» kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan) yuqori tezlikda harakatlanadigan poyezdi Toshkent-Samarqand-Toshkent 161/162 sonli yo‘nalishga ishga tushirildi. Yangi tezyurar poyezd bu marshrut orqali xizmat ko‘rsatadigan boshqa elektr poyezdlar bilan birga, Toshkent va Samarqand shaharlari o‘rtasida harakat qiladi. Yuqori tezlikdagi «Afrosiyob» poyezdi ikki soat va o‘n besh daqiqa ichida 344 km temir yo‘l masofasini bosib o‘tadi. Maksimal tezligi soatiga 250 kilometrni tashkil etadi.

O‘zbekiston temir yo‘llarini doimiy tok asosida elektrlashtirish 1971-yilda boshlangan. So‘nggi loyihalardan biri To‘qimachi-Angren temir yo‘l uchastkasini elektrlashtirish edi, bu 2010-yilda amalga oshirildi. Ko‘rsatilgan temir yo‘l uchastkasini ishga tushirish hisobiga elektrlashtirilgan uchastkalar uzunligi 1601 km ga yetdi.

Loyihaning maqsadi bu uchastkada mavjud bo‘lgan dizel tortishni o‘zgaruvchan tokli elektr tortishga o‘zgartirish edi, bu Toshkent hududida barcha temir yo‘l liniyalarini zamonaviy texnologiyalarga o‘tishni yakunlashga olib keladi. Loyihaning maqsadi bu uchastkada mavjud bo‘lgan dizel tortishni o‘zgaruvchan tokli elektr tortishga o‘zgartirish edi, bu Toshkent hududida barcha temir yo‘l liniyalarini zamonaviy texnologiyalarga o‘tishni yakunlashga olib keladi.

Butun uchastka bo‘ylab yangi texnologiyalar - SCADA masofadan boshqarish tizimi, aloqa tizimi, tortish podstansiyalari, mikroprotsessor markazlashtirish tizimi, o‘q va telekommunikatsiya elektron hisoblash tizimlari joriy qilingan. Elektr ta’midot tizimi poyezdlarning soatiga 160 km gacha tezlik bilan harakatlanishini hisobga olgan holda qurilgan. Qurilish paytida umumiy



uzunligi 265 m bo‘lgan 3 ta ko‘prik, 2258 ta elektr minoralar, elektr podstansiyalar, poyezdlar harakat xavfsizligini ta’minlovchi zamonaviy uskunalar va nazorat asboblar bilan jihozlangan navbatchi punktlari va markazlashtirilgan elektr ta’minot postlari uchun 6 ta bino va inshootlar barpo etildi.

Maroqand-Qarshi, Qarshi-Termiz temir yo‘l uchastkalarini elektrlashtirish, yangi elektrlashtirilgan Angren-Pop liniyasini qurish investitsion loyihalari amalga oshirildi. 2016-yilning 22iyunda O‘zbekiston va Xitoy hamkorligining yirik va istiqbolli loyihasi ijrosi – Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo‘li hamda Qamchiq tunneli foydalanishga topshirildi. Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyasini barpo etishdan maqsad ham nafaqat Farg‘ona vodiysi viloyatlari va mamlakatimizning boshqa hududlari o‘rtasida temir yo‘l orqali yuk va yo‘lovchi tashish imkoniyatini yaratish, shu bilan birga, Xitoy – Markaziy Osiyo – Yevropa yangi xalqaro tranzit temir yo‘l koridorining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lishi nazarda tutilgan edi. Uzunligi 123,1 kilometr bo‘lgan Angren-Pop temir yo‘lining Qamchiq dovonidan o‘tgan qismida 19,2 kilometrlik tunnel barpo etildi.

Bugungi kunda ushbu temir yo‘l orqali Toshkent – Andijon – Toshkent yo‘nalishida har kuni zamonaviy tezyurar yo‘lovchi poyezdlari aholiga xizmat ko‘rsatmoqda. Andijon – Buxoro – Andijon yo‘nalishida haftasiga ikkita yo‘lovchi poyezdi, haftada bir marotaba Andijon – Urganch – Andijon, Andijon – Moskva – Andijon yo‘nalishlarida yo‘lovchi poezdlari qatnovi tashkil etildi. Bundan tashqari, bir sutkada o‘nlab yuk poezdi Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo‘li orqali o‘tib, yuklarni o‘z manziliga yetkazmoqda. Xususan, mazkur temir yo‘l orqali, bir yil davomida 413 ming 162 nafardan ortiq yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatildi, 7395,6 ming tonna yuk tashildi. Shuningdek, 1718 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Mustaqillik yillarida Xovos–Bekobod, Xovos–Jizzax liniyalari va Maroqand–Qarshi, Maroqand-Buxoro yo‘nalishlarini elektrlashtirish ishlari yakunlandi. Natijada poyezdlardan foydalanish xarajatlarini 20 foizga kamaytirish, yo‘lovchi va yuk tashish tezligini 1,3 barobar oshirish imkonini yaratildi. Bundan tashqari, temir yo‘l infratuzilmasi va harakatlanuvchi tarkib uchun ehtiyyot qism, uzel va detallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va import o‘rnini bosishni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

O‘zbekistonda temir yo‘l transportining hozirgi holatini va uni rivojlantirish tendensiyalarini tahlil qilish uning barqaror ishlashi quyidagi qator muammolar mavjud bo‘lishini istisno etmasligini ko‘rsatdi:

1. Asosiy jamg‘armalar (infratuzilma va harakatlanadigan tarkib) eskirishining yuqori darjasini joriy saqlab turish va ta’mirlash uchun katta xarajatlarni talab qiladi, temir yo‘l transporti texnologik mustahkamligi yo‘qotilishi xavfini yaratadi.

2. Temir yo‘l transporti samaradorligi darjasи, xizmatlar sifati va turi hozirgi zamon talablariga to‘liq javob bermaydi.

3. Tariflarni boshqarish borasida temir yo‘l transporti faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tizimi yetarlicha samarali emas (yuklar va yo‘lovchilarni tashishning ayrim turlari sanasini yozish masalalari bo‘yicha normativ baza mukammal emas).

4. Yuk ortilgan harakatlanadigan tarkib xavfsizligi uchun tashish jarayoni ishtirokchilarining aniq javobgarligi yo‘q.

5. Mustaqil tashuvchi kompaniyalarga infratuzilmadan teng huquqli foydalanish imkoniyatini berish va ular faoliyati uchun qulay muhit yaratish mexanizmi mavjud emas.

Temir yo‘l transporti samarali ishlashini ta’minlash harakatlanadigan tarkib saroylarini yangilash, yo‘l xo‘jaligi infratuzilmasini, aloqa vositalari va axborot ta’minotini modernizatsiyalash va kuchaytirish, xalqaro yo‘laklar doirasida elektr ta’minoti, signalizatsiya hamda aloqa texnik vositalarini modernizatsiyalash, tashish jarayonini tartibga solish va boshqarish tizimini takomillashtirish, ma’lumotlar o‘tkazish tarmog‘ini yaratish, transport vositalarini ta’mirlashning texnik bazasini rivojlantirish uchun katta investitsiya mablag‘larini talab qiladi.

Bugungi kunda yuk va yo‘lovchi harakatlanishida elektrovozlar keskin yetishmasligi, shuningdek, manyovr qiladigan lokomotivlar yetishmasligi kuzatilmoqda.

Magistral teplovozlar saroyining o‘rtacha amortizatsiya eskirishi 28,2 foizni, manyovr teplovozlar saroyi eskirishi 49,0 foizni, elektrovozlar saroyining eskirishi 48,8 foizni, yuk vagonlari inventar saroyining eskirishi 75 foizni, yo‘lovchi temir yo‘l bekatlarining eskirishi 65,4 foizni va refrijerator seksiyalarining, vagon-termoslarning o‘rtacha amortizatsiya eskirishi 90 foizdan ortiqni tashkil etadi. O‘tkazish optik-tolali tizimi yaxlit magistral tarmog‘ining mavjudligi —O‘zbekiston temir yo‘llari AJ telekommunikatsiya tarmog‘ining muhim tarkibiy qismi – o‘tkazish optik-tolali tizimining (O‘OTT) yagona magistral tarmog‘ini barpo etishdir.

Temir yo‘l transporti sohasida muammoni hal qilish va 2030yilgacha yuqori natijalarga etishish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarga erishish maqsadida quyidagi vazifalarni hal qilish taklif etilmoqda:

1. Temir yo‘l transporti infratuzilmasini rivojlantirish va harakatlanadigan tarkibini yangilash, moddiy va nomoddiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish.

2. Transport yaxlitligini, mustaqillikni, ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va fuqarolarning tashishlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish uchun infratuzilma negizi sifatida qulay va barqaror transport tizimini shakllantirish.

3. Temir yo‘l transportini xalqaro transport tizimlariga integratsiyalash asosida —O‘zbekiston temir yo‘llari AJ tranzit salohiyatini ro‘yobga chiqarish.

4. Zamonaviy yuqori samarador elektrovozlar xarid qilish hisobiga lokomotivlar saroyini yangilash.

5. Iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va mehnat resurslari mobilligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

6. Umumiy transport xarajatlarini kamaytirish, shu jumladan, temir yo‘l transporti faoliyati samaradorligini oshirish hisobiga kamaytirish.

7. Tashishlar sifati va xavfsizligini temir yo‘l transportini texnologik va texnik rivojlantirish asosida aholi talablariga va jahonning eng yaxshi standartlariga muvofiqlashtirish.

8. Temir yo‘l transportining investitsiyalar jalb etuvchanligini oshirish.

9. Respublika fuqarolarining qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash.

Temir yo‘l transporti sohasida yuqorida sanab o‘tilgan vazifalar hal etilishi 2030-yilga kelib quyidagi ko‘rsatkichlarga erishilishiga olib keladi:

Yo‘lovchilar xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha

1. Yangi yo‘lovchilar vagonlarini xarid qilish va qurish hamda amaldagi yo‘lovchilar vagonlari saroyini modernizatsiyalash, vagonlar xizmat muddatini kamida ikki-uch baravar oshirish.

2. Toshkent yo‘lovchi vagonlarini qurish va ta’mirlash zavodini rivojlantirish.

3. Toshkent – Qarshi – Kitob, Toshkent – Buxoro – Urganch – Xiva, Toshkent – Xiva yo‘nalishlarida tezyurar harakatlanishning qo‘sishma marshrutlarini tashkil etish.

4. Davlatlararo va ichki davlat ahamiyatidagi yangi marshrutlarni ochish.

5. Yo‘lovchi vagonlariga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni joriy ta’mirlash bazasini rivojlantirish hamda modernizatsiyalash.

**Avtomobil yo‘llari.** O‘zbekiston hududida avtomobil yo‘llari tarmog‘i ancha keng. Har 1000 km<sup>2</sup> maydonga avtomobil yo‘llarining zichligi 210 km ga yetadi. Qator avtomobil yo‘llari xalqaro va davlat ahamiyatiga ega. Bugungi kunda avtomobil yo‘llarining umumiyligi 90 ming km dan ortiq. Mamlakatimiz hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan avtomobil yo‘llari jumlasiga, eng avvalo, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa viloyatlar orqali o‘tgan Katta O‘zbek avtomobil trakti kiradi. 1940-yili qurib bitkazilgan va 700 km dan ortiq uzunlikka ega bo‘lgan ushbu ravon yo‘l qanchadan-qancha yuk va yo‘lovchilar tashishga hamda hududlar orasida transport xizmati ko‘rsatishni yaxshilashga olib keldi.

Ikkinchı jahon urushi boshlanishidan oldin Farg‘ona vodiysidagi uch viloyat va qator shaharlarni, jumladan, Qo‘qon, Marg‘ilon, Asaka, Andijon, Namangan, Chust shaharlarini bog‘lab turuvchi aylanma yo‘l qayta qurildi. Shuningdek, Toshkent-O‘sh, Samarqand-Ashxobod-Turkmanboshi, Toshkent halqa yo‘li, Nukus-G‘uzor, Qo‘ng‘irot-Beynov kabi yana qator avtomobil yo‘llari ham O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda qo‘shti Tojikistonda vujudga kelgan vaziyat sababli mamlakatimizning markaziy va g‘arbiy qismlaridagi hududlarini Farg‘ona vodiysi viloyatlari bilan aloqasini bog‘lashda ancha muammolar yuzaga keldi. Shuni e’tiborga olib Respublika hukumati Toshkent-O‘sh yo‘lining Angren suv omboridan Farg‘ona vodiysiga kirib borguncha qismini qayta qurish bo‘yicha maxsus qaror qabul qildi. Bu maqsadni ko‘zlab Qamchiq va Rezak dovonlarida avtomobil transport harakati uchun mo‘ljallangan tonnellar qurish borasida katta ishlar boshlab yuborildi va bu ishlar muvaffaqiyat bilan amalga oshirildi.

Qamchiq tonnelining uzunligi 890, Rezak tonnelining uzunligi esa 368 metrga teng bo‘ldi. Bu tonnellarning ishga tushirilishi tufayli Qamchiq dovo ni orqali amalga oshiriladigan avtomobil transporti aloqalarida avvallari tez-tez uchrab turadigan xavf-xatarga chek qo‘yildi. Qamchiq va Rezak tonnellaridan bir kecha-kunduzda 12 mingga yaqin avtomobillar o‘tish imkoniga ega. Shunday qilib mazkur yo‘l Farg‘ona vodiysini Respublikaning boshqa hududlari bilan bog‘lab turadigan eng yaqin va qulay yo‘l bo‘lib qoldi.

Shaxsiy foydalanishdagi yengil avtomobillar sonining doimiy o‘sishi jamoat transporti tomonidan bajarilayotgan ish hajmining sezilarli darajada qisqarishiga olib kelmoqda. Bugungi kunga kelib, mamlakatda avtobus orqali yo‘lovchi tashish 42 % ga qisqarganligini, shahar atrofi temir yo‘l qatnovlari sezilarli darajada kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Avtomobillar sonining muttasil o‘sib borishi asnosida shahar transport tizimlarining barqarorligi va xavfsizligi borasida jiddiy muammolar paydo bo‘lmoqda.

Transport turlarining rivojlanishi moddiy ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, mahsulot qiymatida xarajatlar ulushini qisqartiradi, ijtimoiy masalalarni ijobiy hal etishga ko‘maklashadi. Ayni chog‘da transport aloqalarining yetarlicha rivojlanmaganligi milliy iqtisodiyotda katta yo‘qotishlarga olib keladi.

Mamlakatda qo‘llaniluvchi tarmoq standartlari, norma va normativlarga rioya qilgan va mazkur sohada dunyoning ilg‘or mamlakatlarida to‘plangan boy ijobiy natijalarni inobatga olgan holda, yo‘lovchi va yuk tashish borasida aholi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va davlat organlarining talablarini



to‘laqonli qondirish imkoniga ega bo‘lgan transport tizimini yaratish va uning barqaror faoliyat ko‘rsatishiga erishish milliy iqtisodiyotda yo‘l-transport xavfsizligini ta’minlashning mohiyatini tashkil etadi. Yo‘ltransport xavfsizligi ko‘rsatkichlari tizimida yo‘l-transport hodisalari soni va ulardan ko‘rilgan zarar va yo‘qotishlar (o‘lim va nogironlik); avtomobil, suv, havo va temir yo‘llarining uzunligi va sifati; transport xarajatlari (sotish hajmiga nisbatan %da) kabilar muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston aholisining mobillik darajasi ham taraqqiy etgan mamlakatlarga nisbatan birmuncha past hisoblanadi, zero, mazkur ko‘rsatkich mehnat va turizm bozorining taraqqiy etganligi, aholi daromadlari va xarajatlarining o‘sishi va o‘z navbatida, mamlakat umum iqtisodiy taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Mustaqillikka erishish tufayli respublikamizni xalqaro miyosda bog‘laydigan avtomobil yo‘llari qurish ishlariga ham e’tibor kuchaydi. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasiga chiqish uchun imkon tug‘diradigan Andijon-O‘sh-ErgashtomQashqar avtomobil yo‘lining qurilishiga O‘zbekiston o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Ko‘pgina mamlakatlarda bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda ham xalqaro yo‘nalishlarda yuklarni atvomobillarda tashish bo‘yicha Uyushma tashkil etilgan. Jeneva shahrida avtomobil transporti Xalqaro uyushmasi kongressida O‘zbekiston ham bu nufuzli tashkilotga a’zo bo‘lib kirdi. Ushbu uyushma Respublikamiz hududida boshqa mamlakatlar yuk tashuvchilarining manfaatlarini muhofaza qiladi va avtomobil yo‘llari holati, yoqilg‘i narxi, yo‘l uchun to‘lov bahosi va boshqa masalalar bo‘yicha zarur ma’lumotlar bilan xabardor etib turadi.

Mamlakatda turli hajmda yuk ko‘taradigan yangi yuk tashuvchi avtomobillar, qulay va shinam avtobuslar hamda yengil avtomobillar soni yil sayin oshib bormoqda. Respublika poytaxti Toshkent shahrida 1977-yili metro qurilib ishga tushirildi. Aholisi ikki milliondan ziyod shahar uchun ushbu transportning bu vositasi mohiyatini to‘la ifodalash qiyin.

Biroq shu bilan birga, tarmoqda xavfsizlikka ta’sir etuvchi qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan avtomobil yo‘llari tarmog‘i yetarlicha rivojlantirilmagan. Umumiyl foydalilaniladigan yo‘llar tarmog‘i umumiy uzunligining 9 foizidan ortig‘ini tashkil etuvchi xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo‘llari barcha avtomobil tashuvclarining qariyb 40 foizini ta’minlaydi. Yuqori sifatli yo‘llarning real uzunligi yetarli emas. Temir yo‘l va asosiy avtomobil yo‘llari bilan kesishgan chorrahalar turli darajadagi yo‘llar ostin-ustun o‘tadigan chorrahalar mavjud emas. Xalqaro ahamiyatga ega ko‘pchilik yo‘llarning o‘tkazish qobiliyati ularga berilgan toifalar bo‘yicha normativ qobiliyatdan 20-30 foizga past.

Xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan avtomobil yo‘llarida, ayniqsa, hududlar markazlari va boshqa yirik shaharlarga kirishda avtomobil transporti harakati juda

katta. Misol uchun Toshkent shahridan chiquvchi yo‘llardagi harakat intensivligi sutkasiga 30 mingdan 70 minggacha avtomobilni, aholisi 500 mingdan ko‘p bo‘lgan boshqa yirik shaharlarda sutkasiga 20 mingdan 40 minggacha avtomobilni tashkil etadi va hudud markazlaridan uzoqlashgani sayin avtomobil harakati intensivligi pasayadi.

Umumiy foydalaniladigan yo‘llar umumiy uzunligining qariyb 25 foizi yo‘llarga tushadigan yuklamaning maqbul darajasidan oshadigan rejimda, 30 foizi maqbul darajadagi rejimda va 25 foizi erkin harakatlanish rejimida ishlaydi. Xalqaro ahamiyatga ega yo‘llar umumiy uzunligining uchdan bir qismidan ortig‘ida zamonaviy katta yukli transport vositalari o‘tishi uchun yo‘l qoplamasini zudlik bilan kuchaytirish talab etiladi.

**Havo transporti.** Mustaqil Respublika transporti haqida so‘z yuritilganda havo transportining mohiyati tobora ortib borayotganini ham ko‘rsatib o‘tish lozim. Transportning bu xili o‘z ishini birinchi marta 1924-yili boshlagan edi. O‘sha yilning 12-may kuni Toshkent-Bishkek-Olmaota shaharlari orasida havo transporti aloqasi yo‘lga quyilgan edi. Ana shundan beri o‘tgan davr ichida transportning bu xili tez rivojlanib ketdi. Hozir havo transporti orqali asosan yo‘lovchilar tashiladi. Shu bilan birga, bir manzildan ikkinchi bir manzilga tez yetkazish zarur bo‘lgan yuklarni, ayniqsa, tez buziladigan yuklarni ham tashishda havo transportidan foydalaniladi.

1993-yili «O‘zbekiston havo yo‘llari» Milliy aviakompaniyasi tashkil topishi havo yo‘li transporti taraqqiyoti sohasida qo‘yilgan muhim qadam bo‘ldi. Bu kompaniya xizmati tufayli Toshkentdan Nyu-York, London, Tokio, Pekin, Parij, Istanbul, Dehli, Tel-Aviv, Seul, Kuala-Lumpur, Jidda, O‘rumchi kabi jahonning ko‘pgina shaharlari bilan havo transporti qatnovi amalga oshirilmoqda. Keyinchalik Toshkentdan samolyotlar qatnaydigan manzillar ro‘yxati yanada kengayishiga shubha yo‘q. «O‘zbekiston havo yo‘llari» aviakompaniyasi bilan AQSHning «Boing» kompaniyasi o‘rtasida imzolangan shartnomaga ko‘ra, 1996-yil avgust oyidan boshlab Toshkent bilan jahonning qator shaharlari, jumladan Nyu-York, Afina, Jakarta, Singapur kabi shaharlar orasida «Boing» samolyotlari uchishi yo‘lga qo‘yildi.

2010-2020-yillarda havo transporti yo‘lovchi aylanmasi hajmi 5,8 dan 7,5 mlrd.yo‘lovchi/km oshdi, yo‘lovchi aylanmasi bu davrda 4,7 barobar oshdi. Mustaqillik yillarida havo kemalari parki «BoYIng-757-200», «BoYIng-767», «BoYIng 767-300 ER», «BoYIng 787-8», «Dreanliner»,



«Airbus», «A 310», «A320-200», «RJ-85» va yuklarining «BoYIng-767-300BCF» va Airbus «A300-600» kabi zamonaviy yo‘lovchi samolyotlar bilan to‘ldirildi. Shu bilan birga, aviakompaniya tarkibida faoliyat yuritayotgan Markaziy Osiyodagi yagona so‘nggi avlod aviatsiya texnologiyasiga xizmat ko‘rsatish markazi 300 dan ortiq xorijiy samolyotlarga xizmat ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda «Navoiy» aeroporti negizida tashkil etilgan xalqaro intermodal logistika markazi mintaqadagi eng yirik va eng yuqori texnologik havo yuklari komplekslaridan biridir.

MDH davlatlari hududida «Navoiy» xalqaro intermodal logistika markazi mahsulotni yuklash, tushirish, joylashtirish, ularni qisqa vaqt ichida omborlarga joylashtirish bilan shug‘ullanadigan yagona markazdir. Havo sharoitlariga qaramasdan, zamonaviy aviatsiya uskunalari bilan jihozlangan xalqaro intermodal logistika markazi turli xil avialaynerlarni qabul qilishga muvaffaq bo‘ldi.

Bugungi kunda O‘zbekistonni asosiy logistika markazlari Yevroosiyo - Frankfurt, Milan, Bryussel, Vena, Bazel, Zaragoza, Dubay, Dehli, Inchon, Tyanjin, Guangjou, Xanoyi va Shanxay bilan bog‘laydi. Aeroportning yuk terminali turli xil harorat sharoitlariga -25 dan +2 daraja haroratgacha bo‘lgan maxsus xonalar bilan jihozlangan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishslash va saqlashning keng imkoniyatlari mavjud, shuningdek, katta hajmli, og‘ir, xavfli va nostandard yuklarni eksport va importning sig‘imi kuniga 300 tonnagacha yukni saqlash va qayta ishslash imkonini beradi. Xalqaro standartlarga muvofiq 11 aeroport (Toshkent, Nukus, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Qarshi, Namangan, Andijon, Farg‘ona va Navoiy shaharlarida) modernizatsiya qilindi. Toshkent aeroporti Markaziy Osiyodagi eng yirik aeroport hisoblanadi. Buxoro, Samarqand va Urganch aeroportlari ham xalqaro aeroport maqomiga ega.

Uzbekistan Airways® AJ faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilar nazarda tutildi:

1. Havo kemalari saroyidan samarali foydalanish, shu jumladan, yangi yo‘nalishlarni o‘zlashtirib va parvozlar geografiyasini kengaytirib foydalanish.
2. Ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning zamonaviy tizimi va texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, aviasaroyni modernizatsiyalash, texnologik qayta jihozlash va yangilash.
3. Havo kemalari bortida yo‘lovchilarga ko‘rsatiladigan servis xizmatlarining, aviatsiya texnikasiga, shu jumladan, xorijiy aviakompaniyalar aviatsiya texnikasiga texnik xizmat ko‘rsatish va uni ta’mirlash ishlarining sifatini oshirish.
4. Kompaniyaning raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida yo‘lovchilar, yuk, pochta va bagaj tashish sohasida qulay tarif siyosatini amalga oshirish.


5. Investitsiyalar, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, shu jumladan, aksiyalar va korporativ obligatsiyalar chiqarish orqali jalg qilish.

6. Parvozlarini amalga oshirishda xavfsizlikning yuqori darajasini, shuningdek, havo kemalariga texnik xizmat ko‘rsatish sifatini ta’minlash.

7. Aviakompaniyani aviatashuvchilarning xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalash, aviatashuvlar sohasida mintaqaviy yetakchi darajasiga erishish.

**Magistral quvurlar.** O‘zbekiston hududida yirik tabiiy gaz, neft konlarining topilishi va ishga tushirilishi sababli quvur transporti rivojlandi, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan gaz quvurlari vujudga keldi. Neft va neft mahsulotlarini quvurlar orqali tashish temir yo‘l va daryo yo‘llari orqali tashishdan ikki-uch marta arzon, yo‘l davomida mahsulotning tabiiy yo‘qolishi kamayadi, tashish jarayoni muntazamlashadi. Quvur orqali yuk tashish jarayonini avtomatlashtirish ancha oson bo‘lib, ko‘p sonli ishlovchilarga zaruriyat bo‘lmaydi. 1980-yilda truboprovodagi neft mahsulotlarini tashish tannarxi bir tiyindan ham kam, bu temir yo‘lga nisbatan 2,6 mlrd.so‘m iqtisod qilish imkonini bergen.

Neft va gaz industriyasi sanoatning flagmani va iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i hisoblanadi. U mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. 2018-yil 1yanvar holatiga respublika bo‘yicha magistral quvurlarning uzunligi 13895,7 km.ni tashkil qildi (12.1-rasm).



**12.1-rasm. 2020-yil 1-yanvar holatiga magistral quvurlar uzunligi, km.**

Gaz quvurlari barcha magistral quvurlarning 99,2 %ni tashkil qiladi. Neft quvurlarining ulushi 0,8 % ni tashkil etadi.

Magistral quvurlarning muhim afzalliklari quyidagilardan iborat:

- 1) yuklarni tashishning arzonligi (ular orqali neft tashish temir yo‘l transportiga qaraganda 3 baravar kam xarajat qiladi);
- 2) quvur liniyalari qurilishi uchun nisbatan kam xarajatlar (bir xil quvvatga ega magistral yoki temir yo‘l qurilishidan 2 baravar kam);
- 3) to‘g‘ri ishlaydigan quvurlar ishonchli, iqlim sharoitiga bog‘liq emas, yil bo‘yi ishlaydi;
- 4) minimal yo‘qotishlar kam (temir yo‘l bilan taqqoslaganda 1,5 baravar kam va suv transportiga nisbatan 2,5 baravar kam);
- 5) yuqori o‘tkazish qobiliyatiga ega.

Ushbu transport turining kamchiliklari: yuklarni tashish tezligining pastligi va ekologik halokat xavf keltirib chiqaradigan halokatlar xavfi bilan izohlanadi, metall sarfining ko‘pligi kiradi. Quvur diametri 24 dyum bo‘lgan 1 km quvurga 123 tonna metall sarflanadi.

Quvur transporti rivojlantirish muammolari. Quvur transporti oldiga quyilgan ulkan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun magistral quvurlar miqdorini ko‘paytirish bilan birga ularning ish samaradorligini oshirish ham katta ahamiyatga egadir.

Ish samardorligini oshirishda tarmoqda hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalarga quvurlar umumiyligi miqdorini yanada ko‘paytirish, ularning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish, quvurlarni karroziyaga qarshi neft bitumlari bilan qoplash, boshqarish ishlarida telemexanika va avtomatlashtirish asboblarini keng qo‘llash va boshqalar kiradi.

Quvur transportining yuqori samaradorligi hisobga olinib, ko‘pchilik davlatlarda og‘ir uglerod – metan, etilen, propan, propilen va boshqalar, suyuq va gazsimon moddalar – kislorod, ammiak, vodorod, azot, xlor, har xil aralashmali tuzlar hamda ayrim oziq-ovqat (sut) buyumlari ham quvur orqali tashilmoqda.



Ko‘p vaqtlardan beri ayrim qattiq moddalar ham gidprotransport orqali eritma (pulpa) shaklida tashilayotir. Hozir ba’zi bir qattiq moddalarini (ko‘mir, madan va boshqalar) kapsulalarga joylashtirilib, gaz yoki suyuq neft mahsulotlari bilan yuborish masalalari ham ishlab chiqilmoqda.

Qattiq moddalarini quvurlar orqali yuborish ancha murakkabliligi tufayli bu masalani hal qilish ustida hali juda ko‘p tadqiqotlar o‘tkazish zarur. So‘nggi yillarda qum shag‘al va boshqa materiallarni konteynerlarga joylashtirib (2-3 tonnalik) katta bosim yordamida trubaprovod orqali yuborish ustida sanoat miqyosida tajribalar o‘tkazilayotir. Bunday konteynerlarda yuk yuborish tezligi 40-5 km/s atrofidadir. O‘tkazilayotgan tajribalar kelajakda yuklarni mana shunday usulda tashish tejamli bo‘lishi ko‘rsatilmoqda.

Transport infratuzilmasining rivojlanganligi ishlab chiqarish quvvatlari, resurslardan keng foydalanish, mamlakat hududlarini bir butun yaxlitlikda rivojlantirish, haqida fikr yuritish va ayni paytda mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda milliy iqtisodiyot miqyosida iqtisodiy faoliyatni rejalashtirish imkonini beradi. Transport oqimlarini boshqarish, jamoat transportini rivojlantirishga

investitsiyalar kiritish orqali davlat transport infratuzilmasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi talab etiladi.

Bularning barchasi tovar narxining transport tashkil etuvchisining qiymatini pasaytiradi, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etadi, yangi bozorlarga kirib borish imkoniyatlarini oshirgan holda, raqobatbardoshlik darajasini oshiradi, kooperatsiya va ishlab chiqarish integratsiyasining rivojlanishiga ko'maklashadi. Buning natijasida quyidagilar ta'min etiladi:


- a) avtomobil, temir yo'llari va aeroportlarning sifat tavsiflari yaxshilanadi;
- b) mavjud sanoat quvvatlardan samarali foydalanish ta'min etiladi;
- c) avtomatlashgan boshqaruv tizimlarini joriy etish evaziga transport jarayonlari takomillashtiriladi.

Barcha o'zgarishlar transport xizmatlarining sifatiga ta'sir ko'rsatadi va mamlakatda iqtisodiy o'sishning ta'minlanishiga xizmat qiladi. O'zbekistonda so'nggi yillarda transport infratuzilmasi modernizatsiya qilindi, bu esa yo'lovchi va yuk tashishlariga bo'lgan talabni qondirish bilan bir qatorda, istiqbolda rivojlanish uchun keng imkoniyatlar ochib bergenligini qayd qilishimiz lozim. O'zbekiston barcha zamонавиyy transport turlariga ega, mamlakat transport kommunikatsiyalarining joylashishi va tarkibi mamlakatning barcha ichki va tashqi zamонавиyy transport-iqtisodiy aloqalariga to'la javob bersada, biroq uni bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish talab etiladi.

Transport korxonalari xo'jalik yuritishning yangicha shartsharoitlariga astasekinlik bilan moslashib borayotgan bo'lsa-da, erkin bozor munosabatlarining rivojlanishi va qaror topishi sharoitida transport va transport infratuzilmasini rivojlantirish borasida bir qator muammolar o'z yechimini kutib turibdi. Yaxlit holda transport tizimi va uning bir qator asosiy segmentlari (temir yo'l transporti va ichki suv yo'llari infratuzilmasi, avtomobil yo'llari) muntazam investitsiyalarga ehtiyoj sezadi va —uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash zaxirasiga ega emas. Mamlakat transport tizimi texnik darajasining nochorligi va uning ishlab chiqarish bazasining qoniqarsiz ahvolda ekanligi asosiy muammolar sirasiga kiradi.

Infratuzilma obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish hajmlarining yetarlicha emasligi va shuningdek, harakatdagi transport vositalari, boshqa yuk va yo'lovchi tashish texnikalarini yangilashning talab darjasida emasligi so'nggi yillarda mamlakat transport tizimi texnik holati va ishchanlik qobiliyatining sezilarli darajada yomonlashishiga olib keldi.

Temir yo'l transporti infratuzilmasining texnik qurollanish darjasining yetarlicha emasligi sharoitida temir yo'l transporti infratuzilmasining yuklanish darjasini ortib borganligini ko'rishimiz mumkin. Temir yo'l



tarmog‘i uzunligi deyarli o‘zgarmagan bir sharoitda temir yo‘lning 1 km. ekspluatatsion uzunligiga to‘g‘ri keluvchi yuklanganlik o‘rtacha tarmoq bo‘yicha 24,9 mln. t-km/km.dan ko‘proqni tashkil etmoqda, bu esa boshqa mamlakatlarning temir yo‘l transporti infratuzilmasining yuklanganlik darajasidan sezilarli darajada yuqoridir. Buning natijasida transport infratuzilmasi uchastkalarining o‘tkazish qobiliyatiga nisbatan muammoli (tig‘iz uchastkalar) asosiy temir yo‘l yo‘nalishlarining 16%ini yoki 7,6 ming km.ni tashkil etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda milliy investorlar mablag‘lari hisobiga tashkil etilgan bor-yo‘g‘i 5 ta logistika markazi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Quyidagilar xalqaro tashuvvlarni amalga oshirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi:

1. Chegarada avtotransport vositalari turib qolishi (ma’lumot uchun: O‘zbekistonda o‘tkazish vaqt 2 sutkadan 5 sutkagacha vaqtini, YI mamlakatlarida 12 soatdan 24 soatgacha vaqtini, Rossiyada 1 kunni tashkil etadi).

2. O‘tkazish punktlarining inspeksiya-tekshiruvdan o‘tkazish majmualari, avtotransport vositalarining hajmi va gabaritini aniqlaydigan (mintaqani o‘lchaydigan) zamonaviy o‘lchash uskunalarini bilan yetarlicha texnik jihozlanmaganligi.

3. Zamonaviy va xavfsiz avtomobil turar joylari, haydovchilar dam olish joylari, avtomobilarga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta’mirlash punktlari, yuqori ekologik standartdagи yoqilg‘i quyish imkoniyatiga ega zamonaviy avtomobilga yoqilg‘i quyish stansiyalari (AYOS) yetishmasligi.

4. Eksport-import yuklarini saqlash, qayta ishlash va o‘ramlashni tashkil etish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan logistika va kommunikatsiyaning infratuzilmaviy obyektlari yetarlicha rivojlanmagan.

Iqtisodiy taraqqiyot talablari va aholi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yo‘l tarmoqlari uzunligi va ularning holatini talab darajasiga keltirish masalalarini hal etish qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi, ularni yetkazib beruvchi mahalliy ta’motchi va ishlab chiqaruvchilarning monopol mavqega egaliklari bir qator qiyinchiliklarni tug‘dirmoqda. Xususan, bir qator qurilish materiallarining narxi bozor narxlariga qaraganda tezroq o‘sishi hisobiga yo‘l ishlariga sarflanuvchi xarajatlar tarkibida zarur xomashyo materiallarini sotib olish uchun umumiylar xarajatlarning qariyb 60 foizi sarflanmoqda.

Innovatsion faoliyat sohasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan choratadbirlarga qaramasdan bevosita yo‘llarning sifatiga, ularning uzoq muddat xizmat qilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi materiallarni ishlab chiqarishning texnologik taraqqiyot darjasasi hanuz pastligicha qolmoqda. Keng xalq iste’moli va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish innovatsion asoslarda tashkil qilinayotgan bir paytda, ko‘pchilik qoldiq tamoyili bo‘yicha qurilish materiallarini ishlab chiqarishni afzal biladilar.

Mehnat unumdorligining pastligi, eskirgan transport texnika va texnologiyalari, harakatdagi tarkib va infratuzilma obyektlarini ta'mirlash xarajatlarining yuqoriligi va shuningdek, daromad stavkasi o'sishining transport tomonidan iste'mol qilinuvchi yoqilg'i, elektr energiyasi, materiallar va texnik vositalar narxining o'sishidan orqada qolishi evaziga yuk va yo'lovchi tashish past rentabellikka ega bo'lmoqda va ko'pchilik holatlarda esa transport korxonalarini o'z egalariga zarar keltirmoqda.

Ajratilayotgan byudjet subsidiyalari yo'lovchi va yuk tashish tariflarini davlat tomonidan tartibga solish natijasida vujudga keluvchi transport kompaniyalarining yo'qotishlarini to'lig'icha qoplash imkonini bermaydi.

Yuqorida tilga olib o'tilgan sabablar va omillar mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha transport korxonalarining faoliyatiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Davlat tasarrufida bo'lgan va tabiiy monopoliya tarmoqlaridan biri sifatida qaraluvchi magistral temir yo'l transportining ham rentabellik ko'rsatkichlari pastligicha qolmoqda. Transport korxonalarini investitsion imkoniyatlarining pastligi, uzoq muddatli qarz mablag'larini jalb qilishdagi qiyinchiliklar, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog'liq holda transport tarmog'iga investitsiyalarni jalb qilish borasida bir qator dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi paytda aksariyat hollarda rivojlanishning kapital sig'imi past bo'lgan modelidan foydalaniylmoqda va bunday vaziyatda xizmatlar hajmining o'sishi mavjud asosiy fondlardan foydalanishni oshirish evaziga ta'minlanmoqda.

Transport xizmatlari sifatini oshirish masalalarini tartibga solish, transport korxonalarining mobilizatsion tayyorligini oshirish va ular tomonidan harbiy-transport majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash, davlat va investorlar o'rtasida huquqmajburiyatlar va tavakkalchiliklarning qonuniy tarzda taqsimlanishini ko'zda tutuvchi davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini rivojlantirish, shuning bilan bir qatorda, transport sohasida mazkur mexanizmlardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini ko'zda tutuvchi transport tizimi va transport xizmatlari bozorini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish kun tartibidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Yana bir muhim muammolardan biri jahon transport xizmatlari bozorida mahalliy transport kompaniyalari va umuman olganda, mamlakat transport tizimi raqobatbardoshlik darajasining pastligidir.

Mazkur vaziyat yuqorida tilga olib o'tilgan muammolar bilan bir qatorda mahalliy transport korxonalarining jahon bozorida raqobatlashish borasida imkoniyatlarining cheklanganligi, shu jumladan, xalqaro tranzit tashishlar sohasida O'zbekistonning geosiyosiy ustunliklaridan yetarlicha samarali foydalana olmayotganligi bilan ham bog'liqdir. Xalqaro transport yo'laklarining texnik va

texnologik parametrlari mahalliy transport korxonalarining xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo‘lishiga imkon bermaydi.

Transport xizmatlarining xalqaro va mintaqaviy bozorlariga integratsiyalashuv raqobat kurashining avj olishini, O‘zbekiston bozoriga xorijiy tashuvchilarning kirib kelishini, ma’muriy va tarifli to‘sqliarning olib tashlanishini bildiradi, bu esa o‘z navbatida, mahalliy transport kompaniyalarining ahvolini yanada yomonlashishiga olib keladi. Transport xizmatlari bozori rivojlanishining dunyoviy tendensiyalari dunyoda hech bir mamlakat kuchli transport tizimi va mavqYIga ega bo‘lmasdan o‘z iqtisodiyotidagi mavjud xavf-xatarlarni nazorat qila olmasligini ko‘rsatadi.

Transport rivojlanishining dunyodagi tendensiyalari quyidagilardan dalolat bermoqda:

- tashuvchilar va transport turlariga nisbatan cheklovlar davri o‘z nihoyasiga yetdi. Ko‘pchilik mamlakatlar transport tizimining raqobatbardoshligini oshirishga, kvotalash tizimi va shuningdek, tarifli va shu kabi to‘sqliardan voz kechishga va buning o‘rniga transport sohasini tartibga solish borasidagi qonunchilikni xalqaro qonunchilik bilan uyg‘unlashtirishga intilmoqdalar;
- transport xizmatlari bozori murakkablasha borib, transport jarayoni va logistikaning barcha segmentlari o‘zaro integratsiyalashmoqda. Bu esa o‘z navbatida, transport infratuzilmasining yangi tipi – o‘zaro hamkorlikning yaxlit birlashgan tizimini tashkil etuvchi transport-logistika va tovartransport majmuining rivojlanishiga turtki berdi;
- transport markazlari tizimning boshqaruvchi elementiga aylanishi butun yo‘l davomida tashish narxlarini maqbullashtirish imkonini berdi. Bu esa foyda nuqtasini tashishning jismoniy ko‘rsatkichlari va jarayonlaridan transport-logistika xizmatlari tomon siljishiga olib keldi. Transport yo‘laklari tushunchasi o‘z mohiyatini birmuncha o‘zgartirdi. Transport yo‘laklari avvallari yo‘nalishlarning umumiyligini ifoda etgan bo‘lsa, endilikda ular transport tugunlari va tashishlarni boshqarish markazi tizimiga aylandi va shu asnoda ular tarif siyosatini boshqarish funksiyasini ham astasekinlik bilan o‘z zimmasiga oldi;
- transport xizmatlarining sifati va ularning raqobatbardoshlik darajasi bugungi kunda o‘zining yuqori rivojlanish cho‘qqisiga erishdi. Talab yuqori bo‘lgan transport bozori segmentlarida raqobat kafolatlangan transport xizmatlari sifati uchun musobaqalashish ko‘rinishini oldi. Mazkur holatda raqobat kurashida asosiy urg‘u narx orqali raqobatlashishga qaratilganligini ta’kidlash lozim. Raqobat kurashining kuchayishi asnosida transport turlarining ekologik jihatdan ma’lum bir talablarga javob berishiga ham alohida e’tibor qaratila boshlandi. Ekoliya va xavfsizlik borasida belgilangan me’yorlarga qat‘iy rioya qilish bilan bir qatorda mahsulotning yakuniy

narxida transport xarajatlarini imkon qadar maqbul darajada bo‘lishiga intilish muhim o‘rin egallashini unutmaslik lozim.

O‘zbekiston transport tizimi uchun rivojlanishning ushbu darajasi hali imkon darajasida emas. Tashuvchilar va transport tugunlari operatorlarining raqobatbardoshligini oshirish, transport tizimiga xizmat ko‘rsatuvchi texnologiyalarning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash, transport xizmatlari sifatini bosqichma-bosqich yaxshilanib borishini rag‘batlantirish lozim. Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi barobarida transport xizmatlari narxi darajasini ham maqbullahtirishga erishish mumkin. Transport turlariga nisbatan belgilangan ekologik va xavfsizlik talablari bu borada eng asosiy cheklov hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi transport tarmog‘i uchun xos bo‘lgan tizimli muammolar sirasiga quyidagilar kiradi:

- transport infratuzilmasini rivojlantirish borasida hududiy va tarkibiy nomutanosibliklarning mavjudligi;
- mamlakat aholisi mobillik darjasining pastligi va transport xizmatlari narxining qimmatligi;
- transport xizmatlari sifatining talab darajasida emasligi;
- tranzit salohiyatidan yetarlicha foydalanmaslik, transport xizmatlari eksporti darjasining pastligi;
- transport xavfsizligini ta’minlash borasidagi choratadbirlarning yetarlicha emasligi;
- transportning atrof-muhitga salbiy ta’sirining kuchayib borishi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda transport tizimi taraqqiyotining yetarlicha taraqqiy etmaganligi iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda sezilarli to‘siqlarni vujudga keltirmoqda. Shu bois, 2030-yilgacha bo‘lgan muddatda mamlakat transport tizimini rivojlantirishning maqsadli va asosiy strategik yo‘nalishlarini belgilab beruvchi yangilangan uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish talab etiladi.

Transport majmui faoliyatini yo‘lga qo‘yish borasida mahalliy va xorijiy tajribani tahlil qilish yuqori darajada yo‘ltransport xavfsizligini ta’minlashning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi:

- mos hududiy infratuzilmani yaratish asosida multimodal yuk tashish tizimlari va barcha transport turlarini kompleks rivojlantirish;
- shahar ichi va hududiy yo‘l xo‘jaligini modernizatsiyalash;



- shaharlarda transport qatnovi va transport majmuini boshqarish tizimini qayta tashkil etish;
- ishlab chiqarish chiqindilarini yig‘ish, tashish va ularni keyinchalik qayta ishlashning zamonaviy tizimini barpo etish.

Transport tizimini kompleks rivojlantirish quyidagilarni nazarda tutadi:

- transportni boshqarishning mezo va mikroiqtisodiy funksiyalarini alohida ajratib olish: yaxlit tizim sifatida elektr, avtomobil, havo, daryo, dengiz va temir yo‘l transportini rivojlantirish strategiyasini aniqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan mezoiqtisodiy funksiyalar davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilsa, tijorat asosidagi tashishlarni tashkil etish borasidagi mikroiqtisodiy funksiyalar –firmalar va davlat ulushi mavjud bo‘lgan ochiq turdagи hissadorlik jamiyatlari tomonidan amalga oshiriladi;
- transport harakatini va shuningdek, logistika markazlarini boshqarish bo‘yicha shahar va hududiy organlarni tashkil etish;
- davlat tasarrufidan chiqarilmaydigan va xususiy lashtirilmaydigan regional transport infratuzilmasi obyektlari (dengiz va daryo portlari, aeroportlar, terminallar, vokzallar va boshqalar)ni hududlar yoki munitsipial tuzilmalar ixtiyoriga berish;
- transport qurilishi va infratuzilma obyektlaridan foydalanish borasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish;
- shahar ichida yo‘lovchi va yuk tashish tarkibini maqbullashtirish. Shahar transportini rivojlantirish strategiyasi transport infratuzilmasi, eng avvalo, yo‘llar, terminallar va logistika markazlarini taraqqiy ettirish istiqbollarini hisobga olishi lozim. Mazkur infratuzilma holatini baholashning quyidagi ko‘rsatkichlar tizimi farqlanadi:
  - 1,0 ming km<sup>2</sup> maydon, 1 mln. aholiga to‘g‘ri keluvchi yo‘llar uzunligi;
  - qattiq qoplamali va zamonaviy muhandislik kommunikatsiyalariga ega bo‘lgan yo‘llarning ulushi (transport tugunlari; yo‘l o‘tkazgichlar, to‘sinslar; yo‘l ayrimalari; ko‘priklar va boshq.);
  - yo‘l-transport hodisalari;
  - zamonaviy yo‘llarga ega bo‘lgan aholi yashash manzillari, yuk tashuvchilar va yuk qabul qiluvchilar ulushi;
  - zamonaviy avtomobil yo‘llarining o‘sib borish sur‘atlari;
  - bir nechta transport turlari yordamida amalga oshiriluvchi intermodal tashishlarning ulushi;

- harakatni boshqarishning telematik vositalari bilan jihozlangan yo'llarning uzunligi;
- 1 mln. tonna yuk hisobida zamonaviy terminallarning quvvati.

O'zbekistonning transport majmui va bugungi kunda mavjud bo'lgan transport xavfsizligi muammolari yaxlit tarzda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti sifatida qarab chiqishni taqozo etadi. Bunday xavflarning vujudga kelish sabablari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- ayrim yo'l uchastkalari o'tkazish quvvatining yetarlicha emasligi yoki umuman bunday imkoniyatga ega emasligi;
- uchinchi mamlakat orqali tranzit yuk va yo'lovchi tashish shartlarining noqulayligi;
- transport vositalarining mavjud emasligi;
- transport ta'riflarining haddan tashqari yuqoriligi;
- ma'lum bir yo'llar va yo'nalishlarda yuk hamda yo'lovchi tashishning ishonchlilik darajasining pastligi.

## **12.2-§. Mamlakat transport xavfsizligini ta'minlashning strategik yo'nalishlari**

Transport tizimini rivojlantirishning strategik maqsadi – iqtisodiyot va jamiyatni innovatsion, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, sifatli va raqobatbardosh transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishdan iboratdir. Transport tarmog'ida samarali raqobat muhitini rivojlantirish, infratuzilmani taraqqiy ettirish borasida zaxira va imkoniyatlarni to'liq ishga solish, texnika va texnologiyaning ilg'or yutuqlaridan keng foydalanish, ijtimoiy va ekologik omillarga katta e'tibor qaratish, transport tizimiga bog'liq bo'lgan milliy, iqtisodiy va shu kabi boshqa xavfsizlik masalalariga alohida urg'u berish hisobiga yuqorida tilga olib o'tilgan strategik maqsadga erishilishini ta'minlash mumkin.

Avtomobil yo'llari tarmog'i konfiguratsiyasi ko'p jihatdan mukammal emas va ulangan qator aylanma hamda halqa yo'llar bilan to'ldirilgan yaqqol ifodalangan keskin tuzilmaga ega, bu esa yirik shaharlar atrofidagi magistral yo'llarning band bo'lgan uchastkalarida transport oqimlari to'planishini va atrof-muhitga zarar yetkazgan holda ko'p ortiqcha yo'l bosib o'tilishini keltirib chiqarmoqda.

Mamlakatimiz yo'llari, nafaqat, texnik darajasiga ko'ra, balki yo'l chetida servis obyektlari, yuksak darajada xizmat ko'rsatiladigan zamonaviy kempinglar (to'xtash joylari, mehmonxona, ovqatlanish punktlari, dushxonalariga ega hojatxonalar) qurilishi jihatidan ham xorijdagi yo'llardan ancha ortda qolmoqda.

Yo'llarning yetarlicha uzun emasligi va texnik darjasini pastligi avtomobilda tashishda katta xarajatlarni keltirib chiqarmoqda. Tashishlarning tannarxi rivojlangan

xorijiy mamlakatlardagi shunga o‘xshash ko‘rsatkichlardan 1,3 baravar, yoqilg‘i sarfi esa 20 foizga ortiq.

Oxirgi yillarda O‘zbekiston yo‘l xo‘jaligini moliyalashtirishda yuzaga kelgan vaziyat umumiy foydalaniladigan avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va saqlab turish uchun ajratilayotgan mablag‘lar ta’mirlash oralig‘idagi muddatlarni aniqlash bo‘yicha talab etiladigan normativ hujjatlarning qariyb 35 foizini tashkil etishini ko‘rsatmoqda.

Samarali va raqobatbardosh transport tizimini yaratish uchun quyidagilar talab etiladi:

- 1) raqobatbardosh va yuqori sifatli transport xizmatlarini ko‘rsatish;
- 2) raqobatbardosh va yuqori sifatli transport xizmatlari ko‘rsatilishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan xavfsiz va ish unumdoorligi yuqori transport vositalarini yaratish va transport infratuzilmasini barpo etish;
- 3) kuchli raqobat muhitini yaratish maqsadida transport xizmatlari taklifining talabdan ortiq bo‘lishi uchun tegishli shartsharoitlar yaratish.

Yuqori sifatli transport xizmatlarini shakllantirish uchun, eng avvalo, sifat standartlari va o‘lchamlarini aniqlashtirish, ularning bajarilishini va sifat standartlariga javob beruvchi samaradorligi yuqori bo‘lgan texnologiyalar yaratilishini rag‘batlantirish, davlat tomonidan tartibga solish usullari va huquqiy asoslarini takomillashtirish, hududlarda samaradorligi yuqori bo‘lgan bir qator texnologiyalarni sinov tariqasida joriy etish talab etiladi.

Yuk va yo‘lovchi tashish korxonalari va transport turlari o‘rtasida ichki raqobatni va shu bilan bir qatorda, xalqaro tranzit transport tizimlari o‘rtasida tashqi raqobatni rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi. Ichki raqobat tovar va xizmatlar harakatining maromiyligi va tezlashishini, transport xarajatlarining qisqarishi, transport xizmatlaridan foydalanishning arzonlashishi, investitsion iqlimning yaxshilanishini va pirovardida esa bozor munosabatlarining taraqqiy etishini ta’min etadi. Bu esa o‘z navbatida tashqi raqobatbardoshlikka va mamlakatning tranzit salohiyatining ortishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqobatbardosh transport xizmatlari bozorini yaratish quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- transport xizmatlari ko‘rsatish sohasida me’yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish (xavfsizlik, ekologik jihatdan soflik, transport xizmatlari sifati, transport xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solish usul va vositalarini rivojlantirish). Ushbu vaziyatda monitoring va boshqaruv, transport tizimini nazorat qilish tizimini yo‘lga qo‘yish ko‘rinishida samarali teskari aloqani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi;
- yuk tashish, shu jumladan, temir yo‘l transportida yuk tashish va shuningdek, jamoat transportida yo‘lovchi tashish sohasida raqobatni rivojlantirish;

- raqobatbardoshlik darajasi yuqori bo‘lgan transport xizmatlari ko‘rsatilishini ta’min etuvchi, unumdorligi yuqori bo‘lgan transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish (ushbu holatda tezlik va ishonchlilik muhim sanaladi);
- transport xizmatlari sifati va tejamkorligi, ekologik jihatdan sofligi va xavfsizligi borasida standartlarning bajarilishini ta’minlash maqsadida ilg‘or texnika va texnologiyalarni izchil joriy etish.

Transport infratuzilmasini muvozanatlashgan va jadal rivojlanishini ta’minlash transport tizimini rivojlantirishning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishni amalga oshirish transport xizmatlariga aholi va iqtisodiyot sektorlarining ehtiyojlarini tadqiq qilish va shuningdek. transport tizimini rivojlantirishning turli variantlarini bashoratlash va modellashtirish maqsadida matematik modellashtirishning usul va vositalaridan foydalanish, statistik hisobot tizimini rivojlantirish, transport-iqtisodiy balansini tuzish asosida transport infratuzilmasining barcha elementlarini o‘zaro hamohang va kompleks ravishda rivojlantirilishini anglatadi.

Transport tizimining barqarorligi va ishonchliligin ta’minlash 2030-yilgacha bo‘lgan davrda transport sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvorliklaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu o‘z navbatida, texnologik va infratuzilmaviy zaxiralar yaratilishini ko‘zda tutadi. Bunday zaxira va qo‘sishimcha imkoniyatlarning yaratilishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yuk va yo‘lovchi tashishga talabning tabiiy o‘zgarishi va uning istiqbolda o‘sish sur‘atlariga ega bo‘lishi sharoitida mamlakat transport tizimining

aholi hamda biznes

tuzilmalariga atrof-muhit va inson sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatmagan holda, o‘z vaqtida kerakli joyda arzon va sifatli transport xizmatlari ko‘rsatishini ta’min etadi.

Transport tizimini rivojlantirish strategiyasini samarali amalga oshirishda transport infratuzilmasiga davlat qo‘yilmalarining samaradorligini oshirish va qulay investitsion iqlimni yaratish, shu asosda transport tizimining muvozanatlashgan barqaror rivojlanishini ta’minlash muhim o‘rin tutadi. Transport tizimining barqaror o‘sish sur‘atlari davlat byudjetidan ajratilayotgan moliyaviy mablag‘larning yetishmasligi sharoitida davlat-xususiy



sherikchilikni rivojlantirish asosida transport majmuini rivojlantirishga xususiy investitsiyalarning ulushini oshirish hisobiga ta'min etilishi lozim. Shu bilan bir qatorda, davlat va xususiy sektor tomonidan moliyalashtirish nisbatlarining o'zgarishi sharoitida Transport strategiyasida ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarning amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan umumiylar hajmining saqlanib qolishiga erishish talab etiladi.

Yuqori samarali transport texnologiyalaridan keng foydalanish va transport korxonalarining transport parklarini zamонави transport vositalari bilan boyitish imkoniyatini beruvchi va iste'molchilarning talab va ehtiyojlarini to'laqonli tarzda qondirish qobiliyatiga ega bo'lgan barqaror transport infratuzilmasini yaratish muhim o'rн tutadi. Bunday vazifalarning amalga oshirilishi, barcha turdagи transport korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va rivojlantirish, ularning barqaror ishslashlari uchun infratuzilma borasida zaruriy shart-sharoitlarning yaratilishi ta'minlanadi. Buning asosida yuk va yo'lovchi tashish sohasida transport xizmatlari sifatining yaxshilanishiga va transport xizmatlari narxining arzonlashuviga erishiladi. Aholining turli ijtimoiy qatlamlari tomonidan transport xizmatlariga bo'lgan talabga muvofiq aholi mobilligining barqaror o'sishi-ijtimoiy transport standartlarining amalga oshishi ta'min etiladi.

Transport xizmatlari sifatini oshirish transport tizimida asoslangan zaxiralar yaratilishini talab etadi, bu esa birinchi navbatda, asosiy yuk va yo'lovchi tashish oqimlarida raqobatni rivojlantirishni taqozo etadi. Me'yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish transport qonunchilagini uyg'unlashtirish, transport va kommunikatsiya borasida dunyo standartlariga integratsiyalashish, transport xizmatlari sifatini belgilab beruvchi me'yorlarni aniqlashtirish, ularga rioya etilishi borasida javobgarlik choralarini belgilash va shuningdek, iste'molchilar huquqini himoya qilishni ko'zda tutishi zarur.

Mamlakat transport tizimi raqobatbardoshligini oshirish transport sohasida mamlakatning manfaatlarini butun dunyo miqyosida ilgari surish va himoya qilish borasida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan o'zaro uyg'unlashishi lozim. Bunday chora-tadbirlarning amalga oshirilishi asosida mamlakatning transport salohiyatini barqaror amalga oshirish va mamlakat transport tizimining dunyo transport xizmatlari bozoridagi o'rnini mustahkamlashga erishiladi.

Barqaror transport tizimini yaratishda transport vositalari va transport infratuzilmasi obyektlarining texnik va texnologik xavfsizligini oshirish borasidagi siyosatni bosqichma-bosqich amalga oshirish, shu bilan bir qatorda, transport korxonalari faoliyatiga noqonuniy aralashishlarning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Transport strategiyasini amalga oshirish davlatning ekologik omillarga bo'lgan e'tiborini kuchaytirishni taqozo etadi. Transport sohasida ekologik siyosat tamoyillarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish transport tizimining rivojlanishini

cheklovchi emas, balki uni harakatlantiruvchi kuchga aylanishini unutmasligimiz lozim.

Transport-logistika xizmatlarini ko'rsatish, transport infratuzilmasi obyektlari va transport vositalarini ekspluatatsiya qilish, transport tizimini rivojlantirish borasida turli loyihalarning amalga oshirilishini ta'min etuvchi mehnat resurslari bilan transport tizimi korxona va tashkilotlarini ta'minlash tizimini takomillashtirish transport strategiyasini hayotga izchil joriy etishda muhim o'rin tutadi.

Transport strategiyasini hayotga izchil joriy etishda loyiha boshqaruvi mexanizmlarini rivojlantirish, davlat tomonidan boshqarish va tartibga solish samaradorligini oshirish hisobiga transport tizimini rivojlantirishni boshqarish va nazorat qilish darajasini oshirish muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda respublika va mahalliy hududlar darajasida transportiqtisodiy balanslar asosida transport infratuzilmasini rivojlantirishning davlat tomonidan strategik rejalashtirishning kompleks tizimini yaratish muhim o'rin egallaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan transport tizimini rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlari asosida Transport strategiyasining asosiy maqsadli mo'ljallari, uning maqsadlari, ustuvorliklari, amalga oshirish vazifalari va mexanizmlari shakllantiriladi.

Transport faoliyati turlaridan kelib chiqqan holda, transport strategiyasining bosh strategik ustuvorliklari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

umum ijtimoiy ustuvorliklar:

- aholining mobilligi, transport xizmatlarining arzon va qulayligi;
- transport turlari bo'yicha xavf-xatar va to'qnashuvlar darajasining pasayishi;
- atrof-muhitni ifloslanishida transport ulushining pasayishi. umum iqtisodiy ustuvorliklar:
  - transport tarmog'i tomonidan yalpi ichki mahsulotning rejalashtirilgan o'sish hajmini ta'min etishga xizmat qiluvchi yuqori sifatli transport xizmatlarining to'liq hajmda ko'rsatilishiga erishish;
  - mahsulot va xizmatlarning yakuniy narxida transport xarajatlarining raqobatlashadigan darajada bo'lishini ta'min etish;
  - tovar va mahsulotlar partiyasi harakatining maromiyligi va tijorat tezligini oshirish;
  - transport infratuzilmasini barpo qilish va uni saqlab turishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish;
  - transport xizmatlarini ko'rsatish borasida davlatning samarali tarif siyosatini amalga oshirish;

- iqtisodiy raqobat muhitini, shu jumladan, davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlaridan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- yondash tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari va strategiyalarini muvofiqlashtirish; umum transport ustuvorliklari:
- transport korxonalarida mehnat unumdotligini oshirish;
- transport tizimlari rentabelligini ta’minlash;
- transport infratuzilmasi fond qaytimini oshirish;
- energiya sig‘imini pasaytirish;
- milliy tashuvchilarining raqobat ustunliklarini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish va ularning raqobatbardoshligini oshirish;
- transport borasida jahonda erishilgan ilg‘or natijalarga mos keluvchi innovatsion tovar transporti texnologiyalarini izchil joriy etish;
- yuqori texnologiyali mahsulotlarni tashishni yo‘lga qo‘yish;
- transport tarmog‘ining jadal rivojlanishini ta’min etuvchi investitsiyalash uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish;
- transport strategiyasining amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan transport mashinasozligi va unga butlovchi va ehtiyyot qismlar yetkazib beruvchi tarmoqlarni rivojlantirish.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda transport infratuzilmasining o‘rnini qanday? Fikringizni misollar yordamida tushuntirib bering.
2. Temir yo‘l va avtomobil transportini rivojlantirish borasida asosiy muammolar va tahdidlar nimalardan iborat?
3. O‘zbekistonda havo, daryo va dengiz flotini rivojlantirish istiqbollari qanday?
4. Mamlakatimizda transport xavfsizligini oshirishning asosiy strategik yo‘nalishlarini aniqlashtiring.
5. Uzbekistan Airways® AJ faoliyati samaradorligini oshirish uchun sizning takliflaringiz.
6. O‘zbekistonda 2030-yilgacha yo‘l-transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollarini so‘zlab bering?
7. O‘zbekistonda transport strategiyasining bosh ustuvorliklariga nimalar kiradi?
8. O‘zbekiston Respublikasi transport tarmog‘i uchun xos bo‘lgan tizimli muammolarga nimalar kiradi?
9. Magistral quvurlarning muhim afzalliklarini aytib bering?

10. O‘zbekistonda temir yo‘l transportining hozirgi holati va uni rivojlantirish tendensiyalari haqida gapiring.

## **13 mavzu. MAMLAKATNING MINERAL-XOMASHYO VA ENERGETIKA TIZIMIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH MASALALARI**

Reja

**13.1-§. O‘zbekistonning mineral-xomashyo majmuasi. Mineral-xomashyo majmuasida xavfsizlikka tahdidlar**

**13.1-§. O‘zbekistonning mineral-xomashyo majmuasi. Mineral-xomashyo majmuasida xavfsizlikka tahdidlar**

### **13.1-§. O‘zbekistonning mineral-xomashyo majmuasi. Mineral-xomashyo majmuasida xavfsizlikka tahdidlar**

Mamlakatning mineral-xomashyo majmuasi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Davlat va mahalliy byudjetlarning shakllanishi, aholi turmush darajasining yaxshilanishi va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining ortishi ko‘p jihatdan mineral-xomashyo majmuasining mavjud bo‘lishi va rivojlanishiga bog‘liqdir. O‘zbekiston zamini shuncha ko‘p boyliklarga egaki, bu jihatdan jahon xaritasida O‘zbekistonga teng keladigan davlatlar uncha ko‘p emas.

O‘zbekiston Respublikasida Mendeleyev davriy tizimida aks ettirilgan elementlarning ko‘philigi mavjud. Yer osti boyliklari orasida mis, qo‘rg‘oshin, oltin, kumush, rux volfram, uran, tabiiy gaz, neft, ko‘mir, alyuminiy xomashyosi, tuz, qimmatbaho toshlar, marmar, kaolin, ozokerit, korund kabilar bor. Mutaxassis olimlarning hisob-kitob qilishlaricha, Respublikamiz yer bag‘ridagi foydali qazilma boyliklar zaxirasi 3,3 trillion AQSH dollariga teng. O‘zbekiston turli foydali qazilmalar: mis, kumush, oltin, qo‘rg‘oshin, tabiiy gaz kabi qator konlar zaxirasi bo‘yicha jahon miqyosida ko‘zga ko‘ringan o‘rirlarni egallaydi.

Yer osti boyliklari to‘g‘risida so‘z yuritilganda, O‘zbekistonning oltin zaxiralari to‘g‘risida alohida to‘xtab o‘tish o‘rinli. Oltin mamlakatimizning eng asosiy boyliklaridan biri bo‘lib, mustaqillikning ishonchli negizidir. Zero, barcha davatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarida oltin jahon valyutasi vazifasini o‘taydi.



O‘zbekiston Respublikasi oltin qazib chiqarish bo‘yicha Mustaqil Davlatlar Hamdustligi (MDH) tarkibidagi mamlakatlar orasida Rossiyadan keyin 2-o‘rinni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 1-o‘rinni egallaydi. Oltin zaxiralari bo‘yicha O‘zbekiston dunyoda ham katta mavqega ega. Mamlakatimiz qidirib topilgan oltin zaxiralariga ko‘ra jahonda 4-o‘rinni, uni qazib chiqarish hajmi bo‘yicha esa 7-o‘rinni egallaydi. Oltin qazib chiqarishda Muruntov Respublikaning asosiy markazi hisoblanadi. Ushbu oltin koni tufayli Qizilqum sahrosida 1972-yili Zarafshon shahri vujudga kelgan. Muruntovdan tashqari Toshkent, Samarqand, Jizzax, Namangan viloyatlarida ham oltin konlari mavjud. O‘zbekistondagi oltin konlar qatoriga Marjonbuloq,

Kukpatas, Zarmiton, Kuchbuloq, Pirmurob kabilar kiradi.

Mamlakatimizda yiliga qariyb 100 tonna atrofida oltin qazib olinadi. Ma’lumot uchun 2016-2020-yillarda 70-80 tonna atrofida oltin eksport qilindi. Shu o‘rinda dunyodagi eng yirik oltin zaxiralar mavjud davlatlar bo‘lgan Xitoyda 450 ming tonna, Avstraliyada 270 ming tonna, Rossiyada 245 ming tonna, AQSHda 211 ming tonna, Kanadada 160 ming tonna, JARda 150 ming tonna atrofida oltin qazib olinmoqda. Mamlakatimizda 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra valyuta zaxiralar 28,4 milliard dollarni tashkil etgan. Ularning 14,4 milliard dollari monetar oltindir.

Respublikaning ayrim hududlarida mis konlari topilgan. Toshkent viloyatining Olmaliq atrofida mis konlari bor. Bu konning ishga tushirilishi natijasida 1951-yili Olmaliq shahri tashkil topgan, keyinchalik u rangli metallurgiya sanoati markaziga aylangan.

O‘zbekistonda tabiiy gaz, neft, ko‘mir konlari ham mavjud. Zaminimizda aniqlangan tabiiy gaz zaxirasi 2 trl. m<sup>3</sup>, ko‘mir zaxirasi esa 2 mlrd. tonnadan ortiqni tashkil etadi. Tabiiy gaz yoqilg‘i sifatidagina emas, muhim kimyoviy xomashyo sifatida ham katta ahamiyatga ega. Qashqadaryo va Buxoro hududlari O‘zbekistonning gazga eng boy hududlari hisoblanadi.



Bugungi kunda O‘zbekistonda chiqarilayotgan tabiiy gaz va neftning o‘ndan to‘qqiz qismi Qashqadaryo viloyatiga to‘g‘ri keladi. Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Ko‘kdumaloq neft koni mamlakatimiz yoqilg‘i energetikasi majmuasida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda ko‘p yillar neft va neft mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida uni tashqaridan olib kelinar edi. Hozirga kelib esa Respublika neft sohasida katta istiqbollarga ega. Keyingi yillarda mamlakatimizda 20 ga yaqin neft konlarining borligi aniqlandi. Qator neft konlari ishgaga tushirilishi tufayli neft qazib chiqarish keskin ko‘paydi. Masalan, 1990-yili O‘zbekistonda chiqarilgan neft hajmi 2810 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib, bu raqam 2.5 mln. tonnadan atrofida bo‘lmoqda. Neft chiqarish borasida Qashqadaryo viloyati karvonboshilik qiladi. U hozir mamlakatda chiqarilayotgan nefting 92 foizi ana shu viloyatga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston endilikda neft bo‘yicha ham mustaqilikka erishdi.

O‘zbekiston Davlat Geologiya qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, respublikada aniqlangan uran zaxiralari miqdori 190 ming tonnani tashkil qiladi. Undan 140 ming tonnasi – qumloq uran konlaridir, 47 ming tonnasi qora slanets uran konlari. Qazib olish osonroq bo‘lgan qumloq uran konlari oldin xorijiy sarmoyadorlarga taklif qilinmas edi. Ushbu konlar O‘zbekistonda uran qazib olish huquqiga ega bo‘lgan yagona korxona - Navoiy tog‘-metallurgiya kombinati zaxiralari tarkibiga kiradi.

O‘zbekiston uran zaxiralari bo‘yicha dunyoda 11-12 o‘rinlarda, uni qazib olish bo‘yicha 7- o‘rinda turadi.



Mamlakatimizda ushbu sohada keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Fransiyaning Orano Mining S.A kompaniyasi bilan Navoiy viloyatida uran konlarini qidirish va qazib olish bo‘yicha qo‘shma korxona tashkil qilindi. Mamlakatimiz mis zaxiralari bo‘yicha dunyoda 10-11-o‘rinda turadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda yagona mis ishlab chiqaruvchi, bu – «Olmaliq»

TMK bo‘lib, u yiliga 100 ming tonna mis ishlab chiqaradi.

O‘zbekiston 1900 mln. tonna ko‘mir zaxirasiga ega, jumladan, qo‘ng‘ir ko‘mir zaxiralari 1853 mln. tonnani tashkil etadi. Surxondaryo viloyatidagi Sharg‘un ko‘mir konida yillik ko‘mir qazib olish hajmi bugungi 150 ming tonnadan 900 ming tonnaga yetkazilishi rejalashtirilmoqda. Xitoyning China Railway Tunnel Group kompaniyasi ushbu loyihani amalga oshirishga kirishdi. Xitoylik mutaxassislar umumiyligi 1,5 ming kilometr bo‘lgan eski ko‘mir shaxtalarini qayta tiklash hamda 2,2 km yangi tunnellar qazish hisobidan qo‘srimcha miqdorda xomashyo qazib olishni rejalashtirishgan.

Mineral-xomashyo resurslarini o‘zlashtirish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi, iqtisodiyotning

bazaviy metallurgiya, og‘ir mashinasozlik kabi yetakchi sanoat tarmoqlarining rivojlanishini rag‘batlantiradi, mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb yarmini yaratgani holda, yangi ish o‘rinlarini barpo etishga ko‘maklashadi, harbiy-sanoat majmuini zaruriy resurslar bilan ta’minlaydi, yondash iqtisodiyot tarmog‘i va sohalarida multiplikativ samaraning vujudga kelishiga zamin yaratib beradi.

Mineral-xomashyo majmuasi deyilganda barcha tog‘-kon va mineral xomashyoni qayta ishlovchi korxonalar (tog‘-kon sanoati), mineral-xomashyo bazasi, shu bilan bir qatorda, tog‘-kon sanoatiga xizmat ko‘rsatuvchi va geologiya-razvedka tarmoqlarining umumiyligi tushuniladi.

O‘rganilgan va baholangan zaxiralar, ishlab chiqarish jarayoniga jalg qilingan foydali qazilmalar va ularning proqnoz ko‘rsatkichlari mineral-xomashyo majmuasining asosini tashkil etadi. Mamlakatimiz yer qa‘rida amalda mavjud bo‘lgan barcha foydali qazilmalar va ma’danlar mavjud. O‘zbekiston gaz, neft, ko‘mir, temir rudalari, nikel, platina, oltin va shu kabi bir qator foydali qazilmalarning zaxirasi, ularni qazib olish va eksport qilish bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Boshqa bir tomongan esa, O‘zbekistonda marganets, xrom, boksitlar va shu kabi bir qator strategik ahamiyatga ega bo‘lgan mineral-xomashyo resurslariga katta ehtiyoj mavjuddir.

Mineral-xomashyo sohasida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash asosan quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- iqtisodiy faoliyat soha va tarmoqlarini strategik mineralxomashyo resurslari bilan ta’minlash;
- mineral xomashyo resurslarini qazib olish va ularni qayta ishlash borasida dunyoning yetakchi mamlakatlari bilan raqobatlasha olish;
- mineral-xomashyo majmuuning hududlar taraqqiyotiga ta’siri.

Dunyoning ilg‘or mamlakatlarining mineral xomashyo resurslari borasidagi

siyosatini quyidagi asosiy modellarga birlashtirishimiz mumkin:

- renta tamoyiliga asoslangan holda qisqa muddatli davrda yuqori turmush darajasiga erishish imkonini beruvchi eksportga yo‘naltirilgan model;
- Yaponiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida mineral xomashyo resurslarining tanqisligi sabab yoki xuddi AQSHda bo‘lgani kabi ma’lum bir siyosiy sabablar hisobiga shakllangan importga asoslangan model;



- O‘zini-o‘zi ta’minlashga asoslangan model, siyosiy jihatdan —yopiq mamlakatlarni ifoda etadi va xilma-xil foydali qazilmalar, ularning katta zaxirasiga ega bo‘lgan davlatlardagina mazkur modeldan foydalanish mumkin. Ammo yer yuzasida bunday mamlakatlar amalda mavjud emas.

Bugungi kunda yuqorida sanab o‘tilgan modellarning hech biri amalda sof holda qo‘llanilmaydi, mamlakatda amalga oshirilayotgan mineral xomashyo siyosatida ko‘zda tutilgan ustuvorliklardan kelib chiqqan holda, ma’lum bir yo‘nalishga boshqalariga qaraganda ko‘proq e’tibor beriladi. Umuman olganda, aralash model birmuncha ma’qul hisoblanadi, chunki aralash modeldan foydalanish orqali mamlakatning mineralxomashyo resurslari va bu borada xavfsizlikni ta’minlash borasidagi siyosatini o‘zgaruvchan muhitga tez va oson moslashtirishimiz mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga mineral-xomashyo majmuasining ta’sirini baholashda tabaqalashgan yondashuvdan foydalanishimiz va rivojlanish modelini tanlashda quyidagi bir qator omillarni inobatga olishimiz talab etiladi:

- jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi global tendensiyalar;
- mamlakat rivojlanishining iqtisodiy ukladi;
- alohida hududlar va mintaqalarning rivojlanishida mineralxomashyo majmuasini tizim tashkil etuvchi sifatidagi o‘rni;
- foydali qazilmalar zaxirasi va ularni o‘zlashtirilish darajasi;
- mineral-xomashyo resurslariga ichki va tashqi talab;
- milliy iqtisodiyotning jahonda yuz berayotgan integratsion jarayonlarga tortilganlik darajasi;
- mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash darajasi;
- ijtimoiy-iqtisodiy omillar (bandlik, daromadlar darajasi, byudjetning to‘ldiriluvchanligi va shu kabilar).
- 

Bugungi kunda barcha mamlakatlar ikkiga mineralxomashyo resurslarini ishlab chiqaruvchi va iste’mol qiluvchilarga ajratilmoqda. Mamlakatlar o‘rtasida arzon mineral-xomashyo resurslariga egalik qilish uchun nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy kurash ham ketmoqda. So‘nggi yillarda kuzatilayotgan lokal mintaqaviy harbiy mojarolar asosan neft va gaz konlariga egalik qilish va ularni



o'zlashtirish, magistral neft va gaz quvurlarini o'tkazish bilan bog'liq holda yuz bermoqda.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan bozor islohotlari mineralxomashyo majmuasiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi: qayta ishlovchi korxonalar soni qisqardi, geologiya qidiruv ishlari hajmi keskin pasayib ketdi, bir qator foydali qazilmalarni qazib olish hajmi tushib ketdi, mazkur sohada amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar

moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi bois yetaricha rivojiana olmay qoldi, borish qiyin bo'lган hududlarda foydali qazilma konlarini o'zlashtirish e'tibordan chetda qoldi, mineral-xomashyo resurslarini qazib olish, geologiya va qidiruv ishlarini olib borish uchun zarur bo'lган asbob-uskuna va jihozlar ishlab chiqarish texnologik jihatdan orqada qolib ketdi, ko'pchilik hollarda foydali qazilmalarni qazib olishda pala-partishlikka yo'l qo'yilishi natijasida hududlarga katta ekologik va iqtisodiy zarar keltirildi, xorijiy kompaniyalarning foydali qazilma konlarini o'zlashtirish imkoniyatlarini qo'lga kiritishi natijasida mazkur sektorda asosiy foya xorijlik kompaniyalar ixtiyoriga o'tib ketdi, bunday salbiy holatlarni yana davom ettirishimiz mumkin.

Yuqorida tilga olib o'tilgan jihatlar mamlakatni ijtimoiyiqtisodiy jihatdan rivojlantirish va mineral-xomashyo resurslari borasidagi xavfsizligini ta'minlashning ichki va tashqi xavfxatarlarini aniqlashtirish imkonini beradi.

#### 1. Tashqi tavakkalchiliklar va tahdidlar:

- mineral-xomashyo resurslari eksporti borasida jahon bozorlarida narxlarning beqarorligi. Bu, albatta, mamlakatlarning byudjet-moliya tizimi barqarorligi va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga katta ta'sir ko'rsatadi;
- xorijiy davlatlar tomonidan mamlakatning mineralxomashyo sektorining rivojlanishini cheklashga yo'naltirilgan sanksiyalar;
- mineral-xomashyo konlari, mineral-xomashyo resurslarini sotish bozorlari, transport-logistika tizimlariga egalik qilish bilan bog'liq bo'lган geosiyosiy vaziyatning chigallashuvi.

#### 2. Umum iqtisodiy tavsifga ega bo'lган ichki tavakkalchiliklar va tahdidlar:

- mineral-xomashyo resurslari eksportiga byudjetning qaramligi;
- mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlovchi korxonalarining yetaricha rivojlanmaganligi, mineral-xomashyo resurslari ichki iste'moli darajasining pastligi;
- boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda mineralxomashyo resurslarini qazib olish va qayta ishslashning ko'p xarajat talab qilishi;

- mineral-xomashyo resurslarining notekis taqsimlanishi, qayta ishlovchi korxonalar va iste'molchilar ning joylashuvidanagi tafovutlar;
- mineral-xomashyo majmuasi faoliyati samaradorligining oshishiga xizmat qiluvchi rivojlangan infratuzilmaning mavjud emasligi;
- konlardan tartibsiz foydalanish, chiqitlarni qayta ishslash texnologiyasining mavjud emasligi bilan bog'liq holda qazib oluvchi va qayta ishlovchi ishlab chiqarishlarning atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi, zararli ishlab chiqarishlarda band bo'lgan ishchi-xodimlar va yaqin atrofda istiqomat qiluvchi insonlar sog'lik darajasining yomonlashuvi.

3. Tarmoq tavsifiga ega bo'lgan ichki tavakkalchiliklar va tahidilar:

- xomashyo resurslarining aniqlangan konlari sonining qisqarishi, qazib olish oson bo'lgan mineral-xomashyo resurslari zaxiralarining tugashi hisobiga qazib oluvchi va qayta ishlovchi korxonalar rentabelligining pasayishi;
- strategik ahamiyatga ega bo'lgan boksit, marganets, uran kabi bir qator mineral xomashyo resurs zaxiralarining cheklanganligi;
- geologiya va qidiruv ishlarining yetarlicha moliyalashtirilmamasligi, bu esa yangi foydali qazilma konlarini izlab topishni cheklab qo'yadi;
- aniqlangan foydali qazilma konlarini o'zlashtirish, mineral xomashyo resurslarini qazib olish va chuqur qayta ishslashni yo'lga qo'yish maqsadida talab etiluvchi mablag'larni kirituvchi investorlarning yo'qligi;
- tartibga solishning tarmoq mexanizmlarining mukammal ishlab chiqilmaganligi oqibatida yangidan barpo etilgan qazib olish quvvatlarining prognoz ko'rsatkichlariga to'g'ri kelmasligi;
- mineral-xomashyo majmui korxonalari asosiy fondlari eskirish darajasining yuqoriligi va eskirgan moddiy-texnik baza, bu o'z navbatida, asbob-uskunalar importi uchun yo'naltirilayotgan valyuta mablag'larining oshishiga olib keladi;
- import o'rnini bosuvchi, yuqori unum bilan ishlovchi qayta ishlovchi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga yetarlicha e'tibor berilmasligi;
- geologiya-qidiruv ishlarini tashkil etish rivojlangan mamlakatlar darajasidan ancha orqada, bu borada mahalliy texnologiya va texnik vositalar bugungi kun talabiga javob bermaydi;
- mamlakat hududlarini geologik jihatdan o'rganish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning yetarlicha emasligi;

- ITTKilarini moliyalashtirish hajmining pastligi, davlat va shuningdek, mineral-xomashyo sektorida faoliyat ko‘rsatuvchi tijorat tuzilmalari tomonidan ilmiy izlanishlarni qo‘llabquvvatlash talab darajasida emasligi.

Mamlakatning mineral-xomashyo majmuasini rivojlantirishda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlariga quyidagilar kirdi:

- yer osti boyliklaridan foydalanish, raqobat va antimonopol faoliyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi institutsional infratuzilmani takomillashtirish;
- mineral-xomashyo resurslarini to‘la qayta ishslash va to‘la qayta ishlanmagan mineral-xomashyo resurslari eksportini kamaytirish.

Mamlakatning barqaror mineral-xomashyo majmuini barpo qilishda geologiya-qidiruv ishlarini sifatli tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, birinchi navbatda, mamlakatning mineral-xomashyo resurslari nuqtayi nazaridan birmuncha istiqbolli bo‘lgan hududlarida yer qa‘rini o‘rganish maqsadida ilmiy geologik izlanishlar olib borish talab etiladi.

Olingan bilimlar va natijalar asosida mineral-xomashyo resurslari borasida istiqbolli hisoblangan hududlar geologik tuzilishining zamonaviy modellarini yaratish zarur bo‘ladi. Yer osti suvlari resurslarini baholash va ularning holatini monitoring qilish uchun gidrogeologik tadqiqotlar amalga oshirish va gidrogeologik tasvirga olish ishlarini bajarish lozim.

### **13.2-§. Energetika xavfsizligi. Energetika xavfsizligi borasida ichki va tashqi xavf-xatarlar**

Energetika xavfsizligi har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. O‘tgan asrning 70yillarida yaqin sharqdagi inqiroz natijasida erkin bozor munosabatlari chuqur ildiz otgan sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarga mazkur hududlardan neft eksportining qisqarishi va buning oqibatida neft narxining keskin ko‘tarilishi asosida energetika xavfsizligi muammosi birinchi marta yuzaga chiqqan.

Iqtisodiyoti energiya resurslari va birinchi navbatda, neft hamda gaz mahsulotlari importiga bog‘liq bo‘lgan mamlakatlar bunday sharoitda yirik energetik inqirozni boshdan kechirishga majbur bo‘ldilar. Davlat va davlatlararo hamda shu bilan bir qatorda, korporatsiyalar va yaxlit biznes darajasida ko‘rilgan tezkor choratadbirlar natijasida bunday inqirozni yengib o‘tish mumkin bo‘ldi. Inqirozdan chiqish borasida ko‘rilgan choratadbirlar sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: Xalqaro energetika agentligi tomonidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida energetika sohasida amalga oshiriluvchi davlat siyosatini qayta ko‘rib chiqish; energiya tejamkorlik borasida faol siyosat yuritish; noan’anaviy energiya resurslarini energiya

balansiga kiritish; bir qator mamlakatlarda ko‘mir sanoatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash; neftning strategik zaxiralarini yaratish va shu kabilar. Ushbu davrga kelib energetika xavfsizligi tushunchasi shakllandi.

Energiya manbalarining yirik eksportyorlaridan biri bo‘lgan O‘zbekiston uchun energetika borasida energetik xavfsizlikni inobatga olgan holda amalga oshiriluvchi davlat siyosati muhim o‘rin tutadi. Katta tabiiy energiya resurslari zaxiralari va yoqilg‘i – energetika majmuining yirik ishlab chiqarish salohiyati yaqin istiqbolda mamlakatning energetik mustaqilligiga putur yetmasligidan dalolat bersada, uzoq muddatli istiqbolda energetika sohasida barqarorlikka erishish maqsadida hozirdanoq choratadbirlar ishlab chiqilishi lozimligini ko‘rsatadi. Biroq bugungi kunda mamlakat energetika sohasida kuzatilayotgan ko‘p qirrali va chuqur ildiz otgan inqiroz, energetika salohiyati va ishlab chiqarish kuchlarini nomutanosib joylashtirish istiqbolda mamlakatning qator hududlarini energiya ta’minotida muammolar keltirib chiqarishi va umumiy tarzda mamlakatning energiya resurslari bilan to‘la-to‘kis ta’minlanish darajasiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy mavqYIni mustahkamlash va aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash borasida energetik sektorining salohiyatini mustahkamlash va tabiiy energiya resurslaridan yuqori darajada samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish mamlakat energetika siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Energetik xavfsizlik mamlakat aholisini, jamiyat, davlat, iqtisodiyot tarmoq va sohalarining yoqilg‘i hamda enegriya resurslari bilan ishonchli ta’minlanishi borasida yuzaga keluvchi xavf-xatarlardan himoyalanganlik darajasidir. Ushbu xavf-xatarlar tashqi (geosiyosiy, makroiqtisodiy, konyunkturaviy) omillar va shu bilan bir qatorda, mamlakat energetika sektorining holati va faoliyat ko‘rsatishi bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda 2020-yilda umumiy ishlab chiqarilgan elektr energiyasi 62,2 mlrd kvt soatni tashkil etdi, elektr stansiyalarining o‘rtacha yillik yuklamasi 70-72 foizni tashkil etadi, bir kishiga elektr energiyasi ishlab chiqarish 1 838 kvt soatni tashkil etadi, bu Qиргизистондан keyin (1 375) MDH mamlakatlarida ikkinchi eng kam ko‘rsatkich hisoblanadi. Taqqoslash uchun ushbu ko‘rsatkich bir kishiga Rossiya Federatsiyasida 7 245, Qozog‘istonda 5 405, Tojikistonda 2 000 kvt soatidan ortiqni tashkil etishini qayd etish mumkin.

“O‘zbekenergo” AJ tizimida ma’naviy eskirgan asosiy fondlar (30 yildan ortiq foydalangan) ulushi 62,4 foizni tashkil etadi.



Iste'molchilarga taqsimlash jarayonida iste'molchilarga berishda elektr energiyasining o'rtacha yillik nobudgarchiligi umumiy hajmga nisbatan 16 foizni tashkil etadi.

Energetika tarmog'i bugungi kunda o'zining salohiyatidan to'liq foydalanmayotganligini qayd etish mumkin, respublika va yaqinda joylashgan mintaqalarning ehtiyojlarini qoplashda taqchillik mavjud. Ushbu sohada davlat aktivlarini boshqarishning yo'lga qo'yilgan samarali tajribasi mavjud emas. Sohada mulkida davlat ulushi bo'lgan deyarli barcha korxonalar talab darajasida bo'limgan muammolar hamda qator vazifalarni hal etish uchun boshqariladi. Korxonalarini istiqbolli rivojlantirish bozor ko'nikmalari hisobga olinmasdan ma'muriy usullar bilan rejalashtiriladi.

Sanoat korxonalarini va aholining elektr hamda issiqlik energiyasi, tabiiy gaz bilan ta'minlanganligi darajasini oshirish, ushbu yo'nalishda innovatsion yechimlarni qo'llagan holda transport va muhandislik tarmoqlarini, logistikasini rivojlantirish, shuningdek, energiya ishlab chiqarish tannarxini, tadbirkorlik subyektlari uchun undan foydalanish qulayligini oshirish O'zbekistonda energetika tarmog'ini rivojlantirishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra 2030-yilga borib iqtisodiyotda elektr energiyasining prognozlashtiriladigan iste'moli 1,8 baravar, tabiiy gaz - 1,7 baravar, yoqilg'i-moylash materiallari iste'moli - 2,1 baravar ko'payadi. O'zbekistonda 2030-yilgacha elektr energiyasi ishlab chiqarishni 117,2 mldr kvt soatgacha ko'paytirish (2018-yilga taqqoslaganda o'sish 1,9 baravar), shu jumladan, muqobil yoqilg'ilar va energiya manbalari hisobiga 30 foizgacha ko'paytirish nazarda tutilgan, elektr energiyasi tannarxi 6 foizga, tabiiy gaz tannarxi 30 foizga pasayadi.

### **Energetik xavfsizlikni ta'minlash modeli**



#### **13.1-rasm. O'zbekistonning energetik xavfsizlik modeli.**

Mamlakatning energetika xavfsizligini mamlakat fuqarolari, jamiyat, davlat va iqtisodiyot tarmoqlarining arzon va zaruriy sifatga ega bo'lgan yoqilg'i-energetika

resurslariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laqonli ravishda qondirish borasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ichki va tashqi omillardan, shu bilan bir qatorda, yoqilg‘i-energiya ta’minotidagi uzilishlardan himoyalanganlik darajasi sifatida baholashimiz mumkin. Tilga olib o‘tilgan himoyalanganlik darajasi odatiy sharoitlarda mavjud ehtiyojlarni to‘laqonli ravishda qondirilishini, favqulodda holatlarda esa mavjud ehtiyojlarni minimal darajada qondirilishini kafolatlashi lozim. Bu o‘rinda shuni e’tiborga olishimiz lozimki, bugungi kunda himoyalanganlik darajasining ta’min etilishiga zo‘r berilishi, istiqbolda iqtisodiyot tarmoq va sohalarini yoqilg‘ienergiya resurslari bilan ta’minlanishini shubha ostiga qo‘ymasligi zarur.

Xalqaro energetik xavfsizlik muammolari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab davlat boshqaruvi organlari, tahlilchilar, amaliyotchilar va olimlarning diqqatini torta boshladи. Shakllanganligiga hali u qadar ko‘p bo‘lmagan energetika xavfsizligi instituti global xalqaro xavfsizlik majmuida muhim ahamiyat kasb etishi bir qator omillarga bog‘liq.

Birinchidan, jahon iqtisodiyotining energetika sektori har qanday mamlakat milliy xo‘jaligi tarmoqlarining hayotiy faoliyatini ta’min etadi va ko‘p jihatdan ularning moliyaviyiqtisodiy natijalari va ko‘rsatkichlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Tabiiy yoqilg‘i-energetika resurslari va energetika sektorining salohiyatidan eng yuqori darajada samarali foydalanish iqtisodiyotning barqaror o‘sish sur‘atlarini ta’minlash va aholi turmush darajasini yaxshilash imkonini beradi.

Ikkinchidan, tabiiy yoqilg‘i-energetika resurslari dunyo mamlakatlari bo‘yicha notekis taqsimlangan. Uglevodorod resurslariga boy mamlakatlar bilan bir qatorda, bunday resurslarga ega bo‘lmagan mamlakatlar ham mavjud. Hatto boy neft va gaz zaxiralariga ega bo‘lgan mamlakatlar mazkur zaxiralarni o‘zlashtirish va ekspluatatsiya qilish borasidagi ishlab chiqarish xarajatlari va shu bilan birgalikda, energiya resurslari sifati bo‘yicha ham bir-birlaridan farq qiladi. Bu, o‘z navbatida, yoqilg‘i-energetika majmui tarkibiga kiruvchi ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobat kurashi borasida ma’lum bir obyektiv farqlanishlarni keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, energiya resurslar iste’molining uzluksiz o‘sib borishi, uglevodorod xomashyosi zaxiralarining qayta tiklanmasligi, jahon iqtisodiyoti mazkur tarmog‘ining bir qator o‘ziga xosliklari energiya resurslari bozorida raqobat kurashining shiddatli tus olishiga va uning natijasida davlatlar o‘rtasida harbiyisosiy nizolarning avj olishiga sabab bo‘ladi.

Tashqi siyosat borasida O‘zbekistonning energetika xavfsizligi muammolari sobiq Ittifoqning tarqalib ketishi va yaxlit yoqilg‘i-energetika majmuuning alohida milliy tizimlarga ajralib chiqishi oqibatida yanada dolzarblik kasb eta bordi, bu esa o‘z navbatida, mamlakat yoqilg‘i-energetika majmuasiga tashqi iqtisodiy va siyosiy omillarning ta’sirining kuchayishiga olib keldi:

1) sobiq ittifoq respublikalarining yoqilg‘i-energetika majmui bozorlari avvallari yaxlit bitta ichki bozorni tashkil etgan bo‘lsa, endilikda ular ichki bozordan tashqi bozorga aylanadi;

2) —markazdan qochirma harakatlarning avj olishi yangidan tashkil topgan mustaqil davlatlar yoqilg‘i-energetika resurslarini yetkazib berish manbalarini diversifikasiya qilishlari natijasida yoqilg‘i-energetika resurslarini yetkazib berish borasidagi avvaldan mavjud aloqalarga chek qo‘yildi;

3) yaxlit infratuzilmaning barbod bo‘lishi va sobiq ittifoq respublikalari orqali Yevropa bozorlariga yoqilg‘i-energetika resurslarini yetkazib berishda tranzit muammolarining vujudga kelishi.

Energiya resurslarining tashqi bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida O‘zbekiston ortida katta davlatlarning manfaatlari turuvchi yirik transmilliy kompaniyalarning kuchli iqtisodiy bosimiga duch kelmoqda. Bu kabi omillarning barchasi energetika sektorida mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ta’minlash sohasida aniq va puxta o‘ylangan davlat siyosatini olib borishni taqozo etadi.

Tashqi xavf-xatarlar. Umuman olganda, dunyo neft va gaz bozori tomonidan mamlakatning energetika xavfsizligiga xavf soluvchi xatarlarning vujudga kelishiga olib keluvchi iqtisodiy hamda siyosiy tusdagi sabablar va omillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) bozorlardagi nobarqarorlik;

2) ayrim xorijiy davlatlar yoki ularning hamjamiyatlarining xalqaro yoqilg‘i-energetika resurslari va ularni qazib olish bozorlarida mamlakatga nisbatan kamsituvchi va ayrimachi xattiharakatlarning amalga oshirishi;

3) xorijda neft va gaz konlarini o‘zlashtirishda O‘zbekiston kompaniyalarining ishtirok etishiga to‘sqinlik qilish;

4) dengiz yo‘llarida kemalarning erkin qatnovi to‘g‘risidagi konvensiyani bajarmaslik, tranzit davlatlar hududidagi tranzit quvurlarni yopib qo‘yish, mamlakatdan eksport qilinuvchi neft va gaz resurslarini tashish borasida cheklovlar o‘rnatish;

5) boshqa davlatlar hududi orqali tranzitga asossiz ravishda yuqori tariflar belgilash;

6) harbiy to‘qnashuvlarning kelib chiqish ehtimoli.

So‘nggi yillarda dunyo energetika bozorida yuz berayotgan jarayonlar, mamlakatlar o‘rtasida energiya resurslar borasida yuzaga kelayotgan ziddiyatlar energetika borasida o‘ziga xos energetika diplomatiyasini yo‘lga qo‘yishni,



milliy energetika kompaniyalarining manfaatlarini xalqaro maydonda faol qo'llabquvvatlash zarurligini ko'rsatmoqda.

Markaziy Osiyoning energetika balansida O'zbekistonning mavqYIni mustahkamlash, suvni iste'mol qilishning resurs samaradorligi modeliga o'tish va umuman iqtisodiyotning energiya jihatidan samaradorligini oshirish, xususan:

- kichik derivatsion GESlar va yordamchi infratuzilmani qurish;
- quyosh, shamol yoki biochiqindilar singari energiyaning tiklanadigan manbalaridan generatsiyalashtiruvchi issiqlik yoki elektr stansiyalari qurish;
- elektr energiyasiga ichki talab qondiriladigan Markaziy Osiyoda suv-energetika konsorsiumi yaratish ishlari;
- Atom energetikasida loyihalarni rivojlantirish (Rossiya, Fransiya va Xitoy bilan birgalikda);
- energiyani sanoat yo'li bilan saqlash tizimini ishlab chiqish;
- elektr generatsiyasini markazlashtirishdan chiqarish tizimini joriy etish (Smart Grid);
- qo'shilgan qiymat ulushi yuqori bo'lgan samarali va barqaror energetika tizimini yaratish;
- energiyaning tiklanadigan manbalari va atom energetika sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;
- asbob-uskunalar ishlab chiqarilishi mahalliy lashtirilishining salmoqli darajasi va energiyaning tiklanadigan manbalarini texnologik rivojlantirish.
- O'zbekistonning elektroenergetika tarmog'ida xalqaro kompaniyalar paydo bo'ladi.

Energetika xavfsizligi borasida ichki xavf-xatarlar quyidagilarning mavjudligi bilan bog'liqdir:

- 1) yoqilg'i-energetika majmuasi asosiy fondlari eskirish darajasining yuqoriligi (elektroenergetika va gaz sanoatida eskirish 60%, neftni qayta ishslash sanoatida 80 %ni tashkil etadi);
- 2) yoqilg'i-energetika majmuasini rivojlantirishga yo'naltirilayotgan investitsiyalar salmog'ining pastligi;
- 3) mamlakat iqtisodiyoti va energetikasining tabiiy gazga haddan ziyod bog'liqligi, yoqilg'i-energetika resurslarining ichki iste'moli tarkibida tabiiy gazning ulushi qariyb 53 %ni tashkil etadi;
- 4) mamlakat yoqilg'i-energetika majmuasi ishlab chiqarish salohiyatining bu borada jahonda erishilgan daraja va ekologik standartlarga to'g'ri kelmasligi;

5) Orolbo‘yi hududida energetika infratuzilmasining sust rivojlanganligi.

Milliy darajada energetika xavfsizligini ta’minlash uchun, eng avvalo, ikkita dolzarb muammoni hal etish lozim. Birinchidan, yoqilg‘i-energetika majmuining ko‘p jihatdan eskirgan texnologik bazasini modernizatsiya qilish va energiya resurslar ishlab chiqarish hajmining barqarorligiga erishish maqsadida resurs bazasining takror ishlab chiqarilishini ta’minlash zarur. Joriy o‘n yillikda investitsiyalarning cheklanganligi bois (faqat neft tarmog‘idan tashqari) birinchi navbatda, mavjud ishlab chiqarish quvvatlari (ularning xizmat muddatlarini uzaytirish imkoniyatlarini inobatga olgan holda) texnologik jihatdan modernizatsiya qilinadi, keyinchalik esa ilg‘or mahalliy va bizning sharoitlarga mos keluvchi xorijiy texnologiyalardan foydalanilgan holda ular tubdan rekonstruksiya qilinadi va yangi quvvatlar barpo etiladi.

Ikkinchidan, yoqilg‘i-energetika resurslarining iste’moli tarkibi va ularni ishlab chiqarishni joylashtirishni tubdan qayta ko‘rib chiqish talab etiladi. Atom va gidro energetika, ko‘mir iste’molini ko‘paytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishga o‘tish, yangi uglevodorod zaxiralarini izlab topish va ularni o‘zlashtirish ko‘zda tutilgan. Mamlakat va hududiy darajada amalga oshiriluvchi davlat energetika siyosati maqsad va usullarining yaxlitligini ta’minlash energetika xavfsizligiga erishish va yoqilg‘i-energetika majmuini barqaror rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Ijro hokimiyyati organlari yoqilg‘i-energetika majmuasining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash va yoqilg‘i-energetika sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida me’yoriyuquqiy bazani ishlab chiqadilar; Respublika energetika tizimi atom energetikasi faoliyatini direktiv tartibda muvofiqlashtiradi va nazorat qiladilar; energetika obyektlari va inshootlarining samarali va xavfsiz ishlashi borasida standartlar, xavfsizlik me’yorlari va texnik shartlarni belgilaydilar va ularga rivoya etilishi ustidan davlat nazoratini o‘rnatadilar; foydali qazilma konlari va yoqilg‘ienergetika majmui subyektlari faoliyatini litsenziyalaydilar; qonunchilik hujjatlari asosida va shuningdek, kompaniyalar va aksionerlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlariga egalik qilish orqali tabiiy monopoliyalarning faoliyatini tartibga soladilar.

Xomashyo va resurslarning yetarli ekanligi milliy iqtisodiyot va aholining energiya resurslari bilan uzlusiz ta’minlash imkoniyatlari bilan belgilansa, mavjud narxlar sharoitida ta’minotning rentabelligiga erisha olish-iqtisodiy jihatdan hammaboplilikni ifoda etadi. Ekologik va texnologik jihatdan yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan chegara esa, energetika obyektlarining xavfsiz faoliyat ko‘rsatishini belgilab beruvchi texnik va ekologik cheklar doirasida energiya resurslarini qazib olish, ishlab chiqarish va iste’mol qilish imkoniyatlarini anglatadi.

2030-yilgacha bo‘lgan O‘zbekistonning energetika strategiyasini amalga oshirish natijasida energetika xavfsizligi to‘laligicha ta’minlandi. Shu bilan birgalikda

mamlakat energetika tizimidagi mavjud muammolarning o‘ziga xos aksi bo‘lgan ayrim hududlardagi energetika xavfsizligini ta’minlash borasidagi lokal tavsifdagi qisqa muddatli buzilishlar bartaraf etiladi.

Energetik xavfsizlik holatini monitoring qilish. 2030yilgacha mo‘ljallangan energetik strategiyasida energetik xavfsizlikni ta’minlash borasida quyidagi indikatorlar zarurligi ko‘zda tutilgan:

- energetika xavfsizligi;
- iqtisodiyotning energetik samardorligi;
- energetikaning iqtisodiy va byudjet samaradorligi; □ energetikaning ekologik xavfsizligi.

2030-yilgacha bo‘lgan energetik strategiyada O‘zbekiston iqtisodiyoti va mamlakat yoqilg‘i-energetika majmuini rivojlantirishning bir nechta bosqichlari ajratib ko‘rsatilgan.

Birinchi bosqich inqirozdan chiqish va yangi iqtisodiy taraqqiyot uchun yangi iqtisodiy asos yaratish bosqichi hisoblanadi.

Ikkinci bosqich innovatsion taraqqiyot va yangi iqtisodiyotning infratuzilmasini shakllantirish bosqichi sanaladi. Birinchi bosqichda asosiy ishlab chiqarish fondlarini modernizatsiyalash borasida amalga oshirilgan ishlar va amaliyotga joriy qilingan bir qator me’yoriy-huquqiy hamda institutsional o‘zgarishlar natijasi sifatida yoqilg‘i-energetika majmui va butun iqtisodiyot tarmoq sohalarida energiya samaradorlikni yalpi tarzda oshirish ikkinchi bosqichning muhim vazifasi hisobalanadi.

Uchinchi bosqich innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish bosqichidir. An’anaviy energiya resurslaridan yanada samarali foydalanish bilan bir qatorda yangi energiya manbalarini izlab topish va ularni olish texnologiyasini takomillashtirishga tayangan holda, yuksak texnologik imkoniyatlar darajasiga ega bo‘lgan kelajak energetikasiga bosqichma-bosqich o‘tish mazkur bosqichning asosiy mazmunini tashkil etadi. Ushbu bosqich 2030-yilga qadar amalga oshiriladi.



2030-yilga borib iqtisodiyotda elektr energiyasining prognozlashtiriladigan iste’moli 1,8 baravar, tabiiy gaz - 1,7 baravar, yoqilg‘i-moylash materiallari iste’moli - 2,1 baravar ko‘payadi. Konsepsiya doirasida 2030-yilgacha elektr energiyasi ishlab

chiqarishni 117,2 mlrd kVt soatgacha ko‘paytirish (2020-yilga taqqoslaganda o‘sish 1,9 baravar), shu jumladan, muqobil yoqilg‘ilar va energiya manbalari hisobiga 30 foizgacha ko‘paytirish nazarda tutiladi, elektr energiyasi tannarxi 6 foizga, tabiiy gaz tannarxi 30 foizga pasayadi.

Quyidagilar 2030-yilgacha tarmoqni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

***O‘rtacha muddatli istiqbolda (2020-2025-yillar)***

1. Faoliyatning potensial raqobatli (gaz, neftni qayta ishlash mahsulotlari, elektr energiyasini xususiy operatorlarga sotish) va monopol (qazib olish, generatsiya, magistral tarmoqlar orqali uzatish, dispatcherlik boshqaruvi tizimi) sohalarini aniq ajratgan holda korxonalarни tarkibiy o‘zgartirishning yo‘nalishlarini belgilab yoqilg‘i-energetika kompleksini bozorga xos isloh qilish strategiyasini amalga oshirish.

2. Energetika sohasida davlat boshqaruvi va xo‘jalik faoliyati funksiyalarini chegaralash, ijtimoiy va davlat-xususiy sheriklikning huquqiy va institutsional bazasini takomillashtirish, tarif siyosatini amalga oshirishning aniq bozor mexanizmlarini ishlab chiqish va shu asosda sog‘lom raqobat muhiti prinsiplarini ilgari surish.

3. Respublika ichki iste’molchilarini tabiiy gaz bilan ishonchli ta’minlash maqsadida gaz-transport tizimini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish hamda gazning eksport hajmlarini kengaytirish.

4. Gazni sanoat yo‘li bilan qayta ishlash uchun bo‘shatish maqsadida yoqilg‘i-energetika kompleksining ishlab chiqarish tuzilmasini diversifikatsiyalash jarayonini chuqurlashtirish.

5. Elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishda sanoat chiqindilari va maishiy chiqindilardan foydalanish texnologiyalarini rivojlantirish yoqilg‘i-energetika resurslarining xomashyo bazasini diversifikatsiyalash, zararli chiqindilarni kamaytirish va qimmatroq yoqilg‘ini iste’mol qilishni qisqartirishning samarali usuliga aylanishi mumkin. Ushbu trendni rivojlantirish "Chiqindilar to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni amalda bajarilishini ta’minlaydi.

6. Issiqlik va elektr energiyasining yangi avtonom manbalarini ishlab chiqish va joriy etish, quyosh energiyasi singari tiklanadigan, muqobil energiya manbalarini joriy etishni tezlashtirish, kombinatsiyalashtirilgan siklli integratsiyalashtirilgan quyosh-issiqlik elektr stansiyalarini, bioenergetikani joriy etish va shu kabilar.

7. Ulgevodorod xomashyonini chuqur qayta ishlash bo‘yicha texnologik rekonstruksiya qilish va yangi quvvatlarni faol ishga tushirish loyihamalarini amalga oshirish, yoqilg‘i-energetika kompleksining qayta ishlovchi tarmoqlarini rivojlantirishda innovatsiyalarni faol joriy etish.

8. Neft va gaz quduqlarini burg‘ulash, uglevodorodlarni qazib olish, tashish va qayta ishlash tizimlari, shuningdek, iqtisodiyotning turdosh tarmoqlari uchun yuqori texnologik asbob-uskunalarni o‘zlashtirish va ishlab chiqarishni nazarda tutadigan importning o‘rnini bosish nomenklaturasi va hajmlarini kengaytirish.

9. Elektr energiyasi va tabiiy gazni tashish va pirovard iste’molchiga sotish jarayonlarida blokcheyn tizimini joriy etish.

10. Neft-gaz konlarining zaxiralari zarur o‘sishini ta’minlaydigan yangi konlarni (shu jumladan, slanets uglevodorodlar konlarini) ishga tushirish va neft-gaz konlaridan olinadigan samara koeffitsiyentlarini salmoqli ravishda ko‘paytirish.

11. Energiyaning tiklanadigan manbalari kompleksida, shu jumladan, kichik shaharlarda gaz-porshen qurilmalarini qo’llagan holda yopiq issiqlik ta’minotining boshqariladigan tizimlari bilan uyg‘unlikda elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishni ta’minlaydigan qurilmalarni joriy etish. Bu elektr va issiqlik yuklamalari jadvallarini mahalliy tartibga solish, mintaqalarni energiya bilan barqaror ta’minlash, elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishda birlamchi energiya xarajatlarini pasaytirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishning kombinatsiyalashtirilgan sxemasi bilan 1 MVt va undan ortiq quvvatli qozonxona stansiyalarini loyihalashtirish va qurish amaliyotini joriy etish.

12. Tarmoqning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida qulay muhit yaratgan holda iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida energetika bozorini va iqtisodiy o‘zaro munosabatlarni shakllantirish.

### ***Uzoq muddatli istiqbolda (2030-yilgacha)***

13. Suyuq va gazsimon uglevodorodlar zaxiralarini, shu jumladan, geologiya-qidiruv ishlarining yangi texnologiyalarini joriy etish hisobiga chuqur qatlamlar zaxiralarining zarur o‘sishini ta’minlash.

14. Yangi konlarni o‘zlashtirish, qazib olish va nobudgarchiliklarni kamaytirishning yuqoriroq darajasini ta’minlaydigan qazib olishning yangi texnologiyalarini joriy etish orqali uglevodorod xomashyo qazib olish obyektlarining texnologik infratuzilmasini modernizatsiyalash jarayonlarini tezlashtirish.

15. Energiya hosil qiluvchi energetika quvvatlarini modernizatsiyalash va kengaytirish, iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarining elektr ta’minoti ishonchliligi va samaradorligini ta’minlaydigan elektr uzatish liniyalarini rekonstruksiya qilish.

16. Ishlab chiqariladigan mahsulotni diversifikatsiyalash imkonini beradigan uglevodorodlarni qayta ishlash bo‘yicha ilg‘or texnologiyalarini joriy etish, turdosh ishlab chiqarishlarni rivojlantirishni ta’minlab, uning sifat tavsiflarini yaxshilash (gaz-kimyo mahsulotlarining yangi turlarini kengaytirish va o‘zlashtirish bo‘yicha loyihalar va shu kabilar).

17. Energiyaning tiklanadigan manbalarini ulushini, shu jumladan, gidroenergiya, ko‘mir yoqilg‘isi, yoqilg‘ining noan’anaviy turlari, atom energiyasi ulushini ko‘paytirish yo‘nalishida umumiylar energetik balansni diversifikatsiyalash yo‘nalishlarini o‘z ichiga oluvchi yoqilg‘i-energetika kompleksini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek, elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishning kombinatsiyalashtirilgan texnologiyalarini qo‘llash, ikkilamchi energiya resurslarini energetik utilizatsiya qilish hisobiga uglevodorod xomashyodan foydalanish samaradorligini oshirish.

18. Markaziy Osiyoning energetika balansida O‘zbekistonning mavqYIni mustahkamlash, suvni iste’mol qilishning resurs samaradorligi modeliga o‘tish va umuman iqtisodiyotning energiya jihatidan samaradorligini oshirish, xususan:

- kichik derivatsion GESlar va yordamchi infratuzilmani qurish;
- quyosh, shamol yoki biochiqindilar singari energiyaning tiklanadigan manbalaridan generatsiyalashtiruvchi issiqlik yoki elektr stansiyalari qurish;
- uning hisobiga elektr energiyasiga ichki talab qondiriladigan Markaziy Osiyoda suv-energetika konsorsiumi yaratish ishlari;
- Atom energetikasida loyihalarni rivojlantirish (Rossiya, Fransiya va Xitoy bilan birgalikda);
- energiyani sanoat yo‘li bilan saqlash tizimini ishlab chiqish; elektr generatsiyasini markazlashtirishdan chiqarish



tizimini joriy etish (Smart Grid);

- qo‘silgan qiymat ulushi yuqori bo‘lgan samarali va barqaror energetika tizimini yaratish;
- energiyaning tiklanadigan manbalarini va atom energetika sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;
- asbob-uskunalar ishlab chiqarilishi mahalliylashtirilishining salmoqli darajasi va energiyaning tiklanadigan manbalarini texnologik rivojlantirish. O‘zbekistonning elektroenergetika tarmog‘ida xalqaro kompaniyalar paydo bo‘ladi.

Energetik xavfsizlik holati va uning tarkibiga kiruvchi ko‘rsatkichlarning belgilangan me’yorlarga mosligini doimiy monitoring qilib borish zarur, belgilangan me’yorlardan chetga chiqish holatlari aniqlansa, tezkor chora-tadbirlar ko‘rilishi talab etiladi. Texnologik jihatdan energiya resurslarini qazib olish, ularni qayta ishslash va

shu bilan bir qatorda ularni tashish, sotish va iste'molini yo'nga qo'yish borasidagi keng qamrovli jarayonlarni takomillashtirib borish hisobiga energetika xavfsizligi ta'minlanadi. Har bir bosqichda tabiat bilan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsifga ega bo'lgan intensiv aloqalarga kirishiladi va inson-tabiat o'rtaSIDagi aloqalarning yangi qirralari yuzaga chiqa boradi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 24-maqсад: Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzlusiz ta'minlash hamda —Yashil iqtisodiyot texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirishdan iboratdir. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilar belgilangan:

2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kVt.suatga oshirib, jami 100 milliard kVt.suatga yetkazish;

- 2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash;
- O'zbekiston energetika tizimining qo'shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta'minlash;
- sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish;
- uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish;
- elektromobil lar ishlab chiqarish va ular dan foydalanish bo'yicha choralarni ko'rish;
- iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqaradigan zararli gazlar hajmini birlik Yalpi ichki mahsulot hisobida 10 foizga qisqartirish.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Tabiiy resurslar tushunchasi mazmuni va mohiyatini izohlab bering.
2. O'zbekistonning tabiiy-geografik sharoiti haqida bayon qiling.
3. Mineral xomashyo resurslari tushunchasiga ta'rif bering.
4. Mineral xomashyo resurslarini iqtisodiy ahamiyati nimada?
5. O'zbekistonda oltin, uran, mis, ko'mir zaxiralari va uni qazib olish ko'rsatkichlari hamda iqtisodiy ahamiyatini baholang.
6. O'zbekistonda neft va gaz zaxirasi hamda uni qazib olish yuzasidan amalga oshirilayotga islohotlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
7. O'zbekistonda energetika xavfsizligi tushunchasini yoritib bering.
8. O'zbekistonda qanday energetika resurslari va konlari mavjud?

9. O‘zbekistonda energetika xavfsizligi borasida ichki va tashqi xavf-xatarlarni aytib bering.

10. O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiyiqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida energetika tarmog‘ini rivojlantirish ko‘rsatkichlari haqida so‘zlab bering.

## **XIV BOB. EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH - IQTISODIY RIVOJLANISHNING MUHIM OMILI**

### **Reja**

#### **14.1-§. O‘zbekistonda ekologik vaziyat va xavf-xatarlar**

#### **14.2-§. Davlatning ekologik siyosati va tabiatdan foydalanish vazifalari**

#### **14.3-§. O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning yo‘nalishlari**

#### **14.1-§. O‘zbekistonda ekologik vaziyat va xavf-xatarlar**

O‘zbekiston Respublikasidagi ekologik vaziyat uning geografik joylashuvi hamda iqlim sharoitiga bog‘liqdir. O‘zbekiston Amudaryo va Sirdaryo daryolarining oralig‘ida, Yevroosiyo qit‘asining markaziy qismida, yarim sharning subtropik hududida joylashgan. O‘zbekiston uchta asosiy iqlim zonalari – cho‘llar va quruq dashtlar, tog‘ yonbag‘irlari va tog‘larga bo‘linadi. Cho‘l va quruq dasht hududlarining deyarli barchasi, shu jumladan, Qizilqum sahrosi, Ustyurt platosi, Qarshi va Dalvarzin cho‘llari dengiz sathidan 400 metr balandlikda va undan pastda yotadi.

Sobiq sho‘ro hokimiysi davrida tabiat qonunlariga zid ravishda respublikamiz iqlim sharoitlari hisobga olinmay iqtisodiyotning bir tomonlama, xomashyo, oraliq mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligi, xalq xo‘jaligida paxta yakkahokimligi, suv va o‘rmon resurslaridan xo‘jasizlarcha foydalanish cho‘l maydonlarining kengayishi, tuproq qatlaming sho‘rlanishi, ekologiyaning buzilishiga olib keldi.

O‘zbekiston Respublikasining ekologik vaziyati quyidagilardan iborat:

**Birinchidan:** yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog‘liq xavf to‘xtovsiz ortib bormoqda. Bu xavf yerlarning odamlarning munosabati tufayli, ilgari nurashga qarshi chora-tadbirlar yaxshi olib borilmaganligi, shamol va suv ta’sirida yemirilishning tuproq unumdarligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, tuproq nurashi, sho‘rlanishi, yer ustki va yer osti suvlari sathi pasayishida namoyon bo‘lmoqda.

**Ikkinchidan,** suv zaxiralarning, shu jumladan, yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi jiddiy ekologik xavfdir.

**Uchinchidan**, Orol dengizining qurib borish xavfi kuchli ekologik xavf-xatar, tahdiddir. Bugun Orolbo‘yida nafaqat ekologik, balki dunyo miqyosida og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolar paydo bo‘ldi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida hozirgi vaqtida Orol fojiasi tufayli 5,5 million gektardan ortiq maydonda Orolqum sahrosi paydo bo‘ldi. Har yili 100 million tonna qum va tuz havoga ko‘tarilmoqda. Bu esa Orol halokati global muammo ekanini yana bir bor isbotlamoqda<sup>1</sup>,-deb ta’kidlagan.

**To‘rtinchidan**, havo bo‘shlig‘ining ifloslanishi ham respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdiddir. Mutaxassislarining ma’lumotlariga qaraganda, har yili respublikaning atmosfera havosiga 4 million tonnaga yaqin zarralar qo‘shilmoqda.

Ekologik xavf-xatar va tahdidning kuchayishi ekologik xavfsizlikni ta’minalash mexanizmini shakllantirish va rivojlantirib borishni taqozo etadi. Ekologik vaziyatni baholash uchun Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi institutlari (NIPTI Atmosferal va NPXS Suv xo‘jaligi ekologiyasi) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududini ekologik hududlashtirish metodologiyasi ishlab chiqilib, amalga oshirilgan. Hududlashtirish respublikaning ma’muriy-hududiy taqsimotiga asoslangan; rayonlashtiriladigan eng kichik hududiy birlik (takson) sifatida ma’muriy tuman, respublika yoki viloyatga bo‘ysunuvchi shahar qabul qilingan. Har bir taksonning ekologik vaziyati 18 ta ekologik indikator (mezon) bo‘yicha baholangan, ular hududlarning ekologik tanglik darajasi (ruxsat berilgan, kritik, favqulodda, ekologik falokat) bo‘yicha an’anaviy taqsimoti bilan bir qatorda, balli baholarga ham ega bo‘lib, o‘rtacha solishtirma balli bahoni hisobga olgan holda xavfli va o‘ta xavfli toifalarga bo‘linadi.

Hududni ekologik tanglik darajasiga ko‘ra rayonlashtirish (viloyatlar bo‘yicha) quyidagicha amalga oshiriladi: 400 va undan yuqori ball - favqulodda tang, 205-400 - kuchli tanglik, 150-250 - o‘rtacha tanglik, 120-150 -sust tanglik va 120 ball normal (tanglik yo‘q).

Ekologik jihatdan eng og‘ir ahvolda turgan hudud Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘lib, bu yerdagi ekologik vaziyat favqulodda tang bo‘lgan holda ahvol yanada og‘irlashmoqda.



Xorazm, Farg'ona va Navoiy viloyatlarida ekologik vaziyat kuchli tanglik darajasida. Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi ekologik vaziyatni o'rtacha tanglikda deb tavsiflash mumkin. Surxondaryo, Toshkent, Sirdaryo va Andijon viloyatlaridagi vaziyatni sust tanglikda, Namangan, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahridagi ahvol esa me'yoriy sharoitdadir.

Ta'kidlab o'tish joizki, hududlarni ekologik tanglik darajasi bo'yicha yuqoridaqidek saralashda nisbatan —me'yoriyl viloyatlarda ham favqulodda og'ir holatlar kuzatilayotgan —qaynoq nuqtalar|| bo'lishi mumkin. Masalan, Surxondaryo viloyatidagi Termiz va Muzrabod tumanlari, Buxoro viloyatidagi G'ijduvon, Toshkent viloyatidagi Yangiyo'l shaharlari favqulodda ekologik vaziyat zonasiga kiradi.

Rayonlashtirish natijalaridan ekologik ofat hududlarida yashovchi aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan qonunchilikni ishlab chiqish shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilishning hamda O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini ekologik ta'minlashning Milliy va hududiy rejalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

#### **14.2-§. Davlatning ekologik siyosati va tabiatdan foydalanish vazifalari**

O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunida iqtisodiy mexanizmning asosiy konsepsiysi shakllantirilgan, tabiiy resurslardan foydalanishga limitlar aniqlangan, tabiatni muhofaza qilish samaradorligini oshiruvchi ishlar uchun soliq, kredit va boshqa imtiyozlar berilgan. Suvdan foydalanish Respublikamizda 1993-yil 6mayda qabul qilingan «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonun va boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining ekologik xavfsizlik siyosati Konstitutsiya, qonunchilik, atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish bo'yicha xalqaro konvensiya va kelishuvlardan kelib chiquvchi majburiyatlarimiz hamda ilg'or mamlakatlarning qonunchilik tajribasini hisobga olib Rio-de Janeyro va Yoxannesburg Deklaratsiyalari tamoyillari asosida olib borilmoqda.

O'zbekistonning ekologiya sohasidagi siyosati barqaror rivojlanishning quyidagi tamoyillariga asoslanadi:



- Ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilishi muammosini ham hisobga olish kerak. Shunday qilib, tiklanadigan energiya resurslarini, xususan shamol va quyosh energiyasini o'zlashtirish hozirgi kunda eng istiqbolli hisoblanadi. Bu esa O'rta Osiyodagi shamol energiya resurslarini tadqiq qilishning dolzarbligini belgilab beradi.

1. Ekotizimlarning ma'lum barqarorligini saqlab qolish uchun tabiatdan foydalanish jarayonlarining muvozanatiga erishish.

2. Antropogen ta'sir kuchlar yuqori bo'lgan tumanlarda barqaror rivojlanishni yangilash.

3. Ekologik muammolarning iqtisodiy muammolar ustidan ustunligini keng omma oldida tasdiqlash, shu bilan birga, davlat boshqaruvi jarayonlarini ekologizatsiya qilish.

Davlatning ekologik tartiblashni iqtisodiy mexanizmi elementlari quyidagilardan iborat:

- tabiiy kadastrlar;
- tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni moliyalashtirish;
- tabiatdan foydalanganlik va atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun to'lovlar;

•ekologik tadbirlarni imtiyozli kreditlash va soliqqa tortishdagi imtiyozlar, shuningdek, ekologik sug'urta, rejalashtirish (prognozlashtirish), iqtisodiy rag'batlantirish tadbirlari (14.1-jadval).

#### 14.1-jadval

#### Davlatning ekologik tartiblash iqtisodiy mexanizmi elementlari<sup>1</sup>

Moliyaviy-kredit mexanizmi	Ekologik sug'urta	Iqtisodiy rag'batlantirish
Byudjetdan moliyalashtirish tizimi	Texnogen avariyalarni sug'urtalash fondlari	Imtiyozlar (soliq, kredit va bosh.)
Ekologik fondlar tizimi	Tabiiy ofatlardan sug'urtalash fondi	Ekologik zararli mahsulot va texnologiyalarga maxsus soliqlar
Ekologik banklar tizimi. Imtiyozli ekologik investitsion kreditlar tizimi	Qayta sug'urtalash fondlari	Ekologik toza mahsulotlarga rag'batlantiruvchi narx va ustamalar
Ekologik sug'urta fondi		Chiqindi, zararli moddalar chiqarish huquqini oldisotdi mexanizmi
Xorijiy investitsiyalar		Ekologik sertifikatsiya
Korxonaning o'z mablag'lari		Tabiatni himoyalash uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalarini qo'llash

Bozor munosabatlari sharoitida barqaror rivojlanishning ekologik xavfsizligini ta'minlashda faoliyatning quyidagi asosiy yo'nalishlarini inobatga olish kerak:

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

- ishlab chiqaruvchi kuchlarni ekologik asoslangan holda taqsimlash;
- qishloq xo‘jaligi, sanoat, energetika, transport va kommunal xo‘jalingining ekologik xavfsiz rivojlanishi;
- atrof-muhit va tabiatdan foydalanish sohasidagi boshqaruvni yangi pog‘onaga ko‘tarish;
- tabiat resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish;
- chiqindilarni zararsizlantirish, utilizatsiya qilish va ikkilamchi resurslardan foydalanish.

Respublikaning ekologik siyosati tabiatning ayrim unsurlarini himoya qilishdan barcha umumiy ekotizimni himoya qilishni amalga oshirishga o‘tishga, insonning yashashi uchun kerak bo‘lgan hayotiy muhitning eng maqbul parametrlarini kafolatlashga qaratilgan.

Bunday ekologik siyosatni hayotga tatbiq etish ijtimoiyiqtisodiy va jamiyatni to‘lig‘icha barqaror rivojlanishning shartlaridan biri bo‘lib qolishi kerak.

Hozirgi vaqtida jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan va insoniyatni tashvishga solib kelayotgan **ekologik muammolar global, mintaqaviy, milliy hamda mahalliy miqyoslarga bo‘linib o‘rganiladi**. Keyingi yillarda asosiy global muammolardan – iqlim o‘zgarishi, ozon tuynugining hosil bo‘lishi va Orol dengizi muammolarini ta’kidlab o‘tish joiz. Mintaqaviy muammolarga esa global muammolar bilan bir qatorda suv resurslaridan foydalanish, atrof-muhitning transchegaraviy ifloslanishi, cho‘llanish, yuqumli va o‘ta xavfli kasalliklarning tarqalishi, tabiiy va texnogen tusdagi kataklizmlarni, mahalliy miqyosda - muayyan hududlarning radiatsion ifloslanishi, yer osti suvlarining ifloslanishi, chiqindilarning to‘planishini keltirish mumkin.

O‘zbekiston hududida global mintaqaviy iqlimning o‘zgarishi oqibatlarini baholash 2030-yillarga kelib, shimoliy hududlarda o‘rtacha yillik haroratning o‘sishi 2-3 darajaga va respublika janubiy qismida 1- darajaga o‘sishi, tog‘li hududlarda ancha kamroq ta’sir ko‘rsatilishi kutilmoqda. O‘zbekistonning barcha hududlarida yog‘ingarchiliklar miqdorining 5 foizgacha, Farg‘ona vodiysida 15 foizgacha, respublikamizning shimoliy qismida 15-20 foizgacha ortishi kutilmoqda.

BMTning hukumatlararo komissiyasi tomonidan tayyorlangan "Iqlim o‘zgarishi - 2007" ma’ruzasida insoniyat faoliyati natijasida global haroratning ko‘tarilishiga oid inkor etib bo‘lmash dalillar keltirilgan. 100 yillik uchun berilgan global bashoratlarga ko‘ra, bug‘li gazlarni qisqartirish chora-tadbirlarni amalga oshirganning o‘zida harorat 1.4 dan 5.8 C ga ko‘tarilishi mumkin. Bu esa, albatta, atrof-muhit, inson salomatligiga salbiy ta’sirini o‘tkazadi.

Davlatning tabiatni muhofaza qilishga oid siyosati va suvdan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlari quyidagi asosiy tamoyillarga asoslangan:

- atrof-muhitni aholi turmush darajasini oshirishning muhim omili sifatida saqlash va qayta tiklash bo'yicha iqtisodiy hamda ekologik siyosatni muvofiqlashtirish;
- tabiatning ayrim tarkibiy qismlarini muhofaza qilishdan ekotizimlarni umumiyligi va majmuaviy ravishda himoyalashga o'tish;
- jamiyatning barcha a'zolarining atrof-muhitni muhofaza qilish, uning xilma-xilligini saqlash va vaziyatni yaxshilash, aholi hayoti uchun qulay sharoitlarini yaratish borasidagi javobgarligi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan oqib o'tuvchi 8ta daryolar, jumladan, Qashqadaryo, Chirchiq, Surxondaryo hamda Zarafshon, Qoradaryo, Norin, Amudaryo va Sirdaryo transchegaraviy hisoblangan daryolar va respublika ahamiyatiga ega bo'lgan 11 ta yer osti chuchuk suvlari hosil bo'ladigan hududlarni ifloslanishdan muhofaza qilish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining jami 11 ta qarorlari, shu jumladan, 3 ta qaror - yer osti chuchuk suvlari hosil bo'ladigan 11 ta hudud bo'yicha (Toshkent viloyatidagi 2ta, Farg'ona viloyatidagi 2ta, Samarqand viloyatidagi 1 ta, Andijon viloyatidagi 1 ta, Namangan viloyatidagi 1 ta, Qashqadaryo viloyatidagi 1 ta, Jizzax viloyatidagi 2ta va Surxondaryo viloyatidagi 1 ta manba bo'yicha), 8 tasi - daryolar bo'yicha qabil qilinib amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida qilgan nutqida Bugungi kunning eng dolzarb ekologik muammolaridan biri Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo'limda Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O'ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo'q. Dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miyosdag'i sa'yharakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to'liq amalga oshirilishi tarafborimiz<sup>1</sup>, - deb ta'kidlagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga murojaatnomasida —Birlashgan Millatlar Tashkilotining Orolbo'yini mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida —Trast fondining



*Ekologik muammolarni, atrof-muhitni har xil zararli ta'sirlardan saqlash, ekologik barqarorlikni yuzaga keltirish uchun tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik ekspertizalarni tashkil etish maqsadida davlatlararo maxsus komissiya qarorlari qabul qilindi.*

<sup>1</sup> <http://uza.uz/oz/>.

tuzilishi o‘zbek diplomatiyasining katta yutug‘i bo‘ldi. Biz O‘zbekiston tashabbusini qo‘llab-quvvatlagani uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi janob Antoniu Guterrish hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti institutlaridan, hamkor davlatlardan minnatdormiz<sup>1</sup>, -deb ta’kidladi.

Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning uyg‘un barkamolligi Sharqda o‘ziga xos xususiyatga ega. Bu borada Orol fojiasini unutmagan holda, suv va yerga bo‘lgan tafakkurni o‘zgartirish hamda ushbu zamindan azaldan qaror topgan obi hayotga eng ulug‘ ne’matlardan deb, qarash borasidagi munosabatni qayta tiklash zarur.

#### **14.3-§. O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning yo‘nalishlari**

Ekologik muammolarni hal qilish ekologik xavfsizlikni ta’minlash borasida O‘zbekistonda siyosat ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Markaziy Osiyo hududi xavfli tabiiy jarayonlar va hodisalar keng doirasi ichidadir. Ulardan eng katta xavf tug‘diruvchilari zilzilalar, suv toshqinlari, sel oqimlari va yer ko‘chishlari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi hududining iqlimi va geologik xususiyatlari hamda xalq xo‘jalik sohalarining infrastrukturasi favqulodda holatlar yuzaga kelishi yuksak ehtimolliklariga (tabiiy ofatlar, ishlab chiqarishdagi favqulodda holatlar baxtsiz hodisalar va falokatlar) sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining yarmidan ortiq hududlari seysmik faol zonalarda joylashgan, bu yerlarda 7 ballik kuchga ega yer silkinishlari sodir bo‘lishi mumkin. Sanoat potensialining 87,5% ushbu hududlarda jamlangan. Lekin shu bilan birga oxirgi 15-20 yillar davomida nisbatan seysmik osoyishtalik

**Markaziy Osiyoda XXI asrda suv manbalarining cheklanganligi sababli suv muammolari bilan bog‘liq vaziyatning keskinlashishi mumkin.** Suv manbalari bilan ta’minlanganlik xususida O‘zbekiston eng noqulay tabiiy hududda joylashgan. Markaziy Osiyoda gidrografik suv manbalari obyektlari notejis taqsimlangan. Sirdaryo daryosi havzasi bo‘yicha ko‘p yillik o‘rtacha daryo oqimi yiliga  $37,9 \text{ km}^3$  ni tashkil etadi. Shu bilan birga ko‘p yillar davomida o‘rtacha Qirg‘izistonda yiliga  $28,0 \text{ km}^3$  (73,8 %), O‘zbekistonda -  $5,59 \text{ km}^3$  (14,8 %) va Qozog‘istonda -  $4,08 \text{ km}^3$  (10,8) daryo resurslari shakllanadi. Amudaryo daryosi baseyni bo‘yicha o‘rtacha ko‘p yillik resurslari  $78 \text{ km}^3$  dan ortiqni tashkil etadi, ulardan  $62,9 \text{ km}^3$  (80 % dan ortig‘i) Tojikiston hududida, O‘zbekistonda  $4,7 \text{ km}^3$  ~ (6%) qismi shakllanadi.

**Markaziy Osiyoda, shu jumladan, O‘zbekistonda cho‘lga aylanish jarayonlari tezlashishi alohida tashvishli holatdir.** Bu faqatgina cho‘l hududining o‘sib borishidagina emas, balki biologik mahsuldarligi o‘zgarishi darajasida ham namoyon bo‘ladi. Cho‘lga aylanib borish yer sathi biologik mahsuldarligining kamayishiga olib keladi va uning oqibati – aholi uchun ekologik noqulayliklarning

kelib chiqishiga, o'simlik va hayvonlar dunyosi turlari nasli buzilishiga sabab bo'ladi. Oxirgi yillarda Markaziy Osiyoda yangi cho'llar maydoni deyarli 100 ming km<sup>2</sup> ga ortgan, ba'zi hududlarning mahsuldarligi esa 50 % gacha qisqargan.

Cho'llashishning asosiy sababi-suvdan noto'g'ri foydalanish va ma'lum darajada iqlim o'zgarishi sababli hududlar va akvatoriya suv rejimining o'zgarishi hisoblanadi. Orol, Ustyurt tizimi, Qorakum va Qizilqum cho'llarida, Tyan-Shan va Pomir tog' yon bag'irlarida, ayniqsa, cho'lga aylanish jarayonlari faoldir.

Yer resurslari doimiy ravishda turli xildagi eroziyalardan zararlanmoqda, shu jumladan, suv erroziyası - 2790 ming ga (sug'oriladigan - 339 ming hektar), shamol erroziyasiga - 20478 ming ga (sug'oriladigan - 2262 ming hektar), 2005 ming ga (sug'oriladigan - 341 ming hektarda) bir vaqtning o'zida ham suv, ham shamol erroziyasidan zararlanadi

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasida mamlakatda ekologik vaziyatni hamda xo'jalik subyektlarini tekshirishni tartibga solish, sog'lomlashdirishga qaratilgan atrof-muhitni muhofazasi borasida qonunchilikka riosa qilish nazoratini ta'minlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha ma'lum ijobjiy natijalarga erishildi. Olib borilgan faoliyat natijasida tabiiy muhitning ahvoli yaxshilandi, atmosferaga zararli tashlamalarni tashlash va ifloslangan oqova suvlarni tashlash qisqardi, chiqindilarni xomashyo sifatida ikkinchi bor ishlatish oshdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha qabul qilingan atrof-muhitni muhofaza qilish hududiy Dasturi asosida Buxoro viloyatida avtotransport vositalaridan atmosfera havosiga tashlanayotgan zararli moddalarni kamaytirish maqsadida, qator transport vositalari gaz va dizel yoqilg'isiga o'tkazildi. Toshkent viloyati Olmaliq tog'-matallurgiya kombinatida ekologik toza KBP-2 (kislород-barbotaj erituv) va

SK-2 (oltingugurt kislotasi) majmuasi qurildi, Yangi-Angren IES'da elektrfiltrlarni qayta jihozlash ishlari davom ettirildi. Farg'onaneftni qayta ishslash zavodil unitar korxonasida ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash hisobiga etilsiz benzin ishlab chiqarish hajmini yuqori foizga yetkazish ishlari amalga oshirildi.



Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini kengaytirish ishlari yangi bosqichga chiqdi. Buxoro viloyatida joylashgan Jayron|| ekologik parvarishxonasi maydoni qariyb 4,7 barobarga kengaydi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hamda ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarini joylashtirish va ko'mish joylari bo'yicha davlat kadastrini aniq tahliliy materiallari asosida yuritish ishlari tashkil etildi.

2008-2015-yillarda Aydar-Arnasoy ko'llari tizimidan samarali foydalanish va uning ekologik holati barqarorligini ta'minlash harakatlar Dasturiining bajarilishi, o'z amaliy natijasini berdi. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimiga Ramsar Konvensiyasi doirasida Xalqaro muhofaza etiladigan ko'llar maqomi berilib, mazkur ko'llar tizimi Konvensiya Kotibiyati tomonidan 2008-yil 20-oktabrda 1841-son bilan rasman ro'yxatga olindi.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning hozirgi asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1.Tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish.

2. Qishloq, o'rmon va boshqa xo'jalik tarmoqlaridagi tabiiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatish.

3.Havo va suv muhitini insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta'sir etadigan moddalar bilan ifoslantirishni to'xtatish.

4. Qayta tiklanadigan zaxiralarni qayta ishlab chiqarishning tabiiy ravishda kengayishini ta'minlagan hamda qayta tiklanmaydigan zaxiralarni qat'iy mezon asosida iste'mol qilgan holda tabiiy zaxiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish darkor.

Davlatning ekologik siyosatini amalga oshirishda ekologik nazoratni tashkil etish bo'yicha davlat vakolatlari organlarining vazifalari O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 27-dekabrda qabul qilingan —Ekologik nazorat to'g'risida qonunida belgilab berilgan. O'zbekistonda ekologik siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri ekologik nazoratning samarali tizimini tashkil etish hisoblanadi. Ekologik nazorat



atrof- muhitni

muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yishga, tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik

chora-tadbirlari tizimidir.

Ekologik nazoratning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yish;
- atrof- muhit holatini kuzatib borish, atrof-muhitning ifloslanishiga, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanilishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid solishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni aniqlash;
- mo‘ljallanayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik faoliyatni va boshqa faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;
- yuridik va jismoniy shaxslarning atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini, ular tomonidan majburiyatlar bajarilishini ta’minlash;
- atrof-muhitdagisi o‘zgarishlar, uning prognoz qilinayotgan holati, tabiiy resurslardan foydalanilishi va ko‘rilayotgan tegishli chora-tadbirlar to‘g‘risida davlat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarni hamda fuqarolarni xabardor qilish;
- tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish hamda davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarning amalga oshirilishida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolarning ishtirokini ta’minlash.

Ekologik nazoratning asosiy prinsiplari qonuniylik, xolislik, mustaqillik, oshkorlik, shaxs, jamiyat hamda davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Ekologik nazorat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- ekologik nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish;
- fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i uchun qulay atrofmuhitni yaratish;
- ekologik nazorat sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolar bilan atrof-muhitning muhofaza qilinishi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta’minlash borasida hamkorlik qilishining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;



–ekologik nazorat sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Ekologik nazorat obyektlari yer, yer osti boyliklari, suvlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi; atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy va texnogen manbalar, atrof-muhit ifloslanishiga va tabiiy resurslardan nooqilona foydalanishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga tahdid solishi mumkin bo'lgan faoliyat, harakat yoki harakatsizlikdan iboratdir. Ekologik nazorat subyektlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
  - maxsus vakolatli davlat organlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari;
  - davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari;
  - xo'jalik yurituvchi subyektlar;
  - fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari;
  - nodavlat-notijorat tashkilotlari;
  - fuqarolar.

Ekologik nazoratning turlari davlat ekologik nazorati; idoraviy ekologik nazorat; ishlab chiqarish ekologik nazorati; jamoatchilik ekologik nazoratidan iborat. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari hamda boshqa vazirlik, idora va tashkilotlarning atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida kelgusidagi ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- tabiiy resurslardan, shu jumladan, suv, yer, mineral xomashyo, biologik resurslardan oqilona va kompleks foydalanish, respublikaning butun hududi bo'yicha atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini sanitariya-gigiyena normalarigacha pasaytirish;
- ekologik talofat zonasi Orolbo'yida, shuningdek, mamlakatning ekologik jihatdan noqulay bo'lgan boshqa hududlarida ekologik holatni mahalliylashtirish, qayta tiklash va sog'lomlashtirishni ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rish;
- muhofaza etiladigan yangi tabiiy hududlarni tashkil etish va mavjudlarini kengaytirish;
- respublika aholisini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash;
- ekologik jihatdan toza va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha texnologiyalarni joriy etish;
- ekologiya sohasida ilmiy-texnika salohiyatini

rivojlantirish hamda fan va texnika yutuqlaridan foydalanish;

- ekologik monitoring, prognoz va axborotlarning kompleks tizimini amalga oshirish;
- respublika hududlarini atrof-muhitning transchegaraviy ifloslanishini nazorat qilish va undan muhofaza etishning yagona xizmatini shakllantirish;
- ekologik qonunchilik, ta'lim madaniyat va aholini ekologik ruhda tarbiyalash, shuningdek, ekologik bilimlarni targ'ib qilish tizimlarini takomillashtirish;
- ekologik muammolarni hal etishda jahon hamjamiyati bilan hamkorlikni chuqurlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga murojaatnomasida

...mintaqamizda, butun dunyoda ekologik vaziyatning tobora yomonlashib borayotgani bizni jiddiy tashvishga soladi. Qo‘shti davlatlar va jahon jamoatchiligi bilan birgalikda Orol dengizi halokati oqibatida yuzaga kelgan ekologik fojilar ta’sirini

yumshatishga qaratilgan harakatlarni  
qat‘iy davom ettiramiz.

Dengizning qurigan tubida yuz  
minglab hektar o‘rmon va  
butazorlar tashkil etilayotgani, Orolbo‘yi  
hududlarida amalga oshirilayotgan ulkan  
qurilish va  
obodonchilik ishlari xalqimizni  
yuksak marralar sari  
ruhlantirmoqda. Bu borada Birlashgan

Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda tuzilgan Orolbo‘yi mintaqasida inson xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha ko‘p tomonlama Trast fondi doirasidagi amaliy ishlarni yanada kuchaytiramiz,-deb ta’kidladi.

Taraqqiyot strategiyasida 80-maqsad: Ekoliya va atrofmuhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, Yashil makonl umummilliyl loyihasini amalga oshirishdan iboratdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilar belgilangan:

- Yashil makonl umummilliyl loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish. Yashil makonl umummilliyl loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish;

-maishiy chiqindilarni yig‘ishni 100 foizga, ularni qayta ishslash darajasini 2026-yilga qadar 21 foizdan 50 foizga yetkazish;



- respublika bo'yicha 51 ta yer usti tabiiy suv obyektlari (daryolar, kichik daryolar va tabiiy ko'llar) ning sanitariyamuhofaza zonalari va sohil bo'yi mintaqalarini belgilash ishlarini yakunlash;
- Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan hududga aylantirish, ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish;
- Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 500 ming hektar yashil maydonlarni barpo etib, 2026-yil yakuniga qadar ularning umumiyligi hajmini 2,5 million hektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish;
- Orolbo'yida xalqaro Yashil iqlim va Global ekologik jamg'armalarning bioxilma-xillik, iqlim o'zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million AQSh dollari qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish;
- shahar va tuman markazlarida har 50-100 ming aholi uchun jamoat parklari ni tashkil etish;
- Orolbo'yidagi mintaqasida yashovchi aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Atrof tabiiy muhit va ekologiya tushunchalarining mazmuni, farqli hamda o'xshash tomonlari nimalarda ifodalanadi?
2. Ekologik muammolarning umumiyligi kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
3. Davlatning ekologik siyosatining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Davlatning ekologik vaziyatni tartiblashning iqtisodiy mexanizmini tushuntirib bering.
5. O'zbekistondagi ekologik vaziyatni tavsiflab bering.
6. O'zbekistondagi ekologik muammolar nimalardan iborat?
7. Orol fojiasining vujudga kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
8. Orol bo'yida vujudga kelgan ekologik vaziyatni tavsiflab bering?
9. O'zbekistonda ekologik muammolarni hal qilish uchun nimalar amalga oshirilgan?
10. O'zbekistonda ekologik vaziyatni yaxshilash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun nima qilish kerak?

# **15-mavzu AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

## **Reja**

### **15.1-§. Axborot xavfsizligini ta'minlash mohiyati va uning xususiyatlari**

#### **15.2-§. Axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmi**

#### **15.3-§. O'zbekistonda axborotni himoyalash davlat tizimi**

### **15.1-§. Axborot xavfsizligini ta'minlash mohiyati va uning xususiyatlari**

Bugun tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan va o'tgan davrlarga nisbatan tubdan farq qiladigan shiddatli va ayni paytda o'ta murakkab zamonda yashamoqdamiz. Mutaxassislar bu tezkor davrni «ommaviy axborotlashuv» yoxud «globallashuv asri» deb atashmoqda. Boisi yer yuzining qaysidir bir chekkasida yuz bergen voqeadan bir necha soniya ichida butun dunyo ahli xabar topmoqda. Bu esa shubhasiz matbuot va ommaviy axborot vositalarining o'rni va roli nechog'li oshib borayotganidan dalolat beradi. Shu jihatdan aytganda, har qanday matbuot jamiyatda yuz berayotgan voqealari, o'zgarishlar, yangilanishlarni to'laligicha, xolis va haqqoniy aks ettirmog'i kerak.

Axborotning muhimlik darajasi qadim zamonlardan ma'lum. Shuning uchun ham qadimda axborotni himoyalash uchun turli xil usullar qo'llanilgan. Ulardan biri – sirli yozuvdir. Undagi xabarni xabar yuborilgan manzil egasidan boshqa shaxs o'qiy olmagan. Asrlar davomida bu san'at – sirli yozuv jamiyatning yuqori tabaqalari, davlatning elchixona rezidensiyalari va razvedka missiyalaridan tashqariga chiqmagan. Faqat bir necha o'n yil oldin hamma narsa tubdan o'zgardi, ya'ni axborot o'z qiymatiga ega bo'ldi va keng tarqaladigan mahsulotga aylandi. Uni endilikda ishlab chiqaradilar, saqlaydilar, uzatishadi, sotadilar va sotib oladilar. Bulardan tashqari, uni o'g'irlaydilar, buzib talqin etadilar va soxtalashtiradilar. Shunday qilib, axborotni himoyalash zaruriyati tug'iladi.

Bugungi globallashuv jarayoni kimki axborotga egalik qilsa, o'sha dunyoga hukmronlik qiladi, degan fikr bejizga aytilmaganligini tasdiqladi.

**Axborotni muhofazalash – bu ma'lumotlarni o'g'irlash, yo'qotish, soxtalashtirish, qalbakilashtirish, ruxsatsiz foydalanish va ko'paytirishning oldini olishga yo'nasi**



ARXIV.UZ



Darhaqiqat, hozir dunyoning bir qancha davlatlarida yadro quroli ishlab chiqarish bo'yicha harakatlar davom etayotgan bo'lsa, bir qator mamlakatlarda esa axborot xurujlarini uyuştirish ustida ish olib borilmoqda. Ayniqsa, ma'naviy tahdid va yoshlар ongini egallahga qaratilgan axborot xurujlari kun sayin avj olmoqda. Ba'zi bir g'arazli kuchlar tomonidan bu borada turli

usul va uslublardan foydalanib kelinmoqda. Axborot xurujlarining yolg'on axborot tarqatish, ijtimoiy ongni manipulatsiya qilish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni yemirish, mentalitetga mutlaqo yot bo'lgan qadriyatlarni targ'ib etish, xalqning tarixiy xotirasini buzish va o'zgartirish, kiberterrorizm kabi turlari keng tarqalmoqda.

Ta'kidlash joizki, globallashuv jarayoni avj olgani sari odamlarning axborot olish, tarqatish va qabul qilishga bo'lgan talab va ehtiyojlari tobora ortib bormoqda.

XXI asr – axborotlashgan jamiyat asridir. Axborotlashgan jamiyat deb, unda faoliyat yuritayotgan kishilarning ko'p qismi axborotni, ayniqsa, uning eng oliy shakli bo'lgan bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishslash va sotish bilan band bo'lgan jamiyatga aytildi. Axborotlashgan jamiyatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- jamiyat hayotida axborot va bilimlar rolining ortishi va ularning kishilar faoliyati turli sohalari rivojlanishiga ta'sirining kuchayishi;
- axborot yig'ish, qayta ishslash, saqlash uzatish va unga kirish huquqiga ega bo'lish imkoniyatining sezilarli darajada ortishi;
- jamiyatda markazlashmagan jarayonlarning chuqurlashuvi;
- axborot industriyasida band bo'lganlar sonining ortishi hisobiga bandlikning zamonaviy shakllariga o'tish va yangi mehnat resurslarini shakllantirish;
- kishilarning samarali axborot almashinuvi, ularning jahon axborot resurslariga kirishlarini ta'minlovchi, axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan global axborotlashgan maydonni yaratishdir.

O'zbekiston Respublikasining Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida Qonuniga muvofiq, axborot xavfsizligi deganda axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanishi tushuniladi. Axborot xavfsizligi masalasi huquq va manfaatlari himoya qilinishi lozim bo'lgan subyektlarga ham, bunday himoyani ta'minlaydigan subyektlarga ham birday taalluqlidir.

Bular jumlasiga, axborot ishlab chiqaradigan va iste'mol qiladigan davlat hokimiyati, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari hamda yuridik va jismoniy shaxslar; axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarini ishlab chiqadigan, qo'llaydigan davlat hokimiyati hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, yuridik va jismoniy shaxslar, axborot resurslarini yuzaga keltiradigan va ulardan iste'molchilarga axborot taqdim etadigan tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, axborot xavfsizligini ta'minlaydigan davlat tuzilmalari va mansabdar shaxslar kiradi.

Axborotni yaratish (ishlab chiqarish) sohasida, birinchi navbatda, quyidagilar himoya qilinishi zarur: intellektual mulk obyekti bo'lgan axborot; intellektual va buyum ko'rinishidagi mulk obyekti bo'lgan axborot. Axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarining yaratilish hamda qo'llanish

sohasida, avvalo, axborot xavfsizligi borasida tug‘iladigan talablardan kelib chiqib, barcha texnik, tashkiliy, huquqiy va dasturiy himoya vositalari ishlab chiqilishi lozim. Bunda, birinchi navbatda, quyidagilar himoya qilinishi zarur: axborotli, masalan, elektron raqamli imzo vositalari mashina yetkazuvchilari; avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va ularning tarmoqlari tarkibidagi ma’lumot (bilim) bazalari; EHM va ularning tarmoqlari tarkibidagi dasturiy vositalar.

O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligi davlatning doimiy diqqat-e’tiborida. Axborot xavfsizligini huquqiy ta’minalash bo‘yicha milliy huquqiy normativ asosni rivojlantirish va takomillashtirish to‘g‘risida farmon, qaror hamda qonunlar qabul qilingan. Ushbu huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta’minalash maqsadlari, vazifalari, tamoyillari va asosiy yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etgan. Bu O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta’minalashda davlat siyosatini shakllantirish, axborot xavfsizligini huquqiy, metodik, ilmiy-texnik va tashkiliy jihatdan takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash, axborot xavfsizligining maqsadli dasturlarini ishlab chiqish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Respublikamizning milliy xavfsizligi axborot xavfsizligining ta’milanishiga bog‘liq bo‘lib, texnik taraqqiyotning o‘sishi bilan bog‘liqlik yanada ortib boradi. Shaxsning axborot sohasidagi


manfaatlari fuqaroning axborotga ega bo‘lishi, qonunan taqiqlanmagan faoliyatni amalga oshirishda, jismoniy, ma’naviy va intellektual rivojlanishda axborotdan foydalanish borasidagi konstitutsion huquqlarini amalga oshirishdan, shuningdek, shaxsiy xavfsizlikni ta’minalash tartibida



axborotni himoya qilishdan iboratdir.


Jamiyatning axborot sohasidagi manfaatlari shaxsning mazkur sohadagi manfaatlarini ta’minalashdan, demokratiyani mustahkamlash, huquqiy davlatni barpo etish, O‘zbekistonda kechayotgan yangilanish jarayonlarida hamjihatlikka erishish va uni qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Davlatning axborot sohasidagi manfaatlari



O‘zbekistonda axborot infratuzilmasining uyg‘un rivojlanishi, fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumi, mustaqilligi va hududiy yaxlitligining daxlsizligini ta’minlash maqsadida axborot olish va undan foydalanish borasidagi konstitutsion huquq hamda erkinliklarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, qonuniylikni, huquqiy tartibni ta’minlash, teng huquqli xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iboratdir. Axborotni himoya qilish deganda quyidagilar tushuniladi:

- axborotning butunligini ta’minlash, shu bilan birga, axborot elementlarining buzilishi yoki yo‘q qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik;
  - axborotning butunligini saqlab qolgan holda, uni elementlarini qalbakilashtirishga (o‘zgartirishga) yo‘l qo‘ymaslik;
  - axborotni tegishli huquqlarga ega bo‘lmagan shaxslar yoki jarayonlar orqali tarmoqdan ruxsat etilmagan holda olishga yo‘l qo‘ymaslik;
  - egasi tomonidan berilayotgan (sotilayotgan) axborot va resurslar faqat tomonlar o‘rtasida kelishilgan shartnomalar asosida qo‘llanilishiga ishonish kabilar tushuniladi.



### 15.1-rasm. Axborotlarga nisbatan xavf-xatarlar tasnifi.

Axborot xavfsizligi deb, axborotlarni yo'qotish va o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiiy yoki sun'iy xossalni tasodifiy va kutilmagan ta'sirlardan hamda ushbu axborotni saqlovchi, uzatuvchi uskuna va tizimlarni himoyalanganligiga aytildi. Boshqacha aytganda, axborot xavfsizligini ta'minlovchi va boshqaruvchi texnologiyalar to'plami, standartlar va boshqaruv usullari bo'lib hisoblanadi. Ilgarigi xavf faqatgina konfidensial (maxfiy) xabarlar va hujjalarni o'g'irlash yoki nusxa olishdan iborat bo'lsa, hozirgi paytdagi xavf esa kompyuter ma'lumotlari to'plami, elektron ma'lumotlar, elektron massivlardan ularning egasidan ruxsat so'ramasdan foydalanishdir. Bularidan tashqari, bu harakatlardan moddiy foyda olishga intilish ham rivojlandi.

Axborotning himoyasi deb, boshqarish va ishlab chiqarish faoliyatining axborot xavfsizligini ta'minlovchi va tashkilot axborot zaxiralaring yaxlitliligi, ishonchliligi, foydalanish osonligi va maxfiyligini ta'minlovchi qat'iy reglamentlangan dinamik

texnologik jarayonga aytildi. Axborotlarga nisbatan xavf-xatarlar tasnifi xavfsizlik siyosatining eng asosiy vazifalaridan biri himoya tizimida potensial xavfli joylarni qidirib topish va ularni bartaraf etish hisoblanadi. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, tarmoqdagi eng katta xavflar — bu ruxsatsiz kirishga mo'ljallangan maxsus dasturlar, kompyuter viruslari va dasturning ichiga joylashtirilgan maxsus kodlar bo'lib, ular kompyuter tarmoqlarining barcha obyektlari uchun katta xavf tug'diradi.

O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlashning muhim qismidir. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligiga tahdid sifatida qaraladi:

- fuqarolarning ma'naviy turmushiga, axborot sohasidagi konstitutsion huquq va erkinliklariga, individual, jamoaviy, ijtimoiy ongga hamda O'zbekistonning ma'naviy tiklanishiga tahdidlar;
- O'zbekiston Respublikasining axborot ta'minotiga oid davlat siyosatiga tahdidlar;
- respublika axborot sanoati, jumladan, axborotlashtirish, telekommunikatsiya va aloqa vositalari sanoatining rivojlanishi, ichki bozorning ushbu mahsulotlarga bo'lgan talabining qondirilishi hamda ularning jahon bozoriga chiqishi, shuningdek, respublikada axborot resurslarining to'planishi, saqlanishi va ulardan samarali foydalanishiga bo'lgan tahdidlar;
- O'zbekiston Respublikasi hududida yaratilgan axborottelekomunikatsiya vosita va tizimlarining xavfsizligiga tahdidlar.



to'siqlash bo'yicha ruxsat etilmagan harakatlarning oldini olish;

- hujjatlashtirilgan axborotning miqdori sifatida huquqiy tartibini ta'minlovchi, axborot zaxirasi va axborot tizimiga har qanday noqonuniy aralashuvlarning ko'rinishlarining oldini olish;

- axborot tizimida mavjud bo‘lgan shaxsiy ma’lumotlarning shaxsiy maxfiyligini va konfidensialligini saqlovchi fuqarolarning konstitutsion huquqlarini himoyalash;
- davlat sirini, qonunchilikka mos hujjatlashtirilgan axborotning konfidensialligini saqlash;
- axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta’minlovchi vositalarni yaratish, ishlab chiqish va qo’llashda subyektlarning huquqlarini ta’minalash.

O‘zbekiston Respublikasi axborot xavfsizligini ta’minalashning umumiyligi usullari huquqiy, tashkiliy-texnik va iqtisodiy guruhga bo‘linadi.

Respublika axborot xavfsizligini ta’minalashning huquqiy usullari jumlasiga axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soladigan normativ huquqiy hujjatlarni hamda O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta’minalash masalalariga doir normativ metodik hujjatlarni ishlab chiqishni kiritish mumkin.

Ushbu faoliyatning muhim yo‘nalishlari quyidagilardir:

- O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta’minalash tizimini yaratish va takomillashtirish, respublika qonunchiligidagi ichki ziddiyatlarni, O‘zbekiston Respublikasi qo‘silgan xalqaro bitimlar bilan bog‘liq ziddiyatlarni bartaraf etish, shuningdek, axborot xavfsizligini ta’minalash sohasidagi munosabatlarni tartibga soladigan respublika qonun hujjatlariga qo‘sishma va o‘zgartirishlar kiritish;
- O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta’minalash faoliyatida jamoat uyushmalari, tashkilotlar va fuqarolarning ishtiroy etish mexanizmlari hamda maqsadvazifalarini belgilash;
- axborotdan noqonuniy nusxa ko‘chirganlik, buzganlik va noqonuniy foydalanganlik, noto‘g‘ri axborotni qasddan tarqatganlik, maxfiy axborotni noqonuniy oshkor etganlik, xizmat axboroti yoki tijorat siri bo‘lgan axborotdan jinoiy va g‘arazli maqsadlarda foydalanganlik uchun jismoniy va yuridik shaxslarning javobgarligini belgilaydigan O‘zbekiston Respublikasining normativ huquqiy hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish;
- chet el axborot agentliklari, ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning, shuningdek, O‘zbekiston axborot infratuzilmasini rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari jalb qilinganida investorlarning maqomini aniqlashtirish;
- milliy aloqa tarmoqlarini rivojlantirish hamda kosmik aloqa yo‘ldoshlarini respublikada ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishning ustuvorligini qonunan belgilab qo‘yish;

- O‘zbekiston Respublikasi hududida dunyo miqyosidagi axborot va telekommunikatsiya tizimlari xizmatlarini ko‘rsatadigan tashkilotlarning maqomini belgilash hamda ularning faoliyatini huquqiy tartibga solish;

- O‘zbekiston Respublikasida axborot xavfsizligini ta’minlash mintaqaviy tuzilmalarini tashkil etish uchun huquqiy asosni yaratish.

O‘zbekiston Respublikasi axborot xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy-texnik usullari quyidagilardir:

- O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta’minlash tizimini yaratish va takomillashtirish;

- O‘zbekiston Respublikasi ijro hokimiyati organlarining axborot sohasidagi qonunbuzarliklarning oldini olish va ularga chek qo‘yish, bu sohada jinoyat va boshqa qonunbuzarliklar sodir etgan shaxslarni fosh qilish, javobgarlikka tortishga qaratilgan faoliyatini kuchaytirish;

- axborotni himoya qilish vositalari hamda vositalarning samarali ishlashini nazorat qilish usullarini ishlab chiqish, qo‘llash va takomillashtirish, himoyalangan telekommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish, maxsus dasturiy vositalarning ishonchlilik darajasini oshirish;

- qayta ishlanayotgan axborotning buzilishi va yo‘q bo‘lishi, shuningdek, axborotlashtirish va aloqa, tizim va vositalarining belgilangan ish tartibining o‘zgarishiga olib keladigan maxsus ta’sirlarning oldini olish tizimi hamda vositalarini yaratish;

- axborot va telekommunikatsiya tizimlarining bir maromda ishlashiga xavf soladigan texnik moslama va dasturlarni aniqlash, texnik kanallarda axborotning noqonuniy o‘zlashtirilishiga yo‘l qo‘ymaslik, axborotni saqlash, qayta ishslash va aloqa kanallari orqali uzatishda kriptografik himoya vositalaridan foydalanish, axborotni himoyalash borasidagi maxsus talablarning bajarilishini nazorat qilish;

- axborotni himoya qilish vositalarini sertifikatlashtirish, davlat sirini himoya qilish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash, axborotni himoya qilish usullari va vositalarini standartlashtirish;

- telekommunikatsiya uskunalari va avtomatlashtirilgan axborotga ishlov berish tizimlarining dasturiy vositalarini sertifikatlashtirish tizimini axborot xavfsizligi talablariga ko‘ra takomillashtirish;

- himoyalangan axborot tizimlarida ishlaydigan xodimlarning harakatlarini nazorat qilish, axborot xavfsizligini ta’minlash sohasiga kadrlarni tayyorlash;

- jamiyat, davlat hayoti va faoliyatining eng muhim sohalarida O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligi ko‘rsatkichlari va xususiyatlari monitoring tizimini shakllantirish.

O‘zbekiston Respublikasi axborot xavfsizligini ta’minlashning iqtisodiy usullariga axborot xavfsizligini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni moddiy ta’minlash tartibini belgilash; axborotni himoya qilishning huquqiy va tashkiliy-texnik usullarini amalga oshirish bilan bog‘liq ishlarni moddiy ta’minlash tizimini takomillashtirish; jismoniy va yuridik shaxslarning axborot bilan bog‘liq tavakkal harakatlarini sug‘urta qilish tizimini yaratish kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta’minlash borasidagi davlat siyosati quyidagi to‘rt tamoyil asosiga qurilgan:

- axborot xavfsizligini ta’minlash borasidagi faoliyatni amalga oshirishda Konstitutsiya, qonun hujjatlari hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyil va normalariga amal qilish;
- davlat hokimiyati organlari va jamoat uyushmalarining funksiyalarini amalga oshirishda oshkoraliqni ta’minlash;
- axborot sohasidagi o‘zaro hamkorlik jarayonlari barcha ishtirokchilarining, qanday siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy maqomga ega bo‘lishidan qat‘i nazar, fuqarolarning axborotni qonuniy tarzda erkin qidirish, olish, berish, ishlab chiqarish va tarqatish borasidagi konstitutsion huquqiga asoslangan huquqiy tengligini ta’minlash;
- respublikada zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini jadal rivojlantirish, milliy telekommunikatsiya tarmoqlarini takomillashtirish va ularni dunyo miqyosidagi axborot tizimlariga ulash imkonini beradigan texnik va dasturiy vositalarni ishlab chiqarish.

## **15.2-§. Axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmi**

Axborot xavfsizligini ta’minlash muntazam va majmuali tavsifga ega ko‘p qirrali faoliyatni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Uni amalga oshirishda axborot xavfsizligidan manfaatdor taraflar oldiga qo‘yiladigan vazifalarga alohida e’tibor berish zarur. Ushbu turli-tuman vazifalarni bir necha quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) axborotdan foydalanishni



ta'minlash, ya'ni maqbul vaqt mobaynida axborot xizmatini olish hamda axborotni olishda ruxsatsiz taqiqlashni bartaraf etish;

2) axborot yaxlitlilagini ta'minlash, ya'ni axborotning ruxsatsiz modifikatsiyalanishini yoki buzilishini bartaraf etish;

3) axborot konfidensialligini ta'minlash, ya'ni axborotdan ruxsatsiz tanishishni bartaraf etish.

Axborot xavfsizligining huquqiy, texnik, moliyaviy, tashkiliy va boshqa resursli ta'minoti bilan farqlanuvchi axborot xavfsizligi subyektlarining quyidagi to'rtta kategoriyaga bo'linadi:

- butun bir davlat;
- davlat tashkilotlari; □ tijorat tuzilmalari; □ alohida fuqarolar.

Yuqorida keltirilgan axborot xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy vazifalar qamrab olgan quyidagi keng spektrli masalalarni ko'rib chiqish lozim:

- konfidensiallik;
- yaxlitlik;
- identifikatsiya;
- autentifikatsiya;
- vakolat berish;
- foydalanishni nazoratlash;
- mulklik huquqi;
- sertifikatsiya;
- imzo;
- voz kechmaslik;
- sanasini yozish;
- olganligi haqida tilxat berish; ■ bekor qilish; ■ anonimlik.

Axborotning konfidensialligi – himoyaning eng kerakli vazifalaridan biri. Har bir insonda yoki tashkilotda shunday hujjatlar borki, ularning jamoa mulkiga aylanmasligi ta'minlanishi shart. Bunday hujjatlarni saqlashda qog'oz, fotoplyonka ishlatsa, konfidensiallik ma'muriy usullar yordamida amalga oshiriladi.

Axborot kompyuterda ishlanib, ochiq aloqa kanali orqali uzatilsa, ma'muriy usullar ojizlik qiladi va yordamga axborot xavfsizligini ta'minlash usullari keladi.




Konfidensiallikni ta'minlash masalasiga binoan ma'lumotlar shunday ko'rinishda uzatiladiki, hatto niyati buzuq eltuvchidan yoki uzatish muhitidan foydalana olganida ham himoyalangan ma'lumotlarni ololmaydi.

Axborotning yaxlitligi. Ma'lumotlar, ishlanishi va aloqa kanali bo'yicha uzatilishi jarayonida, tasodifan yoki atayin buzilishi mumkin. Axborot eltuvchida saqlanadigan joyidayoq buzilishi mumkin. Yaxlitlikni ta'minlashga (yaxlitlikni nazoratlashga) binoan ma'lumotlar saqlanishi va uzatilishi jarayonida modifikatsiyalanmaganligini tasdiqlash yoki ma'lumotlar buzilganligini aniqlash talab etiladi. Boshqacha aytganda, ma'lumotlarning har qanday o'zgarishi sezilmasdan qolmasligi zarur.

Identifikatsiya foydalanuvchini qandaydir noyob identifikator bilan aynanligini tasdiqlash uchun kerak. Undan so'ng identifikatorga yuklangan barcha harakatlarga ushbu identifikator biriktirilgan foydalanuvchi javobgar hisoblanadi.

Autentifikatsiya identifikatsiyaga zaruriy qo'shimcha bo'lib, u identifikatorni taqdim etgan foydalanuvchining haqiqiyigini (autentligini) tasdiqlashga mo'ljallangan. Anonim bo'lмаган foydalanuvchi autentifikatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgandagina ishslash imkoniyatiga ega bo'lishi shart.



cheeklashga mo'ljallangan usullar va vositalarni anglatadi.

Mulkchilik huquqi – foydalanuvchiga qandaydir resurslardan foydalanishga qonuniy huquqni va u istasa, ushbu resursni boshqa foydalanuvchiga o'tkazish imkoniyatini taqdim etishga mo'ljallangan. Mulklik huquqi, odatda, foydalanishni nazoratlash tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Vakolat berishga binoan birorta ham foydalanuvchi autentifikatsiyadan muvaffaqiyatli o'tmagunicha tizimdan foydalanmasligi va birorta ham foydalanuvchi, agar u maxsus ruxsatnoma bilan vakolatga ega bo'lmasa, resurslardan foydalanmasligi kerak.

Foydalanishni nazoratlash kompleks tushuncha hisoblanadi va resurslardan foydalanishni

Sertifikatsiya – foydalanuvchi ishonadigan taraf tomonidan qandaydir faktini tasdiqlash jarayoni. Ko‘pincha sertifikatsiya ochiq kalitning muayyan foydalanuvchiga yoki shirkatga tegishli ekanligini tasdiqlashda ishlatiladi, chunki ochiq kalitlar infrastrukturidan faqat sertifikatsiya tizimining mavjudligida samarali foydalanish mumkin. Sertifikatlar foydalanuvchilar so‘rovi bo‘yicha maxsus vakolatlari tashkilot – sertifikatsiya markazi tomonidan, ma’lum shartlar bajarilganida beriladi.

Imzo hujjat qabul qiluvchiga ushbu hujjatning aynan uzatuvchi tomonidan imzolanganligini isbotlashga imkon beradi. Bunda imzoni boshqa hujjatga o‘tkazish va uzatuvchi o‘zining imzosidan voz kechishi mumkin emas. Hujjatning har qanday o‘zgarishi imzoning buzilishiga sabab bo‘ladi va har qanday foydalanuvchi mustaqil tarzda imzoning haqiqiyigini tekshirishi mumkin.

Voz kechmaslik – axborot almashish sxemasining xususiyati hisoblanadi. Unga binoan xabar qabul qiluvchining uchinchi tarafning xabar uzatuvchining kimligini tekshirishga jalb qilishi qobiliyatiga ega ekanligining isboti mavjud. Boshqacha aytganda, xabarni uzatuvchi mualliflikdan voz kechish imkoniyatiga ega emas.

Sanasini yozish ko‘pincha imzo bilan birgalikda ishlatiladi va hujjat imzolangan paytni qayd etadi. Bu bitta hujjat bir necha foydalanuvchilar tomonidan imzolanganda, birinchilikni isbot qilishda foydali hisoblanadi, chunki har bir foydalanuvchi hujjat muallifligiga da’vo qiladi. Undan tashqari sanasini yozish muddatli sertifikatlarda keng qo‘llaniladi.

Olganligiga tilxat berish – qabul qiluvchidan uzatuvchiga uzatiladi va uzatuvchi tomonidan uzatilgan axborot qabul qiluvchiga tilxatda ko‘rsatilgan ondan kechikmasdan o‘tkazganligini isbotlashda ishlatilishi mumkin.

Bekor qilish – sertifikatlar, vakolatlar va imzolar ta’sir kuchini bekor qilish. Agar axborot almashishda ishtirok etuvchi yoki unga tegishli kalitlar va guvohnomalar yaroqsiz holga kelsa, ushbu foydalanuvchini resurslardan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik va mos sertifikatlarga ishonmaslik zarur, chunki bu sertifikatlar yomon niyatli kimsalarga qo‘l kelishi mumkin. Bekor qilish muolajasi sertifikatsiya markaziga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin.

Anonimlik kamdan-kam uchraydi. Hukumatlar va shirkatlar uchun foydalanuvchining axborot muhitida qandaydir harakatlarining anonim bo‘lib qolishligi foyda bermaydi. Shu sababli, anonimlikni ta’minlovchi loyihamalar kamdan-kam uchraydi va odatda, uzoq yashamaydi. Kommunikatsiya vositalari ko‘pincha u yoki bu xabarning uzatilishi marshrutini, uzatuvchini aniqlashga imkon beradi.

Yuqorida keltirilgan vazifalar mavjud axborot dunyosi ehtiyojiga asosan tavsiflangan. Vaqt o‘tishi bilan ba’zi vazifalar o‘z dolzarbligini yo‘qotishi va aksincha, yechimini kutuvchi yangi vazifalar paydo bo‘lishi mumkin.

Sivilizatsiya rivojining zamonaviy bosqichida axborot nafaqat jamiyat va davlat institutlari faoliyatida, balki har bir shaxs hayotida hal qiluvchi rolni o‘ynaydi.

Shaxsnинг axborot muhitidagi manfaatlari inson va fuqaroning axborotdan foydalanishdagi konstitutsiyaviy huquqlarining amalga oshirilishini, qonun taqiqlamagan faoliyatni, fizik, ma’naviy va intellektual rivojini hamda shaxsiy xavfsizligini ta’minlashni ko‘zda tutadi.

Jamiyatning axborot muhitidagi manfaatlari ushbu muhitda shaxs manfaatlarini ta’minlashni, demokratiyani mustahkamlashni, huquqiy ijtimoiy davlatni yaratishni, jamiyat inoqligiga erishish va uni madadlashni, mamlakatning ma’naviy yangilanishini ko‘zda tutadi.

Davlatning axborot muhitidagi manfaatlari inson va fuqaroning axborot olishidagi konstitutsiyaviy huquq va erkinligini ta’minlashni, olingan axborotdan konstitutsiyaviy tuzumning mustahkamligini, davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni hamda qonuniylikni va huquqiy tartibni, teng huquqli va o‘zaro foydali xalqaro hamkorlikni ta’minlash maqsadida foydalanishdagi shartsharoitlarni yaratish uchun axborot infrastrukturasining garmonik rivojini ko‘zda tutadi.

### **15.3-§. O‘zbekistonda axborotni himoyalash davlat tizimi**

Axborot – hokimiyat, demak, axborot davlat va jamiyat rivojlanishining muhim omilidir. Axborot asrida jamiyatni axborotsiz tasavvur etish qiyin. Taraqqiyot yo‘lini tanlagan davlatlarda axborotlashish qanchalik muhim o‘rin tutayotgani, hozirgi kunga kelib kuzatib borilmoqda. Bugun zamonaviy jamiyat qanchalik axborotlashsa, uning milliy manfaatlariga xizmat qiladigan axboroti shunchalik ustuvor darajada bo‘ladi.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayoniga O‘zbekistonda ham katta ahamiyat berilmoqda. Shu bois, axborotlashtirish jarayonlarini jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Chunki bu yo‘nalish O‘zbekistonni axborotlashgan jamiyatga aylantirishgagina emas, balki mamlakatni taraqqiy etgan davlatlar darajasiga ko‘tarishga ham xizmat qiladi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar

bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan


geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik

ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi «Raqamli Toshkent» kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.

Davlat O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta'minlash borasidagi o'z vazifalarini amalga oshirish jarayonida axborot xavfsizligiga bo'lgan tahdidlarni xolis va har tomonlama tahlil qiladi hamda buni ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Shundan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Raqamli O'zbekiston—2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 2020- yil 5 -oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoniga ko'ra:

- telekommunikatsiya qurilmalari va inshootlarining qurilish-montaj, rekonstruksiya, sinovdan o'tkazish va integratsiya qilish ishlarini yakunlash hamda tijorat maqsadida foydalanishni yo'lga qo'yish, shuningdek, telekommunikatsiya qurilmalari va inshootlarining konstruksiyasini o'zgartirish, mavjud qurilmalardagi hamda telekommunikatsiya liniyalari va inshootlaridagi uskunalarni kengaytirish bo'yicha xabardor qilish tartibi joriy etildi;
- radioelektron qurilmalar, asbob-uskunalar va boshqa qurilmalarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish ruxsatnomasini, sotib olish, o'rnatish, loyihalash va qurish uchun ruxsatnoma olmasdan, belgilangan tartibda rasmiylashtirish huquqi berildi.

Shuningdek, davlat hokimiyyati qonun chiqaruvchi (vakillik) va ijro organlarining O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish, ularni qaytarish va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini



<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Raqamli O'zbekiston—2030! strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni.

amalga oshirish ishlarini tashkil etadi. Ayni paytda, jamoat uyushmalarining jamiyat hayotidagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalar haqida aholiga obyektiv axborot berish, jamiyatni soxta va noto‘g‘ri axborotlardan himoya qilish borasidagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi hamda axborotni himoya qilish vositalarining ishlab chiqilishi, yaratilishi, rivojlantirilishi, qo‘llanishi, eksport va importni sertifikatlashtirish hamda litsenziyalash orqali nazorat qiladi. Bularidan tashqari, davlat O‘zbekiston Respublikasi hududida axborotlashtirish va axborotni himoya qilish vositalarini ishlab chiqaruvchilarga nisbatan zarur homiylik siyosatini amalga oshiradi, ichki bozorni sifatsiz axborotlashtirish vositalari va mahsulotlaridan himoyalash choralarini ko‘radi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga jahon axborot resurslari va tizimlariga kirishga ruxsat berilishiga ko‘maklashadi.

Davlat va nodavlat tashkilotlarning axborot xavfsizligi sohasidagi sa’y-harakatlarini birlashtiradigan O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta’minalash dasturining ishlab chiqilishini tashkil etish, jahon axborot tarmoqlari va tizimlarining baynalmilallashuvi hamda jahon axborot hamjamiyatiga O‘zbekistonning teng huquqli hamkorlik shartlarida qo‘shilishiga imkoniyat yaratish ham davlatning axborot xavfsizligini ta’minalash borasidagi vazifalari sirasiga kiradi.

Axborot sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta’minalash borasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini huquqiy ta’minalash, avvalo, axborot sohasida qonuniylikka rioya qilish hamda fuqarolar, jamiyat va davlatning bu sohadagi manfaatlari muvozanatini saqlash tamoyillariga asoslanishi lozim.

Qonuniylik tamoyiliga rioya qilish O‘zbekiston Respublikasining davlat hokimiyyati organlaridan axborot sohasidagi nizolarni hal qilishda bu sohadagi munosabatlarni tartibga soladigan qonun hujjatlari va boshqa normativ huquqiy hujjatlarga qat‘iy amal qilishni talab etadi.

Fuqarolar, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi manfaatlari muvozanatini saqlash tamoyiliga rioya qilish esa, jamiyat hayotining turli sohalarida bu manfaatlarning ustuvorligini qonunan belgilash, O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyyati organlari faoliyatining jamoatchilik tomonidan nazorat qilinishi shakllaridan foydalanishni nazarda tutadi. Fuqarolarning axborot sohasidagi faoliyatga taalluqli konstitutsion huquq va erkinliklarini kafolatlash davlatning axborot xavfsizligi sohasidagi muhim vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta’minalash borasidagi eng muhim chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tegishli dasturning ishlab

chiqilishini nazarda tutadi. Davlatimiz axborot xavfsizligini ta'minlash siyosatining ayrim yo'nalishlarini jamiyat va davlat faoliyatining alohida sohalariga tatbiq etish O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan tegishli hujjatlarda amalga oshirilishi mumkin.

Bugungi kunda iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish masalasi

O'zbekistonda davlat darajasiga

ko'tarilgan bo'lib, bu borada keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, xususan, elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasida yaratilgan me'yoriy-huquqiy baza takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga, axborot texnologik platformalarda faoliyat ko'rsatayotgan raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanmoqda, bu esa shunday platformalarning yangi modellarini yaratish zaruratini taqozo etmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sohasiga axborot jamiyati va makoni, AKT va ishlab chiqarishning har xil turlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasi kiradi. Raqamli iqtisodiyotda AKT tizimi orqali axborotni yaratish, ishlov berish, to'plash va uzatish jarayonlari tadqiq qilinadi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi AKT rivojlanishi bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlarning ilmiy asoslanishi, YAIMda xizmatlar ulushi va boshqa ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Axborot mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol qilish raqamli iqtisodiyotning asosiy harakatga keltiruvchi kuchi hisoblanadi. O'rganib chiqib tahlil qilingan, taklif etilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari hukumat organlari tomonidan Respublikada raqamli iqtisodiyotni samarali shakllantirish va rivojlanganlik darajasini baholash, raqamli iqtisodiyot tayanch institutlari maqomida elektron tijorat va elektron bandlik xususiyatlarini olib berish; mamlakatimiz korxonalarida zamonaviy AKT joriy etish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muammolarini aniqlash, O'zbekistonda elektron hukumat faoliyati, birja elektron savdo tizimlar, Internet-do'konlar, xizmat ko'rsatish asosiy tarmoqlar holatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot kommunikatsiya tizimini rivojlantirish strategiyasi tez o'sish tendensiyalarini namoyish qilmoqda. AKTni faol joriy etish axborot rolining o'zgarishiga, mehnat bozorida tuzilmaviy disproporsiyalarga, bir turdag'i tarmoqlarning boshqalar bilan o'zaro bog'liq holda ishslash hajmining o'sishiga, iqtisodiyotning chuqur ilmiy asoslanishi va YAIMda xizmatlar sohasining ulushi oshishiga olib keladi.

Mamlakatimizda zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan katta ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi 5349-sonli —Axborot texnologiyalari va

komunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida<sup>1</sup> hamda —Raqamli O‘zbekiston–2030<sup>ll</sup> strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida<sup>ll</sup> 2020-yil

5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash belgilangan.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 25-maqsadi raqamli iqtisodiyotni asosiy —drayver<sup>ll</sup> sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar belgilangan:

- raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlarini va ijtimoiy obyektlarni hamda magistral avtomobil yo‘llarini keng polosali ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish.;
- iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish;
- dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSh dollariga yetkazish.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Milliy xavfsizlikni shartli ravishda tashkil etuvchilarini sanab o‘ting.
2. Ma’naviy xavfsizlikning oqibatlarini tushuntirib bering.
3. Axborot xavfsizligining mohiyati nima?
4. Axborot xavfsizligini ta’minlash vazifalari nima va u qaysi asosiy guruhlarni o‘z ichiga oladi?
5. Axborot xavfsizligi subyektlarining kategoriyalarini tushuntirib bering.
6. Axborot xavfsizligini ta’minlash asosiy vazifalari qamrab olgan konfidensiallik, yaxlitlik, identifikasiya va autentifikasiya kabi masalalarini yoritib bering.
7. Axborot xavfsizligini ta’minlash asosiy vazifalari qamrab olgan vakolat berish, foydalanishni nazoratlash, mulklik huquqi, sertifikatsiya kabi masalalarini yoritib bering.
8. Axborot xavfsizligini ta’minlash asosiy vazifalari qamrab olgan imzo, voz kechmaslik, sanasini yozish kabi masalalarini yoritib bering.
9. Axborot xavfsizligini ta’minlash asosiy vazifalari tilxat berish, bekor qilish, anonimlik kabi masalalarini yoritib bering.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldaggi «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5349- sonli Farmoni.

10. Axborot xavfsizligini ta'minlash darajalarini tavsiflab bering.
11. Xavfsizlik siyosatini va uning ahamiyatini izohlab bering.
12. Xavfsizlik siyosati qaysi bo'limlarni o'z ichiga olishi mumkinligini va mohiyatini tushuntirib bering.
13. Xavfsizlik siyosatining hayotiy sikli qanday ifodalanadi?
14. Axborot xavfsizligi arxitekturasi va uning sathlari mohiyati.
15. Axborot xavfsizligi strategiyasi tushunchasi.

## **16-mavzu XUFYONA IQTISODIYOT VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH**

### **Reja**

#### **16.1-§. Xufyona iqtisodiyotning mazmuni va vujudga kelish sabablari**

**16.2-§. Xufyona iqtisodiyotning tuzilmasi va uning ko'lamlari**

**16.3-§. Xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash usullari**

**16.4-§. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyot faoliyatining tarqalish omillari va salbiy oqibatlari**

#### **16.1-§. Xufyona iqtisodiyotning mazmuni va vujudga kelish sabablari**

Rasmiy iqtisodiyot mamlakatning amal qiluvchi qonunlar asosidagi iqtisodiyotning bir qismi hisoblanadi va uning faoliyati mavjud davlat institutlari yordamida hisobga olinadi, nazorat qilinadi va tartibga solinadi.

Xufyona iqtisodiyot hukumatning rasmiy idoralaridan yashirinchha holatda biron-bir tarzda, hatto jinoiy yoki noqonuniy ravishda yashirinchha daromad olishga qaratilgan noqonuniy, soxta, hisobga olinmagan, g'arazli faoliyatdir. Xufyona iqtisodiyot tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilish sohasida qonunga xilof ravishda amalga oshiriluvchi, davlat tomonidan hisobga olinmaydigan va nazorat qilish murakkab bo'lgan va shu bilan bir qatorda, davlat idoralaridan yashirinchha davlat, xususiy va boshqa mulk shakllaridan foydalanish borasida amalga oshiriluvchi g'arazli maqsadlarni ko'zlagan faoliyatdir.

Xufyona iqtisodiyotning mavjud bo'lishi soliq to'lashdan bo'yin tov lash yoki soliqlarni yashirish yo'li bilan qo'shimcha daromad olish kabi g'araz maqsadlarni ko'zlagan holda amalga oshiriluvchi faoliyatni ifoda etgani holda, odatda, tovar va xizmatlarning noqonuniy oldi-sotdisi, g'irrom raqobat usullaridan foydalanish, bozorda monopol mavqega ega bo'lish, yashirin ishlab chiqarishlarni tashkil etish va shu kabilarni ifoda etadi. Ko'pincha, yuqori soliq yuki tufayli oddiy tadbirkorlar bozorda yashab qolish yoki ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun va eng kam imkoniyatlarni saqlab qolish uchun daromadlarining bir qismini yashirishga majbur bo'lgani holda, xufyona iqtisodiyotning vakillari orasiga tushib

qoladilar. Jinoyat unsurlari, jinoyat olamining vakillari, korrupsiyalashgan rahbarlar va shu kabilar ham xufyona iqtisodiyotning vakillari tarkibiga kiradi.

Shartli ravishda xufyona iqtisodiyot subyektlarini uch asosiy guruhga bo‘lishimiz mumkin.

1. Aqliy va jismoniy mehnat qiluvchi yollanma xodimlar, daromadlarining asosiy qismini pora tashkil etuvchi mayda davlat xizmatchilari.

2. Xufyona faoliyat olib boruvchi tadbirkorlar, tijoratchilar, mayda va o‘rta tadbirkorlar, shu jumladan, savdogarlar.

3. Qurol-yarog‘, giyohvand moddalar oldi-sotdisi bilan shug‘ullanuvchi jinoiy unsurlar. Yo‘lto‘sarlar, bosqinchilar, yollanma qotillar, qo‘shmachilar, fohishalar, hukumat idoralarining korrupsiyalashgan vakillari.

Xufyona iqtisodiyotning tashkil etuvchilari rasmiy iqtisodiyot unsurlari bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘lganligi bois, umumiyl iqtisodiyot tuzilmasida xufyona iqtisodiyotni ajratib olish qiyinchilik tug‘diradi.

Xufyona iqtisodiyot daromadlarni soliqqa tortishdan yashirishda namoyon bo‘ladi. Soliq to‘lashdan bo‘yin tovslash usullari quyidagilardan iborat:

- turli banklarda bir necha hisob raqamlarini ochib, ular orqali buxgalteriya hisobida to‘liq ko‘rsatilmagan holda pul operatsiyalarini amalga oshirish;
- trast, veksel va boshqa hisoblardan foydalanish;
- ikkiyoqlama buxgalteriya yuritish, naqd pullar bilan muomala qilish, shu orqali daromad va pul tushumlarini soliqdan yashirish;
- korxonani bir shahar, tumanda ro‘yxatdan o‘tkazish, ammo hisob raqamini boshqa shahar, tumandagi banklarda ochish orqali soliq to‘lashdan korxona ro‘yxatga olingan joyda va faoliyat yuritgan joyida ham qochadi, ya’ni bo‘yin tovlaydi;
- hisobga olinmagan xarajatlar hisobiga sotilayotgan mahsulot (xizmat, ishlar) ning tannarxini oshirib ko‘rsatish;
- rasmiy hisob va to‘lov hujjatlarida tomonlarning kelishuviga asosan bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmatlar) qiymati past narxlarda ko‘rsatiladi, uning qolgan qismi naqd pul shaklida o‘zaro taqsimlab olinadi.

Naqd pullardagi daromad soliqqa tortishdan yashiriladi. Kriminal, jinoiy xufyona iqtisodiyotni noqonuniy ishlab chiqarish, yashirin ishlab chiqarish va ongli ravishda oldindan rejalashtirib, g‘arazli maqsadlarni ko‘zlab qilingan jinoyatlar tashkil etadi. Noqonuniy ishlab chiqarishga biznes va tadbirkorlik shaklida tashkil etilgan, qonunchilikda qat‘iyan man qilingan faoliyat turlari kiradi. Bunday faoliyat turlariga quyidagilar kiradi:

- qurol-yarog‘lar ishlab chiqarish va sotish;
- narkobiznes;
- kontrabanda;
- qimorxona, qimor o‘yinlarini tashkil etish; □ odam savdosi;
- fokishabozlik va h.k.

Xufyona iqtisodiyot ijtimoiy ishlab chiqarish bosqichlariga ko‘ra xufyona ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash, iste’mol shakllarida namoyon bo‘ladi. Xufyona ishlab chiqarish noqonuniy, hisobga olinmagan, yashirin, mayda ishlab chiqarish, sifatsiz mahsulotlar chiqarish, ishlab chiqarish resurslaridan noratsional foydalanishda namoyon bo‘ladi.

Xufyona iqtisodiyot sohasida amalga oshiriluvchi faoliyat aksariyat hollarda jinoiy faoliyatni ifoda etsada, ularning barchasini amaldagi qonunchilik asosida jinoiy faoliyat sifatida e’tirof etishning imkonи yo‘q. Iqtisodiy jinoyatchilik shartli tushuncha bo‘lganligi bois, uning chegaralarini aniqlashtirish mushkuldir. Bundan tashqari, iqtisodiy jinoyatchilikning turli ko‘rinishlari ham mavjud. Iqtisodiy jinoyatlarni dastlab ikkita katta guruhga bo‘lishimiz mumkin.

Iqtisodiy jinoyatlarning birinchi guruhi bu soliq yukining haddan tashqari yuqoriligi bois, soliq to‘lashdan turli xil yo‘llar bilan qochishga majbur bo‘lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Bunday holatda davlat hokimiyatining mavjud muammolarni o‘z vaqtida hal eta olmasligi, tadbirkorlarning moddiy va ma’naviy manfaatdorligiga putur yetkazmagan holda rasmiy iqtisodiyot sohasiga tadbirkorlarni to‘laqonli jalb etish imkonini beruvchi qonuniy biznes faoliyatini amalga oshirish qoidalarini yarata olmasligi xufyona iqtisodiyotning keng miqyosda tarqalishiga asosiy omil hisoblanadi.

Ikkinchi guruh – bu soliq qonunchiligi doirasidan tashqariga chiqadigan iqtisodiy jinoyatlar bo‘lib, undan nafaqat davlat byudjeti va davlat byudjetidan tashqari jamg‘armalar, balki butun jamiyat ham aziyat chekadi. Bu turdagи jinoyatlarga qurol-yarog‘, narkotik moddalar savdosi bilan shug‘ullanish, davlat mablag‘larini g‘ayriqonuniy o‘zlashtirish kabi iqtisodiy jinoyatlar kiradi, mazkur xatti-harakatlar mutlaqo qonunchilikka zid bo‘lib, uning oldini olish uchun qat‘iy jazo choralar qo‘llanilishi talab etiladi.

Xufyona iqtisodiyot jinoiy va jinoyatga aloqador bo‘limgan munosabatlarni ifoda etadi, shu bois, xufyona iqtisodiyotni noqonuniy tadbirkorlik va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasiga bog‘liq bo‘lgan jinoiy faoliyatdan tashkil topuvchi iqtisodiyotning bir qismi sifatida tushunishimiz mumkin.


## **16.2-§. Xufyona iqtisodiyotning tuzilmasi va uning ko‘lamlari**

Milliy hisoblar tizimiga muvofiq, xufyona iqtisodiyotning namoyon bo‘lishini ikkita katta guruhga bo‘lishimiz mumkin:

1) YAIM tarkibida natijasi hisobga olinuvchi, mahsuldor faoliyat turlari;

2) YAIM tarkibiga kiritilmaydigan va statistik xatoliklarni kamaytirish uchun maxsus hisoblarda qayd etiluvchi, shaxsga va mol-mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar.

Iqtisodiy adabiyotlarda «xufyona iqtisodiyot» kriminal, soxta, noformal, nolegallashtirilgan (ikkilamchi iqtisodiyot) larga bo‘lib o‘rganiladi.



**16.1-rasm. Xufyona iqtisodiyotning shakllari.**

Kriminal iqtisodiyot rasmiy iqtisodiyot tarkibida amalga oshiriladigan iqtisodiy jinoyat shaklida namoyon bo‘ladi (masalan, o‘g‘rilik, nazoratning barcha shakllaridan butunlay berkitilgan yashirin iqtisodiy faoliyat).

Soxta iqtisodiyot harakatdagi hisob va hisobot tizimida ifodalanadigan soxtalashtirilgan natijalarni beruvchi rasmiy iqtisodiyot sifatida tavsiflanadi.

Norasmiy iqtisodiyot iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishni rasmiy o‘rnatilgan tartibini to‘ldiruvchi yoki almashtiruvchi shaxsiy munosabatlarga va bevosita bo‘ladigan aloqalarga asoslangan o‘zaro norasmiy munosabatlar tizimini ifoda etadi. Nolegal (ikkilamchi iqtisodiyot) nazoratdan berkitilgan individual va kooperativ faoliyat turlarini, ya’ni o‘rnatilgan tartibda ro‘yxatga olinmagan faoliyat turlarini qamrab oladi.

Xufyona iqtisodiyotga bo‘lgan kompleks yondashuv uni quyidagicha ta’riflash imkonini beradi. Xufyona iqtisodiyot bozor xo‘jaligining obyektiv va doimo mavjud bo‘luvchi tizimi bo‘lib, uning doirasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar nohalol raqobat usullari orqali iqtisodiy manfaat olishga harakat qiladilar, ya’ni o‘z tashabbuslari yoki tashqi shart-sharoitlar ta’sirida qonunga, ish yuritish etikasiga, biznes bilan hokimiyat o‘rtasidagi o‘yin qoidalariiga, jamiyatning ma’naviy-axloqiy me’yorlariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarni amalga oshiradilar.

Yashirin iqtisodiyot–bu soliqlar, ijtimoiy badallar yoki boshqa majburiyatlardan (masalan, mehnat xavfsizligi, sog‘liqni saqlash va boshqa qoidalarga rioya qilish) qochish uchun ishlab chiqaruvchilar tomonidan yashirin amalga oshiriluvchi yoki ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini ataylab pasaytirib ko‘rsatishni maqsad qilib olgan holda amalga oshiriluvchi qonuniy iqtisodiy faoliyatdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bunday faoliyatni amalga oshirish mumkin. Misol tariqasida bunday faoliyat turlariga alkogol ichimliklarini maxfiy ishlab chiqarish, daromad solig‘i to‘lamasdan ko‘chmas mulkni ijaraga berish kabilar kiradi.

Norasmiy ammo legal iqtisodiyot – bu yakka tartibdagi ishlab chiqaruvchilar yoki uyushmagan korxonalar tomonidan uy sharoitida mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, ro‘yxatga olinmaydigan va soliqqa tortilmaydigan faoliyat turlari (xususiy kirakashlik qilish, uy-joylar qurish va ta’mirlash kabilar) yig‘indisidir. U o‘z ichiga quyidagi faoliyat turlarini qamrab oladi:

a) o‘z ehtiyojlari uchun ishlaydigan korxonalar faoliyati, ya’ni uy xo‘jaliklarida o‘z iste’moli uchun yoki alohida fuqarolar tomonidan kiyim-kechak va aralash bozorlarda sotish uchun tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish (xususiy xo‘jaliklarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, xususiy sartaroshxonalar xizmatlari);

b) norasmiy bandlik asosida faoliyat ko‘rsatuvchi uyushmagan korxonalar faoliyati (vaqtinchalik qurilish jamoalari, savdogarlik va shu kabilar).

Noqonuniy iqtisodiyot-qonun bilan taqiqlangan faoliyat (narkobiznes, fohishabozlik, pullarni qalbakilashtirish, kontrabanda, reket, qurol-yarog‘ ishlab chiqarish va sotishning belgilangan qoidalari chetlab o‘tish va boshqalar). U o‘z ichiga quyidagi faoliyat turlarini qamrab oladi:

a) noqonuniy ravishda (litsenziya va maxsus ruxsatnomalarsiz) amalga oshiriluvchi qonuniy faoliyat turlari;

b) ishlab chiqarish va sotish qonun bilan taqiqlangan bozorda talab katta bo‘lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va tarqatishni noqonuniy tarzda amalga oshirish.

Vaqt o‘tishi bilan qonunlar o‘zgarishi mumkin bo‘lgani holda, noqonuniy ishlab chiqarish chegaralari ham harakatda va o‘zgarishda bo‘ladi. Masalan, xususiy shaxslarga qurol-yarog‘ sotishga ruxsat berish to‘g‘risidagi qonun qabul qilinishi bilan mazkur biznes rasmiy iqtisodiyotning chegarasiga o‘tadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi metodologiyasiga muvofiq xufyona (yashirin, hisobga olinmagan) iqtisodiyot nafaqat ro‘yxatdan o‘tmagan ishlab chiqarishni, balki yashirin daromad olishni ham o‘z ichiga oladi. Yashirin daromad miqdori xufyona iqtisodiyotning muhim xususiyati hisoblanadi. Daromad asosan soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash maqsadida yashiriladi. Ular noqonuniy va qonuniy

faoliyatdan olinishi mumkin bo‘lgani holda ko‘pincha yashirib yoki kamaytrib ko‘rsatiladi.

Yashirin daromadlar to‘rtta tashkil etuvchidan tarkib topadi:

- 1) yashirin tadbirkorlik daromadi – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi natijasida olingan, ammo hisobga olinmagan daromad;
- 2) mehnatga yashirinchha haq to‘lash;
- 3) uyushmagan sektorda band bo‘lish natijasida qisman natural ko‘rinishda olinuvchi norasmiy faoliyatdan daromadlar;
- 4) aralash daromadlar-tadbirkorlik foydasi va xodimlarning daromadlari belgilari aralashgan birlamchi daromadlar.


Statistik hisob-kitoblar axborot bazasining nomukammalligi Dalvat statistika qo‘mitasi tomonidan hisob-kitoblarni amalga oshirish va ularning ishonchliligini ta‘minlash borasidagi jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Misol tariqasida aytish mumkinki, mamlakatda xufyona iqtisodiyotning ko‘lamlari sezilarli darajada pasaytirib ko‘rsatiladi, bunga asosiy sabab esa ma’lumotlarning yo‘qligi bois xufyona iqtisodiyot faoliyat natijalarining hisobga olishning murakkabligidir. Xufyona iqtisodiyotning ko‘lamlarini hisoblashda asosan yuqoridagi rasmda ko‘rsatilgan dastlabki ikkita blok, ya’ni yashirin va norasmiy iqtisodiyot hisobga olinadi. Uchinchi blokni ifoda etuvchi kriminal, noqonuniy faoliyat mamlakat YAIMda hisobga olinmaydi. Bundan tashqari, juda keng tarqalgan soxta operatsiyalar ham YAIMda hisobga olinmaydi.

Bundan kelib chiqadiki, xufyona va norasmiy faoliyat olib borishdan oxir-oqibat tadbirkor o‘ziga ham, davlatga ham zarar keltiradi. Birinchidan, «xufyona iqtisodiyotda» faoliyat ko‘rsatayotgan korxona (firma) bozorni qo‘llab-quvvatlovchi institatlardan foydalana olmaydi. Ikkinchidan, korxona o‘z faoliyatini fosh bo‘lib qolish va jazo olishning doimiy xavfi ostida olib boradi va bu holat xo‘jalik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘z resurslarini yashirib korxona ulardan samarali foydalana olmaydi. Uchinchidan, norasmiy tarzda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona ishlab chiqarishga katta kapital sarflay olmaydi, ya’ni fosh bo‘lib qolishdan cho‘chib faoliyatni kengaytira olmaydi. Va nihoyat, to‘rtinchidan, davlat olishi mumkin bo‘lgan soliq tushumlarini ololmaydi.

Xufyona faoliyatning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan omillar orasida bozor xo‘jaligiga xos bo‘lgan iqtisodiy omillar alohida o‘rin tutadi.

Institutsionalizm tarafdarlarining qarashlaricha, xo‘jalik subyektlarining faoliyatları qonun doirasida olib borilgan taqdirda transaksion xarajatlarining yuqoriligi yashirin iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishga undaydi. Bunday xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- qonun doirasida faoliyat olib borish uchun qilinadigan xarajatlar (yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tish, litsenziya olish, yuridik adres olish va boshqa rasmiyatchiliklarni amalga oshirish uchun qilinadigan sarf-xarajatlar);
- qonun doirasida faoliyatni davom ettirish (soliqlar to‘lash, mehnat munosabatlari sohasida qonuniy talablarni bajarish, zarur bo‘lganda nizolarni sud orqali hal etish uchun sarflanadigan xarajatlar).



### **16.2-rasm. Xufyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablarining guruhanishi.**

Umumiy qabul qilingan transaksiya xarajatlari nuqtayi nazaridan xufyona iqtisodiyotning faoliyat ko‘rsatishi huquqiy bazaning takomillashmaganligi, davlat tomonidan o‘ziga xos funksiyalarning samarasiz bajarilishi, xo‘jalik faoliyatida ikki xil standartlarning keng tarqalishi kabi tovlamachiliklarning o‘sishi bilan bog‘liq katta miqdordagi transaksiya xarajatlari bilan kuzatiladi.

Transaksiya xarajatlari o‘sishining sababi xufyona sektori iqtisodiyoti emas, balki rasmiy iqtisodiyotda yuqori transaksiya xarajatlarining mavjudligi xufyona sektor faoliyat ko‘rsatishining sabablaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Xufyona biznes ishtirokchilari o‘zini soliqlardan, litsenziyalashdan, shartnomalar tuzishdan, qonunlarga amal qilishdan ozod etadi va o‘yin qoidalariga ko‘ra mulkchilik huquqini mustaqil ravishda muhofaza qiladi hamda uni buzgan xattiharakat uchun jazolaydi va bu bilan rasmiy faoliyat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga qaraganda raqobat jihatdan ustunlikka ega. Jadvalda iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy sektorlarida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish yuzasidan transaksiya xarajatlari taqqoslanadi (16.1-jadval).

Mazkur jadval shuni yaqqol ko‘rsatib turibdiki, iqtisodiyotning xufyona sektorida aksariyat pozitsiyalar bo‘yicha faqat tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda transaksiya xarajatlari rasmiy iqtisodiyotga qaraganda ancha past (6+/2+). Masalan, yerga egalik qilish yoki uni ijara qilish huquqlarining noqonuniy qo‘lga kiritilishi imorat soluvchilar uchun tekinga tushmaydi, lekin barcha rasmiy tartib-qoidalar va

ushbu transaksiyani amalga oshiruvchi instansiylar, sarflangan vaqt va boshqa sarfxarajatlarni hisobga olgan holda nolegitim yo‘l ayrim subyektlar uchun ancha oson va foydali bo‘lib chiqadi. Chunki xufyona iqtisodiyot rasmiy iqtisodiyotdan o‘tib bo‘linmas to‘sinq bilan ajralmagan, ko‘pchilik xo‘jalik yurituvchi subyektlar transaksiyalarni xufyona sektor yordamida amalga oshirish mumkin.

Norasmiy sektor faoliyatini cheklash nafaqat qonunchilikni takomillashtirish, balki tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun sarflanadigan transaksiya xarajatlarini ham qisqartirib berish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodchilar xufyona iqtisodiyot kelib chiqishining iqtisodiy sabablarini bozor xo‘jaligi doirasida raqobat muammosi bilan bog‘lash mumkin, degan fikrni bildiradilar. Ular xufyona iqtisodiyotni nomukammal raqobatning bir shakli sifatida ko‘rish kerak, deb hisoblaydilar. Mukammal bozor munosabatlari shakllanib va rivojlanib borgani sari sog‘lom raqobat xufyona iqtisodiyotni siqib chiqaradi. Buning isbotini rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ko‘rish mumkin. Ularda xufyona iqtisodiyotning ulushi rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlardagiga qaraganda ancha past.

### **16.1- jadval**

#### **Transaksiya xarajatlari: iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha qiyosiy tahlil**

Transaksiya xarajatlari turi	Rasmiy sektor	Xufyona sektor	Izoh
1.Tadbirkorlik faoliyati uchun litsenziya olish	+	-	Norasmiy ishlab chiqarish
2. Yerga egalik qilish yoki uni ijara olish huquqini qo‘lga kiritish	+	-	Noqonuniy qurilish
3. Tegishli qonunlar va normativlarni bilish va ularga amal qilish	+	-	Xufyona iqtisodiyotning o‘yin qoidalariga amal qilish
4. Soliqlarni to‘lash	+	-	
5. Kredit olish	+	+	Kredit imtiyozli shartlarda beriladi
6. Shartnomalar shartlarining bajarilishini nazorat qilish tizimi	+	+	Bitimlarni noiqtisodiy nazorat qilish
Jami	6+	2+	

Davlat iqtisodiyotni samarali boshqara olmas ekan, tadbirkorlikni amalga oshirish uchun yetarli sharoitlar yaratmas ekan, xufyona iqtisodiyot xunuk

ko‘rinishlarga ega bo‘lib, miqyoslari kengayib boraveradi. Xufyona iqtisodiyot miqyoslari, ayniqsa, inqirozlar davrida, yuqori inflatsiya va valyuta kurslarining keskin o‘zgarib turishi, bozor xo‘jaligida muvozanat buzilgan sharoitda shiddat bilan kengayib boradi.

Xufyona iqtisodiyotni kelib chiqish sabablarining keyingi guruhiga ijtimoiy omillar kiradi. Hozirgi kundagi jamiyatda bir qator ijtimoiy muammolar mavjud bo‘lib, ulardan biri jamiyatning ijtimoiy tabaqlanishidir. Bu bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan jarayon bo‘lib, muammoni hal etishga bo‘lgan urinishlar aksariyat jamiyatlarda muvaffaqiyatsiz bo‘lmoqda. Jamiyatning tarkibiy tuzilishi xufyona iqtisodiyot ishtirokchilarining potensial sonini belgilaydi. Chunki, aholining kam ta’minlangan va boshqa guruhlari xufyona sektor doirasiga ko‘proq tortiladi.

Xufyona iqtisodiyotni kelib chiqish sabablarining yana bir guruhiga huquqiy omillar kiradi. Bu tadbirkorlikning huquqiy bazasini takomillashmaganligi bilan bog‘liqdir. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham tadbirkorlikning huquqiy bazasini rivojlanishi iqtisodiy jarayonlardan orqada qoladi. Bozor xo‘jaligidagi o‘zgarishlar bilan mavjud huquqiy baza o‘rtasidagi ziddiyatlar xufyona iqtisodiyot subyektlari uchun huquqiy sohadagi kamchiliklardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Uy xo‘jaliklari muhim sektor sifatida huquqiy me’yorlar bilan emas, asosan amaliyotda shakllangan urf-odatlar va an’analar bilan tartibga solinadi. Davlat ushbu sektorda amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlarni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘la olmaydi.

Qonunlar ham xufyona faoliyat turlariga nisbatan turlicha bo‘lishi mumkin. Ba’zi holatlarda yirik korporatsiyalar o‘zlarining moliyaviy imkoniyatlaridan foydalangan holda qonun chiqaruvchilarga tazyiq o’tkazishlari va ma’lum ijtimoiy guruhlар manfaatlariga mos keladigan qonunlarni qabul qilinishiga harakat qilishlari mumkin.

Xufyona iqtisodiyotni kelib chiqish sabablarining boshqa bir guruhiga tadbirkorlik faoliyatining ma’naviy asoslarini zaifligi bilan bog‘liq ma’naviy omillar kiradi. Qonunlar ma’lum davrning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Lekin aynan qonunlar orqali amalga oshiriladigan davlat manfaatlari ko‘p hollarda jamiyatning ko‘pchiligi manfaatlariga mos kelavermaydi, ayrim holatlarda esa ularga zid bo‘lishi mumkin.

Xufyona faoliyat va xufyona iqtisodiyotni o‘rganishga huquqiy jihatdan yondashuv tarafdarlari xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishda qonunning buzilishini asosiy mezon qilib oladilar. Xufyona iqtisodiyotni ikkiga ajratadilar: kriminal («qora») va nokriminal («kulrang»). Bunda biror-bir faoliyatni davlatdan yashirish fakti ikki turdag'i motiv bilan bog‘liq. Birinchisi, xo‘jalik subyektlarining o‘z xarajatlarini kamaytirish (birinchi navbatda, soliq to‘lashdan bosh tortish hisobiga)

bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi, faoliyatning noqonuniy ekanligi bois uni to‘xtatib qo‘yilishidan hadiksirash bilan bog‘liq.

Nokriminal («kulrang») iqtisodiyotda daromadlar (yoki xarajatlar) yashiriladi, kriminal («qora») iqtisodiyotda faoliyatning o‘zi yashiriladi. O‘z navbatida, kriminal iqtisodiyot doirasida ikkita tarkibiy qism ajratiladi: noqonuniy (yashirin) ishlab chiqarish faoliyati va iqtisodiy jinoyatchilik.


Noqonuniy (yashirin) ishlab chiqarish faoliyatiga biznes ko‘rinishida tashkil etilgan, qonun yo‘li bilan taqiqlangan faoliyat turlarini kiritish mumkin. Noqonuniy (yashirin) ishlab chiqarish faoliyatiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qurol ishlab chiqarish va sotish;
- narkobiznes;
- qimor o‘yinlari;
- kontrabanda;
- fohishabozlik va boshqala;

Iqtisodiy jinoyatlar iqtisodiy sohadagi jinoyatlar bo‘lib, ular ishlab chiqarishga bevosita aloqasi bo‘lmagan va g‘arazli maqsadlarni ko‘zlab qilingan iqtisodiy jinoyatlardir (ular yaratilgan qiymatni qayta taqsimlash sohasida amalga oshadi):

- g‘arazli maqsadlarda xizmat mansabini suiiste’mol qilish (poraxo‘rlik);
- firibgarlik
- o‘g‘rilik
- tamagirlilik (reket) va b.

Kriminal iqtisodiyotning ushbu turi iqtisodiyotga bevosita tegishli bo‘lmay, jinoyatchilikning bir turi hisoblanadi. Lekin, shu bilan birga, iqtisodiy jinoyatchilik katta iqtisodiy zarar keltiradi va aynan shuning uchun ham kriminal iqtisodiyotning bir qismi sifatida qaraladi.




### 16.3-rasm. Xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo‘lgan huquqiy yondashuv.

Xufyona iqtisodiyot sohasi o‘zining yuqori daromadliligi va subyektlarining huquqni himoya qilish organlariga murojaat qila olmasliklari bois, iqtisodiy jinoyatchilik uchun yaxshi muhit bo‘lib hisoblanadi. Xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo‘lgan statistik yondashuv xufyona iqtisodiyotni rasmiy statistikadan yashirilgan faoliyat sifatida tavsiflaydi. Rasmiy iqtisodiyot bu davlat tomonidan kuzatiladigan va nazorat qilinishi mumkin bo‘lgan iqtisodiyot bo‘lsa, yashirin yoki norasmiy iqtisodiyot rasmiy hisobotlarda va rasmiy shartnomalarda aks ettirilmaydigan xo‘jalik munosabatlari yig‘indisi bo‘lib hisoblanadi.

Real xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar davlat organlaridan ongli ravishda, ataylab yashirilishi yoki milliy statistika tizimida qamrab olinmasligi mumkin. Bundan tashqari, soxta iqtisodiyot ham mavjud bo‘lib, unda faoliyat faqat qog‘ozda amalga oshiriladi.


### 16.4-rasm. Xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo‘lgan statistik yondashuv.



Statistik hisob-kitoblardan tadbirkorlik faoliyatining turli elementlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar yashirilishi yoki ongli ravishda ma’lumotlarni buzib ko‘rsatilishi mumkin:

- korxonani yashirish (ro‘yxatdan o‘tkazmasdan yoki litsenziya olmasdan xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish);
- xo‘jalik operatsiyalarini yashirish (ularni shartnoma va hisobotlarda aks ettirmaslik);
- ishchi kuchini yashirin ravishda yo‘llash (ishchi kuchini mehnat shartnomalarini rasmiylashtirmsadan yollash);
- mehnat sharoitlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni (ish haqi, pensiya va sug‘urta to‘lovlari, texnika xavfsizligi, ish vaqt va boshq.) buzib ko‘rsatish;
- daromadlarni yashirish (soliq to‘lashdan qochish).

Xufyona iqtisodiyotni tasniflash uchun bir nechta aniq mezonlar mavjud ularga: Xufyona iqtisodiyotning subyektlari bo‘yicha, faoliyatning maqsad va motivlari bo‘yicha, oqibatlari va zarar miqyoslari bo‘yicha, davlatning javobgarlik darajasi hamda aholining munosabati bo‘yicha mezonlar orqali tasniflanadi. Tadbirkorlikning tarkibidan, mulk shakllaridan, keltiradigan zarar miqyoslaridan kelib chiqqan holda xufyona iqtisodiyotni tasniflash ham ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi.



### **16.5-rasm. Xufyona iqtisodiyotning iqtisodiy faoliyat sohalari bo‘yicha tasniflanishi.**

Xufyona iqtisodiyot agentlari (qatnashchilari) tarkibida eng ko‘p sonligi kichik biznes bo‘lsa, ijtimoiy va iqtisodiy zarar keltirishi bo‘yicha shubhasiz yirik kapital (oligarxlar) birinchi o‘ringa chiqadi. Makroiqtisodiy statistikada xufyona iqtisodiyot jinoiy iqtisodiyotning sinonimi sifatida qaralmaydi, garchi noqonuniy

operatsiyalarning ayrim turlari uning tarkibiga kiritilishi lozim bo'lsa, amalda aksariyat mamlakatlar, jumladan, O'zbekistonda ham YAIMni hisoblashda noqonuniy faoliyat natijalari hisobga olinmaydi. Xufyona iqtisodiyot tarkibiga kiritiluvchi ishlab chiqarishlarning aksariyat qismi qonuniy bo'lsada, uning ko'lamlari ishlab chiqaruvchilar tomonidan ataylab pasaytirib ko'rsatiladi yoxud ularning aksariyat qismi davlat ro'yxatidan o'tmaganligi bois ular to'g'risidagi ma'lumotlarni oddiy yo'l bilan olishning imkoniy yo'q.

Ko'pgina mamlakatlardagi statistik tadqiqotlarda noqonuniy jinoiy faoliyatdan olingan daromad YAIM ko'rsatkichiga kiritilmaydi, chunki ularni statistik baholash juda qiyin va bu faoliyatni kuzatish metodikasi hali ishlab chiqilmagan. Noiqtisodiy faoliyatdan olingan daromadlar bu ko'rsatkichga umuman qo'shilmasligi kerak, chunki ular yangi mahsulot yoki xizmatni yaratishga hissa qo'shmaydi. Shunday qilib, talonchilik yoki reket yangi qiymat yaratmaydi, balki uni turli mulkdorlar o'rtaida qayta taqsimlaydi.

Xufyona iqtisodiyot qaysi mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar yuqori bo'lsa, shu mamlakatda xufyona iqtisodiyot miqyoslari kam bo'ladi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdori yiliga 30 ming doll.dan kam bo'lмаган mamlakatlarda jamiyatning ijtimoiy tarkibida aholining 60-70 foizni tashkil etuvchi o'rta qatlamlar yetakchi rol o'ynaydi. Bular asosan qonunlarga itoat etadigan mas'uliyatli soliq to'lovchilardir. Albatta, bu mamlakatlarda kam ta'minlanganlar ham mavjud, lekin rivojlangan ijtimoiy yordam dasturlari ularni xufyona iqtisodiyotga tortilishlariga to'siq bo'ladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot miqyoslari rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan ancha yuqori bo'lib, buning sabablari tubdan farq qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot majburiy xarakterga ega bo'lib, aholining o'ta kambag'al qatlamlarini qanday qilib bo'lsa ham, kun ko'rish masalasini hal etish bilan belgilanadi.

Xufyona iqtisodiyotning ulushini hisobga olishda, mamlakatlar o'rtaida o'zaro taqqoslashlardan keng foydalanish talab etiladi. Nigeriya, Tailand, Misr, Boliviya, Panama kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyotning ko'lami juda katta ko'rsatkichni tashkil etadi. Bu mamlakatlarda xufyona iqtisodiyotning ulushi 60-70 % dan oshadi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi

aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'lami jihatdan rasmiy iqtisodiyot bilan raqobatlasha oladigan xufyona iqtisodiyotning parallel ravishda mavjudligi haqida so'z yuritishimiz mumkin.



Ta'kidlanganidek, rivojlanayotgan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot ulushi juda katta bo'lib, Nigeriyada rasmiy YAIMning 76 foizni tashkil etadi. Mana shunday yuqori ko'rsatkichlar Tailand (71%), Misr (68%), Boliviya (66%) va Panama (62%) kabi mamlakatlarda kuzatiladi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida esa 60-65 foiz atrofida qayd qilinadi.

Jahon miqyosida xufyona iqtisodiyotning ulushi YAIMning o'rtacha 8% ni tashkil etadi. XVF tomonidan an'anaviy tarzda tahliliy hisobotlarda foydalanimuvchi nemis olimlarining tadqiqotlariga(Visa Europe) ko'ra, 2018-yilda xufyona iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi bo'yicha Ukraina (44,1%) Yevropada yetakchilik qilmoqda. Gretsiyada xufyona iqtisodiyotning ulushi-24 %, Ispaniyada-19 %, Italiyada-21 %, Ruminiyada-16 %, Shveysariyada-9 %, Norvegiyada-7 %, Finlandiyada-8 %, Shvetsiyada-9% ga yetadi.

### **16.3-§. Xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash usullari**

Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurash usullari hamda vositalarini belgilash uchun, avvalambor, uning ko'lami va dinamikasini aniqlash lozim bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot ko'lamlarini aniqlashda quyidagi usullardan foydalaniadi:

1. Indikatorlar uslubi. Ularning tarkibida to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita (egri) uslublar mavjud. To'g'ridan-to'g'ri uslublar maxsus kuzatuv, so'rovlar o'tkazish, ayrim soliq to'lovchilar daromadlari va xarajatlari o'rtaqidagi nomuvofiqliklarni aniqlash maqsadida tekshirishlar, tahlillar o'tkazishni o'z ichiga oladi. Bilvosita (egri) uslublar bandlik ko'rsatkichlari bo'yicha monyetar uslublarni o'z ichiga oladi.

2. Yengil modellashtirish uslubi, ya'ni determinantlarni baholash. Ushbu uslubda xufyona iqtisodiyotni aniqlashtiruvchi jami ko'rsatkichlar tanlab olinib, uning nisbiy hajmlari hisoblanadi.

3. Tarkibiy uslublar turli ishlab chiqarish tarmoqlarida xufyona iqtisodiyot hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar, axborotlardan foydalaniadi.

4. Aralash uslublar xufyona iqtisodiyot hajmlariga bog'liq o'lchovlardan, ya'ni determinant va indikatorlarni hisobga olgan holda modellar yaratiladi.

5. Xufyona iqtisodiyotni baholashda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni integral baholash uslubi.

6. Rasmiy statistika ko'rsatkichlarini, turli qayta va qo'shimcha hisoblashlar asosida xufyona iqtisodiyot va uning alohida elementlarini baholash.

Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashda quyidagi usullardan foydalaniadi:

- radikal-liberal, ya'ni dastlabki jamg'arilgan kapital eng yuqori sur'atlariga maqsadli cheklovlar belgilash yo'li;

- repressiv usullar xufyona iqtisodiy faoliyatga qarshi huquqtartibot, xavfsizlik organlari faoliyatini kengaytirish va kuchaytirishni taqozo etadi;
- biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur shartsharoitlarni ta'minlash bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish bilan huquqiy chora-tadbirlar majmui.

Xufyona iqtisodiy faoliyatga qarshi kurashning eng muhim yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Noqonuniy biznes va tadbirkorlikning oldini olish hamda barham berish.
- Yolg'on tadbirkorlikka qarshi kurash.
- Tijorat maqsadida sotib olish – davlat va xo'jalik boshqaruvida faoliyat ko'rsatayotgan mansabdar shaxslarga noqonuniy tarzda pul, qimmatli qog'ozlar, bosh mulkiy qiymatlarni o'z xizmat mavqYidan kelib chiqqan holda ko'rsatgan xizmati, ya'ni tijorat yoki bank sirini oshkor qilgani, pora beruvchiga noqonuniy xatti-harakati uchun sharoit yaratib berishi, hisoblanadi.
- Jinoiy yo'llar bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi ta'sir mexanizmini yaratish.
- Yolg'on bankrotlikka qarshi qonunchilikda belgilangan javobgarlikni yanada oshirish.
- Jismoniy va yuridik shaxslarning bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lashlariga qarshi chora-tadbirlarni, jazo choralarini qo'llash.

Kontrabanda, mamlakatga tovarlarni noqonuniy tarzda olib kirish va tashqariga noqonuniy tarzda tovarlarni olib chiqib ketishga qarshi kuchli tizimni qaror toptirish.

Xufyona faoliyatga davlat tomonidan ta'sir etish usullari turlicha bo'lib, ular quyidagi usullardan tarkib topgan:

- monyetar usul. Bunda xufyona hisob-kitoblarda faqat naqd pul mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi gipotezaga asoslaniladi (naqd pul massasining harakat dinamikasi xufyona iqtisodiyot hajmlari to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi);
- daromad va xarajatlar balansi usuli. Bunda deklaratsiya qilinadigan daromadlar xarajatlar summasi hamda tovar va xizmatlar iste'molining real hajmlari bilan taqqoslanadi;
- ish bilan bandlikning tahlili. hisobga olinmagan ishsizlik darajasining uzoq vaqt saqlanib qolishi xufyona sektorda band bo'lish imkoniyatlarining mavjudligidan dalolat beradi. (ro'yxatga olinmagan ishsizlarning soni xufyona iqtisodiyot hajmlaridan dalolat beradi);

- texnologik koeffitsiyentlar usuli. Bu usul xarajatlarning texnologik koeffitsiyentlari asosida mahsulot ishlab chiqarishning real hajmlari to‘g‘risida ma’lumotlar olish imkonini beradi;
- uy xo‘jaliklari va korxonalar rahbarlari orasida so‘rovlар o‘tkazish. Bu xufyona sektor hajmini ekspert baholash imkonini beradi.

#### **16.4-§. O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyot faoliyatining tarqalish omillari va salbiy oqibatları**

Xufyona iqtisodiyot va jinoiy xo‘jalik faoliyatining keng tarqalishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- 1) ortiqcha soliq yuki;
- 2) xo‘jalik faoliyatini tartibga solishda byurokratik to‘sinqarning haddan tashqari ko‘pligi;
- 3) iqtisodiyotda davlat sektori ulushining kattaligi.
- 4) iqtisodiyotning globallashuvi natijasida xalqaro iqtisodiy aloqalarga faol kirishgan, iqtisodiyoti birmuncha erkin va moliya tizimi sust nazorat qilinadigan mamlakatlarda xufyona iqtisodiy faoliyat ko‘lamlari katta bo‘ladi.

Bu omillar, birinchi navbatda, ishlab chiqarish va sotish taqiqlanmagan tovar va xizmatlarga ta’sir ko‘rsatgani holda, ular turli iqtisodiy siyosat yurituvchi barcha mamlakatlarga birdek taalluqli hisoblanadi.

Mamlakatda bozor islohotlarini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, mamlakatda xufyona iqtisodiy faoliyatning tarqalishiga sabab bo‘luvchi ayrim omillarni batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

Soliq yukining ortiqcha og‘irligi xufyona iqtisodiyotning o‘sishini va jinoiy xo‘jalik faoliyatini jadallashtirishni rag‘batlantiruvchi eng muhim omillardan biri sifatida e’tirof etiladi. U bozor iqtisodiyoti yo‘lida rivojlanayotgan har qanday mamlakatlarga ta’sir ko‘rsatsada, ammo ularning ta’siri har bir mamlakatda turlicha bo‘ladi. Misol uchun, AQSHda, yuqori daromad solig‘i stavkalari xufyona iqtisodiy faoliyatning keng tarqalishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy sug‘urta badallari va qo‘shilgan qiymat solig‘ining yuqori stavkalari daromadlarni yashirishning tarqalishiga katta turtki beradi.

Bu soliq imtiyozlarining tuzilishi iqtisodiy agentlarning daromadlari tarkibiga mos kelmasligi, soliq yukining notekis taqsimlanganligida namoyon bo‘ladi. Soliq tizimi iqtisodiy agentlarning molivaviy ahvolni yaxshilashning noqonuniy va ochiq jinoiy yo‘llarini tanlashga undamoqda. Tabiatda kamroq nazorat qilinadigan va jinoyatkor bo‘lgan spekulyativ sektorga resurslarni qayta taqsimlash uchun imtiyozlar yaratilmoqda.

1. Soliq yukining ortiqchaligi davlat siyosatining natijasi bo‘lib, u soliqlarning real undirilishini ta’minlay olmaydi va soliq stavkalarini oshirib, soliq bazasini kamaytirishni qoplashga intiladi. Soliq to‘lovlaring kamayishi soliq yukining oshishiga sabab bo‘ladi, bu esa, o‘z navbatida, soliq tushumlarining ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Natijada, soliq tushumlarining kamayishi soliq yukining oshishi bilan birlashtiriladi, uning jiddiyligi bugungi kunda mamlakatda tadbirkorni samarali faoliyatga rag‘batlantirishni inkor etadi. Qonunga bo‘ysunuvchi soliq to‘lovchi o‘z foydasining asosiy qismini soliq shaklida to‘lashi kerak bo‘ladi. Hisobga olinmagan pul aylanmasining nisbatan past ulushi ham kompaniyaga daromad solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i va ijtimoiy sug‘urta badallarining oldini olish imkonini beradi. Mutaxassislarning fikricha, soliqdan daromad yashiruvchi yuridik shaxslarning ulushi 80 % ga oshgan.

2. Xo‘jalik faoliyatini haddan tashqari tartibga solish ham xufyona iqtisodiyot va jinoiy xo‘jalik faoliyatining o‘sishiga olib keladi. Bu omil asosan davlatning quyidagi harakatlarida namoyon bo‘ladi:

- u yoki bu tovar va xizmatlar muoamalasini cheklash;
- byurokratik hokimiyatning kuchliligi, byurokratik mezonlarni nazorat qilishning zaifligi va noaniqligi;
- narxning shakllanish jarayonlariga ma’muriy yo‘llar bilan aralashish.

Tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish borasida turli to‘siq va taqiqlarning joriy etilishi turli xil noqonuniy mehnat, tovar va xizmatlar, moliyaviy va valyuta bozorlarining paydo bo‘lishiga olib keladi va bunda iqtisodiy faoliyat subyektlari turli huquqiy-shartnomaviy cheklashlarni chetlab o‘tishga intiladilar. Xususan, bozor ishtirokchilari eng kam ish haqi stavkalari, maksimal ish vaqtidan tashqari soatlar, o‘smirlar mehnatidan foydalanish shartlari va boshqalarni belgilab beruvchi mehnat qonunchilagini chetlab o‘tishga harakat qiladilar.

Xo‘jalik faoliyatining turli yo‘nalishlarini litsenziyalash tashkilotlarni hokimiyat va alohida davlat xizmatchilariga qaram qilib qo‘yadi va bu ikkinchisiga xufyona daromad olish imkoniyatini beradi. Shu asosda davlat xizmatchilar o‘rtasida korrupsion sxemalar keng tarqaladi.

3. Iqtisodiyotda davlat sektorining keng ko‘lamliligi davlat korxonalarini o‘rtasida byudjet resurslarini bevosita va bilvosita subsidiyalar, subvensiyalar, konsessional kreditlar shaklida taqsimlanishi bilan bog‘liq munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bu resurslarni taqsimlash bilan bog‘liq norasmiy va ko‘pincha jinoiy munosabatlari sektorini shakllantirish uchun asosdir. Byudjet resurslarini beg‘araz yoki imtiyozli tarqatish asosida byudjet mablag‘larini o‘zlashtirish, inflatsion daromadni o‘zlashtirish, legallashtirish, investitsiyalash va chet elga o‘tkazish maqsadida nazorat ostidagi turli biznes tuzilmalar tuziladi.

Xufyona xo‘jalik faoliyati miqyosining kengayishi oqibatlarini o‘rganish ham birdek muhim hisoblanadi. Iqtisodiyotda bozor munosabatlarining shakllanishida xufyona sektor turlicha o‘rin tutadi. Bir tomondan, xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi ijobjiy ta’sirlarga ham olib kelishi mumkin. Soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalarining raqobat ustunliklarini oshiradi, unda band bo‘lgan xodimlar uchun qo‘sishimcha daromad olish imkonini beradi va real ishsizlik darajasini kamaytiradi. Boshqa bir tomondan esa, xufyona sektoring faoliyati davlat tomonidan belgilangan tartib va qonunlar doirasida faoliyat

Agar korrupsiyaga barham berilmasa,  
ertangi kunimiz qanday bo'ladi



Tanlash Sizdan!

O‘zbekiston Respublikasi  
Bosh Prokururatsining  
ishlanch telefoni:  
**1007**


Korrupsiyaga qarshi kurashish  
bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi

ko‘rsatayotgan boshqa xo‘jalik yurituvchi iqtisodiyotning miqyosining kengayishining salbiy oqibatlari ijobjiy jihatlaridan bir necha marta salmoqlidir. Xufyona sektor mavjudligining ijobjiy va salbiy oqibatlarining nisbati ko‘p jihatdan uning ko‘lamiga bog‘liqdir. Xufyona iqtisodiyotning keng quloch yozishi asnosida uning kriminalizatsiyasi mamlakatning butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimining rivojlanish yo‘nalishini belgilaydigan va uni takror ishlab chiqarish uchun shart-sharoit yaratadigan hukmron jarayonga aylantiradi. Xufyona iqtisodiyotning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari g‘oyatda xilma-xildir. Xufyona iqtisodiyotning tarqalishidan kelib chiqadigan barcha turdag‘i oqibatlarni uch guruhga (iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy) bo‘lishimiz mumkin.

Xufyona iqtisodiyotning iqtisodiy oqibatlariga oid ayrim misollarni batafsil ko‘rib chiqamiz. Avvalo, fiskal sohaga yetkazilgan zararni qayd etishimiz lozim. Iqtisodiy faoliyatni davlat nazoratidan yashirish va soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash byudjetning daromad qismining sezilarli darajada kamayishiga olib keladi, bu esa ijtimoiy dasturlar va davlat institutlarining moliyaviy jihatdan kam ta’minlanishiga sabab bo‘ladi.

Ijtimoiy dasturlar va investitsiyalar uchun mablag‘larning kamayishi ijtimoiy barqarorlikka tahdid soladi. Davlat xarajatlarining kamayishi tarkibiy inqirozni kuchaytiradi, faoliyati davlat buyurtmalarini bajarish bilan bog‘liq korxona va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini yanada zaiflashtiradi.

Xufyona iqtisodiyotning salbiy ta’siri to‘g‘risida to‘laroq tasavvur hosil qilish uchun ishlab chiqarish hajmi va xufyona iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi quyidagi chizmaga murojaat qilamiz.



### **16.6-rasm. Xufyona iqtisodiyotning tarqalish oqibatlari.**

Byudjet majburiyatlarini bajarmaslik real sektordagi korxonalarining moliyaviy ahvolini yomonlashtiruvchi, aylanma mablag'lardan mahrum etuvchi va noqonuniy omon qolish strategiyalaridan foydalanishni rag'batlantiruvchi nooziq-to'lovlar muammosini keskinlashtirishning sabablaridan biridir. Bundan tashqari, bir qator soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tovlash qonuniy soliq to'lovchilar daromadlarini soliqqa tortishning oshishiga olib keladi. Soliq yukining oshishi soliqdan olinadigan daromadlarni yanada yashirishni rag'batlantiradi va

daromadlarning tabaqalanishishini yanada oshiradi. Korrupsiya va noqonuniy lobbizm faoliyati natijasida byudjet resurslarini samarasiz ajratish, imtiyozlar, litsenziyalar, kvotalar va boshqa imtiyozlarning noqonuniy berilishi kabilar kuzatiladi.

Xufyona iqtisodiyotning tarqalishi makroiqtisodiy siyosat samaradorligining pasayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, bu makroiqtisodiy tartibga solish borasida xatoliklar sonining ortib borishida namoyon bo'ladi. Mazkur xatoliklar, odatda, qonuniy va noqonuniy sektorlarda ishlab chiqarish faoliyatining yashirin qismining ko'lami, tuzilishi va dinamikasi bo'yicha ishonchli ma'lumotlarning yo'qligi bilan uzviy bog'liqdir. Agar xufyona iqtisodiyot rasmiy iqtisodiyotdan tezroq o'sib borayotgan bo'lsa va bu holat statistikada aks ettirilmasa, hukumat pul taklifini kengaytirish va talabga ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirishi mumkin (davlat xarajatlarini oshirish, pul-kredit siyosatini yumshatish). Buning natijasida yuqori inflatsiya sur'atlarining oshishi bilan birga iqtisodiyotning haddan tashqari zo'riqishi kuzatiladi.

Xufyona iqtisodiyot ko'laming yetarli darajada hisobga olinmasligi bandlik siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar xufyona sektor sohasida band bo'lganlar ishsiz sanalsa, ishsizlik darjasini real ko'rsatkichdan ancha yuqori bo'ladi. Bu esa davlatni pul-kredit siyosatini yengillashtirish, shuningdek, davlat xarajatlarini ko'paytirish orqali jami talabni, ishlab chiqarish va ish bilan bandlikni oshirishga qaratilgan ekspansionistik siyosat yuritishga undaydi. Natijada, mehnat resurslarining yetishmasligi va inflatsiyaning o'sishi kuzatiladi. Xufyona iqtisodiyot ko'lamlari kengayishining salbiy oqibati sifatida iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining susayishi va hatto ishlab chiqarish ko'lamlarining pasayishi kutiladi.

Dastlabki bosqichda ma'lum bir holatlarda (masalan, davlat tomonidan tartibga solishning haddan tashqari qattiqqo'lligi sharoitida) qonunchilikda ruxsat berilgan xo'jalik faoliyatini davlat nazoratidan yashirish, soliq tushumlarining kamayishiga qaramay, u iqtisodiy o'sishga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Korxonalar o'z faoliyatlarida xufyona sxemalardan keng foydalanishlari hisobiga raqobat ustunligini qo'lga kiritadilar, bu esa qisqa muddatli davrda ishlab chiqarish hajmining o'sishiga olib keladi. Ayrim iqtisodchilarning fikricha, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rasmiy sektorida 1992-1995-yillarda kuzatilgan pasayish xufyona sektorning o'sishi hisobiga qoplangan.

Yashirincha faoliyat ko'rsatish (masalan, noqonuniy faoliyatdan olingan daromadlarni legal faoliyat turlarini amalga oshirish natijasida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sotib olishga yo'naltirish) qo'shimcha legal iqtisodiy faoliyat turlarini vujudga keltirishi hisobiga iqtisodiyotda yalpi ishlab chiqarish hajmining o'sishiga olib keladi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sish jarayoni A nuqtagacha davom etadi, mazkur nuqtada mahsulot ishlab chiqarishning eng yuqori hajmi kuzatiladi. A nuqtadan so'ng pasayish boshlanadi, bu holat iqtisodiyotda ko'rilib yozgatilgan zararlarning ortishi, xufyona sxemalarning keng yoyilishi natijasida investitsion faollikning pasayishi, legal faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarining bankrotlikka uchrashi va ularning bozordan siqib chiqarilishi kabi omillar bilan bevosita bog'liqdir. Xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi kapital qo'yilmalar risklarining ortishi tufayli investitsiya resurslarini, ayniqsa, chet ellik investorlarni jalb qilish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Legal xorijiy investorlar tovlamachilik xavfi, shuningdek, legal yo'llar bilan foyda olish imkoniyatlarining haddan tashqari cheklanganligi bois bozorga kirib kelishni ma'qul ko'rmaydilar. Bu esa ko'pincha xalqaro uyushgan jinoyatchilikning investorlarni saralash jarayonlariga faol aralashishiga olib keladi.

Xufyona iqtisodiyot rivojlanishining navbatdagi salbiy oqibati bozor mexanizmlari samaradorligining pasayishidir. Bozor iqtisodiyotining eng muhim-xo'jalik yurituvchi subyektlarning tengligi va ular o'rtasidagi raqobat tamoyiliga putur yetadi. Ma'lum bir davrda xufyona sektor vakillari tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar legal tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar sifati bilan deyarli bir xil bo'lsa-da, qonunda belgilangan miqdorlardan past ish haqi to'lash, soliq va ijtimoiy to'lovlarni to'lamaslik evaziga ular tomonidan yaratilayotgan tovar va xizmatlarning tannarxi birmuncha arzon tushadi. Raqobat tamoyilining buzilishi hisobiga korxonalar sotish bozorlarini yo'qotadilar va katta zarar ko'rishni boshlaydilar.

Dastlabki paytlarda rasmiy sektorda narxlar tushib ketadi, bu iste'molchilar uchun qulay bo'lsa-da, ammo istiqbolda legal korxonalar yetarlicha foyda olmasliklari natijasida xonavayron bo'ladilar. Bozorda samaradorlikni oshirish hisobiga emas, balki xomashyoni noqonuniy yo'llar bilan sotib olish sxemalaridan keng foydalanuvchi, soliq va boshqa ijtimoiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tov lash evaziga kun ko'ruchilar yashab qoladilar. Rasmiy sektorda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarining xonavayron bo'lishi asnosida bozorda xufyona sektor monopol mavqeni qo'lga kiritadi. Narxlarni monopol tartibga solish sharoitida narxlar raqobat sharotidagiga qaraganda ancha yuqori darajaga ko'tariladi.

Xufyona iqtisodiy faoliyat ko'lamlari kengayishining salbiy oqibati iqtisodiyot tuzilmasining deformatsiyalanishini keltirib chiqaradi va u quyidagilarda ko'rindan:

- investitsiya risklarining oshishi va investitsion faollikning pasayishi, bu esa investitsiya majmuasi tarmoqlari ulushining kamayishiga olib keladi;
- real sektor taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatgan holda, iqtisodiyotning spekulativ moliya va savdo-vositachilik sohalarining rivojlanishini rag'batlantirish;

- strategik ahamiyatga ega bo‘lgan xomashyo mahsulotlarini xorijga ommaviy ravishda noqonuniy eksport qilish oqibatida tashqi iqtisodiy aloqalarning yoqilg‘i-energetika va xomashyo mahsulotlarining eksportiga bevosita bog‘liqligining kuchayishi;
- jinoiy faoliyatni amalga oshirishni yengillashtirishga xizmat qiluvchi (axborot, transport, taqsimlash va shu kabi boshqa xizmatlarni ko‘rsatish), shuningdek, tez foyda olish imkonini beruvchi faoliyat turlarini rivojlantirishga ustuvorlik berish;
- xavfsizlikni ta’minlash va qo‘riqlash bilan bog‘liq faoliyat turlarini rivojlantirish, bu o‘z navbatida, boshqa iqtisodiy faoliyat turlarida mavjud iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi (mazkur guruh xarajatlari ko‘pgina mamlakatlarda jinoyatchilikning oldini olishga yo‘naltirilgan xarajatlarga kiritiladi).

Pul-kredit sohasiga xufyona iqtisodiyotning salbiy ta’siri to‘lov balansi tuzilmasining deformatsiyalanishida, inflatsiya va uning oqibatlarini chuqr ildiz otishida, kredit munosabatlariga putur yetishida va investitsion xavf-xatarlarning ortishida, kredit muassasalari, investorlar, omonatchilar, aksionerlar va bir so‘z bilan aytganda barcha jamiyat a’zolarining ko‘rayotgan zararlarining ko‘payishida o‘z ifodasini topadi. Pullarni yuvish va noqonuniy daromad olish maqsadida uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan noqonuniy valyuta operatsiyalarining amalga oshirilishi valyuta kurslariga salbiy ta’sir ko‘rsatgani holda, mamlakatda inflatsion jarayonlarning kuchayishiga olib kelishi ham mumkin. Jinoiy daromadlarni xorij valyutasiga almashtirish va uni chetga olib chiqib ketishga intilishning kuchayishi oqibatida kriminal iqtisodiy faoliyat valyuta bozoridagi holatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bir qator o‘tkazmalar zanjiridan o‘ta borib, pul mablag‘lari pirovard natijada xorijdagi offshor kompaniyalar, jismoniy va yuridik shaxslarning hisob raqamlariga borib tushadi, cheklar va karta hisob raqamlari orqali naqdlashtiriladi va o‘zining moliyaviy izini yo‘qotadi. Mazkur bosqichda pul mablag‘larining navbatdagi qayta taqsimlanish jarayonlari yuz beradi. Soxta tashqi savdo bitimlari bo‘yicha juda katta mablag‘lar xorijiy banklarga o‘tkazib beriladi.

Pul mablag‘larini xorijga olib chiqib ketishda, odatda, bir qator usul va vositalardan foydalaniladi:

- soxta import kontraktlari asosida bo‘nak to‘lovlari amalga oshirish (import kontraktlari bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘nak to‘lovlari ortga qaytarmaslik); kontrakt shartlari ma’lum bir o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘ladi, masalan, bo‘nak to‘lovlari majburiy tartibda amalga oshirish, tovar va xizmatlar yetkazib berishning uzoq muddatlari (mazkur muddat ichida importer firma ko‘zdan

g‘oyib bo‘ladi) va bo‘nak to‘lovlarini offshor zonalarga yo‘naltirish; odatda, offshor zonada joylashgan kompaniya bilan kontrakt tuziladi va mamlakatdan o‘sha kompaniyaning hisob raqamiga bo‘nak to‘lovlari o‘tkazib beriladi, kontrakt bo‘yicha tovarlarni yetkazib berish amalga oshirilmaydi, bo‘nak to‘lovlari qaytarib berilmaydi va ma’lum bir muddat o‘tgandan so‘ng kompaniya o‘z faoliyatini to‘xtatadi yoki boshqa bank maydochasiga o‘tib ketadi;

- mamlakakti hududidagi norezidentga rezident tomonidan sotilgan tovarlar uchun norezident tomonidan hisoblar va pul o‘tkazmalarining amalga oshirilishi (mazkur holatda go‘yoki tovar yetkazib berish yoki xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida soxta bitim tuziladi, tovar va xizmatlar faqatgina qog‘ozda mavjud bo‘ladi xolos, pul mablag‘lari norezidentning hisob raqamiga o‘tkazib beriladi).

Xufyona iqtisodiyotning tarqalishining oqibatlariga katta ijtimoiy xavf-xatarlarga olib kelishi mumkin. Masalan, fuqarolarni va korxonalarini soliq to‘lovlardan qochishi byudjetga moliyaviy resurslarni kelib tushishini cheklaydi. Bu o‘z navbatida ijtimoiy soha tarmoqlarini degradatsiyasiga olib keladi. Natijada aholining katta qismini real daromadlari pasayadi, tabaqlanish darajasi oshadi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni buzilishiga olib keladi.

Xufyona iqtisodiyotda mehnat qilayotgan mehnat resurslarining o‘ziga ham katta salbiy oqibatlarni olib kelishi mumkin. Bu, birinchi navbatda, kafolatlangan bandlikni, ish haqi va ijtimoiy kafolatlar yo‘qligi bilan bog‘liq xavf-xatarlarini ta’kidlab o‘tish mumkin. Xufyona iqtisodiyot tizimi ijtimoiy kafolatlar va o‘z malakasini oshirish imkoniyatlari yo‘qligi va yuqori ishlab chiqarish jarayonidagi jarohatlar mehnat resurslarini qoniqarsiz ekspluatatsiya qilishi mumkin.

Xufyona iqtisodiyot tarqalishining siyosiy oqibatlariga bu uning turli yo‘nalishlarda, mamlakatda korrupsiyani kuchayishiga va hattoki to‘la iqtisodiy va siyosiy izolatsiyasiga olib keluvchi iqtisodiy xavfsizligiga qo‘srimcha tahdidlarni vujudga keltirishi mumkin. Bu davlat tuzilmasiga sezilarli darajada zarar keltirib, uni jahon iqtisodiyotida obro‘sini tushishiga olib keladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Xufyona iqtisodiyot tushunchasiga ta’rif bering.
2. Xufyona iqtisodiyot ko‘lamlarining ortib borishiga turtki bo‘luvchi asosiy omillarni sanab bering.
3. Xufyona iqtisodiyot ko‘lamlarini qisqartirish yo‘llari nimada deb o‘ylaysiz?
4. Hisobga olinmaydigan iqtisodiyot tushunchasi nimani anglatadi?
5. Transaksiya xarajatlari va ularni pasaytirish yo‘llari nimalardan iborat?
6. «Iqtisodiyotni kriminallashuvi» tushunchasining mohiyatiga aniqlik kiritig.

7. Xufyona iqtisodiyot mamlakatga qanday ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni olib keladi?
8. Xufyona iqtisodiyot mamlakatning makroiqtisodiy siyosati samaradorligiga va uning iqtisodiy xavfsizligiga qanday salbiy ta'sir etadi?
9. Xufyona iqtisodiyotning tuzilmasi va uning O'zbekistondagi ko'lamlari qanday?
10. Xufyona iqtisodiyotga va korrupsiyaga qarshi kurash usullarini aytib bering.
11. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyot faoliyatining tarqalish omillari va salbiy oqibatlari qanday?
12. Xufyona iqtisodiyotga davlat tomonidan ta'sir etish usullarini so'zlab bering?

## **17 mavzu. O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI**

### **Reja**

**17.1-§. Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari va iqtisodiy oqibatlari**

**17.2-§. Korrupsiyaning namoyon bo'lish shakllari**

**17.3-§. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy va me'yoriy asoslari**

#### **17.1-§. Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari va iqtisodiy oqibatlari**

Korrupsiyal lotincha (sorruptcio) so'zidan olingan bo'lib, buzilish degan ma'noni anglatadi. Korrupsiya faqat bir ko'rinishda namoyon bo'ladigan hodisa bo'lmay, u jamiyat hayotining turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab oladi. O'z tabiatiga ko'ra turlicha bo'lgan yuzaga kelish va qayta tiklanish mexanizmlari bilan tavsiflanadi.

Korrupsiya hodisasini tadqiq qilgan barcha tadqiqotchi hamda siyosatchilar uning axloqsizlik ekanligi va har qanday mamlakatning iqtisodiy va demokratik taraqqiyotiga ziyon yetkazishini tan oladilar. Ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda ushbu hodisa jamiyat va iqtisodiyot institutlari tizimidan tashqaridagi ma'naviy jinoyat sifatida o'rganiladi. Uning tabiatni, funksiyalari, jamiyat va iqtisodiyotga yetkazadigan zararlari to'g'risidagi fikrlar bilan cheklanib qolinmoqda.

Korrupsiya ommaviy imkoniyatlardan shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanishni anglatadi. Hozirgi davr xalqaro me'yoriy hujjatlarida korrupsiyaning turlicha talqinlari keltirilgan. BMTning korrupsiyaga qarshi xalqaro kurash to'g'risidagi hujjatlarida, korrupsiya shaxsiy manfaat uchun davlat hokimiyatini suiiste'mol qilish, deb ta'rif beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida<sup>1</sup>gi Qonunining 3-moddasida Shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi<sup>1</sup>deb, ta’rif beriladi.

Korrupsiya – ijtimoiy fenomen, jamiyat va ijtimoiy munosabatlar natijasi, ijtimoiy va xo‘jalik faoliyatini boshqarish funksiyasining o‘ziga xosligidan kelib chiqib vujudga keladi va mavjud bo‘ladi, ya’ni aynan shunday holatda mansabdar shaxsda jamiyat va davlat manfaatlarini emas, balki o‘z shaxsiy g‘araz niyatidan kelib chiqib resurslarni tasarruf etish va qarorlar qabul qilish imkoniyati vujudga keladi. Demak, korrupsiya murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo‘lib, uning ko‘rinishi, shakli o‘zgarishi bilan hajmi qisqarmaydi. Hozirgi vaqtida korrupsiya milliy xavfsizlikka tahdid solayotgan asosiy xavf bo‘lib, iqtisodiyot rivojlanishiga asosiy to‘sinq, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarga qaramay ijtimoiy barqarorlikning saqlanishi va chuqurlashuviga ta’sir qiluvchi omildir.

Korrupsiya iqtisodiy qonunlarning erkin harakatlanishini cheklaydi, xalqaro hamjamiyat oldida mamlakat nufuzini tushiradi. Haqqoni va ijtimoiy yo‘naltirilgan biznes bozordan siqib chiqariladi, chunki korrupsiya bunday biznesni norentabel qilib qo‘yadi. Korrupsiya o‘ta moslashuvchan xususiyatga ega bo‘lib, shaklini o‘zgartirib takomillashib, ijtimoiy huquqiy tizimdagagi bo‘shliqlar, kamchiliklardan ustalik bilan foydalanadi. Korrupsiya davlat va jamiyat hayotida quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Birinchidan, insoniyat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan – demokratiya va demokratik institutlarning mustahkamlanishiga salbiy ta’sir qiladi, ya’ni ularga jiddiy putur yetkazadi.

Ikkinchidan, jamiyat taraqqiyoti uchun eng muhim omil – tinchlik, osoyishtalik, adolat, qonun ustuvorligi kabi ijtimoiyhuquqiy qadriyatlarning buzilishiga olib keladi.

Uchinchidan, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarining buzilishi, sog‘lom raqobatning bozordan siqib chiqarilishi, yashirin iqtisodning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga zamin yaratadi.

To‘rtinchidan, jamiyatda nosog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitning shakllanishiga sabab bo‘lib, demokratik davlatning eng muhim huquqiy tamoyillarining buzilishiga olib keladi.

Korrupsiya tushunchasi poraxo‘rlik tushunchasidan kengroq ma’noni anglatadi. Ushbu tushuncha poraxo‘rlikni (biror-bir shaxsning kasbi taqozo qiladigan majburiyatidan chekinganligi uchun mukofot berish) va nepotizm (shaxsiy munosabatlar asosida homiylik qilish) hamda shaxsiy manfaatlar uchun foydalanish

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining —Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida<sup>1</sup>gi qonuni. www.lex.uz


maqsadida jamoat mablag'larini noqonuniy o'zlashtirishni anglatadi. Korrupsiyaga o'zi yoki shaxsiy munosabatlar yo'lga qo'yilgan boshqa shaxslar uchun qandaydir ustunliklarga ega bo'lish maqsadida tomonlarning mustaqillik tamoyillariga atayin rioya qilmaslik. Bunday ta'rif korrupsiya xufyona iqtisodiyotning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi, degan fikrni tasdiqlaydi.

Korrupsiya – xavfsizlikka tahdid soluvchi hodisa va xufyona iqtisodiyotning ko'rinishidir. Shuning uchun korrupsiyani iqtisodiy hodisa sifatida talqin etishda deyarli bahs-munozaralar yo'q. Uning davlat amaldorlarining poraxo'rlik faoliyatidan iboratliligi va jamiyatga katta zarar yetkazadi. Poraxo'rlikni uch subyektli munosabatlar: pora oluvchilar, pora beruvchilar va ular o'rtasidagi vositachilar kiradi. Pora oluvchilar davlat amaldorlari bo'lsa, uni beruvchilar amaldorlar marhamatiga muhtojlardir. Vositachilik vazifasini esa ayrim shaxslar va yashirin tashkilotlar amalga oshiradilar.

Korrupsiyaning iqtisodiy mohiyati va huquqiy baholanishida farqlar mavjud bo'lib, iqtisodiy jihatdan, bu erkin bozor qonunqoidalariga mos kelmaganidan yashirinchha yuz beradi. Bu munosabatda barcha korrupsiyalashgan guruhning manfaati uyg'unlashadi. Amaldor xizmatiga talab bo'lganidan, u sotadi. Bu yerda pora yashirin xizmat haqi shakliga kiradi. Poraxo'rlikda ham bozor munosabati bor, lekin bu tor egoistik manfaatga bo'ysunuvchi munosabat bo'lganligi sababli uni jamiyat tan olmaydi, chunki bu yerda ayrim shaxslar yoxud guruuhlar manfaatining amalga oshishi boshqalar manfaati hisobidan bo'ladi. Shuning uchun buni jamiyat qabul qilmaydi va natijada u yashirin tus oladi.

Yuridik qonunlarda aks etgan qoidalarnigina jamiyat qabul qiladi. Shuni nazarda tutib, korrupsiyani huquqiy jihatdan g'ayriqonuniy, qonunlar man etadigan iqtisodiy faoliyat deb aytish mumkin. Korrupsiya – global hodisa, undan zarar ko'rmagan mamlakat yo'q, lekin bu mamlakatlarda korrupsiyalashuv darajasi turlicha bo'lib, bunday holat uning ildizlari chuqurligidan dalolat beradi.

Korrupsiyaning sabablarini umumlashtirgan holda quyidagilarni keltirish mumkin.



### 17.1-rasm. Korrupsiyaning sabablari.

Mutaxassislarning fikricha, korrupsiyaning mavjudligini iqtisodiy tizimning o‘zidan qidirish kerak. Korrupsiya iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo‘lar ekan, demak, uning iqtisodiy ildizlarini topish kerak bo‘ladi. Bu ildizlar pul munosabatlarining o‘zidadir. Pul universal to‘lov vositasi, uni hamma operatsiyalar uchun qabul qilinadi, pul boylikning timsoli, boylik to‘plashning eng qulay shakli. Pulni saqlash xavfsiz, uni xohlagancha jamg‘arish mumkin. Pul likvidligi eng yuqori bo‘lgan aktivdir. Likvidlikni esa pulning qadr-qimmati ta’minlaydi. U ko‘zga ko‘rinmas moliyaviy aloqalar o‘rnatish imkonini beradi. Pulning likvidligi muhim bo‘lganidan, pora berishda qattiq valyutalar ishlataladi, chunki ularning qadri barqaror bo‘lgani uchun jamg‘arish vositasi bo‘la oladi. Pul – bozor munosabatlarining mahsuli, shu sababli pul munosabatlarining rivojlanishi korrupsiyani oziqlantiradi.

Natural ishlab chiqarish sharoitida poraxo‘rlik moddiy shaklda bo‘lishi mumkin, uni ko‘zdan yashirib bo‘lmaydi. Pul munosabatlari esa yashirin munosabat o‘rnatish imkonini beradi. Shunday qilib, korrupsiyaning obyektiv sababi pulning yuksak likvidlik xususiyatidadir. Bunday xususiyat pul fetishizmini, ya’ni uni ilohiylashtirishni, unga sig‘inishni yuzaga keltiradi, pul hamma narsani hal qiluvchi kuchga ega, degan tasavvurni paydo qiladi. Bu esa ochko‘zlikni keltirib chiqaradi, uni g‘ayriqonuniy yo‘l bilan topa olish imkoniyati bor kishilarni korrupsiyalashgan kishilarga aylantiradi.

Poraxo‘rlik yoki korrupsiya harakatlari shaxsga uning o‘z vazifalarini bajarishida ta’sir ko‘rsatish va uni yuz bergan vaziyatlarda yuqori ma’naviy odam nohalol deb hisoblaydigan xatti-harakatlarga og‘dirish maqsadini ko‘zlab amalga oshiriladi.

Poraxo‘rlik quyidagicha tavsiflanishi mumkin:

a) mansabdor shaxsga yoki ishtirokchiga o‘z lavozim vazifalarini bajarishlarida biror-bir harakatni yoki harakatsizlikni amalga oshirishlari uchun shaxsan yoki vositachilar orqali bevosita mansabdor shaxs yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxsga biror-bir noqonuniy ustunlikni va’da qilish, taklif qilish yoki taqdim qilish;

b) ishtirokchi tomonidan o‘z lavozim vazifalarini bajarishida mansabdor shaxs biror-bir harakatni yoki harakatsizlikni amalga oshirishi uchun shaxsan yoki vositachilar orqali bevosita o‘ziga yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxsga biror-bir noqonuniy ustunlik tamagirlilik qilinishi yoki qabul qilinishi.

Pora – har doim ham naqd pul mablag‘lari berilishini anglatmaydi. Agar qaror qabul qilishga ta’sir ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, sovg‘alar, mehmondo‘stlik harakatlari va vaqtichog‘lik taqdim qilishlar ham pora bo‘lishi mumkin.

Bozor tizimining mukammal emasligi, uning mexanizmlarida uzilishlar bo‘lib turishi, korrupsiyaning keng yoyilishi uchun qulay sharoit hozirlaydi. Demak, bozor

munosabatlarining takomillashtirilishi korrupsiyaga qarshi kurashning eng ma’qul yo‘li bo‘lib hisoblanadi. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda korrupsiyalashish darajasining boshqa guruh mamlakatlaridagiga nisbatan ancha pastligi mana shu tezisning to‘g‘riligidan dalolat beradi.

Korrupsiyaning obyektiv sabablaridan biri, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va shunga bog‘liq holda biznesni rivojlantirish muammolarini hal qilish davlat amaldorlariga bog‘liq bo‘lishidir. Davlatning iqtisodiyotga ta’siri iqtisodiy, huquqiy va ma’muriy usullar orqali yuz beradi. Bu usullarning qo‘llanilishi amaldorlar faoliyatiga bog‘liq.

Davlatning ruxsat berish funksiyasi haddan tashqari keng doirada saqlanib qolishi ham korrupsiyaning ildizlaridan biridir. Davlat qo‘lidagi subsidiyalar, soliqlar, imtiyozli litsenziyalar, kvotalar, preferensiyalar va buyurtmalar kabi vositalar biznesni tartibga solib turishda qo‘llaniladi. Ulardan kimning bahramand bo‘lishi amaldorlarning munosabatiga bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiy faoliyatdan yaxshi natijaga erishish uchun tadbirkorlar pora berish yo‘li bilan amaldorlarni sotib olish va shu orqali imtiyozlarga ega bo‘lishga intiladilar. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zarur ekanligi va ayni vaqtda korrupsiyani yuzaga keltirishi iqtisodiyotdagi ziddiyatli holatdir.

Korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini aniqlashda ko‘pchilik tadqiqotchilar davlat qonunlarining nomukammalligiga urg‘u beradilar. Qonunlar, odatda, real hayotdagi o‘zgarishlardan orqada qoladi, shu sababli, ular tez-tez o‘zgartirilib, to‘ldirilib turiladi. Mukammal hisoblangan qonunlar vaqt o‘tishi bilan nomukammal bo‘lib qoladi, chunki real hayot ilgarilab ketadi. Nomukammal qonun real hayot talabidan ortda qolgan va kelajakni to‘liq aks ettirmaydigan qonundir. Bunday qonunlar yaxshi ishlamaydi, natijada korrupsiyaga yo‘l ochiladi.

Korrupsiya lobbizmni ham keltirib chiqaradi, biroq har qanday lobbizm ham bunga olib kelmaydi. Ruxsat berilgan, jamiyat tan oladigan lobbizm borki, u ochiq bozor aloqalariga tayanadi. Bunda u yoki bu guruh shaxslar yoxud firmalar manfaatiga mos keladigan, jamiyat uchun zararsiz bo‘lgan qarorlarni davlat idoralari tomonidan qabul qilish zarurligini asoslash va bunga ko‘maklashish bilan bog‘liq lobbizm korrupsiyani keltirib chiqarmaydi. Ammo shu bilan birga, xufyona lobbistik xizmatlar borki, ular individual va korporativ manfaatlarni himoya qilgan holda boshqalar manfaatiga zid ishlarning amalga oshirilishini bildiradi. Shunday bo‘lganda g‘ayriqonuniy lobbizm paydo bo‘ladi.

Yuqori likvidli aktivlarning mavjudligi va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, demokratiya darajasining pastligi korrupsiyaning obyektiv sabablari bo‘lsa, aholi ma’naviyatining darjasini va axloq-odobi, demokratiya qoidalariga sodiqligidagi nuqsonlar korrupsiyaning subyektiv sabablariga kiradi. Subyektiv munosabat korrupsiyani kuchaytirishi yoki zaiflashtirishi mumkin, biroq korrupsiyani tag-tomiri

bilan yo‘qota olmaydi. Chunki uning ildizlari iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish darajasiga borib taqaladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni jadallik va qat‘iyat bilan amalga oshirish talab etiladi. Shuningdek, quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirib borish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini amalda ta’minlash;
- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish amaliyotini yanada takomillashtirish;
- korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etganlar uchun aholi ichida sayyor sud majlislarini ko‘paytirish va ko‘rgazmali sud majlislarini uyushtirish;
- mas‘ul lavozimlarga tavsiya etilayotgan nomzodlarga talablarni kuchaytirish;
- davlat xizmatining nufuzini, davlat xizmatchilarining maoshini va mas‘uliyatini oshirish;
- aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir chora-tadbirlarning sifati va miqdorini yanada oshirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ta’sirchan choratadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir majmuali tadbirlar ishlab chiqish;
- davlat organlarining mansabdor shaxslari ustidan keng jamoatchilik nazoratini o‘rnatish;
- sudlar va ommaviy axborot vositalarining mustaqilligini ta’minlash;
- yurist kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan qayta isloh etish;
- mansablar sotilishining oldini olish, oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlarining haqqoniy bo‘lishiga erishish va boshqalar.

Korrupsiyaviy jinoyatlarning iqtisodiy sabablariga quyidagilarni kiritish mumkin:

birinchidan, iqtisodiy beqarorlik. Bu, avvalo, inflatsiyada namoyon bo‘ladi, ya’ni pul mablag‘larining qadrsizlanishi tufayli davlat va mahalliy davlat organlari

xizmatchilarining har qanday daromad manbalarini izlashlariga sabab bo‘ladi; ikkinchidan, juda yuqori daromadga ega bo‘lganlar tabaqasining shakllanishi, ularning erkin mablag‘lari mansabdor shaxslarni sotib olish uchun ishlataladi; uchinchidan, samarali bozor raqobatining yo‘qligi asossiz ravishda juda ko‘p daromad olish imkonini beradi; to‘rtinchidan, davlat mansabdor shaxslari va xizmatchilari maoshining kamligi.

Korrupsiya jinoyatchiligining siyosiy sabablari va sharoitlari:

- a) aholi aksariyat qismining hokimiyatdan, mulkni boshqarishdan, qonun ijodkorligi va uni qo‘llash amaliyotidan chetda ekanligi;
- b) jinoiy guruhlar vakillarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga kirib qolganligi;
- d) markaziy va mahalliy organlar xizmatchilari sonining asossiz ravishda haddan tashqari ko‘pligi.

Korrupsiyaviy jinoyatchilikning tashkiliy xususiyatdagi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar:

- 1) Korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan huquqiy normalarning ko‘lam amaliyotning nisbatan yangiligi;
- 2) Korrupsiyaviy huquqbuzarlikning ma’muriy va jinoyat statistikasining to‘la va obyektiv emasligi;
- 3) Respublika, viloyatlar miqyosida registrlar, ya’ni davlat xizmati yoki mahalliy davlat organlarida ishlashi taqiqlangan shaxslar ro‘yxatini yurituvchi tashkilotlarning yo‘qligi;
- 4) Korrupsiyaviy jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi mutaxassislarni tayyorlashda o‘quv-metodik ta’midot darajasining pastligi;
- 5) Nepotizm qarindosh urug‘, quda-andalarning xizmat bo‘yicha bir-birini qo‘llab-quvvatlashi umumiy va adolatni, tartibni buzib qarindoshlari va yaqinlariga daromadli va foydali mansablarni taqdim etish.

Korrupsiyaning salbiy hodisa sifatida xavfsizlikka tahdid solishi hech kimda shubha tug‘dirmaydi, shu sababli davlat idoralari va jamoatchilik tashkilotlari unga qarshi kurashib keladi. Biroq dunyoning hech bir mamlakatida, hatto har tomonlama yuksak rivojlangan mamlakatlarda ham korrupsiya tugatilmagan. Jamiyat korrupsiyani cheklab turishi, katta xavf tug‘dirmaydigan darajaga keltirishi mumkin. Unga qarshi kurashish tadbirlarini ishlab chiqish va qo‘llash uchun qaysi soha qay darajada korrupsiyalanganini bilish talab qilinadi.

Korrupsiya shunisi bilan xavfliki, u ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi, biznes yuritish xarajatlarini oshiradi, demak, milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini pasaytiradi, muayyan darajada siyosiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Korrupsiya va jinoyatchilikning xavfsizlikka soladigan tahdidlari quyidagilardan iborat:

- amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko‘rsatish;
- davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemirish;
- jamiyatning ma’naviy-axloqiy asoslarini yemirish;
- jamiyat a’zolarining fuqarolik mavqYIni yo‘qqa chiqarish, islohotlar g‘oyasini obro‘sizlantirish;
- pul orqali hokimiyatni qo‘lga olishga intilish;
- nopol yo‘llar bilan boylik orttirish. Bunday kimsalar adolatli jazodan qo‘rqib, hamma ishni qilishga, hatto vaziyatni beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga shay turadilar;
- jinoiy usullar bilan boylik orttirgan kimsalarni —demokratiyal uchun jafo chekkan kurashchilar deb ko‘rsatish.

Bunday shaxslar avvaliga o‘z xalqini aldab, kapital to‘playdi, keyin demokratiya va adolatni ro‘kach qilgan holda siyosiy obro‘ orttiradi. Sir emaski, bunday shaxslar o‘z manfaatlari yo‘lida respublikadagi vaziyatga ta’sir ko‘rsatishga urinayotgan tashqi kuchlarga xizmat qilishga hamisha tayyor turadilar. Jahon xo‘jalik aloqalariga faol integratsiyalashuv, chet el investitsiyalari va tadbirkorlarini iqtisodiy o‘zgarishlar jarayoniga tortishga qarshilik ko‘rsatish. Bu holat chet ellik sheriklarda ishonchszilik uyg‘otishi natijasida mamlakat g‘oyat muhim kapital mablag‘lar manbaidan, texnologiyalar va tajribalardan, jahon iqtisodiy tizimining sog‘lom, sof qismiga qo‘shilish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

## **17.2-§. Korrupsiyaning namoyon bo‘lish shakllari**

Jahon amaliyotida korrupsiyaning quyidagi namoyon bo‘lish shakllarini uchratishimiz mumkin:

Maishiy korrupsiya oddiy fuqarolar va amaldorlarning o‘zaro aloqalari natijasida vujudga keladi. Uning tarkibiga fuqarolardan mansabdar shaxs va uning oila a’zolariga turli sovg‘alar va xizmatlar kiradi. Ushbu toifaga oshna-o‘ynigarchiliklar (nepotizm) ham kiradi.

Ishbilarmonlik korrupsiyasi hukumat va biznesning o‘zaro aloqalari natijasida vujudga keladi. Masalan, xo‘jalik nizosi ro‘y bergen holatlarda tomonlar o‘z foydasiga qaror chiqarish maqsadida sudya ko‘magini qo‘lga kiritishga harakat qiladi.

Oliy hukumat korrupsiyasi demokratik tizimlarda oliy sudlar va siyosiy rahbariyatga daxldor. U vijdonsiz xulq-atvori o‘z manfaatlari yo‘lida va saylovchilar manfaatlariga ziyon yetkazgan holda siyosatni amalga oshirishdan iborat bo‘lgan hukumat tepasida turgan shaxslar bilan bog‘liqdir. Korrupsiya borasida eng foydali bo‘lgan sohalar orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- soliq imtiyozlari;

- xomashyo tovarlarini bozor narxlaridan arzonga sotish;
- hududlashtirish, chunki bu yerning bahosiga ta'sir etadi;
- tabiiy resurslar qazib chiqarish;
- davlat aktivlarini sotish, ayniqsa, davlat korxonalarini xususiy lashtirish;
- tijorat faoliyatining ma'lum bir turiga (ayniqsa, eksport-import sohasida) monopol hokimlik taqdim etish;
- xufyona iqtisodiyot va noqonuniy biznes ustidan nazorat (tamagirlilik, taqib qilishdan himoya, raqobatchilarni yo'q qilish va h.k.);
- hukumat organlarida mas'ul lavozimlarga tayinlash.

Korrupsiya shakllari, bиринчи navbatda, sudyalarga daxldor, lekin ma'muriy huquqbazarliklar holatida mos keluvchi ishlarni ko'rib chiqish vakolatlariga ega bo'lgan mansabdor shaxslarga (ichki ishlar organlari, yong'inga qarshi nazorat organlari, soliq organlari, bojxona organlari va b.) ham daxldor bo'lishi mumkin.

Qonunchilikdagi «sanchqi»lar. Ko'plab me'yorlar ayb darajasini, huquqbazarliklar og'irligi va boshqa holatlarni maksimal hisobga olish mumkin bo'lishi uchun sudyaga yumshoq va qattiq jazo turlari o'rtasida tanlashga imkon beradi. Bunda sudyada huquqbazarlik sodir etgan shaxsga nisbatan ta'sir etish vositasi paydo bo'ladi. Jazoning yuqori va quyi chegaralari o'rtasida farq qanchalik katta bo'lsa, fuqaro shunchalik katta pora berishga tayyor bo'ladi.

Muqobil ma'muriy jazolash. Muqobil ma'muriy jazo berish, masalan, jarima tayinlash yoki hibsga olish bilan bog'liq huquq me'yorlari mavjud. Ko'pchilik sanchqil-me'yorlardan ularni nafaqat jazolar doirasining kengligi (shunday ekan, fuqaroning pora berish motivatsiyasi kuchliroq ekanligi), balki odil sudni sud hukumati emas, ijroiya hukumati amalga oshirishi ham farqlab turadi. Ko'plab huquqshunoslarning fikriga ko'ra, bu turdag'i jarimalardan foydalanish faqat jinoiy sud jarayonlarida o'zini oqlaydi, lekin ma'muriy jarayonda ko'p asoslarga ega emas. Sud jarayoni ochiqlik (oshkoraliq), sudda ishni ko'rishning tortishuvlilik, og'zakilik va bevositalik tamoyillariga asosan tashkil qilinadi. Ma'muriy ishlarni ko'rishda esa aksariyat hollarda fuqaro hukumat vakillari bilan yuzma-yuz qoladi. Ma'muriy huquqbazarlik uchun hatto eng qattiq jazo ham uni differensiatsiya qilish ma'noga ega bo'lishi uchun jinoiy huquqdagi kabi og'ir bo'lmaydi.

Huquqbazarlik tarkibini qayta baholash. Sanchqil turlarining yana biri huquqbazarlik tarkibining turli kodekslarda takrorlanishi hisoblanadi. Bu sodir etilgan huquqbazarlikni yumshoqroq toifaga (masalan, jinoiydan ma'muriy yoki fuqarolik toifasiga), yoki aksincha, qattiqroq toifaga qayta baholash uchun imkoniyalar ochib beradi. Jinoyatlar va boshqa huquqbazarliklarni bir-biridan ajratish ko'pincha qonunchilikdagi ifodalarning mavhum ekanligi sababli qiyin bo'ladi yoki bunday

holatlarda sudya (yoki mansabdar shaxs) o‘z ixtiyori bo‘yicha qaror qabul qiladi, bu esa pora va tamagirlik uchun imkoniyatlar ochib beradi.

Fuqarolarning pul bilan bog‘liq bo‘lmagan yo‘qotishlar. Ayrim huquq me’yorlari, agar shaxsga nisbatan huquq me’yoriga bo‘ysunish bilan bog‘liq yo‘qotishlar qo‘llanadigan bo‘lsa, korrupsiyaga olib kelishi mumkin. Jinoyat uchun jarima miqdori nominal ravishda teng bo‘lgan holatlarda ham, ta’kidlash joizki, jarima to‘lash bankda to‘loymi amalga oshirish va to‘loymi amalga oshirganlik haqida to‘lov qog‘ozini mos keluvchi idoraga taqdim etish bilan bog‘liq pulsiz, vaqt xarajatlari bilan birgalikda kuzatiladi. Huquq me’yorlari tufayli vujudga keladigan pul bilan bog‘liq bo‘lmagan yo‘qotishlar xilma-xil bo‘lib, fuqarolar uchun turli darajada yoqimsiz bo‘ladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, sudda o‘z haqligini himoya qilishga hamma fuqarolar ham tayyor bo‘lmaydi. Empirik ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, korrupsiya quyidagilarga sababchi bo‘ladi:

davlat mablag‘lari va resurslarini samarasiz taqsimlash va sarflash;

- mamlakat iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan korruption moliyaviy yo‘qotishlar samarasizligi;
- soliq organlari soliqlarning bir qismini o‘zlashtirib olgan hollarda soliqlarning yo‘qotilishi;
- qo‘yiladigan to‘siqlar tufayli vaqt yo‘qotilishi, davlat apparatida ish samaradorligining pasayishi;
- xususiy tadbirkorlarning xonavayron bo‘lishi;
- malakali kadrlarning boshqa mamlakatlarga ketib qolishi;
- ishlab chiqarishga investitsiyalar pasayishi, iqtisodiy o‘sishning pasayishi;
- ijtimoiy servis sifatining pasayishi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarga xalqaro yordamdan maqsadli yo‘nalishda foydalanmaslik, bu uning samaradorligini keskin tushirib yuboradi;
- shaxslar qobiliyatlaridan samarasiz foydalanish;
- moddiy ne’matlar ishlab chiqarish o‘rniga odamlar unumsiz renta izlashga vaqt ketkazadilar;
- ijtimoiy tengsizlikning o‘sishi;
- uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi - «banda»lar «mafija»ga aylanadi;
- hukumatning siyosiy qonuniy huquqlariga putur yetishi;
- jamiyatda odob-axloq pasayib ketishi va shu kabilar.

Ko‘pchilik mutaxassislar korrupsiya darjasini yuqori ekanligining asosiy sababi ichki va tashqi tiyib turish mexanizmlarini ta’minlaydigan siyosiy institutlar

mukammal emasligida, deb hisoblaydilar. Bundan tashqari, ayrim obyektiv holatlarning mavjudligi ham korrupsiya darajasining yuqori bo‘lishiga olib keladi, deb ta’kidlaydilar:

- ikki ma’noda tushunish mumkin bo‘lgan qonunlar;
- aholining qonunlarni bilmasligi yoki tushunmasligi, bu mansabdor shaxslarga tegishli to‘lovlarni oshirish yoki byurokratik jarayonlarni amalga oshirishga to‘sinqinlik qilish imkonini beradi;
- mamlakatdagi siyosiy vaziyat beqarorligi;
- hukumat institutlari o‘zaro aloqa qilishi uchun shakllangan mexanizmlar yo‘qligi;
- byurokratik apparat faoliyatining negizida yotadigan standartlar va tamoyillarning boshqaruvchi elita siyosatiga bog‘liqligi;
- byurokratiyaning professional chuqur bilimlarga ega emasligi;
- korrupsiya ustidan nazorat mexanizmlarini zaiflashtiradigan maxfiy bitimlar shakllantirishga olib keladigan oshna-og‘aynigarchilik va siyosiy homiylik;
- ijroiya hukumati tizimida hamjihatlik yo‘qligi, ya’ni bir xil faoliyatning turli instansiyalar tomonidan tartibga solinishi;
- davlat ustidan nazoratda fuqarolarning ishtirok etish darajasi pastligi.

Korrupsiya darajasi yuqoriligi sabablari bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlarga nisbatan boshqa taxminlar ham ko‘rib chiqiladi:

- davlat sektorida ish haqi darajasining xususiy sektor bilan taqqoslaganda pastligi;
- iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;
- fuqarolarning amaldorlarga bog‘liqligi, m‘lum bir xizmatlarga davlat monopoliyasи;
- byurokratiya elitasining xalqdan ajralib qolganligi; iqtisodiy beqarorlik, inflatsiya;
- aholining etnik jihatdan xilma-xilligi;
- iqtisodiy rivojlanish darajasi pastligi (aholi jon boshiga YAIM);
- diniy an'analar; mamlakat madaniyati.

Korrupsiyaga qarshi kurashning singapurcha strategiyasi qattiqqo‘llik va izchillik bilan ajralib turadi hamda korrupsiya ustidan nazorat mantig‘iga asoslanadi. Korrupsiyani tag-tubi bilan yo‘q qilishga qaratilgan harakatlar shaxsning poraxo‘rlik bilan bog‘liq harakatlar amalga oshirishga moyillik imkoniyatini, rag‘batini ham

yaratadigan shart-sharoitlarni minimal qilish yoki istisno qilishga intilishiga asoslangan bo‘ladi.

1965-yilda mustaqillikni qo‘lga kiritgan Singapur korrupsiya darajasi juda yuqori bo‘lgan mamlakat hisoblanar edi. Korrupsiyani pasaytirish taktikasi bir qator vertikal choratadbirlarga: amaldorlar harakatlarini tartibga solishga, byurokratik jarayonlarni soddalashtirishga, yuqori odob-axloq standartlariga rioya qilinishi ustidan qattiq nazoratga asoslangan. Uning markaziy bo‘g‘iniga aylangan korrupsiya holatlarini tergov qilish bo‘yicha mustaqil. Byuroga fuqarolar davlat xizmatchilarini ustidan arz qilish va yetkazilgan zararni qoplashni talab qilib murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan. Shu bilan bir paytda, qonunchilik talablari kuchaytirildi, sud tizimi mustaqilligi oshirildi (yuqori ish haqi va imtiyozli maqom berilgan holda), pora bergenlik yoki korrupsiyaga qarshi tergov ishlarida ishtirok etishdan bosh tortganlik uchun iqtisodiy jarima choralari joriy qilindi, shuningdek, bojxona xodimlari va boshqa davlat xizmatchilariga nisbatan yoppasiga ishdan bo‘shatishga qadar bo‘lgan qattiq choralar ko‘rildi. Bu iqtisodiyotni qayta tartibga solish, amaldorlar ish haqini oshirish va yuqori malakali ma’muriyat kadrlari tayyorlash bilan uyg‘unlashdi. Hozirgi paytda Singapur korrupsiya yo‘qligi, iqtisodiy erkinlik va taraqqiyot borasida dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning fincha strategiyasiga xos bo‘lgan xususiyat korporatsiya haqida maxsus qonun yo‘qligi hisoblanadi. Korrupsiya qattiq jinoyat turlaridan biri sifatida ko‘rib chiqilgan va qonunchilik, me’yorlar va boshqa nazorat tizimlarining barcha darajalarida tartibga solingan. Amaldorlarning pora olganlik uchun nisbatan yumshoq - jarima to‘lashdan to‘rt yil qamoq jazosiga hukm qilinishigacha jazo belgilanishi Finlandiyaga xos bo‘lgan xususiyat hisoblanadi.

### **17.3-§. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy va me’yoriy asoslari**

Korrupsiyani his etish indeksi 1995-yildan beri hisoblanadi. Tadqiqot bazasi yildan-yilga kengaymoqda. 1995-yilda CPI jahonning 41 mamlakati bo‘yicha, 2003-yilda esa 133 mamlakatni qamrab olgan. Mazkur indeks 2003-yilda 13 ta mustaqil tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan 17 ta ijtimoiy fikrlarni tadqiqot etish natijalariga ko‘ra hisoblangan. Yakuniy ro‘yxatga uchta tadqiqot bilan qamrab olingan mamlakatlarga kiritilgan.

Transparency International xalqaro huquqni himoya qilish tashkiloti tomonidan har yili tuziladigan korrupsiyani his etish indeksida O‘zbekiston 2016-yilda 156, 2017-yilda 157, 2018-yilda esa 158 o‘rinni egallagan. 2018-yilda reytingning birinchi beshtalikka Daniya, Yangi Zelandiya, Finlandiya, Singapur va Shvetsiya kiradi. Ushbu reytingda Qozog‘iston - 124, Qиргизистон-132, Rossiya-138, Tojikiston-152 va Turkmaniston

161-o‘rinni egalladi. Sobiq SSSR tarkibiga kirgan mamlakatlar ichida Estonia birinchi yigirmatalikka kirgan. Korrupsiya darajasining pasayib borayotganligiga Estoniyada elektron hukumatning faol joriy qilinayotganligi sabab bo‘lmoqda. AQSHda Transparency International ekspertlarining baholashicha, 2018yilda korrupsiya holati yomonlashdi. Mamlakatda korrupsiya bo‘yicha ball 71 ballgacha pasaydi va 2011-yildan beri birinchi marta top 20-talikdan chiqib ketdi.

Bunga sabab qilib AQSHda hokimiyatning yuqori pog‘onalarida yetuk normalarning yomonlashuvi degan vaj ko‘rsatilgan. Korrupsiya bo‘yicha global reytingda Janubiy Sudan, Suriya va Somali oxirgi o‘rinlarni egallagan<sup>1</sup>.

Global korruption chaqiriqlar reytingini The Risk Advisory Group (Risk xavflari to‘g‘risida maslahat guruhi) xalqaro tashkilot ham tuzadi. Bu tashkilot Korruption chaqiriqlar-2019 hisobotini e’lon qilgan. Hisobot Korruption chaqiriqlar darajasi («Уровень коррупционных вызовов»), Korrupsiya tahdidil («Угроза коррупции»), - Korrupsiya to‘g‘risidagi ma’lumotlarga erisha olmaslik («Недоступность информации о коррупции») bo‘limlardan iborat.



Korruption chaqiriqlar darajasi indeksi Risk Advisoryning yettida mintaqaviy bo‘limlarining ekspertlari tomonidan tuzilgan. Ular har bir mamlakatni 1) xorijiy investorlarning davlat kontraktlari, litsenziyalari yoki ruxsatnomalarini olish jaryonlarida uchragan korruption holatlari, 2) mahalliy biznes subyektlarining kundalik faoliyati davomida kichik masshtabdagi rasmiy korrupsiya holatlariga duchor bo‘lishlari nuqtayi nazardan baholashgan.

Korruption chaqiriqlar darajasi indeksining uch bo‘limi bo‘yicha Yangi Zelandiya, Avstraliya, Singapur, Birlashgan Qirollik, Irlandiya, Fransiya, Germaniya kabi mamlakatlar korrupsiya daroji eng past bo‘lgan mamlakatlar tarkibiga kiritildi (17.1-jadval)

### **17.1-jadval Korrupsiya daroji eng past bo‘lgan mamlakatlar (2019-yil)<sup>2</sup>**

<sup>1</sup> Transparency: в Узбекистане ситуация с коррупцией ухудшается из года в год//<https://kun.uz/ru/news/>

<sup>2</sup> <https://kun.uz/>.

<b>Korrupsion chaqiriqlar darajasi</b>	<b>Korrupsiya tahdidi</b>	<b>Korrupsiya to‘g‘risidagi ma’lumotlarga erishish qiyinligi (недоступность)</b>
Yangi Zelandiya	Yangi Zelandiya	Yangi Zelandiya
Avstralaliya	Singapur	Avstralaliya
Birlashgan Qirollik (Buyuk Britaniya)	Irlandiya	Birlashgan Qirollik (Buyuk Britaniya)
Fransiya	Germaniya	Fransiya
Singapur	Daniya	Latviya
Latviya	Islandiya	Malayziya
Chexiya Respublikasi	Norvegiya	Chexiya Respublikasi
Estoniya	Finlandiya	Hindiston
Irlandiya	Yaponiya	Italiya
Gonkong	Lyuksemburg	Singapur

Korrupsiya darajasi eng past bo‘lgan mamlakatlar o‘nligiga rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda Singapur, Hindiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar hamda Chexiya Respublikasi, Latviya va Estoniya kabi sobiq sotsialistik lagerga kirgan respublikalar ham kiritilgan.

Korrupsiya darajasi eng yuqori bo‘lgan mamlakatlar o‘nligiga uch bo‘lim bo‘yicha Turkmaniston, Liviya, Somali, Yemen, Markaziy Afrika Respublikasi, Shimoliy Koreya, Kongo Demokratik Respublikasi, Janubiy Sudan, Suriya, Gvineya-Bisau, Eritreya, Afg‘oniston, Laos va Venesula kabi mamlakatlar kiritilgan (17.2-jadval).

## 17.2-jadval

### Korrupsiya darajasi eng yuqori mamlakatlar(2019-yil)<sup>1</sup>

<b>Korrupsion chaqiriqlar darajasi</b>	<b>Korrupsiya tahdidi</b>	<b>Korrupsiya to‘g‘risidagi ma’lumotlarga erishish qiyinligi (недоступность)</b>
Turkmaniston	Liviya	Turkmaniston
Liviya	Somali	Liviya
Somali	Yemen	Somali
Yemen	Markaziy Afrika Respublikasi	Yemen

<sup>1</sup> В каких странах Центральной Азии наиболее высокий уровень коррупции?// <https://kun.uz/ru/news/2019/04/08/mvf-strany-s-vysokim-urovnem-korrupsiyi-sobirayut-menshe-nalogov>

Shimoliy Koreya	Kongo Demokratik Respublikasi	Shimoliy Koreya
Janubiy Sudan	Janubiy Sudan	Janubiy Sudan
Suriya	Suriya	Suriya
Kongo Demokratik Respublikasi	Gvineya-Bisau	Kongo Demokratik Respublikasi
Eritreya	Afg'oniston	Eritreya
Laos	Venesula	Laos

Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, ushgu guruhdagi ko'pchilik mamlakatlarda turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar tufayli krizis holatlari yuz berayotgan, iqtisodiy holati ancha zaif mamlakatlar hisoblanadi. Shuningdek, bu mamlakatlarda tadbirkorlik va xorijiy investityalar kiritilishi uchun noqulay muhit mavjuddir.

The Risk Advisory Group (Risk xavflari to'g'risida maslahat guruhi) xalqaro tashkiloti e'lon qilgan Korrupsion chaqiriqlar-

2019-yil hisobotida Markaziy Osiyo mamlakatlarida korrupsiya darajasi o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra uch ko'rsatkich bo'yicha Qozog'iston 50, Qирг'изистон 52, O'zbekiston 70, Tojikiston 72 va Turkmaniston 96 ball to'plab, global reytingda quyi pog'onalarni egallaganlar ( 17.3-jadval).

### 17.3-jadval

#### Markaziy Osiyo mamlakatlarida korrupsiya darajasi (2019-yil, ball)<sup>1</sup>

Mamlakatlar	Korrupsion chaqiriqlar darajasi	Korrupsiya tahdidi	Korrupsiya to'g'risidagi ma'lumotlarga erishish qiyinligi	Jami
Qozog'iston	28	10	12	50
Qирг'изистон	29	10	13	52
O'zbekiston	38	12	20	70
Tojikiston	39	13	20	72
Turkmaniston	51	14	31	96

Aytish lozimki, 2019-yilning mart oyida O'zbekiston korrupsiyaga qarshi Stambul harakat rejasiga 20-monitoring uchrashuvida tavsiyalarning bajarilishi bo'yicha taraqqiyotga erishganligi uchun eng yuqori reytingini olishga muvaffaq bo'ldi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> <https://kun.uz/ru/news/>.

Korrupsiya darajasini o‘lchashga xizmat qiluvchi CPI indeksi turli mamlakatlar amaldorlarining pora olishga moyilligini ifodalasa, tadbirkorlarning pora berishga moyilligini aniqlash uchun *Transparency International* pora beruvchilar indeks – (*Bribe Payers Index – VPI*) dan foydalanadi. Bu indeks ham 10 ballik shkala bilan o‘lchanadi. Qanchalik bu ball past bo‘lsa, eksporter kompaniyalar shunchalik pora berishga moyil bo‘ladilar hamda amaldorlarni sotib olishga yuqori darajada intilishlarini ko‘rsatadi. Bu indeks bo‘yicha Shvetsiya korrupsiya darajasi eng past mamlakat hisoblanadi.

CPI va BPI indekslaridan tashqari turli mamlakatlarda korrupsiya rivojlanishini taqqoslash uchun jahon korrupsiya barometri (*Global Corruption Barometer*), iqtisodiy erkinlik indeksi (*Index of Economic Freedom*), shaffof emaslik indeksi (*Opacity Index*) va boshqa indekslardan foydalilanadi. **O‘zbekistonda korrupsiya dinamikasi.** O‘zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashda uzoq muddatli ijobiy dinamikani namoyish etuvchi 16 ta davlatdan biridir.

Transparency International xalqaro tashkilotining Korrupsiyani his etish indeksi bo‘yicha, 2010-yildan beri O‘zbekiston har yili o‘z mavqYIni yaxshilamoqda. 2020-yilda O‘zbekiston 25 ball bilan 180 o‘rindan 153-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2010-yilda 16 ball bilan 172-o‘rinni egalladi<sup>2</sup>.

Transparency International tashkilotining 2016-yildagi global Korrupsiya barometriga ko‘ra, O‘zbekistondagi respondentlarning atigi 18 foizi pora bergani haqida xabar bergen va respondentlarning atigi 23 foizi korrupsiyani mamlakatdagi uchta eng jiddiy muammolardan biri sifatida qayd etgan.

Respondentlarning so‘rovlari ko‘ra, yo‘l harakati xavfsizligi politsiyasi (so‘ralganlarning 17 foizi ularga pora bergenligini tan olgan) va ta’lim hamda tibbiyot xodimlari (respondentlarning 16 foizi) eng korruptionerlardir. Respondentlarning korrupsiya to‘g‘risida xabar berishiga nima to‘sinqinlik qiladi, degan savolga, 39% ular bu savolga javobni bilmasliklarini aytishdi va ikkinchi eng keng tarqalgan javob, 17% olgan holda shunday javob berdi: salbiy oqibatlardan qo‘rqish tufayli<sup>1</sup>.

Xalqaro standartlarni hisobga olgan holda, korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha huquqiy va institutsional asoslarni takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida<sup>2</sup>gi Qonuni 2017-yil 4yanvarda kuchga kirdi. Ushbu Qonun va kodeksdaga taalluqli moddalarga muvofiq jismoniy shaxslar tomonidan pora berib o‘z tomoniga og‘dirish ozodlikdan mahrum qilish yoki jarimalar solish bilan jazolanadi.

Ushbu qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari,

---

<sup>1</sup> <https://kun.uz/ru/news/>.

<sup>2</sup> Бахтишод Хамидов. Измерение коррупции // Экономическое обозрение №4 (244) 2020. <https://review.uz/ru/bjw>

vakolatli davlat organlari tizimi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlarining, fuqarolar va ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi, shuningdek, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik masalalari aks etgan.

Qonun bilan qamrab olingan chora-tadbirlar doirasi O‘zbekistonning siyosiy xohish-irodasi va korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining jiddiyligini tasdiqlaydi. Qonun yagona bir butunligicha barcha korrupsiyaga qarshi kurashish elementlarini o‘zida qamrab olgan. Qonunga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tizimlilik;
- davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- javobgarlikning muqarrarligi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etiladi. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlar va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etildi.

Idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta’minlash;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularga imkon beruvchi

sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;

- korrupsiyaning holati va tendensiyalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

- hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidalgi O‘zbekiston Respublikasi qonun-qoidalarining samarali ijrosini ta’minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida 2017-2018-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi tasdiqlandi<sup>1</sup>. Shunday qilib, O‘zbekiston antikorruption siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish uchun institutsional bazani mustahkamlash maqsadida muhim qadam bo‘ldi. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida:

- qonuniylik va huquq tartibotni ta’minlash;

- davlat xizmati organlirining faoliyatida oshkorlik va shaffoflikni ta’minlash;

- jamiyatda korrupsiyaga nisbatan mutlaq murosasizlik madaniyatiga erishish;

- xalqning davlat hokimiysi oganlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga erishiladi.

Jamiyatda aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi – demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Mamlakatimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan aholining huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati darajasiga bog‘liqdir. Shaxsning siyosiyhuquqiy faolligi, uning chinakam fuqaroviylar munosabati, demokratik islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi davlatimiz o‘z oldiga qo‘ygan buyuk maqsadlarga erishishining muhim omilidir.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori —Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidalgi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 5-son, 62-modda.

Huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqr hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir.

Bunda g‘oyat muhim jihat – jamoatchilikka davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari faoliyati haqida ma’lumot berish, davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlardan, birinchi navbatda, inson huquq va erkinliklari, fuqarolarning qonuniy manfaatlariga doir qarorlardan aholini keng xabardor qilib borish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq.

2019-yil 27-may kuni O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi Prezident farmoni qabul qilindi. Farmonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy obro‘-e’tiborini oshirishga qaratilgan.

Farmonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari o‘rta muddatli istiqbolda quyidagilardan iborat ekani belgilandi:

- sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, sudyalarga har qanday tarzda qonunga xilof ravishda ta’sir o‘tkazish shart-sharoitlarini istisno etish;
- davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko‘tarishning shaffof tartibiga asoslangan davlat xizmati tizimini shakllantirish, ular uchun cheklolar, taqilashlar, rag‘batlantirish choralari hamda korrupsiyaning oldini olish boshqa



**Pora  
harakat yoki  
harakatsizlikka  
erishish  
uchun boshqa shaxsga  
pora taklif etgan  
shaxs pora  
beruvchi sifatida  
javobgarlikka tortiladi.**



mexanizmlarining aniq ro‘yxatini belgilash;

- davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va ularning ish haqi yetarli darajada bo‘lishini ta’minlash, shuningdek, davlat xizmatini o‘tashda manfaatlar to‘qnashuvini hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- korrupsiya bilan bog‘liq huquqbazarliklar to‘g‘risida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish;
- davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish;

• fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta'minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni tayyorlash, o'tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalb qilish.

2019-yil 1-iyuldan boshlab davlat organlari zimmaga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya xavf-xatarlarini vaqtiga vaqtiga bilan majburiy baholab boradi, uning yakunlari bo'yicha:

• korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funksiyalari (vakolatlari)ning ro'yxatini shakllantiradi;

• idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari ijrosining har choraklik monitoringini amalga oshiradi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimum darajaga tushirish choralarini ko'radi;

• Idoralararo komissiya bilan kelishgan holda har yilgi idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlarini tasdiqlaydi;

• har yili idoralararo komissiyaga tegishli organlar va tashkilotlar faoliyatida, shu jumladan, qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish orqali korrupsiya xavfxatarlariga barham berish bo'yicha takliflarni kiritadi.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari korrupsiya xavf-xatarlarini o'z vaqtida aniqlamaganliklari va tegishli baho bermaganliklari, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni takroran sodir etish holatlariga yo'l qo'yanliklari yuzasidan shaxsan javobgar bo'ladi.

Qabul qilinishi ko'zda tutilayotgan hujjatlar va choratadbirlar, avvalambor, oldimizda turgan buyuk maqsadlarimizga bosqichma-bosqich erishish, bu yo'lda duch keladigan barcha g'ov va to'siqlarni yengish jarayonida har bir o'zbekistonlik uchun eng ta'sirchan qurolda aylanadigan kuch – bu xalqimizning huquqiy ongini, tafakkurini tarbiyalash, huquqiy madaniyatini oshirish, odamlar qalbida erkinlik va mas'uliyat tuyg'ularini qaror toptirishga xizmat qiladi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish bosh maqsadimiz ekan, huquqiy savodxonlikning mukammal zamonaviy tizimini yaratish birinchi darajali vazifalarimizdan biri bo'lmosg'i lozim. Darhaqiqat ushbu tadbirlar pirovard natijada, jamoat tartibi va intizomini mustahkamlashga, milliy huquqiy davlatchilikni, yuqori darajadagi huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi muqarrar. Umuman olganda, ushbu davlat dasturi mamlakatimizdagi barcha davlat organlari va jamoat birlashmalarining jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishni yanada takomillashtirish, aholi o'rtasida huquqiy bilimlar targ'ibotini kuchaytirish borasidagi ishlarini yanada jadal, keng miqyosda va tartibli tashkil etishlari uchun asos bo'ladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Korrupsiya jamiyat rivojiga g‘ov bo‘layotgan illat – bu korrupsiya balosidir|. Davlatimiz rahbarining ushbu so‘zlarining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Jamiyatda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar nimalardan iborat?
3. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy va me’yoriy asoslari to‘g‘risida qisqacha so‘zlab bering.
4. Korrupsiyaning namoyon bo‘lish shakllari nima?
5. Korrupsiyaga qarshi kurashning dunyo mamlakatlari tajribasi haqida gapirib bering.
6. Jamiyatda korrupsiyani butunlay yo‘q qilish mumkinmi?
7. Korrupsiya davlat va jamiyat hayotida qanday salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi?
8. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini aytib bering.
9. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyaning asosiy vazifalarini aytib bering.

## **18 mavzu. HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH**

### **Reja**

**18.1-§. Davlatning hududiy siyosati va mintaqalashtirish muammolari**

**18.2-§. Hududlarni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish darjasini bo‘yicha tabaqlaganishi.**

**18.3-§. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tahdidlarni tizimlashtirish va baholash**

### **18.1-§. Davlatning hududiy siyosati va mintaqalashtirish muammolari**

Samarali mintaqaviy siyosatni o‘tkazish mintaqalar ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishini chuqur tahlil qilish va tashxislashni talab qiladi. Mintaqalashtirish muammosi – bu O‘zbekiston

Respublikasi iqtisodiy makonining yagonaligini saqlab qolishdir. Shu boisdan mintaqaviy darajadagi iqtisodiyotda iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalar markaz bilan muvofiqlashlashtirgan holda hal etiladi.

**Mintaqaviy siyosat** - hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. Uning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o‘rtasida moddiy ne’matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruva vazifalarini

kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o‘z-o‘zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishi lozim.

Mintaqaviy siyosatning maqsadi mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalaqit beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdan avval, birinchi navbatda, mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari o‘rganiladi. Bunda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- tabiiy-iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakatning ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri;
- mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;
- mintaqalarning chekka hududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko‘payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa, o‘z navbatida, bozorning torayishiga olib keladi. Transport va kommunikatsiya aloqalarining yomonligi chetda joylashgan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini qiyinlashtiradi;
- u yoki bu turdagи mahsulotlarni ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi texnologik rivojlanish bosqichi (xomashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar);
- mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va h.k.;
- ishlab chiqarish infratuzilmasi: aeroportlar, transport tarmoqlari, sanoat maydonlari, telekommunikatsiya tizimlari va h.k. bilan ta’milanishi;
- ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darajasi, aholining ma’lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi va h.k.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish dastaklari. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko‘pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosat kapital qo‘yilmalarni qayta taqsimlanishni ta’minalashga xizmat qiladigan quyidagi uch yo‘nalishda olib borilmoqda:

Birinchi yo‘nalish – kam rivojlangan va sanoat taraqqiyoti past mintaqalarda infratuzilma obyektlarini barpo etish va ularning boshqa tumanlar bilan aloqalarini yaxshilashdan iborat. Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat bevosita ishlab chiqarishga aralashmaydi, lekin tadbirkorlarning samarali faoliyat

O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbollari  
respublikaning har bir tuman va viloyat  
imkoniyatlardan umum davlat va hududiy  
manfaatlarda oqilonaga foydalana olishga bog‘liq.



ARXIV.UZ

yuritishlari uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish davlatning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi. Avtomobil va temir yo'llar, elektr tarmoqlari, gaz va suv quvurlari, aloqa tarmoq mavjudligi bunday hududlarda tadbirkorlikning rivojlanishiga katta yordam beradi. Hozirda mamlakatimizda qishloq aholi punktlarini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinci yo'naliш – yuqori darajada rivojlangan va sanoati taraqqiy etgan mintaqalar, xususan, yirik shaharlarga nisbatan cheklash usullarini qo'llash (ma'muriy yoki moliyaviy cheklashlar orqali amalga oshiriladi). Bunday mintaqalarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishga chek qo'yish orqali hududiy tafovutlar kuchayishining oldi olinadi. Mazkur usul dunyoning deyarli barcha taraqqiy etgan mamlakatlarida aglomeratsiya markazlariga nisbatan keng qo'llaniladi. O'zbekistonda yirik va katta shaharlarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishning oldini olish, kichik shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Uchinchi yo'naliш – muammoli mintaqalarga sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadida xorijiy va xususiy sarmoyalarni jalg etishni rag'batlantirish. Mazkur yo'naliш iqtisodiyotning turli tarmoqlariga mansub korxonalarni joylashtirishda davlat tomonidan muhim e'tibor beriladigan asosiy yo'naliш hisoblanadi.

Davlat mintaqaviy siyosatining asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- mamlakatda hududiy siyosatning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratish;
- hududlarning iqtisodiy imkoniyatlaridan qat'i nazar, yagona minimal ijtimoiy standartlar va teng ijtimoiy himoyani ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlash;
- hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun shartsharoitlarni tenglashtirish;
- atrof-muhit ifloslanishini to'xtatish hamda uning salbiy oqibatlarini yo'qotish, hududlarni kompleks ekologik himoya qilish;
- o'ta muhim strategik ahamiyatga ega hududlarni ustuvor rivojlantirish;
- hududlarning tabiiy-iqlim xususiyatlaridan to'liq foydalanish;
- o'zini-o'zi boshqarish kafolatlanishini ta'minlash.

Yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqqan holda mintaqaviy siyosatning vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mintaqalarda ko'p ukladli iqtisodiyot, shu jumladan, kichik tadbirkorlikni shakllantirish, tovar, mehnat va

kapitalning umum davlat va hududiy bozorlari hamda institutsional va bozor infratuzilmasi shakllanishiga ko'maklashish;

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonidagi katta farqlarni kamaytirish, ularda aholi farovonligini oshirishning o'z iqtisodiy bazalarini mustahkamlovchi sharoitlarni bosqichmabosqich o'tish;
- hududlar iqtisodiy tuzilmasining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan darajasiga erishish, bozor sharoitida ularning raqobatbardoshligini oshirish; hududlararo infratuzilmaviy tizimlarni (transport, aloqa axborot va boshqalar) rivojlantirish;
- ekologik va favqulodda holatlarga uchragan, ishsizlik darjasini yuqori bo'lgan, demografik va migrantsion muammolar mavjud hududlarga davlat tomonidan yordam ko'rsatish.

Davlatning mintaqasi iqtisodiyotini tartibga solishi bevosita, to'g'ridan-to'g'ri aralashishi ma'muriy vositalardan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu usullar davlat hokimiyyati kuchiga tayanish, ruxsat berish, man qilish, majburlash choralarini o'z ichiga oladi.

Bilvosita tartiblash turli iqtisodiy chora-tadbirlar, vosita va dastaklar orqali amalga oshiriladi. Hududiy takror ishlab chiqarish jarayonlarini ma'muriy uslublar orqali tartibga solish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- hududiy takror ishlab chiqarish subyektariga davlat boshqaruving yuqori organlari tomonidan mavjud holat, vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi ma'muriy farmoyishlar va qarorlar qabul qilish;
- hududdagi korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalarni ishlab chiqish;
- tavsiyalar, taftish, masalan, moliyaviy-byudjet tekshirishlar, nazorat, masalan, sanitarn-epidemiologik nazoratni amalga oshirish.

Ma'muriy usullar o'rnatilgan tartib-qoidalarni buzgan ayrim korxonalarga nisbatan majburlash imkoniyatlarini ham ko'zda tutadi. Ma'muriy usullar yordamida mahalliy boshqaruvi organlari davlat mulkini xususiyashtirish va boshqarish jarayonlarini tartibga soladi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, hududiy tabiiy resurslaridan foydalanish hamda ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq masalalarni hal qiladi (18.1-jadval).

### 18.1-jadval

#### Mintaqaviy takror ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullar

Ma'muriy usullar	Iqtisodiy usullar
------------------	-------------------

Boshqarish qarorlarini tayyorlash va amalga oshirish uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan aniq manzilli topshiriqlar berishga asoslanadi	Umumiy iqtisodiy qonung qoidalarga, tamoyillarga tayanadi
Boshqariladigan obyektlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishda, boshqarish organining manfaatini ustuvor ravishda ko'zlashda ifodalanadi	Boshqariladigan obyektlarga bilvosita ta'sir ko'rsatiladi, turli mulkchilik shakllardagi korxonalarning iqtisodiy manfaatlari hisobga olinadi
Qabul qilinadigan qarorlar uchun asosiy mas'uliyat boshqarish organi zimmasida bo'lib, boshqariladigan obyektning huquqlari cheklangan	Xo'jalik subyektari to'liq mustaqillikka ega bo'lishi, o'z faoliyati va uning oqibatlari uchun yuqori mas'uliyatli bo'lishi taqozo etiladi
Ma'muriy farmoyishlar, rejalar direktiv xarakterga ega bo'lib, ularni bajarish majburiy hisoblanib, undan chetlanishga yo'l qo'yilmaydi	Xo'jalik subyektarini o'zining iqtisodiy manfaati nuqtayi nazaridan va iqtisodiy riskni e'tiborga olgan holda muqobil qarorlar tayyorlashga va oqilona yechimlar topishga undaydi

Mintaqaviy takror ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga solishning iqtisodiy usullari xo'jalik subyektarining iqtisodiy manfaatlari orqali, soliq imtiyozlari, kreditlar va subvensiyalar hamda boshqa dastaklar yordamida qo'llaniladi. Yuqori boshqarish organlari belgilagan va tasdiqlagan qoidalar, nizomlar doirasida xo'jalik subyektari, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatiga bilvosita ta'sir ko'rsatib, ularga keng vakolatlar beriladi.

Respublikamizning turli hududlari maydoni, aholi soni, tabiiy-iqlim sharoiti, infratuzilma obyektlari bilan ta'minlanishi, shaharlashuv darajasi, aholining turmush sharoiti va boshqalarga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladi. Jumladan, mamlakat ma'muriy-hududiy birliklari o'rtaсидаги aholi zichligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent viloyatining Toshkent tumaniga to'g'ri kelsa (1 km maydonda 767 kishi), aksincha, eng siyrak mintaqa Navoiy viloyatining Tomdi tumani (1 km maydonda 0,58 kishi) hisoblanadi.


Aholi tabiiy ko'payishida shahar va qishloq o'rtaсидаги tafovutlar yaqqol sezilib turadi. Xususan, yirik, sanoatlashgan va mahalliy millat vakillari nisbatan kam istiqomat qiladigan shaharlarda aholi tabiiy ko'payishi qishloq joylariga nisbatan bir necha bor past ekanini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Toshkent viloyatidagi Olmaliq,

Ohangaron, Chirchiq shaharlarida tabiiy o'sish respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan 3-5 marta kamdir.

Samarqand viloyati Urgut tumani aholi soni bo'yicha mamlakat ma'muriy-hududiy birliklari orasida eng yuqori o'rinni egallaydi. U yerda 335 ming kishi istiqomat qiladi. Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani esa, aksincha, aholisi eng kam hudud hisoblanadi. U yerda 13,6 ming kishi yashaydi. Umuman, har bir tuman yoki shaharning o'ziga xos xususiyatlari haqida bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Mamlakatning mintaqaviy-iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning ushbu jihatlari albatta hisobga olinishi lozim.

Mintaqaviy siyosatning muhim vazifalaridan yana biri – iqtisodiy kooperatsiya va mintaqalararo hududiy mehnat taqsimotini takomillashtirishdan iborat. Mintaqalar rivojlanishidagi eng muhim vazifalardan biri – turli hududlar aholisining turmush darjasini bo'yicha tafovutlarni bartaraf etishdan iborat. Ushbu vazifani bajarishda rivojlanish darjasini past bo'lgan hududlarni rivojlantirish uchun maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiiy resurslarga boy mintaqalarda hududiy ishlab chiqarish mintaqalarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:



**18.1-rasm. Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi.**

## **18.2-§. Hududlarni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish darjasini bo'yicha tabaqlanishi.**

Milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun to'sqinlik qiladigan sharoitlar vujudga keladigan holatlarda iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar paydo bo'ladi. Iqtisodiy

barqarorlikni baholash uchun mintaqalarning holatini va muammolarini depressiv, inqirozli hamda istiqbolli mintaqalarni aniqlash zarur. Buning uchun mintaqalarning barqarorlik indikatorlarini aniqlash kerak. Xalqaro taraqqiyot va rekonstruksiyalash banki (XTRB) 26 ta, xalqaro valyuta fondi (XVF) 10 ta makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni taklif etadi. Barcha indikatorlarni funksional guruhlarga bo'lib chiqish mumkin.

### **Byudjetga oid guruh:**

- mintaqaning konsolidatsiyalashgan byudjet hajmi;
- soliq stavkasi;
- soliqlarning yig'iluvchanligi;
- transferlar hajmi.

### **Moliyaviy ko'rsatkichlar guruhi:**

- inflatsiya sur'atlari;
- mintaqalarga investitsiyalarning jalb qilinishi;
- mintaqalarning eksporti va importi saldosи;
- valyuta kursining xarid qobiliyatiga ta'siri;
- mintaqaning kreditorlik va debitorlik qarzlari.

### **Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar guruhi:**

- mintaqaning yalpi hududiy mahsuloti;
- mintaqaning jon boshiga to'g'ri keladigan mahsuloti;
- mintqa yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atlari;
- mehnat unumdorligi;
- narxlар darajasi.

### **Ijtimoiy ko'rsatkichlar guruhi**

- uy-joy qurilishi;
- aholining jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarining o'rtacha qiymati;
- daromadlari yashash minimumidan past bo'lgan aholining ulushi;
- aholi daromadlari tengsizligi darajasi (detsil koeffitsiyenti);
- ishsizlik darajasi;
- uy-joy fondlarini obodonlashtirish darajasi;
- chaqaloqlar ulushi darajasi;
- umr ko'rish darajasi.

### **Pul - kredit ko'rsatkichlari guruhi:**

- banklarning xususiy kapitallari hajmi;
- banklarning likvidlik darajasi;
- banklarning kredit layoqati darajasi;
- kredit stavkasi;
- bank sohasining tarkibi;
- mintaqaning monetizatsiyakoeffitsiyenti (pul massasining YAHMga nisbati).

**Real iqtisodiyot indikatorlari:**

- mintaqalar iqtisodiy rivojining mustaqillik darajasi;
- asosiy ishlab chiqarish fondlari va infratuzilmaning eskirish darajasi;
- texnik va texnologik innovatsiyalar miqdori.

**Ekologik ko‘rsatkichlar guruhi:**

- suv havzalarining ahvoli;
- chiqindilar darajasi va h.k.

Mintaqaning iqtisodiy barqarorligini baholash uchun umumiy va maxsus uslublardan foydalaniladi. Umumiy uslublarga tizimli, genetik, majmuaviy, muammoli uslublar kiradi. Maxsus uslublarga eng keng ommalashgani qiyosiy tahlil hisoblanadi. U tahlil qilinayotgan obyektlarning o‘xshashliklari va farqlarini topish imkonini beradi. Mintaqalarni tasniflash (tipologiyalash) uchun yetarlicha miqdordagi indikatorlar kerak, bunda mintaqalarni bir nechta ko‘rsatkichlar bo‘yicha guruhlash mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining ishlab chiqaruvchi kuchlarni o‘rganishda uchta indikator:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning dinamikligi (bir tekis borishi);
- tabiiy-geografik sharoitlari (iqlimi, mamlakat markaziga nisbatan joylashuvi, johon bozori resurslariga tortilishi va h.k. qo‘llagan holda ishlab chiqilgan) qo‘llanadigan uslubiyat.

Ushbu indikatorlar asosida uch turdagи muammoli mintaqalar ajratib ko‘rsatiladi, ularga nisbatan alohida tartibga solish uslublarini: qoloq, depressiv va inqirozli uslublarni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini samarali boshqarish bo‘yicha ishlab chiqilgan qat‘iy metodik ko‘rsatma bo‘yicha hududning rivojlanishini yagona tizim asosida qurish, shuningdek, respublika va mahalliy byudjetlarning shakllanishida hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirish, hududda yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ishsizlikni pasaytirish, aholining daromad manbaini oshirish orqali tovar va

xizmatlarga bo‘lgan talabni shakllantirish va hududiy imkoniyatlardan (hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati) samarali foydalanishda hamda boshqarishda muhim hisoblanadi.

Mamlakat YAIM hajmidagi hududning ulushi uning ushbu mahsulot yaratishdagi o‘rnini, uning iqtisodiy o‘sish sifatidagi o‘zgarishlarni belgilovchi asosiy ko‘rsatkichdir. O‘zbekiston Respublikasi hududlarining yalpi hududiy mahsulot sifatidagi o‘zgarishlarga va iqtisodiy o‘sish darjasini bo‘yicha, ya’ni YAIMni aholi jon boshiga ishlab chiqarish ko‘rsatkichi bo‘yicha 3 ta guruhga ajratish mumkin Birinchi guruhga aholi jon boshiga YAIM ishlab chiqarishi bo‘yicha respublika ko‘rsatkichidan, (100%) dan yuqori bo‘lgan, ikkinchi guruhga 81-100% gacha, uchinchi guruhga 80% dan kam ulushga ega bo‘lgan hududlar kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari iqtisodiy rivojlanishi darajalari bo‘yicha keskin farq qiladi. Aholi jon boshiga YAIM ishlab chiqarish ko‘rsatkichi bo‘yicha qiyoslanganda iqtisodiy o‘sish sifatining eng yuqori va eng quyi darajada rivojlangan viloyatlar ko‘rsatkichlari o‘rtasida keskin farq mavjud. Jumladan, birinchi guruh hududlarda uchinchi guruh hududlarga nisbatan bu ko‘rsatkich 3,0 marta yuqori.

Birinchi guruh eng yuqori iqtisodiy o‘sish sifatiga ega bo‘lgan viloyatlarda, respublika aholisining 19,3% yashaydi va respublika YAIMning 29,8% ishlab chiqariladi, uch guruh viloyatlarda esa, respublika aholisining 74,9% yashaydi va respublika YAIMni 54,1% ishlab chiqariladi. O‘zbekiston Respublikasida YAIM ishlab chiqarish asosiy o‘rinni yettita viloyat egallaydi. Bular Toshkent shahri, Farg‘ona, Toshkent, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand va Andijon viloyatlaridir. Bu viloyatlarda 2020-yilda respublikamiz YAIMning 56,7% ishlab chiqarilgan.

## **18.2-jadval**

### **O‘zbekiston Respublikasi viloyatlarining aholi jon boshiga YAIM ishlab chiqarish bo‘yicha guruhash (2020-yil joriy baholarda respublika ko‘rsatkichiga nisbatan)<sup>1</sup>**

Hududlarning aholi jon boshiga YAIM ishlab chiqarish ko‘rsatkichi bo‘yicha Respublika ko‘rsatkichiga nisbatan guruhash	Respublika ko‘rsatkichiga nisbatan % hisobida		
	Aholi jon boshiga YAIM % da	YAIM hajmi % da	Aholisi % da
1-guruh.			

<sup>1</sup> O‘zbekiston respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. – T.: 2020. – B.19.

Respublika ko‘rsatkichiga nisbatan (100%) yuqori bo‘lgan	154,2	29,8	19,3
A) Navoiy viloyati	181,8	6,3	2,9
B) Toshkent sh	173,2	14,1	7,6
V) Toshkent viloyati	107,8	9,4	8,7
2-guruh			
81 dan-100% gacha	90,7	6,2	5,8
A) Buxoro viloyati	90,7	6,2	5,7
3-guruh			
80% gacha	65,6	54,1	74,9
A) Sirdaryo viloyati	80,6	2,9	2,5
B) Qashqadaryo viloyati	72,2	7,8	9,7
V) Andijon viloyati	72,2	7,3	9,2
G) Jizzax viloyati	71,4	3,9	4,1
D) Xorazm viloyati	67,3	3,2	5,5
J) Samarqand viloyati	67,0	7,9	11,4
Z) Qoraqalpog‘iston resp.	61,8	3,8	5,6
I) Farg‘ona viloyati	55,7	7,2	11,1
K) Surxondaryo viloyati	54,2	4,8	7,7
L) Namangan viloyati	53,8	5,3	8,3

Tahlil natijalariga ko‘ra mintaqalarning yalpi hududiy mahsulot sifatidagi o‘zgarishlar darajalari bo‘yicha keskin farqlarning mavjudligiga quyidagilar sabab bo‘lganligini ko‘rsatadi:

- mintaqalarda industrial rivojlanishning turli xil darajadaligi;
- mintaqaning jo‘g‘rofiy joylashuvi, tabiiy iqlimi va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tarmoq tarkibining turli xilligi;
- iqtisodiyotda jami aholi soniga nisbatan bandlik darajasining turlicha ekanligi;
- mintaqalar mehnat salohiyatining sifati va undan foydalanish samaradorligidagi farqlar mavjudligi.

Mintaqalarning yalpi hududiy mahsulot sifatidagi o‘zgarishlar darjasasi bo‘yicha keskin farqlarning eng asosiy sababi, ular industrial rivojlanish darajasining turlicha ekanlidir. 2005-2020-yillarda yalpi hududiy mahsulot sifatidagi o‘zgarishlar aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish darjasasi past bo‘lgan viloyatlarda nisbatan

sezilarsiz darajada bo'lsa-da, industrial rivojlanish darjasini yuqori bo'lgan guruhlar tomon siljish tamoyillari kuzatilmogda. 2020-yilda industrial rivojlangan hududlarning YAIM dagi hissasi 2005-yilgi ko'rsatkichga nisbatan pasaygan. Bu yerda shuni ham ta'kidlash lozimki, alohida hududlarning industrial rivojlanish darjalardagi farqlarini kamaytirishga faqatgina ularning mavjud ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish orqali erishish mumkin.

Hududlar o'rtasida rivojlanish darajasida keskin farq mavjudligini me'yordagi hol deb bo'lmasada, lekin ularning rivojlanish darajalarini tenglashtirishga asosiy maqsad sifatida qarash ham kerak emas. Agar rivojlangan hududlarda industrial rivojlanish uchun barcha tabiiy-iqtisodiy sharoitlar mavjud bo'lib, alohida hududlarning iqtisodiy rivojlanish darjalardagi farqlarni kamaytirish maqsadida mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan unumli foydalanilmaslik bu mamlakatning umumiyligi iqtisodiy taraqqiyot darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatining jug'rofiy joylashuviga, yer va suv resurslari, transport yo'llari, yuqori malakali kadrlarning ko'pligi, yuqori iqtisodiy o'sish sifati uchun yaxshi tabiiy iqtisodiy sharoit hisoblanadi. Hududlar iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha farqlarning ortishida asosiy kapitalga kiritilgan yalpi investitsiyalarning ulushi ham o'z o'rni ega. Masalan, 2020-yilda asosiy kapitalga yo'naltirilgan yalpi investitsiyalarning 19,0% Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda.

Tadqiq qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biri hududlarning iqtisodiy o'sish sifati darjasini bo'yicha tabaqlanishi dinamikasidir. Bu ko'rsatkichni aniqlashning asosiy usuli bu variatsiya koeffitsiyentini hisoblashdir. Bunda miqdor o'zgarishlarning o'rtacha ko'rsatkichga nisbati foiz hisobida aniqlanadi. U yoki bu davrda ushbu koeffitsiyentning kamayishi hududlar iqtisodiy rivojlanish darajasining yaqinlashganligini bildiradi va aksincha, koeffitsiyentning o'sishi farqlarning ortishini ko'rsatadi.

Depressiv mintaqalar so'nggi yillarda asosiy tarmoqlida ishlab chiqarishning pasayishi va mintaqadagi ishlovchilarining umumiyligi sonidan band bo'lgan yoki mintaqaning yalpi mahsulotida shu tarmoqning ulushi kam bo'lgan qismini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi notekislikni ularning respublika yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqarishdagi hissalaridagi farqlarni tahlil qilish orqali ifodalash mumkin. 2020-yilda Respublika bo'yicha YaIMning shakllanishida Toshkent shahri 14,6 % ulush bilan eng katta hissa qo'shdidi. Toshkent viloyati 9,8 % va Samarqand viloyati 7,3 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rnlarni egallab turibdi. Respublika YaIMni shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo (2,0 %), Jizzax (3,0 %), Xorazm viloyatlariga (3,7 %) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,7 %) to'g'ri kelmoqda (9.1rasm).

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, YaIMni shakllantirishda YaIM ning ulushi Qoraqalpog'iston

Respublikasining, Xorazm, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining eng past darajadadir. Bu hol mazkur hududlarning katta-kichikligi, ulardagи YaIM hajmi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining boshqa hududlardagiga qaraganda birmuncha orqada qolayotganligi bilan izohlanadi.

Ammo bu ko'rsatkich ular o'rtasidagi farqlarni to'liq ifodalay olmaydi. O'zbekistonda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi farqlanish darajasini YaHM, sanoat va boshqa tarmoqlarda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar hajmining o'rtacha respublika darajasiga nisbatan hisoblangan indeks bo'yicha tahlil qilish mumkin. Tahillilar shuni ko'rsatmoqdaki, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha respublika hududlari o'rtasidagi farqlanish variatsiyasi 2010-yildagi 5,1 martadan 2020-yilda 3,6 martaga kamaygan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori darajada rivojlangan hudud bilan eng quyi pog'onadagi hudud o'rtasidagi farq .2010-yilda 16,5 martadan 2020-yilda 12,8 martaga, shu davrga mos ravishda aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishdagi farq 12,6 martadan 11,8 martaga, pullik xizmat ko'rsatish bo'yicha 14,1 martadan 7,8 martaga kamaygan.

Mintaqalar rivojini majmuaviy baholash uchun ko'p o'lchamli qiyosiy tahlil uslubini qo'llash mumkin, uning yordamida har qanday mintaqqa matritsa (a u) ko'rinishida yozilgan indikatorlar majmui asosida o'rganiladi. So'ng indikatorlarning eng yaxshi qiymatlari tanlab olinadi va eng yaxshi indikatorlar matritsasi (a i ymax) yaratiladi. Keyin esa ay ko'rsatkichlari ay max ga bo'linadi:

$$X_{ij} = \frac{aij}{ai_{max}}$$

Mintaqaning reyting bahosi quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$R_i = V K_1 X_{1i} + K_2 X_{2i} + \dots + K_n X_{ni}$$

Reyting baholarini hisoblab chiqish natijasida mintaqalarga boshqa mintaqalar orasida o'rin beriladi. Xorij amaliyotida mintaqalarni ranjirlash natijalarini qo'shib chiqish usulidan foydalilanadi, u avvalo, mintaqaning har bir indikator bo'yicha darajasini aniqlanshni ko'zda tutadi. Mintaqaning umumiyligi barcha indekatorlar bo'yicha o'rinalar yig'indisi bilan belgilanadi. Eng past natijaga erishgan mintaqqa eng yuqori reytingga ega bo'ladi. Mintaqaning barqarorligini oshirish uchun quydagilarni bajarish zarur:

1. Mintaqasi iqtisodiyotining real sektorini innovatsion rivojlantirish uchun zarur molivayviy sharoitlarni yaratish;

2. O‘zbekiston Respublikasi subyektlarining markaz bilan iqtisodiy va moliyaviy muammolar bo‘yicha hamkorlik qilishi;

3. Barcha faoliyat sohalarida xufyona iqtisodiyotni va korrupsiyani namoyon bo‘lishiga barham berish.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning eng dolzarb muammolariga quyidagilar kiradi

### IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI



#### 18.2-rasm. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning dolzarb muammolari

Mintaqaning hayot kechirish qobiliyatini va iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun iqtisodiyotning turli sohalarida o‘z vaqtida inqirozli muammolarning oldini olish kerak. Bular quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- demografik vaziyatdagi miqdor va sifat o‘zgarishlari;
- mintaqada ekologik vaziyatlarni yomonlashtiruvchi obyektlarni joylashtirish;
- mintaqaga yalpi mahsulotini 50-60% dan ortiqqa pasaytirish;
- ishsizlar darajasining 15% dan yuqori bo‘lishi;
- mintaqada ishlab chiqarish yo‘nalishining tarkibiy ishsizlikka va kadrlarning ommaviy ravishda o‘z mamlakatlarini taraqqiyotiga olib keluvchi o‘zgarishlar;
- ishchi kuchi ortiqcha bo‘lgan mintaqalarda millatlararo va ijtimoiy zo‘riqishini keltirib chiqaruvchi migrantlarning paydo bo‘lishi;

- mintaqalarning markaz bilan aloqalarga haddan tashqari (60% va undan ortiq) bog'lanib qolishi;
- infratuzilma obyektlarini qurishda oqsash, mintaqaning tabiiy resurslaridan foydalanish natijasida ekologiyaning yomonlashuvi;
- moliyaviy resurslarning yetarlicha ta'minlanmaganligi;
- infratuzilma obyektlari bilan yetarlicha ta'minlanmaganlik.
- ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'tkazish tamoyillari:
- iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- samaradorlik;
- ijtimoiy yo'naltirilganlik.

Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari mintaqalarda quyidagi qo'shimchalar zarur:

- geosiyosiy xususiyatlar;
- aholi mentaliteti (o'ziga xosligi);
- tabiiy-geografik xususiyatlar.

Mintaqalar o'rtaсидаги qarama-qarshiliklar quyidagilarda namoyon bo'lishi mumkin:

- Tabiiy va iqtisodiy sharoitlarning tabaqlashuvida.
- Milliy muammolar.

Mintaqalarni isloh qilishda eng muhimi mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda barqaror va xavfsiz rivojlantirish uchun normal sharoitlarni yaratish, investitsiyalarni rag'batlantirish, —markaz—mintaqa || tizimida tartibga solishni yo'lga qo'yishdan iborat. O'zbekiston Respublikasida moddiylashgan iqtisodiy tamoyillarini hisobga olgan holdagi islohotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- investitson va ijtimoy siyosatda mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- islohotlarning investitsiyalarni jalb qilish, tadbirkorlik, ijtimoiy ta'minot, ekologiya kabi yo'naliishlarni mintaqaviy darajaga ko'chirish;
- mintaqalarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.

Barqaror va xavfsiz rivojlanish uchun iqtisodiyotni integratsiyalash vazifasi quyidagi muammolarning hal etilishini talab qiladi:

- mintaqalarning iqtisodiyoti va respublika tovar va xizmatlar bozorining o'zaro ta'sirlashuv mexanizmini yaratish;
- hududiy mehnat taqsimotini qo'llash;

- mintaqalararo aloqalar buzilishining oldini olish; □ separatizm bilan kurash olib borish.

Samarali tartibga solish uchun mintaqalarning moliyaviy resurslarini hisobga olish zarur. U ikki turga bo‘linishi mumkin:

- ichki moliyaviy resurslar – foyda, soliqlar (mintaqaviy, mahalliy), valyuta mablag‘lari, garov – sug‘urta fondlari (ko‘chmas mulk, qazilma boyliklar zaxirasi, o‘rmonlar, yer), tovar-moddiy qiymatliklar, mahalliy zayomlar;
- tashqi moliyaviy resurslar – byudjet kreditlari, korxonalarni maqsadli dotatsiyalash, subsidiyalar, subvensiyalar, transferlari, imtiyozli soliqqa tortish mablag‘lari, mintaqalararo dasturlarning mablag‘lari, xalqaro zayomlar, xorijiy investitsiyalarning mablag‘lari.

Ijtimoiy xavfsizlik – har bir fuqaroning hayot kechirish sharoitlarini, uning huquq va erkinliklariga tahdidlardan himoya qilishni ta’minlash. Ijtimoiy xavfsizlikning muhim komponenti oziq-ovqat, ekologik, shaxsiy, iqtisodiy (o‘z ehtiyojlarini qondirish nuqtayi nazaridan) va jamiyatning xavfsizligi hisoblanadi.

Ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashning maqsadlari:

- ijtimoiy portlash vaziyatlarining oldini olish;
- barqaror ijtimoiy tuzilmani ta’minlash;
- qadriyatlar tizimini, ijtimoiy xulq-atvor madaniyatini saqlab turish.

Ijtimoiy tuzilmaning degradatsiyalashuvi ikki holatda yuz beradi:

1. Tizimni inqilobiy larzalar vaqtida tenglashtirish. Ko‘pgina avlodlarning an’analarda vorisiylik yo‘qoladi, mehnatni rag‘batlantirish va unga bo‘lgan tashabbus yemiriladi. Sekin-asta yangi tizim shakllanadi. Xavf-xatar shundaki, aktiv faoliyatdagi elitaning eng yaxshi vakillari ketib, o‘rniga ijtimoiy pillapoyadan quyi tizimning eng yomon vakillari ko‘tarila boshlaydi;

2. Ijtimoiy tuzilmaning qutblashuvi yoki elitar tuzum bilan aholining asosiy massasi o‘rtasida uzilish. Bunday tuzum ijtimoiy zo‘riqish va ijtimoiy portlashlar bilan xavflidir.

### **18.3-§. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tahidlarni tizimlashtirish va baholash**

O‘zbekiston Respublikasida mintaqalarining ijtimoiyiqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, davlat ichida paydo bo‘layotgan iqtisodiy makon hududlarning mustaqil iqtisodiy subyektlarga aylanib borayotganligi bilan belgilanadi. Bunday sharoitda hududiy siyosat tobora ko‘proq kamchiliklarni bartaraf etishning bir usuli sifatida emas, balki raqobat siyosati va keng qamrovli rivojlanish siyosati sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.



**Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi bu** - yalpi holatda mintaqqa darajasida iqtisodiyotni samarali boshqaruv asosida barqaror iqtisodiy o'sish, ta'minlash boshqa mintaqalarga va butun davlatga nisbatan tahdidlarni vujudga keltirmagan holda mintaqqa aholisi uchun munosib turmush darajasi ta'minlash va ichki va tashqi tahdidlarning ta'siriga mintaqani qarshi tura olish qobiliyatidir.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi va o'zini o'zi ta'minlashi ko'p jihatdan uning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida raqobat ustunliklari va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi mintaqalarining o'ziga xos xususiyatlari, tabiiy va moddiy-texnik resurslarning sezilarli xilma-xilligi, aloqa tizimi, kommunikatsiya, infratuzilmani tizimini rivojlanganligi, innovatsion, sanoat salohiyatining rivojlanish darajasi va boshqalar bilan bog'liq. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi murakkab tizimli tushuncha sifatida, bizning fikrimizcha, bir qator muhim elementlarni o'z ichiga oladi:

- shartli ravishda iqtisodiy avtonomiya, ya'ni mintaqaviy ishlab chiqarish va mahsulot sifatining shunday samaradorligi darajasiga erishish lozimki, bu mintaqqa iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlasin va bozor ishtirokchilariga kooperatsiya munosabatlarida, xalqaro va mintaqaviy ayriboshlashlarda tenglar qatorida ishtirok etishga imkoniyat bersin;
- O'zbekiston Respublikasi subyektlarida tadbirkorlik va innovatsion faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar mavjudligi, shuningdek, salbiy omillarni hamda iqtisodiyot va jamiyatdagi vaziyatni beqarorlashtirishi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etishni kafolatlovchi mintaqaviy iqtisodiy tizimning strategik barqarorligini ta'minlash;

□ mintaqaviy iqtisodiyotning o'z-o'zini rivojlantirish va taraqqiyotga, qulay investitsiya va innovatsiya muhitini yaratishga, sanoat va qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashga va mehnat unumdarligini oshirishga qodirligi.

Boshqacha qilib aytganda, mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi bir qator tarkibiy qismlardan iborat, ya'ni: moliyaviy, ijtimoiy, kadrlar, resurs, sanoat, innovatsion xavfsizlik va boshqalarni o'z ichiga oladi. Mintaqqa iqtisodiyotning o'zi asosiy tizimli xususiyatlarga ega va ko'plab o'zaro bog'liq kichik tizimlar va ular o'rtasida tobora murakkab aloqalardan tashkil topgan, ochiq, nochiziq tizim bo'lib, ierarxik tuzilma va dinamik elementlar bilan tavsiflanadi. Bu quyidagi rasmda ifoda etilgan.

## Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi tarkibi



### 18.3-rasm. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi tarkibi<sup>1</sup>

O‘zbekiston Respublikasida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, davlat ichida paydo bo‘layotgan iqtisodiy makon hududlarning mustaqil iqtisodiy subyektlarga aylanib borayotganligi bilan belgilanadi. Bunday sharoitda hududiy siyosat tobora ko‘proq kamchiliklarni bartaraf etishning bir usuli sifatida emas, balki raqobat siyosati va kengroq qamrovli rivojlanish siyosati sifatida qaralishi maqsadga muvofiqli.

Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishi har doim ham aholi yashash sharoitlari va ijtimoiy soha rivojlanish ko‘rsatkichlari yaxshilanishi bilan birga bo‘lmaydi. Amalda xo‘jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy manfaatlari, moddiy ishlab chiqarishning turli tarmoqlari, hududlar aholisi va umuman, jamiyatning ijtimoiy manfaatlari ko‘pincha bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi. Bu borada hududlarda keng tarqagan ishlab chiqarishning zaif ilmiy-texnik darajasi muammolar, cheklangan moliyaviy, mehnat va moddiytexnika resurslari, ulardan foydalanish samaradorligi pastligi hamda mehnatni tashkil etishning past darajasi, boshqaruvning nomukammalligi va iqtisodiy qonun

<sup>1</sup> Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

me'yorlari kabi muammolarni keltirish mumkin. Ushbu muammolarning natijasi, o'z navbatida, tabiiy muhit holati yomonlashuvi, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati pasayishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotini isloh qilish va kutilmagan favquloddagi vaziyatlar davrida aholining real daromadlari keskin pasayishi va qashshoqlikning o'sishi turli xil iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish nuqtayi nazaridan hududlararo farqlanishning o'sishi kabi omilga ta'sir ko'rsatdi. Shunga asoslanib, muhim konseptual asos - bu mintaqaning rivojlanish jarayonini murakkab mintaqaviy tizimga o'tish, uning evolyusiyasi jarayonida bir beqaror holatdan ikkinchisiga o'tish jarayoni sifatida tushunish bo'lib hisoblanadi.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini boshqarish tizimining samaradorligi uning rivojlanishidagi tasodifiy og'ishlarga javob berish qobiliyatiga bog'liq bo'lgan konstruktiv va halokatli tavsifda bo'lishi mumkin. Bu tizimni samarali amalga oshirish uchun buzg'unchi salbiy jarayonlarga tez va egiluvchan javob berishga o'tishda oldindan tayyorlangan muqobil samarali qarorlarni amalga oshirishi lozim.

Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tahdidlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Obyektiv tahdidlar – bu biror-bir jarayonning rivojlanishi natijasida ro'y beradigan yoki obyektiv holda vujudga keladigan tahidlardir. Bu tahidlarning manbai tabiat kuchlari yoki ijtimoiy-iqtisodiy omillar bo'lishi mumkin.

2. Subyektiv tahdidlar – biror-bir ta'sir oqibatida vujudga kelgan tahdiddir. Tahdidning manbai jismoniy shaxslar (masalan, ijtimoiy xizmat ishlovchisi), yuridik shaxslar, uyushgan jinoyatchilik bo'lishi mumkin.

3. Potensial (salohiyatli) tahdidlar – tabiiy, ekologik, antropogen, siyosiy tavsifga ega bo'ladi.

4. Dolzarb tahdidlar – ichki yoki tashqi muhitning inqirozli holati natijasida vujudga keladigan tahidlardir.

5. Ichki tahdidlar – kambag'allik, sog'liqni saqlash, uy-joy, ta'lim sohasidagi xavfsikning buzilishi, narkomaniya.

6. Tashqi tahdidlar – tashqi omillarning, iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarning, migratsion oqimlarning ta'siri.

Ijtimoiy indikatorlar (II) – statistik ma'lumotlar yoki maxsus ma'lumotlar asosida hisoblab chiqiladi. BMT ning turmush darajasini aniqlash bo'yicha tavsiyalarida (1961-y) 12 ta ko'rsatkich, jumladan, sog'liqni saqlashning holati, mehnat sharoitlari; sport va aloqa, hayot kechirish uchun mablag'lar, bandlik, kiyim-kechaklar, sotish (sog'lomlashtirish tadbirlari majmui) va h.k hisoblab chiqiladi.

Ijtimoiy innovatsiya bu aholini ijtimoiy-maishiy shartsharoitlarini, ekologiyani, gigiyenani, mehnat xavfsizligini ta'minlash, madaniyat va dam olishni yaxshilashga qaratilgan innovatsiyalar tushuniladi. Ijtimoiy indikatorlar orasida. Daromadlardagi tengsizlik darajasini aniqlash uchun uning koeffitsiyenti hisoblab chiqiladi. U to'liq

tenglikda 0 ga va to‘liq tengsizlikda 1 ga teng bo‘lgan oraliqda bo‘lishi mumkin. Hozirgi vaqtida ijtimoiy xavfsizlik kafolatlari ijtimoiy siyosatni siyosat o‘tkazishni, milliy siyosat va iqtisodiy o‘sishni o‘z ichiga olinadi.

Iqtisodiy o‘sishning asosi innovatsiyalarga, importning o‘rnini bosishga va o‘z kuchiga tayangan holda o‘sish modeli bo‘lishi mumkin. O‘sish modeli mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiytexnikaviy salohiyatini, tabiiy resurslarini va ulardan samarali foydalanishni saqlab qolish kiradi.

O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiyiqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida quyidagilar ijtimoiy rivojlantirishning asosiy sifat maqsadli yo‘nalishlari sifatida belgilangan:

- 2030-yilgacha aholi tarkibida kam ta’minlanganlar darajasini 2 baravarga qisqartirish;
- umr ko‘rish darajasini 78-80 yoshgacha oshirish; onalar o‘limi ko‘rsatkichini uchdan bir qismga va endi tug‘ilgan chaqaloqlar o‘limini ikki baravar kamaytirish, bemavrid o‘limni 30 foizga kamaytirish hamda mamlakat hukumati tomonidan tasdiqlangan barqaror rivojlanishga doir milliy maqsadlar va vazifalardan kelib chiqadigan boshqa sifatli qadamlar;
- aholining turar joyga (bir kishiga 20 kv.m.), toza ichimlik suvga (100%), elektr energiyasiga (100%) bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirish;
- ta’lim va tibbiy xizmatlarda xalqaro sifat darjasini standartlarini taqdim etishga erishish;
- shahar aholisi ulushini 60 foizga yetkazish, bu esa uni kompleks rivojlantirish imkonini beradi va aholi farovonligini jiddiy oshiradi;
- barcha fuqarolarning faol dam olishini ta’minalash, turistlar, shu jumladan, ichki turistlar sonini 30 mln. kishiga yetkazish;
- fuqarolar yashash joyidan, shu jumladan, qishloq joylarda yashayotganlidan qat‘i nazar ishlab chiqilgan eng kichik ijtimoiy standartlarni inobatga olgan holda davlat ijtimoiy kafolatlarini ta’minalash (iste’mol byudjeti, ish haqi va pensiyaning eng kam darjasasi, ta’lim, sog‘liqni saqlash xizmatlari bilan ta’minalanganlik va hokazo).

Umuman olganda, aholi farovonligini oshirishning belgilangan sifatli maqsadli yo‘nalishlari O‘zbekistonga ijtimoiy yutuqning jahon tizimida munosib o‘rin egallash imkonini beradi va ularni monitoring qilishning doimiy tizimini yaratishni nazarda tutadi. Ishsizlik yoki o‘ta qashshoqlik davrida ijtimoiy himoya dasturlari qator muammoli masalalarni samarali hal etishda aholining muayyan guruhlari uchun iqtisodiy islohotning salbiy oqibatlarini yumshatishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Oqilona hududiy mutanosibliklarni qo'llab-quvvatlash va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi asossiz katta tafovutga yo'l qo'ymaslik aholi turmush darajasini oshirishning va kam ta'minlanganlikni kamaytirishning muhim omili hisoblanadi. Har bir hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishni hisobga olgan holda aholining hayot faoliyati, farovonligi oshishi uchun nisbatan teng imkoniyatlar yaratish, mintaqani rivojlantirishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar, xarajatlar tarkibi o'zgarishi, uzoq foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanganlik va zamonaviy texnologiyalar asosida bilim olish va sog'lijni saqlash tizimidan qoniqish ko'rsatkichlari bilan bir qatorda aholi turmush darajasini baholash uchun aholining farovon va zamonaviy uyjoy bilan ta'minlanganligi, aholi yashash muhitini rivojlantirilganligi va obodligi, zarur infratuzilma mavjudligi va uning samaradorligi kabi turmush shart-sharoitlari va standartlarini ifodalovchi ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi.

Iqtisodiyot o'sib borgani sayin aholining bazaviy ijtimoiy xizmatlardan, shu jumladan, sifatli ta'lim va sog'lijni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish barqaror o'sishning muhim xususiyati hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklikni rag'batlantirish doirasida nodavlat tashkilotlarni bu sohaga jalb etish hisobiga ijtimoiy xizmatlar ko'لامи va hajmini kengaytirish.

Respublika viloyatlari va tumanlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darjasini indeksi ijro etuvchi organlar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, vazirliklar, tashkilotlar bilan o'zaro bog'liqlikda shakllantiriladigan va respublikaning hududiy birliklarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonlarini baholashning yagona tizimini joriy etishga yo'naltirilgan milliy kompleks, tarkibli indikatorlar hisoblanadi.

Baholash ko'rsatkichlarining eng muhim yo'nalishlari sifatida aholi bandligini ta'minlash, mehnat resurslarining raqobatbardoshligini shakllantirish va inson kapitalini rivojlantirish, hayot darajasini va aholi hayot sifatini yaxshilash, aholi sog'lig'ini muhofaza qilishni va sog'lom turmush tarzini ta'minlash, aholining murojaatlari bilan mahalliy davlat hokimiyati organlarining ish olib borishi samaradorligi tanlangan.

Bunda, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish; mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini va industrlashtirilganligini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, xizmatlar sohasi va servisni rivojlantirish; oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligini diversifikatsiyalash; bank-moliya sohasini rivojlantirish, davriy so'rovlar o'tkazish va monitoring olib borish muhim natijalarga erishishini ta'minlash uchun asos hisoblanadi.

O'zbekiston hududlarida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikasiyalash, mahalliy resurslar va salohiyatni hisobga olib, yangi quvvatlar yaratish, investitsiya faoliyati va tadbirkorlik salohiyatini faollashtirish uchun barqaror

baza yaratish, aholi turmush sifati va shart-sharoitlarini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Iqtisodiy rivojlangan hududlardan tashqari asosiy e’tibor tadbirkorlik faoliyatini faollashtirishga va iqtisodiyot agrar sohaga yo‘naltirilgan uncha rivojlanmagan hududlarning mahalliy xomashyo resurslarini ishlab chiqarish jarayoniga jalg qilishga qaratiladi.

Yuqorida bayon etilgan muammolarni bartaraf etish uchun infratuzilmani rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarida rivojlantirish, investitsiyalar jalg etuvchanlikni va hududlarning mahalliy tashabbuskorligini oshirish, mahalliy xomashyo va resurslar chuqur qayta ishlanishini tashkil etish, ishlab chiqarishlarni tashkil etishning yangi samarali shakllarini, jumladan, klasterlar, texnoparklar, sanoat zonalari yaratish bilan bog‘liq masalalarni hal qilish zarur.

Hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash, shuningdek, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan va raqobat ustunliklaridan imkon qadar foydalanish hisobiga hudud aholisi turmush sifati va darajasini oshirish hududlarni rivojlantirishdan ko‘zlangan maqsad hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida||gi 2017-yil 8-avgust, PQ-3182-sonli Qaroriga binoan hududlar sektorlarga bo‘linib, ularga rahbarlar belgilandi, sektorlar rahbarlariga hududlarni kompleks ijtimoiyiqtisodiy rivojlantirish vazifalarini tashkil etish va hal qilish, shu jumladan, aholining eng muhim muammolarini yechish yuzasidan javobgarlik yuklandi hamda vakolatlar berildi. Bunda respublika hukumati va joylardagi mahalliy hokimiyat organlarining maqsadli hududiy dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirishdagi vakolatlari va vazifalari aniq belgilanishi lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29 martdagি Obod qishloq dasturi to‘g‘risida||gi PF-5386-sonli, 2018-yil 27-iyundagi Obod mahalla|| dasturi to‘g‘risidagi PF5467-sonli Farmonlariga muvofiq so‘nggi ikki yilda Obod qishloq va Obod mahalla dasturlari doirasida respublikaning 159 ta tuman, 30 ta shahar va Toshkent shahrining 11 tumanlaridagi jami 1116 ta qishloq va mahallalarida istiqomat qiluvchi aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Obod qishloq va Obod mahalladasturlarini 2020-2022-yillarda amalga oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida||gi 2019-yil 29noyabrdagi qaroriga muvofiq 2020-2022-yillarda Obod qishloq|| va —Obod mahalladasturlari doirasida qishloq aholi punktlarining me’moriy qiyofasini tubdan yangilash, hududlarni kompleks rivojlantirish, yo‘l-transport infratuzilmasi, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish

hamda shu asosda aholining turmush madaniyatini yuksaltirish maqsadi va vazifalari belgilandi.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 33-maqсади: Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4-1,6 baravarga oshirishdan iborat etib belgilangan. Mazkur maqsaqni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: 14 ta hudud bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida

ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko‘rsatkichlari —qoniqarsizl bo‘lgan shahar va tumanlar bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish.

Samarqand va Namangan shaharlarini istiqbolda millionlik shaharlariga aylantirish bo‘yicha choralar ko‘rish. 450 ming aholiga mo‘ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzelarini qurib, foydalanishga topshirish. Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish;

- shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi Shaharlar qulayligil indeksini joriy etish;
- shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va Aqli shahar konsepsiyasiga muvofiq rivojlantirish;
- Toshkent shahrida barpo etilgan INNO innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparkini 4 ta hududda tashkil etish. Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish;
- oliy ta’lim muassasalarida arxitektura-qurilish sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish;
- qurilish sohasini texnik tartibga solish. Aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini tubdan takomillashtirish va shaharsozlik hujjatlari bilan ta’minlash dasturini ishlab chiqib, amalga oshirish;

aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish. Renovatsiya va uy-joylar dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uylar o‘rniga 19 million kvadrat metrdan ortiq zamonaviy uyjoylarni barpo etish, 275 mingdan ziyod oilaning yangi massivlarga ko‘chib o‘tishi uchun sharoit yaratish.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda territorial-tarmoq klasterlar muhim rol o‘ynaydi. Klasterlarda ba’zi hududlarda ayrim tovarlar, butlovchi qismlarni, xomashyolarni ishlab chiqarish tashkil etiladi. Bunga Asakadagi yengil avtomobililar,

ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqarishning tashkil etilganligi hamda hozirgi vaqtida mamlakatimiz hududlarida tashkil etilayotgan paxtachilik-tekstil klasterlari misol bo‘ladi.

Klaster hudud manfaatini korxonalar manfaati bilan uyg‘unlashtiradi. Klaster terriorial-ishlab chiqarish ichida raqobat muhitini yaratib, ichki va jahon bozorlariga mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etadi hamda mazkur hudud aholisini ish bilan ta’minlashni yaxshilaydi, hududni har tomonlama rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Klaster ishtirokchisi bo‘lgan xo‘jalik subyektarining o‘zaro aloqadorligini, birgalikda ilmiy tadqiqot, yangi texnologiyani joriy etish ishlarini birgalikda amalga oshirish, tajriba, bilim va asosiy fondlardan birgalikda foydalanish, risklarni kamaytirishda, jahon bozorlariga chiqishda, hududni rivojlantirish va obodanlashtirishda o‘zaro hamkorlik qilishi kuchayadi.

Hududiy dasturlarning samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

yeterli darajada rivojlanmagan, umumrespublika darajasidan orqada qolayotgan hududlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishning yagona metodikasini tasdiqlash;

- respublika shahar va qishloq tumanlaridagi iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni monitoring qilish, ularning rivojlanish darajalariga ko‘ra tipologiyasini ishlab chiqish;
- hududiy dasturlarni, orqada qolgan tuman va shaharlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarining loyihalarini ekspertizadan o‘tkazishni tashkil etish.

Raqamli texnologiyalardan ommaviy foydalanishga o‘tish oqibatida yuzaga kelgan chuqur o‘zgarishlar mintaqaning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashdagi muammolar ko‘lamini sezilarli darajada kengaytiradi. Shuning uchun, bu mintaqaviy iqtisodiyotga tahdid va muammolarga mintaqaviy xavfsizlik tizimining faoliyat yuritishi asosida qarshi kurashadi, uning barqaror rivojlanishini rag‘batlantiradi, O‘zbekiston Respublikasi subyektlari va butun bir davlatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollarini belgilaydi.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining **33-maqsadi: Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4-1,6 baravarga oshirishdan iborat etib belgilangan**. Mazkur maqsalni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

-14 ta hudud bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish;

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko‘rsatkichlari qoniqarsiz bo‘lgan shahar va tumanlar bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish. Samarqand va Namangan shaharlarini istiqbolda

millionlik shaharlariga aylantirish bo‘yicha choralar ko‘rish. 450 ming aholiga mo‘ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzelarini qurib, foydalanishga topshirish. Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish;

-shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi Shaharlar qulayligi indeksini joriy etish;

-shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va -Aqli shahar kontsepsiyasiga muvofiq rivojlantirish;

-Toshkent shahrida barpo etilgan INNO innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparkini 4 ta hududda tashkil etish. Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda yuqori qo‘silgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish;

-oliy ta’lim muassasalarida arxitektura-qurilish sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni amaliyat bilan uyg‘unlashtirish;

-qurilish sohasini texnik tartibga solish. Aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini tubdan takomillashtirish va shaharsozlik hujjatlari bilan ta’minalash dasturini ishlab chiqib, amalga oshirish;

-aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish. Renovatsiya va uy-joylar dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uylar o‘rniga 19 million kvadrat metrdan ortiq zamonaviy uyjoylarni barpo etish, 275 mingdan ziyod oilaning yangi massivlarga ko‘chib o‘tishi uchun sharoit yaratish.

Strategianing 34-maqсади hududlarning muhandislik kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirishdan iborat. Bunda Obod qishloq va Obod mahalla dasturlari doirasida hududlarning o‘sish nuqtalaridan kelib chiqib, muhandislik kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurishga alohida e’tibor qaratish. muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga qanday omillar ta’sir etadi?
2. Davlatning mintaqaviy siyosatining mohiyati va mazmunini aytib bering.
3. Mintaqaning iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini sanab o‘ting.
4. Mintaqaning iqtisodiy barqarorligini oshirish uchun nimalar qilish kerak?
5. Siz yashayotgan mintaqaning bugungi kundagi eng dolzarb muammolarini sanab o‘ting.
6. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darjasini bo‘yicha tabaqlanishini tushuntirib bering.
7. Mintaqaning ijtimoiy barqarorligi komponentlarni sanab o‘ting.
8. Mintaqaga xavf solayotgan ijtimoiy tahdidlarni sanab o‘ting.

9. BMT tavsiyalariga ko‘ra aholining turmush sifati qanday aniqlanadi?
10. Ijtimoiy innovatsiya qanday ma’noni anglatadi?
11. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tahdidlarni sanab o‘ting.
12. Mintaqaviy tahdidlarni tizimlashtirish va baholash ko‘rsatkichlarini tushuntiring.

## **19-mavzu MAMLAKATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH Reja**

**19.1-§. Jahon iqtisodiy tizimida milliy iqtisodiyotning tutgan o‘rni. Milliy manfaatlarga tahdidlar**

**19.2-§. Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash**

**19.3-§. Mamlakatning harbiy-iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash**

### **19.1-§. Jahon iqtisodiy tizimida milliy iqtisodiyotning tutgan o‘rni. Milliy manfaatlarga tahdidlar**


XX asrning oxirgi choragida jahon hamjamiyatining iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi rivojlanishi globallashuv jarayonlari ta’sirida amalga oshdi. Globallashuvning iqtisodiy mazmuni va mohiyati, birinchi navbatda, xo‘jalik taraqqiyotining manbalari, omillari va shakllari bilan bog‘liqdir. Bu yerda gap sarmoyalar, texnologiyalar, ishchi kuchi, intellektual va moliyaviy resurslar, boshqaruv va boshqalar to‘g‘risida ketmoqda. Ushbu jarayonlar xalqaro savdo va investitsiya hajmlarining o‘sishi, jahon moliya bozorlari va ishchi kuchi bozorlarining misli ko‘rilmagan tarzdagи diversifikatsiyasi, jahon xo‘jalik aloqalarida transmilliy korporatsiyalar rolining oshishi, global raqobatning keskinlashuvida namoyon bo‘lmoqda.

Globallashuv iqtisodiy taraqqiyotning industrial bosqichidan postindustrial bosqichiga o‘tish davrining mahsuli bo‘lib hisoblanadi. Demak, globallashuv jahon hamjamiyatining bugungi kundagi taraqqiyoti bosqichini ifodalovchi jarayondir. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 1995-yilda dunyo aholisining 90 foizi globallashuv jarayonlariga tortilgan edi.

Globallashuv – baynalmilallashuvning eng yangi bosqichi bo‘lib, unda dunyo xo‘jaligi yagona iqtisodiy organizmga aylana boshlaydi. Mamlakatlararo tovar va xizmatlar, kapital va axborot oqimlarining, xalqaro miqyosda mehnat resurslari harakatchanligining keskin o‘sib borishi globallashuvning xarakterli xususiyatlaridan biridir. Keyingi davrlarda ishlab chiqarishning milliy bozorlarga emas, ko‘proq dunyo bozorlariga yo‘naltirilganligi dunyo iqtisodiyoti globallashuvining hozirgi bosqichini harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib hisoblanadi. Globallashuv jarayonlarining mamlakatlar

iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri masalalarini o'rganishda iqtisodiy globallashuv muammosiga ko'proq ahamiyat berish kerak bo'ladi.

Transmilliy korporatsiyalarning o'sib borishi, ya'ni ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, xalqaro miqyoslarda pul ko'rinishidagi kapitalning turli shakkarda harakat qilishi iqtisodiy globallashuv tushunchasiga sifat jihatdan yangi mazmun baxsh etdi.



### 19.1-rasm. Dunyo iqtisodiyotida kuzatilayotgan tendensiyalar.

Ayni paytda jahon bozori, xalqaro xo'jalik munosabatlari va institutlari milliy xo'jalik tizimlarining oddiy davomi, ularning yig'indisi emas, balki ulardan tubdan farq qiluvchi tashkiliy tuzilma bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy globallashuv bir qator xususiyatlarga ega:

birinchidan, keyingi yillarda dunyoda sodir bo'lgan siyosiy o'zgarishlar natijasida jahon xo'jaligining universallashuvi, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan iqtisodiy makonning kengayishi.

Ikkinchidan, kapital harakatining erkinlashuvi hamda moliya tizimlari va valyuta nazoratini tartibga solishning qiyinlashuvi. Ushbu jarayonlarning ta'siri natijasida xalqaro savdo hajmlari, mamlakatlar o'rtasida moliyaviy va sarmoya oqimlari bir necha barobar oshib bormoqda.

Uchinchidan, milliy xo'jaliklarning iqtisodiy jihatdan ochiqligining ortib borishi. Bunday holat dunyoda iste'mol qilinayotgan tovar va xizmatlarning o'rta hisobda deyarli yarmi to'la yoki qisman iste'mol qilinayotgan mamlakatlardan tashqarida ishlab chiqarilishini ifoda etadi.

To'rtinchidan, ishsizlikka va mamlakatlarning ish bilan bandlikning barqaror yuqori darajasini ta'minlash qobiliyatiga ta'siri bilan bog'liqdir. Hozirgi kunda ilm talab qiladigan 371




va yuqori texnologiyali tarmoqlar yuqori malakali, lekin kam miqdorda ishchi kuchi talab etadi.

Keyingi yillarda mehnat, material va energiya talab etadigan tarmoqlarda band bo‘lgan past va o‘rtacha malakaga ega bo‘lgan xodimlar soni qisqarib bormoqda. Ularning bir qismi xizmat ko‘rsatish sektorlariga o‘tmoqda, lekin katta qismi ishsizlar qatoridan joy olmoqda.

Beshinchidan, iqtisodiy jarayonlarning global muammolar, jumladan, resurslarning cheklanganligi, demografik vaziyatning va oziq-ovqat muammolarining keskinlashuvi, rivojlangan mamlakatlar bilan qoloq mamlakatlar o‘rtasidagi texnologik va intellektual salohiyatdagi tafovutning chuqurlashuvi, daromadlar bo‘yicha tabaqaqlashuvning kuchayishi, ekologik muammolarning keskinlashuvi bilan bog‘liqligidir.

Oltinchidan, jahonda siyosatni iqtisodiy lashuv jarayoni kuchayib bormoqda. Siyosatni iqtisodiy lashuvi bu: a) siyosiy maqsadlarga yoki siyosiy vazifalarni hal etish iqtisodiy metodlar orqali amalga oshiriladi. b) strategik rivojlanish strategiyasi vektori, siyosiy, ma’naviy, kuch ishlatishdan iqtisodiy tomon siljimoqda. Natijada siyosatni iqtisodiy lashuvi jarayoni jahonda geoiqtisodiy manfaatlarni geosiyosiy va geostrategik manfaatlardan ustunligi ko‘rinmoqda.

Globallashuv tarafdarlari ushbu jarayonda ishtirok etadigan barcha mamlakatlar undan foyda ko‘radi, degan fikrni bildiradilar. Biroq real hayotda global munosabatlarning ustunliklaridan asosan rivojlangan mamlakatlar manfaat ko‘rmoqda. Globallashuv ma’lum ma’noda iqtisodiyotning qutblashuvini kuchaytiradi.



### **19.2-rasm. Dunyo iqtisodiyotining globallashuvi.**

Globallashuv sharoitida mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligi ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, hozircha uning yagona talqini qabul qilinmagan. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalar jadallik bilan chuqurlashib, milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallahuvi kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash nafaqat mamlakat darajasida, balki mintaqaga darajasida ham eng muhim masalalardan biriga aylanib boradi. Globalashuv dunyo hamjamiyati ishtirokchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan bir vaqtida, milliy iqtisodiyotlar faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan xavf-xatar va tahdidlarni ham vujudga keltiradi. Globalashuv jarayonlari kuchayib borgan sari bunday tahdidlar miqyosi kengayib, ularni bashorat qilish va bartaraf etish qiyinlashib boradi. Bir paytning o‘zida ham dunyo hamjamiyatiga, ham alohida olingan bir mamlakatga tahdid soladigan yangi global xavf-xatarlar vujudga keladi.

Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligini keng xalqaro hamkorliksiz ta’minlash mumkin emas. Chunki yuzaga kelayotgan muammolarni faqat milliy vosita va mexanizmlar yordamida hal etib bo‘lmaydi. Shu bois milliy iqtisodiy xavfsizlik va —xalqaro iqtisodiy xavfsizlik kabi tushunchalar o‘rtasida aloqadorlik kuchayib bormoqda. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti sifatida qaraladi.

Globallashuv mamlakatlar iqtisodiyotini tashqi omillar ta'siriga ochiq qilib qo'yadi. Masalan, XX asr 70-yillarining o'rtalarida OPEK a'zolarining xatti-harakatlari natijasida neft mahsulotlariga jahon narxlari oshib ketdi. Jahon miqyosida energiya iste'molining muntazam o'sib borganligi va energiya resurslarining cheklanganligi sharoitida ko'p mamlakatlar oldida energetika xavfsizligini ta'minlash muammosi dolzarb bo'lib qoldi.

XX asr 70-yillarining boshlarida Bretton - Vud xalqaro valyuta tizimining parokandalikka yuz tutganligi va 1976-yilda Yamayka kelishuvlari asosida suzuvchil valyuta kurslariga o'tilganligi, rivojlangan mamlakatlar tomonidan kapital harakatlari ustidan nazoratni sekin-asta susaytirilganligidan dalolat beradi.

O'tgan asrning 80-90-yillarida Lotin Amerikasi va Janubiysharqiy Osiyoning bir qator mamlakatlarida sodir bo'lgan hamda jahon moliya bozorlarida halokatga olib kelgan inqirozlar natijasida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash zaruriyati paydo bo'ldi.

Yer yuzi aholisi sonining ko'payib borishi, buning natijasida xomashyo va mahsulotlarga bo'lgan talabning oshishi va natijada chiqindilarning katta miqdorda to'planib borishi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Bu jarayonlar global xarakterga ega bo'lganligi bois, dunyo miqyosida tahdidiga aylanib, ekologik xavfsizlikni ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqardi.

Tadqiq etilayotgan davrda jahon iqtisodiyotida rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi va aksincha, rivojlanayotgan davlatlarda, ayniqsa, Hindiston va Xitoyda o'sish sur'atlarini yuqori darajada ekanligi bilan tavsiflanadi. Natijada Hindiston YAIM 2020-yilga kelib, 2000-yilga nisbatan 303,1%ga, Xitoy YAIM 412,3%ga o'sdi. Buning asosiy omili bo'lib tadqiq etilayotgan davrda globalizatsiyaning ta'siri natijasida jahon mamlakatlari guruhlari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni taqsimlanishida rivojlangan davlatlar ulushi 2005-2007-yillarda 66%dan 2019-yilga kelib 41%ga tushib qolganligi va aksincha rivojlanayotgan davlatlarning ulushi 30%dan 55%gacha<sup>1</sup> o'sganligi bilan baholash mumkin.

Tadqiq etilayotgan davrda jahon iqtisodiyotining muhim mintaqaviy guruhlari bo'lgan rivojlangan, rivojlanayotgan va MDH davlatlarining iqtisodiy ko'rsatkichlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi YAIM hajmini yuqori sur'atlarda o'sish tendensiyasiga ega ekanligi bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiysi uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini cheklaydigan mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni, xavf-xatar va tahdidlarni hal etish, shuningdek, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning hozirgi holatidan barqaror rivojlanishga o'tishning maqsadlari va ustuvorliklarini belgilash va aholi hayot darajasini oshirish bilan bog'liqdir.

---

<sup>1</sup> <https://www.vedomosti.ru/economics/articles>

Konsepsiyada istiqbolda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan potensial xavf-xatar va tahdidlar tahlil qilingan. Xavf-xatarlarni tahlil qilishning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat:

**Birinchidan**, jahon iqtisodiyotining rivojlanishi ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirishga, shu jumladan, inson kapitalini jamlash va rivojlantirishga qa'tiy talablar qo'yadigan global bozorlarda raqobatning kuchayishi bilan birga kechadi.

**Ikkinchidan**, O'zbekistonda mehnat resurslari tez o'sishi sharoitlarida bandlikni ta'minlash muammosi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni talab qiladi. Ayni vaqtda asosiy tarmoqlarning texnologik bazasi qoloqligi, eksportning xomashyoviy yo'naltirilganligi va yalpi qo'shilgan qiymatda qishloq xo'jaligining yuqori ulushi, xufyona iqtisodiyot ko'lami yuqoriligi, mehnat unumdorligining pastligi, energiya va resurslar sarfining yuqoriligi bilan tavsiflanadigan mamlakat iqtisodiyotining tuzilmaviy deformatsiyasi mavjud muammolarni hal etishning uzoq muddatli xususiyatini taqozo etadi.



**Uchinchidan**, bozor iqtisodiyoti amal qilishini ta'minlashning samarali vositalarini joriy etish, shu jumladan, xususiy mulkni himoya qilish va yer munosabatlarini tartibga solish, davlat organlari ishi samaradorligini oshirish, korrupsiyaga barham berish va moliya bozori rivojlanishini ta'minlashning samarali mexanizmlarini joriy etish.

**To'rtinchidan**, mamlakat iqtisodiyoti inson kapitalining sifati yuqori emasligi, yaratilgan daromadlar taqsimlanishidagi tengsizlik, zaif ijtimoiy himoya va ilmiy-texnik salohiyat, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish va ularning kamayishi bilan birga kechayotgan inklyuzivlikning past darajasi bilan tavsiflanadi.

**Beshinchidan**, mavjud muammolar ta'lim tizimining zarur moddiy-texnika bazasini ta'minlashdagi kamchiliklar bilan birgalikda tayyorlanayotgan kadrlarning darajasi pastligida va har xil ixtisoslikdagi kadrlarga talabning hududiy muvozanatlari emasligida o'z aksini topmoqda. Ilmiy muassasalar bilan iqtisodiyotning real sektori o'rtasidagi o'zaro aloqaning zaifligi innovatsiyalarni joriy etish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish imkoniyatlariga to'sqinlik qilmoqda.

Mamlakatning ayrim mintaqlarida mutaxassislar, ayniqsa, shifokorlar va o'qituvchilar yetishmasligi kuzatilmoqda, bu ta'lim muassasalari bitiruvchilari boshqa mutaxassislik bo'yicha ishga joylashtirilishiga olib keladi. Ayni vaqtda ish kuchi taklifining yuqori darajasi mehnat ressurslari ortiqcha bo'lgan mintaqalarda

ishsizlikning o'sishida aks etadi, norasmiy bandlikning yuqori ulushi esa (40%) mamlakat

Davlat byudjetiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

**Oltinchidan**, global iqtisodiy tahdidlar va industrlashtirishning o'sishi, atmosferaga chiqarib tashlanadigan tashlamalarning ko'payishi, tabiiy xomashyoning yangi konlari o'zlashtirilishi natijasida noxush uzoq muddatli iqlim o'zgarishlari, shuningdek, tabiiy muhit va suv resurslarining kamayishi (shu jumladan, ekin maydonlarining qisqarishi va yer maydonlari unumdorligining tushib ketishi) iqlim o'zgarishlarining noxush trendi namoyon bo'lishida aks etadi. Bu kasalliklar darajasi o'sishiga, suv ta'minotiga va umuman O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etishning asosi ochiq turdag'i iqtisodiyotni vujudga keltirishdir. Shu sababli respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin qisqa davr ichida 80 dan ko'p davlat bilan diplomatiya munosabatlarini o'rnatdi, dunyoning 20 dan ortiq davlatida diplomatiya elchixonalarini ochdi, ko'pgina xalqaro tashkilotlar - BMT iqtisodiy muassasalari, jahon banki, xalqaro bank, xalqaro valyuta fondi, xalqaro moliya korporatsiyasi, iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot kabi boshqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi. Respublika a'zo bo'lib kirgan dastlabki ittifoq - Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (1991-yil tuzilgan) hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda Turkiya, Eron va Pokiston tomonidan tuzilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) dir.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilish talablaridan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishi zarur bo'lgan barcha muassasalar (tashqi iqtisodiy aloqa vazirligi, tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, bojxonalar xizmati va boshqalar) amalda yangidan tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasidan tortib boshqaruvning mahalliy darajasi va korxonalargacha bo'lgan xo'jalik subyektlarida tegishli tashqi iqtisodiy bo'limlar tuzildi. Dunyoning bir qancha mamlakatlarida savdo uylari ochildi va savdo-sanoat palatalari barpo etildi.

Tashqi savdo bilan birga iqtisodiy hamkorlikning boshqa shakllari ham sezilarli darajada rivojlandi. Respublika hududida xorijiy sarmoya ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning eksporti hajmi mamlakat umumiy eksportining 2020-yilda 18,1 foizini tashkil qilgan (2002-yil 14,8%). Bunday korxonalarning asosiy qismi sanoat tarmoqlari (45%) savdo va umumiy ovqatlanish (23,8%) sohalarida to'plangan.

Dastlabki davrlarda respublikamizda tashqi savdo ikki yo'naliш bo'yicha: MDH mamlakatlari bilan hukumatlararo bitimlar va xorijiy mamlakatlar bilan erkin muomaladagi valyutada hisob-kitob qilish asosida amalga oshirildi.

2020-yil respublikamizda tashqi savdo aylanmasi 42,2 mlrd. AQSH dollarining tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 26,2%ga oshdi, uning 34,6 foizi MDH mamlakatlari,

65,4 foizi uzoq xorijiy mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Keyingi yillar mobaynida eksport tarkibida raqobatbardosh tayyor mahsulot salmog‘ining barqaror o‘sish tendensiyasi va xomashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushining kamayib borayotgani yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. 2019-yilda umumiyl eksport hajmida xomashyo bo‘lmagan tovarlarning ulushi 80%dan ziyodni tashkil etdi. Ayni vaqtda O‘zbekiston uchun an’anaviy eksport xomashyosi bo‘lgan paxta tolasining bu boradagi ulushi 2003-yildagi 20% dan, 2019yilda 1,6% ga tushdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda Markaziy Osiyo davlatlarining ko‘p tomonlama aloqalari va hamkorligini rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi yagona iqtisodiy makon to‘g‘risida tuzilgan shartnomalar samara bera boshladi. Ularning sanoatini integratsiyalashtirishga qaratilgan dastur ishlab chiqildi.

MDH mamlakatlari bilan bevosita va ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish tashqi siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Hamdo‘stlik davlatlari muassasalari – Davlatlararo iqtisodiy qo‘mita, Davlatlararo bank va boshqa muassasalarni tashkil etishda faol qatnashmoqda. MDHdagi mamlakatlar (Rossiya, Ukraina, Belorus, Moldova va boshqalar) bilan ikki tomonlama tashqi siyosiy, savdo-iqtisodiy va boshqa shartnomalar hamda bitimlar imzolanib, ular kuchga kirmoqda.

O‘zbekistonning Xalqaro valyuta fondi va jahon banki bilan hamkorligi tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishdagi navbatdagi yo‘nalishdir. Bu yo‘nalishda XVF bilan tizimli qayta qurilishlarni mablag‘ bilan ta‘minlash, tizimli va makroiqtisodiy siyosat sohasidagi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash Dasturlari ma’qullangan. Jahon bank tashkilotlari Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XRTB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Investitsiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA) bilan hamkorlik O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, XRRB yo‘li bilan O‘zbekistonga paxta yetishtirish usullarini zamonaviylashtirib, uning jahon bozoriga chiqishiga ko‘maklashish va unumdarlikni oshirish uchun asos yaratish maqsadida salmoqli mablag‘ ajratilgan.



Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) ham O'zbekistonda bir qator loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etmoqda. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy va savdo faoliyatida Osiyo rivojlanishi Banki (ORB) hamda jahon savdo tashkiloti (JST) bilan hamkorlik istiqbolli yo'naliishlardan hisoblanadi.

**Tashqi iqtisodiy aloqalar**

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo sohasidagi yangi strategiyasi quyidagi yo'naliishlarni o'z ichiga oladi:

- tashqi iqtisodiy faoliyat, eksportni ragbatlantirish;
- horijiy investitsiyalar jalb etish;
- tashqi savdoni erkinlashtirish;
- tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va boshqalardir.

## 19.2-§. Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash

Xalqaro maydondagi vaziyat, tashqi iqtisodiy ayirboshlash aloqalarining samaradorligi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va uning natijalaridan iqtisodiyot soha va tarmoqlarida foydalanish darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar holati va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi mamlakat iqtisodiy xavfsizligini belgilab beradi. Har

qanday mamlakat iqtisodiy xavfsizligininining moddiy asosini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'min eta oluvchi rivojlangan ishlab chiqarish kuchlari tashkil etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi ichki tahdidlarga quyidagilar kiradi:

- monetar siyosatni olib borishda suverenitetning past darajasi;
- asosiy ishlab chiqarish fondlarining yuqori ma'naviy va jismoniy eskirishi;
- ishlab chiqarishni deformatsiyalashgan tarkibiy tuzilmasi hamda ilmiy asoslangan institutsional tuzilmaning mavjud emasligi;
- ishlab chiqarilgan milliy tovarlarning yuqori darajada energiya sig'imiga, material sarfi va mehnat sig'imiga ega ekanligi;
- Qator tarmoqlarda eski ishlab chiqarish texnologiyalarni saqlanib qolganligi;
- Strategik muhim tarmoqlarda ishlab chiqarishni to'la tugallangan yopiq siklga ega emasligi;
- Ijtimoiy ishlab chiqarishda xufiyona iqtisodiyot rolining yuqoriligi va korrupsiyaning kuchli ekanligi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning mos mexanizmi va uni amalga oshirish borasida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Zamonaviy iqtisodiyot umum siyosiy, iqtisodiy, madaniy va qadriyatlarni ishlab chiqishda ifodalanuvchi dunyo mamlakatlari va xalqlari o'rtasidagi

o‘zaro aloqalarning va bog‘liqlikning tobora kuchayib borishi bilan tavsiflanadi. Shu bois globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmi iqtisodiy tahdidlarni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi sifatida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Mazkur mexanizm quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- mamlakat ichki va tashqi xavfsizligiga tahdidlarni aniqlash va bashoratlash maqsadida iqtisodiyot va jamiyat hayotini har tomonlama obyektiv monitoring qilish;
- beqarorlik va ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan qiymatlarini belgilash;
- iqtisodiyotning ichki va tashqi tahdidlarini aniqlash va ularni bartaraf etish borasida davlatning faoliyati.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari tarkibida ichki iqtisodiy va tashqi iqtisodiy mexanizmlarni ajratish mumkin. Ichki iqtisodiy mexanizmlarga quyidagilar kiradi:

- 1) mamlakat iqtisodiyotida bozor o‘zgarishlarini amalga oshirish;
- 2) iqtisodiyotni boshqarishda markaziy muassasalar bilan bozor instrumentlarining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash; 3) strategik zaxiralarni jamg‘arish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ichki iqtisodiy mexanizmining samarali amal qilishi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish va iste’mol hajmlarini sifat va miqdor jihatidan oshirish borasidagi imkoniyatlari;
- mamlakat ichida muhim mahsulot turlarini ishlab chiqarish darajasi. Mazkur ko‘rsatkich mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini tavsiflaydi va mamlakatning asosiy mahsulot turlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish imkoniyatlari to‘g‘risida xulosa qilish imkonini beradi;
- davlat strategiyalarini yetarlicha ko‘lam va sifatda amalga oshirilishini ta’min etuvchi asosiy iqtisodiy resurslar ustidan davlat nazoratining o‘rnataliganligi;
- turli indikatorlar va mezonlar orqali baholanuvchi moliya tizimining barqarorligi. Moliya tizimi barqarorligini baholash borasidagi mavjud indikatorlar nuqtayi nazaridan mamlakat moliya tizimi bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarning moliya tizimiga nisbatan birmuncha barqaror hisoblanadi. Moliya tizimi barqarorligining asosiy muammolari mezo va makrodarajada mavjud bo‘lgani holda, moliya institutlarining rivojlanganlik darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir;
- ilmiy va innovatsion potensialni qo‘llab-quvvatlash. Ilmiy salohiyatni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: YAIMning fan sig‘imliligi; fan

sohasi xodimlarining o‘rtacha yillik soni; iqtisodiyotda band bo‘lganlarning umumiy sonida ilmiy xodimlarning ulushi; ilmiy muassasalar soni;

- mamlakatda yagona iqtisodiy makonni barpo etish va uni talab darajasida ushlab turish;
- bozor iqtisodiyotining me’yorda faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash maqsadida davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni zarus me’yor darajasida tartibga solish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash vositalari – bu mamlakat iqtisodiyotining turli tahdidlardan ko‘rishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarini bartaraf qilish maqsadida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy va yetuk xulq-atvor, mafkuraviy, diniy, diplomatik, huquqiy va shu kabi normalar shuningdek, iqtisodiyotni boshqarishning turli: xalqaro, mintaqaviy, jamiyat va davlat boshqaruvi kabi darajalaridagi boshqaruv idoralari va tuzilmalarining umumiyligidir.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni aniqlashtirish imkonini beruvchi omillarni monitoring qilish va bashoratlash mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmining muhim elementi hisoblanadi. Monitoring iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari dinamikasini kuzatib borishning tezkor axborot-tahliliy tizimini ifoda etadi. U iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining aniq miqdoriy ko‘rsatkichlari asosida amalga oshirilishi lozim bo‘lgani holda, ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlarning beqarorligi va tez o‘zgaruvchanligi, tarmoqlar o‘rtasida nomutanosibliklarning mavjudligi va birinchi navbatda, moliyaviy resurslarning yetishmasligi sharoitida iqtisodiyotning ayni damdagи holatini baholashda katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda davlatning o‘rni muhim bo‘lib uning faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va ularning tavsifi quyidagi jadvalda keltirilgan.

### **19.1-jadval**

#### **Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va ularning tavsifi**

Yo‘nalishlar	Tavsifi
Iqtisodiy xavfsizlikning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan chegaraviy ko‘rsatkichlaridan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning amaldagi yoki bashorat qilinayotgan qiymatlarining chetga chiqishini aniqlash	Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish va ilmiy asoslangan bashoratlar asosida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbir va mexanizmlar ishlab chiqish. O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish dasturlarini, uning yo‘riqnomasi, mezon va ko‘rsatkichlarini ishlab chiiish.
Milliy iqtisodiyotga tahdidlardan mamlakatni olib chiqishga qaratilgan davlat dasturlarni ishlab chiqish	

<p>Milliy iqtisodiyotga nisbatan tahdidlarning vujudga kelishiga to'sqinlik qilish yoki ularning oldini olishga qaratilgan choratadbirlarni ishlab chiquvchi davlat boshqaruv organlari faoliyatini tashkil qilish</p>	<p>Xavfsizlik kengashi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan davlat byudjeti konsepsiyasini muhokama qiladi. O'zbekiston Respublikasi hukumati iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha davlat idoralari va muassasalarining ish faoliyatini muvofiqlashtiradi</p>
<p>Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan moliya va xo'jalik masalalari bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlarni ekspert o'rganish</p>	<p>Mamlakat iqtisodiyotiga xavf soluvchi tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha choratadbirlarni amalga oshirish va ularning ijrosini ta'minlash yuzasidan samarali nazorat o'rnatish</p>

O'zbekistonda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshiriluvchi davlat siyosatining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

### **1. Tuzilmaviy siyosat sohasida:**

#### **Makroiqtisodiy darajada:**

- yalpi talabni oshirish;
- jamg'armalar normasini oshirish va jamg'armalarning investitsiyalarga aylanishiga imkon beruvchi qulay investitsion muhitni yaratish;
- eksport ko'lami va geografiyasini kengaytirish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida import operatsiyalarini tartibga solish.

#### **Mikroiqtisodiy darajada:**

- 1) iqtisodiy jihatdan samarali korxonalarni qo'llabquvvatlash va ularni rag'batlantirish borasida zaruriy me'yoriyhuquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash. Bunday faoliyat turlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: hududlarda xalq iste'moli tovarlari va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, aholiga uy-joy va kommunal xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiyotning ustuvor soha va tarmoqlarida innovatsion faoliyatni jadallashtirish, dori-darmon va tibbiyot asbobuskunalarini ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va uni qayta ishslash, atrof-muhit muhofazasi borasida turli faoliyatlarni amalga oshirish;
- 2) samarasiz iqtisodiy tuzilmalarni tugatish yoki qaytadan tashkil qilish;
- 3) narxlarning o'sishini cheklash maqsadida kelishuv jarayonlarini tashkil qilish;
- 4) iqtisodiy subyektlarning xulq-atvorlariga bozor qoidalarini singdirib borish.

## **2. Ijtimoiy siyosat sohasida:**

1) kelgusi avlodlarning ehtiyoj va istaklarining qondirilishini shubha ostiga qo‘ymagan holda, jamiyat a’zolarining bugungi kundagi ehtiyojlarining to‘laqonli qondirilishiga imkon beruvchi mamlakatni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish asosida jamiyat birdamligini kuchaytirish;

2) transfert to‘lovlari ko‘rinishida aholiga ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatishni kengaytirish hisobiga aholi daromadlari o‘rtasidagi farqni qisqartirish. Bugungi kunda jahon banki bergen ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda qashshoqlik chegarasida kun kechirayotgan aholi soni umumiyligi aholi sonining 11,9 foizini tashkil etmoqda.

## **3. Ilmiy-texnik siyosat sohasida:**

2019-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini innovatsion jihatdan rivojlantirish konsepsiyasida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish maqsadida mamlakat ilmiy-texnik salohiyatini dunyoning ilg‘or mamlakatlari darajasiga olib chiqish ko‘zda tutilgan. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

- 1) mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- 2) mamlakatning texnologik jihatdan mustaqilligi va uning harbiy sohada xavfsizligini ta’min etuvchi turli hayot faoliyati sohalarida ilmiy-texnik ishlanmalar bazasini yaratish;
- 3) ilmiy-texnik mahsulotlar va texnologiyalarning dunyo bozorlariga chiqish.

## **4. Investitsion siyosat sohasida:**

Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi davrida ma’lum bir obyektiv shart-sharoitlar ta’siri ostida milliy iqtisodiyotni tubdan modernizatsiya qilish asoslarini ta’min etuvchi mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning investitsion omillari oldingi o‘ringa chiqadi. Milliy xo‘jalikning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash nuqtayi nazaridan xususiy investitsiyalarning jalb qilinishiga, investitsion faollikning oshishiga zamin yaratuvchi, qulay investitsion muhit yaratishni ko‘zda tutuvchi investitsion jarayonlarni boshqarishning aniq mexanizmini ishlab chiqish talab etiladi.

## **5. Hududiy siyosat sohasida:**

- 1) sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga katta ustuvorlik bergen holda, hududlar iqtisodiyotini qayta tashkil etish;
- 2) hududlarning mavjud imkoniyat va salohiyatlaridan to‘laqonli foydalanish maqsadida hududiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish;
- 3) noqulay shart-sharoitlarga ega bo‘lgan (Orolbo‘yi mintaqasi) hududlarni iqtisodiy qoloqlikdan olib chiqish;
- 4) hududlararo infratuzilma tizimlarini (transport, aloqa) rivojlantirish.

## **6. Moliya tizimi sohasida:**

- 1) soliq tizimi samaradorligini oshirish;
- 2) byudjet tanqisligini moliyalashtirishning noinflatsion usullaridan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- 3) umum davlat manfaatlari va ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda moliyaviy resurslarni samarali qayta taqsimlash;
- 4) dotatsiya va subsidiyalarni qisqartirish, byudjetda eng zarur bo‘lgan dotatsiyalarni saqlab qolish;
- 5) milliy mudofaa xarajatlarini maqbullashtirish.

## **7. Pul-kredit munosabatlari sohasida:**

- 1) milliy valyuta-so‘mning barqarorligini ta’minlash;
- 2) kassa xizmatlari ko‘rsatish va o‘zaro hisob-kitoblarning ishonchli tizimini yo‘lga qo‘yish;
- 3) bank omonatchilarining manfaatlarini o‘z vaqtida va samarali himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;
- 4) joriy valyuta va kapital operatsiyalarni davlat nazorat organlari tomonidan nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish;
- 5) mamlakat oltin-valyuta zaxiralarining kamayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik.

## **8. Xomashyo resurslari bilan ta’minlash sohasida:**

- milliy manfaatlarga ustuvorlik bergen holda, foydali qazilma konlarini sanoat usulida o‘zlashtirish va foydali qazilma konlarini razvedka qilish uchun investitsiyalarni ko‘paytirish.
- Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida: iqtisodiy faoliyat sohasida inson huquq va erkinliklarining buzilishida namoyon bo‘luvchi, uyushgan va iqtisodiy jinoyatchilikka faol qarshi kurashish.

### **1.9.2-jadval**

#### **Iqtisodiy xavfsizlikni boshqaruvchi davlat organlari**

Boshqaruv organlari	Boshqaruv organlarining funksiyalari

O‘zbekiston Respublikasining Xavfsizlik kengashi (xavfsizlik kengashi apparati, idoralararo komissiyalar va Xavfsizlik kengashi huzuridagi ilmiy kengash)	<ul style="list-style-type: none"> <li>- davlat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash, davlat hokimiyati idoralarining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini amalga oshirishga ko‘maklashish, davlatning yaxlitligini va uning suverinitetini asrash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsion vakolatlarini ta’minlash bo‘yicha zaruriy shart-sharoitlar yaratish;</li> <li>- milliy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy obyektlari sifatida davlat va jamiyat, shaxslarning hayotiy muhim manfatlarini belgilash;</li> <li>-mamlakat raqobatbardoshligi va milliy xavfsizlikni ta’minlash, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish;</li> <li>-milliy xavfsizlikni ta’minlash sohasida mamlakatning ichki va tashqi siyosati masalalari bo‘yicha davlat rahbari tomonidan qarorlar qabul qilish uchun Prezidentga takliflar tayyorlash;</li> <li>-davlat va jamiyat, shaxsga tahdid soluvchi ichki va</li> </ul>
---	---

	<p>tashqi xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha qarorlar tayyorlash;</p> <p>-favqulodda holatlarning oqibatlarini bartaraf qilishni tashkil etish bo‘yicha qarorlar qabul qilish, ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy va boshqa salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan favqulodda holatlarning oldini olish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish;</p> <p>-milliy xavfsizlikni ta’minlash va bu boradagi tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida ijro etuvchi hokimiyat idora va tashkilotlari faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish;</p> <p>-davlat rahbariga milliy xavfsizlikni ta’minlash borasida mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish yoki yangi organlar tashkil etish; -milliy xavfsizlikni ta’minlash sohasida boshqa masalalarni hal etish</p>
--	---

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot sanoat vazirligi	va	<ul style="list-style-type: none"> <li>-dunyo bozorlari konyunkturasi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, xorijiy dalatlarning iqtisodiy va savdo siyosatlarini monitoring qilish va bashoratlash, mamlakatning jamlanma moliyaviy balansini ishlab chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil va monitoring qilish;</li> <li>-milliy hisoblar tizimining umumiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlarini hisob-kitob qilish, qisqa, o‘rta va uzoq muddatli istiqbol uchun iqtisodiyot tarmoq va sektorlari, hududiy tuzilmalar va yaxlit mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini bashoratlash;</li> <li>-savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnik sohalarda mamlakatning boshqa xorijiy davlatlar bilan o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish va uning samaradorligini oshirish;</li> <li>-iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish borasida xalqaro tashkilotlar va xorijiy davatlarning mintaqaviy tuzilmalari bilan hamkorlik qilish bo‘yicha ijob etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;</li> <li>- O‘zbekiston Respublikasining Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘i</li> </ul>
Ijro etuvchi hokimiyat organlari (IV, Prokuratura, Davlat soliq qo‘mitasi)		<ul style="list-style-type: none"> <li>- Iqtisodiyot va sanoat vazirligining bevosita uslubiy rahbarligida iqtisodiyot sohasida milliy manfaatlarni himoya qilish va tegishli soha va tarmoqlar bo‘yicha iqtisodiy xavfsizlik bo‘yicha tahdidlarni baholash; mahalliy davlat hokimiyati organlari ishtirokida hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish</li> </ul>

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning ichki iqtisodiy mexanizmlari o‘z ichiga uni tashxislash va monitoring qilishning tashkiliy jihatlarini qamrab oladi. Monitoringni tashkil qilish uchun, birinchi navbatda, ijro etuvchi hokimiyat organlarining funksiya va majburiyatlarini aniqlashtirish; ijro etuvchi hokimiyat idoralarining o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish mexanizmlarini ishlab chiqish; ma’lumotlarni jamlash, kuzatish, qayd qilish, tahlil qilish va ularni saqlash bilan shug‘ullanuvchi idoralar ro‘yxatini shakllantirish; iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida iqtisodiy xavfsizlik borasidagi tahdidlarga qarshi kurashish hamda monitoring qilish borasida hokimiyat idora va tashkilotlarining funksiyalarini va ularni amalga oshirish borasidagi majburiyatlarini aniqlashtirish talab etiladi.

### **19.3-§. Mamlakatning harbiy-iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash**

Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik so‘f iqtisodiy metodlar orqali va shu bilan birga, noiqtisodiy tavsifdagi: siyosiy, harbiy, ilmiytexnik va boshqa usullar orqali ta’minlanishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda, ya’ni davlatning mudofaa

qobiliyatini mustahkamlash bilan bog‘liq qismi harbiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash sifatida qaraladi. Harbiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashni kengaytirilgan va tor ma’nodagi talqini mavjud. Harbiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashni kengaytirilgan talqini bu – davlatni tinchlik davrida hayotiy muhim manfaatlarini ishonchli himoya kafolatlarini beradigan harbiy va milliy xavfsizlikni iqtisodiy asoslari o‘rtasida optimal samarali nisbatni ta’minlashga hamda iqtisodiy va harbiy agressiya sharoitida xalq xo‘jaligini barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlanishiga aytildi. Harbiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning tor ma’nodagi talqini bu – mamlakat mudofaa xo‘jaligi kompleksining shunday rivojlanish holati darajasiki (xalq xo‘jaligining ba’zaviy va mudofaa tarmoqlari) unda harbiy-iqtisodiy qarama-qarshilik sharoitida uning mustaqil va barqaror faoliyat olib borishini kafolatlaydi hamda mamlakatni yetarli darajada mudofaa ta’minotining harbiy-iqtisodiy talablarini qondiradi.

Davlatning harbiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ikki: himoyalanganlik va hujumkorlik jihatini o‘zida mujassamlashi lozim. Harbiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning himoyalanganlik jihatni nisbatan importni xalq xo‘jaligining (birinchi navbatda, mudofaa) tarmoqlarida mahalliy ishlab chiqarish vositalari bilan almashtirishni va shu bilan birga, xorijiy ta’minotga qaramlik darajasini pasaytirish bilan bog‘liq.

Harbiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning hujumkorlik jihatni bu mamlakatni eksport salohiyatini sifat jihatdan oshirish va rivojlantirish asosida, mamlakat hisobidan ishlab chiqarish va uni ta’minlashga boshqa davlatlarning alohida tarmoqlarining iqtisodiy qaramligini kuchaytirish bilan bog‘liq. Boshqa davlatlar bilan o‘zaro teng iqtisodiy hamkorlikni ta’minlash, tashqi iqtisodiy aloqalarda ularni mamlakatga bosim o‘tkazishda o‘ziga xos ta’sir vositasi sifatida foydalanish bo‘yicha harakatlarini to‘xtatuvchi omil sifatida xizmat qiladi. Himoyalanganlik va hujumkorlik o‘rtasida optimal samarali to‘g‘ri nisbatni saqlash, davlatning harbiy-iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash strategiyasini shakllantirishning asosiy sifat jihatlari bo‘lib hisoblanadi.

Harbiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash davlatning tashqi va ichki siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Umumiy milliy xavfsizlikni ta’minlash muammosining eng muhim qismi bo‘lib harbiy xavfsizlikni ta’minlash hisoblanadi. Harbiy xavfsizlik bu davlatning mamlakatni harbiy tahdidlardan himoya qila oladigan holati tushuniladi. Harbiy xavfsizlikka mamlakatning shunday mudofaa qobiliyati va davlatlararo munosabatlar darajasiga aytildik, unda urush bo‘lish xavfi minimumga tushiriladi. Biror-bir davlatda boshqa bir davlatga nisbatan harbiy harakatlarni boshlashga undovchi motivlar hamda o‘zi uchun noqulay sharoitdan chiqish maqsadida keskin darajada harbiy qurollanish dasturlarini qabul qilishga majburlovchi shartsharoitlar bo‘lmaydi. Harbiy xavfsizlik muammosi to‘g‘ridanto‘g‘ri harbiy tahdidlarni bartaraf etish bilan bog‘liq.

Harbiy xavfsizlikning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, harbiy kuch ishlatalish vositalari orqali milliy xavfsizlik manfaatlari himoya qilinadi. Harbiy xavfsizlik ichki va tashqi jihatlarga ega. Harbiy xavfsizlikning tashqi jihatni xorijdan kelayotgan harbiy kuchlarni to‘xtatish yoki unga nisbatan aks ta’sir eta olish qobiliyatini ifoda etadi.

Bugungi zamon urushi iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning umumiy tizimida, iqtisodiyotni barqarorligini ta’minlash davlatning iqtisodiy faoliyatining muhim yo‘nalishi sifatida baholanadi. Davlatning iqtisodiyotni barqarorligini ta’minlashdagi faoliyatining muhim yo‘llari sifatida sanoat ishlab chiqarishni mamlakat mintaqalari bo‘yicha to‘g‘ri joylashtirish; mintaqalar bo‘yicha muhim sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish yoki bir-biriga bog‘liq va profili bo‘yicha yaqin korxonalarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish; kooperatsiyadan samarali foydalanish; mintaqalarning sanoat korxonalarini kompleks rivojlantirish; mamlakat mintaqalari bo‘yicha moddiy zaxiralar yaratish va ularni samarali joylashtirish; moddiy zaxiralarni ishonchli saqlashni ta’minlash; fuqaro mudofaasi bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazish va nisbatan ta’sirchan va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyotning muhim elektroenergetika, neft-gaz, ximiya, mashinasozlik, transport hamda aloqa va shu bilan birga oziq-ovqat sanoati) tarmoqlarini barqaror rivojlanishini ta’minlash; jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi sifatida aholini himoya qilish (aholini evokuatsiya qilish va xavfsiz joylarga ko‘chirish); urush davrida talofat ko‘rgan sanoat korxonalarini tiklash; urush sharoitida iqtisodiyotni ishonchli va samarali boshqarishni ta’minlash.

Xulosa sifatida iqtisodiy xavfsiz sifatida aholisi yuqori turmush darajasiga ega bo‘lgan va mamlakat miqyosida va jahon arenasida yuqori ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’milay olgan; davlatning ichki va tashqi dunyodagi har qanday o‘zgarishlarga qaramay o‘z manfaatlarini barqaror amalga oshira olish imkoniyati; jahonning boshqa davlatlari iqtisodiyotiga nisbatan mustaqilligi; davlatning iqtisodiy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda mustaqilligi; iqtisodiy ziddiyatlarni hal etishda yuqori madaniyatga ega bo‘lgan mamlakatga aytiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligiga asosiy tahdidlarni aytib bering.
2. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari qanday?
3. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ichki iqtisodiy mexanizmlariga nimalar kiradi?
4. Mamlakatning ilmiy-texnik siyosat sohasidagi asosiy tahdidlarni sanab o‘ting.

5. Mamlakatning pul-kredit munosabatlari sohasidagi asosiy tahdidlariga nimalar kiradi?

6. O‘zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni boshqaruvchi davlat organlari va ularning vazifalarini sanab o‘ting.

7. Mamlakat ichki va tashqi xavfsizligiga tahidlarni aniqlash va bashoratlashdan maqsad nima?

8. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmlariga nimalar kiradi?

9. Xalqaro savdoning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni qanday?

10. Mamlakatning harbiy-iqtisodiy xavfsizligi nima?

11. Qanday mamlakatni harbiy-iqtisodiy xavfsizligi ta’minlangan deb hisoblasa bo‘ladi?

12. Iqtisodiy xavfsizligi ta’minlangan davlatlar deb qanday mamlakatlarga aytiladi?

## **20-mavzu. TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIK VA MAMLAKAT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASH**

### **Reja**

20.1-\$. Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlarga tahdidlar

20.2-\$. Davlatning tashqi qarzi va uni tartibga solish metodlari

20.3-\$. Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda bojxona organlarining o‘rni

20.4-\$. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmlari

### **20.1-\$. Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlarga tahdidlar**

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishining shartsharoitlari va tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari Respublika davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan qaror topa boshladi. Bunday vaziyatda tashqi iqtisodiy majmuani boshqarishning o‘ziga xos tizimini shakllantirish, tashqi aloqalarni yo‘lga qo‘yish borasida qoida va tamoyillarni ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilish yo‘llarini belgilash taqozo etiladi.

O‘zbekistonning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo‘jalik aloqalarida ishtirok etishning asosi ochiq turdagи iqtisodiyotni vujudga keltirishdir. Shu sababli, respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin qisqa davr ichida 80 dan ko‘p davlat bilan diplomatiya munosabatlarini o‘rnatdi, dunyoning 20 dan ortiq davlatida diplomatiya elchixonalarini ochdi, 50 dan ortiq xalqaro tashkilotlar - BMT iqtisodiy muassasalari, jahon banki, xalqaro bank, xalqaro valyuta fondi, xalqaro moliya korporatsiyasi, iqtisodiy taraqqiyotga ko‘maklashuvchi tashkilot kabi boshqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a’zo bo‘lib kirdi.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilish talablaridan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi zarur bo‘lgan barcha muassasalar (Investitsiya va tashqi savdo vazirligi va uning hududiy boshqarmalari, tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, bojxonalar xizmati va boshqalar) amalda yangidan tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasidan tortib boshqaruvning mahalliy darajasi va korxonalargacha bo‘lgan xo‘jalik subyektlarida tegishli tashqi iqtisodiy bo‘limlar tuzildi. Dunyoning bir qancha mamlakatlarida savdo uylari ochildi va savdo-sanoat palatalari barpo etildi.

Tashqi savdo bilan birga iqtisodiy hamkorlikning boshqa shakllari ham sezilarli darajada rivojlandi. Respublika hududida xorijiy sarmoya ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning eksporti hajmi mamlakat umumiy eksportining 2019-yilda 18,1 foizini tashkil qilgan (2002-yil 14,8%). Bunday korxonalarning asosiy qismi sanoat tarmoqlari (45%) savdo va umumiy ovqatlanish (23,8%) sohalarida to‘plangan.

Dastlabki davrlarda respublikamizda tashqi savdo ikki yo‘nalish bo‘yich



MDH mamlakatlari bilan hukumatlararo bitimlar va xorijiy mamlakatlar bilan erkin muomaladagi valyutada hisobkitob qilish asosida amalga oshirildi.

Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Keyingi yillar mobaynida eksport tarkibida raqobatbardosh tayyor mahsulot salmog‘ining barqaror o‘sish tendensiyasi va xomashyo yetkazib

beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushining kamayib borayotgani yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Ayni vaqtida O‘zbekiston uchun an’naviy eksport xomashyosi bo‘lgan paxta tolasining bu boradagi ulushi 2003yildagi 20% dan, 2019-yilda 1,6% ga tushdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda Markaziy Osijo davlatlarining ko‘p tomonlama aloqalari va hamkorligini rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi yagona iqtisodiy makon to‘g‘risida tuzilgan shartnoma samara bera boshladi. Ularning sanoatini integratsiyalashtirishga qaratilgan dastur ishlab chiqildi. Mamlakat tashqi iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda xalqaro savdoning o‘rni quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- xalqaro savdo yordamida barcha xo‘jalik aloqalarining natijalari ro‘yogda chiqadi, bu o‘z navbatida, kapital va ishchi kuchini olib kirish yoki olib chiqish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, ilmiy-texnik hamkorlik aloqalarining kengayishida aks etadi;
- jahon bozorida savdo operatsiyalarini amalga oshirishning faollashuvi mamlakat iqtisodiyoti o‘sish sur‘atlarini belgilab beradi;

- xalqaro savdoning rivojlanishi mintaqaviy integratsiyani ta'min etishning muhim asosi bo'lib hisoblanadi, bu esa kelgusida xalqaro mehnat taqsimotining yanada chuqurlashishiga zamin yaratib beradi;
- xorijiy kredit va qarz mablag'larini jalg qilgan holda, milliy iqtisodiyotda investitsiyalash jarayonlari faol amalga oshiriladi.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida tariflar bo'yicha bosh kelishuv, Jahon savdo tashkiloti, turli xizmatlar savdosi bo'yicha bosh kelishuv kabi institutlar doirasida amal qiluvchi ko'p tomonlama kelishuvlar xalqaro savdoni tartibga solishda muhim o'rinni tutadi.

Xalqaro savdo bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Iqtisodiy resurslarning harakatchanligi mamlakatlar o'rtasi o'zidagiga qaraganda ancha past bo'ladi. Masalan, ishchilar mamlakatning o'zida viloyatdan viloyatga, hududdan hududga erkin o'tishi mumkin. Mamlakatlar o'rtasidagi til va madaniy to'siqlari haqida gapirmaganda ham, immigratsion qonunlar ishchi kuchining mamlakatlar o'rtasidagi migratsiyasiga qattiq cheklashlar qo'yadi.

2. Soliq qonunchiligidagi, davlat tomonidan tartibga solishning boshqa tadbirlaridagi farqlar va boshqa qator muassasaviy to'siqlar real kapitalning milliy chegara orqali migratsiyasini cheklaydi.

3. Har bir mamlakat har xil valyutadan foydalanadi. Bu mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdoni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

4. Xalqaro savdo siyosiy aralashuv va nazoratga mahkum bo'lib, bu ichki savdoga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlardan xarakteri va darajasi bo'yicha sezilarli farqlanadi.

Mamlakatlar xalqaro savdo yordamida o'zlarining davlatlararo ixtisoslashuvini rivojlantirishi, resurslar unumdorligini oshirishi va shu orqali ishlab chiqarishning umumiyligi hajmini ko'paytirishi mumkin. Alovida davlatlar, eng yuqori nisbiy samaradorlik bilan ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovarlarga ixtisoslashishi va ularning o'zlarini samarali ishlab chiqarish holatida bo'lmagan tovarlarga ayirboshlash hisobiga yutish mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi barcha mamlakatlarda eng yuqori korrupsiyalashgan va kriminogen soha bo'lib hisoblanadi. Bunga sohadagi qator ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tavsifdagi omillar ta'sir etadi. Ularga:

- Tashqi iqtisodiy faoliyat rejimining jadal liberallashuvi;
- Ichki va jahon bozorlarida baholar tuzilmasining keskin farq qilishi (ya'ni xomashyo va energiya tashuvchilarning ichki baholari, odatda, tashqi baholardan sezilarli darajada past va shu bilan birga, iste'mol mahsulotlari bahosi ularning jahon bozorlaridagi bahosidan sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Bu ushbu soha faoliyatini

keskin serdaromadli sohaga aylantiradiki, natijada katta daromadlar sohada korrupsiya va iqtisodiy jinoyatchilikni keskin avj olishigi olib keladi);

- Investitsion muhitning yaxshi emasligi;
- Soliq siyosatining samarali emasligi va soliq yukining yuqoriligi (bojxona – tarif siyosati fiskal tavsifga ega bo‘lib, uning asosiy maqsadi byudjetning daromadlar qismini to‘ldirishga qaratilgan. Natijada soliq stavkalarining darajalari rivojlangan davlatlarning soliq stavkalari darajasidan ancha yuqori. Bu, o‘z navbatida, kontrabandaning shakllanishi va kuchayishiga sabab bo‘lmoqda);
- Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida iqtisodiy munosabatlarning kriminallashuvi, jinoyatchilik yo‘li orqali topilgan daromadlarni ligallashtirish omiliga aylanib bormoqda;
- Eksport va valyuta nazoratini yetarli darajada samarali emasligi;
- Bojxona organlarini malakali kadrlar bilan yetarli darajada ta’milanmaganligi;
- Bojxona va valyuta qonunchiligidagi qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar va muammolar;
- Biznes jinoyatchiligidagi tashqi iqtisodiy aloqa kanallaridan foydalanish (narkotiklar, xavfli mahsulotlar, qurolni noqonuniy sotish);
- Uyushgan jinoyatchi guruqlar faoliyatini kuchayishi (nazarat qilinmaydigan davlat foydasidan chegirmalar olish, soliqqa tortishdan daromadlarni yashirish, xorijiy banklarda valyuta chegirmalarini joylashtirish va ulardan xorijda shaxsiy manfaatlarda foydalanish).

Bugungi kunda biznes kapitalni faol ravishda chetga investitsiya qilmoqda. Kapitalni chetga chiqarish zayomlar ko‘rinishida, kreditlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalar, pul o‘tkazmalari moliyaviy resurslarni depozitlarga joylashtirish va h.k. shakllarda amalga oshmoqda. Kapitalni xorijga chiqib ketishi O‘zbekiston iqtisodiyotiga ikkiyoqlama ta’sir etadi. Birinchidan, xorijda sotib olingan ishlab chiqarish aktivlari O‘zbekiston kompaniyalariga yangi sotish bozorlariga, texnologiyalar va resurs manbalariga, biznesni boshqarishning zamonaviy usullariga va xalqaro kooperatsiya hamda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning imkoniyatlaridan foydalanib, iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirishga ega bo‘ladi.

Milliy kapitalni tashqi iqtisodiy ekspansiyasi mamlakatni jahon iqtisodiyotidagi geosiyosiy o‘rnini va pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, kapitalning chetga chiqishi, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashdagi resurs bazasini zaiflashtiradi. Kapitalni katta miqyosda chiqib

ketishi esa mamlakat iqtisodiyotini investitsiyalar, soliq to‘lovlari va ijtimoiy dasturlar shaklida foydalanish mumkin bo‘lgan moliyaviy resurslardan cheklaydi.

Respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun qulay shartsharoitlar yaratilmoqda hamda zarur bo‘lgan infratuzilma tashkilotlari va muassasalarini tuzishga katta ahamiyat berilmoqda.

Investitsiya – bu takror ishlab chiqarish, iqtisodiy o‘sish sifatining moliyaviy manbai, ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy munosabatlar tizimi rivojlanishini belgilovchi omildir. Investitsiya fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini amaliyotga joriy etishni va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonini ta’minlaydi. Iqtisodiyotda jadallahgan iqtisodiy o‘sishni ta’minalash iqtisodiyotning ochiqligiga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga zamonaviy texnologik tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkoniyatlariga bog‘liq. Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha, tashqi iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan xorijiy investitsiyalarni mamlakatda yig‘uvchi korxonalarni tashkil etishga yo‘naltirish bu ularni boshi berk ko‘chaga yo‘naltirish bilan mos keladi. Chunki bu sharoitda xorijiy investor yuqori texnologiyalarni o‘zida saqlab qolib korxonaga malakasiz texnologik operatsiyalarni yuklab qo‘yadi.

Iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan iqtisodiyotga investitsion loyihalarni joriy etishda loyihaning multiplikativ samarasiga, ya’ni ishlab chiqarishni va unga bog‘liq holda uning texnik-texnologik rivojlanishini, mahsulot raqobatbardoshligini o‘sishi kabi omillarni ham hisobga olish lozim. Multiplikativ samara yangi ish o‘rinlarini yaratadi, to‘lov qobiliyatini oshiradi, soliqlar shaklidagi davlat daromadlarini ko‘paytiradi va yakuniy hisobda iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

Iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan investitsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi shakllarda amalga oshishi maqsadga muvofiq:

- Investitsion faoliyat to‘g‘risida qabul qilingan qonun va qarorlarda innovatsion jarayon ishtirokchilarining manfaatlari himoya qilinishi lozim;
- iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlarini va unda milliy va mintaqaviy ustuvorliklarni ta’milagan holda istiqbolli investitsiya dasturlarini ishlab chiqish lozim;
- muhim mudofaa, ilmiy, iqtisodiy va ijtimoiy obyektlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya qilish;



- amortizatsion, soliq va boshqa siyosatlarni hisobga olgan holda bilvosita omillar orqali investitsion jarayonlarga ta'sir etish;

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini —Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yiliда amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risidaлиgi Farmoni hamda Raqamli O'zbekiston - 2030dasturi qabul qilindi. Dasturga ko'ra 2030-yilgacha axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalariga asoslangan raqamli iqtisodiyot ulushini mamlakat yalpi ichki mahsulot tarkibida 10% ga ko'tarish kelajakdag'i strategik vazifalarimizdan biridir. Shu munosabat bilan davlatning investitsiya siyosatida ustuvor sohalar bo'lib iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan iqtisodiyotda sanoatda raqamli iqtisodiyotga bog'liq bo'lган yangi AKT, bio va nanotexnologiyalar, kimyo, farmatsevtika, mashinasozlik va metalni qayta ishslash, mikroelektronika, nozik kimyo texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya va lazer-optik texnologiyalar, tiklanadigan energetika yutuqlaridan foydalanish, yangi materiallar ishlab chiqarish kabi sanoat tarmoqlarini shakllantirish va faollashtirish asosida tarkibiy qayta o'zgartirishlarni jadallashtirishga va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'zbekiston Respublikasining Xalqaro valyuta fondi va jahon banki bilan hamkorligi tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishdagi navbatdagi yo'nalishdir. Bu yo'nalishda XVF bilan tizimli qayta qurilishlarni mablag' bilan ta'minlash, tizimli va makroiqtisodiy siyosat sohasidagi tadbirkorlarni qo'llabquvvatlash Dasturlari ma'qullangan.

Jahon bank tashkilotlari – Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XRTB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Investitsiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA) bilan hamkorlik O'zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, XRRB yo'li bilan O'zbekistonga paxta yetishtirish usullarini zamonaviylashtirib, uning

jahon bozoriga chiqishiga ko'maklashish va unumdonlikni oshirish uchun asos yaratish maqsadida salmoqli mablag' ajratilgan. Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) ham O'zbekistonda bir qator loyihalarni amalga oshirishda ishtiroy etmoqda.

XVFning tavsifiga ko'ra to'lov balansi mamlakatning ma'lum bir davrda jahonning boshqa davlatlar bilan

tashqi iqtisodiy operatsiyalari to'g'risidagi yalpi ma'lumotlar tartiblashtirilgan statistik



hisobot bo‘lib hisoblanadi. Boshqacha qilib aytilganda, to‘lov balansi – ushbu mamlakatning rezidentlarining boshqa dunyo bilan ma’lum bir davrdagi jami iqtisodiy kelishuv va shartnomalarning tartiblashtirilgan yozuvi bo‘lib hisoblanadi. *To‘lov balansi* – mamlakat rezidentlari (uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o‘rtasida ma’lum vaqt oralig‘ida (odatda, bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

To‘lov balansidagi barcha bitimlar o‘z ichiga joriy va kapital bilan operatsiyalarni olishi sababli u uchta tarkibiy qismdan iborat bo‘ladi:

- joriy operatsiyalar hisobi;
- kapital harakati hisobi;
- rasmiy zaxiralarning o‘zgarishi.

Mamlakatning tashqi to‘lov balansi mazkur davlatning chet ellik sheriklari bilan xalqaro iqtisodiy munosabatlarining holatini ifodalab, uning kredit-pul, valyuta, byudjet-soliq, tashqi savdo siyosatini amalga oshirish va davlat qarzlarini tartibga solishi uchun indikator bo‘lib xizmat qiladi.

To‘lov balansining taqchilligi Markaziy bank rasmiy zaxiralarini qisqartirish hisobiga moliyalashtirilishi mumkin.

Rasmiy zaxiralarning asosiyları quyidagilar:

- chet el valyutalari;
- oltin;
- mamlakatning XVFdagi kredit ulushi;
- qarz olishning maxsus huquqi (SDR) va h.k.

Balans taqchilligi rasmiy zaxiralar hisobiga moliyalashtirilganda, ichki bozorda chet el valyutalari taklifi ortadi, milliy valyutalar taklifi esa nisbatan kamayadi va uning ayriboshlash kursi nisbatan o‘sib milliy iqtisodiyotga inqirozli ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, to‘lov balansining aktiv qoldig‘i Markaziy bank rasmiy valyuta zaxiralarining o‘sishi bilan birga borganda ichki bozorda chet el valyutalari taklifini kamaytiradi, milliy valyuta taklifi esa nisbatan ortadi va uning ayriboshlash kursi pasayib, iqtisodiyotga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Markaziy bank tomonidan chet el valyutalarining bunday sotilishi va sotib olinishi rasmiy zaxiralar bilan operatsiyalar deyiladi. Rasmiy zaxiralar bilan operatsiyalar natijasida joriy hisobdagi qoldiq summasi, kapital harakati hisobi va zaxiralar miqdorining o‘zgarishi «nol»ni tashkil qilishi zarur.

Mamlakat uzoq davr davomida joriy operatsiyalar bo‘yicha taqchillikni bartaraf etishni kechiktirishi va o‘zining rasmiy valyuta ehtiyojlarini to‘liq sarflashi natijasida

to‘lov balansi inqirozi kelib chiqadi. Mamlakat tashqi qarzlarni to‘lash holatida bo‘lmanligi sababli, chet eldan kreditlash imkoniyati mavjud bo‘lmaydi.

Iqtisodiyot subyektlarining davlat va Markaziy bank siyosatiga ishonchsizligi to‘lov balansi inqirozini chuqurlashtiruvchi omil hisoblanadi. Milliy valyuta qadrsizlanishining kutilishi chet el valyutalariga chayqovchilikka qaratilgan talabni rag‘batlantiradi. Bu Markaziy bankning milliy valyuta qadrsizlanishining oldini olishga qaratilgan harakatini ancha qiyinlashtiradi, chunki uning rasmiy valyuta ehtiyojlari bir vaqtda to‘lov balansining taqchilligini moliyalashtirish va chet el valyutalariga o‘sib boruvchi chayqovchilik talabini qondirish uchun yetarli bo‘lmay qoladi. Bunday holda valyutalarning, «xufyona bozori» vujudga kelib, rivojiana boshlaydi.

## **20.2-§. Davlatning tashqi qarzi va uni tartibga solish metodlari**

Bugun keng ko‘lamda rivojlanib borayotgan jahon moliyaviy inqirozining asosiy sabablaridan biri tashqi qarz va uning to‘lovi muammolari bilan bog‘liq. Ko‘plab davlatlarning tashqi qarz masalasidagi puxta o‘ylanmagan siyosati ularning iqtisodiyotini zaif, tashqi omillarga qaram, xatarli vaziyatlar oldida himoyasiz va nochor ahvolga solib qo‘yanini kuzatish qiyin emas. O‘zbekiston o‘zining mustaqil taraqqiyoti davrida qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo‘yicha jalb etish tamoyiliga doimo amal qilib kelmoqda.

Tashqi qarz muammosini hal etish bo‘yicha umumiy strategiyani ishlab chiqishda, jahon amaliyotida mashhur bo‘lgan hamda noan’anaviy usullardan foydalanish mumkin. Tashqi qarz muammosini xorijiy mamlakatlarni sobiq SSSRga nisbatan debitor qarzdorligidan foydalanish tajribasi orqali hal etish mumkin. Hal etish yo‘llaridan biri bu o‘zaro hisob-kitob qilish sxemasi bo‘lishi mumkin. Muammoni hal etishning ushbu yo‘li jahonning yetakchi davlatlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanganda samarali bo‘lishi mumkin. Tashqi qarzning ma’lum qismini O‘zbekiston Respublikasi sanoat kompaniyalarining aksiyalariga investitsiyalash, ya’ni konversiya qilish va shu bilan birga, respublika tashqarisidagi davlat mulklari, bino va inshootlarini hisobga o‘tkazish orqali ham muammoni hal etish mumkin.

Tashqi qarz inqirozi sharoitida muammoni hal etish va boshqarishning eng tez va og‘riqsiz metodlarini tanlash muhim hisoblanadi. Tashqi qarzni boshqarish metodlari va uning shartlari kreditorlar va qarzdorlar o‘rtasidagi keskin va ba’zi hollarda siyosiy tus oladigan kurash obyekti bo‘lib hisoblanadi, chunki bu inqiroziy holat ikki tomon uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Tashqi qarzini davlat tomonidan tartibga solish va boshqarishning moliyaviy va ma’muriy metodlari mavjud. Odatta, ushbu muammoni hal etishda har ikkala moliyaviy va ma’muriy metodlar termasidan foydalaniladi. Mumkin qadar ma’muriy uslublardan kam foydalanish maqsadga muvofiq.

Davlatning tashqi qarzini boshqarishning ma'muriy metodlariga, yuqorida tushirilgan buyruq, ko'rsatmalarga asoslangan ma'muriy taqsimot uslubidir. Ma'muriy metodning samaradorlik mezoni bo'lib iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlikni hisobga olmagan holda har qanday mumkin bo'lgan yo'l bilan buyruq va ko'rsatmalarni tezkor ravishda ijrosini ta'minlashdir.

Davlatning tashqi qarzni tartibga solish va boshqarishning asosiy ma'muriy uslublariga quyidagilar kiradi:

- qayta moliyalash;
- qarzlarni bekor qilish (qarzni to'lashdan voz kechish);
- qarzni hisobdan chiqarish;
- qarzni restruktrizatsiya qilish.

Qayta moliyalash g'oyasining mohiyati shundaki, qarzdorga yangi turdag'i investitsiyalarni moliyalashtirish to'g'risida va'dalar berib uni qarzni to'lashga nisbatan rag'batlantirish bo'lib hisoblanadi. Shunga muvofiq ravishda yangi zayomlarni qarzdor mamlakatlarga taqdim etish orqali ularda oldingi qarzlar bo'yicha to'lovlarini amalga oshirish uchun yetarli darajada moliyaviy mablag'lar va rag'batlarga ega bo'ladi.

Qarzlarni bekor qilish ikki sababga ko'ra amalga oshiriladi: davlatni moliyaviy to'lovga qobiliyatsizligi, ya'ni uni bankrotligi; yoki davlat tepasiga yangi hokimiyatni kelishi sababli noma'lum sabablarga ko'ra ular o'zlaridan oldingi hokimiyatning moliyaviy javobgarligini tan olgisi kelmaydi. To'lovlarini to'xtatish iqtisodiyotdagi qiyinchiliklar, ishlab chiqarishning pasayishi, savdo sharoitlarini yomonlashuvi, tabiiy ofatlar va urushlar sababli to'lovga imkoniyatni yo'qligini taqdim etishi mumkin.

Qarzdor davlat iqtisodiyoti uchun qarzlarni bekor qilish quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

Xalqaro moliyaviy bozorlarga kirishga potensial darajada chek qo'yiladi, ya'ni bundan keyingi davrlarda qarz olish imkoniyatlarini yo'qga chiqaradi hamda import hajmi qisqarishi mumkin;

Boshqa davlatlardagi moliyaviy va real aktivlarni potensial darajada ekspropriatsiya qilinishi mumkin.

Qarzni restruktrizatsiya qilish bu qarzdor uchun kredit munosabatlaridagi qarzlarni to'lashning original sxemasiga nisbatan samarali yangi rejasini ishlab chiqishdir. Bu bilan asosiy qarz summa o'zgarmagan holda kredit foizlarini to'lash davrida uning imtiyozli davri uzaytiriladi. Qarzdorlik bo'yicha to'lovlar qisqa davr uchun to'lovlar odatda bir yil, nisbatan uzoq 10 va undan ortiq davrlarga uzaytiriladi. Bu qarzdor mamlakat uchun qisqa muddatli yengillik beradi, biroq umumiylar qarz summasi qisqarmaydi balki berilgan qo'shimcha muddat uchun foiz to'lovlarini hisobiga o'sishi mumkin.

Qarzni restruktrizatsiya qilish bu mamlakat uchun estafetadagi qisqa bir dam olishni, iqtisodiyotni jonlantirish, iqtisodiy o'sish va investitsiya uchun, istiqbolda tashqi qarzga xizmat ko'rsatish qobiliyatini kuchaytirish uchun ma'lum bir vaqt beradi. Uzoq istiqbolda qarz baribir o'sadi, chunki qarzni restruktrizatsiya qilish o'zida uni hisobdan chiqarish yoki barcha qarzlarni bekor qilishni olmagan. Faqatgina qarzga xizmat ko'rsatish shartariga o'zgartirish: ya'ni qarzni qoplash muddati, uni uzaytirish va foiz stavkalari kiradi.

Davlatning tashqi qarzni tartibga solishning moliyaviy metodlarining asosiy mezonlari bo'lib moliyaviy ko'rsatkichlar va hisobotlar hisoblanadi.

Moliyaviy metodlarga quyidagilar kiradi:

1) konversiya;

2) xususiy ssuda va investitsiyalarni jalb etish orqali qarzgato'liq xizmat ko'rsatish;

3) rivojlanishni moliyalashtirishda foiz to'lovlaridan qarzga xizmat ko'rsatishda foydalanish.

Tashqi qarzni konversiyasi bu tashqi qarzni boshqa turdagи majburiyatlar bilan almashtirishni ta'minlovchi hamda qarzdor davlatlar iqtisodiyotiga nisbatan sezilarsiz bo'lgan barcha mexanizmlar tushuniladi. Ularga qarzni investitsiyaga konversiyalash, tovarlar taklifi orqali qarzni o'zaro hisob-kitob qilish, o'ziga xos shartlar asosda qarzni kreditor tomonidan qayta sotib olish, qarzni uchinchi mamlakatlarning qarz majburiyatlariga almashtirish, qarzni mulk, obligatsiya va infratuzilmaning qimmatbaho qog'ozlari hisobiga o'zaro hisob-kitob qilish.

Tashqi qarzni boshqarish kredit va qarzdorlik turiga qarab (xususiy va ofitsial) boshqariladi. Turli kreditorlarga taklif etiladigan bir nechta variantlar turi ishlab chiqilgan. Ulardan biri bu – davlatlararo kafolatlangan zayomlarni restruktrizatsiya qilish. Bunday restruktrizatsiya qilish bu qarzni kamaytirish yoki unga xizmat ko'rsatish muddatini qisqartirish yo'naliшlarini tanlashga qaratilgan bo'ladi.

Boshqa variantlarga – tijorat qarzni restruktrizatsiya qilish. Tijoratchi kreditordan qarzni qayta rasmiylashtirish ikki yo'l orqali amalga oshadi: qarzdorlikni kamaytirish, ya'ni qarzdorlik majburiyatlarini diskonti bilan past daromad darajasida mamlakatning ikkilamchi bozoridan hamda xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasining qarzdorlikni kamaytirish fondi orqali sotib olish mumkin.

Keyingi paytlarda boshqa metodlardan ham foydalanilmoqda. Ularga:

Qarzdorlikni sotib olish. Qarzdor mamlakatga ikkilamchi qimmatbaho qog'ozlar bozoridan qarzdorlikni sotib olishga imkoniyat yaratiladi;

• Qarzdorlikni aksiyalarga almashtirish. Xususiy kreditor tomonidan qarzdor mamlakat kompaniyalarining aksiyalariga konvertatsiya qilish. Investorlar ikkilamchi qimmatbaho qog'ozlar bozoridan qarzdorlikni sotib oladi, keyin uni mamlakat

markaziy banki tomonidan mos instrumentlar orqali, ya’ni qo’shimcha aksiyalar sotib olish uchun milliy valyutaga transformatsiya qilinadi;

- Asosiy qarz bo‘yicha qarzdorlik majburiyatlarini va uning foizlarini mamlakatga qarzdorlik yuklamasini kamaytirish maqsadida maxsus diskontlangan yoki tenglashtirilgan obligatsiyalarga almashtirish;
- Qarzdorlik majburiyatlarining bir qismini qarzdor mamlakatning milliy valyutasiga mamlakatda turli ekologik, onalik va balalikni himoya qilish, tarixiy obidalarni saqlash kabi fondlarni vujudga keltirish maqsadida almashtirish.

Turli xildagi tashqi qarzni aholi jon boshiga past va o’rta daromadli davlatlar uchun turli xildagi restruktrizatsiya qilishni boshqarish konsepsiyalari mavjud. Rasmiy kreditorlarga qarzdorlikni Parij klubni doirasi asosida qayta rasmiylashtirish amalga oshirilmoqda. Har o’n yilda qarzdorlik qoplanmasa, uning summasini ikki baravarga o’sishi yuz berishi mumkin. Yirik miqdordagi qarzdorlik agar kreditor mamlakatlar manfaatiga mos kelmasa, mamlakatning mustaqilligini namoyon bo‘lishi imkoniyatlarini cheklaydi.

Davlat qarzini boshqarishning u yoki boshqa metodlaridan tanlashda ularning bugungi kunda va istiqbolda mamlakatning iqtisodiy va milliy xavfsizligida qanday ifodalanishini chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

### **20.3-§. Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda bojxona organlarining o‘rni**



Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda davlatning bojxona organlari muhim o‘rin tutadi. Bojxona organlari mamlakatdan chetga ruxsatsiz noqonuniy ravishda kapital, milliy va madaniy boyliklar, intellektual boyliklarni olib ketilishi, noqonuniy valyuta operatsiyalari, qurol-yarog‘, strategik material va narkotik moddalar kontrabandasining oldini olishga

qaratilgan faoliyat olib boradi. Bojxona siyosati davlat tashqi savdo faoliyatining bir qismi bo‘lib, tovarlarni eksport va import qilishning shart-sharoitlari, hajmi va tarkibini tartibga solib turadi. Bojxona siyosatining mohiyati bojxona tarif qonunchiligidagi, bojxona ittifoqlari va konvensiyalari, erkin iqtisodiy zonalar, ta’rif blokadalarini va boshqalarni tashkil etishda namoyon bo‘ladi. Tovarlarni olib kirish va olib chiqishning davlat tomonidan rag‘batlantirilishi yoki chegaralanishiga bog‘liq holda iqtisodiy va bojxona siyosatining quyidagi to‘rt asosiy turini ajratish mumkin.

1. Qisman cheklash siyosati. Bu siyosat ichki bozorga ba’zi tovarlarni, masalan, mamlakat milliy mafkurasiga hamda aholi turmush tarziga va ma’naviyatiga salbiy ta’sir qiladigan kinovideo mahsulotlari va turli nashrlarni kiritmaslik maqsadida qo‘llaniladi.

2. Proteksionizm siyosati. Bu ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoyalashdir.

3. Erkin savdo siyosati-fritrederlik. Bu tashqi savdodagi cheklashlarni eng minimumiga tushirishdir. Odatda, u o‘z tovarlarining raqobatbardoshligi yuqori bo‘lgan va bozorlarda yetakchi mavqega ega mamlakatlar tomonidan qo‘llaniladi.

4. Taqchil bozorni to‘yintirish – teskari proteksionizml siyosati. Bu faqat milliy bozorda chuqur taqchillik sharoiti yuz berganda va unda hammaga o‘rin topiladigan sharoitdagina samarali hisoblanadi.

Bojxona organlari tomonidan tashqi savdoni tartibga solish metodlari bo‘lib quyidagilar kiradi:

- **proteksionizm, ya’ni erkin savdo yo‘lidagi to‘siqlar** xalqaro ixtisoslashuvdan olinadigan nafni kamaytiradi yoki yo‘qqa chiqaradi.
- **erkin savdo yo‘lida** juda ko‘p to‘siqlar mavjud bo‘ladi.

Ularning asosiyilari quyidagilar:



- **boj to‘lovlari** import tovarlarga aksiz soliqlari hisoblanadi, u daromad olish maqsadida yoki himoya uchun kiritilishi mumkin;
- **import kvotalari** yordamida ma’lum bir vaqt oralig‘ida import qilinishi mumkin bo‘lgan tovarlarning eng yuqori hajmi o‘rnataladi;
- **ta’rifsiz to‘siqlar** deyilganda litsenziyalash tizimi, mahsulot sifatiga standartlar qo‘yish yoki oddiy ma’muriy taqiqlashlar tushuniladi;
- **eksportni ixtiyoriy cheklashlar** savdo to‘siqlarining nisbatan yangi shakli hisoblanadi. Bu holda chet el firmalari o‘zlarining ma’lum mamlakatga eksportini «ixtiyoriy» cheklaydi.

Bojxona siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- 1) tashqi savdoni rivojlanishiga ko‘mak berish;
- 2) davlatning iqtisodiy o‘sishini tezlashtirish;
- 3) xalqaro mehnat taqsimotida qatnashishdan foyda olish;
- 4) mamlakat savdo va to‘lov balansining ijobjiy saldosini ta’minlash;
- 5) davlat byudjeti daromadlarini o‘stirish;

- 6) xorijiy davlatlar va ular ittifoqliklarining diskriminatsion chora-tadbirlariga qarshi harakat olib borish;
- 7) davlatning savdo siyosiy pozitsiyasini mustahkamlash;
- 8) korxonalar, tashkilotlar va tadbirkorlarning tashqi bozorga chiqishini ta'minlash;
- 9) milliy iqtisodiyotning tarkibiy qayta qurilishiga ko'mak berish;
- 10) mamlakat xalq xo'jaligining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish;
- 11) bozor faoliyatiga shart-sharoit yaratish.

O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatining asosiy tamoyillari Jahon savdo tashkiloti (JST) hujjatlarida qayd etilgan bojxona siyosatining xalqaro tajribalariga hamda O'zbekistonning tashqi va ichki siyosati tamoyillariga asoslangan bo'lib, quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalari oldida ustunligini tan olish tamoyili. Uning mohiyati shundaki, o'z milliy huquq tizimini yaratayotgan milliy davlatimiz xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalari oldida ustun turishini tan oladi. O'zbekiston Respublikasining BMT, JST va boshqa xalqaro tashkilotlariga a'zo bo'lishi bojxona ishi sohasidagi umumjahon muammolarni hal etishda faol ishtirok etishiga keng imkoniyatlar ochib berdi va respublika zimmasiga bir qator majburiyatlarni ham yukladi.

2. O'zbekistonda amalga oshiriladigan bojxona siyosatining yagonaligi tamoyili. Bu O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida yagona bojxona siyosatining olib borilishini anglatadi.

3. Ichki va ko'p tomonlama aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish tamoyili. Bu tamoyil O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasida xalqaro hamkorlik olib borishga faol intilishi orqali amalga oshiriladi.

4. Milliy davlat manfaatlari ustunligini hisobga olgan holda o'zaro savdo kelishuvlarida yon berishlik tamoyili. Bojxona siyosati hamkor mamlakatlarning joriy manfaatlarini hisobga olsa hamda o'zaro munosabatlarda ma'lum bir kelishuvlarni qabul qilsa, uning samaradorligi yanada oshadi. Ammo, bunda davlatning milliy xavfsizligi xavf ostiga qo'yilishi mumkin emas.

5. O'zaro kamsitmaslik tamoyili. Davlat o'z iqtisodiy manfaalarini himoya qilish maqsadida bojxona siyosati dastaklari orqali u yoki bu milliy bozorda chegaralash chora-tadbirlarini qo'llaydi. Ularni qo'llash diskriminatsion (kamsitish) ko'rinishida bo'lmasligi, ya'ni ba'zi mamlakatlarga nisbatan emas, balki barcha qatnashuvchi mamlakatlarga nisbatan birdek qo'llanilishi lozim.

6. Bir tomonlama harakatlarga yo'l qo'ymaslik. Milliy bozorni himoya qilish bo'yicha qarorlar ko'p tomonlama maslahatlashuvlardan so'ng qabul qilinishi kerak.

7. Demokratizm tamoyili. Demokratizm tamoyili bojxona siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga qo'llashda xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda fuqorolarning bojxona ishi sohasidagi huquqlarining himoyalanishini talab qiladi.

Davlat bojxona organlari nazorati vazifalarini bajarish uchun xalqaro tajribada ko'p qo'llaniladigan quyidagi usullardan qo'llaniladi:

- bojxona yig'imlarining miqdorini tartibga solish orqali mamlakatga kirib kelayotgan tovarlar tarkibiga ta'sir ko'rsatish. Bunda tovrlarning mamlakat hayot faoliyati uchun qay darajada muhimligi e'tiborga olinadi. Aholi va mamlakat ehtiyojlari uchun muhim bo'lgan import mahsulotlariga boj to'lovlari kamaytiriladi yoki bekor qilinadi. Boshqa tovarlarga esa boj to'lovlari yuqori darajada belgilanadi;
- mamlakatning hisob va to'lov balansining holatini

hisobga  
olg

qidalarini tartibga solish;

- milliy iqtisodiyotni jahon bozoridagi mahsulotlar sifat ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish xarajatlaridagi farqlar hamda ichki va tashqi bozorlardagi narx qaychisi tufayli yuzaga keladigan salbiy omillar ta'siridan himoya qilish. Ichki va jahon bozorlari narxlarini muvofiqlashtirish uchun bojxona dastaklari va vositalaridan foydalilanadi.

Bojxona organlarining maqsadi quyidagilardan iborat:

- bojxona bojlari shaklidagi to'lovlarni nazorat qilish;
- bojxona nazorati va rasmiylashtirish xarajatlarini kamaytirish;
- mamlakatga noqonuniy kontrabanda tovarlarini olib kirish va man etilgan tovar va moddiy qiymatlarni olib chiqib ketishining oldini olish.


Bojxona organlarining muhim vazifalaridan biri strategik xomashyolami, valyutalarni noqonuniy tarzda chetga olib chiqib ketilishiga yoki eksport va barter operatsiyalari tufayli olingan valyuta tushumlarining qaytmasligiga hamda kontrabandaga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

Iqtisodiy kontrabandaga qarshi kurash muhim ahamiyatga ega. Tashkiliy jinoiy guruhlar va ayrim tadbirkorlar tomonidan mamlakatga noqonuniy tarzda tovarlarini olib kelinishi ichki bozorlardagi tovarlarning raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki kontrabanda tovarlari bojxona to'lovlarni, soliqlarni to'lamasdan olib kirilgani uchun ichki bozordagi milliy tovarlarga nisbatan arzon bo'ladi. Natijada ular milliy tovarlar bozorini kasod



qilib tovar ishlab chiqaruvchilarni xonavayron bo‘lishiga olib keladi. Kontrabandistlarning maqsadi qisqa muddatda tovarlarni sotib, foyda olishdan iborat. Iqtisodiy kontrbandaga qarshi kurashning asosiy yo‘llari quyidagilardan iborat:

- barcha transport vositalaridan foydalanib, bojxona nazoratidan yashirincha bojxona chegaralari orqali tovar boyliklar va buyumlarni olib o‘tishga bo‘lgan urinishlarni aniqlash va ularning oldini olish;
- kontrabanda buyumlarini o‘z vaqtida aniqlash va ularni musodara qilishning texnologik sxemalarini ishlab texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, yuqori malakali bojxona xodimlarini tayyorlash va ularni vatanparvar qilib tarbiyalash lozim bo‘ladi. Shuningdek, kontrabanda bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning javobgarligini, ularni jazoga tortishning qonuniyime’yoriy asoslarini kuchaytirish kerak;
- tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o‘rtasida profilaktika ishlarini olib borish;
- davlat bojxona organlarinig xavsizlik va huquq-tartibot organlari hamda jamoatchilik bilan hamkorlikda faoliyat olib borishlarini ta’minlash;
- kontrabandaga qarshi kurash bo‘yicha chora-tadbirlarni tartibga soluvchi, ularning qonuniyligini ta’minlovchi hujjatlarni ishlab chiqish.



#### **20.4-§. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmlari**

Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmi O‘zbekistonning milliy manfaatlari va strategik ustuvorliklarini hisobga olishi taraqqiyotni ta’minlash mafkurasi bo‘lishi lozim bo‘lgan davlat strategiyasi orqali amalga oshiriladi. O‘zbekistonning milliy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida ishlab chiqilgan va ayni paytda strategik rejorashtirishning muhim hujjati bo‘lgan mazkur huquqiy hujjatda mamlakat iqtisodiyotining xavfsizligini ta’minlash borasida davlat siyosatining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari belgilab berilgan. Strategiyada resurs xomashyo, ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy va ijtimoiy sohalarda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash borasidagi tahdidlar va xavf-xatarlar ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa to‘g‘risidagi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi, O‘zbekiston milliy xavfsizligini ta’minlash strategiyasi, O‘zbekistonni 2030-yilgacha bo‘lgan muddatda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish konsepsiysi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlari, shuningdek, hukumat Qaror va Farmoyishlari Harakatlar strategiyasini ishlab chiqish

borasidagi muhim huquqiy hujjatlar hisoblanadi. O'zbekistonning milliy manfaatlarini himoya qilish va strategik milliy ustuvorliklarni amalga oshirish barcha bo'g'indagi davlat boshqaruvi idora va tashkilotlari, shu jumladan, Markaziy bank, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini muvofiqlashtirishni talab etadi. Davlat siyosati mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmining muhim elementi hisoblanadi. Mazkur siyosatning asosiy maqsadlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:



- 1) mamlakat iqtisodiy suverenitetini mustahkamlash;
- 2) tashqi va ichki muhitning tahdid va xavfxatarlariga nisbatan iqtisodiyotning barqarorligini oshirish;
- 3) barqaror iqtisodiy o'sish;
- 4) mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida ilmiy-texnikaviy salohiyatni rivojlantirish va uni taraqqiy etgan dunyo

mamlakatlari darajasida bo'lishini ta'minlash;

6) mamlakat mudofaa qobiliyatini ta'min etuvchi mudofaa sanoati kompleksini rivojlantirish va uning salohiyatini mustahkamlash;

7) aholi turmush farovonligi darajasi va sifatini yaxshilash.

Harakatlar strategiyasi va mamlakatni 2030-yilgacha bo'lgan muddatda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish konsepsiyasida mamlakatning tashqi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va uni baholash borasida ma'lum ko'rsatkichlar nazarda tutilgan. Xususan, tashqi iqtisodiy xavfsizlikni baholash borasida quyidagi ko'rsatkichlardan foydalilanildi:

- 1) dunyo yalpi ichki mahsulotida O'zbekiston YAIMning ulushi;
- 2) mamlakatning, shu jumladan, davlatning tashqi qarzi; 3) kapitalning sofab olib kirilishi yoki olib chiqib ketilishi;
- 4) mamlakat hududlarining iqtisodiy integratsiyalashuv darajasi;
- 5) import operatsiyalariga nisbatan mamlakat oltin-valyuta zaxiralarining nisbati;
- 6) eksport va importning fizik hajmi indeksi;
- 7) savdo balansi saldosi;

8) importning tovar resurslari hajmida iste'mol tovarlarining ulushi va shu kabilar.

Mamlakat va dunyo miqyosida davlatning samarali siyosatini amalga oshirish orqali mazkur ko'rsatkichlarga erishishni ta'min etish mumkin. Shu sababli ham mazkur ko'rsatkichlarga mamlakat va dunyo miqyosida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash darajasiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik holatini baholash mamlakat iqtisodiyotini ichki va tashqi muhitini monitoring qilish, rasmiy statistik ma'lumotlarni kuzatish va shu bilan bir qatorda, tashqi iqtisodiy xavfsizlikka tahdid va xavf-xatarlarni baholash borasida ekspertlarning xulosalarini hisobga olgan holda, turli davlat va nodavlat tashkilotidoralari, markaziy bank, mahalliy o'z-o'zini boshqarish kengashlari tomonidan o'zlarining vakolatlari doirasida taqdim etgan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni bashoratlash va tahlil qilish borasida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va davlat siyosatini amalga oshirish borasida ma'lum bir funksiyalarni amalga oshiruvchi ijro hokimiyati organlari iqtisodiy xavfsizlik holatini baholash va monitoring qilishni amalga oshiradilar.

Iqtisodiy xavfsizlik holatini tahlil va monitoring qilishning axborot-tahliliy ta'minoti o'zini-o'zi boshqarish organlari, davlat tashkilotlarining axborot resurslari, mamlakat milliy xavfsizligi holati ko'rsatkichlarini monitoring qilishning axborot-tahlil tizimi, davlat miqyosida strategik rejorashtirishning axborot tizimi resurslari bazasi orqali ham ta'min etiladi.

Iqtisodiy xavfsizlik tizimini samarali boshqarishdan maqsad barcha davlat institutlari rejalarini amalga oshirish natijasida erishiladigan yutuqlar, mavjud vakolatlar doirasidagi xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ishlar va uning nazorati bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqsadlar quyidagilardan iborat:

- mamlakat iqtisodiyotiga bo'ladigan tahdidlarning oldini olish;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida xalqaro hamkorlik;
- O'zbekiston fuqorolarining himoyalanganligi;
- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy mustaqilligi;
- jamiyatning ijtimoiy barqarorligi;
- aholining iqtisodiy va mulkiy notengsizligini qisqartirish;
- demografik vaziyatni yaxshilash;
- iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini modernizatsiyalash;
- yangi qazilma boyliklar konlarini o'zlashtirish;
- bank sohasini rivojlantirish;
- ilmiy tadqiqot tashkilotlari va milliy innovatsion tizimni rivojlantirish;

- ta’limning raqobatbardoshligi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha quyidagi shartlarga amal qilish kerak:

- barcha tadbirlarni huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy jihatdan kompleks hal qilish lozim;
- qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligi;
- barcha hokimiyat organlarining o‘zaro hamkorligi;
- fuqorolarning huquqlarini himoya qilish.

Yuqorida keltirilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat iqtisodiyotiga bo‘ladigan tahdidlarni o‘z vaqtida aniqlash, davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlarini belgilash, ijtimoiy choralarни qabul qilish, innovatsion faoliyatni investitsiyalashni moliyalash, eksport uchun yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish, maqsadli xarajatlarni hamda barcha bo‘g‘inlarning faoliyatini nazorat qilish kerak. Faoliyatning huquqiy asosi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligiga tashqi tahdidlar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- Juhon iqtisodiy tizimida o‘sib borayotgan nobarqarorliklar va miqdor jihatdan tez o‘sib boruvchi turli xil ziddiyatlar, tavakkalchilik va tahidlar, global hamda mintaqaviy tavsifdagi xavf-xatarlar;

Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotini, iqtisodiy qudratining o‘sishini, buyuk davlat sifatida jahon geosiyosiy, geoijtisodiy va mintaqaviy jihatdan rolini oshishini ko‘ra olmaydigan G‘arb davlatlarining ta’siri;

- O‘zbekiston Respublikasiga nisbatan formal va noformal shaklda olib borilayotgan axborot, moliyaviy va iqtisodiy urushlarni kuchayishi;
- O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga tormoz bo‘luvchi, inqirozga olib boruvchi turli iqtisodiy konsepsiyalarni, modellarni, taklif va tavsiyalarni taqdim etilishi;
- HVF va boshqa xalqaro tashkilotlar, ularning ekspertlari, mutaxassislari va maslahatchilari orqali mamlakat milliy boyligini tashkil etuvchi intellektual kadrlarni,

**Tashqi iqtisodiy aloqalar**

O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo sohasidagi yangi strategiyasi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- - tashqi iqtisodiy faoliyat, eksportni ragbatlantirish;
- - horijiy investitsiyalar jalb etish;
- - tashqi savdoni erkinlashtirish;
- - tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va boshqalardir.

g‘oyalarani, innovatsiyalarni va boshqa potensial resurslarni, mamlakatdan chiqib ketishini tashkil etish maqsadida mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir etish;

- Xalqaro mehnat taqsimotida va xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlarda noekvivalent tovar ayirboshlashuvi;
- Rivojlanishning iqtisodiy-xomashyo modeliga va tashqi iqtisodiy konyunkturaga nisbatan yuqori darajada qaramlikni saqlanib qolishi;
- Boshqarib bo‘lmaydigan darajada xorijga yuqori intellektual, malakali mehnat resurslarining chiqib ketishi;
- Xorijiy tovarlar bozorlardan milliy tovarlarni siqib chiqarishi;
- O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarning maqsadlarini milliy manfaatlarga mos tushmasligi;
- AQSH dollari kursining mustahkamlanishi;
- Xorijiy mamlakatlardagi xalqaro savdo-iqtisodiy tashkilotlarda O‘zbekistonga nisbatan diskriminatsiya siyosatining olib borilishi;
- Transport infratuzilmasini eksport-import operatsiyalarda yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Bugungi kunda qator ekspertlar O‘zbekiston uchun eng katta tahdidlar sifatida tashqi tahdidlarni ta’kidlab o‘tishadi. Biroq tashqi tahdidlarni tizimli tavsifi va G‘arb davlatlarning O‘zbekistonga nisbatan bosimini kuchayishi sharoitida ba’zi bir turdag'i ichki tahdidlarning roli ham oshib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalash va boshqarish organlari va uning mas‘ullari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti;
- O‘zbekiston Respublikasining xavfsizlik kengashi;
- O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Oliy Majlis Senati);
- O‘zbekiston Respublikasi hukumati;
- O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- Qoraqalpog‘iston vazirlar Kengashi;
- Viloyatlar, Toshkent shahar va tuman hokimliklari.

Har bir organlarning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi faoliyat doirasi, mas'uliyat chegaralari va vazifalariga ega.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmi asosiy e'tiborni global iqlim o'zgarishlari, global tabiiy ofatlar, global yuqumli kasalliliklar (koronavirus), jahon iqtisodiyoti, global raqobat, global moliya, jahon tovar va moliya bozorlaridagi konyunkturaviy tebranishlarning kuchayishi, axborot xavfsizligi kabi sohalarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavflarga qaratadi.

S&P Global Reyting xalqaro reyting agentligi ham global retsessiyani 2020-yilning asosiy ssenariysi deb hisoblaydi. Mazkur agentlikning hisobotida aytishicha: Koronavirus pandemiysi va moliyaviy bozorlardagi o'zgaruvchanlik ta'sirida iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi sababli, biz joriy yilda global retsessiyani prognoz qilmoqdamiz. 2020-yilda jahon iqtisodiyotining o'sishi 11,5% ni tashkil qiladi. Xususan, Xitoy hukumati tomonidan 16mart kuni e'lon qilingan statistik ma'lumotlarga ko'ra mamlakatda 2020-yilning dastlabki ikki oyida sanoat ishlab chiqarishining pasayishi so'nggi 30 yil davomida kuzatilgan eng salbiy ko'rsatkich bo'ldi. Yanvar-fevral oylarida sanoat ishlab chiqarishi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,5 foizga pasaygan. Taqqoslash uchun, dekabr oyida – mamlakatda koronavirus hali aniqlanmagan paytda, bu ko'rsatkich 6,9 foizga oshgan. Ushbu iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishi kutilganidan ham yomon bo'ldi, jumladan, savdo sohasida 20,5 foizga, asosiy kapitalga investitsiyalar esa 24,5 foizga pasaygan. Shuningdek, Xitoydan eksport qilish hajmi yanvar-fevral oylarida 17,2 foizga kamaygan. Xitoya koronavirus bilan zararlanishning avj pallasi yengib o'tilgani hisobga olinganda, ekspertlar fikriga ko'ra ushbu mamlakat iqtisodiyoti kamida bir necha oydan keyingina normal holatga qaytishi mumkin.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash ko'p jihatdan tashqi bozorlarda milliy manfaatlarni himoya qilishga qodir bo'lgan vositalarning samaradorligiga bog'liq. Monopolistlarga qarshi kurashish, soliq imtiyozlari, qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari eksportini imtiyozli kreditlash; ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlarni qo'llabquvvatlash; resurs tejamkor texnologiyalarni izchil joriy etish kabilarni ko'zda tutuvchi va tashqi, ichki bozorlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning milliy manfaatlarini himoya qiluvchi oqilona proteksionistik siyosatni amalga oshirish bu boradagi samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotni innovatsion yangilash, ijtimoiy muammolarni hal etish, umuman olganda, mamlakatni ijtimoiyiqtisodiy rivojlantirishda tashqi savdo siyosatining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bularning barchasi umumiylar tarzda mamlakatning tashqi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mamlakat eksporti va uni diversifikatsiyalash darajasining yil sayin o'sib borishi, importning intellektuallashuvi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro kapital harakatining turli jarayon va ko'rinishlarida ishtirok etishlari asnosida tashqi savdo siyosati yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoniga tobora

singib bormoqda. Aytish joizki, bugungi kunda mamlakat iqtisodiy xavfsizligining ichki va tashqi tahdidlari o‘zaro chirmashib, bir butunlikni tashkil etmoqda, shu bois, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmida ichki va tashqi tahdidlarni birdek baholash talab etiladi.

Bugungi kunda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat yaqin istiqbolda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llabquvvatlashni, sanoat ishlab chiqarishini mahalliylashtirishni ko‘zda tutadi. Bularning barchasi mamlakat tashqi iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiyiqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida quyidagilar tashqi iqtisodiy siyosat maqsadiga erishishning asosiy indikatorlari hisoblanadi:

1. YaIM yiliga o‘rtacha 6-7 % atrofida barqaror o‘sganda va jahonning o‘rtacha narxlari yiliga 2-3 % o‘sganda 2018-yilda tovarlar eksportini 14 mlrd. AQSH dollaridan 2023-yilda 26 mlrd. AQSH dollarigacha va 2030-yilda 38 mlrd. AQSH dollarigacha oshirish.

2. Mashinasozlik mahsulotlari eksportini 2023-yilda 1,2 mlrd. AQSH dollarigacha va 2030-yilda 2,8 mlrd. AQSH dollarigacha, ya’ni 2017-yilga nisbatan 7 baravardan ortiqqa oshirish.

Ishlab chiqarish hajmlarini 19,5 mlrd. so‘mga (5,5 baravar o‘sish), eksport hajmlarini 10 mlrd. AQSH dollariga yetkazish (7 baravar o‘sish), tashqi bozorlarda xalqaro standartlarga javob beradigan yuqori texnologik, raqobatbardosh mahsulotlar keng nomenklaturasi chiqarilishini ta’minlash, respublikani Markaziy Osiyodagi yetakchi to‘qimachilik ishlab chiqaruvchi mamlakatga aylantirish, xorijiy hamkorlarga qaramlikni imkon qadar kamaytirish. To‘qimachilik hamda tikuvchilik va trikotaj buyumlari eksporti hajmi 2030-yilgacha 2020-yilga nisbatan 5-6 baravar o‘sadi va teri mahsulotlari eksporti hajmi 2030-yilgacha 2020-yilga nisbatan 3,5-4,0 baravar o‘sadi.

3. 2025-yilda turizm eksportini 951 mln. AQSH dollaridan 2 mlrd. AQSH dollarigacha o‘sishini ta’minlash.

4. 2030-yilga kelib transport xizmatlari eksportini 2017yilga nisbatan 3 baravardan ortiqqa (4,5 mlrd. AQSH dollarigacha) oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida 2021-yilda quyidagi vazifalarni belgilab berdi:

▪ Jahon savdo tashkilotiga a’zolik masalasi hamda Yevropa Ittifoqi bilan keng qamrovli hamkorlik bo‘yicha ishlarni faollashtirish;

□ GSPQ tizimi doirasidagi imtiyozlarni mamlakatimizda samarali qo‘llash uchun alohida dastur ishlab chiqish ;

- Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlar bozorlarida to'laqonli ishtirok etish uchun milliy texnik tartibga solish me'yorlarini ularning talablariga moslashtirish bo'yicha ishlarni jadallashtirish;
- korxonalarga xomashyo sotib olish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish uchun Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan 100 million dollar ajratish;
- eksport qiluvchilarga chet elda savdo uylari va do'konlar ochish hamda reklama xarajatlarining 50 foizi qoplab berish;
- tovar va xizmatlar eksportini kamida 20 foizga oshirish<sup>1</sup>.

**2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan 28-maqсад respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazishdan iboratdir.** Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar belgilangan:

- eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish;
- mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish;
- tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalg qilish;
- xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish; avtotransport vositalari eksportini 3 baravarga oshirish va 1 milliard AQSh dollariga yetkazish;
- turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan, dasturiy ta'minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga yetkazish;
- eksportchi korxonalarga ko'rsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish;
- eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko'paytirib, Yevropa davlatlariga GSPQ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga chiqarishda ko'maklashish tizimini takomillashtirish

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr/Xalq so'zi, 2020 yil 30 dekabr

hisobiga eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6500 tadan 15 000 taga, tovarlarning eksport geografiyasini 115 tadan 150 taga yetkazish;

- Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurtiň g‘oyasi asosida 200 ta eksportchini ochiq tanlov asosida saralab, ularni yetakchi eksportnyorlarga aylantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;
- qo‘shni davlatlar bilan chegara hududlarda erkin savdo zonalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1 O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligiga asosiy tahdidlarni aytib bering.

2. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari qanday?

3. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmlariga nimalar kiradi?

4. Mamlakatning ilmiy-texnik siyosat sohasidagi asosiy tahdidlarini sanab o‘ting.

5. Mamlakatning pul-kredit munosabatlari sohasidagi asosiy tahdidlariga nimalar kiradi?

6. O‘zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni boshqaruvchi davlat organlari va ularning vazifalarini sanab o‘ting.

7. Mamlakat ichki va tashqi xavfsizligiga tahdidlarni aniqlash va bashoratlashdan maqsad nima?

8. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmlariga nimalar kiradi?

9. Xalqaro savdoning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni qanday?

10. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligida tashqi qarzning o‘rni va uning darajasi haqida gapiring.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR**

### **1-mavzu Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va nazariy asoslari.**

#### **Reja**

- 1.Iqtisodiy xavfsizlik fanining predmeti va vazifalari.
- 2.Iqtisodiy xavfsizlikning mazmuni, mohiyati va tarkibiy elementlari.
- 3.2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va iqtisodiy xavfsizlik masalalari.

### **2-mavzu. O'zbekiston respublikasi iqtisodiy xavfsizligining konseptual asoslari**

#### **Reja**

- 1.Mamlakat iqtisodiyotida milliy manfaatlarni ta'minlash.
- 2.O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizlik omillari.
- 3.Mamlakatning iqtisodiy xavfsizlik tizimi.
- 4.Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari va uning strategik maqsadlari

### **3-mavzu. Iqtisodiy xavfsizlik shakllari va asosiy ko'rsatkichlari.**

#### **Reja**

- 1.Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari.
- 2.Shaxs, korxona va davlatning iqtisodiy xavfsizligi.
- 3.Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari
- 4.Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining tahlikali chegaralari

### **4-mavzu. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar.**

#### **Reja**

- 1.Iqtisodiy manfaatlar va tahdidlar.
- 2.Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar.
- 3.Globallashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri

### **5-mavzu Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi.**

#### **Reja**

- 1.Mamlakatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmining
- 2.mazmuni, tamoyillari va o'ziga xos jihatlari.
- 3.Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning shakllari

## **6-mavzu. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammolari Reja**

- 1.Shaxsning erkinliklari va iqtisodiy mustaqilligi.
- 2.Shaxsning hayotiy muhim manfaatlari va uning xavfsizligiga tahdidlar.
- 3.Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari

## **7-mavzu. Korxona (firma)ning va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.**

### **Reja**

- 1.Korxonaning iqtisodiy manfaatlari va uning iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi.
- 2.Korxona iqtisodiy xavfsizligiga tashqi va ichki tahdidlar.
- 3.Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tamoyillari

## **8-mavzu. Aholi turmush darajasi iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy indikatori sifatida.**

### **Reja**

1. Ijtimoiy sohadagi tahdidlarni tizimlashtirish va baholash demografik sohadagi tahdidlar.
- 2.Demografik jarayonlarni baholash usullari va xavfsizlik ko'rsatkichlari tizimi
- 3.Aholi turmush darajasi va sifati Qashshoqlik chegarasi va darajasi, aholi daromadlarining tabaqlanishini o'rganish usullari

## **9-mavzu. Xo'jalik faoliyatining pul-moliya sohasidagi iqtisodiy xavfsizlik Reja**

- 1.Moliya muassasalarining iqtisodiy manfaatlari.
- 2.Moliyaviy oqimlarga tahdidlar.
- 3.Pul muomalasi sohasidagi iqtisodiy tahdidlar.
- 4.Moliya, pul-kredit tizimida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash dastaklari

## **10-mavzu. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishdagi xavfsizlik shartlari.**

### **Reja**

- 1.Ilmiy-texnik xavfsizlikning mohiyati va uning asosiy jihatlari.
- 2.Innovatsion xavfsizlik mohiyati va unda milliy innovatsion tizimni shakllantirish shartlari.
- 3.Innovatsion xavfsizlikning mezonlari va ko'rsatkichlari. O'zbekistonning investitsion xavfsizligini ta'minlash yo'llari

## **11-mavzu. Oziq-ovqat xavfsizligi. Reja**

- 1.Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.
- 2.O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlar oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash omili.
- 3.Qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish istiqbollari

## **12-mavzu. Mamlakatning transport tizimida xavfsizlikni ta’minlash masalalari. Reja**

- 1.Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda transport infratuzilmasining o‘rni.
- 2.Mamlakat transport xavfsizligini ta’minlashning strategik yo‘nalishlari

## **13-mavzu. Mamlakatning mineral-xomashyo va energetika tizimida xavfsizlikni ta’minlash masalalari Reja**

- 1.O‘zbekistonning mineral-xomashyo majmuasi.
- 2.Mineral-xomashyo majmuasida xavfsizlikka tahdidlar.
- 3.O‘zbekistonning mineral-xomashyo majmuasi.
- 4.Mineral-xomashyo majmuasida xavfsizlikka tahdidlar

## **14-mavzu. Ekologik xavfsizlikni ta’minlash - iqtisodiy rivojlanishning muhim omili.**

### **Reja**

- 1.O‘zbekistonda ekologik vaziyat va xavf-xatarlar.
- 2.Davlatning ekologik siyosati va tabiatdan foydalanish vazifalari.
- 3.O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning yo‘nalishlari

**15-mavzu. Axborot xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari.**  
**Reja**

- 1.Axborot xavfsizligini ta'minlash mohiyati va uning xususiyatlari.
- 2.Axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmi.
- 3.O'zbekistonda axborotni himoyalash davlat tizimi

**16-mavzu. Xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash.**  
**Reja**

- 1.Xufyona iqtisodiyotning mazmuni va vujudga kelish sabablari.
- 2.Xufyona iqtisodiyotning tuzilmasi va uning ko'lamlari.
- 3.Xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash usullari.
- 4.O'zbekistonda xufyona iqtisodiyot faoliyatining tarqalish omillari va salbiy oqibatlari

**17-mavzu. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning me'yoriy-huquqiy asoslari.**

**Reja**

- 1.Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari va iqtisodiy oqibatlari.
- 2.Korrupsiyaning namoyon bo'lish shakllari.
- 3.O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy va me'yoriy asoslari.

**18-mavzu. hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.**  
**Reja**

- 1.Davlatning hududiy siyosati va mintaqalashtirish muammolari.
- 2.Hududlarni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha tabaqlananishi.
- 3.Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tahdidlarni tizimlashtirish va baholash

**19-mavzu. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.**  
**Reja**

- 1.Jahon iqtisodiy tizimida milliy iqtisodiyotning tutgan o'rni.
- 2.Milliy manfaatlarga tahdidlar.
- 3.Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.
- 4.Mamlakatning harbiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash

---

## **MUSTAQIL TA'LIMNI BAHOLASH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMA**

---

«Iqtisod xavfsizligi» fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo'yicha tayyorlangan ushbu uslubiy ko'rsatma bakalavr bosqichi Iqtisodiy xavfsizlik-60310400 yo'naliishlarii 2-kurs talabalarining mazkur fandan mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilishda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Mustaqil ishning o'ziga xosligi shundaki, o'quv faoliyatining bu qismi talabalarning mustaqil faolligi hamda tegishli professor-o'qituvchilarining nazorati asosida tashkil etilib, o'quv rejada semestrlar bo'yicha belgilangan soatlar hajmiga ko'ra amalga oshiriladi. Xususan, bakalavr 2-bosqichi Biznes, boshqaruv-410000 va Iqtisodiy xavfsizlik-60310400 yo'naliishlarii uchun mustaqil ishlarning umumiy hajmi o'quv rejada 180 soat miqdorida belgilangan.

Mazkur uslubiy ko'rsatmada talabalar mustaqil ishlarining asosiy shakllari va ularning mazmuni, mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lган vazifalar, mustaqil ishni bajarish bo'yicha maslahatlarni tashkil etish, ularni nazorat qilish va baholash tartibi bayon etilgan.

### **Talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va asosiy shakllari**

«Iqtisod xavfsizligi» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish ularda iqtisodiy bilim, dunyoqarash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. U o'quv rejasi va fanlar dasturlarida ko'zda tutilgan zarur bilimlar va ko'nikmalarning talabalar tomonidan oqilona, kam vaqt va kuch sarflab o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

«Iqtisod xavfsizligi» fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabaning qiziqishlarini, anglash faolligini va mustaqil ishlarini rivojlantirish yo'naliishida boradi, bunda ijodiy fikrlash, mustaqil o'qish, ko'nikma va layoqatlari shakllanadi.

**Talaba mustaqil ishi** – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

**Mustaqil ishni bajarishdan asosiy maqsad** – «Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes» kafedrasi professor-o'qituvchilarining bevosita rahbarligi va nazorati ostida talabalarni semestr davomida fanni uzluksiz o'rganishini tashkil etish, olingan bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish hamda ushbu tariqa universitetda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darjasini semestrdan-semestrga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darjasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga o'rganib borishi kerak.

« Iqtisod xavfsizligi» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;

seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib borish;

belgilangan mavzular bo'yicha referat tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident qarorlari va farmonlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlarni konspektlashtirish;

testlar yechish;

amaliyotdagи mavjud muammoning yechimini topish bo'yicha keyslar yechish;

munozarali savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish;

talabalarning ilmiy jamiyatlari va to'garaklarida ishtirot etish;

ko'rgazmali vositalar tayyorlash;

kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;

hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;

ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza matnlarini tayyorlash;

“talaba-o'qituvchi-kutubxona” kunida fan bo'yicha yangi o'quv adabiyotlari sharhini o'qituvchi bilan hamkorlikda tayyorlash;

axborot resurs markazida belgilangan mavzular bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish;

belgilangan mavzular bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;

talabalar yotoqxonasidagi ma'nnaviyat xonasi, kutubxona, zamonaviy axborot texnologiyalar markazi imkoniyatlaridan foydalanilgan holda mustaqil o'qish jarayonlarida ishtirot etish;

fakultativlar va maxsus seminarlar ishlarida ishtirot etish;

kafedralar va fakultetlarning ilmiy hamda ilmiy-uslubiy ishlarida ishtirot etish va boshqalar.

Talabalarning mustaqil ishi ta'lim va tarbiyaning shunday vazifalariga bo'ysundirilganki, butun o'quv jarayoni to'laligicha talabalar tomonidan faol, ongli, puxta va tizimli ravishda fan asoslarini o'zlashtirish va ularda iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Bu vazifalar ta'lim jarayoni va shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini bilmasdan va foydalanmasdan turib hal qilinishi mumkin emas. Ularning mazmuniga qisqacha to'xtolib o'tamiz.

**Mavzuni mustaqil o'zlashtirish.** Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarining mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob

tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k) o'qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn o'qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

O'quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lган iqtisodiyot nazariyasi fani bo'yicha mustaqil ishlar ko'proq referatlar qo'rinishida bo'lib kelmoqda.

Referat talabalar ilmiy ishlarining birinchi shaklidir. Talabalar ilmiy ijodi o'quv jarayonlaridan biri sifatida o'qitish, bilim berish va tarbiyalash vazifalarini bajarishda o'z xususiyatlariga ega. Talaba tadqiqot faoliyatiga jalb qilinib, ilmiy adabiyotlar bilan ishslash, statistik va boshqa materiallarni yig'ish, qayta ishslash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, o'rganilayotgan hodisani tanqidiy baholashga o'rganadi, nazariyani amaliyot bilan bog'laydi va h. k.

Agar referat tayyorlashning darslik bo'yicha tayyorlangan seminar mashg'ulotidagi chiqishga qaraganda mazmun va sifat jihatdan yuqoriligi hisobga olinsa, referat shubhasiz katta foyda keltiradi. Talaba auditoriya oldida referatda bayon qilingan qoidalarni himoya qilishga, yoqlashga tayyorlanishi kerak, iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda bu muhim ahamiyatga ega.

**Referat** - bu talabalar mustaqil ishlarining samarali shakllaridan biridir. Mazkur shakl talaba tomonidan referat mavzusini tanlash, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, referatni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida kafedra professor-o'qituvchilarining tashkiliy-uslubiy yordami va maslahati asosidagina samarali amalga oshishi mumkin. Bu yerda o'qituvchi tomonidan talabalarning referat ishlariga rahbarlik qilish qanchalik bataysil va malakali amalga oshirilganligi va referatlarga talablar mezoni qanchalik to'g'ri qo'yilganligi albatta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Topshiriq talabalarning referat yozish ko'nikmalarini, ilmiy qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi juda muhim.

**Ko'rgazmali vositalar tayyorlash.** Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l- yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

### **Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.**

Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lган masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

**Ilmiy maqola, tezislар va ma'ruzalar tayyorlash.** Talabaga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola,

tezis yoki ma’ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o’quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to’playdi.

**Talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalari** ham talabalar mustaqil ishlarining shakllaridan biridir. Kafedra professor-o’qituvchilari talabalar ilmiy-nazariy konferentsiyasini tashkil etish orqali o’z ishini guruhning kasbiy yo’naltirilganligini, a’zolarining yosh tarkibini, qiziqishlarini hisobga olib, tabaqlashgan holda tashkil qilishi kerak. Faqat shu holdagina talabalarning konferentsiyani o’tkazishda faol ishtiroki va manfaatdorligi ta’milnadi. Talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalarini bosqichma-bosqich o’tkazish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiyot nazariyasi fani bo’yicha talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

bosqich – fan o’qitilayotgan barcha o’quv guruhlarida konferentsiyalarni o’tkazish;

bosqich – har bir guruhda tanlab olingan talabalarning eng yaxshi ma’ruzalarini fakultet va fakultetlararo konferentsiyaga taqdim etish va o’tkazish;

bosqich – fakultetlararo konferentsiyada tanlab olingan eng yaxshi ma’ruzalarni umumuniversitet ilmiy-nazariy konferentsiyasiga taqdim etish.

Butun guruhlar uchun yagona bo’lgan konferentsiya mavzusini tassdiqlab, talabalarning ma’ruza va chiqishlarini guruhlarning qiziqishlariga qarab ixtisoslashtirish mumkin.

### **Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari**

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo’yicha yo’riqnomada belgilangan quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

Talabalar mustaqil ishlarini ikki ko’rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.

Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya’ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta’minalash.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e’tibor qaratish:

talabaning o’qish bosqichi;

muayyan fanning o’ziga xos xususiyati, o’zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;

talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;

fanning axborot manbalari bilan ta’milanganlik darajasiga;

talabaning axborot manbalaribilan ishlay olish darajasiga;

mustaqil ish uchun topshiriqlar kursdan-kursga o’tish bilan shakl va hajm jihatidan o’zgarib borishiga;

mustaqil ish fan xususiyati hamda talabaning akademik o’zlashtirish darajasiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etish.

## **Mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar**

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

zarur ma'lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;

axborot manbalaridan samarali foydalanish;

an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy xujjatlar bilan ishlash; elektron o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;

Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;

ma'lumotlar bazasini tahlil etish;

ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishslash;

topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;

ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar davrasida himoya qilish.

## **Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi**

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uning bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi fanning kalender-tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi. "Iqtisod xavfsizligi" fani bo'yicha talabalarning mustaqil ish mavzulari va mazmuni, ularni bajarish kerak bo'ladi.

Maslahat darsi tegishli fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

Fan o'qituvchisi maslahat darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

talabalarmustaql ishlaritopshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beradi.

topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;

tegishli adabiyotlar axborot manbalarini tavsiya qiladi;

talabalar mustaqil ishlari yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar o'quv jarayonining 1 va 2 smenada tashkil etilishiga qarab talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida dars jadvaliga kiritiladi.

## **Iqtisodiy xavfsizlik fanidan mustaqil ta'limga oid topshiriqlar**

1. Oziq-ovqat xavfsizligi.
2. Mamlakatning transport tizimida xavfsizlikni ta'minlash masalalari.
3. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili.
4. Axborot xavfsizligini ta'minlashnking o'ziga xos xususiyatlari.
5. Ijtimoiy soxadagi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yunalishlari.
6. Mintaqqa (xudud) iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash
7. Xufyona iqtisodiyot va korruptsiyaga qarshi kurash.
8. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash
9. Tashki iqtisodiy xavfsizlikni va mamlakatning raqobatbardoshliliginini ta'minlash.
10. Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va nazariy asoslari.
11. Iqtisodiy xavfsizli shakllari va asosiy ko'rsatkichlari.
12. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid.
13. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi.
14. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammolari.
15. Korxona (tadbirkorlik faoliyati)ning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.
16. Iqtisodiyotning real sektorlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash.
17. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishidagi xavfsizlik shartlari.
18. Xo'jalik faoliyatining pul moliya sohasidagi iqtisodiy xavfsizlik.
19. Energetika sohasida xavfsizlikni ta'minlash.
20. Korruptsiya va uning kelib chiqish sabablari, namoyon bo'lish shakllari.

## **Talabalar mustaqil ishlarini nazorat qilish va baholash tartibi**

Hap bip fan bo'yicha\_talaba\_mustaqil ishiga pahbaplik qilish professor-o'qituvchi shaxsiy ish rejasining tashkiliy-uslubiy bo'limida qayd etiladi,

Talabaning mustaqil ishi bo'yicha konsultatsiya soatlari gupuh jurnalida qayd etib bopiladi.

Talaba mustaqil ishini nazopat qilish kafedrada ishlab chiqilgan jadval va fanning texnologik kaptasi asosida olib boruvchi professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshipiladi.

Talabaning mustaqil ishi, muayyan fan ishchi dasturida ajratilgan soatlarga mos reyting ballari bilan baholanadi va natijasi fan bo'yicha talabaning umumiy reytingiga kipitiladi.

Talabaning reyting ko'rsatkichlari, shu jumladan mustaqil ishi bo'yicha fakultetning an'anaviy guruh reyting oynasida yoki maxsus elektron tarmog'ida yopitib bopiladi.

Talaba mustaqil ishining nazopat qilish turlapi va uni baholash mezonlari universitetning tegishli kafedralari tomonidan ishlab chiqiladi va fakultet Ilmiy kengashida tasdiqlanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalapra o'quv yili boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Fanlar kesimida talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtipishi muntazam ravishda talabalar guruhlarida, kafedra yig'ilishlari va fakultet Ilmiy kengashlarida muhokama etib bopiladi.

Talabaning mustaqil ishi materiallari kafedra arxivida ro'yxatga olinadi va o'quv yili mobaynida saqlanadi.

Fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida quyidagi topshiriqlarni bajarish orqali nazorat qilish hamda baholash tavsiya etiladi:

<b>Oraliq nazoratda baholanadigan ishlar</b>			
		<b>Semestr davomida</b>	<b>5 bahogacha</b>
<b>1.</b>	Darslarga qatnashganlik darjasи. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konsept daftarlарining yuritilishi va to'liqligi	<b>Semestr davomida</b>	<b>5 bahogacha</b>
<b>2.</b>	Tanlangan mehmonxona bo'yicha mustaqil loyiha qilish va himoya qilish	<b>Semestr davomida</b>	<b>5 bahogacha</b>
<b>3.</b>	Oraliq nazorat bo'yicha yozma ish	<b>Semestr davomida</b>	<b>5 bahogacha</b>

## **Adabiyotlar**

1. X.Абдулқосимов, М.Абдулқосимов. Иқтисодий хавфсизлик: назарияси ва амалиёти. “Ноширлик ёг’дуси” нашриёти, Тошкент-2019, ISBN: 978-9943-4742-6-0.
2. “Davlatning iqtisodiy xavfsizligi”. H.P.Abulqosimov Toshkent - 2012 y.
3. X.S.Asatullayev va boshqalar “Iqtisodiy xavfsizlik” I,II-qism, “Iqtisod-moliya”, toshkent, 2020. ISBN: 978-9943-13-901-5.
4. Mamatov A.A., Abulqosimov H.P., Mamatov S.A., Saidgaziyeva S.Sh. Iqtisodiy xavfsizlik. Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022.- 731 bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2016.–76 b.
6. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2017 yil, 3 yanvar.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi. 2017 yil 23 dekabr.
9. I.S.Xotamov, M.K.Olimov, A.J.Ismoilov “Iqtisodiy xavfsizlik” O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil, 200 bet.
10. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
11. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
12. [www.tradingeconomics.com](http://www.tradingeconomics.com) ekonomicheskie pokazateli.

---

# **GLOSSARIYLAR**

---

**Axborot xuruji** – jamiyat a’zolarining ruhiyatiga, xulqatvoriga ta’sir ko’rsatish.

**Aholi bandligi** — mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy mehnatda qatnashish darajasi, qonunchilikka zid bo‘lmagan tarzda fuqaroning shaxsiy va ijtimoiy talablarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyati.

**Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosati** — davlat tomonidan fuqarolarning mehnatga, to‘liq, samarali va erkin tanlangan bandlikka bo‘lgan huquqlarini ta’minlash bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyat.

**Aholining umumiyl daromadi** — pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi xususiyatga ega bo‘lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig‘idagi davrda uy xo‘jaligi yoki uning alohida a’zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi.

**Barqaqorlik** – tinchlik-osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat‘iy, uzil-kesil mustahkam o‘rnatilgan muhim sharoit. Barqarorlik har qanday bunyodkorlik faoliyatining zamini va zaruriy sharti hisoblanadi.

**Bitim** – fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlar. Bitimlar bir taraflama, ikki taraflama yoki ko‘p taraflama (shartnomalar) bo‘lishi mumkin. Bitim tuzish uchun qonun hujjatlariga yoki taraflarning kelishuviga muvofiq bir tarafning xohishi zarur va yetarli bo‘lsa, bunday bitim bir taraflama bitim hisoblanadi. Shartnomalar tuzish uchun ikki taraf (ikki taraflama bitim) yoki uch yoxud undan ko‘p taraf (ko‘p taraflama bitim) kelishib xohish bildirgan bo‘lishi kerak.

**Valyuta birjasি** – xorijiy valyutalar oldi-sotdi qilinadigan birja bozori.

**Valyuta zaxirasi** – biror-bir mamlakatning xorijiy valyutalardagi mablag‘lari.

**Valyuta intervensiysi** – Markaziy bank tomonidan milliy valyutaning favqulodda yuzaga keladigan keskin tebranishlariga barham berish maqsadida xorijiy valyutani sotib olinishi yoki sotilishi. Odatda, bitta xorijiy valyuta intervensiya vositasi hisoblanadi. O‘zbekistonda AQSH dollari valyuta intervensiysi vositasi hisoblanadi.

**Valyuta kursi** – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan bahosidir.

**Valyuta siyosati** valyuta munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish tadbirlarining yig‘indisi.

**Globallashuv** – iqtisodiy taraqqiyotning industrial bosqichidan postindustrial bosqichiga o‘tish davrining mahsuli bo‘lib, jahon hamjamiyatining bugungi kundagi taraqqiyoti bosqichini ifodalovchi jarayon.

**Geosiyosiy muvozanat** – ma’lum bir hududdagi mavjud siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish.

**Giperinflatsiya** – tovarlar bahosi va pul massasining yuqori sur‘atlarda oshib ketishi. Giperinflatsiyada baholarning oylik o‘sish sur‘ati 50 foiz va undan yuqori bo‘ladi.

**Global moliyaviy-iqtisodiy bozor** – jahon mamlakatlari o‘rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo‘jalik tarzida amal qilishga asoslangan munosabatlar.

**Davlat qarzi** – davlatning to‘lanmagan zayomlar va ularning berilmagan foizlarini aks ettirgan barcha qarzlarining umumiyligi. Davlat qarzi ikki xil bo‘ladi: ichki va tashqi qarz.

**Davlat suvereniteti** – davlatning boshqa davlatdan, uning ichki va tashqi ishlari hamda tashqi munosabatlarida to‘la mustaqilligi. Suverenitet davlat hokimiyatining muhim belgisi sanaladi.

**Devalvatsiya** – milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qadrsizlanishi.

**Demarkatsiya** (fransuzcha chegaralarni o‘rnatish) – u yoki bu mulohazanining ilmiy yoki noilmiyligini aniqlash mezoni.

**Demokratiya** – konstitutsiyaviy tuzumning xalq hokimiyatchiligi va siyosiy plyuralizm, fuqarolarning erkinligi va tengligi, inson huquqlarining daxlsizligi kabilalarini e’tirof etishga asoslangan davlatning siyosiy rejimi.

**Denominatsiya** – yangi pul birligini ma’lum nisbatda eski pul birligiga almashtirilishi. O‘zbekistonda milliy valyuta 1994yilning 1-iyulidan boshlab muomalaga kiritilganda yangi valyuta so‘m eski valyuta-so‘m - kuponga 1 ga 1000 nisbatda almashtirilgan edi.

**Denonsatsiya** (fr. Denouncer - bekor qilmoq) – xalqaro shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi. Denonsatsiya shartnomaning o‘ziga muvofiq yoki xalqaro huquqning boshqa normalariga ko‘ra amalga oshiriladi. Denonsatsiya shartnomaning buzilishi hisoblanmaydi, balki shartnomaning huquqiy bekor qilinishi hisoblanadi.

**Deflatsiya** – tovarlar va xizmatlar bahosining pasayishi.

**Diversifikatsiya** – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyati sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko‘paytirish.

**Diniy bag‘rikenglik** – turli din vakillari e’tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat‘i nazar, ularning yonma-yon va o‘zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy ta’limotga hurmat bilan qarash.

**Diniy ekstremizm** – jamiyat uchun an’anaviy bo‘lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid bo‘lgan g‘oyalarni allov va zo‘rlik bilan targ‘ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyot; diniy tashkilotlardagi o‘ta mutaassib guruhlarning ashaddiy reaksiyon, dinni niqob qilib olgan, uning qonunqoidalariga mafkuraviy tus berib, undan o‘zlarining strategik geosiyosiy maqsadlariga erishish yo‘lida foydalanishga qaratilgan diniy-siyosiy hodisa.

**Davlat-xususiy sheriklik** – davlat organlarining nodavlatnotijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativhuquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligi.

**Diskont siyosati** – mamlakat to‘lov balansi va valyuta kursiga ta’sir etish maqsadida Markaziy bankning diskont stavkasini o‘zgartirish siyosati.

**Diversifikatsiya** (lotincha *diversus* - har xil, *facere* - qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko‘paytirish. Diversifikatsiya jarayoni iqtisodiyot tarmoqlarida olib borilayotgan modernizatsiya va tarkibiy o‘zgarishlar bilan bevosita uyg‘unlashgan.

**Diversifikatsiya strategiyasi** – korxona faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasi. Diversifikatsiya strategiyasi korxonalarning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini rivojlantirishning eng yetakchi zamonaviy tendensiyalaridan biri hisoblanib, u orqali korxonalarning bozor sharoitida vujudga keladigan turli qaltisliklarga bo‘lgan raqobatdoshligini oshiradi. Diversifikatsiya strategiyasi – korxonalarda yangi mahsulotlar liniyalarini ishga tushirish, qo‘shma korxonalar tuzish, boshqa korxonalarni sotib olish va boshqa turli uslublarda amalga oshirilishi mumkin.

**Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YTTB)** bsh bo‘limi Londonda joylashgan bo‘lib, 1990-yil 29-maydagi kelishuvga asosan Markaziy va Sharqiylar Yevropa mamlakatlarini bozor iqtisodiyotiga o‘tish bo‘yicha islohotlarini qo‘llabquvvatlash maqsadida tashkil etilgan xalqaro moliyaviy tashkilot.

**Yoshlarga oid davlat siyosati** – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizmi.

**Yoshlar (yosh fuqarolar)** – o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslar.

**Yosh oila** – er-xotinning ikkisi ham o‘ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o‘ttiz yoshdan oshmagan yolg‘iz otadan yoki yolg‘iz onadan iborat bo‘lgan oila, shu jumladan, nikohdan ajralgan beva erkak (beva ayol).

**Yosh mutaxassis** — oliy yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasini bitirgan, ta’lim muassasasini bitirganidan so‘ng olgan ixtisosligi bo‘yicha uch yil

ichida ishga kirgan va ma'lumoti to'g'risidagi hujjatda ko'rsatilgan ixtisosligi bo'yicha ishlayotganiga uch yildan ko'p bo'lмаган о'ttiz yoshdan oshmagan xodim.

**Yoshlar tadbirkorligi** — yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek, ta'sischilar yosh fuqarolar bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati.

**Yoshlar va bandlik** — ijtimoiy yetuklikka erishish davrini boshdan kechirayotgan o'n besh yoshdan o'ttiz yoshgacha bo'lgan ijtimoiy demografik guruhlarning ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilganlik muammosi.

**Jahon banki guruhi** – Birlashgan millatlar tashkilotining ixtisoslashgan moliya instituti hisoblanib, asosiy maqsadi ishlab chiqarish kapital qo'yilmalari uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro uzoq muddatli investitsiyalar oqimini rag'batlantirishdan iborat.

**Iqtisodiy xavfsizlik** – iqtisodiy kategoriya bo'lib, iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarish amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarning himoyalangandagi holatini ifodalaydi.

**Iqtisodiy sohadagi terrorizm** – terrorchilarning iqtisodiy manfaatga erishish maqsadida raqiblariga, aholining turli qatlamlari va guruhlariga, davlatlar va ularning boshliqlariga ta'sir o'tkazishi.

**Ijtimoiy terrorizm** – jinoyatchilik miqyoslarining kengayishi, kriminal vaziyatning keskinlashuvi, umumi ijtimoiy beqarorlikning vujudga kelishi.

**Iqtisodiy xavfsizlikning mezoni** – iqtisodiy xavfsizlikning mohiyatini ifodalovchi muhim jarayonlar nuqtayi nazaridan iqtisodiy holatni baholash.

**Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy ko'rsatkichlari** – iqtisodiy sohasidagi milliy manfaatlarning miqdor jihatdan ifodalanishi.

**Ijtimoiy investitsiyalarga** inson salohiyatini, ko'nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

**Investitsiyalar** – iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlarni hamda ularga doir huquqlar;

**Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (MIGA)** – investor va kreditorlarga siyosiy risklarlarning sug'urtasi va rivojlanayotgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishda yordam berish maqsadida kreditlar sifatini oshirish xizmatlarini ko'rsatadi.

**Investitsion bahslarni tartibga solishning xalqaro markazi (ICSID)** – investitsion bahslarni arbitrajda ko'rib chiqilishi va tartibga solishning xalqaro mexanizmlarini ta'minlaydi.

**Investitsion muhit** – muayyan mamlakatga (yoki hududga) investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan iqtisodiy,

ijtimoiy, tashkiliy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlar mavjudligining ijobiy yoki salbiy tomonlarini anglatadi.

**Investitsiya faoliyati** – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmui.

**Investitsiya faoliyati ishtirokchisi** investorning buyurtmalarni bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta’minlovchi investitsiya faoliyati subyekti.

**Investor** – o‘z mablag‘larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag‘larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti;

**Innovatsiya investitsiyalariga** – yangi yoki takomillashtirilgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), ishlab chiqarish jarayonini, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda yangi marketing uslubini yoki tashkiliy uslubni ishlab chiqish va o‘zlashtirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

**Ichki tahdidlar** – mamlakat ichida vujudga keladigan tahdidlar.

**Iqtisodiy xafsizlikni ta’minlash taktikasi** – tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash borasida aniq bir chora-tadbirlarni qo‘llash.

**Iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi** – uzoq muddatli istiqbolda tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash borasidagi maqsad va vazifalar yig‘indisi.

**Inflatsiya** – tovarlar va xizmatlar bahosining oshishi natijasida muomalada ortiqcha pul massasining paydo bo‘lishi va shuning asosida pulning qadrsizlanishi.

**Islom** – so‘zi arabcha bo‘lib, «xudoga o‘zini topshirish», «itoat», «bo‘ysunish» ma’nosini anglatadi .

**Islom taraqqiyot banki (ITB)** 1973-yilda tashkil etilib, asosiy maqsadi a’zo mamlakatlar va musulmon uyushmalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yordam berishdan iborat.

**Iqtisodiy samara** – qo‘yilgan kapitalning investitsiyalash natijasida olingan natijasi bo‘lsa, iqtisodiy samaradorlik esa olingan iqtisodiy samara yoki investitsiya natijasida olingan foyda bilan investitsiya miqdori o‘rtasidagi munosabatni bildiradi.

**Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash** – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma’naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi jarayon.

**Iqtisodiyotning real sektori** – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne’matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq sohasi bo‘lib, u o‘z ichiga sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini oladi.

**Iqtisodiy o‘sish** – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning o‘sishi.

**Korxona (firma)ning iqtisodiy xavfsizligi** – ma’muriyat va personal tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy, tashkiliy iqtisodiy va injener-texnik chora-

tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarning ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganlik holati.

**Kapital investitsiyalarga** asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shu jumladan, yangi qurilishga, modernizatsiyalashga, rekonstruksiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

**Korrupsiya** – lotincha (corruptio) so‘zidan olingan bo‘lib, buzilish degan ma’noni anglatadi. Korrupsiya – xavfsizlikka tahdid soluvchi hodisa va xufyona iqtisodiyotning ko‘rinishidir.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish** – korrrupsiyaga oid holatlarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek, korruption jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida chora-tadbirlar amalga oshirish.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi** — korruptionyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish komissiyasi.

**Milliy xavfsizlik** – manfaatlarni himoyalashning umumiyligi shakli sifatida manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish va farovonlikka intilish to‘g‘risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi.

**Manfaatlар to‘qnashuvi** – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsnинг mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

**Mafkuraviy xavfsizlik** – shaxs, millat, jamiyat, davlatning xilma-xil shakllarida namoyon bo‘ladigan mafkuraviy tajovuzlar turli mafkuraviy markazlarning buzg‘unchilik ta’siridan himoyalanganlik darajasi.

**Moliyaviy piramida sxemasi** – Internet - texnologiyalardan foydalangan holdagi odatiy moliyaviy piramida. Mazkur sxemada investorlar iqtisodiy jarayonga yangi ishtirokchilarni jalb qilgan holda daromad oladilar.

**Ma’rifat** – (arabcha —orifl, —orifa —bilmoql, —tanimoql so‘zidan), ko‘pligi —maorifl - ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g‘oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o‘stirishga qaratilgan faoliyat. —ma’rifat tushunchasi —ma’naviyatl va —madaniyat tushunchalari bilan chambarchas bog‘langan; ma’rifat tarixi jamiyat tarixining ajralmas qismidir.

**Ma’naviy meros** – qadim zamonlardan beri ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan ma’naviy boyliklar - siyosiy, falsaviy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me’yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san’at asarlari majmuidir

**Ma’naviyat** – arabcha ma’nolar majmui. Kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur va tushunchalari majmui. Ma’naviyat mafkural, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birini taqozo etadi. Ma’naviyat insonning butun umri davomida uning kuchiga kuch qo’shadigan, idrok va aql-zakovatini kengaytiradigan va mustahkamlaydigan vosita sanaladi. Ma’naviyat ma’naviy boyliklar, qadriyatlar davlat, xalq, millat, jamiyat, ayrim shaxslarning bebaho xazinasi va taraqqiyot manbaidir. Mustaqillik tufayli o’zbek xalqining ko‘p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosini o’rganish, undan xalqning umumiyligini va bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo‘l ochildi.

**Millatlararo totuvlik** – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lib, u muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining hamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha.

**Millatchilik** – millatlarning tengliginini inkor etib, o‘z millatini boshqa millatlardan yuqori qo‘yish, unga imtiyozlar yaratishga intilish, uning manfaatlarini boshqa millatlar manfaatlaridan afzal ko‘rish.

**Milliy valyuta tizimi** – bir mamlakatda valyuta munosabatlarini tashkil qilishning davlat-huquqiy shaklidir.

**Milliy ma’naviyat** – muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo‘lgan g‘oyat qimmatli ma’naviy boyliklardir

**Milliy xavfsizlik** – shaxs, jamiyat va davlatlarning hayotiy muhim manfaatlarini tashqi va ichki xavfdan qonun bilan kafolatlangan himoyasi.

**Milliy o‘zlikni anglash** – milliy o‘z-o‘zini anglash har millatning o‘zini real mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma’naviy boyliklarni ifodalovchi yagona til, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar va ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishidir. Milliy o‘z-o‘zini anglash, millat shakllanishi muayyan, nisbiy, yuqori bosqichining mezoni hisoblanadi.

**Milliy g‘oya** – muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi. Milliy g‘oya o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo‘lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo‘lgan vazifalar va mo‘ljallarni ham aks ettiradi.

**Mintaqaviy xavfsizlik** – ma’lum bir mintaqaga oid xavfsizlik. Masalan, markaziy osiyoda xavfsizlik, yaqin sharq xavfsizligi.

**Mehnat resurslari** – mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi hamda mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlayotgan shaxslar.

**Millat** –(arab - *xalq*) kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo‘lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.

**Osiyo taraqqiyot banki (OTB)**– 1966-yilda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarini ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishga yordam berish maqsadida tashkil etilgan.

**Oziq-ovqat xavfsizligi** – davlatning mamlakat va uning mintaqalarini oziq-ovqat bilan ta’minlash tizimida turli tabiiy ofatlar va favqulodda holatlar natijasida yuzaga keladigan buzilishlarni oldini olishga bo‘lgan qodirligini ko‘zda tutadi. Xufyona iqtisodiyot— bu jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan tovar moddiy boyliklar va xizmatlarning xarajati. Alovida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi davlat boshqaruv organlaridan yashirinadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi.

**Pragmatik** – ish, harakat, faollik xususiyati.

**Preventiv qo‘llab-quvvatlash va likvidlik liniyasi**—iqtisodiy siyosati asoslangan va ishonchli iqtisodiy determinatlarga ega bo‘lgan mamlakatlar uchun instrument bo‘lib, bozor, shu jumladan, moliya sektorining barqarorligi, mustahkam asosdagi tashqi iqtisodiy pozitsiya va iqtisodiy siyosatga kredit berish shartidir.

**Ratifikatsiya** – O‘zbekiston konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekistonning xalqaro shartnomalari Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilinadi. O‘zbekistonning xalqaro shartnomasini ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi Oliy Majlisning to‘xtami — qaror shaklida qabul qilinadi. O‘zbekistonning hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risidagi shartnomalari; davlatlararo munosabatlarning asoslari to‘g‘risidagi shartnomalar; O‘zbekistonning mudofaa qobiliyatiga daxldor masalalar bo‘yicha shartnomalar; kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan o‘zaro voz kechish to‘g‘risidagi shartnomalar; tinchlik shartnomalari va jamoa xavfsizlik to‘g‘risidagi shartnomalar; O‘zbekistonning boshqa davlatlar bilan hududiy chegaralanishi to‘g‘risidagi shartnomalar; O‘zbekistonning davlatlararo ittifoqlarda, xalqaro tashkilotlarda va boshqa birlashmalarda ishtiropi to‘g‘risidagi shartnomalar; ijrosi amaldagi qonunlarning o‘zgartirilishini yoki yangi qonunlar qabul qilinishini taqozo etadigan, shuningdek, O‘zbekistonning qonunlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalarni belgilaydigan xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilinadi.

**Ratsionalist** – aqlililik xususiyati, oqilona yondashuv.

**Referendum** – qonunlarni va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Referendum saylovlar bilan bir qatorda xalq irodasining bevosita ifodasidir. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega

bo‘ladi va faqat referendum yo‘li bilan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin. Referendum O‘zbekistonning butun hududida o‘tkaziladi. O‘zbekistonning butun hududida joriy etilgan harbiy vaqt yoki favqulodda holat sharoitlarida, shuningdek, harbiy vaqt tugagan yoki favqulodda holat bekor qilingandan keyin uch oy davomida referendum o‘tkazilmaydi. Referendum natijalari rasman e’lon qilingandan keyin bir yil davomida mazmun yoki ma’nosiga ko‘ra xuddi shunday savol qo‘yilgan referendum o‘tkazilmaydi. Referendum fuqarolarning o‘z xohish-irodasini umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bildirishi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. Qonunlar belgilangan tartibda o‘zning referendumini o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilinishi mumkin.

**RYInvestitsiyalar** – investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish.

**Rasmiy iqtisodiyot** – bu davlat tomonidan kuzatiladigan va nazorat qilinishi mumkin bo‘lgan iqtisodiyot.

**Raqamli iqtisodiyot** – raqamli makonda o‘z faoliyatini amalga oshiruvchi raqamli obyektlar o‘rtasidagi raqamli munosabatlarning yig‘indisi; ishlab chiqarish, davlat va boshqaruv jarayonlariga raqamli/axborot texnologiyalarini doimiy joriy etib borish asosida shakllangan iqtisodiy faoliyat.

**Siyosiy barqarorlik** – ma’lum bir davlat yoki mintaqada tinchlikni ta’minlashga qaratilgan izchil siyosat.

**Siyosiy jarayonlar** – davlat, mintqa yoki jahon miqyosidagi siyosiy faoliyat harakati.

**Siyosiy terrorizm** – siyosiy arboblarga, ular o‘tkazayotgan siyosatga, hukumatlarga ta’sir o‘tkazish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar.

**Separatizm** – (lotin. - *ajralib chiqishga, alohida bo‘lishga intilish*) hokimiyatni konstitutsiyaga zid yo‘llar bilan qo‘lga kiritishga intiluvchi kuchlarning siyosatga aralashishlari.

**Tahdid** – jamiyat, davlat va ularning subyektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga to‘sinqilik qiladigan, ziyon-zahmat keltiradigan, xavfxatar tug‘diradigan omillar va shart-sharoitlar.

**Terror** – (lotincha —terror||) —qo‘rqinch||, —dahshat|| ma’nosini anglatadi.

**Terrorchi** – terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan, shuningdek, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni amalga oshirgan shaxs.

**Terrorizmni moliyalashtirish** – terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishini, faoliyat ko‘rsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta’minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki

bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalarni, resurslarni berishga yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat.

**Terrorchilik faoliyati** – terrorchilik harakatini uyushtirish, rejalashtirish, tayyorlash va amalga oshirishdan, terrorchilik harakatiga undashdan, terrorchilik tashkilotini tuzishdan, terrorchilarni yollash, tayyorlash va qurollantirishdan, ularni moliyalashtirish va moddiy-texnika jihatidan ta’minlashdan iborat bo‘lgan faoliyat.

**Terrorchilik harakati** – garovda ushlab turish uchun shaxslarni qo‘lga olish yoki ushlab turish, davlat yoki jamoat arbobining, aholining milliy, etnik, diniy, boshqa guruhlari, chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlar vakillarining hayotiga tajovuz qilish, davlat yoki jamoat ahamiyatiga molik obyektlarni, shu jumladan, kontinental shelfda joylashgan statsionar platformalarni bosib olish, shikastlantirish, yo‘q qilish, portlatishlar, o‘t qo‘yishlar, portlatish qurilmalarini, radioaktiv, biologik, portlovchi, kimiyoiy, boshqa zaharlovchi moddalarni ishlatish yoki ishlatish bilan qo‘rkitish, yer usti, suv va havo transporti vositalarini qo‘lga olish, olib qochish, shikastlantirish, yo‘q qilish, aholi gavjum joylarda va ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotganda vahima ko‘tarish va tartibsizliklar keltirib chiqarish, aholi hayotiga, sog‘lig‘iga, jismoniy yoki yuridik shaxslar mol-mulkiga avariylar, texnogen xususiyatlari halokatlar sodir etish yo‘li bilan zarar yetkazish yoki xavf tug‘dirish, tahdidni har qanday vositalar va usullar bilan yoyish tarzida terrorchilik tusidagi jinoyatlarni, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan normalarida belgilangan terrorchilik tusidagi boshqa harakatlarni sodir etish.

**Texnopark** – materialshunoslik, elektron asbob va kontrollyorlar, ozuqa va biologik faol qo‘shimchalar, dori vositalari sohasida tadqiqotlar o‘tkazish va kichik innovatsion ishlab chiqarishlar tashkil etish maqsadida barpo etiladi. Texnopark faoliyati metallarni qayta ishlash texnologiyasi, energiya tejamkorligi, muqobil energiya manbalari va elektron o‘lchov asboblari, robototexnika, mashinasozlik va elektronikani rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Uyushgan jinoyatchilik** – jamiyatning barcha asosiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzilmalariga kirishib ketgan jinoiy faoliyatga ixtisoslashgan maxsus va universal yo‘nalishda o‘z faoliyatini diversifikatsiyalashtirib, bir necha yo‘nalish bo‘yicha jinoyatlarni sodir etishga mo‘ljallangan jinoyatchilik turi.

**Fundamentalizm** – (lotin. - asos) ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo‘l bilan zamonning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari surish.

**Xavfsizlik** – shaxs, jamiyat, davlat manfaatlarini uyg‘unlashtiruvchi, barqarorlik, tinchlik, bunyodkorlik, yaratuvchanlik omillarining majmuini ifoda etuvchi tushuncha.

**Xavfsizlik kengashi** – davlatdagi oliy mansabdar shaxslarning maslahat organi.

**Hamkorlik** – turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruhlarning umumiy maqsad yo‘lidagi ma’nan birlashuvini ifodalovchi tushuncha.

**Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik** – har bir davlat, ya’ni dunyo hamjamiyati a’zosining o‘z ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti strategiyasini erkin tanlash va amalga oshirish imkoniyatlarining ta’minlangandagi holati.

**Xalqaro valyuta fondi (XVF)** – birlashgan millatlar tashkilotining ixtisoslashgan muassasasi bo‘lib, a’zo-davlatlar valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solish va to‘lov balansidagi defitsit tufayli yuzaga keladigan valyuta qiyinchiliklarini xorijiy valyutada qisqa va o‘rta muddatli kreditlar berish orqali ularga moliyaviy yordam ko‘rsatadi.

**Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK)** – qarzlar beradi, korxonalar aksionerlik kapitali va rivojlanayotgan malakatlar xususiy sektori korxonalariga investitsiyalarni rag‘batlantirish maqsadlarida maslahat xizmatlari ko‘rsatadi.

**Xalqaro rezerv valyutalar** – dunyoning barcha mamlakatlarida xalqaro to‘lov vositasi sifatida qabul qilinadigan yetakchi valyutalar.

**Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA)** – kambag‘al mamlakatlar hukumatlariga foizsiz qarzlar (kreditlar) va grantlar beradi.

**Xalqaro terrorizm** – davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo‘poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U eng og‘ir jinoyat bo‘lib, uzoq vaqt davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

**Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB)** – past darajadagi daromadli mamlakatlarning to‘lovga qodir hukumatlariga va o‘rta darajadagi daromadli mamlakat hukumatlarga kredit resurslari taqdim etadi.

**Xususiy mulk huquqi** – shaxsning qonun hujjalariiga muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi.

**Xalqaro shartnoma** – xalqaro huquq subyektlarining huquqlari va majburiyatlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuv bo‘lib, ular ishtirok etuvchi subyektlarning soniga qarab ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalarga bo‘linadi. Xalqaro shartnomalar mazmuniga qarab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shartnomalar bo‘lishi, shuningdek boshqa masalalar bo‘yicha tuzilishi mumkin. Muddatiga qarab shartnomalar muddatli va muddatsiz bo‘ladi. Xalqaro shartnomalar boshqa turlarda ham tuzilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi — respublikaning bir yoki bir necha davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan xalqaro munosabatlar sohasidagi huquq va majburiyatlariga doir teng huquqli va ixtiyoriy kelishuvidir. O‘zbekistonning xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari va normalariga, O‘zbekiston Konstitutsiyasiga, —O‘zbekiston

Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida<sup>lgi</sup> Qonunga, shartnomaning o‘z qoidalariga muvofiq tuziladi, bajariladi, to‘xtatiladi, to‘xtatib turiladi va denonsatsiya qilinadi. Xalqaro shartnomalar: shartnoma, bitim, konvensiya, protokol, memorandum, deklaratsiya, xatlar va notalar almashuvi deb nomlanishi va shunday ko‘rinishda tuzilishi, shuningdek, boshqacha nomlanishi mumkin. Xalqaro shartnomalar qoida tariqasida yozma shaklda tuziladi. O‘zRning xalqaro shartnomalarini tuzish huquqi davlatga tegishlidir. O‘zbekistonning Prezidenti davlat boshlig‘i sifatida xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston nomidan ish ko‘radi va xalqaro huquqiy normalar hamda O‘zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq maxsus vakolatlarsiz muzokaralar olib boradi va O‘zbekistonning xalqaro shartnomalarini imzolaydi.

**Harakat strategiyasi** – davlatning ma’lum muddatga yoki uzoq yillarga mo‘ljallangan rivojlanish dasturi.

**Harbiy-siyosiy bloklar** – bir necha davlatlarning birlashgan harbiy uyushmasi. Masalan, NATO.

**Shartnoma** – ikki yoki undan ortiq shaxsning huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuv. Fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Shartnoma tuzishga majbur qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Taraflar qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan shartnomani ham tuzishlari mumkin. Shartnoma tuzilgan paytidan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo‘lib qoladi.

**Ekstremizm** – (lotin. - aql bovar qilmas darajada, haddan oshish) o‘z maqsadi yo‘lida turli haddan ortiq keskin tadbirchoralar ko‘rishga tarafdarlik, jamiyatda qabul qilingan qonunqoidalarga zid bo‘lgan keskin radikal qarashlar.

**Erkin iqtisodiy hudud** – bu ma’lum hududda chet el investitsiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan qator imtiyozlar belgilangan hududdir;

**Erkin ishlataladigan valyuta** – to‘lov balansining joriy operatsiyalar bo‘limida valyutaviy cheklashlar bo‘lmagan mamlakatlarning milliy valyutalari.

**Eksport** – tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

**Eksport salohiyati** – milliy iqtisodiyotning jahon bozorlarida raqobatdosh bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ularni jahon narxlari bo‘yicha yetarli hajmlarda eksport qilish qobiliyati.

**Ekologik xavfsiz muhit** — inson hayoti va salomatligiga salbiy ta’sir etuvchi zararliklardan xoli bo‘lgan hudud (kenglik).

**Yashirin yoki norasmiy iqtisodiyot** – rasmiy hisobotlarda va rasmiy shartnomalarda aks ettirilmaydigan xo‘jalik munosabatlari yig‘indisi.

**Yumshoq valyuta** – xalqaro miqyosda to‘lov vositasi vazifasini bajara olmaydigan, ya’ni tashqi konvertirlikka ega bo‘lmagan valyutalar.

**Qadriyat** – voqelikdagi muayyan hodisalarining umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha. Jamiyat, inson va inson uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma’rifat, madaniyat, moddiy va ma’naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go‘zallik, axloqiy xislat hamda fazilatlar, an’ana, urf-odat, udum va boshqalar hisoblanadi.

**Qattiq valyuta** – iqtisodiy va siyosiy jihatdan barqaror hisoblangan mamlakatlarning almashuv kursi barqaror bo‘lgan valyutalari.

**Qonun** – eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda O‘zR Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o‘tkazish orqali qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjat. O‘zRning Konstitutsiyasi, O‘zRning qonunlari, O‘zR Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonunlar hisoblanadi.

---

# ILOVALAR

---

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**IQTISODIY XAVFSIZLIK NAZARIYASI**

**fanining**

**O'QUV DASTURI**

**2023/2024 o'quv yili kunduzgi ta'lif shakli, 2-kurs uchun**

<u>Bilim sohasi:</u>	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
<u>Ta'lif sohasi:</u>	410000 – Biznes va boshqaruv
<u>Ta'lif yo`nalishi:</u>	60310400 – Iqtisodiy xavfsizlik

**Namangan – 2023 yil**

<b>Fan/moduli va kodi</b> <b>IXN1410</b>	<b>O'quv yili</b> <b>2023/2024</b>	<b>Semestri</b> <b>3-4</b>	<b>Kreditlar</b> <b>6+4=10</b>
<b>Fan/moduli va turi majburiy</b>	<b>Ta'lim tili</b> <b>O'zbek</b>		<b>Haftadagi dars soatlari 3-semestrda 4 soat 4-semestrda 4 soat</b>
<b>Fanni nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlar (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lif soati (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
<b>Iqtisodiy xavfsizlik nazariyasi</b>	<b>120</b>	<b>180</b>	<b>300</b>

**Fanning mazmuni.** Bo'lajak mutaxassislarni ular egallayotgan kasbga tayyorlash ishlari ishlab chiqarish bilan uzviy bog'langan o'quv rejalarini va o'quv dasturlarini nazariy va fundamental fanlarga asoslangan xolda olib boriladi.

Iqtisodiy xavfsizlik bu mamlakat iqtisodiyotining asosiy himoya tizimi bo'lib, bu tizim davlatni tashqi va ichki iqtisodiy xavf-xatarlarni ko'ra bilish va shu xatarlardan himoyalanish yo'llarini o'rganadi. Iqtisodiy xavfsizlik rivojlanayotgan yoki rivojlanmagan, umuman davlatning qanaqa holatdaligiga qaramasdan har bir davlatning barqarorligi, iqtisodiy o'sishini himoyalashi uchun eng muhim tizim hisoblanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyot darajasida makroiqtisodiy kategoriya va muayyan mamlakat milliy iqtisodiyotini tavsiflaydi, bozor tizimida xatar borligidan va bundan hatto milliy iqtisodiyot ham xoli bo'lmasligini, undan saqlanish zarurligini bildiradi.

Iqtisodiyot globallashgan, eksport va importning milliy iqtisodiyotga ta'siri kuchaygan sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni o'z ishlab chiqarishi bilan ta'minlab bo'lmaydi. Shunday sharoitda eksport-import aloqalarining muntazamligini strategik sherikchilik asosida ta'minlash mamlakat iqtisodiyoti xavfsizligini kafolatlaydi.

Mamlakatimizda turli xil iqtisodiy tahdidlarga qarshi chora-tadbirlar, islohotlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini yanada jadallashtirish natijasida mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishga erishib kelinmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotini turli tahdidlardan himoya qilish, jamiyat hayot faoliyatining bir qancha sohalarida kechadigan jarayonlarni, shu jumladan korrupsiya va xufyona iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalari ishlab chiqish, chora – tadbirlarni amalga oshirish orqali

xavfsizlikni ta'minlash hozirgi sharoitlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa global jahon iqtisodiyotida hali – beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolar sharoitida ushbu masalalarning dolzarbligi yanada ortadi. Bunday sharoitda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, unga bo'ladigan turli tahdidlarni oldini olish masalasi yuzaga

## I. Asosiy nazariy qism.

### II.1. Fan tarkibiga quyidagi fanlar kiradi:

**1-mavzu. IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI.** Iqtisodiy xavfsizlik fanining predmeti va vazifalari. Iqtisodiy xavfsizlikning mazmuni, mohiyati va tarkibiy elementlari. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va iqtisodiy xavfsizlik masalalari.

**2-mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY XAVFSIZLIGINING KONSEPTUAL ASOSLARI** Mamlakat iqtisodiyotida milliy manfaatlarni ta'minlash. O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizlik omillari. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizlik tizimi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari va uning strategik maqsadlari

**3-mavzu. IQTISODIY XAVFSIZLIK SHAKLLARI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI.** Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari. Shaxs, korxona va davlatning iqtisodiy xavfsizligi. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining tahlikali chegaralari

**4-mavzu. IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TAHDIDLAR.** Iqtisodiy manfaatlар va tahdidlar. Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar. Globallashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri

**5-mavzu MAMLAKATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI.** Mamlakatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmining mazmuni, tamoyillari va o'ziga xos jihatlari. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning shakllari

**6-mavzu. SHAXSNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI** Shaxsning erkinliklari va iqtisodiy mustaqilligi. Shaxsning hayotiy muhim manfaatlari va uning xavfsizligiga tahdidlar. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari

**7-mavzu. KORXONA (FIRMA)NING VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.** Korxonaning iqtisodiy manfaatlari va uning iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi. Korxona iqtisodiy xavfsizligiga tashqi va ichki tahdidlar. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tamoyillari

**8-mavzu. AHOLI TURMUSH DARAJASI IQTISODIY**

**XAVFSIZLIKNING IJTIMOIY INDIKATORI SIFATIDA** Ijtimoiy sohadagi tahdidlarni tizimlashtirish va baholash Demografik sohadagi tahdidlar. Demografik jarayonlarni baholash usullari va xavfsizlik ko'rsatkichlari tizimi Aholi turmush darajasi va sifati Qashshoqlik chegarasi va darajasi, aholi daromadlarining tabaqlanishini o'rganish usullari

**9-mavzu. XO'JALIK FAOLIYATINING PUL-MOLIYA SOHASIDAGI IQTISODIY XAVFSIZLIK** Moliya muassasalarining iqtisodiy manfaatlari.

Moliyaviy oqimlarga tahdidlar. Pul muomalasi sohasidagi iqtisodiy tahdidlar. Moliya, pul-kredit tizimida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash dastaklari

**10-mavzu. IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANISH YO'LIGA O'TISHDAGI XAVFSIZLIK SHARTLARI.** Ilmiy-texnik xavfsizlikning mohiyati va uning asosiy jihatlari. Innovatsion xavfsizlik mohiyati va unda milliy innovatsion tizimni shakllantirish shartlari. Innovatsion xavfsizlikning mezonlari va ko'rsatkichlari. O'zbekistonning investitsion xavfsizligini ta'minlash yo'llari

**11-mavzu. OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI.** Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasidagi tarkibiy o'zgarishlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash omili. Qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish istiqbollari

**12-mavzu. MAMLAKATNING TRANSPORT TIZIMIDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI.** Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda transport infratuzilmasining o'rni. Mamlakat transport xavfsizligini ta'minlashning strategik yo'nalishlari

**13-mavzu. MAMLAKATNING MINERAL-XOMASHYO VA ENERGETIKA TIZIMIDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI** O'zbekistonning mineral-xomashyo majmuasi. Mineral-xomashyo majmuasida xavfsizlikka tahdidlar. O'zbekistonning mineral-xomashyo majmuasi. Mineral-xomashyo majmuasida xavfsizlikka tahdidlar

**14-mavzu. EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH - IQTISODIY RIVOJLANISHNING MUHIM OMILI.** O'zbekistonda ekologik vaziyat va xavf-xatarlar. Davlatning ekologik siyosati va tabiatdan foydalanish vazifalari. O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning yo'nalishlari

**15-mavzu. AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.** Axborot xavfsizligini ta'minlash mohiyati va uning xususiyatlari. Axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmi. O'zbekistonda axborotni himoyalash davlat tizimi

**16-mavzu. XUFYONA IQTISODIYOT VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH.** Xufyona iqtisodiyotning mazmuni va vujudga kelish sabablari. Xufyona iqtisodiyotning tuzilmasi va uning ko'lamlari. Xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash usullari. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyot faoliyatining tarqalish omillari va salbiy oqibatlari

**17-mavzu. O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.** Korruksianing vujudga kelish sabablari va iqtisodiy oqibatlari. Korruksianing namoyon bo'lish shakllari. O'zbekistonda korruksiyaga qarshi kurashning qonuniy va me'yoriy asoslari.

**18-mavzu. HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.** Davlatning hududiy siyosati va mintaqalashtirish muammolari Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darjasini bo'yicha tabaqlanishi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tahdidlarni tizimlashtirish va baholash

**19-mavzu. MAMLAKATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.** Jahon iqtisodiy tizimida milliy iqtisodiyotning tutgan o'rni. Milliy manfaatlarga tahdidlar. Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash. Mamlakatning harbiy-

iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash

**20-mavzu. TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIK VA MAMLAKAT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH.** Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlarga tahlidlar. Davlatning tashqi qarzi va uni tartibga solish metodlari. Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda bojxona organlarining o'rni. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmlari

## **II.2. Ma'ruza mavzularini taqsimlanishi**

<b>Nº</b>	<b>Mavzular III-semestr</b>	<b>Soati</b>
1	Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va nazariy asoslari.	2
2	O'zbekiston respublikasi iqtisodiy xavfsizligining konseptual asoslari	2
3	Iqtisodiy xavfsizlik shakllari va asosiy ko'rsatkichlari.	2
4	Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar	2
5	Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi.	4
6	Shaxsnинг iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammolari.	4
7	Korxona (firma)ning va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash	4
8	Aholi turmush darajasi iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy indikatori sifatida	2
9	Xo'jalik faoliyatining pul-moliya sohasidagi iqtisodiy xavfsizlik	4
10	Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishdagi xavfsizlik shartlari	4
	<b>Jami</b>	<b>30</b>

## **II.2. Ma'ruza mavzularini taqsimlanishi**

<b>Nº</b>	<b>Mavzular IV-semestr</b>	<b>Soati</b>
1	Oziq-ovqat xavfsizligi.	4
2	Mamlakatning transport tizimida xavfsizlikni ta'minlash masalalari	4
3	Mamlakatning mineral-xomashyo va energetika tizimida xavfsizlikni ta'minlash masalalari	2
4	Ekologik xavfsizlikni ta'minlash - iqtisodiy rivojlanishning muhim omili	2
5	Axborot xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari	4
6	Xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash.	4
7	O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning me'yoriy-huquqiy asoslari	4
8	Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash	2

9	Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.	2
10	Tashqi iqtisodiy xavfsizlik va mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlash	2
	<b>jami</b>	<b>30</b>

### III. Amaliy mashg'ulotlar

**1-mavzu. IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI.** IQTISODIY XAVFSIZLIK FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI. Iqtisodiy xavfsizlikning mazmuni, mohiyati va tarkibiy elementlari. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va iqtisodiy xavfsizlik masalalari.

**2-mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY XAVFSIZLIGINING KONSEPTUAL ASOSLARI** Mamlakat iqtisodiyotida milliy manfaatlarni ta'minlash O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizlik omillari. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizlik tizimi Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari va uning strategik maqsadlari

**3-mavzu. IQTISODIY XAVFSIZLIK SHAKLLARI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI.** Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari. Shaxs korxona va davlatning iqtisodiy xavfsizligi. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlar Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining tahlikali chegaralari

**4-mavzu. IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TAHDIDLAR.** Iqtisodiy manfaatlar va tahdidlar. Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar. Globallashu jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri

**5-mavzu MAMLAKATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI.** Mamlakatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmining mazmuni, tamoyillari va o'ziga xos jihatlari. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning shakllari

**6-mavzu. SHAXSNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI** Shaxsning erkinliklari va iqtisodiy mustaqilligi. Shaxsning hayoti muhim manfaatlari va uning xavfsizligiga tahdidlar. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari

**7-mavzu. KORXONA (FIRMA)NING VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.** Korxonaning iqtisodiy manfaatlar va uning iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi. Korxona iqtisodiy xavfsizligiga tashqi va ichki tahdidlar. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tamoyillari

**8-mavzu. AHOLI TURMUSH DARAJASI IQTISODIY XAVFSIZLIKNING IJTIMOIY INDIKATORI SIFATIDA** Ijtimoiy sohadagi tahidlarni tizimlashtirish va baholash Demografik sohadagi tahidlardan. Demografi jarayonlarni baholash usullari va xavfsizlik ko'rsatkichlari tizimi Aholi turmush darajas va sifati Qashshoqlik chegarasi va darajasi, aholi daromadlarining tabaqlanishin o'rGANISH usullari

**9-mavzu. XO‘JALIK FAOLIYATINING PUL-MOLIYA SOHASIDAGI IQTISODIY XAVFSIZLIK** Moliya muassasalarining iqtisodiy manfaatlari. Molivaviy oqimlarga tahdidlar. Pul muomalasi sohasidagi iqtisodiy tahdidlar. Moliya, pul-kredit tizimida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash dastaklari

**10-mavzu. IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANISH YO‘LIGA O‘TISHDAGI XAVFSIZLIK SHARTLARI.** Ilmiy-texnik xavfsizlikning mohiyati va uning asosiy jihatlari. Innovatsion xavfsizlik mohiyati va unda milliy innovatsion tizimni shakllantirish shartlari. Innovatsion xavfsizlikning mezonlari va ko‘rsatkichlari. O‘zbekistonning investitsion xavfsizligini ta’minlash yo‘llari

**11-mavzu. OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI.** Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlar oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash omili. Qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish istiqbollari

**12-mavzu. MAMLAKATNING TRANSPORT TIZIMIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH MASALALARI.** Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda transport infratuzilmasining o‘rni. Mamlakat transport xavfsizligini ta’minlashning strategik yo‘nalishlari

**13-mavzu. MAMLAKATNING MINERAL-XOMASHYO VA ENERGETIKA TIZIMIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH MASALALARI** O‘zbekistonning mineral-xomashyo majmuasi. Mineral-xomashyo majmuasida xavfsizlikka tahdidlar. O‘zbekistonning mineral-xomashyo majmuasi. Mineral-xomashyo majmuasida xavfsizlikka tahdidlar

**14-mavzu. EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH - IQTISODIY RIVOJLANISHNING MUHIM OMILI.** O‘zbekistonda ekologik vaziyat va xavfsatarlar. Davlatning ekologik siyosati va tabiatdan foydalanish vazifalari. O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning yo‘nalishlari

**15-mavzu. AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.** Axborot xavfsizligini ta’minlash mohiyati va uning xususiyatlari. Axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmi. O‘zbekistonda axborotni himoyalash davlat tizimi

**16-mavzu. XUFYONA IQTISODIYOT VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH.** Xufyona iqtisodiyotning mazmuni va vujudga kelish sabablari. Xufyona iqtisodiyotning tuzilmasi va uning ko‘lamlari. Xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash usullari. O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyot faoliyatining tarqalish omillari va salbiy oqibatlari

**17-mavzu. O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.** Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari va iqtisodiy oqibatlari. Korrupsiyaning namoyon bo‘lish shakllari. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy va me’yoriy asoslari.

**18-mavzu. HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH.** Davlatning hududi siyosati va mintaqalashtirish muammolari Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha tabaqlananishi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tahdidlarni tizimlashtirish va baholash

**19-mavzu. MAMLAKATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH.**

Jahon iqtisodiy tizimida milliy iqtisodiyotning tutgan o'rni. Milliy manfaatlarga tahididlar. Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash. Mamlakatning harbiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash

**20-mavzu. TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIK VA MAMLAKAT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH.** Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlargatahiddilar. Davlatning tashqi qarzi va uni tartibga solish metodlari. Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda bojxona organlarining o'rni. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmlari

### **III.2. Amaliy mashg'ulotlar mavzularini taqsimlanishi**

<b>№</b>	<b>Mavzular III-semestr</b>	<b>Soati</b>
1	Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va nazariy asoslari.	2
2	O'zbekiston respublikasi iqtisodiy xavfsizligining konseptual asoslari	2
3	Iqtisodiy xavfsizlik shakllari va asosiy ko'rsatkichlari.	2
4	Iqtisodiy xavfsizlikka tahididlar	2
5	Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi.	4
6	Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammolari.	4
7	Korxona (firma)ning va tadbirdorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash	4
8	Aholi turmush darjasи iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy indikatori sifatida	2
9	Xo'jalik faoliyatining pul-moliya sohasidagi iqtisodiy xavfsizlik	4
10	Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishdagi xavfsizlik shartlari	4
<b>Jami</b>		<b>30</b>

### **III.2. Amaliy mashg'ulot mavzularini taqsimlanishi**

<b>№</b>	<b>Mavzular IV-semestr</b>	<b>Soati</b>
1	Oziq-ovqat xavfsizligi.	4
2	Mamlakatning transport tizimida xavfsizlikni ta'minlash masalalari	4
3	Mamlakatning mineral-xomashyo va energetika tizimida xavfsizlikni ta'minlash masalalari	2
4	Ekologik xavfsizlikni ta'minlash - iqtisodiy rivojlanishning muhim omili	2
5	Axborot xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari	4
6	Xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash.	4

7	O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning me'yoriy-huquqiy asoslari	4
8	Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash	2
9	Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.	4
10	Tashqi iqtisodiy xavfsizlik va mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlash	
	<b>jami</b>	<b>30</b>

**Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichining namunaviy mezonlari (Fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari test shaklida Hemis.namdu.uz saytida o'tkaziladi):**

**MUSTAQIL ISH MAVZULARI VA SHAKLLARI**

<b>No</b>	<b>Mavzu nomi</b>	<b>TMI shakli</b>	<b>Soati</b>
<b>III-semestr uchun</b>			
1	Oziq-ovqat xavfsizligi.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	8
2	Mamlakatning transport tizimida xavfsizlikni ta'minlash masalalari.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	8
3	Ekologik xavfsizlikni ta'minlash-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	8
4	Axborot xavfsizligini ta'minlashnking o'ziga xos xususiyatlari.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	8
5	Ijtimoiy soxadagi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yunalishlari.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	8
6	Mintaqa (xudud) iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet	8

		ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	
7.	Xufyona iqtisodiyot korruptsiyaga qarshi kurash.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	8
8.	Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	8
9.	Tashki iqtisodiy xavfsizlikni va mamlakatning raqobatbardoshlilagini ta'minlash.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	8
10.	Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va nazariy asoslari.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	8

#### IV-semestr uchun

11.	Iqtisodiy xavfsizli shakllari va asosiy ko'rsatkichlari.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	10
12.	Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	10
13.	Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	10
14.	Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammolari.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	10
15	Korxona (tadbirkorlik)	Adabiyotlarni kanspekt	10

	faoliyati)ning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.	qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	
16	Iqtisodiyotning real sektorlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	10
17	Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishidagi xavfsizlik shartlari.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	10
18	Xo'jalik faoliyatining pul moliya sohasidagi iqtisodiy xavfsizlik.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	10
19	Energetika sohasida xavfsizlikni ta'minlash.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	10
20	Korruptsiya va uning kelib chiqish sabablari, namoyon bo'lish shakllari.	Adabiyotlarni kanspekt qilish.Individual topshiriqlar. Mavzuga doir internet ma'lumotlarini to'plash. Mavzuga oid maqolalarni o'rganib kelish.	10
<b>Jami</b>			<b>180</b>

## **V. Fan bo'yicha kurs ishi rejallashtirilgan.**

### **Kurs ishi mavzulari ro'yhati:**

Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va nazariy asoslari.

"Xavfsizlik" tushunchasining mohiyati.

Milliy xavfsizlik va uning tarkibi.

Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va tarkibiy elementlari.

Iqtisodiy xavfsizli shakllari va asosiy ko'rsatkichlari.

Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari.

Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid.

Iqtisodiy manfaatlar va tahdidlar.

Iqtisodiy xavfsizlikka ichki tahdidlar.

Iqtisodiy xavfsizlikka tashki tahdidlar.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadi va uning institutsional sharoitlarining yaratilishi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning tartibga soluvchilik vazifalari.

O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yunalishlari.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammolari.

Shaxsning erkinliklari va iqtisodiy mustaqilligi.

Shaxsning xayotiy muhim manfaatlari va uning xavfsizligiga tahdidlar.

Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari va vositalari.

Korxona (tadbirkorlik faoliyati)ning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.

Korxonaning iqtisodiy manfaatlari va faoliyati qoidalari.

Korxonaning iqtisodiy manfaatlari va xavfsizligi.

Korxonalarining tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar va ularning turlari.

Firibgarlik-tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligiga tahdid.

Tadbirkorlik korxona (firma)si iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasi.

Tadbirkorlik korxonasida xavfsizlik xizmatini shakllantirish va takomillashtirish yo'llari.

Iqtisodiyotning real sektorlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash.

Iqtisodiyotning real sektori va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

Iqtisodiyot real sektori iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy metodologiyasi.

Real sektor xavfsizligi tizimining kontseptual asoslari va tahdidlar.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishidagi xavfsizlik shartlari.

Innovatsiya va innovatsion iqtisodiyot tushunchalarining mohiyati.

Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida investitsion xavfsizlikni ta'minlash yo'llari.

Innovatsion xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishlari. O'zbekistonda investitsion va innovatsion xavfsizlikni ta'minlash yo'llari.

Xo'jalik faoliyatining pul moliya sohasidagi iqtisodiy xavfsizlik.

Moliya muassasalarining iqtisodiy manfaatlari.

Moliyaviy oqimlarga tahdidlar.

Pul muomalasi sohasidagi iqtisodiy tahdidlar.

Moliya, pul-kredit tizimida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash dastaklari.

Pul muomalasini mustahkamlash va banklar faoliyati xavfsizligini ta'minlashnnng ustuvor yo'nalishlari.

O'zbekistonda pul-kredit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.

Energetika sohasida xavfsizlikni ta'minlash.

Energetika va energiya tashuvchilarning iqtisodiy resurs sifatidagi mohiyati va ahamiyati.

Energetika xavfsizligining mohiyati va uni ta'minlashniig ahamiyati.

Energetika xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari.

Oziq-ovqat xavfsizligi.

Oziq-ovqat xavfsizligining mohiyati va ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasining agrar siyosati va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash vazifalari.

Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish istiqbollari.

Oziq-ovqat mahsulotlari import xavfsizligini ta'minlash.

Mamlakatning transport tizimida xavfsizlikni ta'minlash masalalari.

Transportning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi roli.

Mamlakat transport tizimida xavfsizlikka tahdidlar.

Transport tizimida xavfsizlikni ta'minlash yo'llari.

O'zbekistonda transport sohasini rivojlantirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'llari.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili.

Ekologiya muammolar va ekologik xavfsizlikka tahdidlar.

O'zbekistonda ekologik vaziyat va xavf-xatarlar. Davlatning ekologik siyosati va tabiatdan foydalanish vazifalari.

O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning yo'naliishlari.

O'zbekistan Respublikasida davlatning ekologik siyosatini takomillashtirish.

Axborot xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari.

Xizmatlar bozori va uning xavfsizligini ta'minlash.

Axborot xavfsizligining mohiyati va unga tahdidlar.

Axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmi.

O'zbekistonda axborotni himoyalash davlat tizimi.

Ijtimoiy soxadagi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'naliishlari.

Ijtimoiy xavfsizlik va tahdid tushunchalarining mohiyati.

Davlatning ijtimoiy siyosati va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning maqsadi va vazifalari.

Davlatning bandlik siyosati va ishsizlik gahdidini kamaytirish yo'llari.

Davlatning daromadlar siyosati va aholi turmush darajasining o'sishi.

Kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalash.

Ijtimoiy xizmatlar sohalarining rivojlanishi.

Mintaqa (xudud) iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.

Mintaqa iqtisodiyoti va mintaqaviy siyosat.

Mintaqa (xudud) iqtisodiy xavfsizligi.

Mintaqa (xudud) iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi.

O'zbekistonda mintaqa (xudud)ni iqtisodiy rivojlantirish va xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.

Xufyona iqtisodiyot va korruptsiyaga qarshi kurash.

Xufyona iqtisodiyot mazmuni va vujudga kelish sabablari, namoyon bo'lish shakllari.

Korruptsiya va uning kelib chiqish sabablari, namoyon bo'lish shakllari.

Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurash usullari.

O'tish iqtisodiyoti sharoitida korruptsiya va jinoiy xufyona iqtisodiyotga qarshi kurash.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.

Davlatning milliy iqtisodiy xavfsizligi va uning tarkibiy elementlari.  
Davlat iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi tahdidlar va omillar.  
Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash.  
Tashki iqtisodiy xavfsizlikni va mamlakatning raqobatbardoshlilagini ta'minlash.  
Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlarga tahidlar.  
Tashqi iqtisodiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash yo'llari.  
Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda bojxona organlarining o'rni va roli.  
Xorijiy investitsiyalarni jalg etish bilan bog'liq xavfsizlik va mamlakatning raqobatbardoshligi.  
Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda.  
Milliy manfaatlarni himoyalash va iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlash yo'llari.  
O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va takomillashtirish yo'naliishlari.

**VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)**

**Fanni o'zlashtirishi natijasida talaba:** iqtisodiy xavfsizlikning fanlar tizimida tutgan o'rni, obyektti va predmeti, shakllanishi, rivojlanishi, zamonaviy tuzilishi haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi***;

iqtisodiy xavfsizlik fanining nazariy asoslarini, qonunlar, asosiy tushunchalar, jarayonlarning xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi***;

talaba iqtisodiy xavfsizlikning jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, jamiyatning turli jabhalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va geografik aloqadorlikni aniqlay olish, muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish malakasiga ***ega bo'lishi kerak***.

## VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

ma'ruzalar;  
fan bo'yicha tezkor lug'at tayyorlash (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);  
guruhlarda ishlash;  
yakka tartibda talabalar bilan ishlash  
jamoa bo'lib ishlash va ximoya qilish uchun loyihamlar

## VIII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR

Fanga ajratilgan kreditlar talabalarga har bir semestr bo'yicha nazorat turlaridan ijobjiy natijalarga erishilgan taqdirda taqdim etiladi.

Fan bo'yicha talabalar bilimini baholashda oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlari qo'llaniladi. Nazorat turlari bo'yicha baholash: 5 – "a'lo", 4 – "yaxshi", 3 – "qoniqarli", 2 – "qoniqarsiz" baho mezonlarida amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat har semestrda bir marta yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Talabalar semestrlar davomida fanga ajratilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlarda muntazam, har bir mavzu bo'yicha baholanib boriladi va o'rtachalanadi. Bunda talabaning amaliy (seminar) mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida, to'laqonli bajarganligi, mashg'ulotlardagi faolligi

inobatga olinadi.

Shuningdek, amaliy (seminar) mashg'ulot va mustaqil ta'lif topshiriqlari bo'yicha olgan baholari oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda inobatga olinadi. Bunda har bir oraliq nazorat turi davrida olingan baholar o'rtachasi oraliq nazorat turidan olingan baho bilan **qayta o'rtachalanadi**.

O'tkazilgan oraliq nazoratlardan olingan baho **oraliq nazorat natijasi** sifatida qaydnomaga rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat turi semestrlar yakunida tasdiqlangan grafik bo'yicha yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlarida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

<b>Asosiy adabiyotlar:</b>	13. X.Абдулқосимов, М.Абдулқосимов. Иқтисодий хавфсизлик: назарияси ва амалиёти. “Ноширлик ёг’дуси” нашриёти, Тошкент-2019, ISBN: 978-9943-4742-6-0. 14. “Davlatning iqtisodiy xavfsizligi”. H.P.Abulqosimov Toshkent - 2012 y. 15. X.S.Asatullayev va boshqalar “Iqtisodiy xavfsizlik” I,II-qism, “Iqtisod-moliya”, toshkent, 2020. ISBN: 978-9943-13-901-5. 16. Mamatov A.A., Abulqosimov H.P., Mamatov S.A., Saidgaziyeva S.Sh. Iqtisodiy xavfsizlik. Darslik. – Toshkent: O_zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022.- 731 bet. 17. I.S.Xotamov, M.K.Olimov, A.J.Ismoilov “Iqtisodiy xavfsizlik” O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil, 200 bet.
<b>Qo'shimcha</b>	<b>Qo'shimcha adabiyotlar</b> 1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2016.–

<b>adabiyotlar:</b>	<p>76 b.</p> <p>2. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2017 yil, 3 yanvar.</p> <p>3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.</p> <p>4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi. 2017 yil 23 dekabr.</p>
---------------------	---

### Axborot manbaalari

1. www.gov.uz- O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz— O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. www.tradingeconomics.com— ekonomicheskie pokazateli.

### Namangan davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan:

- “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasining 2023-yil, 28-avgustdagи 1-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan.
- Iqtisodiyot fakulteti kengashining 2023-yil, 29-avgustdagи 1-sonli majlisida ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.
- NamDU o’quv-uslubiy kengashining 2023-yil 30-avgustdagи 1-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

### Fan/modul uchun mas’ul:

Sh.Lutpidinov - Namangan davlat universiteti “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasi (PhD), katta o‘qituvchisi

### Taqribchilar:

K.Sirojiddinov-NamDU “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasi i.f.n., dots

D.Boymirzayev – NamDU “Menejment” kafedrasi muduri, (PhD), dots.

**NamDU o’uv-uslubiy boshqarma boshlig’i**

**X. Mirzaaxmedov**

**Iqtisodiyot fakulteti dekani**

**N. Narzullayev**

**Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi mudiri**

**B.Urinov**

**Tuzuvchi**

**Sh.Lutpidinov**

## Iqtisodiy xavfsizlik fanidan test savollari

### 1. Quyidagi ta’riflardan qaysi biri iqtisodiy xavfsizlik|| tushunchasini to’laroq tavsiflab beradi?

A) iqtisodiy xavfsizlik – bu iqtisodiyotning ijtimoiy ehtiyojlarni samarali qondirishga qodirligidir

B) iqtisodiy xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat va davlatning mavjudligi va ularning talab-ehtiyojlarining qondirilishidir

S) iqtisodiy xavfsizlik – bu milliy iqtisodiyot mustaqilligining, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va takomillashib borishga qodirligini ta’minlovchi shart-sharoit va omillar yig‘indisidir

D) iqtisodiy xavfsizlik – bu turli beqarorlikni, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar ta’siridan himoya qiluvchi ichki imkoniyatlar yig‘indisidir

### 2. Iqtisodiy xavfsizlikning umumiyligi ko’rsakichlari quyidagilardan iborat:

A) turmush darajasi va sifati, inflatsiya sur‘ati, iqtisodiy o‘sish, byudjet defitsiti, davlat qarzi

B) mulk tarkibi, soliq tizimi, —xufyona iqtisodiyot|| faoliyati, inflatsiya

S) inflatsiya, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv darajasi, turmush darajasi va sifati, iqtisodiy o‘sish

D) A va B javoblar

### 3. \_\_\_\_\_ anglangan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning namoyon bo‘lish shaklidir.

A)

B) iqtisodiy manfaat

C) davlat manfaati

S) jamiyat manfaati

D) shaxsiy manfaat

### 4. Iqtisodiy tahdidlar qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?

A) global ekologik tahdidlar

B) geosiyosiy va tashqi iqtisodiy tahdidlar

S) mamlakat ichidagi tahdidlar

D) ichki va tashqi tahdidlar

### 5. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash konsepsiysi

\_\_\_\_\_ asoslangan holda ishlab chiqiladi.

A) iqtisodiy holatni obyektiv baholashga

B) iqtisodiy holatni obyektiv baholashga hamda iqtisodiy holatning rivojlanish tamoyili va tendensiyalarini bashorat qilishga

S) iqtisodiy holatning rivojlanish tendensiyalarini bashorat qilishga

D) iqtisodiy holatni obyektiv baholashga hamda iqtisodiy holatning rivojlanish tendensiyalarini bashorat qilishga

**6. Iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan quyidagi sohalardan qaysi biri eng muhim tarmoqlar qatoriga kiradi?**

A) yoqilg‘i-energetika, oziq-ovqat sanoati, transport va aloqa

B) yoqilg‘i-energetika, harbiy soha, ilmiy- texnika salohiyati

S) transport va aloqa, ilmiy- texnika salohiyati, harbiy soha

D) oziq-ovqat sanoati, yoqilg‘i-energetika, ilmiy- texnika salohiyati

**7. Shaxs xavfsizligi deganda \_\_\_\_\_ tushuniladi.**

A) insonning ehtiyojlari, manfaatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillardan himoyalanganligi

B) insonning iqtisodiy faoliyatiga bo‘ladigan salbiy ta’sirlardan himoyalanganligi

S) inson hayotiga, salomatligiga, mol-mulki va kapitaliga bo‘lgan tahdidlardan himoyalanganligi

D) to‘g‘ri javob yo‘q.

**8. Bozor munosabatlari sharoitida insonning imkoniyatlari qaysi omil yoki omillar bilan belgilanadi?**

A) shaxsiy mol-mulki, boyligining miqdori

B) shaxs boshqaradigan kapital miqdori

S) shaxsga ma’muriy, ixtiyoriy yoki majburiy ravishda bo‘ysunuvchi yoki unga qaram jismoniy shaxslar soni

D) barcha javoblar to‘g‘ri

**9. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi - ma’muriyat va personal tomonidan amalga oshirilgan \_\_\_\_\_ chora-tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarning ichki va tashqi xavfxatarlardan himoyalanganlik holatidir.**

A) huquqiy, ijtimoiy, muhandislik-texnik

B) tashkiliy-iqtisodiy, muhandislik-texnik

S) huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, muhandislik-texnik

D) huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy-iqtisodiy, muhandislik-texnik

**10. Quyida keltirilgan omillardan qaysi biri korxonaning tijorat sirlari va axborotlarini himoyalash choralariga kirmaydi?**

A) axborotni patentlashtirish

B) bozor konyunkturasini bilish

- S) muallif huquqini olish
- D) tijorat axborotini hisobga olish.

**11. Mamlakat xavfsizligini ta'minlashni boshqarish tizimi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:**

- A) ichki va tashqi bozorlarni himoyalash, kommunikatsiya va o'zaro aloqa tizimi
- B) axborotlar, tahliliy tuzilmalar, ichki va tashqi bozorlarni himoyalash
- S) tashkiliy tuzilmalar, kommunikatsiya va o'zaro aloqa tizimi, axborotlar
- D) har tomonlama tayyorlangan kadrlar, tashkiliy tuzilmalar

**12. Xufyona iqtisodiyotga qarshi qanday chora- tadbirlar qo'llanilishi mumkin?**

I. Korxonalar xo'jalik moliyaviy faoliyati to'g'risida haqqoniy ma'lumotlarni to'plash;

II. Jismoniy shaxslarning daromad olishi va xarajatlari to'g'risida haqqoniy ma'lumotlarni to'plash;

III. Tahlil qilish asosida iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni keng qamrovli nazorat qilish tizimini shakllantirish;

- A) I, II
- B) II, III
- S) I, II, III
- D) I, III

**13. Soliq yukining og'irligi qanday natijalarga olib keladi?**

- A) iqtisodiy xavfsizlikning ta'minlanishiga
- B) soliq obyektlarining kamayishiga
- S) byudjet daromadlarining oshishiga
- D) turli huquqbazarliklarning kelib chiqishiga

**14. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi sabablarini nima bilan izohlash mumkin?**

- A) aholining kambag'al va boyligida
- B) ikki tabaqa o'rtaсидаги haddan tashqari katta farqning yuzaga kelishi
- S) amaldorlarning islohotlarning mohiyatini tushunib yetmasligida
- D) norasmiy yashirin ishsizlik darajasining o'sib borishida

**15. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lib kirishi qanday ijobjiy oqibatlarga olib keladi?**

I. JSTning boshqa a'zolari bilan savdo qilishda mumkin qadar qulay rejimga ega mamlakat maqomini olishi;

II. Eksport, import xorijiy va mahalliy sarmoyalar salmog'ining ortishi natijasida davlatning fiskal daromadlari oshadi;

III. Iqtisodiyotning ayrim strategik tarmoqlarini to‘g‘ridanto‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hukumat imkoniyatlarining kamayishi;

IV. Ichki bozor narxlari, monopoliya tariflari, texnik normalari va standartlar, intellektual mulkdan foydalanish qoidalari kabi amaliyotda mavjud bo‘lgan tartibga solish usullarini o‘zgarmagan holda saqlab qolish imkoniyati kamayadi;

V. Xorijiy sarmoyadorlarning ishonchi mustahkamlanadi, respublika iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarning oqimi ortadi.

- A) I, II, V
- B) I, II, III
- S) II, III, IV, V
- D) I, II, III, IV, V

**16. Iqtisodiy xavfsizlik inshoottlari - bu**

- 
- A) mahsulot, ish va xizmatlar ishlab chiqaruvchilari va sotuvchilari
  - B) o‘zaro muvofiqlashgan iqtisodiy munosabatlar
  - S) xavfsizlik siyosatining asosiy mazmuni va strategik maqsadini tashkil etuvchi, real mavjud bo‘lgan hodisa, jarayon va munosabatlar
  - D) banklar, birjalar, jamg‘armalar va sug‘urta kompaniyalari

**17.O‘zbekistonning harbiy doktrinasi Oliy Majlisning nechanchi sessiyasida ko‘rib chiqildi?**

- A) 1995-yil 14-sessiyasida
- B) 1996-yil 14-sessiyasida
- S) 1995-yil 11-sessiyasida
- D) 1996-yil 11-sessiyasida

**18.O‘zbekiston Respublikasi «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonuni Oliy Majlisning nechanchi sessiyasida yangi tahrirda qabul qilindi?**

- A) 11-may 2001-yil 2-chaqiriq 7-sessiyasida
- B) 12-may 2001-yil 3-chaqiriq 7-sessiyasida
- S) 15-may 2000-yil 2-chaqiriq 8-sessiyasida
- D) 11-may 2001-yil 2-chaqiriq 8-sessiyasida

**19. \_\_\_\_\_ Qurolli Kuchlarning oliv boshqaruvini amalga oshiradi va Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi.**

- A) O‘zbekiston Respublikasi IIV vaziri
- B) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri
- S) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri
- D) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

**20. O‘zbekistonda qaysi organlar mamlakat mudofaasi va xavfsizligini ta’minlaydi?**

- A) Ichki Ishlar vazirligi
- B) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
- S) O‘zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik Kuchlari
- D) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli va Milliy Xavfsizlik

Kuchlari

**21. Quyidagilardan qaysi biri tashqi xavf tarkibiga kiradi?**

- A) iqtisodiyotga, ayniqsa, ba’zi regionlarda, yuqori demografik bosim
- B) totalitar tuzumdan qolgan iqtisodiyotdagi chuqur qayta ishslash, soha va hududiy disproporsiyalar
- S) O‘zbekistonni Jahon iqtisodiy tizimiga va Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiyasiga to‘sinqilik qilish
- D) bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi

**22. Iqtisodiy xavfsizlik mezonlari deganda nimani tushunasiz?**

- A) iqtisodiyotning raqobatbardoshligini baholash
- B) iqtisodiy xavfsizlikning mohiyatini ifodalovchi, muhim jarayonlar nuqtayi nazaridan iqtisodiy holatni baholash
- S) ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish va hal etish imkoniyatlarini baholash
- D) resurs salohiyati va uni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash

**23. Iqtisodiy xavfsizlik obyekti darajasi quyidagilarga ajratiladi:**

- A) makroiqtisodiy daraja, mezo daraja, mikro daraja, oila va shaxs darajasi
- B) makroiqtisodiy daraja, mezo daraja, mikro daraja
- S) mezo daraja, mikro daraja, oila va shaxs darajasi
- D) makroiqtisodiy daraja, mikro daraja

**24. Aholining hayot darajasi va sifati ko‘rsatkichlari ichida eng muhimlaridan biri – bu:**

- A) mehnatga haq to‘lash darajasi va ish bilan ta’minlash ko‘rsatkichidir
- B) mehnatga haq to‘lash darajasi va aholining pul daromadlari ko‘rsatkichidir

- S) mehnatga haq to‘lash darajasi ko‘rsatkichidir
- D) ish bilan ta’minlash ko‘rsatkichidir

**25. Barqarorlik – bu \_\_\_\_\_ dir.**

- A) jamiyatning favqulorra holatlarda o‘z manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati
- B) jamiyatning favqulorra holatlarda ham o‘z manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati, holatni tiklash imkoniyati
- S) jamiyatning iqtisodiy beqaror holatlarida o‘z manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati, holatni tiklash imkoniyati

D) jamiyatning ijtimoiy beqaror holatlarida o‘z manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati, holatni tiklash imkoniyati

**26. Quyidagi omillardan qaysi biri ichki xavf tarkibiga kiradi?**

A) tashqi transport, axborot va ilmiy-texnika kommunikatsiyalar tizimining rivojlanmaganligi

B) O‘zbekiston Respublikasini xomashyo bazasi va past sifatli, raqobatbardosh bo‘limgan mahsulot o‘tkazish bozori sifatida saqlab qolish

S) O‘zbekistonning Jahon iqtisodiy tizimiga va Markaziy Osiyo hududida iqtisodiy integratsiyasiga to‘sinqilik qilish

D) iqtisodiy sohada jinoyatning tarqalishi, xo‘jalik subyektlarini huquqiy himoya qilish mexanizmining mukammal emasligi

**27. Qaysi organlar iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda faol ishtirok etadi?**

A) qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat

B) qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati

S) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati

D) ijro etuvchi va sud hokimiyati

**28. Milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish shakl va vositalarni tanlash davlatning siyosati strategiyasi va \_\_\_\_\_ asosida amalga oshiriladi.**

A) iqtisodiy xavfsizlik konsepsiysi

B) iqtisodiy xavfsizlik dasturi

S) konstitutsion qonun

D) hukumat qarorlari

**29. Iqtisodiy xavfsizlik omillari tizimi deganda nimani tushunasiz?**

A) iqtisodiy xavfsizlik omillari tizimi –bu iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ilmiy, texnik, informatsion shart-sharoitlardir.

B) iqtisodiy xavfsizlik omillari tizimi –bu davlatning iqtisodiy, ijtimoiy shart-sharoitlaridir.

S) iqtisodiy xavfsizlik omillari tizimi– bu ichki va tashqi xavflarning oldini olish uchun ko‘rilgan chora-tadbirlardir.

D) iqtisodiy xavfsizlik omillari tizimi– bu siyosiy, ekologik, ilmiy, texnik, informatsion shart-sharoitlardir.

**30. Quyidagilardan qaysi biri xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy omillar qatoriga kiradi?**

A) milliy va madaniy masalalarni hal qilish

B) aholining huquqiy va siyosiy madaniyati

S) energetika resurslari va mahsulotlari

D) ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma

**31. Quyidagilardan qaysi biri xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy demografik omillar qatoriga kiradi?**

- A) yoqilg'i-energetika resurslari va mahsulotlari
- B) aholi yoshi, jinsiy bo'linishi, bilim darajasi
- S) ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma
- D) milliy va madaniy masalalarni hal qilish

**32. Quyidagilardan qaysi biri xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy omillar qatoriga kiradi?**

- A) axborotni qayta ishlash tizimi
- B) davlatning ravnaqi, siyosiy harakatlar va partiylar
- S) aholining milliy tarkibi
- D) yoqilg'i-energetika resurslari va mahsulotlari

**33. Quyidagilardan qaysi biri xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi etnografik va iqtisodiy omillar qatoriga kiradi? A)** davlatning ravnaqi, siyosiy harakatlar va partiylar

- B) tug'ilish va o'lim ko'rsatkichi
- S) aholining milliy tarkibi
- D) axborotni qayta ishlash tizimi

**34. Quyidagilardan qaysi biri xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi informatsion va informatsion-psixologik omillar qatoriga kiradi?**

- A) tug'ilish va o'lim ko'rsatkichi
- B) axborotni qayta ishlash tizimi
- S) ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma
- D) yoqilg'i-energetika resurslari va mahsulotlari

**35. Quyidagilardan qaysi biri xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy va tabiiy sharoitlar ta'sirini sintezlovchi omillar qatoriga kiradi?**

- A) tabiiy resurslarni ishlab chiqarish va ulardan oqilona foydalanish
- B) ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma
- S) o'rmon, suv, yer, biologik resurslar
- D) sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishi darajasi

**36. Iqtisodiy inqirozdan chiqish maqsadida 1934-yilda qaysi mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha maxsus Federal Qo'mita tashkil etilgan?**

- A) Fransiya
- B) Shvetsiya
- S) AQSH
- D) Rossiya

**37. Qaysi mamlakatning iqtisodiy modeli boshqa modellarga nisbatan insonparvarroq?**

- A) Fransiya modeli
- B) AQSH modeli
- S) Yapon modeli
- D) Shvetsiya modeli

**38. Kim geosiyosiy xavfsizlik subyekti bo‘lib hisoblanadi?**

- A) davlat
- B) jahon hamjamiyati
- S) xalq
- D) hukumat

**39. O‘zbekiston Respublikasi ishlab chiqarish xavfsizligi sohasidagi davlat boshqaruvini kim amalga oshiradi?**

- A) Oliy Majlis
- B) Vazirlar Mahkamasi
- S) Iqtisodiyot va sanoat vazirligi
- D) Adliya vazirligi

**40. AQSHda iqtisodiy xavfsizlik bo‘yicha Federal Qo‘mita qachon tashkil topgan? A) 19-iyun 1924-yil**

- B) 29-iyul 1934-yil
- S) 29-iyun 1934-yil
- D) 19-iyul 1934-yil

**41. —Qachonki Fransiya birinchilar qatorida turar ekan, shundagina u haqiqiy Fransiya bo‘ladi! iborasi qaysi davlat arbobiga tegishli?**

- A) Mitteran
- B) Sharl de Gol
- S) Jak Shirak
- D) Napoleon Bonapart

**42. O‘zbekiston Respublikasi Senati —Xavfli sanoat obyektlarining ishlab chiqarish xavfsizligi to‘g‘risida!gi Qonunni qachon qabul qildi?**

- A) 25-avgust 2006-yil
- B) 3-oktabr 2006-yil
- S) 3-oktabr 2005-yil
- D) 25-avgust 2005-yil

**43. Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ijtimoiy mehnat samaradorligining barqaror o‘sishi qanday bo‘lishi kerak?**

- A) 5 %dan oshmasligi kerak
- B) 7%dan kam bo‘lmasligi kerak

- S) 5 %dan kam bo‘lmasligi kerak  
D) 11 %dan kam bo‘lmasligi kerak

**44. Shvetsiya iqtisodiy modeli qanday maqsadga yo‘naltirilgan?**

A) daromadlarni nazorat qilish  
B) ijtimoiy maqsadlarga erishish  
S) kapitaldan foydalanish  
D) antimonopol qonunlar

**45. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun ilmiy tadqiqot ishlariiga ajratiladigan xarajatlar YAIMga nisbatan necha foizdan kam bo‘lmasligi kerak?**

- A) 2 %  
B) 2,5 %  
S) 1,5 %  
D) 4 %

**46. Xavfsizlik tushunchasi birinchi bor qachondan boshlab qo‘llanila boshlandi?**

- A) 1980-yildan  
B) 1288-yildan  
S) 1880-yildan  
D) 1190-yildan

**47. YEVRACES tashkilotini tashkil qilish bo‘yicha shartnomaga qachon va qayerda imzolangan?**

- A) 17-iyun 2002-yil, Ostonada  
B) 10-noyabr 2000-yil, Toshkentda  
S) 10-oktabr 2000-yil, Ostonada  
D) 21-dekabr 1999-yil, Moskvada

**48. 100 ming kishilik aholiga to‘g‘ri keladigan jinoyatlar soni qancha bo‘lsa xavfsizlik chegarasi buziladi?**

- A) 4000  
B) 5000  
S) 4500  
D) 3000

**49. MDH mamlakatlarida iqtisodiy xavfsizlik g‘oyalari va u bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy xavfsizlik tushunchalari to‘g‘risidagi kitob birinchi marta qachon chop etilgan?**

- A) 1989  
B) 1988  
S) 1987  
D) 1986

**50. 2017-yilda YAIMning o'sish sur'atlari necha foizni tashkil etdi?**

- A) 107.4%
- B) 105.6%
- S) 108.1%
- D) 109.7%

**51. Aholi turmush darajasi qaysi mamlakatda eng yuqori?**

- A) AQSH
- B) Yaponiya
- S) Xitoy
- D) Kanada

**52. AQSHdagi Buyuk Depressiya qaysi yillarda sodir bo'lgan?**

- A) 1911-1913-yillarda
- B) 1925-1928-yillarda
- S) 1929-1933-yillarda
- D) 1941-1945-yillarda

**53. Iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish samaradorligi uchun qaysi omil mayjud bo'lishi kerak?**

- A) maqsadga yo'naltirilgan omil
- B) boshqaruvchanlik omili
- S) samaradorlik omili
- D) maqsadga yo'naltirilgan boshqaruvchanlik va samaradorlik omillari

**54. Mamlakatni iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy omillarni belgilang?**

- A) moddiy va tashkiliy tavsifdagi omillar
- B) moddiy, ma'naviy, iqtisodiy omillar
- S) iqtisodiy va ijtimoiy omillar
- D talab va taklif omillari

**55. Aholining turmush darajasi qaysi mamlakatda eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi?**

- A) AQSH
- B) Kanada
- S) Yaponiya
- D) Xitoy

**56. 1990-yillarda ro'yxatga olingan patentlarning soni bo'yicha dunyoda yetakchi bo'lgan davlatni aniqlang?**

- A) AQSH
- B) Yaponiya
- S) Germaniya

D) Buyuk Britaniya

**57. Eng ko‘p energiya sarf qiladigan davlat?**

A) AQSH

B) Xitoy

S) Kanada

D) Yaponiya

**58. Fan-texnika siyosatining muhim yo‘nalishi bu - ...**

A) intellektual mulk huquqini himoya qilish;

B) milliy xavfsizlikni himoya qilish;

S) yangi texnologiya yaratish;

D) loyihalarni ishlab chiqish

**59. 2000-yilda dunyo bo‘yicha kishi boshiga o‘rtacha energiya iste’moli necha tonna bo‘lgan?**

A) 5,74 tonna;

B) 8,32 tonna;

S) 1,62 tonna;

D) 6,82 tonna

**60. Yaqin orada yana ish olishga umid qilayotgan odam:**

A bandlar guruhiga kiradi

B) ishsizlar guruhiga kiradi

S) ishchi kuchi tarkibiga kirmaydi

D) to‘liq bo‘lmagan band hisoblanadi

**61. Agar iqtisodiyot muvozanat holatida turgan bo‘lsa, ta’kidlash mumkinki:**

A) iste’mol xarajatlari investitsiyalarga teng bo‘lishi lozim

B) davlat byudjeti balanslashgan

S) iste’mol xarajatlarini har qanday oshirish inflatsion uzilishga olib keladi

D) barcha keltirilgan javoblar noto‘g‘ri.

**62. Davlat xarajatlarining o‘sishi real YAIMni ko‘payishiga olib keladi, qachonki:**

A) davlat xarajatlari va pul taklifi bir vaqtda o‘ssa

B) davlat xarajatlarining ortishi nodavlat sektorining shunga teng miqdordagi xarajatlari kamayishiga olib kelmasa

S) bu xarajatlari davlat xizmatchilari ish haqi oshirilishiga emas, balki tovarlar va xizmatlar sotib olishga sarflansa

D) bu xarajatlar davlat obligatsiyalari chiqarilishi hisobiga moliyalashtirilsa (70-test bilan bir xil)

**63. Quyida sanab o‘tilganlarning qaysisi potensial YAIM o‘sishining omili hisoblanadi?**

- A) ishchi kuchi sonining o‘sishi
- B) iqtisodiyotda kapital zaxiralarining ko‘payishi
- S) iqtisodiyotda mehnat unumdorligining o‘sishi
- D) keltirilgan barcha javoblar to‘g‘ri

**64. To‘liq bandlikka erishgan iqtisodiyotda iqtisodiy o‘sishning yuqori sur‘atlari ta’milanishi uchun:**

- A) jamg‘arish va investitsiya me’yorlari kichik bo‘lishi lozim
- B) jamg‘arish me’yori katta va investitsiya me’yori kichik bo‘lishi lozim
- S) jamg‘arish va investitsiya me’yorlari katta bo‘lishi lozim
- D) jamg‘arish me’yori kichik, investitsiya me’yori esa katta bo‘lishi lozim

**65. Tarixan ishchi kuchining qishloq xo‘jaligidan sanoatga ko‘chib o‘tishi:**

- A) inflatsiya holatlarini yuzaga keltiradi
- B) o‘rtacha mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladi
- S) aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YAIM hajmining pasayishiga olib keladi
- D) o‘rtacha mehnat unumdorligining o‘sishiga olib keladi

**66. Eksport bojlarining kiritilishi quyidagilarning qaysi biriga olib kelmaydi?**

- C) ishlab chiqaruvchilar daromadlarining kamayishiga
- D) mamlakat iste’molchilar baholarining pasayishi hamda ushbu tovarni iste’mol qilish qisqarishi natijasida yo‘qotishlariga
- E) S) ushbu tovar ichki baholarining pasayishiga
- F) D) (boshqa shart-sharoitlar o‘zgarmagan holatda) davlat daromadlarining o‘sishiga

**67. Import tariflarining kiritilishi olib kelishi mumkin:**

- A) davlat byudjetiga tushumlarning va iste’mol hajmining ortishiga
- B) ichki resurslardan oqilona (ratsional) foydalanishga
- S) importiga ta’rif kiritilgan tovarni mamlakatda ishlab chiqarish hajmi o‘sishiga, bu tovar importining va ichki iste’molining qisqarishiga
- D) mamlakatda importiga ta’rif kiritilgan tovarni ishlab chiqarish qisqarishiga va uning import bilan almashtirilishiga

**68. Markaziy bank pul taklifini kamaytirishga qaror qilsa, u holda:**

- A) depozitlarni majburiy zaxiralash normasini pasaytiradi
- B) ochiq bozorda obligatsiyalarni sotadi
- S) qayta moliyalash stavkasini ko‘taradi
- D) pul-kredit siyosatini yumshatadi

**69. Quyidagilarning qaysi biri yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiradi?**

- A) uy bekasining xizmatlari
- B) qo'shnidan sotib olingan eski mashina bahosi
- S) brokerdan sotib olingan yangi aksiya qiymati D) kondagi yangi kitoblarining narxi

**70. Tariflar qisqarsa, unda...**

- A) eksport sohasida ishlaydiganlar uchun ish joyini yo'qotish xavfi kuchayadi
- B) import mahsulotlarining narxi oshadi
- S) yashash darajasi mamlakatda pasayadi
- D) import muhofazasiga doir sohalarda ishlaydigan ishchilarning bir qismi ishsiz qolishi mumkin

**71. Xalqaro mehnat taqsimoti dastlab qaysi omillar ta'sirida shakllangan ?**

- A) tabiiy omillar
- B) demografik omillar
- S) geosiyosiy omillar
- D) ijtimoiy siyosiy omillar

**72. Jahon xo'jaligi uchun mulkchilikning qaysi turi xos?**

- A) xususiy
- B) aralash
- S) davlat mulki
- D) aksionerlik mulki

**73. Hozirgi davrda xalqaro mehnat taqsimoti qaysi omillar ta'sirida shakllanadi ?**

- A) demografik omil
- B) fan-texnik taraqqiyoti
- S) ijtimoiy-siyosiy omil
- D) geosiyosiy omil

**74. Tashqi iqtisodiy hamkorlikning zamonaviy shakllari:**

- A) tashqi savdo
- B) qo'shma korxonalar, xalqaro birlashmalar
- S) xizmatlar eksporti va importi
- D) tashqi savdo, qo'shma korxonalar, xalqaro birlashmalar, xizmatlar eksporti va importi

**75. Dunyodagi energiya resurslarining asosiy qismini qaysi mamlakatlar iste'mol qiladi:**

- A) rivojlangan mamlakatlar
- B) rivojlanayotgan mamlakatlar
- S) past daromadli mamlakatlar

D) barcha mamlakatlar

**76. Qaysi javobda iqtisodiyot binosining tarkibiy qavati to‘g‘ri keltirilgan?**

A) mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, uy xo‘jaligi, global iqtisodiyot

B) uy xo‘jaligi, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, global iqtisodiyot

S) mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, global iqtisodiyot, uy xo‘jaligi,

D) mikroiqtisodiyot, global iqtisodiyot, makroiqtisodiyot, uy xo‘jaligi

**77. AQSHning tashqi siyosati uchta nahang ustida turishi kerak, degan ibora qaysi davlat arbobiga tegishli?**

A) J.Bush;

B) U.Kristofer;

S) M.Olbrayt;

D) R.Reygan

**78. Ishsizlik darajasining necha foizi iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi?**

A) 2-3%

B) 10-11%

S) 6-7%

D) 5-6%

**79. Qaysi mamlakatlar NAFTA a’zosi bo‘lib hisoblanadi?**

A) Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniya

B) Kanada, Meksika, Avstraliya

S) AQSH, Kanada, Meksika

D) Kanada, Germaniya, Angliya

**80. O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot va tiklanish Jamg‘armasi Prezidentning qaysi Farmoni asosida tashkil etildi?**

A) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15maydagi O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot va tiklanish

Jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida||gi Farmoni asosida

B) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 11maydagi O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot va tiklanish

Jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida||gi Farmoni asosida

S) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 18maydagi - O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot va tiklanish

Jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida||gi Farmoni asosida

D) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 20apreldagi O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot va tiklanish Jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida||gi Farmoni asosida

**81. Qaysi yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot va tiklanish Jamg‘armasining aktivlari shakllantiriladi?**

- A) 2006-2009-yillar davomida
- B) 2007-yil davomida
- S) 2008-yil davomida
- D) 2006-2010-yillar davomida

**82. Jahon Savdo tashkiloti qaysi yili tashkil etilgan? A) 1990-y.**

- B) 1995-y.
- S) 2000-y.
- D) 1993-y.

**83. Mamlakatdan tovarlar olib chiqish(eksport) va olib kirish (import)dan iborat bo‘lgan aloqalar nima deb ataladi?**

- A) erkin savdo zonasini
- B) valyuta bozori
- S) tashqi savdo
- D) integratsiya

**84. Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga qachon asos solingan?**

- A) 1948-yil 16-aprel
- B) 1946-yil 21-aprel
- S) 1945-yil 5-may
- D) 1951-yil 27-iyun

**85. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun qayta ishlash sanoatining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi necha foizdan kam bo‘lmasligi kerak?**

- A) 50%dan
- B) 70%dan
- S) 60%dan
- D) 30%dan

**86. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun mashinasozlikning mashina ishlab chiqarishdagi ulushi necha foizdan kam bo‘lmasligi kerak?**

- A) 20 %dan
- B) 25 %dan
- S) 40 %dan
- D) 15 %dan

**87. Inflatsiya darajasi necha foizdan oshmaganda mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdid bo‘lmaydi?**

- A) 10 %
- B) 20%

S) 30%

D) 15%

**88. Yashash minimumi bo'yicha mamlakat mintaqalarining differensiatsiyasi necha martadan oshganda xavfsizlik chegarasi buziladi?**

A) 2 martadan

B) 3 martadan

S) 1,5 martadan

D) 5martadan

**89. Mamlakat rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari ?**

A) aholi jon boshiga o'rtacha daromad

B) aholi jon boshiga YAIM hajmi

S) mamlakat YAMD hajmi

D) sof mahsulot

**91. O'zbekiston iqtisodiy siyosati nechta tamoyilga asoslanadi?**

A) uchta

B) beshta

S) ikkita

D) to'rtta

**92. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida sanoatning qaysi tarmoqlari ustunlik qiladi?**

A) energetika

B) gaz sanoati

S) neft

D) tog'-kon sanoati

**93. Qaysi ko'rsatkich umr ko'rish uzunligi bo'yicha xavfsizlik chegarasini bildiradi?**

A) 60 yil

B) 50 yil

S) 70 yil

D) 75 yil

**94. Integratsiya subyektlari:**

A) davlat

B) jismoniy shaxslar

S) yuridik shaxslar

D) barcha javoblar to'g'ri

**95. Xavfsizlik chegarasi saqlanishi uchun ichki iste'molda import ulushi necha foizni tashkil qilishi kerak?**

A) 20% dan oshmasligi kerak

- B) 40%
- S) 30% dan oshmasligi kerak
- D) 10%

**96. Yashirin iqtisodiyot–bu?**

- A) soliqlarning ko‘payishi yoki taqchillikning ortishi
- B) daromadlarning yashirin ko‘rinishi yoki soliqlarni to‘lamaslik
- S) jamg‘arilgan mablag‘lar yoki investitsiya
- D) korxonalar ixtiyoridagi daromad yoki mulklar

**97 Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik chegarasi saqlanishi uchun byudjet tanqisligi necha foizdan oshmasligi kerak?**

- A) 7% dan
- B) 3% dan
- S) 4% dan
- D) 5% dan

**98. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmida mahsulotlarning yangi turlarining ulushi necha foizdan kam bo‘lmaganda xavfsizlik chegarasi buzilmaydi?**

- A) 3 % dan
- B) 10 % dan
- S) 6 % dan
- D) 5 % dan

**99. Milliy valyutaning pariteti va kursi o‘rtasida yuzaga kelgan farqni bartaraf etishda qo‘llaniladigan vositani ko‘rsating.**

- A) devalvatsiya
- B) denominatsiya
- S) stagflatsiya
- D) nullifikatsiya

**100. Valyuta intervensiysi nima maqsadda o‘tkaziladi?**

- A) milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash maqsadida
- B) milliy valyuta kursining keskin tebranishiga barham berish maqsadida
- S) milliy valyutaning pariteti va kursi o‘rtasida yuzaga kelgan farqni bartaraf etishda
- D) xorijiy valyutalar taklifini barqarorlashtirish maqsadida

**101. O‘zbekiston Respublikasining —Valyutani tartibga solish to‘g‘risida||gi (yangi tahrir) qonuni qachon qabul qilingan?**

- A) 1993-yil 7-may
- B) 2003-yil 11-dekabr
- S) 2003-yil 8-oktabr

D) 2007-yil 6-may

**102. Markaziy bankning hisob stavkasi:**

A) Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga trattalarini qayta hisobga olish yo‘li bilan berilgan kreditning foiz stavkasi

B) Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga qimmatli qog‘ozlarni garovga olish yo‘li bilan berilgan kreditlarning foiz stavkasi

S) Markaziy bankning overnayt kreditlarining foiz stavkasi

D) Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga xorijiy valyutani garovga olish yo‘li bilan berilgan kreditlarning foiz stavkasi

**103. O‘zbekistonda milliy valyutani xorijiy valyutalarga erkin konvertatsiya qilishni to‘liq ta’minlash qachondan boshlab joriy qilindi?**

A) 2003-yil 8-oktabr

B) 2003-yil 11-dekabr

S) 2017-yil 1-yanvar

D) 2017-yil 5-sentabr

**104. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Farmoni qachon qabul qilingan?**

A) 2016-yil 26-oktabrdagi (PF-4853-sonli)

B) 2014-yil 26-oktabrdagi (PF-4550-sonli)

S) 2001-yil 5-noyabrdagi (PF-43-sonli)

D) 2015-yil 12-martdagi (PF-1253-sonli)

**105. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (ETTB) qachon va nima maqsadda tashkil etilgan?**

A) 1982-yilda Londonda tashkil qilingan bo‘lib – Markaziy va Sharqiy Yevropaning sobiq sotsialistik tuzumda bo‘lgan mamlakatlarini bozor iqtisodiyotiga o‘tishiga yordam berishdan iborat

B) 1990-yilda Londonda tashkil qilingan bo‘lib – Markaziy va Sharqiy Yevropaning sobiq sotsialistik tuzumda bo‘lgan mamlakatlarini bozor iqtisodiyotiga o‘tishiga yordam berishdan iborat

S) 1992-yilda Parijda tashkil qilingan bo‘lib – Markaziy Yevropaning sobiq sotsialistik tuzumda bo‘lgan mamlakatlarida ishlab chiqarishni rivojlantirishga kreditlar ajratishdan iborat

D) 1995-yilda Italiyada tashkil qilingan bo‘lib – Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlantirishga yordam berishdan iborat

**106. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot bankining funksiyalari nimalardan iborat?**

A) Yevropa mamlakalari valyuta tizimining barqarorligini ta’minlash

B) Yevropa mamlakalari iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash

S) rivojlanayotgan mamlakatlar valyuta tizimi barqarorligini ta'minlash

D) o'tish davri mamlakatlari iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlashga ko'maklashish

**107. 2017-yil —Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilining asosiy maqsadi nimadan iborat?**

A) inson, uning hayoti, ozodligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklarini muqaddas sanalishi

B) erkin demokratik davlat barpo etilishi

S) fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish masalalari

D) fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish

**108. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi nechanchi yillarni o'z ichiga qamrab oladi?**

A) 2017-2021-yillar

B) 2017-2019-yillar

S) 2017-2020-yillar

D) 2018-2021-yillar

**109. Strategiya — bu**

A) yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlar dasturidir

B) iqtisodiy rivojlanish dasturi

S) informatsion texnologiyalarga asoslangan dastur

D) oldindan rejalashtirilgan istiqbolli chora-tadbirlar dasturi

**110. Har bir inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga ega bo'lishi, jumladan, turar-joyiga ega bo'lish huquqiga egadir. Ushbu modda qaysi qonun hujjatida aks etgan?**

A) Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi

B) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

S) Mehnat kodeksi

D) BMT rezolyutsiyalari

**111. —Islohot-islohot uchun emas, inson manfaatlari uchun tamoyili asosida qanday davlat siyosati amalga oshiriladi?**

A) fuqarolarni ijtimoiy muhofaza qilish

B) jamiyatning himoyaga muhtoj qatlamlarini, yetim bolalar va ota-onal qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash

S) imkoniyati cheklangan shaxslarni qo'llab-quvvatlash

D) barcha javoblar to‘g‘ri

**112. World Happiness Index (Dunyoning eng baxtli mamlakatlari) yangi reytingida O‘zbekiston nechanchi pog‘onani egallagan?**

- A) 158 ta mamlakat orasida 44-pog‘onani
- B) 158 ta mamlakat orasida 43-pog‘onani
- S) 158 ta mamlakat orasida 46-pog‘onani
- D) 158 ta mamlakat orasida 47-pog‘onani

**113. Harakatlar strategiyasining 3.4-bandi qanday nomlanadi?**

A) iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish

B) mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishning huquqiy asoslarini muntazam takomillashtirish

S) ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish

D) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq tartibotlarni yanada takomillashtirish

**114. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili (biznes ombudsman)ning asosiy vazifalari nimalardan iborat?**

A) tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish

B) tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjalari normalari va talablarining amalda ro‘yobga chiqarilayotganligini o‘rganish

S) davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish

D) barcha javoblar to‘g‘ri

**115. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bugungi kunda necha foizni tashkil etadi?**

- A) 66 foizni
- B) 56 foizni
- S) 52 foizni
- D) 47 foizni

**116. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yurtimizda tadbirkorlik subyektlariga yanada kengroq imkoniyatlar yaratish maqsadida 2016-yil 5-oktabrda qanday Farmon qabul qilindi?**

- A) Ishbilarmomonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida
- B) O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida
- C) Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minalashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida
- D) Ishbilarmomonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida

**117. Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ish bilan band aholini necha foizi mehnat qilmoqda?**

- A) 67foizi
- B) 70 foizi
- C) 74 foizi
- D) 77 foizi

**118. O‘zbekistonda milliy valyutani xorijiy valyutalarga erkin konvertatsiya qilishni to‘liq ta’minalash qachondan boshlab joriy qilindi?**

- A) 2003-yil 8-oktabr
- B) 2003-yil 11-dekabr
- C) 2017-yil 1-yanvar
- D) 2017-yil 5-sentabr

**119. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida gi Farmoniga asosan mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo‘yicha nechta investitsiya loyihalar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan?**

- A) umumiy qiymati qariyb 40 mlrd. dollarga teng bo‘lgan  
649 ta
- B) umumiy qiymati qariyb 50 mlrd. dollarga teng bo‘lgan  
150 ta
- C) umumiy qiymati qariyb 60 mlrd. dollarga teng bo‘lgan  
180 ta
- D) umumiy qiymati qariyb 70 mlrd. dollarga teng bo‘lgan  
359 ta

**120. Doing Business reyting agentligining indikatorlariga asosan 2016-yilda O‘zbekiston —yangi biznesni qo‘llabquvvatlashl bo‘yicha 189 ta davlat ichida nechanchi o‘rinni band etgan?**

- A) 42-o‘rinni
- B) 55-o‘rinni
- S) 82-o‘rinni
- D) 5-o‘rinni

**121. Mintaqaviy mojarो - ...**

- A) ikki mamlakat o‘rtasidagi yechilmagan muammolar
- B) bu ikki va undan ortiq chegaradosh davlatlar o‘rtasidagi siyosiy qarama-qarshilik
- S) alohida olingan davlat ichidagi mojarо
- D) bir necha mamlakatlar o‘rtasidagi va darajasidagi tarixiy, siyosiy, etnik muammolar

**122. Geosiyosat nima?**

- A) jamiyatdagi barcha kuch va harakatlar
- B) mamlakatning istiqbolli intilishlari
- S) davlatning imkoniyatlarini hisobga olib yuritilayotgan faoliyat
- D) mamlakat yoki mintaqaning geografik joylashuvi

**123. Xalq hokimiyatidagi siyosiy tuzum shakli:**

- A) demokratiya
- B) anarxiya
- S) monarxiya
- D) oligarxiya

**124. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy g‘oyasi...**

- A) insonni va uning hayotini erkinlik bilan ta’minlash bozor munosabatlariiga keng yo‘l ochib, savdo munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashdir
- B) insonni, uning hayotini, erkinligi, sha’n-shavkatni va qadr-qimmatini hammadan yuqori qo‘yadigan umuminsoniy tamoyillarga tarafdarlikdir
- S) inson huquqlarini himoya qiluvchi huquq organlarining jamiyatdagi ahamiyatini yanada oshirish va umuminsoniy tamoyillarga tarafdarlikdir
- D) o‘tish tajribalaridan foydalanib, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni isloh qilish va unga tub o‘zgarishlar kiritishdir

**125. Millatlararo totuvlik – bu ...**

- A) iqtisodiy hodisa

- B) siyosiy voqelik
- S) ma'naviy- axloqiy hodisa
- D) falsafiy qoida

**126. Mamlakat uchun asosiy tahdid, bu ...**

- A) xalqaro terrorizm tahdidi
- B) diniy ekstremizm tahdidi
- S) korrupsiya tahdidi
- D) ichki tahdid

**127. O'zbekiston tashqi siyosatida qanday amaliy prinsiplariga asoslanadi?**

A) boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, kuch ishlatmaslik yoki tahdid qilmaslik

B) teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, tenglar orasida teng bo'lish, mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar ochiq-oydinlik, barcha davlatlar bilan keng tashqi aloqani o'rnatish, ichki milliy qonunlardan xalqaro huquq normalarining ustuvorligini tan olish, o'zaro manfaatdorlik, umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi

S) chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, davlatlarning suvereniteti, tengligi

D) faqat A va S javoblar to'g'ri

**128. 2012-yil 10-sentabrdagi O'RQ-330-sonli —O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysiida belgilab berilgan mintaqaviy va xalqaro siyosati, bu ...**

A) Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikka erishishga ko'maklashish, Markaziy Osiyoda yadro quroldidan xoli hudud yaratish

B) MDHga a'zo mamlakatlar, AQSH, Rossiya va Yevropa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish

S) transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish

D) A va S javoblar to'g'ri

**129. Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikka eng katta xavf-xatar - bu ...**

A) Afg'onistonda o'ttiz yildan ziyod davom etayotgan urushdir

B) ekologik muammolar

S) buyuk davlatchilik shovinizm va agressiv millatchilik

D) etnik va millatlararo ziddiyatlar va terrorizm

**130. Transchegaraviy suv obyektlaridan foydalanish bo'yicha xalqaro Konvensiyalarni ko'rsating.**

A) transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi Konvensiya, Xelsinki, 1992-yil 17-mart, Xalqaro suv oqimlaridan kema qatnovisiz foydalanish huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya, Nyu-

York, 1997-yil 21-may

B) atrof-muhitning muhofazasi bo‘yicha xalqaro konferensiya. Rio-de-Jeneyro 1992-yil. Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi Konvensiya, Xelsinki, 1992-yil 17martda

S) ekologik axborotlarni yetkazish va undan jamoatchilikni qaror qabul qilish jarayonida ishtiroki to‘g‘risida Konvensiya

D) transchegaradosh havo atmosferasini ifloslanish to‘g‘risidagi Konvensiya. Xalqaro suv oqimlaridan kema qatnovisiz foydalanish huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya , Nyu-

York, 1997-yil 21-mart

**131. Suv resurslaridan samarali foydalanishni qanday tushunasiz?**

A) tabiat muhofazasi to‘g‘risidagi barcha qonun va qoidalarga to‘la rioya qilgan holda ulardan jamiyatga faqat hozirgi kunda emas, balki tasavvur qilish mumkin bo‘lgan uzoq kelajakda ham eng yuqori samara olishni ta‘minlovchi foydalanishni tushunaman

B) suv resurslaridan navbatma-navbat tartibda foydalanishni tushunaman

S) suv resurslaridan limit asosida foydalanishni tushunaman

D) suv resurslaridan dastlab eng katta iqtisodiy samara beruvchi ekinlarni keyin qolgan ekinlarni sug‘orish uchun foydalanish tartibini tushunaman

**132. O‘zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-chi sessiyasida qilgan ma’ruzasida:**

A) afg‘on fojiasiga insonparvarlik nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘lishga chaqiradi

B) iqtisodiy, madaniy aloqada bo‘lishga chaqiradi

S) Tolibonlarni rasmiy hukumat bilan o‘zaro kelishuvga chaqiradi

D) jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkam o‘rnatishga chaqiradi

**133. Afg‘onistondagi qurolli mojarolar, qonli to‘qnashuvlar qariyb necha yildan buyon davom etmoqda?**

A) 40 yil

B) 50 yil

S) 20 yil

D) 100 yil

**134. Dunyo aholisining qancha qismini yoshlar tashkil etadi?**

- A) 1,5 milliarddan ortiq
- B) 4 milliarddan ortiq
- S) 2 milliarddan ortiq
- D) 3 milliarddan ortiq

**135. Bola deganda kim tushuniladi?**

- A) məktəbda o'qiyotgan şaxs
- B) ota-ona uchun har qanday yoshdagı farzand boladır
- S) 18 yoshga yetmagan şaxslar
- D) 30 yoshga yetmagan şaxslar

**136. Yoshlar deganda kimlar tushuniladi?**

- A) 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan şaxslar
- B) bolalik davridan boshlab 30 yoshgacha bo'lganlar
- C) oila qurmagan, biroq 30 yoshdan oshmaganlar
- S) barcha turdagı ta'lım muassasalarida tahsil olayotganlar

**137. Nima uchun O'zbekiston Prezidenti Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro shartnomani qabul qilish lozimligini aynan BMT minbaridan turib taklif etdi?**

- A) chunki kimning qayerda taklif kiritishi uning o'z xohishirodasiga bog'liqdir
- B) chunki xalqaro miqyosda kiritiladigan takliflar faqat BMT minbaridan turib aytildi
- S) chunki boshqa tashkilotlarda bunday taklifni kiritishning imkonи mavjud emas
- D) chunki BMT sayyoramizning deyarli barcha davlatlarini qamrab olgan yirik xalqaro tashkilot sanaladi

**138. O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida o'z aksini topgan.**

- A) 7-moddasida
- B) 8-moddasida
- S) 17-moddasida
- D) 28-moddasida

**139. O'zbekiston Republikasi Prezidentining 2018-yil 28dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida investitsiyalarga qanday ta'rif berildi?**

- A) investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri
- B) investitsiya – bu kelajak poydevori
- S) investitsiya – bu taraqqiyot asosi
- D) investitsiya – bu faol pul mablag'laridir

**140. —Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat‘i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo‘lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir!- degan Prezident Sh. Mirziyoyevning qaysi ma’ruzasida tilga olib o‘tilgan?**

A) 2017-yil 22-dekabrdan Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida

B) 2018-yil 28-dekabrdan Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida

S) qishloq xo‘jaligi xodimlari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda

D) BMT bosh assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan ma’ruzasida

**141. O‘rta muddatli byudjetlashtirish nima?**

A) odatda, uch yil muddatga rejalashtiriladigan byudjet jarayoni

B) byudjetning amal qilish rejasini bir necha yilga (asosan 35 yil) mo‘ljallangan davlat xarajatlarini amalga oshirish uchun mavjud resurslarni hisoblash, o‘zidan oldingi moliya yilidagi byudjetning vorisi bo‘lgan holda kelgusi moliya yillariga zamin yaratuvchi byudjet amaliyoti

S) davlatning muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan moliyaviy hujjati

D) byudjetning amal qilish rejasini bir necha yilga (asosan, 35 yil) mo‘ljallangan davlat xarajatlarini amalga oshirish uchun mavjud resurslarni hisoblash, amaldagi va yangi strategik loyihalarning qiymatini hisob-kitob qilish, shuningdek, xarajatlarga oid majburiyatlarni ko‘zlangan natijalar bilan qonuniy bog‘lashga yo‘naltirilgan o‘zidan oldingi moliya yilidagi byudjetning vorisi bo‘lgan holda kelgusi moliya yillariga zamin yaratuvchi byudjet amaliyoti

**142. 2018-yilda mamlakatimizda YAIMning o‘sish sur‘atlari necha foizni tashkil etdi?**

A) 7,3%

B) 5,2%

S) 6,3%

D) 7,0 %

**143. 2019-yilda mamlakatimizda YAIMning o‘sish sur‘atlari necha foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda?**

A) 5,4%

B) 5,2%

S) 6,3%

D) 5,7 %

**144. 2019-yilda mamlakatimizga qancha miqdorda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etish ko‘zda tutilgan?**

- A) 1,6 milliard dollar
- B) 3,1 milliard dollar
- S) 2,7 milliard dollar
- D) 2,2 milliard dollar

**145. 2018-yil yakunlariga ko‘ra mamlakatimizda inflatsiya sur‘atlari necha foizni tashkil qildi?**

- A) 22 %
- B) 16,7 %
- S) 15,5 %
- D) 16,8 %

**146. Raqamli iqtisodiyot nima?**

- A) ishlab chiqarish, davlat va boshqaruv jarayonlariga raqamli axborot texnologiyalarini doimiy joriy etib borish asosida shakllangan iqtisodiy faoliyat
- B) raqamli texnologiyalarga asoslangan va raqamli makonda amalga oshiriluvchi iqtisodiy faoliyat
- S) A va V javoblar to‘g‘ri
- D) internet texnologiyalaridan keng foydalanimuvchi internet bankining xizmatlari

**147. Raqamli iqtisodiyot mahsulotlari keltirilgan qatorni toping.**

- A) elektron pochta, bulutli xizmatlar, elektron imzo
- B) internet banking, internet orqali chakana savdo, internetreklama, kriptovalyutalar
- S) kriptovalyutalar
- D) internet-o‘yinlar, elektron to‘lovlar

**148. 2018-yilning yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Innovatsiyalarning global indeksi reytingida dunyoning 126 ta mamlakati orasida nechanchi o‘rinni egalladi?**

- A) 76-o‘rinni
- B) 152-o‘rinni
- S) 98-o‘rinni
- D) O‘zbekiston bunday reytingga kiritilmagan

**149. 2018-yilning yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Iqtisodiy erkinlik indeksi reytingida dunyoning 180 ta mamlakati orasida \_\_\_ o‘rinni egalladi?**

- A) 76
- B) 152
- S) 98
- D) 105

**150. —Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili! Davlat dasturi doirasida 21 trillion so‘m va 1 milliard dollarga teng bo‘lgan qancha loyiha amalga oshirildi?**

- A) 8130 ta loyiha
- B) 131 mingta loyiha
- C) 76 mingta loyiha
- D) 105 mingta loyiha

**151. 2019-yilda davlat byudjeti defitsiti \_\_\_\_ trillion so‘m atrofida bo‘lishi va yalpi ichki mahsulotga nisbatan \_\_\_\_ foiz bo‘lishi rejajashtirilmoqda.**

- A) 4,5 va 1,1
- B) 3,7 va 1,1
- C) 5,4 va 2,1
- D) 4,3 va 1,1

## ILOVALAR

1-ilova Korrupsiyaga tortilganlik indeksi 2020

O‘rin	Mamlakat	Ballar
1	Daniya	87
2	Yangi Zelandiya	87
3	Finlandiya	86
4	Singapur	85
5	Shvetsiya	85
6	Shveysariya	85
7	Norvegiya	84
8	Gollandiya	82
9	Germaniya	80
10	Lyuksemburg	80
11	Islandiya	78
12	Avstraliya	77
13	Avstriya	77
14	Kanada	77
15	Buyuk Britaniya	77

O‘rin	Mamlakat	Ballar
41	Kabo-Verde	58
42	Kipr	58
43	Polsha	58
44	Kosta-Rika	56
45	Chexiya Kolumbiya	56
46	Gruziya	56
47	Latviya	56
48	Dominikan Respublikasi	55
49	Sent luyis	55
50	Mal‘ta	54
51	Grenada	53
52	Italiya	53
53	Malayziya	53
54	Ruanda	53
55	Saudiya Arabistoni	53

16	Gonkong	76
17	Belgiya	75
18	Estoniya	74
19	Irlandiya	74
20	Yaponiya	73
21	BAA	71
22	Urugvay	71
23	Fransiya	69
24	AQSH	69
25	Butan	68
26	Chili	67
27	Seyshel orollari	66
28	Tayvan	65
29	Bogam orollari	64
30	Barbados	62
31	Portugaliya	62
32	Qatar	62
33	Ispaniya	62
34	Botsvana	61
35	Bruney darussalam	60
36	Isroil	60
37	Litva	60
38	Sloveniya	60
39	Janubiy Koreya	59
40	Sent vincent va Grenadin	59
81	Xitoy	41
82	Gana	41
83	Hindiston	41
84	Marokash	41
85	Burkino-Faso	40
86	Gayana	40
87	Indoneziya	40
88	Quvayt	40
89	Lesoto	40
90	Trinidad tabakko	40

56	Mavrikiy	52
57	Namibiya	52
58	Omon	52
59	Slovakiya	50
60	Kuba	48
61	Gretsiya	48
62	Iordaniya	48
63	Xorvatiya	47
64	San-Tome va Prinsipi	46
65	Vanuatu	46
66	Argentina	45
67	Belorussiya	45
68	Chernogoriya	45
69	Sinegal	45
70	Vengriya	44
71	Ruminiya	44
72	JAR	44
73	Surinam	44
74	Bolgariya	43
75	Yamayka	43
76	Tunis	43
77	Armaniston	42
78	Baxrayn	42
79	Salomon orollari	42
80	Benin	41
127	Azarbajan	30
128	Jibutiya	30
129	Qirg‘iziston	30
130	Ukraina	30
131	Gvineya	29
132	Laos	29
133	Moldiviya	29
134	Mali	29
135	Meksika	29
136	Myanma	29

91	Serbiya	39
92	Turkiya	39
93	Ekvador	38
94	Shri-lanka	38
95	Sharqiy Timor	38
96	Kolumbiya	37
97	Efiopiya	37
98	Gambiya	37
99	Tanzaniya	37
100	Vietnam	37
101	Bosniya-Gersogoviniya	36
102	Kosovo	36
103	Panama	36
104	Peru	36
105	Tayland	36
106	Albaniya	35
107	Aljir	35
109	Braziliya	35
110	Kot-divuar	35
111	Misr	35
112	Makedoniya	35
113	Mug‘iliston	35
114	Salvador	34
115	Qozog‘iston	34
116	Nepal	34
117	Filippin	34
118	Esvatin	34
119	Zambiya	34
120	Serra Leone	33
121	Moldaviya	32
122	Nigeriya	32
123	Pokiston	32
124	Boliviya	31
125	Gabon	31

137	Togo	29
138	Dominikan Respublikasi	28
139	Keniya	28
140	Livan	28
141	Liberiya	28
142	Mavritaniya	28
143	Papua - Yangi Gvineya	28
144	Paragvay	28
145	Rossiya	28
146	Uganda	28
147	Angola	26
148	Bangladesh	26
149	Gvatemala	26
150	Gonduras	26
150	Eron	26
150	Mozambik	26
150	Nigeriya	26
153	Kamerun	25
154	Markaziy Afrika respublikasi	25
155	Komor orollari	25
156	Tojikiston	25
157	O‘zbekiston	25
158	Madagaskar	24
159	Zimbabwe	24
160	Eritreya	23
161	Nikaragua	22
162	Kambodja	20
163	Chad	20
164	Iraq	20
165	Burundi	19
166	Kongo	19
167	Turkmaniston	19

126	Malavi	31
169	Gvineya Bissau	18
170	Gaiti	18
171	Liviya	18
172	Shimoliy Koreya	17
173	Afg'oniston	16
174	Ekvador Gvineya	16

168	Kongo demokratik Respublikasi	18
175	Sudan	16
176	Venesuella	16
177	Yaman	15
178	Suriya	13
179	Janubiya Sudan	12
180	Samali	9

□ Mazkur reytingga biror bir mamlakat to‘g‘risidagi ma’lumotlarning kiritilmasdan qolishi ushbu mamlakatda korrupsiyaning yo‘qligini ko‘rsatmaydi. Tahliliy ma’lumotlarning yetishmasligi oqibatida ayrim mamlakatlar mazkur ro‘yxatga kiritilmasdan qolgan. 2019-yilda 180 ta mamlakat va hududlar ushbu reytingga kiritilgan bo‘lsa, 2015-yilda ularning soni 168 ta bo‘lgan.

## 2-ilo va

### Dunyoning ayrim mamlakatlarida xufyona iqtisodiyot ko‘lamlarini qisqartirish maqsadida ko‘riladigan chora tadbirlar

	Chora -tadbirlar	Mamlakatlar
<b>Soliqqa tortish</b>		
1. Soliq yukini qisqartirish	Yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun soliq imtiyozlari berish.	Niderlandiya, Buyuk Britaniya
	Yangi xodimlar uchun soliq imtiyozlari berish.	Chernogoriya
	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholi qatlamlarini soliqlardan ozod etish	Vengriya
	Soliqqa tortilmaydigan daromad chegarasini oshirish.	Bolgariya, Belgiya
	YAIMda yalpi soliq yukini qisqartirish (%).	YIning ko‘plab mamlakatlarida
	Individual daromad solig‘ini pasaytirish.	Estoniya, Slovakiya
	RYInvestitsiya qilingan daromadlarni soliqdan ozod qilish.	Estoniya

	Mehnat sig‘imli xizmatlar uchun QQSni pasaytirish.	Gollandiya, Boliviya
	Korporativ daromad solig‘ini pasaytirish.	Vengriya, Polsha, Slovakiya
	Ro‘yxatga olinmagan xodimlar ulushi yuqori bo‘lgan tarmoqlar uchun soliq imtiyozlari berish.	Shvetsiya, Belgiya, Fransiya
	Nerezidentlar uchun yagona soliq stvakasini belgilash.	Chernogoriya
2. Qonuniylikni rag‘batlantirish. Soliq tizimini	Soliq tizimining shaffofligini oshirish.	Avstriya, Gretsiya, Niderlandiya,
soddalashtirish		Fransiya, Portugaliya, Daniya
	Kichik va o‘rta biznes uchun soliq tizimini soddalashtirish. Braziliya kichik va o‘rta biznes uchun soliq va to‘lovlearning integratsiyalashgan tizimi (SIMPLES)ni amaliyatga joriy etishi natijasida firmalarning ro‘yxatdan o‘tishi 10-30%gacha o‘sdi. Xuddi shuningdek, mehnat shartnomasisiz xodimlarni yollash darajasi ham qisqardi. Argentina ham o‘z navbatida kichik biznes uchun soddalashtirilgan soliq tizimini joriy etdi va bu esa soliq tushumlarining ko‘payishiga olib keldi. Biroq Boliviya va Chilida soddalashtirish borasida ko‘rilgan chora-tadbirlar aksariyat hollarda o‘z ijobiy natijasini bermaganligini ham aytib o‘tish lozim.	Keniya, Tanzaniya, Urugvay, Braziliya, Argentina
	Ro‘yxatga olish va to‘lovlarini amalga oshirishning onlayn tizimining joriy etilishi.	Estoniya
	Nerezidentlar uchun yagona soliq stvakasining belgilanishi.	Chernogoriya

	QQS/daromad solig‘i/ning yagona soliqqa almashtirilishi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida bunday chora -tadbirlar o‘z ijobiy natijasini bergenligini kuzatishimiz mumkin, bunday chora-tadbirlarning qo‘llanilishi natijasida ko‘plab firmalar o‘z faoliyatlarini legallashtirishgan.	Argentina, Boliviya, Braziliya, Chili, Kosta-Rika, Dominikan Respublikasi, Gvatemala, Gonduras,
		Meksika, Nikaragua, Paragvay, Peru
<b>Ijtimoiy ta’mnot</b>		
3. Yangi xodimlarni ro‘yxatga olishni rag‘batlantirish	Shaxsiy badallar va daromad solig‘iga mutanosib ravishda ijtimoiy to‘lovlarни to‘lash.	Estoniya va bir qator YI mamlakatlari
	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun badallarni qisqartirish.	Vengriya
	Yangi xodimlar uchun badallarni qisqartirish.	Polsha
	Pudratchi buyurtmachi kompaniyaning ijtimoiy ta’mnoti bo‘yicha ham javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.	Germaniya, Nederlandiya, Buyuk Britaniya
	Ijtimoiy ta’mnot badallarini pasaytirish.	Bolgariya
<b>Mehnat faoliyatini tartibga solish</b>		
4. Xodimlarni yollashdagi egiluvchanlik	Ro‘yxatga olingan ishsizlar to‘liqsiz ish kuni ishlashlari va daromad olishlari mumkin.	Chexiya
	To‘liqsiz ish kunini ko‘rsatgan holda mehnat shartnomalarining tuzilishi.	Slovakiya

	Vaqtinchalik shartnomalarning egiluvchanligini oshirish orqali vaqtinchalik shartnomalarni joriy etish. Bunday tadbirlarning joriy etilishi Ispaniyada ro‘yxatdan o‘tmagan ishsizlar sonining qisqarishiga olib keldi.	Ispaniya, Slovakiya, Argentina, Boliviya, Braziliya, Chili, Kolumbiya, Peru
5.Mehnatga haq to‘lashdagi egiluvchanlik	Yosh, hudud va shu kabi belgilar bo‘yicha tabaqlashgan minimal ish haqini joriy etish, narx indeksidan kelib chiqan holda minimal ish haqini eng yuqori darajagacha ko‘tarish.	Polsha
6. Xodimlarni ro‘yxatga olishni rag‘batlantirish	Ro‘yxatga olinmagan xodimlarni legallashtirish.  Ishsizlar uchun —vaqtinchalik ish o‘rinlari ni joriy etish.	AQSH, Ispaniya, Italiya  Germaniya
	Ishsiz/mehnatga layoqatsiz insonlarning ijtimoiy ko‘makka muhtojlik darajasini qisqartirish va ularga ish izlashda ko‘maklashish.	Bolgariya, Vengriya, Litva, Slovakiya, Buyuk Britaniya
<b>Mehnat qonunchiligiga rioya etish</b>		
	Kasaba uyushmalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi nohalol raqobatni namoyish etishni rag‘batlantirish.	YIning 15 dan ortiq davlatlari
	Ijtimoiy ko‘mak berishga ixtisolmlashagan muassasalarda	Bolgariya, Fransiya
	yangi xodimlarni ro‘yxatga olish bo‘yicha majburiyatlarni bajarishga majburlash.	
	Muassasalar o‘rtasida aloqalarni mustahkamlash.	YIning 15 dan ortiq davlatlari

	Ro‘yxatga olinmagan xodimlarning monitoringini yuritish bilan shug‘ullanuvchi agentliklarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.	YIning 15 dan ortiq davlatlari
	Ro‘yxatga olinmagan ishchi kuchi ortiqcha bo‘lgan tarmoqlarda (qishloq xo‘jaligi, uy ishlarini bajarish va boshq.) maqsadli dasturlarni amalga oshirish.	Niderlandiya, Avstriya, Ispaniya, Shvetsiya, Daniya
	Xodimlarni ro‘yxatga qo‘ymagan ish beruvchilar ustidan monitoring yuritish, bu esa ishchilarga ijtimoiy nafaqalar to‘lab berilishini talab qilish imkonini beradi.	Yaponiya
<b>Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish</b>		
7. Tadbirkorkorlarni ro‘yxatga olish borasida qulay muhit yaratish	Xususiy mulkni ro‘yxatga olish borasida qo‘srimcha rag‘batlar yaratish. Boliviya da qishloq xo‘jaligi xodimlarining yerga bo‘lgan mulk huquqining kengaytirilishiga qaratilgan chora-tadbirlar biznesni ro‘yxatga olish tizimining haddan tashqari murakkabligi va kichik biznes korxonalari va mikrofirmalarni qo‘llab-quvvatlash tizimining mavjud emasligi hisobiga o‘zining ijobiy natijalarini bermadi. Peruda 1996-va 2000yillar oraliq‘ida 512000 oila yerga bo‘lgan mulk huquqini qo‘lga kiritishgan.	Boliviya, Xorvatiya, Peru
	Mulk huquqiga tegishli qonunlar va ularning ijrosini takomillashtirish	Xorvatiya

	<p>Biznesni ro‘yxatga olish kunlari, jarayonlari va qiymatini qisqartirish. —Biznesni tezkor ro‘yxatdan o‘tkazish   tizimining joriy etilishi natijasida 2002-yilda</p> <p>Meksikada kichik va o‘rta biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish ikki kungacha, ro‘yxatga olish bosqichlari esa 8dan 2 tagacha qisqardi. Buning natijasida ro‘yxatga olingan kompaniyalar 4 foizdan 8 foizgacha o‘sdi.</p>	Meksika, Portugaliya, Polsha, Buyuk Britaniya
	<p>Ro‘yxatga olishning —yagona darchal   tizimini barpo etish. Bunday chora - tadbirlar natijasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan firmalar ulushi Kolumbiyada 5,2% ga o‘sdi.</p>	Avstraliya, Belgiya, Ukraina, Estoniya, Litva, Kolumbiya, Uganda
	<p>Biznesning yagona umumiy ID (pasport)ini yuritish.</p>	Finlandiya
	<p>O‘z biznesini rasmiylashtirish istagida bo‘lgan tadbirkorlar uchun vaqtinchalik amnistiyalar qo‘llash.</p>	Italiya
	<p>Biznesni ro‘yxatga olishning ramiy tasdiqlash maqsadida sudlar uchun vaqtinchalik cheklovlar joriy etish.</p>	Bosniya
8. Litsenziyalash tizimini soddallashtirish	<p>Litsenziyalash tizimini soddallashtirish, avtomatik litsenziyalashni joriy etish.</p>	Gruziya
	<p>Litsenziyalash va uning muddatlarini avtomatik uzaytirish jarayonlarini soddallashtirish. Bunday loyiha doirasida</p>	Uganda, Tanzaniya
	<p>Ugandada litsenziya berish muddati ikki kundan 30 daqiqagacha qisqardi, ma’muriy xarajatlar 10 %gacha pasayib, ish kuni samaradorligi 2%ga oshdi.</p>	
9. Xarajatlarni qisqartirish	<p>Biznesni tugatish jarayonlarini soddallashtirish.</p>	Makedoniya

10. Talablarni kuchaytirish	Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qonunlar qabul qilish; davlat va xususiy sektor uchun axloq kodeksinining ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi.	YIning 15 dan ortiq davlatlari
	Agentliklar va inspeksiyalar (aholini ijtimoiy himoyalash organlari, soliq byurolari va shu kabilar) o‘rtasida muttasil tarzda axborot almashinuvining yo‘lga qo‘yilishi. Qat‘iy ko‘rilgan choralar natijasida Ispaniyada soliq tushumlarining sezilarli darajada oshishi va norasmiy bandlikning qisqarishi kuzatildi.	YIning 15 dan ortiq davlatlari
	Xodimlar ijtimoiy ta’midot borasida o‘ziga xos identifikatsion raqamga ega bo‘lishlari, inspektorlarga istalgan paytda ma’lumotlarni tezkor tekshirib ko‘rish imkonini beradi.	YIning 15 dan ortiq davlatlari
	Tekshiruvlar chastotasining oshirilishi. Braziliyada tekshirishlar sonining 1 %ga oshirilishi norasmiy bandlikning 1,5%ga qisqarishiga olib keldi va ayni paytda xodimlarning ish haqidan byudjetga soliq tushumi ham ko‘paydi. Argentinada har 100 ming kishiga to‘g‘ri keluvchi	YIning 15 dan ortiq davlatlari
	mehnat inspektorlari sonining ko‘paytirilishi xususiy sektorda ishchi kuchi rasmiy bandligining 1,4%ga o‘sishiga sabab bo‘ldi.	
	Davlat inspeksiyasi organlari vakolatlarining kengaytirilishi.	Litva, Germaniya

Norasmiy bandlik borasida qonunchilikda ko‘zda tutilgan jazo choralarini kuchaytirish. Bunday chora-tadbirlar natijasida Ispaniyada YAIMda soliq tushumlarining ulushi ikki barobarga ortdi.	Avstriya, Belgiya, Daniya, Germaniya, Irlandiya, Sloveniya, Ispaniya
Nazorat qiluvchi organlar xodimlarining vakolatlarining kengaytirilishi.	Avstriya, Germaniya
Milliy darajada xodimlarni ro‘yxatga oluvchi firmalarni tashkil etish.	Polsha
Kommunikatsion strategiyani yaxshilash, jamiyatni xabardor qilish tizimi samaradorligini oshirish.	Daniya, Shvetsiya, Fransiya, Buyuk Britaniya,Litva, Estoniya, Ruminiya
Ro‘yxatdan o‘tmagan xodimlarni kuzatish maqsadida xususiy detektivlar yollash.	Germaniya
Qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxslarning nomini ommaga oshkor qilish.	Irlandiya
Ro‘yxatga olish tartib-taomillari kechikkan paytda korxonalarga tovon to‘lab berish.	Hindiston

3-ilova

### BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari va Harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarning o‘zaro uyg‘unligi

<b>BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari</b>	<b>2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalar</b>
--	---

Qashshoqliksiz dunyo sari	4.2. Aholini ijtimoiy himoyaya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish. 4.3. Arzon uy-joylar qurish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta’minlovchi yo‘ltransport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish
Ochliksiz dunyo sari	3.3. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish
Sog‘lom hayot va taraqqiyot	4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish
Sifatli ta’lim olish	4.4. Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish
Gender tengligi	4.6. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish 4.7. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish
Toza ichimlik suvi va yaxshi sanitariya holati	4.3. Arzon uy-joylar qurish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta’minlovchi yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish

Arzon, ishonchli va barqaror energiya manbalari bilan ta’minalash	3.2. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va difersifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish
Munosib ish o‘rni va iqtisodiy o‘sish	3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash 3.2. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va difersifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish

Innovatsiyalar va infratuzilma	3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash 3.5. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarning kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:
Tengsizlikka barham berish	4.1. Aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish
Shaharlar xavfsizligi va uy joy bilan ta'minlash	4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'ltransport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish
Iste'mol va ishlab chiqarishning o'zaro mutanosibligi	3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash 3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va difersifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish
Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish	5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash  sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:
Dengiz ekotizimlarini asrab - avaylash	5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:
Quruqlik ekotizimlarini muhofaza qilish	5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

Odil sudlov va samarali institutlar	1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish 1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish 1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish 2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish
Barqaror rivojlanish maqsadida hamkorlik	5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar

## **TERRORIZM DARAJASI BO'YICHA DUNYO MAMLAKATLARI REYTINGI**

University of Maryland, Institute for Economics and Peace: Global Terrorism Index  
2020. **4-ilova**

REYTING	MAMLAKAT	INDEKS
1	<u>Afg'oniston</u>	9.60
2	<u>Iraq</u>	9.24
3	<u>Nigeriya</u>	8.60
4	<u>Suriya</u>	8.01
5	<u>Pokistan</u>	7.89
6	<u>Somali</u>	7.80
7	<u>Hindiston</u>	7.52
8	<u>Yaman</u>	7.26
9	<u>Filippin</u>	7.14
10	<b>Kongo Demokratik Respublikasi</b>	7.04
11	<u>Misr</u>	6.79
12	<u>Liviya</u>	6.77
13	<u>Mali</u>	6.65
14	<b>Markaziy Afrika Respublikasi</b>	6.62
15	<u>Kamerun</u>	6.62
16	<u>Turkiya</u>	6.53

17	<b>Janubiy Sudan</b>	6.32
18	<b>Tailand</b>	6.03
19	<b>Kolumbiya</b>	5.91
20	<b>Sudan</b>	5.81
21	<b>Keniya</b>	5.76
22	<b>Amerika Qo'shma Shtatlari</b>	5.69
23	<b>Niger</b>	5.60
24	<b>Ukraina</b>	5.55
25	<b>Mozambik</b>	5.54
26	<b>Myanma</b>	5.51
27	<b>Burkina Faso</b>	5.42
28	<b>Buyuk Britaniya</b>	5.41
29	<b>Efiopiya</b>	5.35

30	<b>Saudiya Arabiston</b>	5.24
31	<b>Bangladesh</b>	5.21
32	<b>Falastin</b>	5.18
33	<b>Burundi</b>	5.10
34	<b>Nepal</b>	5.09
35	<b>Indoneziya</b>	5.07
36	<b>Fransiya Isroil</b>	5.01
37	<b>Rossiya</b>	4.90
38	<b>Chad</b>	4.76
39	<b>Eron</b>	4.72
40	<b>Jazoir</b>	4.53
41	<b>Janubiy Afrika</b>	4.51
42	<b>Xitoy</b>	4.47
43	<b>Livan Burkina Faso</b>	4.39
44	<b>Germaniya</b>	4.25
45	<b>Gretsiya</b>	4.17
46	<b>Chili</b>	4.12
47	<b>Venesuella</b>	4.10
48	<b>Meksika</b>	4.08
49	<b>Uganda</b>	3.96
50	<b>Tojikiston</b>	3.95

51	<u>Tunis</u>	3.94
52	<u>Angola</u>	3.78
53	<u>Belgiya</u>	3.64
54	<u>Kanada</u>	3.59
55	<u>Shri-Lanka</u>	3.57
56	<u>Shvetsiya</u>	3.45
57	Aljir	3.41
58	<u>Boliviya</u>	3.39
59	<u>Ispaniya</u>	3.35
60	<u>Tanzaniya</u>	3.27
61	<u>Bahrayn</u>	3.20
62	<u>Paragvay</u>	3.12
63	<u>Italiya</u>	3.11
64	<u>Iordaniya</u>	3.09
65	<u>Nikaragua</u>	2.95
66	<u>Ruanda</u>	2.95
67	<u>Peru</u>	2.84
68	<u>Zimbabwe</u>	2.83
69	<u>Irlandiya</u>	2.69
70	<u>Kongo</u>	2.69
71	<u>Avstraliya</u>	2.65
72	<u>Kot-d'Ivuar</u>	2.60
73	<u>Braziliya</u>	2.53
74	<u>Malayziya</u>	2.50
75	<u>Quvayt</u>	2.49
76	<u>Ekvador</u>	2.46
77	<u>Niderlandiya</u>	2.35
78	<u>Yaponiya</u>	2.29
79	<u>Kosovo</u>	2.26
80	<u>Gaiti</u>	2.18
81	<u>Finlyandiya</u>	2.03
82	<u>Madagaskar</u>	1.96
83	<u>Argentina</u>	1.68
84	<u>Avstriya</u>	1.66
85	<u>Qozog'iston</u>	1.57
86	<u>Gana</u>	1.56

87	<u>Qirg'iziston</u>	1.47
88	<u>Bosniya va Gersegovina</u>	1.39
89	<u>Papua — Yangi Gvineya</u>	1.36
90	<u>Gruziya</u>	1.34
91	<u>Gvatemala</u>	1.33
92	<u>Marokko</u>	1.22
93	<u>Senegal</u>	1.19
94	<u>Armaniston</u>	1.17
95	<u>Laos</u>	1.03
96	<u>Tayvan</u>	1.01
97	<u>V'etnam</u>	1.00
98	<u>Chernogoriya</u>	1.00
99	<u>Gonduras</u>	0.99
100	<u>Gvineya</u>	0.97
101	<u>Daniya</u>	0.96
102	<u>Chexiya</u>	0.87
103	<u>Ozarbajyon</u>	0.70
103	<u>Malavi</u>	0.66
105	<u>Gabon</u>	0.55
106	<u>Polsha</u>	0.48
107	<u>Yamayka</u>	0.47
108	<u>Serra-Leone</u>	0.46
109	<u>Litva</u>	0.46
109	<u>Kipr</u>	0.42
111	<u>Albaniya</u>	0.42
112	<u>Bolgariya</u>	0.37
113	<u>Djibuti</u>	0.32
114	<u>Zambiya</u>	0.31
115	<u>Makedoniya</u>	0.30
116	<u>Janubiy Koreya</u>	0.30
117	<u>Latviya</u>	0.23
118	<u>Shveysariya</u>	0.19
119	<u>Vengriya</u>	0.18
120	<u>Dominikan</u>	0.18
121	<u>Urugvay</u>	0.17

122	<u>Yangi Zelandiya</u>	0.14
123	<u>Serbiya</u>	0.12
124	<u>Moldova</u>	0.12
125	<u>Estoniya</u>	0.12
126	<u>Liberiya</u>	0.11
127	<u>Lesoto</u>	0.10
128	<u>Norvegiya</u>	0.08
129	<u>Slovakiya</u>	0.06
130	<b>Birlashgan Arab Amirliklari.</b>	0.05
131	<u>Panama</u>	0.04
132	<u>Gayana</u>	0.04
133	<u>Qatar</u>	0.03
134	<u>Islandiya</u>	0.03
135	<u>O'zbekiston</u>	0.02
136	<u>Trinidad va Tobago</u>	0.02
137	<u>Butan</u>	0.01
138	<u>Timor-Leshti</u>	0.0
139	<u>Togo</u>	0.0
140	<u>Turkmaniston</u>	0.0
141	<u>Svazilend</u>	0.0
142	<u>Sloveniya</u>	0.0
143	<u>Salvador</u>	0.0
144	<u>Singapur</u>	0.0
145	<u>Ruminiya</u>	0.0
146	<u>Portugaliya</u>	0.0
147	<u>Shimoliy Koreya</u>	0.0
148	<u>Omon</u>	0.0
149	<u>Namibiya</u>	0.0
150	<u>Mavrikiy</u>	0.0
151	<u>Mavritaniya</u>	0.0
152	<u>Mongoliya</u>	0.0
153	<u>Kambodja</u>	0.0
154	<u>Xorvatiya</u>	0.0
155	<u>Ekvatorial Gvineya</u>	0.0
156	<u>Gvineya-Bisau</u>	0.0

157	<u>Gambiya</u>	0.0
158	<u>Eritreya</u>	0.0
159	<u>Kuba</u>	0.0
160	<u>Kosta-Rika</u>	0.0
161	<u>Botsvana</u>	0.0
162	<u>Belarus</u>	0.0
163	<u>Benin</u>	0.0

5-ilova

## DUNYO MAMLAKATLARIDA INSON TARAQQIYOTI INDEKSI

United Nations Development Programme:

Human Development Index 2020.

## INSON TARAQQIYOTI INDEKSI ENG YUQORI BO‘LGAN MAMLAKATLAR

O‘RIN	MAMLAKAT	INSON TARAQQIYOTI INDEKSI
1	<b>Norvegiya</b>	0.954
2	<b>Shveysariya</b>	0.946
3	<b>Irlandiya</b>	0.942
4	<b>Germaniya</b>	0.939
5	<b>Gonkong</b>	0.939
6	<b>Avstraliya</b>	0.938
6	<b>Islandiya</b>	0.938
8	<b>Shvetsiya</b>	0.937
9	<b>Singapur</b>	0.935
9	<b>Niderlandiya</b>	0.933
11	<b>Daniya</b>	0.930
12	<b>Finlandiya</b>	0.925
13	<b>Kanada</b>	0.922
14	<b>Yangi Zelandiya</b>	0.921
14	<b>Buyuk Britaniya</b>	0.920
16	<b>Amerika Qo‘shma Shtatlari</b>	0.920
17	<b>Belgiya</b>	0.919

18	<b>Lixtenshteyn</b>	0.917
19	<b>Yaponiya</b>	0.915
20	<b>Avstriya</b>	0.914
21	<b>Lyuksemburg</b>	0.909
22	<b>Isroil</b>	0.906
23	<b>Janubiy Koreya</b>	0.906
24	<b>Sloveniya</b>	0.902
25	<b>Ispaniya</b>	0.893
26	<b>Chexiya</b>	0.891
27	<b>Fransiya</b>	0.891
28	<b>Malta</b>	0.885
29	<b>Italiya</b>	0.883
30	<b>Estoniya</b>	0.882
31	<b>Kipr</b>	0.873
32	<b>Gretsiya</b>	0.872
32	<b>Polsha</b>	0.872
34	<b>Litva</b>	0.869
35	<b>Birlashgan Arab Amirliklari</b>	0.866
36	<b>Andorra</b>	0.857
37	<b>Saudiya Arabiston</b>	0.857
37	<b>Slovakiya</b>	0.857
39	<b>Latviya</b>	0.854
40	<b>Portugaliya</b>	0.850
41	<b>Qatar</b>	0.848
42	<b>Chili</b>	0.847
43	<b>Bruney</b>	0.845
44	<b>Vengriya</b>	0.845
45	<b>Baxrayn</b>	0.838
46	<b>Xorvatiya</b>	0.837
47	<b>Ummon</b>	0.834
48	<b>Argentina</b>	0.830
49	<b>Rossiya</b>	0.824

50	<b>Belarus</b>	0.817
51	<b>Qozog‘iston</b>	0.817
52	<b>Bolgariya</b>	0.816
53	<b>Chernogoriya</b>	0.816
54	<b>Ruminiya</b>	0.816
55	<b>Palau</b>	0.814
56	<b>Barbados</b>	0.813
57	<b>Quvayt</b>	0.808
58	<b>Urugvay</b>	0.808
59	<b>Turkiya</b>	0.806
60	<b>Bagam orollari</b>	0.805
61	<b>Malayziya</b>	0.804
62	<b>Seyshel orollari</b>	0.801

#### INSON TARAQQIYOTI INDEKSI YUQORI BO‘LGAN MAMLAKATLAR

O‘RIN	MAMLAKAT	INSON TARAQQIYOTI INDEKSI
63	<b>Serbiya</b>	0.799
64	<b>Trinidad va Tobago</b>	0.799
65	<b>Eron</b>	0.797
66	<b>Mavrikiy</b>	0.795
67	<b>Panama</b>	0.795
68	<b>Kosta-Rika</b>	0.794
69	<b>Albaniya</b>	0.791
70	<b>Gruziya</b>	0.786
71	<b>Shri-Lanka</b>	0.780
72	<b>Kuba</b>	0.778
73	<b>Sent-Kits va Nevis</b>	0.777
74	<b>Antigua va Barbuda</b>	0.776
75	<b>Bosniya va Gersegovina</b>	0.769
76	<b>Meksika</b>	0.767

77	<b>Tailand</b>	0.765
78	<b>Grenada</b>	0.763
79	<b>Braziliya</b>	0.761
80	<b>Kolumbiya</b>	0.761
81	<b>Armaniston</b>	0.760
82	<b>Jazoir</b>	0.759
83	<b>Makedoniya</b>	0.759
84	<b>Peru</b>	0.759
85	<b>Xitoy</b>	0.758
86	<b>Ekvador</b>	0.758
87	<b>Ozarbayjon</b>	0.754
88	<b>Ukraina</b>	0.750
89	<b>Dominikan</b>	0.745
90	<b>Sent-Lyusiya</b>	0.745
91	<b>Tunis</b>	0.739
92	<b>Mongoliya</b>	0.735
93	<b>Livan</b>	0.730
94	<b>Botsvana</b>	0.728
95	<b>Sent-Vinsent</b>	0.728
96	<b>Yamayka</b>	0.726
97	<b>Venesuella</b>	0.726
98	<b>Dominika</b>	0.724
99	<b>Fidji</b>	0.724
100	<b>Paragvay</b>	0.724
101	<b>Surinam</b>	0.724
101	<b>Iordaniya</b>	0.723
103	<b>Beliz</b>	0.720
104	<b>Maldiv</b>	0.719
105	<b>Tonga</b>	0.717
106	<b>Filippin</b>	0.712
107	<b>Moldova</b>	0.711
108	<b>Turkmaniston</b>	0.710

109	<b>O'zbekiston</b>	0.710
110	<b>Liviya</b>	0.708
111	<b>Indoneziya</b>	0.707
112	<b>Samoa</b>	0.707
113	Janubiy Afrika	0.705
114	<b>Boliviya</b>	0.703
115	<b>Gabon</b>	0.702
116	<b>Misr</b>	0.700

#### **INSON TARAQQIYOTI INDEKSI O'RTACHA BO'LGAN MAMLAKATLAR**

<b>O'RIN</b>	<b>MAMLAKAT</b>	<b>INSON TARAQQIYOTI INDEKSI</b>
106	Marshal orollari	0.698
107	<b>Vietnam</b>	0.693
108	<b>Falastin</b>	0.690
109	<b>Iraq</b>	0.689
110	<b>Marokash</b>	0.676
110	<b>Qirg'iziston</b>	0.674
112	<b>Gayana</b>	0.670
113	<b>Salvador</b>	0.667
114	<b>Tojikiston</b>	0.656
115	<b>Kabo-Verde</b>	0.651
116	<b>Gvatemala</b>	0.651
116	<b>Nikaragua</b>	0.651
116	<b>Hindiston</b>	0.647
119	<b>Namibiya</b>	0.645
120	<b>Timor-Leshti</b>	0.626
121	<b>Gonduras</b>	0.623
122	<b>Kiribati</b>	0.623
123	<b>Butan</b>	0.617
124	<b>Bangladesh</b>	0.614

125	<b>Mikroneziya</b>	0.614
126	<b>San-Tome va Prinsipi</b>	0.609
127	<b>Kongo</b>	0.608
128	<b>Svazilend</b>	0.608
129	<b>Laos</b>	0.604
130	<b>Vanuatu</b>	0.597
131	<b>Gana</b>	0.596
132	<b>Zambiya</b>	0.591
133	<b>Ekvatorial Gvineya</b>	0.588
134	<b>Myanma</b>	0.584
134	<b>Kambodja</b>	0.581
136	<b>Keniya</b>	0.579
137	<b>Nepal</b>	0.579
138	<b>Angola</b>	0.574
139	<b>Kamerun</b>	0.563
140	<b>Zimbabve</b>	0.563
141	<b>Pokiston</b>	0.560
142	<b>Solomon orollari</b>	0.557

**“Iqtisodiy xavfsizlik” fanidan talabalar bilimini baxolash mezonlarini qo`llash  
bo`yicha ko`rsatmalar**

Menejmetga kirish fanidan talabalalarni bilimini baholash O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentabrda 3069 sonli raqam bilan ro‘yxatga olingan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi” Nizomga asosan amalga oshiriladi. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimini belgilaydi.

Fandan talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo‘limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikmalarini baholash maqsadida o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘tkaziladi.

Oraliq nazorat turi har bir fan bo‘yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2-martagacha o‘tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat turini o‘tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanadi.

Oraliq nazorat turini o‘tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanadi.

Oraliq nazorat turining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladi va mazkur kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Talabani oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda, uning o‘quv mashg‘ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tegishli fan bo‘yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini o‘zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Yakuniy nazorat turini o‘tkazish shakli tegishli fan bo‘yicha kafedra tomonidan belgilanadi. Yakuniy nazorat turi oliy ta’lim muassasasining tegishli fakultet dekani yoki o‘quv-uslubiy bo‘lim tomonidan ishlab chiqiladigan hamda o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadigan Yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish jadvaliga muvofiq o‘tkaziladi.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a’lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Nazorat turlarini o'tkazish bo'yicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni talabaning o'zlashtirishini xolis (obyektiv) va aniq baholash imkoniyatini berishi shart.

Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirot etishi taqiqlanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazishda kelishuv asosida boshqa oliv ta'lim muassasalarining tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchilari jalg qilinishi mumkin.

Komissiya tarkibi tegishli fan professor-o'qituvchilari va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Komissiya tarkibiga kelishuv asosida boshqa tashkilotlarning soha mutaxassislari ham jalg qilinishi mumkin.

Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdar hisoblanadi.

Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Bir kunda 1 tadan ortiq fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Yakuniy nazorat turlarini o'tkazish kamida 2 kun oralig'ida belgilanishi lozim.

Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o'ta olmagan taqdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinci marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o'tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash natijasidan norozi bo'lgan talabalar fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellatsiya komissiyasiga appellatsiya berish huquqiga ega. Appellatsiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirot etmagan tegishli fan professor-o'qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to'rt nafar a'zo kiritiladi. Talaba baholash natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, baholash natijasi e'lon qilingan vaqt dan boshlab 24 soat davomida appellatsiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan appellatsiya Apellatsiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqilishi lozim. Talabaning appellatsiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirot etish huquqiga ega. Appellatsiya komissiyasi talabaning appellatsiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi

bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o‘zlashtirgani yoki o‘zlashtira olmagani ko‘rsatiladi. Apellatsiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta’minlaydi.

Talabalar bilimini baholash tegishli fan bo‘yicha professor-o‘qituvchi tomonidan Talabalarning fanlarni o‘zlashtirishini hisobga olish jurnalida (bundan buyon matnda Jurnal deb yuritiladi) qayd etib boriladi. Professor-o‘qituvchi qo‘sishma ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.


---

---

## **TARQATMA MATERIALLAR**

---

## Iqtisodiy xavfsizlikning maqsad va vazifalari



«Iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasi, albatta, «bardoshlilik»ni taqozo etadi. Iqtisodiyotning iqtisodiy bardoshliligi uning tarkibiy unsurlari, tizim ichidagi vertikal, gorizontal va boshqa aloqalarning mustahkam hamda ishonchliliginи, «ichki» va «tashqi» bosimga chidamliliginи aks ettiradi

### Iqtisodiy xafsizlik


Iqtisodiy mustaqillik

Milliy iqtisodiytni barqarorligi

O'z – o'zidan rivojlantirish va taraqqiy etishga qodirlilik

Iqtisodiy xavfsizlikka ichki va tashqi taxdidlar. ehtiyojlar ierarxiyasi kalit so'zlar:

motivatsiya, ehtiyojlar ierarxiyasi, manfaat, tashqi va ichki sharoitlar



Manfaatni ro'yobga chiqarish uchun ichki - sharoitlarga shaxsning rivojlanishi, konstitutsion tuzumning mustahkamlanishi, mamlakat hududlarining yaxlitligi va bo'linmasligini ta'minlash hamda xo'jalik va boshqa faoliyatlar kiradi.



**Xo'jalik va boshqa faoliyatlar:**


- favqulodda vaziyatlar
- tabiiy ofatlar
- falokatlar ta'sirida vujudga keladigan noxush ekologik holatlardan **kishilar salomatligini saqlash kiradi.**



Tashqi sharoitlarga - sherikchilik va o'zaro hamkorlik asosida xalqaro aloqalarning samarali tizimini shakllantirish va rivojlantirish, tashqi agressiyalarni qaytarish imkoniyatlarini ta'minlash, o'zining iqtisodiy, harbiy-siyosiy, intellektual salohiyatiga mos ravishda xalqaro hamjamiyatda o'ziga munosib o'ringa ega bo'lish kiradi.



## Bardoshlilik



## Jadval destruktiv omillar

Iqtisodiy Xavfsizlikka  
ta'sir ko'rsatuvchi  
destruktiv omillarning  
turlari

Tahlikalar

Qarshiliklar

Tahdidlar

## TASHQI TAHDID OMILLARI

Eksport tarkibida xomashyo mahsulotlarining ustuvorligi

Tashqi qarzlarning o'sib borishi

An'anaviy harbiy va mashinasozlik mahsulotlari bozorlaridan mahrum bo'lish

Eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi

Mamlakatning import mahsulotlariga qaramligi

Bojxona chegaralarining yetarli darajada belgilanmaganligi

## Tahdid ob'ektlari



## **Mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun birinchi navbatda amalga oshirish kerak bo'lgan tarkibiy o'zgarishlar**

Ishlab chiqarish bilan talab tarkibi  
o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash

O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha  
Harakatlar strategiyasi

Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish,  
real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash,  
iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va  
texnologik yangilash masalalarni o' ichiga olgan

O'zbekiston Respublikasi  
iqtisodiy xavfsizligiga  
ichki tahdidlar

Ishlab  
chiqarish va  
texnologik  
tavsifdagi  
tahdidlar

Moliyaviy  
tahdidlar

Tashkiliy  
huquqiy  
tahdidlar

Ijtimoiy  
sohadagi  
tahdidlar



**2.4-rasm. Mamlakat iqtisodiy xavfsizlik tizimi.**


### **Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi tizimni amalga oshirish asoslari**

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi butun tizimning amaliy xatti-harakatini rejalashtirish, tashkillashtirish, va amalga oshirish.

**Tahdid konsepsiyasini tahlil qilish**


Ichki va tashqi xatar hamda tahdidlarning inqirozli vaziyatlarini hamda boshqa nojo'ya omillarning real va potensial (salohiyatli) tavsiflarni baholash

## O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash mexanizmining asosiy funksiyalari



Iqtisodiy xavfsizlik tizimini qurish jarayoni asosiy mezon va tushunchalarga ko‘ra yettita blokdan iborat.





## O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash mexanizmining asosiy funksiyalari

Himoyalovchi

Tartibga soluvchi

Innovatsion iqtisodiyot

Ogohlantiruvchi

Ijtimoiy –shaxsni,  
jamiyatni va davlatni  
rivojlantirish

## Tahdidlarni tasniflanishi

Nº	Tasniflash belgilari	Tahdidning nomi
1	Vujudga kelish manbalari	Ichki va tashqi
2	Amalga oshirish ehtimoli	Real va potensial (salohiyatli)
3	Hujum qilish obyekti	Axborot, xodimlar, moliya, tovar-moddiy boyliklar, ishchanlik borasidagi obro‘ - e’tibor va boshqalar
4	Bashorat qilish imkonining mavjudligi	Bashorat qilinadigan, bashorat qilib bo‘lmaydigan
5	Ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararning miqdori	Halokatli, ahamiyatli darajada, qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan

## **Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda — xo'jalik subyektining moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: (1)**

Korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti, korxona aylanma aktivlarining umumiyligi aktivlar summasiga nisbati;

Joriy likvidlik ko'rsatkichi;

O'z kapitalining rentabelligi;

Umumiyligi to'lovga qodirligini ko'rsatkichi, aktivlar bozor qiymatining xo'jalik subyektining barcha majburiyatlariga nisbati;

## **Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda — xo'jalik subyektining moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: (2)**

Kapitallashtirish koeffitsiyenti, bozor qiymatidagi o'z kapitalining qarz mablag'larining balans qiymatiga nisbati;

Menejment koeffitsiyenti, sotishdan olingan pul tushumining joriy majburiyatlar miqdoriga nisbati.

## Xavfsizlik tizimi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

Korxona obyektlarini, boshqaruvchi rahbarlarning shaxsiy daxlsizligini hamda pul mablag'larini saqlash uchun qo'riqchi-qorovullik xizmatini tashkil etish;

Korxonaning informatsion jihatdan himoyalanishini ta'minlaydigan analitik xizmatni tashkil etish. Uning vazifalari ichida razvedka va kontrrazvedka bilan shug'ullanishni tashkil etish uchun strategik muhim subyektlar bilan ishlash.

Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasi turlari

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid solayotgan xavflarni yo'qotish yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarga yo'l qo'ymaslik

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid solayotgan xavflarni yo'qotish yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlardan keladigan zararlarga yo'l qo'ymaslik

Iqtisodiy xavfsizlikka bo'lgan xavf-xatarlar natijasida vujudga kelgan zararlarni qoplash

Innovasiyalarning hozirgi zamон nazariyasida "yangilik" va "innovasiya" atamalari o‘rtasida farqqa unchalik e’tibor qaratilmaydi, ulardan amalda sinonim tushunchalar sifatida foydalilaniladi. Ta’kidlash lozimki, innovasiyalarning yangilik (novasiya)dan asosiy farqlovchi jihat-innovasiyalar yangiliklarni birinchilardan bo‘lib amaliyotga joriy etilishini nazarda tutadi.

Novasiya -  
Yangilik



Innovasiya -  
Yangiliklarni joriy  
etish

Бозорларнинг резонансли бекарорлиги туфайли вужудга келган таҳдидлар

Ички таҳдидлар

Объектив таҳдидлар

Ташқи таҳдидлар

Иқтисодий таҳдидлар

Субъектив таҳдидлар

Салбий иқтисодий ривожланиш тентенциялари туфайли вужудга келган таҳдидлар

1-расм. Реал сектор иқтисодий хавфсизлигига таҳдидлар<sup>3</sup>

## **Xavfsizlik tizimi o'z ichiga quyidagilarni oladi:**

Korxona obyektlarini, boshqaruvchi rahbarlarning shaxsiy daxlsizligini hamda pul mablag'larini saqlash uchun qo'riqchi-qorovullik xizmatini tashkil etish;

Korxonaning informatsion jihatdan himoyalanishini ta'minlaydigan analitik xizmatni tashkil etish. Uning vazifalari ichida razvedka va kontrrazvedka bilan shug'ullanishni tashkil etish uchun strategik muhim subyektlar bilan ishlash.

# **INNOVATION XAVFSIZLIKKA**

## **TAHDIDLAR**

## **Инновацион иқтисодиётни ривожланиши омиллари**



**Инновацион  
риволаниш  
модели**

**Етиб олиш  
модели**



## Energetik xavfsizlikni ta'minlash modeli

### Energetik xavfsizlik



13.1-rasm. O'zbekistonning energetik xavfsizlik modeli.

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakatni mavjud salohiyatlar, resurslar bilan ta'minlash va aholini ichki va tashqi sharoitlarga bog'liq bo'limgan holda ilmiy jihatdan asoslangan tibbiy me'yorlar darajasida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni kafolatlashdir.





Jaxonda aholi uchun yetishtiriladigan oziq-ovqatlarning 90,11 % quruqlikni egallagan ekinzorlardan olinadi. Bundan tashqari juda katta oziq-ovqat resurslarini o'zida saqlayotgan dunyo okeani ham mavjuddir.



#### Davlat oziq-ovqat xavfsizligining konseptual modeli

<b>Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi</b>	
Mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarning mamlakat aholisini, minimal tibbiy me'yorlarga muvofiq hajm va kaloriyalarda oziq-ovqat bilan ta'minlash qobiliyati, urush, qurolli mojarolar va boshqa favqulodda hodisalarda mustaqillikni saqlash	
<b>Maqsad</b>	
Resurslardan oqilonha foydalangan holda oziq-ovqat barqaror ishlab chiqarilishini ta'minlash	
<b>Mezon</b>	
Mahalliy ishlab chiqarish hisobiga aholini talab qilingan darajadan kam bo'Imagan o'lchamda oziq-ovqat bilan ta'minlash	
<b>Obyektlar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>– oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarish va taqsimlash milliy tizimlari</li> <li>– qishloq xo'jaligi yerlari, baliq xo'jaliklari va h.k.</li> </ul>	
<b>Subyektlar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>– ishlab chiqaruvchilar</li> <li>– iste'molchilar</li> <li>– funksional va tarmoq vazirliliklari va muassasalar</li> <li>– tarmoq ishbilarmonlari uyushmalar</li> <li>– iste'molchilar birlashmalari</li> </ul>	
<b>Xavflar</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>– iqtisodiyotning agro oziq-ovqat sektorida boshqaruvni yo'qotish</li> <li>– agro oziq-ovqat ishlab chiqarishidagi inqiroz hodisalari</li> <li>– tashqi ekspansiya</li> <li>– qishloq xo'jaligi yerlarining antropogen buzilishi</li> <li>– dehqonchilikning hududiy tavakkalchiligi</li> <li>– qishloqda mehnat resurslari salohiyatining yo'qligi</li> <li>– aholi xarid qobiliyatining pasayishi</li> </ul>	

### Oziq-ovqat xavfsizligi darajalari

Daraja	Muammoni hal qiluvchi subyekt	Subyekt funksiyalari
<b>Global</b>	BMT va ixtisoslashtirilgan organlar (JSST, FAO Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qo'mita, Jahan banki va h.k.)	Barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish, ocharchilik bilan kurashishning uzoq muddatli dasturlari, oziq-ovqat zahiralarini yaratish
<b>Submintaqaviy</b>	Tegishli organlarga ega mintaqalararo tashkilotlar, forumlar	Barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish, oziq-ovqatning sifat parametrlarini yaxshilash
<b>Millatlararo (davlatlararo)</b>	Mintaqaviy uyushmalar va tegishli boshqaruv organlari (yaxshi tashkil etilmagan, YeH bundan mustasno)	Savdo, narxlar, standartlashtirish bo'yicha bitimlarni tuzish va birgalikda kelishilgan holda harakat qilish
<b>Davlat</b>	Hukumatlar, qonunchilik organlari	Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun qonuniy, me'yoriy-huquqiy va resurs

### Oziq-ovqat xavfsizligi darajalari

		bazasini yaratish, tegishli jamg'armalar va ularning zahiralarini shakllantirish Oziq-ovqatning sifat parametrlarini oshirish yo'nalishlarini aniqlash Ichki bozorning talab va taklif bo'yicha muvozanatlashishi uchun chora-tadbirlar qabul qilish
<b>Mahalliy</b>	Hududiy boshqaruv organlari (viloyat, tuman)	Uy xo'jaliklarida daromad olish uchun sharoitlarni yaratish Oziq-ovqat bilan ta'minlash
<b>Aholi guruhlari</b>	Daromadlar guruhlari bo'yicha uy xo'jaliklari	Oqilona iste'molni ta'minlaydigan daromadlarga erishish
<b>Oila</b>	Uy xo'jaliklari	Qo'shimcha daromad manbayini topish, oziq-ovqat mahsulotlari va hokazolami xarid qilish

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi zaharli moddalar miqdori sanoat va bozor laboratoriyalarida mukammal tahlil qilinadi, desak noto‘g‘ri bo‘ladi. Buning sababi, eng avvalo, malakali mutaxassislarning va zamonaviy tahlil asboblarining yo‘qligidir.



BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (Food and Agriculture Organization, FAO)ga 1945-yil 16-oktabrda asos solingan. Tashkilotga 197 ta davlat (2013-yil 15-iyun holatiga) a’zo. FAONing faoliyati qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ko‘maklashish, ovqatlanishni yaxshilash va oziq-ovqat xavfsizligini hal etish yo‘li orqali dunyoda ochlik va qashshoqlik muammosining keskinligini kamaytirishga yo‘naltirilgan.



Oziq-ovqat sanoatida zarur bo'lgan bo'yoqlar qizil atirgul, lavlagi, qovun, piyoz, sabzi, qovoq va boshqa o'simliklardan olinadi. Pasta sifatida foydalaniladigan bunday bo'yoqlar karamel ishlab chiqarishda, marmelad tayyorlashda va boshqa sohalarda qo'llaniladi.



Oziq-ovqat muammosini hal etishda qoldiq mahsulotlar, ikkilamchi resurslarni ishga solish katta samara beradi. Meva, sabzavot, sut, yog' kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini buzilishdan saqlash, xom ashyodan oqilona foydalanilgan holda mahsulot tayyorlash, oziq mahsulotlarini kompleks qayta ishlash zarur vazifa bo'lib qoldi.



# Озиқ-овқат глобал индекси

Rank (113 countries)	Overall score	Affordability	Availability	Quality and Safety	Sustainability and Adaptation
		▼	△	△	△
51 <sup>st</sup> Serbia	61.4	81.5	49.3	72.6	37.0
62 <sup>nd</sup> Tunisia	60.3	74.5	54.1	58.8	49.7
63 <sup>rd</sup> Indonesia	60.2	81.4	50.9	56.2	46.3
=64 <sup>th</sup> Thailand	60.1	83.7	52.9	45.3	51.6
=64 <sup>th</sup> Colombia	60.1	64.6	54.6	63.3	56.9
66 <sup>th</sup> Azerbaijan	59.8	78.1	56.2	54.5	44.6
67 <sup>th</sup> Philippines	59.3	71.5	55.2	65.3	41.8
=68 <sup>th</sup> Algeria	58.9	66.8	57.3	54.7	54.2
=68 <sup>th</sup> India	58.9	59.3	62.3	62.1	51.2
70 <sup>th</sup> Paraguay	58.6	74.3	47.0	76.3	32.8
71 <sup>st</sup> Ukraine	57.9	66.6	48.1	71.3	43.5
72 <sup>nd</sup> Myanmar	57.6	62.1	53.5	64.4	49.0
73 <sup>rd</sup> Uzbekistan	57.5	52.7	56.4	64.6	57.9
74 <sup>th</sup> Nepal	56.9	52.7	70.9	57.8	46.2
75 <sup>th</sup> Tajikistan	56.7	59.8	56.3	56.5	53.1
76 <sup>th</sup> Nicaragua	56.6	64.4	50.2	57.5	52.7
77 <sup>th</sup> Costa Rica	56.6	66.2	51.2	45.8	55.0

Transport соҳасидаги иқтисодий хавфсизлик

- бу transport тизимининг фаолияти мамлакат иқтисодиётининг барқарорлиги ва самарадорлигини таъминлайдиган ҳолати.

Бу transport инфратузилмасини ҳимоя қилиш, transport воситаларининг ишончлилиги ва хавфсизлигини таъминлаш, ресурслардан самарали фойдаланиш ва transport жараёнларини оптималлаштиришни ўз ичига олади.



Transport соҳасида иқтисодий хавфсизликни таъминлаш давлат, transport компаниялари ва transport тизимининг бошқа иштирокчилари учун муҳим вазифа ҳисобланади. Бу иқтисодиётнинг ривожланишини ва барқарорлигини таъминлаш, фуқаролар ва товарларнинг хавфсизлиги, transport жараёнларининг самарадорлигини ошириш имконини беради.



Transport инфратузилмаси-бу барча турдаги transport ва transport тузилмаларининг жамланмаси бўлиб, уларнинг фаолияти иқтисодиётнинг барча тармоқлари фаолияти учун қулай шарт-шароитларни яратишга қаратилган

#### Транспорт инфратузилмаси



\*Республика миқёсидаги автомобй ўйллари  
\*Темир йўл занжири  
\*Халқаро аэропорт  
\*Денгизга чиқиш ва сув йўллари





## **2023 — 2026 йилларда темир йўл транспорти соҳасини ислоҳ қилиш бўйича «ЙЎЛ ХАРИТАСИ»**

замонавий корпоратив бошқарувни жорий этиш учун нуфузли халқаро консалтинг ташкилотлари ва консультантларни тўғридан-тўғри жалб қилиш.

6 та юқори тезликда ҳаракатланувчи электропоездларни харид қилиш бўйича «Hyundai Rotem» (Жанубий Корея) компанияси билан тўғридан-тўғри шартнома тузиш;


Марказий вокзалларнинг кириш жойларигача барча турдаги йўловчи автотранспорт воситаларининг киришига рухсат бериш бўйича таклиф ишлаб чиқиш.

«Ўзбекистон темир йўллари» АЖ ва «Rhenus Group» компанияси (Германия) томонидан қўшма корхона ташкил этган ҳолда Андижон логистика маркази худудида халқаро стандартларга мувофиқ логистика марказини куриш бўйича бошқарув органлари қарорини қабул қилиш.

**Dunyo suv zahirasining 96 foizdan ortig'i sho'rlangan.**

**Chuchuk suvlarning 68 foizdan ortig'i muzliklarda jamlangan, yana 30 foiz chuchuk suv yerostidadir.**


**Daryo va ko'llar kabi yerusti chuchuk suv manbalarini jami suvni bir foizidan kam qismigagina to'g'ri keladi holos.**



## Axborot xavfsizligi

Axborotning muhimlik darajasi qadim zamonlardan ma'lum. Shuning uchun ham qadimda axborotni himoyalash uchun turli xil usullar qo'llanilgan. Ulardan biri – sirli yozuvdir.



6, 151, 28, 125, 241, 508, 326, 278, 95, 814, 240, 511, 45  
8, 94, 146, 39, 159, 74, 46, 69, 240, 45, 8, 121, 26, 176  
5, 217, 27, 21, 84, 35, 54, 109, 128, 49, 77, 88, 1, 81,  
218, 240, 184, 116, 213, 196, 325, 94, 210, 916, 80, 75, 4  
98, 314, 237, 254, 96, 11, 29, 97, 314, 238, 106, 24, 95  
, 264, 19, 22, 84, 56, 107, 98, 123, 111, 214, 136, 7, 33  
219, 18, 212, 250, 50, 96, 320, 65, 48, 32, 39, 40, 121, 95  
33, 46, 50, 61, 24, 112, 136, 140, 176, 880, 146, 23  
, 16, 95, 8, 113, 175, 90, 56, 203, 19, 177, 109, 206, 19  
164, 96, 83, 51, 64, 96, 207, 244, 66, 62, 119, 8, 11  
84, 78, 79, 96, 141, 216, 219, 55, 69, 17  
11, 18, 52, 76, 10, 15, 23, 18, 71, 84, 120, 124, 55, 73



Bugungi globallashuv jarayoni kimki axborotga egalik qilsa, o'sha dunyoga hukmronlik qiladi, degan fikr bejizga aytilmaganligini tasdiqladi.

Globallashuv jarayoni avj olgani sari odamlarning axborot olish, tarqatish va qabul qilishga bo'lgan talab va ehtiyojlari tobora ortib bormoqda.





**Axborot xavfsizligi deb, ma'lumotlarni yo'qotish va o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiiy yoki sun'iy xossali tasodifiy va qasddan ta'sirlardan xar qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligiga aytildi.**



Ilgarigi xavf faqatgina konfidensial (maxfiy) xabarlar va xujjatlarni o'g'irlash yoki nusxa olishdan iborat bo'lsa, hozirgi paytdagi xavf esa kompyuter ma'lumotlari to'plami, elektron ma'lumotlar, elektron massivlardan ularning egasidan ruxsat so'ramasdan foydalanishdir. Bulardan tashqari, bu xarakatlardan moddiy foyda olishga intilish ham rivojlandi.

### **Axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'llari**



1. Axborotni himoyalash konsepsiysi
2. Axborot himoyasining strategiyasi va arxitekturasi.
3. Axborot xavfsizligining siyosati.

